O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALK TA’LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

Pedagogika tarixi fanidan
O’QUV USLUBIY MAJMUA

5141000 – Musiqa ta’limi **bakalavr ta’lim yo’nalishi**
II – kurs talabalari uchun

Tuzuvchi: o’q.Farsaxonova D.R.

Jizzax – 2014

M U N D A R I J A

№	Meyoriy xujjatlar nomi	Bet
1	Titul farag'i	1
2	Mundarija	2
	I qism. Oliy o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlangan o'quv-metodik xujjatlar va adabiyotlar	4
	1.1.O'quv – meyoriy hujjatlar.	
1.1.1.	Davlat ta'lim standarti.	5
1.1.2.	O'quv reja	31
1.1.3.	O'quv dastur	35
1.1.4.	Moddiy-texnik va o'quv-metodik ta'minotga qo'yiladigan talablar.	45
1.1.5.	Malakaviy amaliyot dasturi	
	1.2. Oliy va maxsus ta'lim vazirligi grifini olgan o'quv adabiyotlari	
1.2.1.	Darslik	49
1.2.2.	O'quv qo'llanmasi	-
1.2.3.	Metodik qo'llanmalar	-
	II qism. Joriy o'quv – metodik taminot	
	2.1.Joriy o'quv meyoriy hujjatlar.	
2.1.1.	Ishchi o'quv rejasi	
2.1.2.	Ishchi o'quv dasturi	228
2.1.3.	Kalentar tematik rejasi	239
	2.2. Joriy o'quv – metodik ta'minot.	343
2.2.1	Leksiyalar matni.	343
2.2.2.	Laboratoriya, amaliyot va seminar mashg'ulotlarning ishlanmalari, tarqatma materiallar, ularni o'tkazish va qo'llash bo'yicha metodik tavsiyanomalari.	386
2.2.3.	J.N, O.N, Ya.N bo'yicha ballar taqsimoti va topshiriqlar mazmuni, baholash mezonlari ON va YaN savolnomalari (intelektual tizim, testlar, yozma ish va og'zaki so'rov variantlari).	418
2.2.4.	Mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha metodik tavsiyanomalari.	427
2.2.5	Mashg'ulotlarda pedagogika va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha metodik tavsiyanomalar.	528
2.2.6.	Kurs ishlari mavzulari, ularni baholash	

mezonlari.
2.2.7. Bitiruv malakaviy ishi mavzulari banki va uni bajarish bo'yicha metodik tavsiyanoma. 541
2.2.8. Malakaviy (pedagogik) amaliyotni o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyanoma. 552
2.2.9. Fan bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy ishlari va ularni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyanoma. 564

I qism. Oliy o’rta maxsus ta’lim vazirligi tasdiqlangan o’quv-metodik xujjatlar va adabiyotlar

1.1. O’quv –me’yoriy hujjatlar

1.1.1. Davlat ta’lim standarti.

Qayd raqami

_____

O’ZBEKISTON DAVLAT STANDARTI
O’zbekiston uzluksiz ta’limi davlat standartlari tizimi

OLIY TA’LIM

***5141000 – Musiqa ta’limi* ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo’yiladigan TALABLAR**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2008 y.

UDT

_____

1. Ishlab chiquvchilar:

Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markazi;

Toshkent davlat pedagogika universiteti.

2. Respublikaning kadrlar iste’molchi korxona va tashkilotlari, Fanlar Akademiyasining tarmoq institutlari. Manfaatdor oliy ta’lim muassasalari bilan kelishilgan.

3. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2008 yil « _»_____dagi ___ - sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan va amalga kiritilgan.

4. Standartning amal qilish muddati - 5 yilgacha.

Ushbu standart O’zstandart agentligining ruxsatisiz ko’paytirilishi va tarqatilishi mumkin emas.

Mundarija

bet

1.*5141000 – Musiqa ta'limi* ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi 7

2. *5141000 – Musiqa ta'limi* yo'nalishi zaruriy bilimlar mazmuni va bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar 8

3. Ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari 13

4. Bakalavrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va baholash 16

5. Eslatma 29

6. Ilova 16

1. *5141000 – Musiqa ta'limi* ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

1.1 Yo'nalish O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari, Oliy ta'lim Davlat ta'lim standarti, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatoriga kiritilgan.

1.2. Ta'limning kunduzgi o'qish shakli me'yoriy **muddati – 4 yil.** Akademik darajasi – **«Bakalavr»**.

1.3. Bakalavr:

- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlash;
- ta'lim yo'nalishi hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarining tegishli magistratura mutaxassisliklari bo'yicha oliy ta'limni davom ettirish;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olishga **tayyorlangan bo'lishi shart.**

1.4. *5141000 – Musiqa ta'limi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrning kasbiy faoliyat doirasi va obektlari tavsifi

1.4.1. Yo'nalishning ta'lim sohasidagi o'rni

5141000 – Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi san'at va ta'lim sohasida umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlarida va maktabdan tashqari tashkilotlarda musiqiy ta'lim va estetik tarbiya beruvchi o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik faoliyat uchun lozim bo'lgan bevosita usul, metod va yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

1.4.2. Kasbiy faoliyat obektlari

5141000 – Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrning kasbiy faoliyati obektlari: umumiy ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, ta'lim-tarbiya jarayoni, pedagogik texnologiya va ta'lim metodlari.

1.4.3. Kasbiy faoliyat turlari

5141000 – Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

- *o'qituvchilik:* akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari,umumta'lim maktablarida musiqa fanlari o'qituvchisi;
- *tarbiyachilik:* maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat;
- *o'quv-metodik:* ushbu yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;
- *ilmiy-tadqiqot:* o'quv jarayoni bilan bog'liq jarayonni o'rganuvchi ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashish vazifalarini bajarishi mumkin.

1.4.4. Kasbiy moslashuchanlik imkoniyatlari.

5141000 – Musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

- **boshqaruv:**
- **madaniy-oqartuv** ishariga moslashuvi mumkin.

1.5. Ta'limni davom ettirish imkoniyatlari

5141000 – Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr quyidagi:

5A141101 – Musiqa ta'limi

5A140801 – Pedagogika

5A140802 – Psixologiya

5A140803 – Ta'lim tizimi menejmenti

5A210605-Vokal san'atini o'qitish metodikasi

5A210707-Cholg'u ijrochiligini o'qitish metodikasi mutaxassisliklari hamda ta'limning vakolatli organi tomonidan aniqlanadigan turdosh yo'nalishlar mutaxassisliklari bo'yicha ikki yildan kam bo'lmagan muddatda magistraturada o'qishni davom ettirish mumkin.

2. *5141000 – Musiqa ta'limi* yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

2.1. Bakalavr tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablar

Bakalavr:

- dunyoqarash xarakteridagi sistemali bilimlarga ega bo'lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- sog'lom hayot tarzini yuritish zaruriyati bo'yicha ilmiy tasavvur va e'tiqodga ega bo'lishi, o'z-o'zini jismoniy chiniqtirishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlarni qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim.

2.2. Kasbiy malakaviy talablar

Bakalavr:

- *nazariyani amaliyotga tatbiq etish bo'yicha:* musiqa nazariyasi va tarixi, o'zbek klassik va zamonaviy musiqaga oid bilimlarni egallash, musiqa ilmi va amaliyotining dolzarb masalalarini ilg'ay olish va o'kuvchilarga etkaza olishi;
- *metod va texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha:* an'anaviy va noan'anaviy metodlar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni fan va mavzularni o'tish chog'ida tanlay olishi, o'z fanida metod va texnologiyalarni ijodiy qo'llay olishi, faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olishi;
- *ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish bo'yicha:* har bir mavzuning ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik, psixologik xususiyatlarini yorita olishi, o'qitishning ilmiy asoslarini tahlil qilib borishi, metodik birlashmalarda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunida fanning o'rnini belgilay olishi va uning ilmiy muammolari bo'yicha pedagogik o'qishlarda ma'ruzalar o'qishi, maktab, akademik lisey va kasb-hunar kollejlarida differensial ta'limni yo'lga qo'ya olishi, o'quv jarayoni bilan bog'liq barcha hujjatlarni yurita olishi;
- *ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha:* har bir o'quvchining ruhiy, ahloqiy holatini bilishi, yakka tartibda o'quvchilar bilan va guruh bilan ishlay olishi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish, diniy ekstremizmga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;
- *o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish bo'yicha:* dars tiplarini bilish va ularni maqsadga muvofiq tashkil etishi, o'quv reja va fan dasturi, tematik rejani tayyorlay olishi ta'lim muassasasi metodik birlashmasi ishini rejalashtirish va rahbarlik qila olishi, dars jadvalining tuzilish tamoyillarini bilishi, ta'lim muassasasiga rahbarlik qilishni **bilishi kerak.**

Kasbiy mahorat bo'yicha o'z bilimi va ko'nikmasini egallagan lavozimida mustaqil faoliyat ko'rsatish talablariga **javob berishi kerak.**

2.3. Ta'lim dasturlari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar

2.3.3. Umumkasbiy fanlar bloki bo'yicha talablar

Psixologiya va pedagogika kursi

Umumiy psixologiya

umumiy psixologiya

Bakalavr:

- psixologiyaning tabiiy va ijtimoiy fan sifatida talqin qilinishi;
- psixologiyaning sohalari;
- psixologiya va falsafaning o'zaro aloqasi;
- psixologiya va ilmiy-texnik taraqqiyot;
- pedagog faoliyatida psixologiyaning etakchi ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- psixika tirik mavjudodning obektiv borliqni aks ettirish shakli ekanligi;
- psixika va ong munosabati;
- ulug' mutafakkirlarning psixologik qarashlari;
- psixologiyaning o'rganish metodlari;
- faoliyat va motivlar, faoliyatning asosiy turlari;
- refleksiya nazariyasi;
- odam psixikasining paydo bo'lishi;
- odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti;
- yuksak psixik funksiyalarining tarkib topishi;
- motivasiya sohalari;
- irodaviy harakatlar va uni boshqarish;
- individ, shaxs, individuallik;
- shaxs faoliyati;
- shaxsni eksperimental tadqiq qilish metodlari;
- muloqot va uning ko'p maqomli xarakteri;
- nutq va uning funksiyalari;
- diqqat, uning fiziologik mexanizmlari, turlari;
- sezgi va idrokning fiziologik asoslari;
- xotira nazariyasi;
- xayol va uning turlari;
- tafakkur va hissiy bilish;
- temperament nazariyasi, tiplari;
- xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bog'liqligi;
- qobiliyatning sifat va miqdor xarakteristikasi;
- iqtidorli bolalar va ularni tanlash;
- yosh psixologiyasining paydo bo'lishi;
- yosh psixologiyasini o'rganish metodlari;
- ta'limning yosh psixologiyasi taraqqiyotida tutgan o'rni;
- maktabgacha yosh davrini o'ziga xos xususiyatlari;
- kichik maktab yoshi bolalar psixologiyasi;
- o'smir va o'spirinlar psixologiyasi;
- ta'lim va aqliy taraqqiyot;
- o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan psixologik talablar;
- pedagogik qobiliyat va uning turlarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi****;*
- shaxs (o'quvchi)ning psixologik xususiyatlarini o'rganuvchi metod va texnologiyalar;
- o'quv jarayonini boshqarish;
- eksperimentlar o'tkazish;
- shaxs (o'quvchi) psixikasini taraqqiy etish jarayonlarini kuzatish;
- o'quv jarayonida turli anketa va boshqa usullarni qo'llay olish;

- psixologik ma’rifiy ishlarni tashkil etish ***ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim***.

yosh va pedagogik psixologiya

Bakalavr:

- umumiy psixologiya va yosh psixologiyasi;
- umumiy psixologiya va pedagogik psixologiya;
- fiziologik va psixologik rivojlanish jarayoni;
- yosh va pedagogik psixologiyaning o’qituvchi faoliyatida tutgan o’rni to’g’risida ***tasavvurga ega bo’lishi;***
- iqtidorli bolalar va ularni tanlash;
- yosh psixologiyasining paydo bo’lishi;
- yosh psixologiyasini o’rganish metodlari;
- ta’limning yosh psixologiyasi taraqqiyotida tutgan o’rni;
- maktabgacha yosh davrining o’ziga xos xususiyatlari;
- kichik maktab yoshi bolalar psixologiyasi;
- o’smir va o’spirinlar psixologiyasi;
- ta’lim va aqliy taraqqiyot;
- pedagogik qobiliyat va uning turlari;
- o’qituvchi shaxsiga qo’yiladigan psixologik talablarni ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo’llay olishi****;*
- bolalarning psixologiyasiga xos xususiyatlarni o’rganish bo’yicha eksperimentlar o’tkazish;
- bolalarning maktabga tayyorgarligi bo’yicha xulosa bera olish;
- insonning rivojlanish bosqichlaridagi psixologik o’zgarishlarini tadqiq qilish;
- pedagogik faoliyatda o’quvchilarning psixologik xususiyatlari, ulardagi turli jarayonlar bo’yicha maslahatlar olib borish;
- yosh psixologiyasi bo’yicha olib borilgan eksperiment va kuzatuvlarni rasmiylashtirish ***ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim***.

Umumiy pedagogika

pedagogika nazariyasi va tarixi

Bakalavr:

- ilmiy tadqiqot obektlari va metodlari;
- pedagogikaning ijtimoiy fan ekanligi;
- pedagogika fanining metodologiyasi;
- pedagogikaning jamiyatdagi o’rni;
- ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uning uzviyligi, uzluksizligi;
- pedagogika fanining asosiy rivojlanish bosqichlari.
- o’tmish va zamonaviy pedagogikaning asosiy yo’nalishlari;
- ilg’or pedagogik qarashlar;
- jahon ta’lim tizimi;
- pedagogikaning maqsadiga ko’ra turlari;
- pedagogik jarayondagi integrasiyalar to’g’risida ***tasavvurga ega bo’lishi;***
- O’zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi siyosati, kadrlar tayyorlash milliy modeli;
- ta’lim va tarbiyaning o’ziga xos xususiyatlari, birligi, differensiasiyasi, yagona pedagogik jarayon;
- XXI asr pedagogi obrazi;
- pedagogik antropologiya;
- ta’lim nazariyasi(didaktika)ning asosiy komponentlari: konsepsiyalari, paradigmalari;
- ta’lim prinsiplari;
- ta’lim metodlari, texnologiyalari;

- ta’lim turlari va bosqichlari;
- ta’limni tashxis qilish;
- tarbiya nazariyasining mohiyati;
- tarbiyaning mazmuni, prinsiplari;
- tarbiyada muhit (sosium), ruhiyat(psixologiya);
- tarbiya metodlari va texnologiyalari;
- maxsus pedagogikaning o’ziga xos xususiyatlari;
- tarbiya turlari;
- jamoada, oiladagi tarbiya hamda o’z-o’zini tarbiyalashning o’ziga xos xususiyatlari;
- O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi;
- ta’limni boshqarish shakllari;
- shaxsga ta’lim va tarbiya berish g’oyasining paydo bo’lishi;
- ta’lim va tarbiya to’g’risida Sharq va G’arb mutafakkirlarining qarashlari;
- tarbiya, maktab va pedagogik fikrning taraqqiy etish tarixi;
- jahon pedagogik jarayoni;
- O’zbekiston Respublikasida pedagogika fanining rivojlanishini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo’llay olishi****;*
- ta’lim va tarbiya jarayonida milliy g’oya va ma’naviyatimizning boy meroslaridan foydalanish;
- o’z pedagogik faoliyatini rejalashtirish;
- ta’lim muassasalarida o’qitish va tarbiyalashning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo’llash;
- o’quvchini rag’batlantirish, uning faoliyatini nazorat qilish, iste’dodi, iqtidorini ro’yobga chiqarish bo’yicha tadbirlar ishlab chiqish, ayni zamonda jazolashning zamonaviy shakllaridan foydalanish;
- o’quvchilar bilimini baholash;
- ota-onalar, jamoa, o’quvchilar bilan yakka va guruh bo’lib ishlash;
- o’quvchilar guruhlarini boshqarish ***ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim***.

pedagogik texnologiyalar

Bakalavr:

- ana’naviy o’qitish metodlari va pedagogik texnologiyalar;
- ta’lim jarayoni va texnologik jarayon;
- pedagogik faoliyat va ijod;
- ta’limda novatorlik;
- pedagog shaxsining imkoniyatlari;
- bilish jarayonini optimallashtirishda pedagogik texnologiyaning ahamiyati;
- pedagogik texnologiya tushunchasi va uning ta’riflari;
- pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalari to’g’risida ***tasavvurga ega bo’lishi;***
- pedagogik texnologiya jarayoni, uni loyihalash;
- pedagogik texnologiyani ta’minlovchi jihozlar, vositalar;
- texnologik jarayonlarning takomillashib borish tarixi;
- o’quvchi shaxsi va pedagogik jarayon;
- pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari;
- an’anaviy ta’lim metodlari va texnologiyalari;
- pedagogik jarayonni shaxsga yo’naltirilgan pedagogik texnologiyalar: hamkorlik pedagogikasi va b.;
- ta’lim oluvchilarning faoliyatini jonlantiruvchi pedagogik texnologiyalar;
- loyihalashtirish asosida o’quv jarayonini boshqarish texnologiyalari;
- modulli, interaktiv, o’yinli va boshqa texnologiyalar;

- rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo’llay olishi;***
- ta’lim oluvchilarning bilish qobiliyatlarini baholay olish;
- konkret vaziyatni hisobga olib, zarur bo’lgan texnologiyalarni tanlash;
- texnologik jarayonni loyihalash;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tahlil qilish, o’quv jarayoniga tatbiq etish;
- texnologik jarayonni sifatli tashkil etish;
- pedagogik texnologiya loyihalari, texnologik kartalarni ishlab chiqish;
- ta’lim oluvchilar bilimini aniqlash bo’yicha eksperiment o’tkazish, qayta aloqani ta’minlash ***ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim***.

pedagogik mahorat

Bakalavr:

- pedagog kasbining o’ziga xos xususiyatlari;
- pedagog shaxsi, uning jamiyatda tutgan o’rni;
- pedagog faoliyatining asosiy yo’nalishlari;
- kasbiy mahorat tushunchasi;
- pedagog va ta’lim sohasidagi axborot texnologiyalar;
- XXI asr pedagogiga qo’yiladigan asosiy talablar to’g’risida ***tasavvurga ega bo’lishi;***
- pedagogik fikr tarixida mahorat masalalari;
- pedagogik qobiliyat, uning turlari;
- pedagogning kommunikativ qobiliyati, uning vositalari;
- pedagogning muloqot madaniyati va psixologiyasi;
- pedagog va ta’lim oluvchi o’rtasidagi muloqotning o’ziga xos xususiyatlari;
- pedagogik nazokat va odob-ahloq me’yorlari;
- pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari;
- ta’lim jarayonidagi pedagogning mahorati;
- pedagog mahoratini takomillashtirish shart-sharoitlarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo’llay olishi;***
- tanlangan metod va texnologiyalarni joriy qilishda muhitni, vaziyatni baholay olish;
- ta’lim va tarbiya jarayonida talab qilingan irodani namoyish qilish, sabr-toqat, qat’iyat, kayfiyatni o’zgartira olish, javobgarlikni his qilish;
- yuz bergan noxush vaziyatdan chiqib keta olish;
- pedagogik jarayonda har qanday nizolarning oldini olish;
- o’z xatti-harakatlarini boshqara olish va bunda go’zallikka erishish;
- o’z pedagogik nazokati va odobini takomillashtirib borish;
- nazokat bilan so’zlash texnikasiga rioya qilish;
- ta’lim va tarbiya jarayonida san’atkorlik unsurlaridan foydalanish;
- o’z mehnatini rasmiy va ijodiy tashkil eta olish: vaqtdan unumli foydalanish;
- o’z mahoratini tinmay oshirib borish;

ilg’or tajribalarni o’z faoliyatiga singdirish ***ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim***.

2.3.4. Ixtisoslik fanlari bloki bo’yicha talablar

Bakalavr:

- ixtisoslikka mos ta’lim sohasining asosiy ilmiy-metodik muammolari va rivojining istiqbolini hamda ularning turdosh sohalar bilan o’zaro aloqasini tushunishi;
- ixtisoslikning muayyan sohasi bilan bog’liq bo’lgan asosiy obektlarni, hodisa va jarayonlarni bilishi, ularni ilmiy-tadqiq qilish usullaridan foydalana bilishi;
- o’rganilayotgan fan, metod va texnologiyalarga qo’yiladigan ilmiy-metodik talablarni ta’riflab berishni uddalashi, ularni amalga oshirishning mavjud ilmiy-metodik vositalarini bilishi kerak.

Bakalavr ixtisosligiga qo'yiladigan muayyan talablar ixtisoslik fanlari turkumidan tanlangan variantdagi o'quv fanlarining mazmuni bo'yicha oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

2.3.5. Bitiruv malakaviy ishlariga qo'yiladigan talablar

Bitiruv malakaviy ishida bakalavr tugallangan kasbiy vazifalarni hal qiladi va bunda barcha blok fanlari bo'yicha olingan bilimlardan foydalaniladi.

Bu ishda **bakalavr:**

- o'rganilayotgan masalaning holati va tarixini tahlil qiladi;
- ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik masalani aniqlab oladi, uning echilishidagi bir necha variantlarni ko'zda tutadi va ulardan eng muhim variantini tanlaydi;
- xulosani shakllantiradi va hal qilingan masala natijalari bo'yicha tavsiyalar beradi va tegishli fan sohasida qo'llanishi imkoniyatlarini belgilaydi.

2.3.6. Malakaviy amaliyot bo'yicha talablar

pedagogik amaliyot

Bakalavr:

- umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar (musiqa) ta'limi fanlari mazmuni, davlat ta'lim standartlari, fan dasturlari bo'yicha ish yuritish;
- musiqa ta'limi fanlarining sinflar va kurslar bo'yicha o'quv rejasida joylashtirilishini o'rganish;
- sinf-dars tizimiga rioya qilgan holda musiqa fanlari bo'yicha plan-konspekt, kalendar-plan asosida dars o'tish;
- an'anaviy va zamonaviy metod hamda texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash;
- musiqa darsi jarayonida tarbiyaviy ishlarni olib borishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi lozim***.

o'quv amaliyoti

Bakalavr:

- maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa rahbari bo'lib ishlash;
- bolalarda musiqaga bo'lgan qiziqishni uyg'ota olish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni ***bilishi va malaka hosil qilishi lozim.***

3. Ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari

3.1. *5141000 – Musiqa ta'limi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlashning 4 yillik kunduzgi shakli ta'lim dasturi quyidagicha taqsimlanadi:

Nazariy ta'lim, shu jumladan oraliq va yakuniy attestasiyalar	136 hafta
Malakaviy amaliyot	24 hafta
Bitiruv malakaviy ishi	7 hafta
Davlat attestasiyasi	1 hafta
Ta'tillar	36 hafta
Jami	**204 hafta**

3.2. Talabaning haftalik maksimal o'quv yuklanmasi 54 soat bo'lib, shundan 28 soatgacha auditoriya va qolganlari mustaqil ta'lim soatlariga taqsimlanadi.

3.3. Joriy, oraliq va yakuniy attestasiyalarni hisobga olgan holda ta'lim dasturining umumiy hajmi 4 yillik o'quv davri uchun 9072 soatni tashkil etadi.

3.4. Ta'lim dasturini o'zlashtirishda bir qator masalalar auditoriya soati hisobiga integrallashtirilgan kurslar muammosi bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limi ko'zda tutiladi.

3.5. *5141000 – Musiqa ta'limi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining zaruriy mazmuni

3.5.1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blok bo'yicha talablar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan ««*Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar»* bloki bo'yicha bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yilgan talablar» asosida belgilanadi.

3.5.3. Umumkasbiy fanlar

Pedagogika va psixologiya kursi

Umumiy psixologiya

umumiy psixologiya: umumiy psixologiyaning obekti, vazifalari. Psixologiya tabiiy va ijtimoiy fan sifatida. Psixika haqida tushuncha, psixikaning orientirovka qiluvchanlik va boshqaruvchanlik vazifasi. Bosh miya va psixika. Psixika va ong. Psixologiya va falsafa. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari. Psixika va ongni tahlil qilish prinsiplari. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilmasi va uning prinsiplari. Psixologiyaning sohalari.

Psixologiyaning metodlari va uning tahlili. Faoliyatning psixologik tahlili. Motivlar va faoliyat.

Psixikaning taraqqiyoti. Motivasiya va emosiya psixologiyasi. Motivasiya sohalarining umumiy tuzilishi. Iroda psixologiyasi.

Shaxs psixologiyasi. Shaxs, individ, individuallik tushunchalari. Frustrasiya va shaxsning istiqbol rejalari. Konformizm. Dunyoqarash va e'tiqod.

Muloqot psixologiyasi va nutq. Diqqat va uning turlari. Sezgi va idrok. Xotira va xayol. Tafakkur. Muammoli vaziyat va uni hal qilish. Temperament, uning o'ziga xos xususiyatlari.

yosh va pedagogik psixologiya: yosh va pedagogik psixologiyaning predmeti, uning rivojlanish tarixi, Sharq mutafakkirlarining qarashlari. Yosh psixologiyasidagi maktablar. Yosh psixologiyasini o'rganish metodlari. Ta'lim mazmuni va psixik taraqqiyot. Yoshning umumiy xarakteristikasi. Yosh taraqqiyotini davrlashtirish.

Maktabgacha yosh davri xarakteristikasi. Kichik maktab yoshi davri psixologiyasi. O'smir psixologiyasi, o'spirin psixologiyasi. Ta'limni va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish psixologiyasi. Ta'lim va aqliy taraqqiyot. Tarbiya metodlari va formalari. Bo'lg'usi o'qituvchi shaxsi sifatlari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot.

Umumiy pedagogika:

pedagogika nazariyasi va tarixi: pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot obekti, metodlari.

«Ta'lim to'g'risidagi Qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta'lim. Pedagog kadr tavsifnomasi. Pedagogika fanining maqsadiga ko'ra tarmoqlari, boshqa fanlar, shu jumladan falsafa, psixologiya fanlari bilan aloqasi. Pedagogik antropologiya. Shaxs, ta'lim va tarbiya. Xorijiy mamlakatlardagi tarbiyaga qisqacha izoh. Yagona pedagogik jarayon. Didaktika – ta'lim nazariyasi. Didaktikaning vazifalari. Ta'limning rivojlanish yo'nalishlari (konsepsiyasi): uzluksiz ta'lim konsepsiyasi, texonologizasiya konsepsiyasi, ta'lim paradigmalari.

Didaktik prinsiplar(tamoyillar). O'qitish jarayoni, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari. Ta'limning psixologik, fiziologik asoslari. Ta'limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylik va boshqa prinsiplar. Ta'lim jarayonida motivasiya.

Ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalari. Umumiy va xususiy metodlar. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga qaratilgan metod va texnologiyalar. Metod tanlash va motivasiya. O'quv adabiyotlari va ularning turlari. Elektron o'quv adabiyotlari.

Ta'lim turlarining o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik texnologiyalar. Ta'lim shakllari. Ta'limni tashxis etish.

Tarbiya nazariyasi. Tarbiya jarayoni, muhiti(sosium), tarbiya prinsiplari, tarbiyaga qo'yiladigan talablar. Tarbiya metod va texnologiyalari. Milliy tarbiya masalasi. Tarbiya turlari. Tarbiya va milliy g'oya. Tarbiya va ma'naviyat. Oila tarbiyasi.

Ta'lim tizimini boshqarish. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari. Ta'lim muassasasi, uni boshqarish. Boshqaruvda vasiylik va homiylik masalalari.

Maxsus(korreksion) pedagogika, uning maqsad va vazifalari, uning pedagog faoliyati uchun ahamiyati.

Pedagogika tarix. Ta'lim, tarbiya va ta'lim muassasasi to'g'risidagi g'oyaning paydo bo'lishi. Eng qadimgi, o'rta, yangi va eng yangi davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlash

taraqqiyoti. Islom madaniyati va tarbiya. Tarbiya to'g'risida Sharq mutafakkirlarining qarashlari. Turkistonda ta'lim va tarbiya. O'zbekistonda maktab, maorif, ta'lim va tarbiyaning rivojlanish tarixi. Mustaqillik davrida ta'lim va tarbiya. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida pedagogik fikrlarning xususiyatlari.

pedagogik texnologiyalar: pedagogik texnologiya tushunchasi va ta'rifi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va pedagogik texnologiyalar. Pedagogik texnologiya tushunchasi, o'quv jarayoni, o'quv muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishning yangi metod va formalariga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'zbekiston Respublikasida ta'limning rivojlanishi va kadrlar tayyorlashning milliy dasturi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsi, shaxsning sifat tizimi. O'qitish jaryonida bilim olish, malaka va ko'nikma hosil qilish. Innovasion faoliyat tizimi va pedagogning innovasion faoliyati.

Pedagogik texnologiyalarga ilmiy-nazariy yondashuv. Turli didaktikachi pedagoglarning pedagogik texnologiyalari haqida ma'lumot. Pedagogik texnologiyaning YuNESKO e'tirof etgan tavsifi. Pedagogik texnologiyaning asosiy sifatlari, klassifikasiyasi va ilmiy asoslari.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiya: o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan texnologiya, muammoli o'qitish, dasturli o'qitish, o'qitishning axborot texnologiyasi, mualliflik texnologiyasi, o'qitishning takomillashib borish texnologiyasi, o'yinli texnologiyalar, modul texnologiyasi, interaktiv texnologiyalar, bilimlarni nazorat qilish texnologiyasi. Texnologik karta.

pedagogik mahorat: pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya, pedagogik mahoratning nazariy asoslari. Pedagog shaxsi ta'lim amaliyotida va pedagogik fikr tarixida pedagogning mahorati masalalari. Pedagogik qobiliyat. Pedagogning kommunikativ qobiliyati. Muloqot madaniyati va ta'lim oluvchining psixologik faoliyati. Pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari. O'quv va tarbiya jarayonida pedagog mahorati. Pedagog mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari. Pedagogik tajriba orttirish tizimi, tadqiqot metodlari, hozirgi ta'lim muassasalarida ilg'or pedagogik g'oyalar, tajribalarning taraqqiyoti va uni hayotga tatbiq etish yo'llari. Pedagogik mahorat taraqqiyot tarixi. Mustaqil malaka oshirish va o'z-o'zini nazorat qilish. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot mahorati, pedagogik tajriba va uni tatbiq etish, pedagog faoliyatida sharqona muomala madaniyati asoslari.

3.5.5. Malakaviy amaliyotlar

pedagogik amaliyot: umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'tkaziladi va unda talabalar oliy ta'lim muassasida olgan nazariy bilimlarini ilk bor hayotga tatbiq etish ko'nikmalarini hosil qiladi.

o'quv amaliyoti: bolalar bog'chalari, yozgi dam olish oromgohlarida o'tkaziladi va musiqa rahbari bo'lib ishlash chog'ida nazariy bilimlari va kasbiy tajribalarini yanada mustahkamlanadi.

3.5.6. Bitiruv malakaviy ishi:

bitiruv malakaviy ishlari mavzulari ta'lim muassasasining bitirtiruvchi kafedralari tomonidan kadrlarga talabgorlarning talablarini, shuningdek zamonaviy fan, ta'lim metodlari va texnologiyalari yutuqlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishlarining mavzusi ilimiy-metodik yoki ilmiy-tadqiqot yo'nalishida bo'lishi mumkin.

Talabaga bitiruv malakaviy ishi topshirig'i, odatda, u uchinchi kursni tugatgandan so'ng beriladi. Ish kasbiy va maxsus fanlarni talaba o'zlashtirib borgani sari to'rtinchi kurs mobaynida, shuningdek, mazkur standartda bajarish uchun ajratilgan vaqt mobaynida bajariladi.

Bitiruv malakaviy ishining hajmini kafedra belgilaydi.

3.5.7. Ta'lim dasturini amalga oshirish

5141000 – Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlashning ta'lim dasturi mazkur yo'nalish bo'yicha akkreditasiyalangan oliy ta'lim muassasalarida rivojlanayotgan ta'lim texnologiyalaridan, axborot texnologiyalaridan va ta'limning zamonaviy texnika vositalaridan foydalanib tayyorlashda amalga oshiriladi.

Ta'lim maboynida talaba ikkitadan kam bo'lmagan Davlat attestasiyasi (gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan va xorijiy tildan) topshiradi va bitiruv malakaviy ishni bajaradi.

Davlat attestasiyasi o’quv jarayoni tugashi bilanoq tegishli integrallashgan kurs bo’yicha o’tkaziladi.

Malakaviy amaliyot ta’lim muassasalarida, zamonaviy korxonalar, tashkilotlar va ilmiy tekshirish institutlarilarda o’tkaziladi.

4. Bakalavrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va baholash

4.1. Bakalvariat yo’nalishi bo’yicha kadarlar tayyorlashning sifatini nazorat qilish quyidagilarni qamrab oladi:

ichki nazorat: oliy ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan reyting nazorat tizimi haqidagi nizom asosida o’tkaziladi;

yakuniy davlat nazorati: u davlat ta’lim standartlariga muvofiq ravishda fanlar bo’yicha yakuniy Davlat attestasiyalari hamda bitiruv malakaviy ishi himoyasini o’z ichiga oladi;

davlat-jamoatchilik nazorati: oliy ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

tashqi nazorat: belgilangan tartibda Davlat test markazining Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta’lim muassasalari attestasiyalar boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tayyorlangan kadrlar sifatini baholash kadrlar iste’molchilari tomonidan mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

4.2. Oliy ta’lim muassasalarining majburiyatlari:

- oliy ta’lim muassasalari davlat attestasiyasi va akkreditasiyasi to’g’risidagi Nizomga muvofiq ushbu standart talablariga rioya qilish va bakalavr tayyorlash sifatini ta’minlash;
- professor-o’qituvchilar tarkibi va o’quv-yordamchi xodimlar saviyasining malaka talablariga mos kelishini ta’minlash;
- har bir fanni o’quv dasturiga muvofiq ravishda zarur o’quv-metodik adabiyotlar hamda mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar materiali bilan ta’minlash;
- o’quv jarayonini moddiy-texnik jihatdan ta’minlash.

5. Eslatma

5.1. Oliy ta’lim muassasasiga:

-ushbu standartda nazarda tutilgan minimal mazmunni ta’minlagan holda talabaning haftalik maksimal yuklamasini oshirmasdan o’quv materialini o’zlashtirishga ajratilgan soatlar hajmini o’quv fanlari bloklari uchun 5% oralig’ida, blokga kiruvchi o’quv fanlari uchun 10% oralig’ida o’zgartirish;

-umumkasbiy fanlar blokiga mos ravishda gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy o’quv fanlarining alohida bo’limlarini chuqurlashtirib o’qitishni belgilash;

-o’quv fanlari mazmuniga, texnika va texnologiyalarning yutuqlarini hisobga olgan holda o’zgartirishlar kiritish huquqi beriladi;

-bitiruv malakaviy ish mavzusini belgilash oliy ta’lim muassasasi rektori tomonidan rasmiylashtiriladi.

5.2. Kurs ishlari muayyan o’quv faoliyatning bir turi sifatida ko’riladi va ushbu o’quv fanini o’zlashtirish uchun ajratilgan soatlar chegarasida bajariladi.

5.3. Davlat ta’lim standartini bilish professor-o’qituvchilar tarkibini tanlov asosida saralash shartlaridan biri hisoblanadi.

Ilova

5141000 – Musiqa ta’limi **ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi**

№	**O’quv fanlari, integrallashtirilgan kurslar va bloklarining nomlari**	***Umumiy yuklamaning hajmi***

		soatlarda
1.	2	*3*
1.00	**Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar**	***1704***
2.00	**Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar**	***722***
	Matematik kommunikativ kurs	*340*
2.01	Oliy matematika asoslari	*114*
2.02	Informatika va axborot texnologiyasi	*226*
	Tabiiy-ilmiy kurs	*382*
2.03	Yosh fiziologiyasi va gigiena. Ekologiya va tabiatni muxofaza qilish	*216*
2.04	Markaziy Osiyo geografiyasi	*104*
2.05	Hozirgi zamon tabiiy fanlar konsepsiyasi	*62*
3.00	**Umumkasbiy fanlar**	***3526***
	Psixologiya va pedagogika kursi	***1002***
3.01	Umumiy psixologiya (*umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya)*	*244*
3.02	Umumiy pedagogika (*pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat)*	*370*
3.03	Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. Maktab repertuari praktikumi. O'qituvchi nutqi madaniyati	*388*
	Musiqa ta'limining asosiy kursi	***2524***
3.04	Musiqa tarixi (*o'zbek musiqasi tarixi, chet el musiqasi tarixi*)	*224*
3.05	Musiqa nazariyasi (*musiqa nazariyasi asoslari, garmoniya, musiqa asarlari tahlili*)	*224*
3.06	Solfedjio	*326*
3.07	An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi	*330*
3.08	Xor va xorshunoslik	*270*
3.09	Dirijyorlik	*330*
3.10	Vokal ijrochiligi	*300*
3.11	Cholg'u ijrochiligi	*244*
3.12	Cholg'u ansambli	*276*
4.00	**Ixtisoslik fanlari**	***740***
4.01	Musiqa o'qitishning innovasion texnologiyalari	*86*
4.02	O'zbek mumtoz qo'shiqchiligi	*158*
4.03	Xor aranjirovka	*158*
4.04	Bolalar musiqa adabiyoti	*78*
4.05	O'zbek adabiyoti (poeziya)	*86*
4.06	Cholg'ushunoslik	*174*
5.00	**Qo'shimcha fanlar**	***450***
5.01	Qo'shimcha fanlar	*450*
6.00	**Tanlov fanlari**	***202***
	Jami	***7344***
	Malakaviy amaliyot	***1296***
	Bitiruv malakaviy ishi	***378***
	Davlat attestasiyasi	***54***
	Jami	***1728***
	Hammasi	***9072***

1.1.2. O’quv rejasi

A.Kodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti

TASDIQLAYMAN
Institut rektori
_____prof. O.Dusmatov

2010 - yil «__»_____

m.o’.

Ta’lim yo’nalishi:

5141600—Boshlangich ta’lim va sport tarbiyaviy ish

Akademik daraja - BAKALAVR
O’qish muddati - 4 yil
Ta’lim shakli - kunduzgi

O’QUV JARAYoNI JADVALI

| Kurs | Haftalar | | |

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
1.08	Pedagogika. Psixologiya	120		68	34			34		52						34/34		
1.09	Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar	60		34	16			18		26							16/18	
1.10	Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti	112		64	28			36		48							28/36	
1.11	Rus (o'zbek) tili	116		66		66				50	44	22						
1.12	Chet tili	324		184		184				140	40	40	40	36	28			
1.13	Jismoniy madaniyat va sport*	236		134		134				102	38	38	38	20				
1.14	Tanlov fanlari.(Solik va solikka tortish)	36		20	8			12		16				8/12				
2.00.	**Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar**	**1185**	**16,1**	**596**	**240**	**210**	**138**	**8**		**589**	**4**	**4**	**5**	**6**	**4**	**4**	**4**	
2.01	Matematika	570		286	140	146			7	284	20/20	18/22	20/16	16/20	20/20	18/18	28/30	
2.02	Informatika va axborot texnologiyasi	200		100	30		70			100			18/42	12/28				
2.03	Markaziy Osiyo geografiyasi	57		30	14	16				27		14/16						
2.04	Yosh fiziologiyasi va gigena.	86		42	16		26			44	16/26							
2.05	Ekologiya	57		30	14		16			27				14/16				
2.06	Tabiatshunoslik asoslari	170		86	18	34	26	8		84					10/18/12/4	8/16/14/4		
2.07	Odam anatomiyasi	45		22	8	14				23							8/14	
3.00	**Umumkasbiy fanlar**	**3268**	**44,5**	**1650**	**728**	**570**	**128**	**224**		**1618**	**9**	**9**	**12**	**11**	**16**	**17**	**10**	
	Psixologiya- pedagogika fanlar																	
3.01	Pedagogika nazariyasi va tarixi	228		118	66		20	32		110			46/12/22	20/8/10				
3.02	Pedagogik mahorat	85		44	24		12	8		41					24/12/8			
3.03	Pedagogik texnologiya	57		30	14		16			27					14/16			

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
3.04	Psixologiya	143		74	40		24	10		69	20/12/6	20/12/4						
3.05	O'qituvchi nutqi madaniyati	57		30	14	16				27					14/16			
	Kasbiy fanlar																	
3.06	Ona tili	598		300	148	152			7	298	18/20	46/46	20/20	18/18	18/20	18/18	10/10	
3.07	Ona tili ukitish metodikasi	340		170	70	54		46	7	170			24/18/8	8/6/8	16/12/14	22/18/16		
3.08	Matematika ukitish metodikasi	257		128	60	44	24		7	129					10/6/4	32/24/14	18/14/6	
3.09	Bolalar adabiyoti va folklor	228		114	56			58		114			30/30	26/28				
3.10	Mexnat va uni ukitish metodikasi	199		100	46	40		14		99				8/8/2	10/8/4	28/24/8		
3.11	Tabiatshunoslik ukitish metodikasi	114		56	34	22				58					18/10	16/12		
3.12	***Defektologiya asoslari***	57		28	12	8		8		29							12/8/8	
3.13	Tarbiyaviy ishlar metodikasi	327		164	94	24	28	18		163					24/6/8/6	34/8/10/6	36/10/10/6	
	Sport fanlari								***7***									
3.14	Gimnastika va uni ukitish metodikasi	57		28		28				29	28							
3.15	Xarakatli uyinlar va uni ukitish metodikasi	86		44		44				42	44							
3.16	Suzish va uni ukitish metodikasi	85		42	20	22				43		20/22						
3.17	Sport uyinlari va uni ukitish	85		42		42				43				42				
3.18	Yengil atletika va uni ukitish metodikasi	87		44		44				43					44			
3.19	Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi	86		44	14	16		14		42							14/16/14	

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
3.20	Tanlov fanlari. (Matematika darslarda innavasion usullardan foydalanish)	88		46	16	14		16		42	16/14/16							
4.00	**Ixtisoslik fanlari**	**605**	**8,3**	**306**	**96**	**210**				**299**	**3**	**4**			**2**	**1**	**6**	
4.01	Xusnixat va uni ukitish metodikasi	114		58	22	36				56	22/36							
4.02	Boshlangich ta'limni integrasiyalash	114		58	22	36				56		22/36						
4.03	Ulkashunoslik	114		58	22	36				56							22/36	
4.04	Xozirgi zamon rus (o'zbek) tili	114		58		58				56					40	18		
4.05	Boshlangich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar	114		58	22	36				56							22/36	
4.06	Tanlov fani. (Jismoniy tarbiya va sportga oid karorlar)	35		16	8	8				19		8/8						
5.00	**Qo'shimcha fanlar**	**450**	**6,1**	**226**	**74**	**80**	**72**			**224**	**2**	**3**	**3**	**3**				
5.01	Tibbiy bilim asoslari	450		226	74	80	72			224	14/16/14	20/22/18	22/22/18	18/20/22				
	Tanlov fanlari	**132**	**1,8**	**66**	**30**	**36**				**66**							**5**	
	Maxsus kurs	132		66	30	36				66							30/36	
	JAMI	**7344**	**100**	**3808**	**1450**	**1490**	**338**	**534**		**3536**	**28**	**28**	**28**	**28**	**28**	**28**	**28**	
	Malakaviy amaliyot	**1296**																
	Bitiruv malakaviy ishi	**378**																
	Davlat attestasiyasi	**54**																
	JAMI	**1728**																
	HAMMASI:	**9072**																

Davlat attestasiyasi: 1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan biri;2.Chet tili;3. Bitiruv malakaviy ishi.
Kurs ishi 5-semestrda talabalar "Ona tili" va "Matematika" fanlaridan talabalar guruxlarga bulinib yozadi. Keyin Ona tili guruxi Matematika ukitish metodikasi fanidan "Matematika" guruxi "Ona tili ukitish metodikasi" fanlaridan kurs ishi yozadi.
O'quv ishlari prorektori: prof. N.O. Alimov Ukuv bulimi boshligi: dos. F.Xayitov. Fakultet dekani: prof. Turakulov X.A

1.1.3. O’quv dasturi

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro`xatga olindi: №BD-5141600-3.02 2008 yil «23» avgust	O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil «23» avgustdagi «263» - sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI
fanining

O’QUV DASTURI

Bilim soxasi	100000	– Ta'lim
Ta'lim soxasi:	140000	– O’qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani
Bakalavriat yo’nalishi:	5141000	– Musiqa ta’limi.

Toshkent – 2008 yil

Fanning o`quv dasturi Oliy va o`rta maxsus, kasb- hunar ta'limi o`quv- uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2008 yil «23» avgustdagi "4" – son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

R.A.Mavlonova- "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar metodikasi" kafedrasi mudiri professor, pedagogika fanlari doktori.

N.Voxidova - "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

M.G`ulomov - Toshkent viloyati halq ta`limi pedagog hodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institute professori

G.Sultonova - Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Fanning o`quv dasturi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy- uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2008 yil «4» avgustdagi "2" – sonli bayonnoma

KIRISH

Ushbu dastur pedagogika fanining tuzilishi, ilmiy tadqiqot metodlarini, shuningdek didaktika-ta'lim nazariyasini, tarbiya nazariyasi, maktabshunoslik, pedagogika tarixiga doir masalalrni o’z ichiga qamrab olgan.

O’quv faning maqsadi va vazifalari.

Fanni o’qitishdan maqsad – talabalarda xalq pedagogikasi va hozirgi zamon ilmiy pedagogikasining nazariy asoslariga oid bilimlar, shuningdek o’quv tarbiya muassasalarida ta'limiy va ma'naviy - ma'rifiy ishlarni samarali tashkil qilish uchun zarur bo’lgan ko’nikmalar bilan qurollantirishdan iborat.

“Pedagogika” o’quv kursi talabalarning psixologiya,yosh fiziologiyasi va maktab gigienasi bo’yicha oldingi tayyorgarlik darajasini hisobga oladi va pedagogik bilim hamda ko’nikmalarni puxta egallash uchun asos yaratadi.

Fanning vazifasi—talabalarga pedagogika nazariyasi va tarixi fanini chuqur o’rgatish asosida uni amaliyotda qo’llay olishga o’rgatishdan iborat.

Fan bo’yicha talabalarning bilimiga ,ko’nikma va malakasiga qo’yiladigan talablar

- “Pedagogika nazariyasi va tarixi” o’quv fanini o’zlashtirish jarayonida **bakalavr:**

Kasbga oid bilimlar, ko’nikma va malakalar bilan qurolllantiriladi, pedagogik faoliyatga ijodiy yondoshish yo’llarini ko’rsatadi. Uni o’vitish bo’lajak bakalavrda pedagogik madaniyatni shakllantirish, ya'ni o’qituvchi-tarbiyachi, yoshlar murabbiysi vazifalarini ijodiy bajarishga umumiy tayyorgarlikni ta'minlaydtgan yangi pedagogik tafakkurni tarkib toptirishga yo’naltirishi lozim. Bunda u:

— pedagogik jarayondagi integratsiyalar to’g’risida tasavvurga ega bo’lishi; O’zbekiston Respublikasida pedagogika fanining rivojlanishini ***bilishi kerak;***

— ta'lim va tarbiya jarayonida milliy g’oya va ma'naviyatimizning boy meroslaridan foydalanish; ta'lim muassasalarida o’qitish va tarbiyalashning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo’llash; o’quvchini rag’batlantirish, uning faoliyatini nazorat qilish, iste'dodi, iqtidorini ro’yobga chiqarish bo’yicha tadbirlar ishlab chiqish, ayni zamonda jazolashning zamonaviy shakllaridan foydalanish; ota-onalar, jamoa, o’quvchilar bilan yakka va guruh bo’lib ishlash; o’quvchilar guruhlarini boshqarish ***ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak;***

—ilmiy tadqiqot ob'ektlari va metodlari; pedagogikaning ijtimoiy fan ekanligi; pedagogika fanining metodologiyasi; pedagogikaning jamiyatdagi o’rni; ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uning uzviyligi, uzluksizligi; pedagogika fanining asosiy rivojlanish bosqichlari. o’tmish va zamonaviy pedagogikaning asosiy yo’nalishlari; ilg’or pedagogik qarashlar; jahon ta'lim tizimi; pedagogikaning maqsadiga ko’ra turlari; pedagogik jarayondagi integratsiyalar to’g’risida tasavvurga ega bo’lishi; O’zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati, kadrlar tayyorlash milliy modeli; ta'lim va tarbiyaning

o’ziga xos xususiyatlari, birligi, differentsiatsiyasi, yagona pedagogik jarayon; XXI asr pedagogi obrazi; pedagogik antropologiya; ta'lim nazariyasi(didaktika)ning asosiy komponentlari: kontseptsiyalari, paradigmalari; ta'lim prinsiplari; ta'lim metodlari, texnologiyalari; ta'lim turlari va bosqichlari; ta'limni tashxis qilish; tarbiya nazariyasining mohiyati; tarbiyaning mazmuni, prinsiplari; tarbiyada muhit (sotsium), ruhiyat(psixologiya); tarbiya metodlari va texnologiyalari; maxsus pedagogikaning o’ziga xos xususiyatlari; tarbiya turlari; jamoada, oiladagi tarbiya hamda o’z-o’zini tarbiyalashning o’ziga xos xususiyatlari; O’zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi; ta'limni boshqarish shakllari; shaxsga ta'lim va tarbiya berish g’oyasining paydo bo’lishi; ta'lim va tarbiya to’g’risida Sharq va G’arb mutafakkirlarining qarashlari; tarbiya, maktab va pedagogik fikrning taraqqiy etish tarixi; jahon pedagogik jarayoni; O’zbekiston Respublikasida pedagogika fanining rivojlanishini amalga tatbiq eta olish ***malakalariga ega bo’lishi kerak.***

Fanning o’quv rejadagi boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi.

Pedagogika nazariyasi va tarixi fani ixtisoslik fani hisoblanib, 2,3,4 semestrlarda o’qitiladi.Pedagogika fanini o’rganish falsafa, tarix,sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya,gigiena, kabi insonshunoslik fanlari bilan o’zaro bog’liqlikda amalga oshiriladi.

Fanni o’qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.

Talabalarning pedagogika nazariyasi va tarixi fanini o’zlashtirishlari uchun o’qitishning ilg’or va zamonaviy usullaridan foydalanish,yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o’zlashtirishda darslik,o’quv va uslubiy qo’llanmalar ,ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, vertual stendlardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va labaratoriya darslarida mos ravishdagi ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Asosiy qism.

Fanning nazariy mashg’ulotlari mazmuni.

Pedagogika fani quyidagi 5 bo’lim asosida o’rganiladi:

1. Umumiy pedagogika.
2. Didaktika.
3. Tarbiya nazariyasi.
4. Maktabshunoslik.
5. Pedagogika tarixi.

1. Umumiy pedagogika.

Pedagogika predmeti, vazifalari va metodlari, pedagogikaning assosiy kategoriyalari, pedagogikaning vujudga kelishi va rivojlanishi. O'tmishning zabardas pedagoglari. Tadqiqot metodlari klassifikatsiyasi: kuzatish, suxbat, test, anketa, maktab xujjatlarini o'rganish.

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Shaxsiy rivojlanish jarayoni shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar muxit, irsiyat, ta'lim tarbiya, shaxsiy faoliyat rivojlanishning yosh va individual xususiyatlari. Yosh bosqichlari. Akseleratsiya. Rivojlanishning turli tumanligi individualligi

Tarbiya maqsadlari. Tarbiya maqsadlari, tarbiyaning vazifalari pedagogik arayon pedagogik jarayonning qonuniyatlari.

Zamonaviy maktab o'qituvchisining vazifalar.O'qituvchiga qo'yiladigan alablar o'qituvchining kasbiy saloxiyatlari o'qituvchi maxorati. O'qituvchini attestatsiyadan o'tkazish.

2. Didaktika – ta'lim nazariyasi.

Didaktika ta'lim nazariyasi. Ta'lim jarayoni, uning moxiyati. Ta'lim jarayoni va uning metodologik asoslari. Ta'lim tamoyillari. Tamoyil tushunchasi.

Ta'lim tamoyillarini tanlashga umumiy yondoshish. O'qitishning etakchi qoidalari. Ilmiylik, tizmlilik, ischinlik qoidasi. Ta'limning amaliyot bilan bog'liqligi qoidasi. Ta'limda onglilik va faollik qoidasi. Ko'rsatmalilik qoidasi. Tushunarlilik va mustaxkamllik qoidasi

Ta'limning mazmuni. O'quv jarayoning mazmuni. Maktabning o'quv rejasi. Dastur va dasturlarning mazmuni, maqsadi, funksiya tizimi. Ta'lim tamoyillari. Tamoyil tushunchasi.

Ta'lim texnologiyasi. Texnologiyaning nazariy belgilari. Pedagogikada texnologiyaning maqsadlari, darslarda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.

O'quv jarayonini tashkil etish turlari va shakllari. O'quv jarayonini tashkil etish xaqida tushuncha. Ta'lim shakllari. Dars tuzilmasi, uning qismlari va turlari. Dasturlari. O'qutuvchining darsga tayyorgarligi.

Ta'lim usullari. Ta'lim usullari xaqida tushuncha. Ta'lim usullarining klassifikatsiyasi. Ta'lim usullari moxiyati va mazmuni.

Muammoli ta'lim. Muammoli ta'limning moxiyati. O'quvchilar ta'limiga muammoli yondoshishning xususiyatlari. Muammoli ta'limning maqsadi. Muammoli vaziyatlarni yaratish va xal qilishning yo'llari. Didaktik masala. Muamoli ta'lim metodlari. Tadqiqot metodlari. Tushuntirish namoish etish metodi. Qisman izlanish yoki evristika metodi muammoli bayon etish reproduktik metod.

Ta’lim – maxsus tayorlangan kishilar raxbarligada utgaziladigan o’quvchilarni bilim va malakalar bilan kurollantiradigan bilm kobilyatlarini ustiradigan, ularning dunyoqarashlarini tartib topgan jarayondir agar tarbiya bola tugilganidan boshlab umrining oxirigacha oilada, maktabda va jamoatchilik tasirida shakllansa, komol topsa, ta’lim chegaralgan xolda, masalalar sinf xonasi labarotiya kabinetlari) tashkil etilgan o’qituvchi raxbariga mauyyan barigida muayyan belgilangan vaktda olib borilgan.

Malumot-ta’lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim xosil qilingan ko’nikma va malakalar hamda malakalar hamda shakllangan dunyo qarashlar majmuidir.

Ta’lim-tarbiya va malumot uygunlashgan yagona javob bo’lib o’qituvchi tarbiyachi ularning shakllanishida yetakchi kiladi. O’qituvchi dars berar ekan o’quvchilarni fan yangiliklardan xabardor etadi, Ayni paytda ularda insoniy fazilatlarni shakllantiradi., tarbiyalaydi mustaqil fikrlashgan urgatadi.

Shaxs-«odamning jamiyat azosi sifatida, uz-uzini anglash va tafakko’rni, faoliyatning obektivligini, mulokat hamda biluvchanlikni tashuvchanligidir». Shaxs deganda ruxiy jihatdan tarakkiy etgan, uz xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan fark kiladigan muayyan jamiyatning a’zosi tushuniladi. Shaxs avvalo uzining kadr-kiymati va kamchiliklari bilan jamiyat hayotida faol katnashganligi hamda ta’lim-tarbiya natijasida yuzaga kelgan uzining kuchli va kuchsiz tomonlari bilan paydo bo’lgan individdir.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruxiy va ijtimoiy jarayon bo’lib bo’lib tugma va egallangan mikdor egallangan mikdor va sifat o’zgarishlarini uz ichiga oladi. Rivojlanish deb

bola vaznining oshishi suyak va tizimning tanosil azolarining nerv funksional faoliyatining kamol topishi akl zakovatining shakllanishiga aytiladi.

Shaxsning har tomonlama kamolga yetishi – ma’lum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo’lgan qobiliyatlar va iktidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarning tulik va batomom rivojlanishidir.

Pedagogik faoliyat – estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy maqsadlarda muvofik ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aklan uylab kurilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo’lgan mehnatining uziga xos turidir.

Pedagogik jarayon - ma’lum bir maqsadga yunaltirilgan pedagogik faoliyati tasirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmuni boyitiladi tarbiyachining yunaltiruvchi va olib beruvchi tarkkiyot ettirishidir.

Pedagogik mulokat – o’quv-tarbiya davomida o’qituvchi (pedagog)ning o’quvchilar bilan kasbiy mulokati xisoblanadi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi va pedagogika fanlari tizimi

Har kanday fan ham yakka xolda uzi mukammalikka erisha olmaydi. U boshqa fanlar bilan aloqada, ularning yutuklaridan foydalangan xolda mazmunan boyib boradi. Xuddi shuningdek pedagogika fani ham hozirgi kunimiz umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqidagi malumotlarga tayanadi. U tabiat va jamiyat rivojlanishi qoidalari to’g’risidagi malumotlarga asoslanadi uzi ham ijtimoiy fan sifatidp rivojlangan insonning ijtimoiy kamolotiga xizmat kiladi. U falsafa, tarix, iqtisod, psixologiya, etika va estetika bilogiya va madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadir. (8-chizmaga karang)

Har bir o’qituvchi-tarbiyachi va o’quvchi uz ona yurti tarixini bilishi, vatanparvar bulishi lozim. Ta’lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan xabardor bulmay turib, o’qituvchilik qilish mumkin emas.

O’qituvchi o’quvchilarga bilim berish, ma’lumotli qilish, tarbiyalash maqsadida unga tizimli ta’sir ko’rsatadi. Bunda psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ya’ni ta’sirning samarasini bilish uchun o’qituvchining sezgi, idroki, tasavvur, diqqat va tafakkur-fikrlash jarayonining kanday kechayotganini bilishga asoslanib ta’sir ko’rsatish rejasini belgilaydi. Ayniksa, yosh davrlari psixologiyasini o’qituvchi chukur bilishi talab etiladi. Buni yaxshi bilgan o’qituvchi esa har bir bolaning yosh va individual xususiyatlarini xisobga olgan xolda bolaga yondashadi va unga samarali ta’sir ko’rsata oladi. Ma’lum ma’noda o’qituvchilarga xizmat kiladigan psixologiya turkumidagi fanlarni ham pedagogika fanlari tizimida kiritish mumkin.

Falsafa pedagogika fani uchun metadologik asos bo’lib xizmat kiladi. Falsafa pedagoginani ilmiy usullar bilan kurollantiradi, ta’lim va tarbiyaning abektiv qonun qoidalari ishlab chikishga manba buladi.

Etika va estetika fanlari pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo’limii bo’yicha ma’lumot beradi. Bu fan o’qituvchining xulki, odobi meyorlarini aniqlash, belgilash hamda guzallikni chin ma’noda tushuntirish, o’quvchi ongida hayotning jozibali, nafis kirralariga bevosita ragbat uygotish borasida pedagogika fani bilan aloqadadir.

Fanlarni o’qitish yullari didaktika aloqadir, chunki har kanday fatnni uktish usuli shu fanning mazmuni tizimini o’quvchilar tomidan uzlashtirish olinishiga xizmat kiladi. Dema, pudagoktika bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, bolalar gigiyenasi va pediatriya fanlarbilan ham mustaxkam aloqada, bu fanlar bir biriga chambarchas bo/liqdir.

Turli sohada bilim oluvchi o’quvchilarni o’qitish va tarbiyalashni nazariy hamda amaliy tomonlarini pedagogika Fani tarmoklari yoritib beradi. Pedagogikaning quyidagi tarmoklari mavjud.

Umumiy pedagogika maktab yoshidagi o’quvchilarni tarbiyalash va o’qitish haqida. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi maktabgacha yoshlarni bolalarni tarbiyalash bilan shugullanadi. Madaniy okarsuv pedagogikasi madaniy marifiy ishlarini boshqarish muommalarini o’rganadi. Kasb hunar pedagogikasi harbiy pedagogika (armiya sardorlari va o’quvchilarini vatanimizning shon sharafi va or nomisi yetuk kurashchi harbiy kurol yaroklardan samarali foydalana oladigan yoshlarini tarbiyalash yo’nalishi); oila pedagogikasi maxsus pedagogika oliy gof reno akli zayiflarga, tiflo-kuzi ochiz bolalarga surdo- karsokov bolalarga tarbiya berish); (metodika 9-chizma).



Pedagogika fanlari tizimining maxsus tarmoklari 10-chizmada uz aksini topgan.



Zamonaviy pedagogika ijtimoiy hayot jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarni bozor iqtisodiyoti sharoitida rakobatga bardosh bera oladigan, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulk-atvori bilan uzgalarga ibrat buladigan bilimli, komil inson etib tarbiyalashdek muhim masalalarni xal qilishi lozim.

Pedagogika fanining ilmiy tatkikot metodlari

Har kanday uzining ilmiy tatkikot usullariga ega. Bu usullar orqali uzi mamunini boyitib yangilab boradi. Shu manoda pedagogikaning ilmiy tatkikot metodlari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli kili shva o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqalarni tekshirish, bilish yullari uslublari va vositalari majmunini tushunasiz.

Pedagogikada shunday metodlar mavjudki ular yordamida ta'lim-tarbiya jarayoniga oid muhim faktlar turli pedagoki vaziatlar mohiyatlari mexanizmlari o'rganiladi. (11–chizma).

<table>
<tr><th colspan="4">Asosiylari</th></tr>
<tr><td colspan="2"><u>Kuzatish</u>
Ilmiy tadkikot metodi bo'lib, pedagogik voqyea va hodisalarni ilmiy asoslashga tayanadi.</td><td colspan="2"><u>Tajriba</u>
Ta'lim-tarbiya jarayonida aloqador ilmiy fara zyoki Amaliy ishlarning tadbiki jarayonlarini aniqlash maqsadida utkaziladi.</td></tr>
<tr><td><u>Oddiy kuzatish:</u></td><td>Ilmiy redagogik tadkikot</td><td>Laboratoriya utkaziladigan tajriba</td><td>Tabiiy holatda utkaziladigan tajriba</td></tr>
<tr><td>Hayotiy voqyea hodisalarni tahlil qilish bilan cheklanadi</td><td>Pedagogik voqyea-hodisaning ichki qonuniyatlarini, mohiyatini ilmiy asoslab beradi, maxsus kuzatish natijalari kayd etib boriladi</td><td>Maxsus ajratilgan xonalarda, didaktik vositalar yordamida utkaziladi.

Tahliliy shaxs faoliyatining ayrim jihatlari o'rganiladi.</td><td>Shaxs rivojlanishi-ning turli bosqichlarida utkaziladi.

Shakllantiruvchi
Ta'limiy
Tarbiyaviy</td></tr>
<tr><td colspan="4">Yordamchi:</td></tr>
<tr><td colspan="2"><u>Faoliyat turiga karab utkaziladigan tajriba</u>
Irsiy belgilarga tayanib utkaziladigan tajriba</td><td colspan="2">• Anketa tarkatish
• Sosiometriya
• Modellashtirish
Testlar { Bashoratkiluvchi
Tashxiz kuyuvchi</td></tr>
</table>

Hozira pedagogikada quyidagi ilmiy-tadkikotusullari kullaniladi: kuzatish usuli, suxbat usuli, bolalar ijodini o’rganish usuli; test surovnomalar usuli; maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli; statistika ma’lumotlarini tahlil qilish usuli; matematika- kibernetika usuli; (12- chizma)

Kuzatish usulidagi kuzatishlar faqat oddiy hodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yigish, xisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta’lim-tarbiya jarayonini yaxshilash maqsadida amalga oshiriladi. Ilmiy kuzatishlar nafaqat o’quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki ularning ilmiy dunyoqarashlari shakillanishi, fikrlash jarayoninng kuchini, xulosalar chiqarishdagi faolliklarni aniqlaydi, ularni tahlil etadi. Bunday kuzatishlar pedagogika Fani mazmunini boyishiga sabab buladi.

Suxbat usulidan ta’lim-tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning kanchalik to’g’ri ekanligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Suxbat yakka yoki guruxli tarzda olib boriladi. Suxbatni utkazish rejasi tuziladi, uni amalga oshirish yullari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va xulosa chiqariladi. Suxbatdoshning ruxiy holatini ham xisobga olish lozim buladi.

Bolalar ijodini o’rganish orqali o’quvchining uziga xos indivudual faoliyatiga doir omillar tahlil qilinadi. Yoshlarning turli yozma daftarlari, kundaliklari, yozgan xatlari she’r va xikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma xisobatlari, ular ma’naviyatini o’rganish uchun manba bo’lib xizmat kiladi. Bolalar ijodini Fan olimpiadalari, konkurslar, maktablar bo’yicha kurgazmalar, sayoxatlar orqali o’rganish mumkin.

Surovnoma, testlardan foydalanish pedagogikaning yetakchi tatkikot usullaridan. Bunda uz vaktida ichida o’quvchilarning bilimini yoppasiga aniqlash va tahlil etish mumkin.

Maktab hujjatlarini tekshirish orqali o’qituvchilar va o’quvchilar jamoasi ularning pedagok faoliyati haqida aniq malumot berish. Maktab hujjatlariga o’quvchi o’qituvchilar soni shaxsiy hujjatlari sinf jurnallari buyruk daftarlari pedagogik kengash karorlari maktabning rejalari uning sarflanishiga oid hujjatlar kiritiladi.

Ekspremental tajriba ishlari asosan ta’lim-tarbiya jarayonigaalogadar ilmiy fara syoki amalty shilarning jarayonlarini tekshirish aniqlash maqsadida utgaziladi.

Statistika usuli orqali nafaqat ilmiy izlanishlar borasidagi balki xalq ta’limi sohasidagi mablaglar kurilishlar darslik va kullanmalan yaratilishi kadrlar tayorlash kabilar ham aniqlanadi.

Shaxs rivojlanish va unga ta’sir etuvchi omillar

Shaxs deganda ruxiy jihatdan tarakkiy etgan, uz xususiyatlarini va sifatlari bilan boshqalardan fark kiluvchi muayyan jamiyatning

Usmirlar 12–13 yoshdan 15–16 yoshgacha bolalar. Bu davrda bolalaning jismoniy va ruxiy tarakiyotida kenkish o’zgarish ruy berishi sababli, bu davr ushish davri deyiladi. Kizlar 13–15 yoshdan ugil bolalar 16–17 balogatga yetadilar. Kattalarga xos sifatlar paydo buladi.

Uspirinlik 16–yoshdan 18 yoshgacha xatto 20 yoshgacha davom etadi. Bola fikrlash rivojlanadi. Dune qarashlar shakllangan buladi. Gavda komatlari tulishadi. Faoliyatining asosiy turi o’qish buladi. Uz uziga baxo beorishga intiladi.

Umuman olganda o’qituvchi o’quvchilarning barcha yosh davrlari xususiyatlari to’g’risida yetarli malumotga ega bulishi shart. Shundagina pedagog tasir ijobi natija beradi.

II-BO’LIM. TARBIYA NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Tarbiya jarayoni, uning mohiyati, vazifalari

Tarbiya deganda tarbiyasi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan sur’atda ma’lum bir maqsadga qarata va tizimli ta’sir qilish jarayoni tushuniladi. Huquqiy demokratik va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo’lidan borayotgan mamlakatimizda tarbiyaning vazifasi har tomonlama yetuk, erkin va mustaqil fikrga ega bo’lgan komil insonni va yetuk kadrlarni tarbiyalashdir. Demak, tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo’lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkoniyatini beradi.

Tarbiya jarayoni yaxlit pedagogik jarayonda muhim o’rin tutadi. Bu jarayonning mohiyati, uning o’rni va roli shaxs shakllanishi jarayonining umumiy tuzilishida aniqlash osonroq (1-chizmaga qarang).



1-chizma

Tarbiya jarayoni o’zaro bog’liq ikki faoliyatni – o’qituvchi va o’quvchi faoliyatini o’z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o’quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg’ulari rivojlanadi, unda jamiyatning shaxsga qo’yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko’nikmalar hosil qilinadi. Tarbiya jarayoni ko’p qirrali va murakkabdir. Maktabda tarbiya jarayoni to’xtovsiz va tizimli davom etadigan jarayon bo’lib, unga o’qituvchi, tarbiyachi

rahbarlik qiladi va u tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo'lgan maqsadini, shu maqsadni hal etishga xizmat qiladigan faoliyatni belgilaydi.

Tarbiya jarayonining **o'ziga xos xususiyatlari** ham bo'lib, ulardan birinchisi, tarbiyaning ko'p qirrali jarayon ekanligidadir. Tarbiyada maktab, oila, o'quvchilar tashkilotlari, jamoatchilik, mahalla, ommaviy axborot vositalari, kinoteatr, adabiyot va san'at ishtirok etadi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya inson tug'ilganidan boshlanadi va butun umri bo'yi davom etadi.

Tarbiyaning muhim **xususiyatlaridan biri**, uning yaxlit holda amalga oshirilishidir. Tarbiyaning turli tomonlari bir-biri bilan uzviy bog'langandir. Ta'limda masalan, matematika yoki ona tilining mazmunini yaxlit holda emas, balki kurs mazmunini bo'limlarga, mavzu va paragraflarga bo'lib, dasturga muvofiq ajratilgan vaqt ichida o'rganiladi. Ta'limda ko'proq muntazamlilik – ketma-ketlilik ustun turadi. Tarbiya jarayonida tarbiyaviy ishlar mazmunida doimiy takrorlanishga duch kelamiz.Boshlang'ich sinflarda ham, o'rta va yuqori sinfda ham ayni bir narsa, masalan, do'stlik, o'rtoqlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, milliy g'ururni tarbiyalash ko'zda tutiladi. Lekin ularning mazmuni bolalarning yoshi va hayotiy tajribasiga muvofiq kengayib va chuqurlashib boradi.

Tarbiyaning **yana bir xususiyati** shundaki, bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi. O'quvchi tarbiyaning faqat obyektigina emas, balki atrofdagi voqyealarga ta'sir etuvchi subyekt hamdir. Shuning uchun tarbiyachi bolaning ichki imkoniyatlarini, istak va xohishlarini, intilishini, unga bo'layotgan boshqa ta'sirlarni, tashqi axborot munbalarni hisobga olishi zarur. Shu bilan bir qatorda muhim xususiyatlardan biri, bu tarbiyada qarama-qarshiliklarning g'oyat ko'pligidir. Bu qarama-qarshiliklar bolalarda o'z tushunchalariga muvofiq dastlabki paydo bo'lgan sifatlar bilan tarbiyachi tomonidan tarkib toptiriladigan sifatlar orasida o'quvchilarga qo'yilgan talablar bilan uni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi kurashlarda namoyon bo'ladi. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini quyidagicha ifodalash mumkin.

Tarbiya jarayonining xususiyatlari				
Ko'p qirrali jarayon	Uzoq muddat davom etadi	Yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshadi	Ikki tomonlama xususiyat, bolaning faolligi	Qarama-qarshiliklar ko'pligi

Tarbiyalanuvchilarning o'zlari ham tarbiya jarayoniga faol qatnashsalargina, tarbiyaning ta'siri kuchli bo'ladi.

Prezident I.A.Karimov asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning talqin etilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'naviy-axloqiy tarbiyaga katta e'tibor berib, o'zining qator asarlarida shu masalaga to'xtalib o'tadi. Yurtboshimizning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» (1992), «O'zbekiston buyuk kelajak sari» (1998), «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» (1992), «Ma'naviy yuksalish yo'lida» (1998), «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» (1998) va boshqa ko'plab asarlarda ma'naviyat va axloqiy tarbiyaga oid g'oyalar keng yoritilgan.

Kelajagi buyuk bo'lgan mustaqil demokratik, huquqiy davlatni barpo etish ma'naviy jihatdan yetuk, axloqan pok qilib tarbiyalangan yoshlar qo'lida bo'ladi. Shunday ekan yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy va ma'naviy sohada quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozimligi yurtboshimiz tomonidan ham ta'kidlanadi:

- Insonparvarlik g'oyalariga sodiqlik;
- Milliy istiqlol g'oyasiga sodiqlik;
- Ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash;
- Qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san'atni bilish hamda ko'paytirish;

- Hur fikrlilik, vijdon va din erkinligiqoidalarini qaror toptirish;
- Ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish;
- Xalqimizning milliy, tarixiy va madaniy an'analarini, ma'naviy tajribasini ta'lim va tarbiya tizimiga uzviy ravishda kiritish;
- Ijodning barcha turlarini rivojlantirish.

Prezidentimiz ma'naviyatni aql-axloq, ongli amaliy faoliyatda shakllanishi va rivojlanishini ta'kidlab «Ma'naviyat – taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak»[1] - deb uqtiradi.

Yurtboshimiz ma'naviyatni jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi kuch deb biladi. U o'zining «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» asarida shunday deydi: «Sir emaski, har bir davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir»[2].

Ta'lim-tarbiya masalasi jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqligiga yurtboshimiz alohida e'tibor berib, ta'lim-tarbiya islohoti zrurligini asoslab beradi va: «Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi, hammasining zamirida tarbiya yotadi»[3], deydi.

Mamlakatimiz rahbari «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida «Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi»[4], - deb ta'kidlaydi.

Mustaqil O'zbeksitonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov mamlakatni rivojlantirishning iqtisodiy, siyosiy omillarini ko'rsatish bilan birga uning ma'naviy-axloqiy negizlarini ham ishlab chiqdi. Yurtboshimizning «O'zbekistonning o'z istitqlol va taraqqiyot yo'li» (Toshkent, «O'zbekiston», 1992 yil) asarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy-axloiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlanadi va bu negizlar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi (3-chizma).

(3-chizma)

[1] Каримов И.А. Ызбекистоннинг ыз истит=лол ва тара==иёт йыли. Т.: «Ызбекистон», 1992, 7-б.
[2] Каримов И.А. Баркамол авлод – Ызбекистон тара==иётининг пойдевори. Т.: «Шар=», 1998, 5-б.
[3] Баркамол авлод орзуси. Т.: «Шар=», 1992, 53-б.
[4] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йы=. Т.: «Шар=», 1998, 7-б.

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik deganda nimalarni tushunishimiz kerak? Umuminsoniy qadriyatlarga adolat, tenglik, ozodlik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikni kiritish mumkin. Bizning o'zbek xalqimiz bu qadriyatlarning nozik kurtaklarini asrlar osha asrab-avaylab kelmoqda. Mamlakatimizning kuch-qudrati manbai ham uning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir. Insonparvarlik – bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir.

«Xalqimizning ma'naviy merosini, ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun va insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri asosida shakllangan. Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning va davlatning kuch-qudratidir»[1]. Ziyolilar va o'qituvchilar asosiy vazifalaridan biri ham o'tmish ma'naviy merosimizni yosh avlodga yetkazish va buni yetkazishning yanada samarali usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Insonning o'zi va o'z oilasining baxt-saodati yo'lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlarini tashkil qiladi. Shaxs imkoniyatlari juda chuqur asoslarga egadir. O'tkazilayotgan islohotlar respublika fuqarolarining mehnatsevarligi, ishbilarmonligi va fidoiyligini namoyon etishda ularga yangi imkoniyatlar ochib beradi.

Milliy istiqlol mafkurasida komil inson tarbiyasi

O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad va muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir.

«Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masalalar, jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan. U har bir kishining oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir»[1].

Milliy istiqlol mafkuramizning bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Uning asosiy g'oyalariga quyidagilar kiradi: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq frovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik.

Milliy istiqlol mafkuramizning asosiy g'oyalaridan biri komil inson g'oyasi bo'lib, u ham milliy ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biri ham insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim, ya'ni maktabgacha ta'lim, umuminsoniy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim tizimi orqali har tomonlama yetuk – komil insonni shakllantirishdan iboratdir. Komillik uch bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Jismoniy salomatlik.
2. Axloqiy poklik.
3. Aqliy yetuklik.

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum.

Komil inson g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Zardo'shtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da halol mehnat komillikning asosiy mezoni sifatida talqin etilgan. Komil inson g'oyasi islom falsafasidan oziqlanib yanada kengroq ma'no-mazmun kasb etgan. Ibn Sino, Beruniy, Farobiy, Navoiy kabi

[1] Каримов И.А. Ызбекистоннинг ыз истит=лол ва тара==иёт йыли. Т.: «Ызбекистон», 1992, 70-71 б.
[1] Миллий исти=лол \ояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т. «Янги аср авлоди», 2001, 131-б.

mutafakkirlarning komil isonni tarbiyalash haqidagi fikrlari jamiyat taraqqiyotiga yangi va ma'naviy imkoniyatlar izlash maqsadlari bilan bog'langan, Farobiy fozil shahar aholisi haqidagi g'oyalarini ilgari surar ekan, shaxsning ma'naviy kamolotini adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti deb hisoblangan.

Professor M.Mahmudov yurtboshimizning «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin» asarida komil inson shaxsi konteksti qaraladigan yuzdan ortiq deskriptor[1] mavjudligini aytib, ularni qisqartirilgan holda keltiradi. Bular: 1) o'zini anglash; 2) o'zligini anglash; 3) an'analarini anglash; 4) xalqning orzu-istaklarini bilish; 5) jamiyat oldidagi maqsadni tushuni; 6) yagona milliy bayroq ostida birlashish; 7) xalq va davlat xavfsizligi to'g'risida qayg'urish; 8) vatanni sevish; 9) el-yurtga sadoqat; 10) insonparvarlik hissi; 11) odamiylik fazilatlari; 12) o'tmish va kelajak o'rtasidagi vorislik; 13) ulug' ajdodlar merosini egallash; 14) milliy qadriyatlarni bilish; 15) umumbashariy qadriyatlarni egallash; 16) yurt birligi to'g'risida qayg'urish; 17) o'z-o'ziga maqsad qo'ya bilish; 18) ta'lim-tarbiya birligi; 19) ta'lim-tarbiyaning ongni o'zgartirishi; 20) ong, tafakkurning jamiyatni o'zgartirishi; 21) mustaqil fikrlash; 22) iqtisodiy-siyosiy iqlim o'zgarishi; 23) insonning hayotda o'z o'rnini topishi; 24) iymoni butunlik; 25) sog'lom fikrlilik; 26) zehn-zakovatli yoshlarni tarbiyalash va shakllantirish[2].

Komil inson – bu ozod shaxs, erkin fikr yurituvchi, o'z xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o'z Vataniga halol xizmat qiluvchi kishidir.

«**Komillik** – mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuidir»[1]. Komil inson - qullik, mutelik, boqimandalikdan batamom xalos bo'lgan shaxsdir.

Tariximizda komillik timsollari ko'pdir. Alpomish xalqimizning ideal qahramoni. Navoiy uchun ideal – Farhod obrazi. Oybekning «Navoiy» romanida esa Navoiy – ideal obraz. Ayni paytda u real tarixiy shaxs, komil insondir.

Prezidet I.A.Karimov milliy mafkura va unga qo'yilgan talablar haqida

«Mafkura (arabcha mafkura – nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar, va g'oyalar majmui»[2]. Mafkurasiz jamiyat, ijtimoiy guruh yoki millat bo'lishi mumkin emas. Jamiyat ma'naviyati ichida turli mafkuralar bo'lishi mumkin. Lekin bir jamiyat, ijtimoiy guruh yoki millatning mafkurasini boshqa jamiyat, ijtimoiy guruh yoki millatga majburan qabul qildirish mumkin emas.

Yurtboshimiz o'zining ko'plab asarlarida mafkura va milliy mafkura mohiyatini yoritib bergan. «Tafakkur» jurnali muxbiri savollariga javobida mafkuraning zarurligi va ahamiyatini asoslab: «Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi mumkin. Ikkinchidan, qayerdaki, mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin», - dedi. Shu nutqida Prezidentimiz mafkuraning yaratilishi masalasiga ham to'xtab o'tganlar: «Albatta mafkurani bir kun yoki bir yilda yaratib bo'lmaydi. Chunki mafkura shakllantirilib boriladi. Uning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish mumkin. Amma bu tamoyillar real hayotda o'z o'rnini topmasa, bunday mafkura faqat qog'ozda bo'ladi xolos»[3].

---

[1] Дескриптор – (лотинча «descripto») ёзаман, тавсифлайман.

[2] Мащмудов М. Комил инсон шахси ва ижтимоий тарбия // «Педагогик мащорат», 2002, 4-сон, 6-10 бет.

[1] Миллий исти=лол \ояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т. «Янги аср авлоди», 2000, 131-б.

[2] Муста=иллик: изощли илмий-оммабоп лу\ат. Т., «Шар=», 1998, 106-б.

[3] Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси хал=ни хал=, миллатни миллат =илишга хизмат этсин // Тафаккур, 1998 й, №8, 10-б.

Yurtboshimiz milliy mafkura va u nimalarni o’zida mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerak, degan masalaga ham alohida to’xtalib o’tadi.

Milliy mafkura birinchidan, o’zligimizni, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg’ularini, xalqimizning ko’p asrlar davomida shakllangan ezgu-orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo’yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart.

Ikkinchidan, jamiyatimizdagi mavjud fikrlar va g’oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifa va guruhlarning intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e’tiqodi va dunyoqarashidan qat’iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, davlatimiz dahlsizligini asraydigan, xalqimizni buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona mafkura bo’lishi darkor.

Uchinchidan, milliy mafkuramiz har qanday millatchiliklardan xoli bo’lib, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o’zimizga munosib hurmat va izzat qozonishga poydevor bo’lishi lozim.

To’rtinchidan, milliy g’oya yoshlarimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashi, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek, olijanob ishlarimizda madadkor bo’lishi lozim.

Beshinchidan, milliy mafkura, Vatanimizning shonli o’tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog’lab turishga, o’zimizni ulug’ ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqa yo’l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil d’vat qiladigan g’oya bo’lishi kerak.

«Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» asarida yurtboshimiz milliy mafkuramizning bosh g’oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iborat ekanligini ko’rsatadi. Milliy istiqlol mafkuramizning asosiy g’oyalari sifatida esa quyidagilар belgilangan: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq frovonligi, Komil insonni tarbiyalash, millatlararo totuvlik va dinlararo bag’rikenglik (tolerantlik) (4-chizma).



(4-chizma)

Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda ta’lim-tarbiya muassasalari va oilaning roli

O’zbekiston mustaqillikkaerishganidan so’ng jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma’naviy-mafkuraviy hayotimizda ham ulkan o’zgarishlar ro’y berdi. O’zbekistonning milliy

istiqlol mafkurasi yaratildi. Chunki o’z kelajagi haqida qayg’uradigan millat hyech qachon milliy g’oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi.

Milliy mafkuramiz xalqimizning maqsad-muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o’tishga uning ruhini ko’tarib, tayanch va suyan bo’ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko’plab hayotiy va ma’naviy muammolarga javob izlaydi.

Milliy istiqlol mafkuramiz ko’p millatli O’zbekiston xalqining ezgu g’oya – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo’lidagi asriy orzu intilishlarini aks ettiradi. Ta’lim-tarbiya muassasalarida, oila, mahalla qo’mitalari, ijtimoiy institutlarning asosiy vazifasi – Milliy istiqlol g’oyamizni yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma’nviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishiga ko’maklashish, uning mohiyatini keng jamoatchilikka har tomonlama tushuntirishdan iborat.

Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda ta’lim-tarbiya muassasalari va oilaning o’rni ayniqsa muhimdir.

Milliy istiqlol g’oyasini inson qalbi va ongiga singdirish yo’nalishlari 5-chizmada o’z aksini topgan:



5-chizma

Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongi va qalbiga singdirish ta’lim-tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshiriladi. Bunda quyidagi vazifalarni nazarda tutish lozim:

- ta’lim muassasalarida bolalar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasini singdirishning differensial pedagogik-psixilogik dasturini yaratish;
- kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o’quvchi-talabalar ongida milliy g’oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;
- o’quv dasturi, darslik va qo’llanmalarda milliy istiqlol mafkurasi g’oyalarini teran aks ettirish;
- maktab, lisey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko’tarish;
- Pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Hozirgi kunda barcha o’quv dastur va darsliklarida milliy istiqlol mafkurasi g’oyalari keng aks ettirilgan, shuning uchun har bir fanni o’qitish davomida hm o’quvchilarimigga milliy istiqlol g’oyasi singdiriladi. Bu masala dars maqsadini belgilashda alohida milliy istiqlol g’oyasini singdirish bo’yicha ham maqsad belgilanayotganligida yana bir bor o’z ifodasini topadi. Turli ijtimoiy fanlarni, jumladan mustaqilligimizdan keyin ta’lim jarayoniga kiritilgan Odobnoma, Vatan tuyg’usi, Ma’naviyat asoslari, Konstitusiya asoslari, Inson va jamiyat kabi fanlarning milliy istiqlol g’oyasini singdirishdagi imkoniyatlari yana ham beqiyosdir.

Turli tarbiyaviy tadbirlar, sinfdan tashqari ishlar jarayonida ham milliy istiqlol g’oyasi o’quvchilarimizga chuqur o’rgatilib borilmoqda.



6-chizma

Oila mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Shaxs ma’naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e’tiborga oid ko’nikmalari majmui asosan oilada shakllanadi. Milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga avvalo oila muhitiga singadi. Bu jarayon bobolar o’giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Oila, uning asrlar davomida saqlanib kelayotgan muqaddas an’analari orqali yoshlarga Vatanga muhabbat, iymon-e’tiqod, mas’uliyat, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq va yurt taqdiriy uchun fidoiylik tuyg’usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o’rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an’analarimizga xos shakllarini qo’llash lozim. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o’yinlar, o’yinchoqlar, rasmli kitoblar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalardagi ilk yoshlikdagi mafkuraviy qarashlarning to’g’ri shakllanishga qo’l keladi.

Oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an’analarimizni eng nodirlarini turmushga singdirish orqali bolalarda milliy qadriyatlarga mehr-muhabbatni uyg’otish, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalash mumkin.

Oilalarimizda bolalarga mafkuraviy tarbiya berishda oiladagi katta kishilarining, ayniqsa, bobo va buvilarning o’rni kattadir. Bunday tarbiya an’anasi buyuk ajdodlarimiz taqdirida muhim o’rin tutadi. Masalan, Amir Temurning nevaralari tarbiyasi bilan ularning onalari emas, balki buvilari shug’ullanishgan.

Xullas, oila, ota-ona, bobo-buvilar o’z bobolarining axloqi va huquqiy madaniyati uchun jamiyat oldida javobgar ekanliklarini unutmasliklari lozim.

Tarbiya qonuniyatlari va qoidalari

Tarbiya nazariyasi – pedagogika fanining muhim bir qismi bo'lib tarbiya jarayonining mazmuni, usuli va qoidalari, tashkil etish shakllarini o'rganadi. tarbiya jaryonining mohiyati shu jarayon uchun harakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda nomoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rastishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-birlari bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish ko'p jihatdan tarbiya qoidalariga amal qilishiga ham bog'liqdir. **Tarbiya qoidasi** - bu pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. tarbiya qoidalari deganda o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar tushuniladi, ular komil insonni shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlariga asoslanadi. Tarbiya qoidalari mustaqil harakterga ega bo'lib, tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi.

Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin: «tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi; tarbiyaning insonparvarlik va demokratiya qoidasi; tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi qoidasi; tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi qoidasi; tarbiyada o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish qoidasi; izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi»[1].



7-chizma

Tarbiyaning maqsadga qaratilgan qoidasi. Tarbiyadar ko'zlangan asosiy maqsad, har tomonlama yetuk, komil shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Shunga ko'ra, tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni ko'zda tutadi. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Ko'pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa o'quvchilar jamoasining aqliy va axloqiy o'sishini ta'minlaydi. har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o'ylangan, muayyan maqsadni

[1] Педагогика. Ы=ув =ылланма. А .Мунавваров тащририда. Т., «Ы=итувчи», 1996, 119-120.

amalga oshirishga bo'ysundirigan bo'lsa, uning g'oyaviy-siyosiy darajasini ko'taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta'siri yuqori bo'ladi.

Tarbiyadagi insonparvarlik va demokratiya qoidasi mohiyat shundan iboratki, tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bolaning o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim.

Tarbiyada **milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi qoidasi** tarbiya jarayonida o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosiga, an'analariga, umuminsoniy qadriyatlariga tyangan holda ih ko'rishni nazarda tutadi.

Tarbiyada **izchillik, tizimlilik** – tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizligi qoidasi o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilishni, o'quvchiga birdaniga juda ko'p talab qo'ymaslikni, tarbiyada maktab, oila, jamoatchilik talabining bir xil bo'lishini talab qiladi.

Tarbiyaning maqsadga qaratilganligi va demokratiya qoidasi

Tarbiya qoidasi – pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil etishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar tarbiya qoidalarida o'z ifodasini topadi. (Tarbiya qoidalari to'g'isidagi ma'lumot mazkur lug'atda berilgan).

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad, har tomonlama yetuk, ma'naviy rivojlangan, aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat ekan, tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni nazarda tutadi. Tarbiyaning maqsadga qaratilganlik qoidasi shularda o'z ifodasini topadi.

Umumiy ta'lim maktabining asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish, imkoni boricha qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Maqsadga intilish va maqsad bir xil narsa emas, maqsadni amalga oshirish uchun harakat qilish lozim. Shaxsning shakllanish manfaatlari har bir pedagogik tadbirni tarbiyaning umumiy maqsadlari bilan bog'lashni, uni rejali tarzda va qat'iy sur'atda amalga oshirishga harakat qilishni talab etadi. Tarbiya sohasida qanday ish olib borilmasin, avvalo tarbiyachi va o'qituvchi tarbiyaning maqsad va vazifasini aniq tasavvur etishi va anglab olishi lozim. Maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan barcha ishlar o'ylangan muayyan maqsadni amalga oshirishga, umuman olganda komil insonni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Tarbiya jarayonida insonparvarlik va demokratiya qoidasiga amal qilish hozirgi kunning muhim talabidir. O'quvchilarga insonparvarlik tarbiyasini singdirishda Qur'oni Karim, Hadisi sharifdan, buyuk allomalarimizning axloqiy-didaktik asarlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktablarda barcha fanlarni, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida tarbiyaga, jumladan insonparvarlikhis-tuyg'ularini shakllantirishga katta e'tibor qaratish lozim.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yoshlarning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim.

Tarbiyani demokratiyalash – bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat olmilini kiritish demakdir.

Demokratik tarbiya shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi erkin fikr, falsafiy-siyosiy, huquqiy, estetik, axloqiy, badiiy-kasbiy qarashlarnish shakllantirish jarayoni hisoblanadi. Demokratik tarbiya – muayan ijtimoiy guruh a'zolariga xos mavjud ehtiyojlar, tilak, orzu, umid, erkinliklar hamda manfaatlar

mahsuli sifatida yaratiladi. Demokratik tarbiya eng avvalo, xalq hokimiyatchiligi, qonun ustivorligi, erkinligi, tengligi, yuksak e'tiqod, iymon, Vatan va xalq oldidagi mas'uliyat, vatanparvarlik, fidoiylik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham biror jamiyat, ijtimoiy guruh demokratik mafkurasini boshqa bir ijtimoiy guruh ongiga majburan singdirib bo'lmaydi. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyati va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi, shaxsning rivojlanish va o'zligini anglash huquqini ta'minlaydi.

Mohir o'qituvchi o'quvchining fikrini diqqat bilan tinglay oladi, unga dalda beradi, tinchlantiradi, bolalarni sevadi, ularni teng ko'radi, har bir ishni adolat bilan hal qilib, o'zining insonparvarligini namoyon qiladi. O'qituvchining o'zi ham o'quvchining qalbiga yo'l topishi uchun faqat bilimi bilangina emas, balki odob-axloqi, madaniyati, shirinsuxanligi, umuman olganda insoniy sifatlari bilan namuna bo'la olishi mumkin. Shundagina o'qitusvchi va o'quvchi orasida haqiqiy do'stona munosabat qaror topadi. O'qituvchi o'quvchini o'z hamkori deb biladi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriatlarning ustivorligi qoidasi

Tarbiya qoidalari o'qituvchi va tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalarda o'z aksini topadi va yangi, komil insonni shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf-donishmandlari (Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Maturudiy, Koshifiy, Marvaziy, Baxouddin Naqshband, Xo'ja Axmad Yassaviy)ning fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiyaviy jarayonda bu qoidalarga amal qilish tarbiyaning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi. Tarbiyaning maqsadga qaratilganlik, insonparvarlik va demokratiya qadriyatlarining ustunligi qoidasi ham muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati va ma'naviyati bilan tanishtirish juda muhimdir. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanishga oid ko'rsatmalar beriladi. Shuning uchun tarbiya jarayonida xalqimizning madaniy merosini o'rganish, milliy o'ziga xosligi, ma'naviy xususyailarini hisobga olib, xalq pedagogikasi an'analariga suyanib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda qadriyatlar o'zi nima? degan savolning tug'ilish ham tabiiydir. Professor J. Tulenovning ta'rificha: «Qadriyatlar deyilganda faqat o'tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi»[1]. Qadriyat degan tushuncha qadr-qimmat degan ma'noni bildiradi.

Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. O'zbek xlqi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Al-Buxoriy, al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'quvchilar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shavqat, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, odamlar orasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish, do'stlik, ota-onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qaror topishiga katta ahamiyat berganlar.

Istiqlol mafkurasi xalqimizning tabiati, irodasi, orzu-intilishlarini ifodalay digan qator milliy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat (8-chizmaga qarang):

[1] Туленов Ж., /офуров З. Фалсафа. – Т., «Ы=итувчи», 1997 й., 285-бет.



8-chizma

Milliy qadriyatlar bilan birgalikda, adolat, tenglik, ozodlik, ahil qo'shnichilik, insonparvarlik kabi umuinsoniy qadriyatlar mohiyatini ham yoshlarga yoritib berish, shu qadriyatlarga mal qilishga tayyorlab borish pedagogikaning muhim vazifalaridan deb belgilanadi.

Istiqlol mafkuramiz ham quyidagi umumbashariy qadriyatlardan oziqlanadi.



9-chizma

Tarbiya metodlari va ularning tasnifi

Tarbiya metodi – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Tarbiya metodlari – tarbiya usullari deb ham yuritiladi. «Metod» so'zi yunonchadan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nosini bildiradi. Tarbiya metodi – tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yo'lida biror-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etish shakllari majmuasidir. Axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab tarbiya usullari quyidagi turlarga bo'linadi (10-chizmaga qarang):



10-chizma

Tarbiya murakkab jarayon bo’lib, uning usullari, vosita va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, o’zini oqlagan urf-odatlar an’anaga aylanadi. Xalq pedagogikasida turli tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi, bu usul va vositalar nihoyatda rang-barang bo’lib, ko’p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Bu usullar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o’z ta’sirini o’tkazgan. Xalq pedagogikasida qo’llanilgan usullar: tushuntirish, namuna, nasihat, ogit berish, qoralash va jazo.

Pedagogikada tarbiya metodlari quyidagi guruhlarga bo’linadi: ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar; faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish metodlari; o’z-o’zini tarbiyalash usullari; rag’batlantirish va jazolash metodlari.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlarga o’quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e’tiqodni, ma’naviy va siyosiy g’oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongli, hislari va irodasiga ta’sir ko’rsatish usullari kiradi. Bu usullar orqali jamiyat o’quvchilar oldiga qanday talablar qo’yayotgani yetkaziladi. Bular asosan so’z orqali ifodalanadi (11-chizma).

11-chizma

O’quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya’ni davlatning ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilishni tarbiyalash lozim. **Tushuntirish** – ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko’p ishlatiladigan usuldir. Tushuntirishda o’quvchilarga mamlakatimiz fuqarosining o’z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog’langanligi borasida ma’lumotlar beriladi. O’quvchilarga davlatimiz gerbi, bayrog’i, madhiyasi, konstitusiyasi mohiyati tushuntiriladi.

Suhbat va **hikoya**. O’quvchi shaxsini g’oyaviy va axloqiy shakllantirishda o’qituvchining jonli so’zi eng ta’sirli usul hisoblanadi. Suhbat etik (jamiyatda axloq mezonlari), estetik, siyosiy, ta’lim va bilishga oid mavzularda uyushtirishi mumkin. Suhbat davomida o’quvchilarning dilidagini aytish jasoratini uyg’otish o’quvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish juda muhimdir. Bunda bahs-munozaralarning ahamiyati kattadir.

Hikoya. O’quvchilarga axloq mezonlari, Vatanimizning tabiiy-madaniy boyliklari, ajoyib mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san’at haqida hikoya qilib berish mumkin. Suhbat va hikoya o’quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ularning qiziqishini hisobga olgan holda

tanlanishi va o’tkazilishi lozim. O’quvchilar mavzuga befarq qaramasliklarini ta’minlash kerak bo’ladi.

Namuna. O’qituvchining shaxsan o’zi namuna bo’lishi o’quvchilarga katta ta’sir ko’rsatadi. Ular o’qituvchining darsda va hayotda o’zini qanday tutishini, atrofdagi odamlar bilan qanday muomala qilishini, o’z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar. O’quvchilar oiladagi kattalarning, atrofdagilarning xulq-atvoriga ham taqlid qiladilar, ulardagi ijobiy yoki salbiy xislatlarni o’zlariga singdirib olishlari mumkin. Shuning uchun kattalar bolalar yonida doimo e’tiborli bo’lishlari, har qanday holatda ham o’zlarini tutishlari lozim.

Turli allomalar, ilg’or kishilar hayoti va faoliyatidan olingan yorqin ma’lumotlar, badiiy asarlar, filmlardagi qahramonlar xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta’sir qiladi. Maktablarda turli kasblarning ilg’or vakillari, mashhur kishilar, sportchilar, san’atkaorlar bilan uchrashuvlar o’tkazish juda yaxshi samara beradi, bolalar shu kishilarga o’xshashga intiladilar, ularga taqlid qiladilar. O’qituvchi va ota-onalar, jamiyatdagi katta kishilar har tomonlama yoshlarga ibrat bo’lishga arziguli bo’lishlari hozirgi kun talabidir (12-chizmaga qarang).



12-chizma

Tarbiyada ko’rgazmalilik usulidan foydalanish mumkin. Unga quyidagilar kiradi (13-chizmaga qarang):

13-chizma

Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari

Har bir o'qituvchi o'quvchilarni qay usulda qanday munosabatlar jarayonida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalash lozimligini bilish kerak. Shuning uchun o'qituvchi tarbiya usullari haqida keng va atroflicha bilimga ega bo'lishi lozim.

Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantiruvchi metodlarga mashq va o'rgatish; topshiriq, pedagogik talab kiradi. Bola rivojlanishining o'zligini belgilashning asosiy omili – bu faoliyatdir. Faoliyat o'quvchilarni bilimlarni mustaqil egallashga undaydi, ularni qaysi ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o'zlashtirishlariga yordam beradi.



14-chizma

Mashq va o'rgatish usullari. Mashq bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq-atfor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi.

Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchilarning aqliy qobiliyati rivojlanadi, axloqiy tajribasi kengayadi. Odatsiz tarbiya – poydevorsiz binoga o'xshaydi, odat esa muntazam mashq orqali mustahkamlanadi.

O'rgatish – ijtimoiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim. Faoliyatda mashq qilish, kun tartibi mashqlari, maxsus mashqlar kabi mashq turlari mavjud.

Topshiriq. O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar. Mehnat qilish bolani xarakterini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab – bu o'quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; u yoki bu harakatda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona harakatlarga undoo'chi bo'lishi mumkin.

Rag'batlantirish va jazolash – tarbiya metodi sifatida

Pedagogikada rag'batlantirish va jazolash ham tarbiya metodi sifatida ishlatiladi. Bizning tarbiya tizimimizda rag'batlantirish va jazolash bola shaxsini hurmat qilishga asoslanadi va qadr-qimmat tuyg'usini tarbiyalashga qaratilgan. Rag'batlantirish va jazolash avvalo bolalarning xarakteri va xulqida ijobiy xislatlarni o'stirishga, ularning xatti-harakati va xulqini to'g'ri yo'lga solib yuborishga hamda paydo bo'lgan ijobiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Rag’batlantirish bolaga ishonishga, unda bo’lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarning kuchini e’tirof etishga asoslanadi. Rag’batlantirish o’quvchining ko’nglini ko’taradi, unga quvonch keltiradi, o’quvchini yanada yaxshiroq bo’lishga intilishga yordam beradi. Maktablarda rag’batlantirishning quyidagi turlari qo’llaniladi:

1. O’quvchining kuchi yetadigan, mas’uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish;
2. Maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);
3. Esdalik sovg’asi berish (kitob, o’quv quroli va boshqa narsalar);
4. Maqtov yorlig’i berish;
5. Stipendiya bilan taqdirlash;
6. Hurmat taxtasiga fotosuratini qo’yish;
7. Qo’llab-quvvatlash;
8. Musobaqalarda bayroq ko’tarish va boshqalar (15-chizmaga qarang).



15-chizma

Har qanday rag’batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo’llanishi lozim. Ya’ni rag’batlantirish haqiqiy xizmatga muvofiq kelishi, ketma-ket bo’lmasligi, haddan oshiq bo’lmasligi, boshqa o’quvchilarga taqqoslab ularni ularni kamsitishga yo’l qo’ymasligi lozim.

Jazolash – bu tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazolashdan bola o’z qiliqlarining nojo’ya ekani ustida jiddiy o’ylaydi va buni ikkinchi marta takrorlamaslikka intiladi. Bolalarni bo’lar-bo’lmasga jazolash foyda bermaydi. Bir marotaba o’rinli va haqqoniy jazolash, xulqi noma’qul ekanligini uning ongiga yetkazish kifoya, bu o’z xatosini to’g’rilashga imkon beradi.

Jazo choralarini qo’llaganda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo’rqitish g’azablantirish ham natija bermaydi, o’quvchi qo’rqqanidan yolg’on gapirishga o’rganadi, ikkiyuzlamasi bo’lib qoladi.

Maktabda quyidagi jazo turlari qo’llaniladi (16-chizma):

16-chizma

Tanbeh berish – eng yengil jazo chorasidir. O'qituvchi bolaga yuzma-yuz tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Ogohlantirish – noma'qul xatti-harakatning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Hayfsan berish – agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, o'quvchining aybi qay darajada va uning intizomni qanday sharoitda buzganini hisobga olib unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda, odamda izzat-nafs, odamiylik qanchali kuchli bo'lsa, avvalo o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu hislarni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga erishish mumkin.

Yoqtirgan narsa (sayr, kinofilm tomosha qilish, do'stlar bilan uchrashish va h.k.)dan mahrum etish.

Jazo ham yaxshi o'ylab qo'llanilishi, o'quvchining aybiga mos bo'lishi, uni tahqirlamasligi va sha'nini bukmasligi lozim.

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarshni shakllantirish yo'llari

Dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va hokazo qarashlari va tasavvurlari majmuasidir. Dunyoqarash bu olam haqidagi yaxlit umumlashtirilgan bilimlar to'plamidir.

Dunyoqarash tushunchasi «dunyoni his qilish», «dunyoni tushunish» iboralari bilan uzviy bog'liqdir. Dunyoqarash faqat insongagina xos xususiyat bo'lib, hayvonot dunyosi, boshq-a narsa, buyumlar va mavjudotlar uchun bu hol yotdir.

Ilmiy dunyoqarash turli kasb egalarida turlicha – to'laroq, mukammalroq, chuqurroq yoki yuzakiroq, chalaroq, sayoz va xomroq bo'lishi mumkin.

Hozirgi sharoitda kishilarning ongi, dunyoqarashida yangicha fikrlash yusini mustahkamlanmasa, mustaqillikning g'oyasi, mazmuni va mohiyati ularga tushuntirilmasa katta o'zgarish sodir bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham hozirgi muhim masala xalqning ongidagi eskicha dunyoqarashni o'zgartirish, iqtisod, siyosat, madaniyat jabhalarida yangicha fikrlashni o'rgatish mustaqillikni mustahkamlash sharoitida o'z haq-huquqlarini anglash va noxush holtalarni hayotga kirib qolmasligiga unga qarshi kurashishga undashdan iborat. Bu esa ilmiy dunyoqarashning tarkibiy qismlaridandir.

Aql har bir insonga xos tug'ma xususiyat bo'lib, miya sog' bo'lsa, aql ham yaxshi ishlaydi, aksincha miya kasallangan bo'lsa aql past, zaif bo'ladi. Aqli zaif kishi dunyoni bilishda, oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan ilmlarni va mavjud bilimlarni o'zinikiga aylantirib o'zlashtira olishda qiynaladi. Ilm va bilim bir narsa emas, ilm mavjud, bor, yaratilgan narsa, bilim esa kishi tomonidan bilib olinadigan, o'ziniki qilib olinadigan narsadir. Aql, did va ilm nazariyaga – farosat, tamiz, bilim amaliyotga, tajribaga taalluqlidir. Tafakkur va til haqidagi muammo bilish bilan chambarchas bog'liq bo'lib tasavvur, tushuncha, aql, idrok tafakku jami bir bo'lib ong degan falsafiy tushunchani beradi.

Sezgi – kishini o'rab olgan moddiy dunyo, predmet va hodisalarining ongimizda aks etishidir. Hissiy bilish sezgidan tashqari, hissiy qabullash, tasavvur kabi shakllarga ega bo'lib, ular ham voqyea va hodisalarni chuqurroq bilishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, bilish ilmiy dunyoqarash jonli kuzatishdan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish orqali amalga oshadi.

Ilmiy dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida doim vorislik asosida rivojlanadi. O'tmish dunyoqarashlari yangi davr dunyoqarashlarining ildizini tashkil etib, uni hayotbaxsh ozuqa bilan ta'minlab turadi.

Dunyoqarash qotib qolgan, hyech qachon o'zgarmaydigan o'lik g'oyalar yig'indisi emas. Jamiyatning o'zgarishi bilan uham doimo rivojlanib, mazmunan o'zgarib turadi. Buni biz o'z jamiyatimiz hayotidan yaqqol ko'rib turibmiz. Mustaqillik tufaydi endilikda umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizga asoslangan, hozirgi davr talabiga javob beradigan yangi mafkura

yaratilmoqda va uning asosida kishilarda yangicha tafakkur, dunyoqarash shakllanib rivojlanmoqda.

Dunyoqarashning doimo o'zgarib rivojlanib turishi uning tarixiy turlarining – mifologik, diniy va falsafiy qarashlarning almashuvida namoyon bo'ladi (17-chizmaga qarang).



17-chizma

Mifologik dunyoqarash – ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi – naql va afsonalarda gavdalantirilgan ijtioiy ongning asosiy shaklidir.

Mifologik (yunoncha mifos – naql, rivoyat, logos – tushuncha, ta'limot) dunyoqarash – ijtimoiy taraqqiyoning eng boshlang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi – naql va afsonalarda gavdalantirilgan ijtioiy ongning asosiy shaklidir.

«Olam qanday paydo bo'lgan? Quyosh, oy va yulduzlarni kim yaratgan? Bu sir-sinoatga to'la borliqning so'ngi qayerda?» degan savollar odamzotni azaldan qiziqtirib kelgan.

Ushbu savollarga odamzot topgan dastlabki javoblar miflarda ifodalangan va ular butun bir mifologik tizimni hosil etgan. Qadimiy turkiyxalqlarda ham shunday miflar mavjud bo'lgan. Misol tariqsida yer, osmon, yulduzlarning tashkil bo'lishi, tuzilishi va o'zaro munosabati haqidagi mifologik naqllarni keltiramiz.

1. Yerning ustidan osmon do'ppiday yopib turadi. Eng balandda, o'rtada Temir qoziq yulduzi turadi. Jami yulduz yer bilan temir qoziqning (atrofida) chir aylanadi. Yerning ostidayam bir temir qoziq yulduzi bor. Ikki temir qoziq tortishib, yer qimirlamay turadi.

2. Hulkar avval yetti yulduz bo'lgan. Birovini yetti qaroqchi olib, oltitasi qolgan. Yetti qaroqchi Hulkar bilan Qambarning o'rtasiga tushib, ularni yuz ko'rmas qilib qo'ygan. Avval ular bir-birini yaxshi ko'rishgan. Hozir Hulkar botsa, Qambar chiqadi. Qambar botsa, Hulkar tug'adi. Hulkar - qiz, Qambar – yigit deyishadi. Oxiri qiyomatda Hulkar bilan Qambar ko'risharmish.

3. Osmon qavat-qavat bo'lar ekan. Nechanchidir qavatida bir daraxt bor ekan. Har bir odamning oti yozilgan barg shu daraxtda bo'lar ekan. Odam o'lsa barg so'lib, uzilib tushar ekan. Bari yerga tushayotganda, biror odamga tegib ketsa shu odamning qulog'i chimirlar ekan. Shunday vaqtda kalima qaytarish kerak ekan.[1]

Diniy dunyoqarash – mifologiya (afsona) negizida shakllangan varivojlangan. Diniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundaki, u tabiiy va ijtimoiy hodisalar mohiyatini ularning o'zidan emas, balki tabiatdan tashqarida Ollohning qudratiga bog'lab hamma narsada va har yerda ilohiy kuchlarning ta'siri, mo'jizaviy kuchi bor deb tushuntiradi.[2] Diniy dunyoqarashning xalq ongiga singib qalbida chuqur ildiz otib ketishining boisi shundan iboratki, ular oddiy kishilarning ruhiyatiga moslab ularning hissiyoti, tafakkuriga ta'sir etadigan va ko'p vaqtgacha esda saqlanib qoladigan yorqin obrazlar, afsona va rivoyatlar shaklida izhor qilinishidadir.

Islom ta'limotidagi har bir afsona va rivoyatlarda katta hikmat, falsafiy fikr, ma'no mavjuddir. Shuning uchun ham ular barhayot bo'lib avloddan-avlodga o'tib, bizning davrimizgacha yetib keldi. Bunday ma'naviy boylikni ehtiyot qilishimiz lozim.

[1] Турдимов Ш. Сир тыла дунё // «Мактабгача тарбия», 1992, 2-сон, 40-бет.
[2] Ж.Тулинов, З./офуров. Фалсафа. Т., «Ы=итувчи». 1997, 22-25 б.

Falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati u dunyoni qanday bo'lsa, shundayligicha, hyech bir yot narsani aralashtirmay mubolag'asiz tushuntiradi, u kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkurini rivojlantirishning eng muhim qonuniyatlari haqida bir butun, yaxlit ma'lumot berib, mifologiyadan farqli ravishda insonni qurshab olgan moddiy olamni hyech kim tomonidan yaratilmaganligini, abadiyligini, insoniyat jamiyati taraqqiyoti sabablari va mohiyatini o'ziga xos xususiyatilarini,qonunityatlarini ilmiy asosda tushuntirib beradi. Falsafiy dunyoqarash kishilarda olam haqida bir butun to'g'ri, yaxlit dunyoqarashni shakllantirishdan tashqari barcha fanlar uchun dunyoni bilishdagi metodologik qurol hamdir.[1] Mifologik va diniy dunyoqarash hissiy a'zolarimiz orqali erishilgan ma'lumotlar asosida shakllansa, falsafiy dunyoqarash hissiy va aqliy a'zolarimiz tufayli ilm-fan yordamida to'plagan bilimlar yig'indisidir. Falsafiy dunyoqarash kishilarga tabiat, ajmiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga u insonni qurshab turgan olamni, dunyoni va uning taraqqiyot qonunlarini bilish mumkinligini, bilish esa murakkab ziddiyatli jarayondan iboratligini ta'kidlaydi.

Dunyoqarash pedagogik jarayonda ham asos bo'lib xizmat qiladi. Bilimlarni egallash murakkab jarayon bo'lib, u insondagi eng avvalo fiziologik jihatdan barkamolllikni, ya'ni 5 asosiy sezgi organlarini bus-butun bo'lishini hamda bilim olish uchun tinimsiz mashq qilishni talab etadi. Inson tafakkuri vositasida ilm egallaydi, ilm tufayli dunyoi biladi va uni boshqaradi, abiatni o'ziga moslashtiradi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda avvalo, maktablarda o'qitiladigan tabiiy-ilmiy, aniq fanlarning, shu bilan birga badiiy adabiyotning xalq og'zaki ijodi, ertak, hikoya va qissalarning ahamiyati beqiyosdir.

Ilmiy dunyoqarashni amalga oshirishda kishi narsa va buyumlarning, voqyea va hodisalarning ko'rinib turgan ifodasmiga emas, balki ularning ichki mohiyatiga, mazmuniga qarab baho berish kerak.

Milliy ong va uning tarkibiy qismlari

«**Milliy ong** – bevosita har bir millat va elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning bevosita ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy sohalarda faollik darajasi»[2].

Inson ongli bo'lib tug'ilmaydi. Uning ijtimoiy fazilatlari, ya'ni ongi oila, jamiyat ta'siri tufayli shakllanadi. Millatning o'ziga xos ongi ham shunday shakllanadi.

Milliy ong millatlarning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, mehnati, boshqa millatlar bilan muloqati jarayoni paydo bo'ladi va til bilan uzviy bog'liqdir. Millat o'tmish ajdodlar va katta avlodlar yaratgan buyumlar, tushunchalar olamini ota-ona tili orqali o'zlashtirib borib, o'z ongini qaror toptiradi.

Milliy ong asorati, ya'ni istibdod tuzumi yoki mustamlakaviy holat milliy ongni tubanlikka olib keladi. Sobiq sho'ro tuzumi davrida milliy ong taraqqiyoti milliy siyosat tufayli cheklangan edi. Mustaqil O'zbekistonda esa milliy ong millatlarimiz qoldirgan madaniy merosga va qadriyatlarimizga tayanib vatanparvarlik g'ururini, barchaning ongiga jo qilmoq birinchi darajali vazifadir.

Milliy ong – O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning samarali omillaridan biridir. Milliy ongni davr talabi darajasiga ko'tarish uchun katta ishlar qilish lozim. Birinchi navbatda, qaramlik, norosolik hissiyotidan qutilishimiz, ikkinchidan, Markaziy Osiyodagi o'z o'rnimizni, insoniyat oldidagi mas'uliyatimizni bilmog'imiz, uchinchidan, tariximiz, madaniyatimiz va ma'naviyatimizni, an'analarimizni har tomonlama o'rganmog'imiz lozim.

O'zbekistonda o'zbeklarning milliy ongini ko'tarishga birinchi darajali masala deb qaragan holda, mamlakatimizda yashovchi barcha millatlar va elatlar vakillari madaniyati, tili, urf-odatlari, binobarin milliy ongining o'sishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Milliy ongning tarkibiga milliy ruh, milliy his va milliy iftixor ham kiradi.

---

[1] Ж.Тулинов, З./офуров. Фалсафа. Т., «Ы=итувчи». 1997, 30-бет

[2] Муста=иллик изощли илмий-оммабоп лу\ат. Т., «Шар=», 1998, 133-б



18-chizma

Milliy ruhiyat – millatning ichki holati, kechinmalari, his-tuyg'ularini, ma'nviy dunyosi, o'y-fikrlari, maqsad va maslaklari hamda kayfiyatlari bilan bog'liq mulohazalari majmuidir.

Milliy iftixor tuyg'si – o'z milliy mansubligidan millatning boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosidan, uning jahon sivilizaiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish va fxrlanish imkoniyati. Milliy iftixori kuchli bo'lgan shaxs o'z mamlakati bilan faxrlana oladi va uning taqdiriga befarq qaramaydi. Milliy iftixori kuchli bo'lgan shaxs istiqbolni chuqurroq anglaydi, uning ertasi bugungidan ko'ra mukammalroq bo'lishiga intiladi. Shuning uchun biz yoshlarimizda milliy ongni shakllantirish uchun ta'lim-tarbiyaviy faoliyatimizda katta sa'y-harakat ko'rsatishimiz lozim bo'ladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning o'zaro bog'liqligi

Qadriyatlar deyilganda faqat o'tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi. Qadriyat tushunchasi qadr-qimmat, degan ma'noni bildiradi.

Qadriyatlar o'zining mohiyati va xususiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi (19-chizmaga qarang).



19-chizma

Qadriyatlarning muhim turlaridan biri **tabiiy qadriyatlar** bo'lib, unga insonning yashash va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlar: yer va yer osti boyliklari, suv, havo, o'rmonlar, o'simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar kiradi

Qadriyatlar moddiy va ma'naviy qadriyatlarga ham bo'lanadi.

Moddiy qadriyatlarga kishilarning moddiy ehtiyojlarini bevosita qondiruvchi narsa (ishlab chiqarish vositalari, mehnat predmetlari, moddiy ne'matlar)lar kirsa, **ma'nvaiy qadriyatlar** siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy, estetik, falsafiy, axloqiy qadriyatlardan iboratdir. Yashash va rivojlanish uchun moddiy ne'matlar qanchalik zarur bo'lsa, ma'naviy qadriyatlar ham muhimdir.

Odob-axloq, urf-odatlar, marosimlar shaklida namoyon bo'ladigan qadriyatlar ham bo'lib, bu xalqimizning eng qimmatli boyligidir.

Yaxshilik, halollik, poklik, xayrixohlik, hamkorlik, sodiqlik udumlariga asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan muhim qadriyatlarimiz ham bor.

Estetik qadriyatlarga birinchi navbatda barcha tabiiy va ijtimoiy go'zalliklar kiradi.

Barcha davlatlarda **inson** eng oliy qadriyat hisoblanadi. Bizda inson ulug'lanadi, u hamma narsadan ustun turadi, hamma narsa inson uchun xizmat qilishi lozim.

Milliy qadriyatlar ayrim xalq va millatlar tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisidan iborat. Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, millatning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini har tomonlama qamrab oladi. (Mazkur kitobning «Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi qoidasi» nomli mavzusiga qarang).

Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat sivilizasiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy muammolar ham kiradi. Ularning asosiylari yer yuzida ilm-fanni taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, yadroviy qurollar poygasini to'xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish,sanoat xom ashyos, energiya manbalari va oziq-avqat bilan ta'minlash, koinot va jahon okeani resurslarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar kiradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liq. Ularning har ikkalasi bir-biriga ta'sir etadi, biri ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan boyitadi. Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmun jihatdan chuqur va keng bo'lib, uni o'z ichiga oladi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlarining yaxlitligi va umumiyligini ifodalaydi.

Milliy qadriyatlarning mazmun va mohiyatini bilish, ularga e'tiqod qo'yish yosh avlodda insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi.

Yagona o'quv-tarbiya jarayonida fuqarolik tarbiyasi

Tarbiya ko'p qirrali jarayon ekan, bu jarayonda komil insonga xos barcha sifatlar shakllantirilishi, tarbiyaning barcha turlari berilishi lozim. Shaxsni shakllantirish va kamol toptirish jarayonida fuqarolik tarbiyasini berish tarbiyamizning muhim vazifalaridan biridir.

«Ta'lim to'g'riida»gi Qonunda ham yoshlarning fuqarolik tarbiyasiga e'tibor qaratilgan. Qonunning maqsadi fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy huquqini ta'minlashdan iborat ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Qonunning 4-moddasi fuqarolarning bilim olish huquqiga, 5-moddasi esa pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga bag'ishlangan. «Ta'lim to'g'riida»gi Qonunni va boshqa har qanday hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qonunlar, farmonlar, qarorlarni va ularga amal qilishni o'rganish o'quvchilarda fuqarolik yetukligini tarbiyalashda xizmat qiladi.

Milliy istiqlol mafkuramizning bosh maqsadidan qanday fuqaroni shakllantirish davr talabi ekanligini bilib olishimiz mumkin. «Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish mamlakatimizda yashaydigan millati, tili, ap dinidan qat'iy nazar har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli

va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir»[1].

Fuqarolik tarbiyasining asosini esahuquqiy tarbiya tashkil qiladi desak xato bo’lmaydi. Xalqimiz ko’p asrlik boy huquq va huquqiy madaniyat tarixiga ega.

O’zbekistonimiz mustaqil, demokratik, huquqiy davlat ekan, u insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab boradi. Qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa shaxsning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirib bo’lmaydi.

O’quvchilarning ongiga yuksak fuqarolik, ma’naviy barkamollik sifatlarini singdirishda tarbiyaning barcha omil va vositalaridan pedagogik ishning barcha usullaridan odilona, maqsadga muvofiq foydalanish o’zining samarali natijalarini beradi. Jumladan, davlat ramzlari va ularning mohiyatini darslarda va sinfdan tashqari tadbirlarda o’quvchilarga o’rgatib borish o’quvchilarning huquqiy va axloqiy his-tuyg’ulariga, vatanparvarlik qarashlariga yaxshi ta’sir ko’rsatadi.

O’quvchilarda vatanparvarlik va baynalmilallik sifatlarini shakllantirish ham fuqarolik tarbiyasining muhim tarkiblaridan biridir. Vatanga muhabbat shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi, baynalmilallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida vatan boyliklarini ko’paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarda namoyon bo’ladi.

O’quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashda davlat ramzlaridan foydalanish

Har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonidan kutilgan asosiy natija ekan, yoshlarimizga kompleks tarbiya berishimiz lozim. Ayniqsa, ularda fuqarolik hissini shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish, vatanparvar va baynalmilal insonlar qilib yetishtirishga, mustaqil fikrlash ko’nikmalarini o’stirishga alohida ahamiyat qaratishimiz lozim. O’quvchilarga huquqiy tarbiya berishda va ularni vatanni sevishga o’rgatishda davlat ravmzlaridan foydalanishning ahamiyati kattadir.

Davlat ramzlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish, ta’lim-tarbiya jarayonida ularning ahamiyatini o’quvchilarga tushuntirish, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga chuqur ta’sir etadi. Hayotga qadam qo’yib kelayotgan har bir o’quvchi davlatimiz Konstitusiyasi, gerbi, bayrog’i va madhiyasini yaxshi bilishi kerak. O’quvchilarda shu ramzlarga chuqur hurmat-ehtirom tuyg’ularini tarbiyalash tarbiyaviy ishlarimizning uzviy qismini tashkil etishi lozim.

Davlat ramzlarini o’rganish pedagogik jihatdan to’g’ri tashkil etilsa, o’quvchilarning huquqiy va axloqiy his-tuyg’ulariga, vatanparvarlik qarashlariga yaxshi ta’sir ko’rsatadi. Bu borada O’quvchilar bilan olib boriladigan jamoa tarbiyaviy ishlarining imkoniyatlari beqiyosdir. Davlat gerbi, bayrog’i, madhiyasi hamda o’quvchilarning tashkilotlari ramzlari axloqiy, siyosiy, huquqiy mazmuni haqida uyushtirilgan xilma-xil munozaralar va suhbatlar shubhasiz samarali natijalar beradi.

Davlat ramzlari faqat ta’sirchan tarbiyaviy vosita bo’lib qolmay, balki ta’limiy jihatdan ham muhim omillardandir.

Davlat gerbi va bayrog’ining tasviri, Davlat madhiyasining matni bilan tanishish jarayonida o’quvchilarda davlat hokimiyati ramzlariga hurmat his-tuyg’usi qaror topadi. Davlat ramzlarini o’rganishda o’quvchilarning yosh xususiyatlari albatta hisobga olinishi, mavjud darslik, uslubiy ko’rsatma va qo’llanmalardan o’z o’rnida foydalanish lozim.

O’zbekiston fuqarosi o’z Vatanini sevishi, xalqiga cheksiz sadoqatli bo’lishi, O’zbekiston Respublikasining qonun va qoidalarini, ramzlarini yaxshi bilishi va ularga chuqur hurmat bilan munosabatda bo’lishi shart. O’quvchilarda shu his-tuyg’ularni tarbiyalash o’qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.

Davlat ramzlarini o’rgatish faqat gumanitar fanlarni o’qitish jarayonidagina emas, balki har bir fanni o’qitishda ham, ayniqsa darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar jarayonida ham keng

[1] Миллий исти=лол \ояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т., «Ызбекистон», 2000, 7-б.

olib borish kerak. Davlat ramzlarining mohiyatini o'rgatish, ularga hurmat ruhini tarbiyalashda sinf rahbarining o'rni ham ahamiyatlidir.

O'quvchilarni vatanparvarlik va baynalmilal ruhda tarbiyalash

O'quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning o'rni o'ziga xos va juda muhim. Axloqiy tarbiyaning mazmunida jamiyatga, Vatanga muhabbatni tarbiyalash va baynalmilallikni targ'ib qilish birinchi o'rinda turadi. Vatanga muhabbat va sadoqat shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi baynalmilallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida Vatan boyliklarini ko'paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik va baynalmilallik axloqiy tarbiyada alohida o'rin tutadi. Hadisi shariflarda ham «Vatanni sevmoq iymondandir», «Vatan ostonadan boshlanadi» deb bejiz aytilmagan.

Vatan o'zi nima? **Vatan** (arabcha «vatan» - ona yurt) deganda – kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug'ili-o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati tushuniladi. Kishi ulg'aygan sari, uning Vatan haqidagi tushunchasi ham kengayadi. Natijada tili, e'tiqodi, urf-odatlari ap milliy sifatlari bir bo'lgan avlodlar yashayotgan jug'rofiy muhit Vatanni ifoda etadi.

Vatanparvarlik – kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Vatanga muhabbat tuyg'usi bolaga ona suti bilan, allasi bilan kiradi. Bu aziz tuyg'u bir umr unutilmaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi hamma zamonlarda ulug'langan.

Vatanpavarlik shaxsni axloqiy shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabda vatanparvarlikni shakllantirish quyidagi mezonlar asosida tashkil etiladi:

- Vatanga muhabbat hissi;
- Milliy g'urur;
- Davlatimizning milliy istiqlol mafkurasi va uni ilmiy idrok etish;
- Davlatimiz ramzlariga sadoqat;
- Millatlararo madaniy muomala (baynalmilallik).

Vatanparvarlik hissini har bir fandan dars o'tish jarayonida, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarni (Tarix, Inson va jamiyat, Davlat va huquq asoslari, Adabiyot) va mustaqillikdan keyin ta'lim jarayoniga kirib kelgan «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Ma'naviyat asoslari», «Konstitusiya asoslari», «Milliy istiqlol g'oyasi» va boshqa ko'plab fanlarni o'qitish jarayonida shakllkntirish ijobiy samara beradi.

O'quvchilarda vatanparvarlik va baynalmilallik tuyg'ularini shakllantirishda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning va sinf rahbarining o'rni ham o'ziga xosdir. «Vatan tarixini bilmay turib, uni to'la sevib bo'lmaydi», «Vatan ostonadan boshlanadi», «Vatan – yagonadir, Vatan – bittadir» va shunga o'xshash boshqa ko'plab mavzularda bellashuvlar, tarbiyaviy soatlar, ko'rik tanlovlar o'tkazish bilan ham Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalarigasadoqatni tarbiyalash mumkin. Yuqori sinf o'quvchilari bilan esa tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda siyosiy axborotlarning o'rni salmoqlidir. Bolalar bunda mamlakatimiz va chet eldagi siyosiy voqyealar bilan tanishib boradilar.

Baynalmilallik axloqiy qoida sifatida vatanparvarlikni boyitadi, o'z milliy qobig'iga o'ralib qolishga yo'l bermaydi. Barcha xalqlar bilan do'st bo'lib, tinchlik va taraqqiyot uchun kurashga chorlaydi. O'quvchilarni vatanparvarlik va baynalmilallik ruhida tarbiyalash ularda insonparvarlik hissini ulg'aytiradi, turli millat va elatlar bilan do'st-inoq yashashga o'rgatadi. 130 dan ortiq turli millat va elatlar yashab-istiqomat qilayotgan O'zbekiston sharoitida esa baynalmilal tarbiya yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy tarbiya berish yo'l va shakllari

Huquqiy tarbiya tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, adolatli fuqarolik jamiyati qurilishi sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqimiz ko’p ming yillik boy huquq va huquqiy madaniyat tarixiga ega. Ko’p asrlar davomida barcha huquqiy muammolar Qur’oni Karimda ko’rsatib berilgan qonun va qoidalar asosida hal etilib huquqiy tarbiya berib kelindi. Islom huquqshunosligi shakllandi. Insonlarni huquqiy tarbiyalashga xizmat qiluvchi hadislar to’plamlari yaratildi.

Buyuk islom olimi, faqih Burxoniddin al-Marg’inoniy Qur’oni Karim va Hadis ilmini mukammal egallab, fiqh – islom huquqshunosligi borasida chuqur ilmga ega bo’lgan va huquqiy tarbiya sohasida beqiyos durdonalar yaratgan. U Marg’ilonda, keyinchalik Samarqandda yashaydi. Butun ilslom olamida mashhur bo’lgan «Al-hidoya» asarini 573 yili (1170 yil milodiy) yozadi. Asar ko’plab Ovrupa xalqlari tillariga ham tarjima qilinib, ko’plab mamlakatlar huquq ilmi rivojiga katta ta’sir ko’rsatadi.

O’zbekiston insonparvarlik qoidalariga asoslangan mustaqil demokratik huquqiy davlat bo’lib, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlat. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi huquqiy tarbiyada asosiy dastur bo’lib xizmat qiladi. O’zbekiston Respublikasining mustaqil bo’lishi munosabati bilan maktablardagi ta’lim-tarbiya ishlari rivojlanib, takomillashib borayapti. Mamlakatimizda juda katta o’zgarishlar ro’y berganligi yangi jamiyat barpo etilganligi natijasida qonunchilik va huquq tartibotini yanada mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa shaxsning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirib bo’lmaydi. Shuning uchun huquqiy bilim berish va huquqiy madaniyatni shakllantirish davlatimizning muhim ko’rsatmalaridan biridir.

Huquqiy tarbiya mazmunida quyidagilar aks etadi (20-chizma).



20-chizma

Huquqiy tarbiyani berish esa har bir o’qituvchi oldiga ham muhim vazifalarni qo’yadi. O’quvchi-yoshlarga huquqity tarbiya berishda ularda yuksak fuqarolik his-tuyg’ularini, sifat va xislatlarini tarkib toptirishda ta’lim-tarbiya birligi muhim ahamiyat kasb etishini o’qituvchilar bilishlari kerak. Har bir pedagogik ta’ilm bilan tarbiya berishga jiddiy e’tibor berishi lozim. Maktabda o’qitiladigan har bir fanning o’ziga xos tarbiyaviy ahamiyati va imkoniyatlari bor. Ana shu imkoniyatlardan o’z o’rnida to’g’ri foydalanish o’qituvchining bilim, tajriba va mahoratiga, ijodiy ishlashi, izlanishiga bog’liq. Hozirgi maktab darsliklarida mavjud bo’lgan

«Tarix», «Davlat va huquq asoslari», «Inson va jamiyat», «Konstitusiya asoslari», «Milliy istiqlol g'oyasi», «Vatan tuyg'usi», «Odobnoma» darslarini o'qitish jarayonida o'quvchilarga huquqiy tarbiyaga oid bilimlar berib borilmoqda.

Ta'limiyqtarbiyaviy omil va vositalar ko'p. Shulardan biri davlat ramzlaridan darslarda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'rinli foydalanishdir. Davlat ramzlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish, ta'lim va tarbiya jarayonida ularning ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish, ularning xulq-atvoriga chuqur ta'sir etadi. Hozirgi vaqtda Davlat ramzlaridan foydalangan holda o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish muhim masalalardan biri. Hayotga qadam qo'yuvchi har bir o'smir o'z respublikasining qomusini bilishi, unga amal qilishi kerak. O'quvchilarda O'zbekiston Respublikasi Madhiyasi, Gerbi va Bayrog'iga nisbatan hurmat tuyg'ulari tarbiyalanashi zarur.

Huquqiy tarbiya berishda turli-tuman tarbiyaviy tadbirlarning, «Qonun hammamiz uchun majburiydir», «Qonun va biz», «Hayot qonun bilan go'zal» va boshqa mavzularda yig'inlar, kechalar, munozaralar uyushtirish, milisiya va prokuratura hamda harbiy bo'linmalar bilan doimiy aloqalarni tashkil etish, ular yordamida «Yosh posbonlar», «Yosh milisiya do'stlari» guruhlarini tuzish kabilardan ham keng foydalanish mumkin.

Hozirgi davrda bolalar va o'smirlar o'rtasida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning yangi shakllari qo'llanilmoqda. Yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tashkil etish va sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni oldini olish borasida pedagogik faoliyatni yanada kuchaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

1. Umumiy ta'lim aktablarida huquqiy bilimlarni targ'ib qiladigan xonalar tashkil etishga alohida ahamiyat berish.

2. Barcha maktablarning sud, prokuratura, advakatura, birinchi navbatda esa voyaga yetmaganlar enspeksiyasi va voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissyalar bilan aloqalarni mustahkamlash.

3. Doimiy ravishda yangi tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ularni hayotga keng tatbiq etish. To'plangan ilmiy bilimlardan pedagogik tajribalarda oqilona foydalanish, o'smirlarga davlatimiz qonunlariga muntazam rioya qilish ko'nikmalarini singdirish huquqiy tarbiyani samarali amalga oshirish garovidir.

Asrlar davomida insoniyat bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umum e'tirof etilgan tamoyillar va qonun ustivorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi.

Insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolatlanadi. «Taraqqiyotning o'zbek modeli» - yurtboshimiz tomonidan jamiyatni isloh qilishning chuqur ilmiy asoslangan tamoyillaridan birida shunday deyiladi: «Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustivorligi demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitusiya va qonunlarni hyech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim»[1].

O'quvchilarning iqtisodiy va mehnat tarbiyasi, ularni kasbga yo'llash

Bolalarga maktabda va oilada iqtisodiy tarbiya berish masalasi pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash ayniqsa muhimdir.

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitoblar haqida fikrlay olish qobiliyatini kamol toptirishdir. Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan doimiy boyitib kelingan. Al-Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino asarlarida iqtisodiy tarbiya va uni bolalarga berish haqidagi muhim fikrlarni ko'rish mumkin.

Bolalarni ishbilarmonlik, tejamkorlikka o'rgatish oiladan boshlanadi. O'quvchilar maktabda turli fanlarni o'qish jarayonida ham iqtisodiy bilimlarga ega bo'ladilar. Davlatimizning moddiy va ma'naviy oshishi borasidagi iqtisodiy qonunlar bilan o'quvchilar tabiiy fanlarni

[1] Миллий исти=лол \ояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т., «Ызбекистон», 2000, 37-б.

o’rganishda tanishadilar. Jamiyatshunoslik darslarida xalq farovonligini yuqori darajaga ko’tarish uchunqanday iqtisodiy vazifalar bajarilishi lozmiligini o’rganadilar.

Mehnat darslarining ham iqtisodiy tarbiya berishdagi o’rni kattadir.

Bugungi kunda umumiy ta’lim maktablarining 8-9 sinflariga «Iqtisodiy bilim asoslari» darsi kiritilgan. Geografiya darslarida ham iqtisodiy tarbiya beriladi. Darsdan tashqari mashg’ulotlarda, turli tarbiyaviy tadbir va to’garaklarda ham iqtisodiy tarbiya berish mumkin.

Mehnat tarbiyasi bolalarda mehnat qilish istagi va intilishini tarkib toptirishi, ularni jamiyatimiz taraqqiyoti yo’lida mehnat qilishga amaliy tayyorlash lozim. Buning uchun bolalarda mehnatga muhabbat, mehnat ahliga chuqur hurmat hislarini tarbiyalash kerak. O’quvchilarga turli darslar jarayonida va darsdan tashqari tadbirlarda mehnat tarbiyasi berish mumkin. Ayniqsa, mehnat darsining mehnat tarbiyasi berishdagi o’rni juda kattadir. Mehnat, mehnatkashlar haqida suhbatlar, munozaralar, mehnat faxriylari va ilg’orlari bilan uchrashuvlar, maktablarda o’tkaziladigan hosil bayramlari, Navro’z bayrami va boshqalar orqali ham mehnat tarbiyasi berish mumkin.



21-chizma

Bolalarni mehnatga o’rgatishda oilaning o’rni ayniqsa muhimdir. O’quvchilarga mehnat tarbiyasi berish shakllari xilma-xil (22-chizma): ta’lim jarayonida mehnat tarbiyasi berish; sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali mehnat tarbiyasi berish; o’z-o’ziga xizmat qilish bo’yicha mehnat; ijtimoiy-foydali mehnat va unumli mehnat shakllari.

Ta’lim jarayonidagi mehnat – bu o’quvchi uchun o’qishdir. Aqliy mehnat ba’zi bolalar uchun mehnatning boshqa turlaridan og’irroq bo’ladi. Sinfdan tashqari turli mehnat sohalari bo’yicha to’garaklar tashkil etiladi.

Bolalarga **turli kasblar**, ularga qo’yilgan talablar, ularni qayerda egallash mumkinligi haqida ma’lumotlar berish lozim. Bu esa o’quvchini kasb tanlashga ongli munosabatda bo’lishga tayyorlaydi. Maktablarda kasbga tayyorlash kengashlarining faoliyati turli kasb egalari bilan uchrashuvlar o’tkazishga, kasbga yo’llash bo’yicha metodik kabinet tashkil etish va uni jihozlashga, ota-onalar bilan aloqa o’rnatishga, kasbga yo’naltirish bo’yicha maslahatlar uyushtirishga mo’ljallangan bo’lib, kasbga yo’llash bo’yicha metodik yordam vazifaisin o’taydi.



22-chizma

O’quvchilarga iqtisodiy tarbiya berishda
Prezident I.A.Karimovning asarlaridan foydalanish

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda yashash insonlardan, ayniqsa yoshlardan keng iqtisodiy bilimlarga ega bo’lishni talab qiladi. Shuning uchun bolalarimizni juda yoshligidanoq oiladi va ta’lim-tarbiya muassasalarida iqtisodiy munosabatlarga o’rgatib borishimiz kerak. («Iqtisodiy tarbiya» ukniga qarang).

O’zbekiston davlatining moddiy va ma’naviy o’sishi borasidagi iqtisodiy qonuniyati bilan o’quvchilar tabiiy fanlar mazmunida tanishadilar. Jamiyatshunoslik darslarida bolalar xalq farovonligini yuqori darajaga ko’tarish uchun qanday iqtisodiy vazifalar bajarishi lozimligini o’rganadilar. Kimyo, biologiya, iqtisodiy geografiya va kiyinchalik ta’lim jarayoniga kiritilgan iqtisodiy bilim asoslari fanlarini o’qitishda, darsdan tashqari turili tarbiyaviy tadbirlarda ham o’quvchilarni iqtisodiyotimizga oid ko’plab masalalar bilan tanishtirish mumkin.

Mamlakatimiz raxbari I. A. Karimovning deyarli barcha nutq va asarlarida iqsodiy masalasi alohida o’rin egallagan. Masalan, “O’zbekistonning o’z istiqlol va tariqiyot yo’li” (1992) asarida “Ichki siyosatning negizi-inson manfaatlariga qaratiligan mehnatini rahbatlantrish kuchli mexanizmga ega bo’lgan va aholini ijtimoiy nochor qatlamlarini davlat yo’li bilan himoya qiladigan bozor iqtisodiyotini qurishdan iboratdir”[1], - deyiladi. Asarda bozor iqsodiyotiga o’tish yo’llari va bosqichlari xaqida fikr bildiriladi.

“O’zbekiston iqsodiy siyosatining ustuvor yo’nalishlari” (1993) risolada esa: “O’zbekiston tanlab olgan yo’l-respublika va uning xalqining manfaatlariga nihoyatda mos keladigan, ijtimoiy jixatdan yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakillantirishga qaratilgan iqtisoddir”[2], - deb ko’rsatiladi. Asarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, narx-navolarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish, xo’jalik aloqalarini xar tomonlama rivojlantirish, iqtisodiyot tarkibini qayta qurish kabi bozor iqtisodiyotiga o’tish yo’llari xaqida to’xtalib o’tiladiki, bu fikrlarni o’quvchilarga tushinitirib borish o’ta zarur.

Yurtboshimiz “O’zbekiston bozor munosabatlariga o’tishining o’ziga xos yo’li”[1] (1993) asariga esa O’zbekistonda davlat qurish va iqtisodiyotni isloh qilish dasturining o’zagi bo’lgan 5 qoidadan ko’rsatadi. (23-chizma) bular:

[1] Каримов И.А. Ызбекистоннинг ыз истит=лол ва тара==иёт йыли. Т.: «Ызбекистон», 1992, 43-б.
[2] Каримов И.А. Ызбекистон и=тисодий сиёсатининг устивор йыналишлари. Т.: «Ызбекистон», 1995, 4-б.
[1] Каримов И.А. Ызбекистон бозор муносабатларига ытишнинг ызига хос йыли. Т.: «Ызбекистон», 1993, 17-б

И=тисодий ислощатлар хеч =ачон сиёсат ортида =олмаслиги керак, яъни и=содиёт сиёсатданг устун бўлиши керак.
Давлат бош ислохатчи бўлиши лозим.
Конститутция ва =онуннинг устиворлиги, щамма уларга риоя =илиши шарт
Кучли ижтимоий сиёсатни амалга ошириш.
Бозор и=тисодиётига “Ин=илобий сакрашларсиз”, бос=ичма-бос=ич ўтиш.

23-chizma

Mamlakatimiz raxbarining “O’zbekiston iqtisodiy islohatlarni o’zlashtirish yo’lida”[2] (1995) asarida iqtisodiy islohatlar 2-bosqichining vazifalari va ustivor yo’nalishlari keltiriladi, bular:

Birinchidan, davlat mulklarini xususiylashtirish sohasida qilingan ishlarni oxiriga yetkazish;

Ikkinchidan, ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish, davlatning iqtisodiyo va moliyaviy barqarorligiga erishish;

Uchunchidan, milliy valyuta-so’mni yanada mustaxkamlash;

To’rtinchidan, xom ashyo yetkazib berishdan, tayyor maxsulotlar chiqarishga o’tish.

I. A. Karimovning “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda” (1999) asarlarida ham iqtisodiyotga raqobat muhitini shakllantirish, valuyuta tizimi erkinlashtirish, xorij sarmoyalarini jalb etish, turli nazorat va cheklash kabi muhim iqtisodiy masalalar ko’rib chiqiladi.

Umuman o’quvchilarga iqtisodiy tarbiya berishda yurtboshimizning deyarli barcha asarlaridan o’quvchilarga yosh xususiyatlariga, ta’lim darajalariga moslab foydalanish mumkin.

Axloq va axloqiylik haqida mutafakkirlarning qarashlari

Axloq, xulq va atvor so’zlari arabcha bo’lib, ular o’zbek tilida o’z ma’nosida ishlatiladi. Axloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo’lib, bu tartib qoida ijtimoiy hayotning istisnosis hamma sohalarida kishilarning xatti-xarakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Ahloq bizning hayotimizga va ongimizga faol tasir qiladi, kishilik jamiyati nomidan yazshilik bilan yomonlik, adolat bilan adolatsizlik, mehr bilan zulm o’rtasida va insoniy munosabatlardagi maqbul va nomaqbul, man etilamaydigan va man etiladigan ishlarni, xatti – xarakatlarni belgilab beradi. Insonning jamiyatga, oilaga, mehnatga bo’lgan munosabatlarida ahloq namoyon bo’ladi.

O’rta Osiyo xalqlari ahloqshunoslik sohasida boy ananaga ega. O’tmish allomalarimiz axloq va axloqiylik masalasiga o’z asarlarida alohida o’rin berishgan.

Qori Nizomiddin bin mulla Xasan “Ilmi axloq” risolasida shunday yozadi: “Axloq ilmi insonning yaxshi xulqlarga chaqirib, yomon xulqlardan qaytarmoq uchun yaxshi xulqlarni yaxshiligini yomon xulqlarni yomonligini bayon qildirgan bildiradigan bir ilmdir. Xar kim ahloq ilmini bilib amal qilsa, bu dunyoda aziz, oxiratda sharofatili bo’lur. Axloqli yaxshi kishilar

[2] Каримов И.А. Ызбекистон и=тисодий ислощатларни чу=урлаштириш йылида. Т.: «Ызбекистон», 1995, 8-б.

dushmanlarini ham osonlik bilan o’zlariga do’st qilurlar. Insonlarning xayvonlardan farqlari, ayrimlari aql, ilm, so’z, adab, fikr, axloq iladir. Shuning uchun dunyoda chin inson bo’lurman degan kishilarga bu ilmni o’qimak, axloq yo’llarini o’rganmak yaxshi xulq qaysi yomon xulq qaysi-bilmak, bir-biridan ayormak lozimdir. Agar bir kishining o’zidan, ishidan, so’zlaridan boshqa kishilar ozor topmasalar, yaxshi xulq deyilur. Agar ozor topaduogon bo’lsalar yomon xulq deb atalur”[1].

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” asarida axloqni

“... insonlarni yaxshilikka chorlaguvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bu ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini yomon xulqlarning yomonligni dalil va misollar ila bayon qiladirgan kitobni ahloq deyilur”[2].

Axloq ilmini chuqur bilib amal qilgan kishilar o’zining kim ekanini, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganini bilur deb yozadi.

Sharq allomalari axloqni ikkiga ajratib tasnif etadilar. Avloniy shunday yozadi: “Axloq ilmi insonlarning xulqlarni ikki bo’lishidir. Agar nafs tarbiya topib insonlarni qilurg’a odob taxlika tavsif bo’lib, yaxshi xulq, agar tarbiyasiz o’sib yomon ishlar qilidurgon bo’lib ketsa yomonlikka tavsif bo’lib yomon xulqlar deb atalur”[3].

Allomalarimiz fikricha axloqda diyonat, donishmandlik, adolat, ilm, sabr, intizom, vijdon, vatanni sevmoq, iffat, xayrixoqlik, sahovat, kamtarlik, sadoqat, muhabbat, vatanparvarlik kabi insoniy xislatlar mujassamlashgandir. Demak, xar kishining xulq-atvorida, etiqod iymonida, fikr muloxazasida momila va muloqatida namoyon bo’ladi. Axloqni inson tarbiya qilish kishi o’zini qattiq xurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo’ladi.

Mustaqil O’zbekistonimizning siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy jamiyat xalq etish ko’p jixatdan jamiyatning va undagi xar bir kishining axloqiy darajasiga bog’liqdir. Axloq shaxs ma’naviyatini shakllantirishning asosi xisoblanadi.

Turon xalqlariga allomalarimiz jaxolat, yalqovlik, qo’rqoqlik, xasad, isrofgarchilik, munofiqlik, chaqimchilik kabilarni kiritishgan.

O’quvchilar ma’naviy, axloqiy tarbiyasining mazmuni. Axloqiy tarbiyani amalga oshirish yo’llari

Mustaqil O’zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy – axloqiy nigizlari xisoblangan umuminsoniy qadiriyatlariga sadoqatlilik, ma’naviy merosni mustaxkamlash va rivojlantirish o’z imkoniyatlarini erkin ro’yobga chiqarishi vatanparvarlik fikrlar pedagoglar ma’naviyatining asosini tashkil etadi. Chunki oliy maktablardagi o’quvchilar talabalarning ijtimoiy axloqiy qiyofasi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini o’quvchilarning madaniyati, ma’naviyati va uning bilimiga bog’liq.

O’quvchilarning ma’naviyati uning odobi, xulqi madaniyatidan tashkil etadi. Ma’naviyat esa aqliy, axloqiy, xuquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Ma’naviyat inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy ruxiy intiliktual fikrlar majmuasidir. O’quvchi inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning tarbiyasi odob, axloq, manaviyat madaniyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. (24-chizma qarang):



24-chizma

[1] +ори Низомиддин бин мулла Щасан. Илми ахло=. Т., «Ёзувчи», 1994, 3-б.
[2] Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёщуд ахло= Т. 1994 йил, 43-б.
[3] Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёщуд ахло= Т. 1994 йил, 44-б.

Axloq esa ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insonlarni o'ziga, oilasiga, do'st birodarlarga jamoa a'zolariga va tabiatga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi xulq, odob. qonun qoidalar majmuidir. Ana shu xulq odob qonun qoidalarni o'quvchilarning ongi hayoti turmish tarziga singdirish uchun ko'rsatilayotgan tasir axloqiy tarbiya deyiladi.

"Axloq tarbiyasi insonni axloqiy barkamollikka yetkazish va uning bajariyat jamiyatga foydali inson qilib tarbiyalashdan iboratdir...

bolalar suvga o'xshaydilar. Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muxtda bo'lsalar o'sha muxdning shunday odat va axloqni qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sifati shunday iboratki bolalar ko'proq yaxshi va yomon axloqni o'z uylaridan ko'chadan o'rtoqlaridan maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar"[1] – deb yozadi buyuk mutafakkirlarimizdan biri Abdurauf Fitrat.

Axloqiy tarbiya mazmunini asosan quyidagilarda o'z ifodasni topadi:

1. Jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash turli hildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaroni yetukligi, baynalminallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlari vatan boyliklarini ko'paytirish, mustaxkamlash va ximoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi.
2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayoniga namoyon bo'ladigan kishi ongida mehnatning xayotdagi rolini aniqlashda xususiy mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalanadi.
3. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat. Shaxsning tashkilotchilik, ko'pchilik manfaatini o'z shaxsiy ustun qo'yishidir.
4. Shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni shakllanishi.

Bu o'quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Maktabda o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishda xilma-xil usullar qo'llaniladi.

- dars, ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyani qo'shib olib borish;
- ahil, inoq uyushtirilgan intizomli jamoa orqali axloqiy tarbiya berish;
- to'g'ri rejalashtirilgan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Maktabda ijobiy emotsional sharoit yaratish orqali. Masalan, pishiqchilik kuni, navro'z bayrami;

Barcha o'quvchilarning maktabdagi umumiy va yagona tartib bo'yicha rioya qilish orqali;

Turli tushuntirish, uqtirish, suxbat, munozara jazolash usullaridan foydalanish orqali;

Tarbiya soatlar, odobnoma darslari saviyasini oshirish orqali;

Mehnat ilg'orligi ilm fan hodimlari, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar uyushtirish orqali;

Maktabda turli kechalar, olipiada, fistival, musobaqalar o'tkazish, turli axloqiy, ma'rifiy-radio eshtirishlaridan foydalanish;

Dars va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida milliy qadiriyat va ma'rifatimiz aks etgan asarlarni o'qib o'rganish orqali.

Maktabda axloqiy tarbiya dars jarayoni, sinfdan va maktabdan tashqari turli ishlarda olib boriladi. Bolalar yoshiga saviyasiga qarab "Inson go'zalligi nimada?", "Axloq va qonun", "Ona yurtining omon bo'lsin", "Inson odobi bilan", "Jannat onalar oyog'i ostida" va boshqa turli suhbatlar, munozaralar o'tkazish mumkin. Sharq qadiriyatlari milliy ananalarni dars va tadbirlar jarayonida o'quvchilarga o'rgatib boradi. Maktabda mehnat ilg'orligi, faxriylar, xurmatli qariyalar bilan uchrashuvlar, adabiy kechalar, musobaqalar o'tkaish, turli jixatlardan foydalanish mumkin.

O'quvchilarga ekalogik tarbiya berish shakl va yo'llari

"Ekalogiya" – yunoncha so'z bo'lib, turk mavjudotlarining yashash salohiyati va tevarak atrofdagi muhd bilan o'zaro munosabatlari hamda shu asosida yuzaga keladigan qonuniyatlarini o'rganadigan fandir. Bu atama 1866 yilda nemis zoolog olimi Ye. Gekker tomonidan fanga

[1] Ахатова Д. Абдурауф Фитрат. Ызбек педагогикаси анталогияси. Тузувчилар: С.Очил, К.Хошимов. – Т., «Ы=итувчи», 1999 йил, 55-б.

kiritilgan. Atrof muxdga tabiat boyliklariga etiborsiz bshlish bugun sayyoramizga jiddiy zarar yetkazishi mumkin shuning uchun o'quvchilarga ekalogik ma'daniyatni tarkib toptirish, ularga tabiat, atrof muhd bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rganish pedagogika nazariyasi va maktablar amaliyotining dolzarb mavzusiga aylandi.

Ekalogik ta'lim deganda o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan tarbiya bilan inson orasidagi munosabatlarini ifodalovchi bilimlar tizimini tushuniladi.

Ekalogik tarbiya esa insonning atrof muxdga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekalogik ta'lim tarbiya umumiy ta'lim tarbiyaning fikriy qismi bo'lib maktabda barcha fanlarni o'qishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekalogik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodda atrof muhd va uning muammolariga ongli munosabatini shakllantirishdan iboratdir.

25 – chizma



Ekologiya va tabiatni muxofaza qilish darslarida joy nomlaridan ona tili bo'yicha mashg'ultlarni yanada qizi qarli qiladi. Tabiat fani ham ekologiyabilan chambarchas bog'liq. Bunda tabiatni asrash nuqtaiy nazardan tahlil qilish mumkin. "Tabiatni asrash- vatanni asrash", "Tabiatni e'zozlaylik" kabi turli baxs va she'rxonlik kechalari uyushtirish mumkin.

Matematika fanida beriladigan ekalogik ta'lim tarbiya o'quvchilar tabiatidagi salbiy yoki ijobiy o'zgarishlar to'g'riligi qanday ta'sir ko'rsatishi xaqida aniq tasavurga ega bo'ladi.

O'qituvchining bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinli foydalanish samara beradi. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa – yer, suv, non, havo muqaddas hisoblanadi. Xalqimiz qadimdan suvga atab qo'yib, yozning eng jazirama kunlarida "Suv sayli" o'tkazilgan. Biz shu an'analarni ham dars mobaynida bolalarga yetkazib berishimiz kerak.

Sog'lom avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning ahamiyati

Yosh avlodni har tomonlama yetuk komil insonlar qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiyani o'rni juda muhimdir. Chunki bobokalonlarimiz komil inson xaqida gapirishar ekanlar, komillikni uch bosqichdan iboratdir deb hisoblashgan:

1. Jismoniy salomatlik.
2. Axloqiy poklik.
3. Aqliy yetuklik.

Shuning uchun ham mamlakatimiz mustaqilligidan so'ng yosh avlodni jismoniy tarbiyasiga, sog'ligiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. 2001 yilning "Sog'lom avlod yili" deb atalishi ham bejiz emas chunki hayot tajribasi "sog'lom tanda-sog' aql" ekanligini allaqachon isbotlagan.

Jimoniy tarbiyaga e’tiborni kuchayganlini maktablar orasida “Umid nihollari”, kollej va litsiy talabalari ishtirokida “Barkamol avlod”, oliygoh talabalari o’rtasida “Unversiyada” sport musobaqalarining tashkil etilganligi va muntazam ravishda o’tkazib kelinayotganligida, yoki sportning ko’plab turlari bo’yicha O’zbeksitondan olimpiada va jaxon chempionlari yetishib chiqib O’zbekiston nomini butun dunyoga tanitayotganida ham ko’rish mumkin. Bundan tashqari barcha maktablarda, ayrim oilaviy musobaqalarni o’tkazib borish ham yo’lga qo’yilib borilmoqda.

Jismoniy tarbiya yosh avlodni taraqiy ettirshda muhim vosita hisoblanadi. Yirik allomalarimizdan biri Ibn Sino birinchi bo’lib jismoniy tarbiyaning ilmiy-pedagogik jihatidan bir butun tizimni yaratdi. Jismoniy mashqlar, to’g’ri ovqatlanish, uyqu badanni toza tutish tartibiga rioya etish inson sog’ligini saqlashda muhim omillardan ekanligini ham ilmiy, ham amaliy jixatdan asoslab bergan edi. (26- chizma)

26- ch

To’g’ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya, shaxsning me’yoriy jismoniy taraqiyotini ta’minlaydi, salomatlikni mustaxkamlaydi, yoshlarni mehnatga, turmishga tayyorlaydi.

Bolalarni jismoniy chiniqtirishda ma’suliyat katta. U jismoniy tarbiya o’qishi bilan hamkorlikda bolalar muntazam ravishda ertalabki badan tarbiya qilishga odatlantirish maktabda jismoniy tarbiya bo’yicha amalga oshiriladigan tadbirlarga jalb etish. Bolalarni chiniqtirish masalasini faqat jismoniy tarbiya darslarida hal etib bo’lmaydi. Jismoniy tarbiya bo’yicha olib boriladigan ishlar darsdan tashqari vaqtlarda, sinf va maktablardan tashqari tashkil etilgan tadbirlar jarayonida amalga oshiriladi.

Sinf rahbari o’quvchilar o’rtasida “Sport tinchlik elchisi”, “Sportchilar oramizda”, “Donolar sport xaqida”, “O’zbek sportchilari bizning faxrimiz” kabi mavzularda suhbatlar, sinf raxbari mashxur sportchilar bilan uchrashuvlar tashkil etadi.

Prizidentimizning “Futbolni rivojlantirish to’g’risida”gi farmoni yoshlarni bu sport turiga qiziqtirdi. Sinf raxbari, o’qituvchilar o’z o’quvchilari davrasida doimo mazkur sport turi mashxur futbolchilar, o’zbek futbolini bosib o’tgan shonli mustaqild davlatimiz uchun bugungi kunda sportchilar xavodek zarurligi xaqida atroflicha gapirib berishi kerak. O’qituvchi sport to’garaklariga bolalarni jalb etishi lozim.

Jismoniy tarbiya bu sof sport musobaqalaridan iborat emas. Bu orqali bolalarda ko’plab axloqiy-irodaviy xislatlar tarkib topgan. Jismoniy mashqlarni bajarish davomida bolalarda bolarda iroda, chaqqonlik tarbiyalanadi. Ularning sog’ligi tiklanadi. Ish qobiliyatlari aqliy faolligi oshiriladi. Jasurlik, mardlik, qa’tiylik, mustaqillik kabi ijobiy xulq me’yorlari tarkib topadi.

Jismoniy tarbiya va jismoniy kamolot

Jismoniy yetuklik komillikka erishish bosqichlaridan biridir. Buning uchun mamlakatimizda va ta’lim tarbiya tizimimizda jismoniy tarbiyaga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi –o’quvchilar tanasidagi barcha a’zolarini sog’lom o’sishni ta’minlash barobarida ularni aqliy jismoniy mehnatga shuningdek vatan mudofasiga o’rgatishdir. Jismoniy tarbiya va yetuklik masalasi bizda qadimdan ota bobolarimiz

ma’naviyatida ulug’lanib kelingan. Jumladan “Alpomish”, “Go’ro’g’li” dostonlarini olib ko’rsak undagi kaxramonlarni jismonan baquvvat, mard yigitlar bo’lishgan. Buyuk allomalarimiz ham jadid ma’rifatparvarlari ham o’z g’oyalarida komil inson yetishtirishdagi buyuk maslahatlarini alohida takitlab o’tgan. Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta’sir ko’rsatib, salomatligini yaxshilaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko’rishga poydevor bo’ladi. Shuning uchun bizda mustaqilligimizning dastlabki davrlarida jismoniy tarbiyaga katta e’tibor qaratila boshlandi. 2001 yil yurtimizda “Sog’lom avlod yili” deb e’lon qilindi.

Jismoniy tarbiya mazmuni jismoniy kamolot, jismoniy tarbiya ishlari, jismoniy ma’lumot tushunchalarini o’z ichiga oladi. (27-chizmaga qarang)

27 – chizma

Jismoniy kamolot yosh avlod ichki a’zolarining o’zgarishi o’sishidir. Birinchi navbatda yurak va o’pka shuningdek nerv xarakat tizimi, tana shaklining o’zgarishi, teri muskil tizimining og’irligi tananing mukammal rivojlanishidir. Pedagogik tushunchada **jismoniy kamolot** deganda insondagi jismoniy ma’lumotlarni o’sishi borasidagi o’zgarishlar ya’ni oddiydan murakkabga pasdan yuqoriga, nomukammallikdan mukammallikka tomon bo’lgan o’zgarishlar tushuniladi.

O’quvchilarning jismoniy kamolotlari sharoit yaratish pedagogik boshqarish jismoniy tarbiyaning vazifasidir. Jismoniy tarbiya tizimida jarayoniy kamolot diagnostikasi muhim o’rin tutadi. Jismoniy kamolot jismoniy tarbiya saviyasi, fan tili bilan aytilganda, jismoniy tarbiya samaradorligi ko’rsatkichidir.

Maxsus usul va jismoniy texnika asosida o’quvchilar sog’liklarini, har bir individual shaxs kamolotni saviyasini tashkil etish: belgilangan norma va undan uzoqlashish ko’rsatkichi oldindan belgilash negiziga jismoniy tarbiya uchun ko’rsatkich aniqlanadi. **Jismoniy yetuklik** deganda barcha tashqi ko’rinishdagi garmoniya, go’zallik shakli, yuqori darajadagi kamolot tushuniladi.

Jismoniy ma’daniyat jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi bilan birgalikda, jismoniy madaniyat inson va jamiyat uchun madaniyatni ham ajralmas qismi. Jismoniy madaniyat ishlari yoki oddiy sport sohalaridagi, kulublar, guruhlar yoki musobaqalarda va xokozolarda namoyon bo’ladi.

Sinf raxbari ham o’quvchilarning jismoniy kamolot ishlar olib boradi, uning mazmuni quyidagicha:

- Oilaviy hayot gigiyenasi hamda jismoniy tarbiya ishlarini tashkil toptirish;
- Sog’lom baquvvat shaxsni tarbiyalashat shaxsni tarbiyalash;
- qiz va o’g’il bolalarni hayotga tayyorlash;
- Zararli odatlardan saqlanishga o’rgatish;
- Mahalla, maktab va oila hamkorligi konsepsiyasini hayotga tadbiq qilish.

Jismoniy tarbiya berish bo’yicha olib boriladigan ishlar jismoniy tarbiya darslarida, darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda ham amalga oshirilish lozim.

O’quvchilarga estitek tarbiya berish mazmuni va yo’llari

Xar tomonlama yutuk komil insonni shakllantirishda estetik jixatlarini o’rni ham o’ziga xosdir. Estetik ancha keng ahamiyatga ega bo’lib, shaxsning tabiat va jamiyatdagi go’zalliklarni nazarda idrok etishga o’rgatadi.

Estetik tarbiya o’quvchilarda estitek bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirishni hamda, estetik xis tuyg’u, qiziqish, baho berish kabi xislatlarni tarbiyalash masalasini o’z ichiga oladi, estetik tarbiyaning moxiyati asosan quyidagilarni o’z ichiga oladi.

- voqiylikdagi go’zalliklarni idrok etish va zavqlanish;
- asarlarni to’g’ri tushina bilish va baholash;
- qobiliyat va istidodlarni namoyon etishga intilish;
- tabiatda, insoniy munosabatlarda, turmushda go’zallik uchun mustaqil kurashish;
- tatibsizlikka murosasiz bo’lish.

Go’zallik xaqidagi bilimlar hayot voqiyligi, rang-barangligi, turlarini hamda san’at o’zlashtirish jarayonida tarkib topadi. O’quvchilar hayot, tabiat manzalari va xil janrdagi san’at rang, tasvir, haykaltaroshlik, amaliy san’at, asarlari bilantanishib boradilar va shu barobarinda bilim oladilar.

Asosiy estetik kategoriya – go’zallik to’g’risidagi o’rab turgan tevarak atrofdagi turmush chechak, o’yinchoqlar, oila a’zolarining o’zaro munosabatlari, saranjom xovli, san’at, ashula, chiroyli sur’at vositasida egallaydilar. Bilim va tushunchalardan o’quvchilar o’z ishlar faoliyatini va tabiat xodisalarini kuzatadilar.

Mazmuniga o’quvchilarni xalqimizning boy tanishtirish, o’quvchilarning estetik ongi va badiiy dinini o’stirish, o’quvchilarning badiiy havaskorligining estetik darajasini oshirishini ham kitiritish mumkin.

O’quvchilar estetik tarbiya jarayonida estetik malaka va ko’nikmalarini ham egallashlari lozim. Musiqa faoliyatiga doir ijrochilik, qo’shiq aytish, musiqa asboblarini chalish kabilarni egallab olishlari ko’zda tutiladi.

Estetik tarbiya vositalari (28-chizma) – o’quvchilarning estetik rivojlanishlarini ta’minlash maqsadida tevarak – atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san’at estetikasi va bollarning badiiy faoliyati, ta’lim jarayoni hisoblanadi.



28 – chizma

Oila go’zallikning birinchi maktabidir. Oila a’zolarning o’zaro munosabatlari, uyning jixozlari, ularning uyg’unligi, tartibi, saranjom – sarishtalik, maktabning, sinfning bezatilish kabilar barchasi bevosita bolalar estetik didiga ta’sir etadi.

Tabiat – eng muhim estetik tarbiya vositasidir. O’quvchilarni tabiat qo’yniga ekskursiyalari ular diqqatini tabiat go’zalligiga qaratish imkonini beradi. O’quvchilar tabiatshunoslik darslari nafaqat tabiiy bilimlarni o’zlashtiradilar, balki tabiatda go’zallik yaratishni amalda qo’llab ko’radilar. Ko’kalamzorlashtirish, ko’chatlar ekish ham bolada estetik ko’nikma – malakalarini shakllantiradi.

San’at turlari asosiy tarbiya vositalaridir. Estetik tarbiya berishda ashula va musiqaning roli ham nihoyatda kattadir. Shu bilan birga badiiy adabiyot ham estetik tarbiya berishda

ishkoniyatlarga ega. Adabiyot darsi esa o’quvchilarda estetik ko’nikma va kechilmalarining yorqinligini, chuqirligini ta’minlaydi.

Tarbiya jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanish

Xalq donshmadligi va odobnomasining nodir sohasi o’zbek xalq pedagogikasi ijtimoiy va maishiy-axloqiyasi bo’lgan tomonlarini, xalq og’zaki ijodi, hayotning va marosimshunoslikning yetakchi shunostlik, axloqiy ta’limotni qamrab olganligi bilan asrlar davomida to’plangan boy tajribalaridandir. U axloqiy, falsafiy, estetik, ma’naviy, ijtimoiy borasidagi qarashlarni, xulosalarini jismoniy tarzda ifodalaydi.

Xalqimiz pedagogik qarashlarni uzoq asrlar va ular asosan bizga xalq og’zaki ijodiga asarlar tarzida yetib kelgan. bunga dostonchi turli marosim qo’shiqlari, asotirlar, naqllar, ertaklar, maqollar, matallar, hikmatlar, aforizmlar, bolalar o’yinlari, allalar, to’y va aza va qarg’ishlar, termalar, chorlash qo’shiqlari, boychechak, yomg’ir, quyosh aytimlari, kasb-xunarchilik bilan bog’liq, nasliy cho’ponchilik, mifoligik tasavvurlar aks etgan asarlarni kiritish qanday shaxs sifatida kamol topish mumkin. Xalq pedagogikasi muhim axamiyat kasb etadi. Xalq pedagogikasi xalq mayda-chuydasi, ya’ni birlamchi- pedagogikasida hamma narsa hisobga olinishi, xech bir ayni choqda tarbiyaning nihoyatda etiborga olingan holda, yetti amal qilinadi. Xalq pedagogikasining bir u bugun va ertani o’ylab ish tutadi, ya’ni bugunning qadriga yitishlik, kelajakka olib boradi. Xalq pedagogikasining asrlar davomida shakllanib, inson va vatan taqdirida hal quluvchi hisoblanib, uning hayotiyligi, ta’sirchanligi, ikkinchidan xalq va hayotiy jarayonida jonli an’analarda yaratilishi, masalalarini hal qilishga qatilganligi, yo’nalishiga, umumbashariy bo’lganligidir. Shuning uchun xalq pedagogikasiga qaramasdan o’z faoliyatini to’xtatmaydi va tarix borasida hal qiluvchi o’rinni egallab kelmoqda.

Bolalarga estetik tarbiya berishda bolalar o’yin folklorlarining o’rni va ahamiyati katta bo’lsa, xalq an’anaviy sport – farzandlar jismoniy baquvvatligi va yetukligining garovidir. Xalq pedagogikasining ekalogik tarbiya berishdagi imkoniyati ham kengdir. Atrof muxit va tabiatni e’zozlash, hayvonlar, qushlar, dov-darxtlar, o’simliklar, yet, suv, borliqqa munosabatini ifodalovchi qarashlar ekalogik tarbiya berishga qatilgandir. Turli udumlar, rasm-rusm, marosimlar, tabiat bayramlari, “Navro’z”, “Mehrjon”, “Hayot bayrami”, bolani beshikka solish, sunnat qilish, uylanish, payg’ambar yoshi, oltin va kumush to’ylar, tuli yublilar, odatlar, udumlar va marosimlarning ta’lim-tarbiyaga ham ahamiyati juda kattadir.

Turli qo’shiqlar orqali go’zallik, orzu-umid va boshqalar tarannum etilib, insonga cheksiz muxabbatni tarkib toptiradi.

Xalq pedagogikasi umuman olganda ilmiy pedagogika bilan bog’liqdir. Ma’lum ma’noda o’zbek xalq og’zaki ijodi to’g’ridan-to’g’ri bolalar tarbiyasiga ta’sir etish vositasi bo’lib xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda. Chunonchi, tez aytishlar-bolalar nutqini o’stirishga, topishmoqlar bolarni topqirligi, zixnli tarbiyalashga, maqollar – bolalarning topqirligi, zehnini tarbiyalashga, maqollar-bolalarning axloq-odob tarbiyasiga, qo’shiqlar-bolalarning nafosat tarbiyasiga, doston va ertaklar bolalarning aqliy, axloqiy, jismoniy va umuman xar tomonlama tarbiyalashga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Bolalar jamoasining tarkib topish jarayoni va bosqichlari

Sinf jamoasi maktab jamoasining ajralmas bir kichik bo’lagidir. Bolalar jamoasi katta kuch. Sinf o’quvchilarining xilma-xil faoliyati xuddu anashu jamoada to’planadi.

O’quvchilar jamolarni tuzish sinflarda turli farqlar bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham barcha sinflar uchun bir xildagi yo’l-yo’riqlarni belgilab bo’lmaydi. Ayniqsa, boshlang’ich, 5-9 sinflarda o’quvchilar jamoasini tashkil etish va jipslashtirish katta qiyinchiliklar tug’diradi. Bu sinflarda ko’pincha o’quvchilar tarkibi mutloq yangi yoki qisman o’zgaradi. Bu sinflarda boshqa sinflar yoki maktablardan o’quvchilar kelib qo’shiladi. Shuning uchun o’quvchilar jamoasini yangidan tuzishga to’g’ri keladi. Bu sinf rahbarlari dastlabki tanishuvdan keyin ularga jamoat ishlarini berishlari, bularni sekin-asta murakkablashtirib barcha o’quvchilarni jamoa ish faoliyatiga jalb etishga xarakat qilishlari kerak.

Barcha sinflarda bolarga mustaqillik berish, sinfda jamoat ishni yuzaga keltirish haqida g’amxo’rlik qilish kerak. Sog’lom fikrli o’quvchilar xulq atvoriga baho berish mezono bo’lib, sinf rahbarlari jamoatda ko’pchilik fikriga tayanib, o’quvchilar orasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklarni hal etish mumkin.

Bir qator pedagogik olimlar (S. Rajabov, A. Munavvarov, qo’ziyevlar) jamoatni tarkib toptirish va jipslashtirish yo’llarini ko’rsatadi. (29-chizma)



29-chizma

1. Jamoatchilik topshirig’i. Jamoa bo’lib ishlash, amaliy faoliyatni sinf jamoasini jipslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfdagi barcha o’quvchilarga jamoat topshirig’i berish kerak. Ta’lim intizom bo’sh o’quvchilarni jamoat topshirig’isiz qoldirib. Jamoat topshirig’i bolalarni mehnatsevarlik, tejamkorlik intizomiga o’rgatadi.

2. Sinf faolarini aniqlash. Sinf rahbari dastlabki kunlardanoq o’quvchilarni jamoat topshiriqlari orqali kuzatib boradi. Ularning faol ongli, tashabbuskor, tashkilotchi bolalar tanlab olinadi. Shunday o’quvchilardan sinf sardori, guruh yetakchisi, muxarrir, xar – xil tizmlarning a’zo – 100 lari saylanadi. Sinf rahbarlari sinf faollari bilan yakkama-yakka ish olib borish emas, balki ular bilan birgalikda turli kechalar, yig’inlar, tadbirlarga tayyorgarlik ko’rish, ular bilan bog’liq masalalarni muhokama qilish kerak.

3. O’quvchilarni istiqbolga chorlash. Istiqlol – bu yorqin, qiziqarli va quvonchli voqyealar manzilidir. Jamoa istiqbollari o’quvchilarda umumiy ko’tarinkilikni yuzaga keltiradi. Sinfda yorqin va jozibador istiqbollarning bo’lmasligi, bu jamoatda bir xillik va zirikarli holatlarni keltirib chiqaradi. Istiqbol odatda, oddiy, kundalik ishlar: sinf xonasini jixozlash, kutubxona tashkil qilish, bayram musobaqalariga tayyorgarlikdan boshlanib, bolalar qiziqishini yanada ortiruvchi istiqbollar: sayr-tomoshalarga chiqish, kino-teatrlarga jamoa bo’lib borish orqali davom ettiriladi. So’ngra o’quvchilar oldiga unga qaraganda murakkabroq istiqbolli vazifalarqo’yiladi: sinf kechasini tayyorlash, dramatik to’garak tashkil qilish, olimpiadlarda qatnashish va boshqalar.

4. Sinfda ijobiy an’analarni qaror toptirish. An’ana-kishilarning muayyan tarixiy sharoitida vujudga kelgan va avloddan-avlodga o’tib boradigan g’oya, dunyoqarash, urf-odat, tartib va xulq-atvor me’yoridir. qisqasi, an’ana – bu yazshi urf – odat, jamoa hayotiga mustahkam o’rnashib qolgan ijobiy tajribalardir. Sinf jamoasining foydali ish faoliyati, agar u takrorlanib tursa va odat tusiga kirib qolsa, bu faoliyat an’anaga aylanadi. Masalan, turli bayramlarni nishonlash, maktabni bitirganlar bilan uchrashuvlar. Sinf an’analarini rivojlantirish qat’iyan davlat qonunlari va axloqiy qoidalarga asoslanish kerak. Har qanday an’ana sinf o’quvchilari va ota – onalar nazaridan ham chetda qolmasligi kerak.

O’quvchilarga yagona talablar qo’yish. Sinf jamoasining jipslashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talablar o’quvchilarda javobgarlik munosabatini, yuksak o’zaro talabchanlikni tarbiyalashga, ularda yuksak axloqiy odatlarni tarkib toptirishga, mustaxkam an’analar yaratishga yordam beradi. Yagona talablarni ishlab chiqishda o’quvchilarning o’zaro, sinf rahbari, o’qituvchilar, ota-onalar qatnashishlari mumkin.

Tarbiyada maktab, oila, jamoatchilik hamkorligi.
Maktabning oila bilan hamkorlik shakllari

Oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi hozirgi kunimizning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bolalarni komil inson qilib tarbiyalashda maktabning oila va jamoatchilik bilan aloqalarini qo’yish muhim va shartdir. Shuning uchun ham ota-onalar pedagogik metodik tashviqotlarni olib borish, maktab ota-onalar ishtirokini ta’minlash ayniqsa muhimdir.

Maktabdagi ko’p sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi. Lekin oilaning o’zi komil insonni tarbiyalay oladimi? Maktab tarbiyasi oilaviy tarbiyani to’ldiradi. Ota-onalar bilan aloqalari tuzilishi maktab tarbiya ham, oilaning hayotiy tarzida ham salbiy ta’sir ko’rsatadi. Maktab mahalla qumitalari orqali ayrim oilalarga, ta’sir ko’rsata oladi. Ayniqsa, Vazirlar mahkamasining 2002 yil 16 maydagi 162-sonli qarori bilan mahalla pedagog lavozimining tashkil etilishi, bu aloqalarni yanada va samarali bo’lishiga olib kelmoqda. Mahallaning va ota-onalar bilan hamkorligi yanada kuchaymoqda. Pedagogika xududdagi yoshlar va voyaga yetmaganlar orasida xuquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish borasida katta ishlar olib bormoqda.

Maktabning ota-onalar bilan hamkorligini mustahkamlash xaqida maktablarda ota-onalar qumitalari tashkil etiladi. Unga maktab direktori raxbarlik qiladi. Xar bir sinfda ham ota-onalar qumitasi tashkil etiladi. qumitalar o’quv yili boshida butun o’quv yili uchun tuziladi. 2003 yilda Respublikamizda ota-onalar qumitasi xaqida yangi Nizom qabul qilinib, tarbiviy hamkorlik mazmun-mohiyati boyitildi.

Ota-onalar qumitasi ota-onalar yig’ilishida 3-5 kishidan iborat qilib saylanadi. Sinf ota-onalar qo’mitasi raisi maktab jamoasiga a’zo qilinadi. Maktab ota-onalar qo’mitasi a’zolari soni maktabni katta-kichikligi, o’quvchilar soni, ish sharoitiga qarab ota-onalar umumiy yig’ilish qarori bilan belgilanadi. qo’mita a’zolari maktabning muhim masalalarini ham etishda ko’maklashadi.

Maktabning oila va jamoatchilik bilan hamkorligini tashkil etish borasida sinf rahbarlarining o’rni kattadir.

Maktabning oila bilan hamkorlik shakllari quyidagilar (30-chizma)



30 – chizma

Ota-onalar uchun maslahatlar ham uyushtirish mumkin.

Umummaktab ota-onalar yig'ilishi yiliga 3-4 marta, sinf ota-onalari yig'ilishi sorak davomida 1-2 marta chaqirilib turiladi.

Tarbiya jarayonida oilaning o'rni

Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'inidir. U o'zida a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi. Ota-onalarning o'z hayot turmush tarzlari bola shaxsida ilmiy dunyoqarash asos ma'naviy-axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillar shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga oila tarbiya deyiladi.

Oilalar respublikamiz shahar va qishloqlarining yagona ijtimoiy iqtisoy umumiyligi asosida rivojlanadi. Ayni paytda oilaviy va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga ham egadir. Oila tarbiyasi o'z milliy va demografik xususiyatlari bilan bir-biridan o'zaro farqlanadi. Oilaviy tarbiyada oilaning moddiy faoligi madaniy-ma'naviy saviyasi, oila azolarining tarkibi ham alohida ahamiyatga egadir.

Oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-onalar, qon-qarindoshlik, avlod-ajdod hislatlarini uzatadi, davomiyligini saqlaydi, farzandni shaxs sifatida shakillantirishga va hayotga tayyorlaydi.

"Oilaviy tarbiya doimo o'zining murakkab va ko'p qirraligi bilan va serjilovligi bilan ajralib turadi"[1], - deb takitlaydi. Har bir oila o'ziga xos bir olam, olam ichidagi va birga olamga sig'magan olam, u tarbiya ishida o'ziga xos, xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning hammaga maqul tushadigan yo'l – yo'riqlari mavjud emas.

O'zbek xalqining milliy xususiyatlari: axloqiy, o'z-o'zini boshqarish, milliy tuyg'u milliy madaniyat, milliy kiyinish va yurishda o'z aksni topadiki, o'zbek oilasining tuzilishi va shaxslararo o'rganishda bularni chetlab o'tish mumkin emas. O'zbek tuzilishiga quyidagi sifatlar xosdir: qarindoshchilik, bir oilada birgalikda yashaydi.

Oilaning asosiy vazifalari, funksiyalari quyidagilardan iborat: (31-chizma)



30 – chizma

Oilaning iqtisodiy funksiyasi. Uning asosiy **tarbiyaviy funksiyasidir**. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy estetik tarbiyasiga solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishtini qo'yishigacha

[1] A.Munavvarov. Oila pedagogikasi. T., «Ы=итувчи», 1994, 54-б.

javobgardir. Jamiyatning komil fuqarosini tarbiyalash hozirgi zamon oilasining funksiyasi darajasiga kiradi, chunki shahsiy ijtimoiylashuv dastaval oilada amalga oshadi.

Oilaning kommunikativ funksiyasi oila a'zolarining o'zaro muloqat va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojni qondirishga hizmat qiladi.

Oilaning rekriativ funksiyasi nimadan iborat? Nikoh-oila munosabati yuzaga kelgan dastlabki, ibtidoiy zamonlardan buyon unga xarakterli bo'lgan xususiyatlaidan biri, oila a'zolarining ahloq psixologik himoyalanishini ta'minlash, yosh bolalarga va mehnatga yaroqsiz kishilar yoki keksa qarindoshlarga moddiy-ma'naviy va jismoniy yordam kursatish kabilardan iborat bulib kelgan[1].

Bu xolat oilaning rekreativ funksiyasini – tashkil qiladi. Oilaning rekreativ funksiyasi – uzaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixorlogik yordam kursatish funksiyalaridan biri xisoblanadi.

Oilaning muhim bo'lgan funksiyalaridan yana biri- bu **uning reproduktiv** (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Bu funksiyaning asosiy moxiyati inson naslini davom ettirshdan iboratdir. Oilaning vazifasi faqatgina yana avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan insoniyat paydo bulgan davrdan boshlab yashab kelayotgan va madaniy yutuqlari bilan tanishtirgan xolda, ularni salomatligini saqlab tkurishdan xam iboratdir. Tabiatan berilgan avlod qoldirish instinkti insonda farzand kurishga, ularni ustirish va tarbiyalashga bulgan extiyojga aylanadi. Bu extiyojni qondirmasdan turib, kishi odatda uzini baxtiyor xis eta olmaydi.

Oilaning felisitologik funksiyasi nima? Xozirgi zamon oilasini tobora axamiyati ortib borayotgan funksiyalaridan biri uning felisitologik funksiyasidir. (italyancha "feliseti" – baxt demak "shaxsiy farovonlikka erishishga intilish" oilaviy munosabatlar tizimida kup jixatdan xal qiluvchi omil bulib bormoqda. Odatda eru-xotinni bir-birin tuliq tushunishi – ularning uzlarini birga xis qilishlarini ta'minlaydi, shuningdek, uzidagi mavjud tabiiy-ijodiy imkoniyatlar (iqtidorni) ruyobga chiqarish, jamiyat negizi doirasida sarflash xam insonga uzini baxtli xis qilish imkonini beradi"[1]. Keyingi vaqtlarda insonning imkoniyatlari ortgan uning axtga intilish darajasi xam ortib bormokda.

Oilaning reguliyativ funksiyasi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek, birlamchi ijtimoiy , oilada ustunlik va obro'ni amalga oshirishni ifodalaydi. Bunda kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma'naviy tomonidan qo'llab-quvvatlash nazarda turadi.

Oilaning relaksasiya funksiyasi uning eng asosiy funksiyalaridan biridir. Bu degani oila a'zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ilmiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir[2].

Oila funksiyalarining muvafaqqiyatli bajarilishi har qanday oila mehrini ta'minlovchi mezon hisoblanadi. Shuning uchun oilaning funksiyasini muvaffqiyatli bajarishi nafaqat uning ichki shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog'lomligiga ham jalb etadi.

Bola maktabga kelguncha oilada tarbiyalanadi. Oila bolaning xulqiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Ota-onaning bolalarni tarbiyasidagi eng birinchi vazifalari sog'liqni saqlash. Buning uchun bola to'yib ovqatlanishi gigiyena talablariga rioya etishi lozim bo'ladi. Ota-ona o'zlarining mehnat faoliyatlari, xulq-atvorlari bilan ham namuna bo'lishi shart. O'zaro oilaviy jamoada yaxshi so'zlashuvni tashkil lozim.

Ota-onalar bolalarning maktab-o'quv vazifalarini yaxshi ta'minlash uchun quyidagilarga rioya qilishlari maqsadga muvofiq.

- bolalarni darsga kech qolishga va sababsiz dars qoldirishlariga yo'l qo'ymaslik;
- bolalarning mashg'uloti uchun uyda unga qulay sharoit yaratish;

---

[1] 1001 саволга психологнинг 1001 жавоби. /.Б.Шоумаров тащрири остида. – Т., «Мещнат», 2000. 38-39-бетлар.

[1] 1001 саволга психологнинг 1001 жавоби. /.Б.Шоумаров тащрири остида. – Т., «Мещнат», 2000. 40-41-бетлар

[2] 1001 савлога психологнинг 1001 жавоби. /.Б.Шоумаров тащрири остида. – Т., «Мещнат», 2000. 42-бет.

- bolalarni uy vazifalariga halollik bilan qarashga o’rgatish, g’ayrat va chidamliklarini oshirish;
- bolalarni vijdonan va rostgo’y bo’lishga, mustaqil ishlarga o’rgatish;
- bolalarni doimo maktab bilan hamkorlikda ish olib borishi bolaning ijobiy ta’sir qiladi, tarbiyada yuksak samaradorlik.

Mahalla pedagog-tarbiyachisi va uning vazifalari

2003 yil Prezidentimiz farmoni bilan “Obod mahalla yili” deb e’lon qilindi. Mahallalarning obodonligini ta’minlash borasida qator ishlar amalga oshirila boshlandi, dasturlar ishlab chiqildi. Shunday amalga oshirilayotgan ishlardan biri sifatida Vazirlar mahkamasi tomonidan 2002 yil tasdiqlangan “Mahalla pedagog tarbiyachisi to’g’risidagi Nizom”[1]ni keltirish mumkin. Mahallalarning jamiyat xayotidagi faoliyatini yanada oshirish, oila va maktab bilan hamkorligini mustahkamlash, mahalladagi yoshlar voyaga yetmaganlar bilan ishlashni takomillashtirish maqsadida lavozim tashkil etilib, har bir mahallaga pedagog lavozimi kiritildi.

Ushbu Nizom quyidagilardan iboratdir:

1. Umumiy qoidalar.
2. Pedagog tarbiyachilar ishini tashkil etish.
3. Pedagog tarbiyachilarning asosiy vazifalari.
4. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy xarakati tizimlari, kasb-xunar kollejlari, liseylar va maktab ma’muriyati bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar.
5. Sport sog’lomlashtirish tashkilotlari bilan hamkorlikda bajariladigan ishlar.
6. Mahalla fuqarolar yig’inlari va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar.
7. Ijtimoiy ta’minot va mehnat bo’limlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar.
8. Pedagog tarbiyachilarning majburiyatlari.
9. Pedagog tarbiyachilarning xuquqlari.
10. Pedagog tarbiyachilarning ish natijalarini baholash mezon Pedagog tarbiyachi xizmat faoliyatida qonunchilikka rioya qilish, voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash qobiliyatli, tashabbuskor, jismonan sog’lom, ma’naviy xurmat-e’tiborli, pedagogik hamda tarbiyaviy yo’nalishlar oliy ma’lumotli, sudlanmagan kishi tayonlanishi lozim.

Pedagog tarbiyachilarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mahalla xududida yoshlar va voyaga yetmaganlar o’rtasida tartibbuzarchilikni oldini olish yo’nalishida tegishli muammolar hamkorligida xar chorakka mo’ljallangan ish rejasini ishlab chiqadi va shu asosida tadbirlarni amalga oshiradi;
- mahallada voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatchilakni oldini olish, unga qarshi kurashda profilaktika xodimlari bilan hamkorlikda ishni amalga oshirish.

Huquqbuzarchilik va jinoyat sodir etishga moyilligi bor yoshlarni ular bilan tarbiyaviy profflaktika ishlarini olib borish .

Mahallada voyaga yetmaganlar orasida jinoyat va huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida xuquq targ’ibot ishlari, huquqshunoslar, taniqli sportchilar, san’ankorlar, tibbiyot xodimlari ishtirokida tarbiyaviy aksiyalar, davra suhbatlarini tashkillashtirish.

Yoshlar orasidagi xar qanday ko’rinishdagi separatizm va qarshi qaratilgan bilim beruvchi qiziqarli uchrashuvlar tashkil etadi.

Ota-onalarga farzandlarining tarbiyasi bo’yicha amaliy yordam ko’rsatish. Farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ota-onalarni mahallada faollar orasida muxoka qiladi.

Mahalla xududida istiqomat qiluvchi yoshlarning qanchasi o’rta ta’lim maktablarining 9-11 sinflarini bitirganligini, shundan o’quv yurtlariga o’qishga kirgani, nechtasi ishga joylashgan o’qimay-ishlamay yurganligi haqida ma’lumotlarga egalishi kerak.

[1] Мащалла педагог-тарбиячиси ты\рисида Низом. «Мащалла» газетаси, 2002 йил, декабр.

Mahalla pedagogi “Kamolot” yoshlar xarakati tizimlari, sport fuqarolar yig’ini va ijtimoiy ta’minot bo’limlari bilan qator ishlarni amalga oshirish.

Ertalik bayramlarini tashkil etish va o’tkazish

Fan o’qituvchisi maktabda o’z fanidan dars berib, balki sinf raxbarlik vazifasini ham bajaradi, tashkil etish va o’tkazish ishlari bilan keng to’g’ri keladi. Shuning uchun xar bir o’qituvchi tashkil etish metodikasini ham yaxshi bilishi lozim. Bo’lajak o’qituvchi-tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni nazariy va amaliy asoslari xaqida bilimga ega bo’lishlari, tarbiyada o’zbek xalqining milliy va ma’naviy qadiriyatlaridan foydalanishga o’rganishlari, tarbiyaviy ishlarini rejalashtirishni, unda o’quvchilarning ruhiyati, qiziqishini hisobga olish lozimligini bilish, tarbiyaviy tadbirlarning sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi va shakllarida foydalanish san’atiga ega bo’lishlari lozim.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning uslubiy asosi o’tmishdan qolgan xalq og’zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklar, allomalarimiz vatanparvar olimlarimiz va pedagoglarimizning boy merosidir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va o’tkazishda ayniqsa, sinf rahbarlarining o’rni kattadir. Tarbiyaviy tadbirlarni turli shakllarda tashkil etish mumkin. Masalan, tarbiyaviy mavzuda axloqiy suhbat, tarbiyaviy soat, munozara, debatlar, davra suhbatlari, o’tkir zehinlilar mushoirasi, o’yinlar, bayram yertaliklari, usrashuvlar turli musobaqalar va boshqalar.

Ertalik bayramlari turli bayramlarga bag’ishlab va turli sinflarda tashkil etish mumkin. Ertalik bayramlarini o’tkazishga qo’yilgan pedagogik talablar ham bor, bular:

- ertaliklarni o’tkazishdan oldin o’quvchilar ruhiyati, qiziqishini uyg’ota bilishda o’qituvchilarning tadbirkorligi lozim;
- ertalik senarisini tuzganda o’quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini hisobga olish lozim;
- ertalik bayramini rejalashtirishda sinfdagi hamma o’quvchi ma’lum topishmoqqa ega bo’lishi kerak;
- ertalik bayramida ishtirok etadigan o’quvchilarni ruhlantirish ertalikni turli shakllarda tashkil etish: uchrashuvli ertaliklar mavsumiy ertaliklar, ertakli ertaliklar kabi[1].

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilar barkamolligini tarbiyalashda ayniqsa, ertalik bayramlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ertalik – bu bolalarning yoshi, ruhiy holatlarini hisobga olgan holda ertalabki soatlarda o’tkaziladiganligi uchun deb aytiladi.

Ertalik bayramlarini tashkil qilish tartibi:

1. Mavzuning dolzarbligi;
2. Mavzuning mazmunini rejalashtirish;
3. Mavzuning maqsadi (ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi);
4. Ertalik o’tkazish uchun jixozlar.

Ertalik oldidan uning targ’ibotini yozish (xalq og’zaki ijodi yozuvchilar ijodidan foydalangan holda).

Boshlang’ich sinflarda “Boychechakning ochilishi”, “Mehrjon”, “Gullar bayrami”, “Fanlar olamida” va boshqa ko’plab yetarlicha tashkil etish mumkin.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasini mazmuni va mohiyati

1993 yili Xalq ta’limi vazirligi tomonidan “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar” konsepsiyasi tasdiqlangan edi. 1997 yili “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qilnishi, Respublikamizda ma’naviyatga alohida e’tibor

[1] Щасанбоева О. Тарбиявий ишларни ташкил =илиш методикаси. Т., 1996 йил, 41-б.

munosabati va ta’lim sohasini tubdan isloh qilish mazkur konsepsiya qayta ishlab chiqildi va Xalq ta’limi vazirlagining 1999 yil 30 iyul 8/5-sonli hay’at qarori bilan tasdiqlandi.

Konsepsiya uch bo’limdan iborat bshlib, uning **birinchi bobi** sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasining deb nomlanadi. Bunda konsepsiyani ishlab chiqishning ko’rsatiladi. Mamlakatimiz mustaqiligidan so’ng turli sohalarda, jumladan xalq ta’limi tizimida ham o’sib kelayotgan yangi avlod ta’lim-tarbiyasi bilan bog’liq jarayonni qayta ko’rib boshlanganligi fan va madaniyatning so’ngi nuqtalari yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va ishlash zaruriyati paydo bo’lgangi bayon etiladi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning samaradorlini oshirish komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay topib joriy etishga bog’liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga ketirish uchun tarbiyaning asosi barcha g’oyalarni ko’rib chiqish, asosiy e’tibor bolalarga qaratilishi, ijobiy tajribalardan unumli foydalanish keltirib chiqiladi.

Konsepsiyaning ikkinchi bo’limi “Tarbiyaviy ” ishlarning asosiy maqsad va vazifalari deb nomlanadi, unda tadbirning bosh maqsadi – yosh avlodni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda boy milliy, ma’naviy – tarixiy an’analarga, urf-odatlari umumbashariy qadiriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir, ko’rsatiladi.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini xar tomonlama ochish uchun imkoniyatlar yaratishdan iboratligi takitlanadi. Belgilangan maqsadlarga erishish va vazifalarni amalga oshirish uchun yuriqlar beriladi. Shu bilan birga tarbiyaning asosiy tizimi ko’rsatiladi.

Konsepsiyaning uchinchi bosqichi. “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakl va uslublari. Erkin tafakkur yurutuvchi shaxslarni tarbiyalash” deb nomlanadi. Bu vatanparvar va komil inson tarbiyasi mazmuni alohida yoritib beriladi. Vatanparlik tuyg’usini o’quvchilarda shakllantirishning zamonaviy uslublari xaqida fmkr yuritiladi. Konsepsiya o’quvchilarga beriladigan xuquqiy, iqtisodiy, ekalogik, estetik, jismoniy tarbiyalar mazmuni va ularni sinfdan, maktabdan tashqari tadbirlar jarayonida tashkil etish yo’l va shakllari xaqida atroflicha to’xtab o’tiladi. O’quvchilarni mehnatsevarlik yo’lida tarbiyalash ularga iqtisodiy bilimlar berish masalari ham yoritilgan.

Uchunchi bo’limda iste’dodli va zukko bolalarni aniqlash ularni tarbiyalash, mahallada tarbiyaviy ishlarni tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Konsepsiyada erkin fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash, ayniqsa o’quvchilarning o’z-o’zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashuvi, ularni mustaqil hayotga, turmush va jamiyatga mos qilib tarbiyalashga imkoniyat yaratish masalari ham e’tibordan chetda qolmaydi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasini amalga oshirishning ilmiy-metodik ta’minotiga, konsepsiya amalga oshirishning samaradorligi xalq ta’limi barcha tizim faoliyatlariga, mahalliy sharoitlarga moslab, kni amalga oshirish bog’liqligi masalasiga ham jiddiy e’tibor qaratilgan[1].

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakli va uslublari

Respublikada qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi qonun (1997) va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997) da sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning yosh avlod tarbiyasida o’rni maslasida alohida e’tibor qaratilgan. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilashga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o’quvchilarning darsdan bo’sh vaqtlaridagi o’quv jarayonini to’ldiradi va kengaytiradi, o’quvchilarning bilim olishlari, ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini ko’rsatishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari tashkil etilgan jumladan turli ko’rinishlardagi to’garaklarda fan o’z faniga qiziqqan o’quvchilar bilan mashg’ulot o’quvchilarning qiziqishlarini o’stiradi. **Sinfdan tashqari ishlar** quyidagi to’garaklarda tashkil

[1] Синфдан ва мактабдан таш=ари ишлар концепцияси. (Хал= таълими вазирлигининг 1999 1ил, 30 июл 8/5 сонли =арори билан тасди=ланган) дан фойдаланилди.

etish mumkin: fan to'garaklari "Mohir qo'llar" to'garaklari; "Duradgorlik" to'garagi; turli sport to'garaklari; "Badiiy xavaskorlik to'garagi" va xokazolar.

Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bolarni ijodkorlikka da'vat etuvchi tarbiyaviy maskandir.

Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi bolalar va yoshlar saroylari, ysh texniklar saroylari, yosh tabiatshunoslar uylari turli sport va musiqa maktab tarbiyasining uzviy davomchisi sifatiga faoliyat ko'rsatmoqdi. O'zbekiston Respublikasining "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi" (1999) bu ishlarni va amalga oshirishda asos bo'ladi.

Mazkur qo'llanmani "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar kosepsiyasi mazmuni va mohiyatini" rukniga qarang.

Konsepsiyada hozirgi payotda ahloqiy va ma'naviy jixatidan ishlarni o'mirlar orasida kuchaytirish zarurligi, axloqsiz ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmasligi, maktab va maktabdan ta'lim muassasalari tarbiyachilari oldida doimo umuminsoniy axloq qoidalari asosida hayot o'tiladi. Konsepsiya vatanparvar va baynalminal komil inson tarbiyasi, huquqiy iqtisodiy tarbiy, ekalogik tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, iste'dodli va zukko bolalarni aniqlash va ularni tarbiyalash, mahallada tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mazmuni va ularni amalga oshirish yo'llari xaqida atroflicha fikr yuritiladi.

Ta'lim –tarbiyaning jiddiy muammolarini aniqlash, uzluksiz amaliy tarbiya mazmuni asoslarini yaratish, maktablar, maxsus bilim yurtlari hamda oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarini faoliyatini yaxshilash mezonlarini ishlab chiqish bugungi kun talabidir. Buning uchun quyidagi tadbirlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi: tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning yo'nalishlari bo'yicha tadbarlar majmuasi va maqsadli dasturlar tuzish; tarbiyaviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etadigan pedagogik xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish tarbiyaviy ishlarni hal qilish uchun respublikaning barcha kuchlari O'zbekiston FA, oliy o'quv yurtlari, fan tarmoqlari, davlat va nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda ilmiy pedagogik bo'limlar faoliyatini birlashtirish zarur.

Sinf rahbari ishlarini tashkil etish va rejalashtirish

Maktab hayotida, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish boshqarishda sinf raxbarlari yoki boshlang'ich sinf o'qituvchisining boshqalar bilan almashtib bo'lmaydigan o'ziga xos o'rni bor. Sinf rahbari (boshlang'ich sinfda sinf o'qituvchisi) faoliyatining aksariyat qismi tarbiyaviy jarayon bilan bog'liqdir. Shu jixatdan olganda uni sinfni bosh tarbiyachisi, murabbiychi deyishimiz mumkin. Sinf rahbarlari avvalo, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasining umumta'lim maktabi to'g'risida Nizom O'zbekiston Respublikasining ta'lim muassasalari sinf rahbarlari to'g'risidagi Nizomi va boshqa pedagogik hujjatlarda belgilab berilgan yosh avlodni mustaqillik ruhida tarbiyalashning umumiy vazifalaridan kelib chiqib, o'z tarbiyaviy ish faoliyatini aniqlay oladilar.

Sinf rahbarlari o'z faoliyati davomida maktab lirektori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari bilan, o'z sinfiga dars beruvchi o'qituvchilar maktabdagi bolalar tashkilotlari yetakchilari bilan va maktab kutubxonachisi bilan qator ishlarni olib boradilar.

Ayniqsa, sinf jamoasini tashkil etish va jipslashtirishda rahbarning o'rni muhumdir. U xar bir o'quvchisini, uning xususiyatlari va shaxsni chuqur o'rganib chiqadi, kim bilan qanday muomila qilishni biladi. Turli tarbiyaviy yo'nalishalar bo'yicha tarbiyaviy ishlar olib boriladi. O'quvchilar oilasi, ota-onalar jamoatchilik bilan hamkorlikda qator tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi. Sinf rahbari o'z ishlarini maktab ma'muriyati rahbarlari , bolalar tashkilot bilan olib boradi. Shuning uchun faoliyatini rejalashtirish umummaktab hamda bolalar o'smirlarda bog'langandir. Sinf rahbarlari ishlarini, jumladan ximoyaviy ishlarni to'g'ri rejalashtirib olish tarbiya samaradorligini ta'minlov omillardan biridir.

Reja – o'quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy shartidir. Rejasiz ish olib borish sinfdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakllari va uslublarini

tarqoq, noaniq, holatlarda bo'lishiga va ko'r-ko'rona xarakat qilishga olib keladi. Reja sinf rahbarlarining tarbiya berish faoliyatini to'g'ri tashkil uchun juda katta imkoniyatlar ochib beradi. Sinf rahbari ishni rejalashtirishning o'ziga xosligi shundaki, unda o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etadilar, biroq unga sinf rahbari boshchilik qiladi.

Sinf rahbari o'tkazilayotgan ishlarni hamda ularning o'quvchilar tarbiyasiga ko'rsatgan ta'sirini har kuni tahlil qilishlari, o'zlari erishgan yutuqlari sabablarini tushuntirishga xarakat qilishlari, sinf jamoasining rivojlanishida ro'y berayotgan o'zgarishlarni qayd qilishlari kerak.

Sinf raxbari kelajakka mo'ljallangan – istiqbolli (yillik, bir necha yillik) va muvaqqat (oylik, haftalik, kunlik) rejalar tuzib olishi mumkin. Hukumatimizning farmon va qarorlari, xalq ta'limi rasmiy yo'l-yo'riqlari, hujjatlari, Prezidentimizning qator va o'tgan o'quv yilidagi tarbiyaviy tadbirlarning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinishi rejaning asosiy manbayi bo'ladi.

Reja bir qator talablarga javob berishi kerak:

- rejaga istiqlol g'oyalarining singdirilishi;
- rejaning shakl va yo'nalishlari rang-barang hamda istqbolli ;
- reja uzluksiz va izchil bo'lishi;
- reja aniq tuzilishi[1].

Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasi – majburiy pedagogik. Uni amalga oshirish uchun sinf rahbari shaxsan ma'suldir. Sinf rahbari umummaktab ish rejalari, bolalar va yoshlar ish rejalari bilan tanishib, direktor o'rinbosarlari, sinf o'quvchilari, sinf faollari, ota-onalar bilan fikrlashib ishning istiqbolli rejasini tuzadi. Sinfning yillik ish rejasini tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tasdiqlaydi.

Rejaning ifodalanish shakli quyidagicha bo'lishi mumkin: ish nomi, bajarish muddati, ma'sul shaxs. Reja qisqa aniq bo'lishi shart. Sinf rahbari ish rejasining asosiy bo'limlari quyilagicha bo'lishi mumkin: 1. O'quvchilar jamoasi bilan ishlash; 2.bolalar va o'smirlar uyushmasi bilan birgalikda olib boriladigan ishlar; 3. Sinf o'quvchilari bilan ishlash, 4. sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil tashkil etish; 5. Ota-onalar bilan ishlash.

Sinf rahbari – sinf tarbiyaviy ishlarining tashkilotchisi

Sinf rahbari vazifasini, asosan fan o'qituvchilar bajarishadi. Shuning uchun xar talaba, xar bir bo'lg'o'si o'qituvchi tarbiyaviy ishlarni sinf rahbari faoliyatini chuqur o'rganib chiqishi zarur bo'ladi.

Sinf rahbari sinfdagi barcha tarbiyviy ishlarni tashkilotchi sinfda tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi, o'tkazadi va uning natijasini tahlil etib boradi. Sinf rahbari o'quvchilarga davlatimiz ichki va tashqi hayotda sodir bo'layotgan voqyeylikklarga qiziqish uyg'otib, uni kasb-korga bog'lab olib borishi lozim. O'quvchilarni tevarak atrofdagi hayot bilan, kundalik voqyeya-xodisa bilan, kundagik voqyeya-xodisalar bilan og'zaki tanishtiribgina qolmasdan, balki ularni bolalar va o'smirlar uyushmasi yoki "Kamolot" tashkiloti xarakatlarida faol qatnashtirish zarur.

Sinf rahbari bolalar xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarni bartaraf qilishda mohir pedagog sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ularda to'g'rilik, halollik, iroda va qat'iylik xislatlarini tarikib toptirishda ta'sir ko'rsatadi.

Sinf rahbarlarining o'quvchilarga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sir kuchi ko'p jixatdan uning ma'naviy kamolotiga bog'liqdir. Sinf rahbari o'z o'quvchilariga singdirishi lozim bo'lgan: ilmlilik, odillik, to'g'rilik, poklik, jamoatchilik, g'amxo'rlik, sezgirlik, ijodkorlik, jo'shqinlik, orastalik kabi yuksak ma'naviy sifatlarni avvalo o'zi egallab olgan bo'lishi lozim. Sinf rahbarining pedagogik maxorati va pedagogik odobi ham tarbiya jarayonida muhim o'rin tutadi.

Sinf rahbari xar bir o'quvchisini xar tomonlama chuqur o'rganib chiqishi, sinf jamoasini tashkil etishi va japslashtirishi jamoaga pedagogik rahbarlik qilishi, oila va jamoatchilik bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlar tashkil qilishi kerak bo'ladi.

[1] +ызиев З. Синф ращбари ишини ташкил этиш ва режалаштириш. Т., 1997 йил, 148-б.

Sinf rahbari sinfdagi barcha ishlarni, jumladan tarbiyaviy ishlarni ham rejalashtiradi. Reja asosida esa o'quvchilarga aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, huquqiy, iqtisodiy, mehnat, nafosat, ekalogik, jismoniy tarbiya berish, o'quvchilarni shaxsiy ozodalikka o'rgatish borasida tarbiyaviy ishlar olib boradi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qiladi, bunda aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, huquqiy va boshqa tarbiyalar bo'yicha belgilangan ishlar va tadbirlar, kasb tanlash ishlari, sinfdan tashqari o'qishni tashkil qilish, o'qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish, sinfda adabiy ko'rgazma tashkil qilish, sinfda ko'rgazmali tashviqot ishlarini olib borish (sinf burchagi, devoriy gazetalar, plakatlar chiqarish, sinfni mazmunli bezash, ekalogik burchak tashkil qilish va boshqalar) ishlarini amalga oshiradi.

Umuman olganda sinf rahbari xar tomonlama yetuk, komil bola tarbiyalash ishida o'zining munosib xissasini qo'shadi.

Bu borada I. A. Karimovning "Tarbiyachi avvalambor o'zi har jixatdan tarbiyalangan bo'lishi keark", degan fikrlarini unutmasgimiz kerak.

II-bo'lim yuzasidan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. 1992 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 1997 yil.
3. Kadarlar tayyorlash milliy dasturi.
4. I. A. Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqiyotining devori"1997 yil.
5. I. A. Karimov "Ma'naviy yuksalish yo'lida" T. "O'zbekiston" 1998 yil.
6. I. A. Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" T. "O'zbekiston" 1998 yil.
7. I. A. Karimov "Jamitimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin." "Tafakkur," 1998 yil 2-son
8. I. A. Karimov "O'zbekiston iqsodiy siyosatning ustuvor bo'lishi"
9. I. A. Karimov O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning xos yo'li T. 1993 yil. "O'zbekiston"
10. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yohud axloq T. 1994 yil.
11. Ibrohimov A, Sultonov X, Jo'rayev I, "Vatan tuyg'isi" T. 1996 yil O'zbekiston
12. Milliy istilol g'oyasi: asosiy tushuncha va tayilar T. Sharq 2000 yil
13. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari T. 1994 yil
14. Mahalla pedagogik tarbiyasi to'g'risida Nizom .
15. Mustaqillik izohli – ilmiy – ommabob lug'at. T. "Sharq"
16. Pedagogika. A. Munavvarov taxririostida T. "O'qituvchi"
17. Roziqov O.R. va boshqalar. Didaktika. T., «Fan», 1997 yil.
18. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar konsepsiyasi. Xalq ta'limi vazirligining 1999 1il, 30 iyul 8/5 sonli hay'at qarori.
19. Tursunov I. Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. T., 1997 yil.
20. Tulenov J., /ofurov Z. Falsafa. T., «O'qituvchi», 1997 yil.
21. /aybullayev N. va b. Pedagogika ma'ruzalar matni. T., 2000 yil.
22. /oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. T., 1990 yil.
23. Yusupov E. Ma'naviyat asoslari. T., 1998 yil.
24. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. № 1. T., 2000 yil.
25. Qori Nizomiddin bin mulla Hasan. Ilmi axloq. T., 1994 yil.
26. Qo'ziyev Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. T., 1997 yil.
27. Hasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. T., 1996 yil.

III – BO’LIM. DIDAKTIKA-TA’LIM NAZARIYaSI

Ta’lim jarayoni, uning ikki tomonlama xususiyati, tuzilishi (bosqichlari)

Har qanday jarayon – harakatdir, moddiy dunyodagi narsalar yoki hodisalarning asta-sekin o’zgarishidir. O’qitish jarayoni ham avlodda aqliy kuchlarni rivojlantirishga va ahloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan harakatdir.

Bilish-ta’lim jarayonining metodologik asosidir. Bilish jarayoni kabi ta’lim jarayonida ham o’quvchi bilmaslikdan bilishga, noto’g’ri va noaniq bilishdan tobora to’liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo’lgan yo’lni bosib o’tadi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham abstrakt tafakkur ham amalda sinab ko’rish ham bo’ladi.

Ta’lim – bilish faolliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma’noni anglatadi. Ya’ni bu: o’quvchilarda bilim malaka va ko’nikmalarni hosil qilish; o’quvchilarni muayyan darajada o’qimishli, madaniyatli, tarbiyali, har tomonlama yetuk bo’lishiga erishish; ularni qobiliyatlarini o’stirishdan iborat.

Ta’lim-maxsus tayyorlangan kishilar o’quv rahbarligida o’tkaziladigan o’quvchilarni bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o’stiradigan, ularni dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Ta’lim-insoniyat tarbiyasining ma’lum tomonlarini, ya’ni o’quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo’lishlarini ta’minlaydigan faoliyatdir.

Ta’lim jarayonining mazmunini bilim, ko’nikma va malakalar tashkil etadi. Ta’lim jarayoni o’qituvchi bilan o’quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo’lib, ikki xarakterga egadir (1-chizmaga qarang).



O’qituvchining faoliyati tufayli ta’lim puxta o’ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi. O’qituvchining faoliyati o’quv materiallarini bayon qilishdan, o’quvchilarda fanga qiziqishni tarkib toptirishdan, o’quvchilarning mustaqil mashg’ulotlariga o’quv rahbarlik qilishdan, ularning bilim, ko’nikmalarini tekshirish, o’quv ishlariga moyilligini uyg’otish, rag’barlantirish, bilim darajalari xolis baholashdan iboratdir. O’qituvchining faoliyati ta’lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o’qitadi, ta’lim beradi. O’qitish jarayonining ikkinchi tomoni o’quvchi faoliyati bo’lib, u ta’limning ichki jarayonini tashkil qiladi, chunki u o’qituvchi bergan bilimni o’qib, fan materiallarini o’zlashtirib oladi. Ilmiy bilimlarni egallash-muayyan fanlar o’rtasida bog’lanishlarni idrok qilish, ularni izohlay bilish, mustaqil ravish umumlashtirish, xulosalar chiqarish demakdir. O’qish jarayonida insoniyat erishgan barcha bilimlarni o’rganish kerak, degan xulosa kelib chiqmaydi. Ta’lim jarayonida fanning eng zaruriy, eng muhimlari-asosi o’rganiladi.

O’qituvchi o’quvchi – talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o’quv ishlarni olib borar ekan, avvalo ta’lim jarayoni orqali uch vazifani, ya’ni bilim berish orqali uch maqsadga hal qilish lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o’qituvchi va o’quvchilar faoliyatini birlashtiradi (2-chizmaga qarang).



2-chizma

Ta’lim maqsad – o’quv materialining mazmunini bilish, ya’ni shu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o’zlashtirish va amaliyotga tadbiq qila olishdir.

Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o’zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g’oyalar, dunyoqarashlar ta’sirida o’zining shaxsiy sifatlarini, imon-e’tiqodlarini shakllantirishdir.

Rivojlantiruvchi maqsad – ta’lim jarayoni ta’sirida shaxsning aqliy kamolatini bilish qobiliyatini o’qishga, mehnatga bo’lgan munosbataini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o’quvchi-talabada mustaqil ishlash iste’dodi paydo bo’ladi. Uni o’ylashga o’rgatadi, ta’lim jarayonida tafakkur xukmronlik qiladi.

O’quvchilarning o’qituvchi sabog’ini o’zlashtirish jarayni bilmilarni idrok qilish, tushunish, mustahkamlash hamda ularni amalda qo’llash bosqichlaridan iborat bo’ladi. Bilimlarni o’zlashtirish voqyelikdagi narsa va hodisalarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi. Ta’lim quyidagi bosqichlar asosida o’zlashtirib olinadi (3-chizmaga qarang).



3-chizma

Birinchi bochqich - o'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o'quvchi talaba ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimadan iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok tasavur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

Ikkinchi bosqich - ular o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

Uchinchi bosqich - yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar, o'qituvchining qo'shimcha izolari orqali mustahkamlanadi.

To'rtinchi bosqichda – ular o'zlashtirib olgan bilimlarni imkoniyatga qarab amaliyotga tadbiq qiladilar.

Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali boshqarish mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining hamma bosqichlarida o'qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqaradigan bo'lsa o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi. Jumladan:

O'quvchi va talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.

Ularda dunyoqarash, eshonch va e'tiqodlarni o'stiradi.

Yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, tarbiyali kishilar bo'lib, yetishlariga zamin yaratadi.

Ta'lim jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar 4 chizmada o'z aksini topgan.



4-chizma

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi qonun fuqorolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgaan.

Ushbu qonunning 3-moddasi Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplariga bag'ishlaangan. Unda ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasidagi ustivor deb e'lon qilinadi va ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat ekanligi ko'rsatiladi[5].

- ta'lim tizimining dunyoviy harakterda ekanligi;
- davlat ta'lim stnadartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

[5] Ызбекистон Республикасининг «Таълим ты\рисида» ги =онуни. Баркамол авлод – Ызбекистон тара==иётининг пойдевори. Т., «Шар=», 1998 й, 20 б.

- davlat dasturlarini va iste'dodni rag'barlantirish;
Ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyug'unlashtirish.

Didaktika, uning asosiy kategoriyalari

Bilish jarayonining ilmiy, nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini, ya'ni ta'lim, bilim berish, o'qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo'limi didaktika shug'ullanadi.

Didaktika – grekcha so'z bo'lib, «didasko» - o'qitish, «didaskol» - o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. Didaktikaning so'zma-so'z tarjimasi ta'lim nazariyasini anglatadi. Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayonining tushunchasi va mohiyatini, ta'lim qoidalarini, uslublari hamda tashkiliy shakllarini o'z ichiga oladi. Didaktika o'z oldiga o'qitishning o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarini bilib olish vazifasini qo'yadi. Ta'limning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurolantirishdan iborat.

Demak, didkatika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanaday o'qitish» kabi savollarga javob izlaydi. Umumiy didaktika esa o'z navbatida, ayrim o'quv fanlariga oid usullar bilan juda mustahkam bog'lanadi. Shu usullar ma'lumotiga tayanib, o'qitishning umumiy qonuniyatlarini yechib boradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilar: ta'lim, ma'lumot mazmuni, ta'lim mazmuni, ta'lim jarayoni, bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish, ta'lim metodlari, ta'limning tashkiliy shakllari.

Ta'lim didaktikada qo'llaniladigan eng sermazmun tushunchadir. Umumiy didaktika darajasida ta'lim ma'lumot mazmunini o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining birligi, ularning o'zaro ta'siri ma'nosida ishlatiladi.

Ta'lim – insoniyat tarbiyasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi., balki bu jarayonda o'quvchi, alabga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchilariga aylanadi. Ta'limdagi yutuqlar avvalo o'qituvchiga bog'liq.

Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi, ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir.

Ta'lim «ma'lumot mazmuni», «ta'lim mazmuni», «ta'lim jarayoni» kategoryalari bilan bog'liqdir.

Ma'lumot mazmunida hozirgi zamon fani, texnikasi, madaniyati, ishlab chiqarishi va fikrlashning umumiy asoslari aks etadi. Unda fan, texnika, madaniyat ishlab chiqarish, tafakkurga oid yetakchi qarashlar, g'oyalar, nazariyalar, faktlar beriladi. Ma'lumot mazmuni to'rta elementdan iborat:

Bilimlar tizimi. Bilim-tabiatda, jamiyatda, inson ongida amal qiladigan qonuniyatlarning turli belgilar (masalan yozuv) vositasida modiylashtirilgan ko'rinishdir. Bilimlar qarash, g'oya, ta'rif, qoida, aniqlik, aksioma, teorema, fakt va h.k. shaklida beriladi;

Ko'nikma va malakalar – bilimlarni o'zlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tadbiq etish yo'llari bilan shakllanadi. Ko'nikma mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig'indisidir. Demak, ko'nikma hosil qilish mehnat qilish yo'llari va usullarini bilib olish, o'z bilimlarini amalda qo'llay bilish demakdir. Ko'nikma malakaning quyi bosqichi, mashq va takrorlash natijasida ko'nkima yuqori bosqichga-malakaga aylanadi. Malaka-avtomatlashgan ko'nikmadir;

Ijodiy faoliyat tajribasi – an'anaga aylangan fikrlash va faoliyat chegarasidan tashqariga chiqish demakdir;

Munosabatlar tizimi **–** bola o'zida shakllangan munosabatlarga ko'ra tevarak-atrofdagi narsalarni, voqyealarni baholay oladi; oq-qorani taniydi; ilmiy va g'ayriilmiy hodisalarning farqiga boradi[6] **.**

Ta'lim mazmuni – **bu ma'lumot mazmunining o'qitish (o'qituvchi) va o'qish (o'quvchi) maqsadida ta'lim jarayoniga olib kirilgan va didaktik jihatdan ishlov berilgan shaklidir.**

Ta'lim jarayoniga - o'qituvchi faoliyati nuqtai nazardan yondashsak, «o'qitish jarayoni», iboralari ishlatiladi. O'qitish-kollektiv subyektning faoliyati. O'qitish ishi bilan mashg'ul qishilarga nisbatan ishlatiladi. Unda o'qituvchilik kasbi, uning o'ziga xos xususiyatlari va mutaxassislik fanlari bo'yicha o'rganiladigan bilimlar chatishib ketgan. O'qish bilim, malaka, ko'nikmalarni egallashga oid ishlardir.

Ta'lim metodlari - o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro bog'liqlik asosida birga amal qilish tizimidir.

Ta'limning tashkiliy shakllariga – dars va uning tiplari, uy ishlari, ekskursiya, o'tkir zehnlilar munozarasi va shu kabilar kiradi.

Didaktikaning tadqiqot predmeti

Didaktikaning tadqiqot predmeti, uning munozara bahsi haqida turlicha qarashlar mavjud. Masalan, T.A. Llina: «Didaktika» - grekcha «didaktikos» so'zidan olingan bo'lib, «o'qitish» ma'nosini anglatadi, «didaktikaning predmeti-ta'lim jarayoni va uning qonuniyatlaridir»!, - deb yozadi. To'g'ri qadimgi greklar o'qitish faoliyatiga nisbatan «didasko», o'qituvchi o'rnida «didaskal», o'quvchiga nisbatan «didaskales» atamalarini ishlatishgan. Ammo, didaktika termini o'zining dastlabki ma'nosidan ancha uzoqlashgan. Hozir bu tushunchaning hajmi va mazmuni ancha boyigan hamda kengaygan bo'lib, u faqat o'qituvchining faoliyatini emas, shu bilan birga, o'quvchining faoliyatini ham o'ziga qamrab olgan.

Sh. Ganelin, B.R. Esipov «ta'lim» va «ma'lumot» tushunchalari, o'rtasida munosabatga asoslab, didaktikaning predmetini bayon qilishgan: ularning fikricha ta'limning ma'lumotga munosabati, vositaning maqsadga munosabati shaklida amal qiladi; har qanday yaxlit didaktik nazariya ta'lim va ma'lumot nazariyasidir. «Didaktikaning predmeti, - deb qayd etishgan edi bu olimlar, - har doim yosh avlodning ma'lumoti mazmuni va shu mazmunni egallash jarayonini tashkil etishdir»[7].

Polyak didaktik Ch.Kupisevich «o'qitish» va «o'qish» atamalarining dahldorligiga asoslanib didaktikaning tadqiqot predmetini belgilaydi. Uning fikricha, didaktikaning tadqiqot predmeti o'qitish va o'qish jarayonlar bilan birga ularni yuzaga keltirish faktorlari, shart-sharoitlari va bu jarayon olib keladigan natijalardir

Didaktikaning tadqiqot predmetini aniqlash uning tadqiqot obyekti-tadqiqot sohasini belgilashga, ularning farqalarini ajratishga bog'liq. Didaktikaning tadqiqot sohasi nima? - degan savolga O. Roziqov shunday javob beradi: «Didaktikaning tadqiqot sohasi – ta'lim jarayoni turli-tuman munosabatlar, bog'lanishlardan iborat. Bu bog'lanishlar orasida eng qadimiy, tarixiy ginetik jihatdan birlamchi hodisa o'qituvchisi bilan o'quvchining o'zaro ta'siri, ularning o'zaro bog'liqligidir». Olim didaktikaning fan sifatida shakllanishi jarayonini ko'rsatar ekan uni o'qituvchilik kasbining paydo bo'lishi bilan bog'laydi. O'qituvchilik kabi paydo bo'lishi natijasida ta'lim ma'lum maqsad, reja, tizim asosida tashkil etila boshlandi. O'quv-tarbiya jarayonini alohida loyixalar-o'quv rejalari, dastur va darsliklari asosida tashkil etish, boshqarish, nazorat etish g'oyasining asoslanishi ta'limning ijtimoiy institut sifatida shakllanishiga sabab bo'ladi. Bularning natijasi o'laroq ta'lim-tarbiya muassasalari yuzaga keldi. Demak ta'limning

[6] О. Рози=ов ва бош=алар. Дидактика. Т., «Фан», 1997 й, 16-17 б.

[7] О. Рози=ов ва бош=алар. Дидактика. Т., «Фан», 1997 й, 9 б.

2. Ыша жойда, 8 б.

ijtimoiy institutiga aylanishi, o’quv loyihalarining asoslanishi, tarbiya muassasalarining paydo bo’lishi didaktikaning fan sifatida shakllanishiga olib keladi.

Didatika ta’lim jarayoni, uning zvenolari, maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, prinsiplari, vositalari, metodlari, natijalari, ta’limning tashkiliy shakllarini o’rganadi.

Ta’lim mazmunini o’zida aks ettiruvchi normativ hujjatlar

Ta’limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta’limning mazmuni deganda, o’quvchilarning o’qish jarayonida egallab olishi lozim bo’lgan hamda tizimiga solingan bilim, malaka va ko’nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Ta’limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi (5-rasmga qarang):



5-chizma

Maktablarda beriladigan ta’limning mazmuni tarixiy hamda sinfiy xususiyatga egadir. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida maktablarda yoshlarga beriladigan ta’limning mazmuni, hajmi o’sha ijtimoiy tizimning iqtisodiy talab va ihtiyojlari, fan va texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilab kelingan.

Pedagogika tarixida umumta’lim maktablarida o’qitiladigan o’quv fanlarini tanlash va ularning mazmunini belgilashda ikki yo’nalishdagi qoidaga amal qilinadi:

1) ko’pchilik nazariyochilar «formal (shakl) ma’lumot» tarafdorlari maktabda o’qitiladigan fanlar yoshlarni fan asoslari bilan qurollantirish, ilmiy bilimlar tizimini egallashlari uchun xizmat qilmay balki yoshlarning qobiliyatlarini, tasavvur va xotiralarini o’stirishga xizmat qilmog’i kerak, deb qaraydilar. «Shakl ma’lumot, tarafdorlari maktab o’quv fanlarini yoshlarning fikr qilish qobiliyati va aqlini o’stirish uchun xizmat qiladigan fanlar-tillar, lotin hamda yunon tillari, matematika kabi fanlardan iborat bo’lishini ilgari suradilar. Formal ta’lim tushunchasi 1791 yil birinchi marta (E. Shmidtning «Empirik psixologiya») kitobida ishlatilgan».

Rossiyada bu nazariya rus gimnaziyalari o’quv rejasida o’z aksini topdi. Gimnaziyalarda qadimgi rus tili bilan bir qatorda Gretsiya va Rimning qadimgi tillari, antiq dunyo adabiyoti va tarixini o’qitish, til qoidalari va qadimiy matnlarni yodlash-o’quv rejasining qariyb uchdan ikki qismini tashkil qilardi. Tabiiy fanlar o’qitilmas, gimnaziya tamoman turmushdan ajrab qolgan edi;

2) XVIII asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelib, «shakl ma’lumot» qoidalari asosidagi maktablar taraqqiy etib borayotgan kapitalizm tuzumi talablariga javob bera olmay qoldi. Shunga ko’ra XIX asrning keyingi choragida maktab ta’limi tizimida yangi bir oqim - «Moddiy ma’lumot» nazariyasi (1879 yili F. Doyerfeldning «Didaktik materializm» kitobida) paydo bo’ldi. Bu nazariya tarafdorlari maktab ta’limi tizimida kishi hayoti uchun zarur bo’lgan, turmushda foyda keltiradigan ma’lumotlar berilishi kerak, degan g’oyani ilgari surdilar. Ular o’quvchilar qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur bo’lgan alohida fanlarni o’qitish shart emas, balki «foydali bilimlarni» o’qitish jarayonida bola qobiliyati rivojlanib boraveradi, deb qaradilar.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib pedagogika tarixida «maktabda beriladigan ma’lumotning mazmunini bola xohishiga buysingdirish» ga qaratilgan nazariya keng yoyildi. Mazkur nazariyaning ko’zga ko’ringan vakili Amerikalik faylasuf – pedagog Jon Dyuidir. Uning qarashicha, maktab azaldan mavjud bo’lgan tabiiy layoqatlarni, qiziqish va odatlarni rivojlantirishga xizmat qilmog’i lozim.

Oktabr to'ntarishgacha bo'lgan davrda O'zbekiston xududida VII-VIII asrlardan beri davom etib kelgan eski-«usuli qadmiya», XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lgan – «usuli savtiya» maktablari, xat-savod o'rgatadigan diniy maktablar bo'lgan.

1905 yildan so'ng, o'lkaning ba'zi yirik shaharlarida «jadid» maktablari paydo bo'la boshladi. Shunday qilib, maktablarning hammasi mavjud ijtimoiy tuzumi, muhit talablaridan kelib chiqdi va shu davr iqtisodiy, ma'naviy maqsadlari uchun xizmat qildi.

Hozirgi zamon maktablarida ta'limning mazmuni umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lgan iymonli, e'tiqodli yoshlarni tarbiyalab yetishtirishdan iborat. Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, dasturi va darsliklarda o'z ifodasini topadi.

O'quv rejasi

Ta'lim mazmunini o'zida aks ettiruvchi asosiy normativ hujjatlaridan biri o'quv rejasidir. Maktab o'quv rejasi – barcha umumta'lim maktablarida bajarilishi shart bo'lgan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv predmetlari tartibi va miqdori, u yoki bu o'quv predmetiga ajratilgan o'quv soatlari, o'quv yilining boshlanishi, davomi, yakuni, ta'tillari ko'rsatilgan bo'ladi.

Maktabning yagona o'quv rejasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. O'quv rejasi deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlari o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi.

O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi.

1. O'quv rejasi, o'quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maqsad-ilmiy bilimlar berish, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdir.

2. Ta'lim tizimining uzluksizligiga asoslanadi. (Ya'ni: boshlang'ich maktab I-IV sinflar, to'liqsiz maktab - V-IX sinflar, umumiy ta'lim maktabining X-XI sinflarining o'zaro bog'liqligi).

3. To'liqsiz va o'rta maktablarda o'quvchilarga bir butun tugal bilim beriladi.

4. O'quv rejasiga kiritilgan fanlarning hajmi qaysi sinfda o'qitilishi, ajratilgan soat, bolalarning yoshi va bilim saviyasiga qarab beriladi. Fanning hajmi, og'ir-yengiligi, didaktik ahamiyati ham e'tiborga olinadi. O'quv rejasiga kirtiligan fanlar, birinchi navbatda, umuminsony tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgandir.

O'quv rejasida tabbiy fanlar va ijtimoiy fanlar uchun soatlar ajratilgan, ayrim faanlar bo'yicha o'quvchilarning qiziqishi, xohishlarini qoniqtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladigan fakultativ mashg'ulotlar ko'rsatilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limning me'yoriy hujjatlarida o'quv rejasiga shunday ta'rif beriladi: «O'quv rejasi – oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyat turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchinlligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan normativ hujjat»[8]. Oliy ta'limda bakalavr yo'nalishilari va magistr mutaxassisliklar uchun alohida o'quv rejalari tuziladi.

O'quv dasturi

O'quv dasturi ma'lumot mazmunini moddiylashtirishning o'ziga xos darajasi bo'lib, ular har bir o'quv predmeti uchun alohida – alohida tuziladi. **O'quv dasturi** o'quv rejasi asosida ishlab chiqilgan davlat hujjati bo'lib hisoblanadi. O'quv dasturining kirish qismida u yoki bu o'quv predmetini o'qitishning maqsadi, vazifalari, yo'nalishlari, dasturni amalga oshirishga oid metodik maslahatlar beriladi.

Dasturning asosiy qimida o'quv predmetlarining mazmuni, tushuncha va terminlar tizimi, o'rganiladigan nazariy va amaliy materiallar, ular orasidagi aloqadorlik, o'rganiladigan bilimlarning, ko'lami, mazmuni qayd etiladi.

[8] Ызбекистон Республикаси Олий таълимнинг меъёрий щужжатлари. Т. 2001 й, 9 б.

O’quv dasturining uchinchi qismida u yoki bu mavzular bo’yicha shakllantiriladigan malakalarning hajmi belgilab boriladi. Dasturda har qaysi o’quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma’lum mavzular orqali ko’rsatiladi.

O’quv dasturi quyidagi bir qator qoidalarga amal qilgan holda tuziladi.

1. Dasturning qat’iyligi. O’quv dasturlari jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida fan, texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlar sohasida erishilgan darajani aks ettirishi lozim. Hamma o’quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yillar mobaynida qat’iy bo’lishiga erishmoq darkor. Dasturning qat’iyligi oliy darsliklar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga egaki, bu dasrliklar uzoq yashashi va o’quv jarayonida uzoq foydalanishi kerak.

2. O’quv dasturida ilmiylik qoidasi. Dasturga borliqni aniq, haqqoniy aks ettirgan, ilmiy jihatdan tekshirilgan ishonchli materiallar kiritiladi. O’quv dasturidagi ayrim eskirgan masalalar o’quv fanlaridan chiqarib tashlanadi.

3. O’quv materiallari mazmunini to’g’ri tanlash. Fan materiallarini tanlash unda isbotlar, misollar, mantiqiy umumlashma va xulosalarning to’g’ri uyg’unlashuviga alohida e’tibor berladi. Aniq misolar bo’lmasa o’rganilayotgan hodisalarni nazariy jihatdan tushunish mumkin emas.

4. Nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi. O’quv dasturida nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi, birinchi navbatda, eng avvalo, ilmiy bilimlarning turmushda, ishlab chiqarish amaliyotida o’tgan o’rni ko’rsatib beriladi.

5. O’quv dasturlarida tarixiylik qoidasi. O’quv dasturlari tarixiylik qoidasiga asoslangan holda tuziladi. Bunda o’quv fanlarning harakteri nazarda tutiladi. Masalan, tarix fanini o’qitishda tarixiy voqyealar izchillik va xronologik tarzda bayon etilsa, matematika, informatika, fizika va boshqa qator fanlarni o’qitishda fan qadimdagi ma’lum bir ilmiy hodisa, qoida va qonunlarning paydo bo’lishi, uning kelajak istiqboliga oid ma’lumotlar berib o’tiladi.

6. Dastur ikki usul bilan: ketma-ket (muntazam) va konsentrik (markazlangan) tarzda joylashtirilishi mumkin. Dasturning markazlangan tuzilishida mazkur fanga tegishli o’quv materiali o’qitishning keyingi bosqichlarida murakkablashgan ko’rinishda takrorlanadi.

Maktab va hunar – texnika bilim yurtlari dasturining tuzilishi uch bo’limdan iborat bo’lib, birinchi bo’limda mazkur dasturga amal qilish yuzasidan yo’l-yo’riqlar - qisqacha o’qitish xati; ikkinchi bo’limda – o’quv materiallarining mazmuni; uchinchi bo’limda esa o’quvchilarning qo’shimcha ravishda o’rganishlari muhim bo’lgan adabiyotlar ro’yxati beriladi.

Oliy ta’limda «ta’lim dasturi» va «o’quv fani dasturi» tushunchalari ishlatiladi. **Ta’lim dasturi** - o’quv fanlarining bakalavariant yo’nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga quyiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta’minlovchi, bloklarga jamlangan ro’yxati [9].

O’quv fani dasturi - ta’lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o’zlashtirilishining eng maqul usullari ko’rsatilgan normal hujjat[10].

Oliy ta’limning birinchi bosqichida ta’lim dasturlari ta’limdagi uzviylik ta’minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqishi va talabaning quyidagi fanlar bloklarini o’zlashtrishini nazarda tutadi.

-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
- matematik va tabbiy ilmiy;
- umumkasbiy;
- ixtisoslik;
- qo’shimcha.

Magistratura ta’lim dasturida esa quyidagi majburiy bloklar o’zlashtrilishini nazarda tutadi:
- umummetodologik fanlar;
- mutaxassislik fanlari;
- ilmiy faoliyat.

[9] Ызбекистон Республикаси Олий таълимнинг меъёрий щужжатлари. 2001 й. 9 б.
[10] Ыша жой, 10 б.

O’quv predmetlari

Har bir o’quv predmetida o’ziga oid fanning umumiy asoslari beriladi. Fan va o’quv predmeti bir-biridan quyidagi belgilariga ko’ra farq qiladi.

Birinchidan, fan xajm va mazmun jihatidan keng bo’lib u shu fanga oid g’oyalar, qarashlar, bilimlar, tushunchalarining barchasi o’z aksini topadi. O’quv predmeti esa xajm va nisbat bo’lib, unda bolalarning hayotiy tajribalari, real imkoniyatlari mos keladigan bilimlarni o’rgatish ko’zda tutiladi.

Ikkinchidan, fan hamma uchun – yoshu qari, o’zbeku qozoqqa bir xil xizmat qiladi. O’quv predmetlari esa faqat yoshlariga mo’ljallab tuziladi.

Uchinchidan, fan va o’quv predmetining faqat o’zigagina vositalari mavjud.

To’rtinchidan, fan o’zini-o’zi rivojlantiradi, tarbiyalaydi.

Lekin farqlariga qaramasdan ular o’zaro o’zviy bog’langan.Fan taraqqiyoti o’quv predmetlarining mazmuni mundarijasiga ta’sir qiladi. Fan rivojlangan sari o’quv predmetlari sayqallashib, takomillashib boradi.

O’quv predmetlarida ko’zda tutilgan muammolar o’quv predmetiga oid ma’lumot mazmunini tanlash, ko’nikma-malakalarni birlashtirish, me’yorlarni belgilash, bolalarning yoshi tayyorgarlik darajasiga mos topshiriqlar tizimini ishlab chiqarish kabi funksiyalarni bajaradi.

O’quv pedmetlari bir yoki bir necha yil mobaynida o’tiladi. Masalan, ona tili predmeti bola o’qish va yozishni o’rgangandan boshlab o’rta umumiy ma’lumot olguncha davom etgan o’quv kursidir.

O’quv pedmeti, uning mazmuni, unda ko’zda tutilgan muammolar moxiyatidan kelib chiqib darsliklar tuziladi.

O’quv darsliklari va ularning tuzilishi

Darslik o’quv jarayoning zarur qismidir. Ko’p vaqtlardan beri o’qitishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Darslik – o’quvchilarning ikkinchi “muallimi”. Chunki, u o’quvchi uchun zarur qo’llanmadir.

Darslik – davlat ta’lim standarti, o’quv dasturi, uslubiyati va talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g’oyalari muayyan o’quv fanining mavzulari to’liq yuritilgan, fanning asoslarini mukammal o’zlashtirishga qaratilgan nashri.

Har bir o’quv fanining mazmuni darslikda batafsil yuritiladi. Unga tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktik bilimlariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir. Bilim ta’lim tizimiga pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi darsliklarni ham shunga mos xolda yaratish zarurdir.

Yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan darsliklarning modeli o’z tarkibiga ikkita kompanentni mujassamlashtirish talab etiladi: a) ta’lim mazmuni; b) ta’lim beruvchi metodik tarbiyachining faoliyati ya’ni o’qituvchining kasb maxorati. O’quv pedmetining loyixasini ifodalagan karta va xokozo. Chunki, bizning mintaqamiz bilan bog’liq holda o’quvchilarda mavjud bo’lgan fiziologik-geginik hamda psixologik xususiyatlardan, davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqqan xolda darsliklarda bayon qilinadigan o’quv materiallarining xajmi o’quv materiallarini strukturalashtirish muammolari, darsliklarda metodik instirumentlarning o’rni o’quvchini darslik bilan ishlatish yo’llari, bu jarayonda o’qituvchining tutgan o’rni kabi muammolar chuqur tatqiq etilishi lozim.

Darsliklarning yangi avlodini yaratishda davlat ta’lim standarti talablari va o’quv dasturi xajimida me’yorlangan o’quv yuklamasining modeli va xavola etilayotgan o’quv materiallarining ta’limiy-tarbiyaviy qiymatligini ta’minlash parametriga o’quvchilarni yangi bilim va axborotlar bilan qurollantirishning didaktik va texnologik asoslariga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Darsliklar yaratish muammosining muhim masalalari sifatida quyidagilarni ta’minlash aloxida axamiyatga ega.

- O’quv fani asoslarining mazmuni, ya’ni o’quv modili bilan o’quvchilar bilish faoliyati ko’rinishlarini uyg’un xolda ifodalash;
- Ko’p tarmoqli o’quv materiallarini taqdim etish;
- Giper matnlarni berish, multimedium yondashuvga asoslanish;
- Informasion banklarni taqdim etish;
- O’quv materiallarini texnik va texnologik talablar asosida ifodalash;
- Darslikning o’quvchilar bilan bevosita muloqotga kirishishini ta’minlash. Buning uchun esa yangi darsliklar tipologiyasini ilmiy pedagogik jixatdan asoslash va ishlab chiqish talab etiladi;
- Ta’lim jarayonini darsliklar, o’quv qo’llanmalar, metodik vositalar, o’quv lug’atlari va biofilimlar bilan ta’minlashga erishish;
- Darsliklar, o’quv qo’llanmalar mazmuni “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushunchalar, tamoillar” i bilan boyitish;
- Ko’p tarmoqli o’quv materiallarni darslik va qo’llanmalar orqali taqdim etishga erishish;
- Darslik va o’quv qo’llanmalarning o’lchamlari va xajmi ustida jiddiy izlanishlar olib borish;
- Darslik dizayni soxasida tatqiqotlar olib borish bu borada jaxon va tarixiy tajribalarni uyg’unlashtirishga erishish;
- Darslik va o’quv qo’llanmalari ta’lim jarayoninig axborot modili sifatida nomoyon bo’lishini ta’minlash uchun keng ko’lamda tatqiqotlarni yo’lga qo’yish;
- Integrativ darsliklar yaratilishini ta’minlash va boshqalar. Darslik bilan bir qatorda ayrim o’quv fanlari yuzasidan o’quv qo’llanmalar ham tuziladi. Masalan, masalalar va mashqlar to’plami, matolar, atlaslar, lug’at kitoblar shular jumlasidandir.

O’quvchilarning o’quv qo’llanmalaridan foydalanishlari ularning o’quv materiallari ustida tizimli ish olib borishlari, ilmiy bilim, ko’nikma va malakalar bilan yanada mukammalroq foydalanishlariga keng imkoniyatlar yaratadi.

O’quvchilar darsliklar va o’quv qo’llanmalari bilan ham darsda, ham uy sharoitida mustaqil ish olib boradilar. Darslik materiali tarbiyaviy axamiyatga ega. U bilan ishlash o’quvchilarning tarbiyasiga, ularda ilmiy dunyoqarashning, axloq-odobning shakllanishiga, tafakkuri va nutqining, ishdagi mustaqilligining rivojlanishiga yordam beradi.

O’quv adabiyotlarning shakllari

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da “o’quv-tarbiya jarayonini sifatli o’quv adabiyotlari” va “yangi o’quv-uslubiy majmualar”[11] bilan to’liq ta’minlash vazifalari belgilanadi. Shundan O’zbeiston Respublikasi vazirlar maxkamasining 1998 yil 5-yanvar 4-sonli “Uzluksiz ta’lim tizimini darsliklar va o’quv adabiyoti bilan ta’minlashni takomillashtirish to’g’risida”gi qarori va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 1999 yil 28- sentyabrdagi sonli “Uzluksiz ta’lim tizimini o’quv adabiyotlari bilan aniqlash xaqida” gi buyrug’i e’lon qilindi. Yangi o’quv adabiyotni yaratishga kiritildi. Bu ishni yanada jonlantirish xaqida O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi Xalq ta’limi vazirligi hamda O’zbekiston “Ustoz” jamg’armasining 1998 yil 25-fevral 48g’ 45g’ 4 sonli qo’shma buyrug’i e’lon qilindi. Unda eng yaxshi darsligi va o’quv adabiyoti muallifi tanlovi chop etish va g’oliblarni mukofatlash mezonlarini ishlab chiqish usullari ko’rib chiqildi. Shundan so’ng “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o’quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi” ishlab chiqildi va “Ma’rifat” gazetasi (2001 y 26 dekabr) da e’lon qilindi. Bunda o’quv adabiyotlari an’anaviy va elektron adabiyot shaklida bo’lishi bo’lsa ko’rsatildi

[11] Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Баркамол авлод-Ўзбекистон келажагининг пойдевори. Т., “Шар=”, 1998й 41 б.

An’anaviy (bosma) o’quv adabiyotlar- ta’lim oluvchilarning yoshi va psixologik-fziologik xususiyatlari, ma’lumltlar xajmi, shriftlar, qog’oz sifati, muqova turi va boshqa ko’rsatkichlarni hisobga olgan xolda qog’ozda bosiladigan o’quv adabiyotlar.

Elektron o’quv adabiyotlar – zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarning ma’lumotlarini jamlash, tasvirlash, saqlash va taqdim etish imkoniyatlari asosida yaratiladigan o’quv adabiyotlar.

Konsepsiyada uzluksiz ta’lim tizimi o’quv-tarbiyaviy jarayonida o’quv adabiyotlarining **quyidagi turlari** qo’llanilishi ta’kidlangan (5-chizmada) :



5- chizma

Shu o’quv adabiyotlargi berilgan ta’riflarni ko’rib chiqsak.

Darslik – davlat ta’lim standarti, o’quv dasturi, uslubiyati va taktik talablari asosida belgilangan milliy istiqlol g’oyalari muayyan o’quv fanining mavzulari to’liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o’zlashtirilishiga qaratilgan davlat nashri[12].

Har bir ta’lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa xususiyatlarini xisobga olgan darsliklari bo’ladi. Odatda, darslik o’quv fanining nomi bilan nomlanadi. Darslikda nazariy ma’lumotlardan tashqari, amaliy va sinov mashqlari bo’yicha zarur ko’rsatmalar beriladi.

O’quv qo’llanma – darslikni qisman to’ldiruvchi muayyan fan turi bo’yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqurlashtirilishini ta’minlovchi, ayrim bob va bo’limlarni keng qamrovda yuritishga yoki amaliy mashq va mashg’ulotlar yechimiga jamlangan davlat nashridir.

O’quv qo’llanmada muayyan mavzular darslikka nisbatan ko’proq yuritiladi. Masalan, “Mexanika” – fizika fanining mexanika qismiga bag’ishlangan o’quv qo’llanma. “Fizikadan masalalar to’plami” – fizika fani bo’yicha masala va mashqlarga mo’ljallangan o’quv qo’llanmalar va xokozolar.

Lug’at – aniq bir tartibda joylashgan so’zlar (yoki so’z birikmasi, iboralar va xakozo) to’plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi haqida ma’lumot

[12]Узлуксиз таълим тизими учун ўқув адабиётларининг янги авлодини яратиш консепсияси. “Маърифат” газетаи, 2001 йил. 26-декабр.

beruvchi yoki so’zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlarida axborot beruvchi davlat nashridir.

Izohli lug’at – so’zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir grammatik, etimologik, stilistik tafsivi berilgan, ularni mashqqa oid misollar va boshqa ma’lumotlar keltirilgan, qo’shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan davlat nashri.

Ma’lumotlar to’plami – foydalanishga qulay shaklda yaratilgan muayyan fanni yoki ta’lim yo’nalishini o’zlashtirish uchun bo’lgan, isbot talab qilmaydigan ma’lumotlar, ilmiy o’lchamlar, turli belgi va raqamlardan ilmiy, iqtisodiy, siyosiy, amaliy, ijtimoiy, madaniy va boshqa soxalardagi ma’lumotlardan tashkil topgan davlat nashri. Ma’lumotlar bir qator muxim ilmiy-amaliy masalalarni yechishni kiritish mumkin

Ma’ruzalar kursi – fanning o’quv dasturi bo’yicha undan barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yuritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy qo’shimcha o’quv adabiyotlar ko’rsatilgan, o’z-o’zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan adadli davlat nashridir. Ma’ruzalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan ataladi.

Ma’ruzalar matni – muayyon fanning o’quv dasturi bo’yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqacha yuritilgan birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo’shimcha o’quv adabiyotlar ko’rsatilgan o’z-o’zini nazorat qilishga oid savollar turkumi mavzuga tegishli tayanch atamalar va iboralar keltirilgan. Davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta’lim mutaxassislarining ilmiy (pedagogik) kengashi taviyasi bo’yicha chiqariladigan kuchli adadli tarqatma material.

Metodik (uslubiy) ko’rsatma – muayyan fanning o’quv dasturi bo’yicha kurs ishlari (loyixalari), lobaratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo’yicha talabalarga zarur amaliy ko’nikmalar hosil qilishga mo’ljallangan ta’lim muassasalarining ilmiy pedagogik kengash tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik qo’llanma – o’qituvchilar (professor-o’qituvchilar) uchun mo’ljallangan bo’lib unda bir darsning maqsadi, dars o’tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni amaliy mashg’ulotlar, qo’shimcha topshirio’lar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadi.

Sharh – jamiyat taraqqiyoti uchun muhim axamiyat kasb etadigan me’yoriy-xuquqiy xujjatlarni shuningdek, bahsga loyixa asarlarini, g’oyalarini, fikrlarini va ta’riflarini izohlovchi, muayyan masalalar yechimini ko’ratuvchi, keng ommaga mo’ljallangan qo’shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan davlat nashri.

Dayjest – davriy adabiyotlar (qonunlar, qarorlar) mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, ma’lumotlar to’plami sifatida foydalaniladigan doimiy davlat nashri.

Elektron o’quv adabiyotlar – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o’quv uslubini qo’llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o’quv materiallari ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarador o’zlashtirilishiga mo’ljallangan bo’lib:

- o’quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o’quv materiollar verbal (matn) va ikki o’lchamli grafik shaklda “Multimediya” (Multimediya – ko’p axborotli) qo’llanmalar, ma’lumotuch o’lchamli grafik ko’rinishda, ovozli, video, imasiya va qisman verbal (matn) shaklda;
- taktil (his qiluvchi, seziladigan) xususiyatli, o’quvchini “ olamida” sterio nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va obe’ktlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan xolda ifodalanadi.

Ma’lumotlar banki - axborotlashgan – kompyuter texnologiyalarining imkoniyatini va vositalari asosida yaratilgan, statik va rijimda tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta’minlangan, katta xajmdagi axborotlarni o’z ichiga qamrab olgan ularni turli ko’rinishda (jadval, diogramma, distogramma, matn, va xokozo) bera oladigan, muxim axamiyatga ega bo’lgan o’quv jarayonida o’z ustida mustaqil ishlash o’z bilimini nazorat qilish uchun doimiy

ravishda to’ldirib boriladigan, keng foydalanishga mo’ljallangan davlat ruyxatidan o’tgan ma’lumotlar to’plami.[13]

Davlat ta’lim standartlari

“Ta’lim to’g’risida” gi qonunimizning 7-moddasida shunday deyiladi: “Davlat ta’lim standartlari umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta’lim standartlarini bajarish O’zbekiston Respublikasining barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir”[14]

Umumiy o’rta ta’lim davlat ta’lim standartlarini joriy etish zarurligi kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, milliy umumiy o’rta ta’limni xalqaro darajaga olib chiqish, uning bundan buyon tubdan yangi qurish ishlarini hisobga olgan holda faoliyat ko’rsatishi, ta’lim ishlari va o’quv-metodik majmualarni yangi mazmun bilan boyitishni tashkiliy-boshqaruv faoliyatini tub demokratik va gumanistik yillar asosida o’zgartirish talablari bilan shartlanadi.

Davlat ta’lim standarti umumiy o’rta ta’lim maqsad va vazifalarini hisobga olgan o’quvchining shaxsiyati tomon yuz tutgan, o’quv-tarbiya jarayonini demokratlashtirgan va insonparvarlashtirgan, ijtimoiy institut sifatida maktabning xuquqlari kengaytirgan, unga milliy qiyofa baxsh etgan xolda, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 1998 yil 5-yanvardagi 5-sonli “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to’g’risida”gi qarori asosida ishlab chiqildi.

Maktabning milliy asosi umumiy o’rta ta’limning umuminsoniyligidan tashqari salmoqli ravishda milliy kompanent taqdim etilgan mazmuni kabi muhim ko’rsatkichi bilan qanoatlantirilgan. Umumiy o’rta ta’lim davlat ta’lim standartida har bir ta’lim soxasining (o’quv faninig) yangi mazmunini belgilashga boy milliy-ibtidoiy, madaniy-tarixiy an’analar va jaxon yutuqlari, shuningdek, taraqqiyparvar pedagogik va axborot texnologiyasi hisobga olingan.

Umumiy o’rta ta’lim davlat ta’lim standartida ta’lim-tarbiya tuzilishi, o’quvchilarni rivojlantirish mazmuni, shakllari, metodikasi va vositalarida o’z aksini topgan tub o’zgarish maqsadlari nazarda tutilgan.

Umumiy o’rta ta’lim davlat ta’lim standartini joriy etish quyidagilarga yordam beradi:

1.Ta’lim muassasalarining turlari, umumiy o’rta ta’lim shakllari xilma-xil bo’lgan sharoitda O’zbekiston Respublikasining ta’limiy makon birligi;

2.Muhim rag’batlantiruvchi omillar asosida o’quvchilarni o’qishga bo’lgan quyidagi kabi ijobiy motivlarni shakllantirish:

a) o’quv materiallarining tushunarliligini oshirish;

b) o’quv yuklamasini me’yorlashtirish;

v) o’quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasiga qo’yilgan talablarni va uni baholash mezonlarini anglab yetishlari.

3.Bir xillashtirilgan o’lchovlar va o’lchov tartiblari asosida o’quvchilarning tayyorgarlik sifatiga obyektiv baho berish.

4.Pedagog mehnati natijalarini o’quvchilar erishgan o’z yutuqlarining davlat ta’lim standartlariga mosligini xisobga olgan xolda baholashga o’tish. Bu narsa ta’limning pedagogik texnologiyasini tanlashda erkinlik beradi.

5.Asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

6.O’quv rejasida o’quvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlari, moyilliklariga ko’ra tanlab shug’ullanishlari uchun kafolatlangan vaqt ajratish.

---

[13] Узлуксиз таълим тизими учун ў=ув адабиётларнинг янги авлодларни яратиш консепсияси (Маърифат газетаси 2001 й. 26 декабр) асосида

[14] Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тў\рисида” ги +онуни. Баркамол авлод Ўзбекистон келажагининг пойдевори. Т. , “Шар=” , 1998 й. 22 б.

Umumiy o'rta ta'lim standartlarida: "Umumiy o'rta ta'limning maqsadi o'quvchilarga davlat ta'lim standarti talablariga mos tarzda ta'lim va tarbiya berish va ularni rivojlantirish hususiyatining ta'lim olish xuquqini ta'minlashdan iborat. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilar oladigan bilimlarning zarur xajmiga asos bo'lib, o'quvchilardagi tashkilotchilik qobiliyati, malakalari va tajribasini rivojlantiradi, dastlabki kasb-hunar mo'ljali hamda bundan keyingi akademik lesiy yoki kasb-hunar kollejida bilim olish yo'nalishini tanlash uchun yordam beradi"[15] -deb ko'rsatiladi.

Umuiy o'rta ta'limning vazifalari o'quvchilarning tizimli bilmi olishlarini ta'minlash, ularda bu bilmilarni o'zlashtirish extiyojini o'stirish, tayanch o'quv , ilmiy va umummadaniy bilimlarni o'zlashtirish; mehnat ko'nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, tanlashga va tevarak atrofdagi olamga ongli munosabatni rivojlantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlarining moxiyati va .

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standart O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining muayyan qismi ta'minlovchi asosiy me'yoriy xujjat xisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti deganda umumiy o'rta ta'limning istiqboldagi ijtimoiy maqsadlarini aks ettiradigan hamda o'quvchilarning jamiyat va davlat tomonidan ilgari surilayotgan ta'lim maqsadlariga erishish borasidagi imkoniyatlarini xisobga oladigan bilim olganlik, davlat me'yorlari sifatida qabul qilinayotgan parametrlar tizimi tushiniladi.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishga doir pedagogik nazariya, pedagogik tajribani o'zaro bog'lanishi asosida umumiy o'rta ta'lim tizimidagi me'yorlar, parametrlar, qoidalar, o'qitish metodikasi va sifati ko'rsatkichlarini belgilab beradi.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti strukturani, mazmunni va uni taqdim etish darajasini aniqlab beradi, ta'lim-tarbiya natijalarini va o'quvchilarning rivojlanishini o'lchash va joriy qilish metod va shakllarini belgilaydi. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti vositasida umumiy, o'rta ta'lim talab olayotgan darajasi stabilligi, unga doimiy ravishda qayta erishuv va davlatning rivojlanishi, fan, madaniyat va texnika taraqqiyotining jahon darajasi istiqbollariga javob beradigan takomillashtirish ishi ta'minlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti mohiyatan umumiy o'rta ta'limning quyidagi asosiy ko'rsatkichlariga – tarkibiy qismlariga doir minimal majburiy talablar bayonini ifoda etadigan tayanch o'quv rejasi (Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining yuqori darajasi sifatida), ta'lim sohalari (o'quv fanlari) mazmuni, shaxsning akademik lesiy va kollejlarida o'qishni davom ettirish uchun umumiy ta'lim tayyorgarligi.

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2001 yil 16 avgust №343 qarori bilan tasdiqlandi

.Akademik lesiy nima-yu, kasb hunar kolleji nima?

"Ta'lim to'g'risida" gi qonunimizning 2-bo'limida ta'lim turlari ko'rsatib berilgan bo'lib, uning 13-moddasi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi haqidadir. Kadrlar milliy dasturida ta'kidlanishicha: "Umumiy o'rtata'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi"[16]

1998 yil 13 mayda Vazirlar Maxkamasining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida"gi 204-sonli qarori va qarorga ilova tarzda "O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi to'g'risida Nizom" e'lon qilindi. Nizomda ko'rsatilganidek: "Kasb-hunar bo'yicha chuqurlashtirilgan, tabaqalashtirilgan ta'lim berish, o'quvchilarning intellektual rivojlanishi va

[15] Умумий ўрта таълим давлат таълим стандартлари. Т., "Ў=итувчи" , 1999 й.

[16] Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Баркамол авлод-Ўзбекистон келажагининг пойдевори. Т., "Шар=". 1998 й, 47 б.

ularning o’z qobiliyatlari va moyilliklariga muvofiq kasb-hunar ta’limining maqsadi xisoblanadi”.[17]

O’rta maxsus kasb-hunar ta’limi akademik liseylarda va kasb-hunar kollejlarida kunduzgi o’qish shaklida amalga oshirilishi belgilandi.

Akademik lisey - o’qitish muddati uch yil, davlat ta’lim standartlariga muvofiq o’rta maxsus ta’lim beradi. O’quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning inteliktual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan kasbga yo’naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi.

Akademik liseylarda o’quvchilar o’zlari tanlab olgan ta’lim yo’nalishi bo’yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilmi saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o’rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko’nikmalarini o’zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Bu ko’nikmalarni o’qishni muayyan oliy ta’lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ruyobga chiqarishlari mumkin.

Akademik liseylar oliy ta’lim muassasalari huzurida tashkil etiladi.

Kasb-hunar kolleji – o’qitish muddati uch yil, davlat ta’lim standartlari doirasida o’rta maxsus layoqatlarini, ko’nikma va o’quvlarini rivojlantirish, ularning tanlangan kasb-hunar bo’yicha bir yoki bir nechta mutaxasislikka ega bo’lishini ta’minlaydi.[18]

Kasb-hunar kollejlari jixozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o’quv jarayonining tashkil etilishi jixatidan yangi tipdagi ta’lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o’quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik lisey va kasb-hunar kollejlarida ta’lim olish o’quvchilargi o’z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo’lishni ta’minlaydi. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta’limning keyingi bosqichlarida o’qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo’yicha mehnat faoliyati bilan shug’ullanish xuquqini beradi.

O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur[19]

- akademik lisey va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko’rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;
- soha uchun oliy ta’lim muassasalarining ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxasisilarini jalyu etgan holda yuqori malakali mutaxasislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyolash va qayta tayyorlashni tashkil etish;
- o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o’quv muassasalari uchun ta’lim kasb-hunar dasturlari, o’quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;
- akademik liseylarning o’quvchilari mehnat faoliyat ko’nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar io’lab chiqish va joriy etish;
- kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadigan mutaxasislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ruyxatini ishlab chiqish;
- hududlarning jug’rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxasislarga bo’lgan mahalliy ehtiyojlarini hisobga olgan holda o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi ta’lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta’minlash, ularga o’quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;
- akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarining moddiy texnika va axborot bazalarini mustaxkamlash.

Bakalavriyat va magistratura – oliy ta’lim bosqichlari

[17] Ўрта махсус, касб-щунар таълими тў\рисида Низом // “Хал= таълими” 1998 й, 4-сон, 13-бет.
[18] Ўша жой, 14 б.
[19] Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Баркамол авлод-Ўзбекистон келажагининг пойдевори. Т., “Шар=”. 1998 й, 48 б.

Oliy ta’lim – uzluksiz ta’limning yuqori malakali mutaxasislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy ta’lim ikki bosqichdan iborat: bakalaviriyat va magistratura[20].

Oliy ta’lim muassasalariga talablar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik – shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalaviriyat – o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negizida oliy ta’lim yo’nalishlaridan biri bo’yicha fundamental va amaliy bilmi beradigan, o’qish muddati to’rt yildan kam bo’lmagan tayanch oliy ta’lim[21] .

Bakalavr:

- ta’lim yo’nalishi bo’yicha oliy ma’lumotli shaxslar egallashi lozim bo’lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;
- tegishli bakalaviriyat yo’nalishi doirasida tanlangan mutaxasislik bo’yicha magistraturada oliy ta’limni davom ettirishga;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini qo’shimcha kasb ta’limi olish uchun tayyorlanadi.

Bakalavrlik dasturi tugallanganidan so’ng bitiruvchilarga davlat attestasiyasi yakunlariga binoan kasb bo’yicha “bakalavr” darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug’ullanish xuquqini beradigan diplom topshiriladi.

1998 yil 30 oktyabr Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 5-sonli buyrug’i bilan “Magistratura haqida Nizom” tasdiqlandi. Nizomda ta’kidlanganidek:”**Magistratura –** aniq ixtisoslik bo’yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalaviriatdan keyin uning negizida ta’lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir”[22] .

“Magistr” darajasini beradigan davlat attestasiyasi magistrlik dasturining ixtisosidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug’ullanish xuquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistraturaning ixtisoslashgan ta’lim dasturlari DTS ko’zda tutgan quyidagi ixtisosiy fanlar bloklarini o’z ichiga oladi:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar;
- matematik va tabiiy fanlar;
- yo’nalish sohasidagi fanlar;
- ixtisosiy fanlar saqlash;
- ilmiy-tatqiqot va ilmiy-pedagogik amaliyotlar.

Magistr har tomonlama bilimdon, fundamental ilmiy asosga ega ilmiy ijod uslubiyoti, zamonaviy axborot texnologiyasi, ilmiy ma’lumotlar qabul qilish, ulardan foydalanish va saqlash usullarini biladigan, ilmiy-tatqiqot (ilmiy-texnik) va ilmiy pedagogik faoliyatga tayyor bo’lishi lozim.

Magistrlik dissertasiyasi ilmiy yoki ilmiy-texnik mazmunli ichki ega, tanlangan mavzu bo’yicha ish jarayoni va natijalarini aks ettiruvchi bitiruv-malakaviy ishi bo’lib, uning himoyasidan keyin magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasbiy faoliyat bilan shug’ullanish xuquqini beradigan diplom topshiriladi.

Ta’lim qoidalari va ularning aloqadorligi

Ma’lumki, qonuniyat – bu barqaror, zaruriy, u yoki bu xodisalar va jarayonlar o’rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Ijtimoiy extiyojlar va sharoitlar o’quv jarayonining xarakteri, uning usullari, mazmuni, shakllari va vositalari qonuniy ravishda aniqlab beradi. Agar o’qitish jamiyat talablarini e’tiborga olinsa, u holda uni, albatta, qayta qurish, takomillashtirish kerak.

Demak, ta’lim berish, tarbiyalash va o’quvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur.

[20] Ўзбекистон Республикаси Олий таълим меъёрий хужжатлари. Т.2001й 9 б.
[21] Ўша жойдан 9-бет.
[22] Олий таълим, меъёрий хужжатлар тўплами, Т, “Шар=” 2001й, 221 бет.

Ifodalangan qonuniy didaktik aloqalarni va o’qitish qoidalarini ilmiy asoslangan o’zaro bog’lanishda qo’llash ko’nikma va malakalarni chuqur, puxta, ongli va ta’sirli o’zlashtirilishini ta’minlaydi. O’qitishni aynan shunday natijaga qaratish uning onglilik, puxtalik, ta’sirchanlik qoidalarini xarakterlaydi.

Ta’limning mazmuni hayot, xozirgi zamon fani bilan bog’langan bo’lganligi uchun ham, vazifalarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish muommolari, ishlab chiqarishni mexanizasiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish kabilar asosida intensivlash o’z aksini topishi kerak.

Har bir o’qituvchi shuni anglab yetishi muhimki, o’quv jarayonini samarali qurish bu, ishda o’zini oqlagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, didaktik qoidalarni xozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni xal qilishda ijodiy foydalangan holda ulardan butunlay va o’zaro aloqada foydalanish demakdir.

O’qitishning muqobil tomonlarini tanlash uchun butun qonuiyatlar birligini va didaktik qoidalarini e’tiborga olish zarur.

O’qitish qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muxim talablar kelib chiqadiki, buni o’qitish qoidalari deb ataydilar. O’qitish qoidalari bilish o’qitishning zarur ustilarini yanada ishonchliroq tanlashga imkon beradi.

Ta’lim qoidalari – o’qituvchining faoliyatini va o’quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o’zlashtirilishini, tegishli ko’nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo’l yo’riqlarini o’z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta’lim qoidalari har ikkala faoliyati, ya’ni o’qituvchi va o’quvchi tomlnidan o’z oldiga qo’yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. Shunga ko’ra ta’lim qoidari o’qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jixatdan to’g’ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

“Ta’lim qoidali deb umuminsoniy tarbiyaning maqsad vazifalarini amalga oshirishda qaratilgan o’qish va o’qitish jarayonlarining yo’nalishi. O’quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o’zlashtirilishi, bilim va malakalar hosil qilishning assosiy qonun qoidalarining yig’indisiga aytiladi**”.**

So’nggi yillarda olimlar tomonidan yaratilgan pedagogik adabiyotlarda didaktik qoidalar turlicha guruxlashtirilmoqda. Ana shularga asoslangan holda quvidagicha ta’lim qoidalari (tamoyillari) ni ko’rsatib o’tish mumkin (6-chizmaga q

6 – chizma

Ta’limning ilmiyligi qoidasi o’quvchining o’quv materialidagi qonuniyatlarini aks ettirishi, tushuntirishi o’zlashtirilishi uchun to’g’ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir. Ilmiylik qoidasi barcha yosh guruhlardagi va turli o’quv yurtlaridagi o’quvchilarga o’rganish uchun ilmiy jixatdan ishonarli, amalda sinab ko’rilgan ma’lumotlar qilishni talab etadi. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o’quvchilarga ilmiy dunyoqarash, e’tiqod tarkib topadi. Tafakkur tanlanadi. Ta’limning ilmiy bo’lish qoidalari ta’lim jarayonida o’quvchilarni xozirgi zamon fan-texnika taraqqyoti darajasida muvofiq keltiradigan ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, yoshlarni ilmiy e’tiqod usullari bilan tanishtirib borishni ta’minlashga qaratilgan.

Ta’limning tizimli va izchil bo’lishi qoidasi. Ijtimoiy taraqqiyotning har davridagi maktabning tarixiy tajribasi ta’lim vazifasi ma’lum bir sababsiz bajarib bo’lmasligini ko’rsatadi. Ta’limda izchillikka rioya qilish lozim, toki bugun o’rganilgan bilimlar kecha o’rganilganlarni mustahkamlash, ertaga o’rganiladiganlarga zamin xozirlasin. Tizimlilik va izchillik o’quvchilarda har qaysi o’quv fanlarining bir-biri bilan uzviy bog’liq bo’lishini ko’rsatishga ham muhim axamiyatga ega.

Ta’lim va tarbiyaning birligi qoidasi – ta’lim tizimida asosiy va yetakchi qoidalardan biri xisoblanadi. U didaktik qonunlarning o’qish va o’qitish har biri, xatto, ayrim mavzu va mavzuchalari ham shubxasiz tarbiyalovchi xarakterga ega.

O’qitish jarayonida **onglilik va faollik qoidasi** o’quvchilar ilmiy bilimlarini hamda ularni amalda qo’llash usullarini ongli va faol egallab olishini, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o’quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, ilmiy dunyoqarash, e’tiqod tarkib topishi nazarda tutiladi.

Ta’limda nazariyani amaliyat bilan bog’lab o’qitish qoidasi didaktikaning didaktik qoidalaridan biridir. Bu qoida dastavval o’quv fanining mazmuni va o’ziga xos xususiyatiga bog’liq holda o’qish jarayonida amalga oshiriladi. Inson ilmiy bilmilarini o’zlashtirib olishigagina emas, balki bu bilimlarni amalda qo’llay bilishlari ham kerak. Ta’lim jarayonida nazariya bilan amaliyotning birligi qoidasining izchilligi va amalga oshirilishi natijasida o’quvchilar o’quv materiallarining tub moxiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini ilmiy asosda atroflicha to’g’ri, chuqur tushinib oladilar va kelajak amaliy faoliyatlari uchun zarur bo’lgan maxorat, ko’nikma va malakalar hosil qiladilar.

Ta’limning ko’rsatmalilik qoidasi o’qitish jarayonining sifatini orttiradi, o’quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Bu qoida o’qitish jarayonida ko’rish, eshitish, xid bilish, ta’m bilish, teri, muskul-xarakat kabi sezgi organlarning ob’kt ustida safarbar qilinishi talab etadi. Ta’limda ko’rsatmalilikning ko’rsatmaliilkning samarali natijalar berishi uchun ko’rgazmali qurollar o’quvchilarning yoshi, umumiy tayyorgarligi – saviyasiga mos bo’lishi, mavzu mazmunining ochib berishiga yordam berishi, undan foydalanish uchun ta’lim usullari to’g’ri tanlangan bo’lishi lozim.

Ta’limning o’quvchilarga mos bo’lishi qoidasida ta’limning ikki tomoni e’tiborda tutiladi: a) o’quv materiallarining xarakteri mazmuni va xajmi sinf o’quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo’lishi; b) bilmi xajmi o’quvchtilarning saviyasiga mos bo’lishi lozim. Ta’limning o’quvchilarga mos bo’lishi quyidagi qoidalarga asoslanadi: “Osondan qiyinga qarab borish”, “Ma’lumdan noma’lumga qarab borish”, “Soddadan murakkabga qarab borish”.

Ta’lim va tarbiyaning birligi qoidasi va moxiyati

Maktab o’quvchilariga ta’lim berish, tarbiyalash va ularning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur. Ta’lim tizimida ta’lim va tarbiyaning birligi qoidasi asosiy va yetakchi qoidalardan biri hisoblanadi. U didaktik qonunlarning o’qish va o’qitish borasidagi tub moxiyatini ifodalaydi; Binobarin, o’quv fanlarining har biri, xatto, ayrmi mavzu va mavzuchalari ham, shubxasiz tarbiyalovchilik xarakterga ega.

Ta’lim jarayonida o’tilayotgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to’g’ri belgilash va uni ta’lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta’minlash juda muhim va hal qiluvchi axamiyatga ‘ga.

Demak, bir butun ta’lim jarayonida ikki o’zaro bog’liqlik: xayotni bilish va unga bo’lgan munosabatni tarkib topish jarayoni ajralib turadi. Maktabda beriladigan ta’lim bilan tarbiya o’rtasidagi pedagogik jarayoning butunligini ta’min etuvchi o’zviy birlikhaimsha mavjud.

Maktab ta’limida o’quvchilar tabiiy fanlarni – matematika, kimyo, biologiya, astranomiya va boshqa fanlarni o’zlashtirish orqali ilmiy e’tiqodlari shakllana boradi. Ular dunyoni o’rganish mumkinligini ilmiy asosda anglab oladilar, haqiqatga ishonch bilan, yolg’on narsalarga nafrat bilan qaray oladigan bo’ladilar. Ular ustidan xaqqoniy xukm chiqaradigan aqlli, idrokli, iymonli inson bo’lib yetishadilar.

Maktab ta’limida gumanitar fanlarning ham tarbiyaviy axamiyati juda muhimdir. Tarix fanini o’zlashtirish orqali o’quvchilar (yangi taklif etilgan fani dasturi asosida) jumxuriyatimiz tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, moddiy-madaniy, jismoniy-siyosiy, ma’naviy jixatdan rivojlanishi, adabiy-badiiy merosi, bobokalonlarimiz tomonidan qoldirilgan qimmatli xazinalarimiz, xozirgacha o’rganilmay qolgan aql pedagogikasi durdonalari bilan tanishadilar. qo’ying-chi, sharqona udumlar, odatlar dunyosiga kirib boradilar, tarixning chin madadkori xalq ommasi ekanligi haqida aniq bilimga ega bo’ladilar. Adabiyot va san’atni o’rganish o’quvchilarni chin inson qilib tarbiyalashdagi eng zarur shartlaridan biridar.

Ta’lim-tarbiyaning birligi ta’lim jarayonini to’g’ri tashkil qilish va o’qitishning xilma-xil usullaridjan foydalana olishga ko’p jixatdan bog’liq dir. Ayniqsa, ta’lim bilan tarbiyaning birligini tiha’minlamoq uchun:

- bayon qilinayotgan o’quv materiallarining mazmuni ham ilmiy, ham g’oyaviy jixatdan to’g’ri tashkil qilinishi;
- o’qitilayotgan temaning ilmiy va tarbiyaviy moxiyati ochib berilishi, ta’lim jarayonida xadislardan foydalanish imkoniyatini yaratilishi;
- bayon qilinayotgan ilmiy bilimlarning puxta va mustaxkam o’zlashtirilishi va turmushda unga amal qilinishi;
- ta’limda muammoli jarayonni vujudga keltirish, o’quvchilarning qiziqishlari, aktivlik, tashabbuskorliklarini ta’minlashga e’tiborning kuchaytirilishi;
- ta’lim jarayonida o’quvchilarning uyushqoqlik, intizomlilik va javobgarlikni sezish, o’zaro yordam xislarini tarbiyalashni ta’minlamoq zarur.

Ta’lim metodlari va ularni tanlash mezonlari

Ta’limning samaradorligi ko’p jixatdan ta’lim metodlarini to’g’ri tanlashga ham bog’liqdir. xozirgi kunda maktab ta’lim tizimida ta’lim metodlarining boy xazinasi to’plangan. Biz ta’limda to’g’ri usul (metod) tanlar ekanmiz, ko’zlangan natijaga komil insonga qisqa yo’l bilan erisha olamiz. Ta’lim-tarbiya sohasidagi masalalarning to’xtovsiz murakkablashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi, umumiy o’rta ta’lim vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish o’qitish metodlarini muttasil yangilab turishni, xalq pedagogikasi, ayniqsa milliy sharq xalqlari pedagogikasidan ijodiy foydalanishni talab qilmoqda.

Metod (yunoncha-metados so’zidan olingan bo’lib, aynan u yoki bu narsaga, haqiqatga yo’l demakdir) maqsadga erishishusuli tartibga solingan faoliyat ma’nodarini anglatadi.

O’qitish usuli deganda, ta’lim jarayonida o’qituvchi va o’quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga va qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushiniladi. O’qitish usullari ta’lim jarayonida o’qituvchi va o’quv faoliyatining qanday bo’lishini, o’qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

Boshqacha qilib aytganda, o’qitish usullari har ikkala faoliyatning ya’ni o’qituvchi tomonidan o’quvchilarni bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish hamda o’quvchilar tomonidan o’sha nazorat tutilgan ilmiy bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirish faoliyati qo’llaniladigan yo’llarni o’z ichiga oladi. Demak, o’qitish usuli har ikkala tomonning aktiv faoliyati birligini ta’minlashga qaratilgan. Dars jarayonida o’tiladigan materialning xarakteriga qarab, o’qituvchi va o’quvchining faoliyati turlicha yo’nalishda bo’lishi mumkin.

Ta’lim metodlarini to’g’ri tanlash ta’limning muvaffaqiyati uchun asos bo’ladi. Ayrim sharoitlar uchun samarali bo’lgan metod boshqa sharoitlar, boshqa mavzu uchun mutlaqo nomaqbul bo’lib chiqishi mumkin. U yoki bu metodning optimalligi uning yo’nalishi va odat bo’lib qolganligi bilan izohlanmaydi. Optimal ishlangan metodlar qo’yilgan vazifalarni ajratilgan vaqtda ko’ngildagidek xal qilish uchun yetarlicha imkon beradi.

Yu.K.babanskiy **ta’lim metodlarini tanlash** quyidagilar bilan aniqlanishi lozimligini ta’kidlaydi:[23]

1. Ta’lim qonuniyatlari va undan kelib chiqadigan prinsiplari bilan.
2. O’qitishning maqsad va vazifalari bilan.
3. Mazkur fanning mazmun va metodlari bilan.
4. O’quvchilarning o’quv imkoniyatlari:

a) yoshi (jismoniy, psixik imkoniyatlari);

b) tayyorgarlik darajasi (ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari);

v) sinf jamoasining xususiyatlari bilan.

5. Tashqi sharoitlar (geografik, ishlab chiqarish kabi)ning xususiyatlari bilan
6. O’quvchilarining imkoniyatlari: ularning oldingi tajribalari, ularning nazariy va amaliy tayyorgarliklari darajasi, ma’lum metod, vositalarni qo’llash qobiliyatlari, optimal variant tanlash mahoratlari, shaxsiy sifatlari va hakozolar bilan.

Maktab ta’limi sistemasida o’qitish bilan bir qatorda “uslub”, “vosita” terminlari ham ishlatiladi.

Vosita – ma’lum o’qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo’lgan yordamchi o’quv materiallari - , qurol, apparat va boshqa shu kabilardan foydalanishdir.

Demak, ta’lim jarayonida o’quv materiallarining qarab tanlangan o’qitish usullari u yoki bu uslub va vositalarni o’z ichiga olgan bo’lishi mumkin. Biroq qaysi o’qitish usuli, uslub va vositalardan foydalanish zarurligi hammadan oldin u yoki bu o’quv fanlarining o’ziga xos xususiyatlariga bog’liqdir.

Masalan, fizika, ximiya, biologiya kabi fanlarni loboratoriya mashg’ulotisiz o’qitish va o’zlashtirish mumkin bo’lmaganidek, matematika, ona tili grammatikasini mashq qilmay misol va masalalar ishlatmay turib, ko’zlangan maqsadga erishib bo’lmaydi.

Ta’lim tizimida o’quvchilarga bilim berishning eng qulay imkoniyatlarga asoslangan holda o’qitish metodlari quyidagi turlarga bo’linadi (7-chizma):

[23] Ю.К.Бабанский. Щозирги замон умумий таълим мактабида ў=итиш методлари. Т, “Ў=итувчи”. 1990 й. 53

Bilimlarni og’zaki bayon qilish metodlari va moxiyati

Og’zaki metodlar o’qitishda doimo eng ko’p qo’llanib kelingan. Bu metodlar o’qitish metodlari tizimida ustunlik qilgan davrlar ham bo’lgan. Ilg’or pedagoglar (Ya.A.Kominskiy, I.G.Pestalossi) bu metodlarni ortiqcha bo’rttirishga qarshi kurashganlar, ularni ko’rgazmali va amaliy metodlar bilan to’ldirishning zarurligini isbotlaganlar.

O’qituvchining so’zi bilan bog’liq bo’lgan turli usullardan boshlang’ich va yuqori sinflarda turlicha foydalaniladi. Boshlang’ich sinfda o’qituvchining yorqin, immotsional xikoyasi ustunlik qilib, keyinchalik u suxbat bilan tobora kengroq to’ldirib boriladi. Yuqori sinflarda, ayniqsa, tarix, jamiyatshunoslik, adabiyot, jug’rofiya fanlarini o’qitishda bu sinf o’quvchilarining o’quv imkoniyatlariga muvofiq keladigan maktab ma’ruzasidan muvaffaqiyatli foydalaniladi.

Demak, o’quv materiallarini og’zaki bayon qilish usuli maktab ta’lim tizimida eng ko’p qo’llaniladigan usul bo’lib, deyarli hamma sinflarda o’quv fanlari bo’yicha qo’llaniladi.

O’qitishning og’zaki usuli uch turga bo’linadi (8-chizma)



8-chizma

Hikoya. Bu usul maktab ta’limining hamma bosqichlarida qo’llaniladi. Hakoyaning bir necha turi mavjud. *Kirish hikoyasi* o’quvchilarning boshqa metodlar bilan o’tkazilishini mumkin bo’lgan yangi o’quv materiallarini idrok qilishga tayyorlaydi. *Bayon hikoyada* o’qituvchi yangi mavzuning mazmunini ochib beradi. Bayonni mantiqiy rivojlanib boradigan tarzda, reja bo’yicha aniq izchillikda, muhimlarini ajratgan, illyustratsiyalardan foydalangan holda olib boradi. *Xulosa hikoya* odatda dars oxirida o’tkaziladi. O’qituvchi asosiy fikrlarni yakunlaydi, xulosa va umumlashmalar qiladi.

Boshlang’ich sinflarda hikoya ancha va aniq bo’ladi. Sinflarning o’rta guruhiga kelib u ancha kattaroq xajmda va davomli bo’ladi. Yuqori sinflarda xajmi anchagina katta o’quv materiallarini ajratilgan vaqt ichida bayon qilib ulgurish uchun ko’proq hikoyadan foydalaniladi. Lekin bu yerda hikoya ma’ruzasidagi kabi butun darsni band qilmaydi. Hikoya yakunlangach u suxbat va tushuntirishlar bilan to’ldiriladi.

O’quv ma’ruzasi. O’qitishning og’zaki usullaridan biri bo’lgan o’quv ma’ruzasi o’quv materiallarining og’zaki bayon qilish uchun mo’ljallanadi. Bu o’quv materiali hikoyasidagi nisbatan xajmining kattaligi, mantiqiy tuzilishi, obrazlari, isbot va umumlashtirishlarning anchagina murakkabligi bilan farqlanadi. Agar hakoya darsning yoki mashg’ulotning bir qisminigina egallasa, ma’ruza odatda ularni to’liq qamrab oladi.

Ma’ruza asosan, o’rta umumiy ta’lim maktabining yuqori sinflarida, hunar-texnika bilim yurtida, shuningdek, texnikum va oliy o’quv yurtlarida o’qiladi.

Maktab ma’ruzasi – o’tilayotgan mavzuning xaqiqiy ilmiy moxiyatini ochib berish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish yo’li bilan bir soatlik mashg’ulot davomida bilimlarni izchillik bilan bayon etishdir.

Suhbat usuli og’zaki bayon qilish usulining asosiy turlaridan biri bo’lib, maktablar tajribasida eng ko’p qo’llaniladigan va samarali usullardan biridar.

Ko’pincha, bu uchul savol-javob usuli deb ham yuritiladi. Chunki, bu usulda ish ko’rilsa, dars asosan savol-javob yhsinda olib boriladi.

Shunday suhbatlar ham mavjudki, bunday suhbat davomida o’quvchilar ilgari o’zlashtirganlarini eslaydilar, tizimga soladilar, umumlashtiradilar, xulosa chiqaradilar, ulardan turmushda foydalanishga doiryangi misollarni axtaradilar.

O’qitish jarayonida o’rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo’llaniladi.

O’qitishning tarbiyalovchi xarakterini kuchaytirish maqsadida dunyoqarash va e’tiqodni tarkib toptirishga qaratilgan suhbatlar ham qo’llaniladi. “Odobnoma”, “Vatan tuyg’usi” darslarining kiritilishi munosabati bilan o’quv jarayonida yetuk suhbatlardan foydalanishning imkoniyatlari ancha kengaydi.

Bilimlarni og’zaki bayon qilish usuli bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo’llaniladi.

1. Bayon qilinayotgan materiallar g’oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog’lao’ga qaratilgan bo’lishi kerak.
2. Bayon qilinayotgan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to’g’ri belgilash orqali o’quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish vositalarini aniqlash va amalga oshirish lozim.
3. Bayon qilishda o’qituvchining nutqi yagona manba hisoblanadi, uning ravon, tushunarli bo’lishini xal qiluvchi omildir. Shuning uchun o’am muallim o’quv materialini xis-tuyg’uli ifoda qilib berishi ham nixoyatda katta axamiyatga egadir.
4. Bayon qilish jarayonida o’qituvchi tomonidan ishlatilgan ta’riflar, qoida va qonunlar kitob matnidan farq qilgan xollarda o’qituvchi ko’rsatgan ta’riflar yozib olinishi kerak. Mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo’llaniladi.

O’qitishning ko’rgazmali metodlari

O’qitishning ko’rgazmali metodlarini qo’llash Ya.A.Komenskiyning “Buyuk didaktika” asarida o’z aksini topgan ko’rgazmalilikning didaktik prinsipidpn kelib chiqadi. U shunday yozgan edi: “O’quvchilar sezib idrok etishi mumkinbo’lgan narsalarni, albatta sezgilar vositasi bilan, ya’ni ko’rish mumkin bo’lgan narsalarni ko’rib, eshitish mumkin bo’lgan narsalarni eshitib, hidi bor narsalarni xidlab ko’rib, ta’mini sezish mumkin bo’lgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerak”[24]. Grek pedagoglardan I.G.Pestalotsi, A.Desterveg, K.D.Ushinskiylar va boshqa ma’rifatparvar pedagoglar ko’rgazmali metodning axamiyatini yuksak baholaganlar va uni rivojlantirishga xissa qo’shganlar.

O’qitish jarayonida ko’rgazmalilik usulidan foydalanishning muhimligi o’qituvchining o’rganilayotgan narsa va hodisalarni idrok etishga, ularni kuzatib mushoxada qilishga o’quvchini o’rgatish, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nixoyat, nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llay olishga o’rgata bilishi bilan izohlanadi.

Ta’limda ko’rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustratsiya va iskursiya tariqasida olib boriladi.

Ta’lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materiallarning xarakteriga – mazmuni, shakli va hajmiga bog’liqdir. Maktablarimizda qo’llaniladigan ko’rgazmali materiallar xarakter e’tibori bilan ikki turda bo’ladi:

1. Aslicha ko’rsatilishi mumkin bo’lgan buyum va narsalar: o’simliklar va ularning tarkibi, hayvonlar, ma’danlar, asbobva mashinalar, modellar va xokazo.
2. Tasviriy-ko’rgazmali materiallar. Tasviriy-ko’rgazmali materiallar ham mazmuni va tuzilishi shakliga qarab ikki turga bo’linadi:

a) buyum, narsa, hodiasa va voqyealarning tasvirini kinoapparat kabi texnik vositalar asosida, televizior eshittirishlardan foydalanib kinolentalarni, diofilm, kino filmlar va xokazolarni namoyish qilish – **demonstrasiya metodi;**

[24] Я.А.Коменский. Буюк дидактика. Т.”Ў=итувчи” 1975 й, 174 б.

b) buyum, narsa, hodiasa va voqyealarning biror shartli belgisi orqali ifodalangan simvolik va sxematik tasviriy materiallar – jug'rofiya va tarix kartalari, chizmalar, rasmlar, jadvallar, diogrammalar va xokazolarni ko'rsatish – **illyustratsiya metodi.**

Ko'rgazmali materiallarning turliligi ularning har xil qo'llanishini talab qiladi.

Masalan, 1. Buyum va narsalarni tabiiy holda ko'rsatishni ikki usulda namoyish qilish mumkin:

a)o'tilayotgan temaga oid badiiy ko'rgazma materiallar . o'qituvchi bayon qilayotgan o'quv materiali bilan bir vaqtda (faqat o'qituvchi tomonidangina) ko'rsatilishi mumkin;

b)tabiiy-ko'rgazmali materiallarning soni yetarli bo'lsa ular har qaysi o'quvchiga tarqatib berilishi mumkin.

2.Tasviriy ko'rgazma materiallarining har ikkala turini ham ikki xil usulda olib borish mumkin.

a) ko'rgazma materialini o'qituvchi namoyish qiladi;

b) ko'rgazma materiallar o'quvchilarga tarqatiladi.

Ta'lim jarayonida tasviriy-illyustrasiya materiallaridan foydalanish keng qo'llaniladi. Undan unumli foydalanish uchun quyidagi qoidaga rioya qilmoq zarur: o'quvchilarga mashg'ulot oldidan namoyish jarayonidan ko'zlangan maqsad qisqacha tushuntiriladi; ko'rgazmali materiallar o'qituvchi bayonining ma'lum paytida ko'rsatiladi va yoki tarqatiladi; namoyish jarayonida o'qituvchi tomonidan izohlab beriladi.

Tabiiy fanlar – biologiya, fizika, ximiya fanlari bo'yicha fizikaviy va ximiyaviy hodisalarni tajriba qilib ko'rsatish alohida tayyorgarlikni talab qiladi. Bunda ayniqsa, tajribaning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlash muhimdir.

Ta'limning amaliy metodlari

Ta'limning amaliy metodlari doirasi juda keng bo'lib, qator didaktik olimlar (Yu.K.Babanskiy, O.Roziqov, A.q.Munavvarov)lar fikriga ko'ra unga quyidagilarni kiritish mumkin: yozma maala metodlari (masalalar yechish, chizmalar tayyorlash va boshqalar) tajriba-lobaratoriya xarakteridagi mashqlar metodi (tajriba-lobaratoriya ishlari, praktikumlar, o'qitishning texnik vositalari o'rgatuvchi mashinalar bilan ishlash); mehnat topshiriqlarini bajarish metodlari.

Amaliy metodlarga **yozma mashqlar** kiradi. Ularni bajarish olingan nazariy bilimlarni amaliyotda bevosita qo'llashga o'rgatiladi.

Mashq qildirishda har qaysi o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Ona tilidan grammatik tahlil bajarish, matematikadan misol va masalalar yechish, tabiatdan o'simliklarni turlarga ajratish va boshqalar.

Mashq qildirish usulida o'quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari alohida o'rin egallaydi. Yozma, ijodiy mashqlar asosan ona tili va adabiyot, tarix va jug'rofiya fanlarida ham qo'llanishi mumkin. O'quvchilarning yozma ijodiy mashqlari insho, va'z, referatlar yozish ustida ham qo'llaniladi. Inshoning dastlabki kichik ixcham shakli boshlang'ich sinflardayoq qo'llaniladi.

O'quvchilarning yana bir yozma ijodiy ishlari turli mavzularda ma'ruzalar yozishdir.

Grafik ishlar ham o'quvchilarning yozma ishlari jumlasiga kiradi va o'quvchilarning o'zlashtirgan yoki o'zlashtirayotgan bilimlarini ongli va mustaxkam esda saqlab qolishlariga, tegishli ko'nikma, malakalar hosil qilishlariga yordam beradi.

O'quvchilarning yozma – grafik ishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: rasm solish, jug'rofiya va tarix fanlari bo'yicha murakkab bo'lmagan xaritalar chizish, chizma va sxemalar ishlash, jadval, diagramma, grafiklar, plakat, albom, stendlar ishlash va xokazo.

Laboratoriya mashqlari har tomonlama tajribalar, laboratoriya mashqlari, amaliyotlar, o'qitishning texnik vositalari bilan mashg'ulotlar tarzida o'tkaziladi. Laboratoriya mashg'uloti odatda maxsus jixozlangan xonada hamda tegishli apparat, asbob-uskunalar: mikraskop, lupa, o'lchoa asboblari va boshqa qurollar bilan ta'minlangan xonalarda olib boriladi.

Laboratoriya usuli asosan fizika, ximiya, biologiya, informatika fanlarini o'rganishda qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilar bilan yoppasiga yoki alohida o'quvchi bilan olib borilishi mumkin.

Maktablarda qo'llaniladigan **amaliy mashg'ulotlar metodi** o'quvchilarni mehnat malakasi bilan qurollantirishda asosiy usul bo'lib xisoblanadi. O'quv ustaxonasida turli topshiriqlar bajarish, o'quv-ishlab chiqarish sexida, o'quvchilar brigadasida ishlash ham amaliy metodlar sirasiga kiradi.

O'qitishning reproduktiv va muammoli-izlanish usullari

O'qitishning reproduktiv va muammoli-izlanish usullari eng avvalo, o'quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarini bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi.

Reproduktiv usullar birinchi navbatda, o'quvchilarning o'quv materialini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi. Reproduktivusullar ayniqsa, o'quv materialining mazmuni asosan axborot xarakterida bo'lsa, amaliy xarakatlarning usullarini ta'riflasa, o'quvchilarning bilimlarini mustaqil qidirib ola bilishlari uchun juda yangi hisoblansa, vaziyatlarni hal qilish uchun tayyor bilimlar yo'q bo'lsa samarali qo'llanadi.

Tafakkurning reproduktivlik xarakteri o'qituvchi yoki boshqa manbaa orqali habar qilinadigan o'quv axborotlarini faol idrok qilinishi va eslab qolinishini nazarda tutadi. Bu usullarni o'ziga xos moddiy asosi bo'lib hisoblanadigan o'qitishning og'zaki, ko'rgazmali va amaliy usullaridan foydalanmay qo'llash mumkin emas.

Hikoya usuli reproduktiv tuzilganda o'qituvchi omillarni, dalillarni, tushunchalarning ta'rifini tayyor holda beradi, e'tiborni ayniqsa mustahkam o'zlashtirib olinishi zarur bo'lgan tomonlarga qaratadi.

Ma'ruza ham xuddi shunday tarzda tuziladi: o'qituvchi muayyon ilmiy ma'lumotlarni bayon qiladi, doskaga tegishli yozuvlarni bitadi, tinglovchilar esa ularni qisqa yoziyu oladilar.

Reproduktiv harakterdagi amaliy ishlar shunisi bilan farq qiladiki, bu ishlarning davomida o'quvchilar namunaga ko'ra ilgari yoki yaqindagina o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llaydilar. Reproduktiv mashqlar amaliy ko'nikma va malakalarni namuna bo'yicha bir necha orqali mustaxkamlashga ayniqsa samarali ta'sir ko'rsatadi.

Muammoli ta'lim deyilganda o'quv materialini o'quvchilar ongiga ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolar paydo bo'ladigan qilib o'rganish tushiniladi. O'quvchilarning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar yaratish ularda xar narsani bilashga havas, fahm-farosatlilik, mustaqillik, o'qishga qiziqish va ijod qilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Nazariy va eksperimental vazifalarning bo'lishi o'qitishni o'z o'zidan muammoli qilib qo'ymaydi. Masala bilish muammosiga aylanishi uchun u quyidagi talablarni qondira olishi kerak:

- o'quvchilar uchun bilish qiyinchiligiga ega bo'lishi, ya'ni o'rganilayotgan muammo ustida fikr yuritilishi;
- o'quvchilarda bilishga qiziqish uyg'otishi;
- tahlil jarayonida o'quvchilarning avvalgi tajribasi va bilimiga tayanishi.

Muammoli-izlanish metodlar asosida o'quv-tarbiya ishlari tashkil etilganda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri quyidagicha bo'ladi.

O'qituvchi faoliyati		*O'quvchi faoliyati*
Turli topshiriqlar asosida muammoli holat yaratish;		muammoli holatda ishtirok etish va muammoni qabul qilish;
muammoni hal etishga oid farazlarni aytishni taklif etish;		farazlarni aytish;
farazlardan mosini muammoni bajarishga tadbiq etishni so'rash;		tanlangan farazni muammoning bajarilishiga tadbiq etish;
muammoning bajarilishidan xulosalar chiqarishga ko'maklashish;		hulosalar chiqarish;
chiqarilgan hulosalarni amaliyotga tadbiq etish yo'llarini ko'rsatish.		hulosalarni amaliyotga tadbiq etish [25]

Muammoli-izlanish metodlari ham maktab tajribasida sof holda qo'llanilmaydi. Muammoni qo'yish, ularni izohlashda suhbat, hikoya, ko'rgazmalilik va amaliy ishlardan ham foydalaniladi.

Maktabda o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli dars va unga qo'yilgan talablar

Ta'limni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o'qituvchilar o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlarini tushunamiz. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida ta'limni sinf-dars shaklida olib borish keng tarqalgan. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz ta'limni tashkil etish shakllari intizomiy tuzum manfaatlariga mos holda paydo bo'lgan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda ta'lim berish ishlarini odamlarning mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, o'rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan.

Davr o'tishi bilan ko'pchilikka bilim berish extiyoji paydo bo'ladi, ta'lim tizimi mazmuni, bilimlarni murakkablashuvi bolalarni guruh-guruh qilib, to'plab o'qitishni taqozo qilgan hamda ta'lim bilan shug'ullangan mutaxassislar – o'qituvchi tayyorlash zaruriyati kelib chiqadi.

Shu davrda dars paydo bo'la boshlaydi. Buning natijasida sinf – dars tizimi paydo bo'la boshlaydi. Xalq orasida hayotiy tajribaga ega, bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar murabbiy, o'qituvchi bo'lib faoliyat ko'rsatadi.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, maktab va madrasalarda yoshlarga bilim berish bilan shug'ullanganligi "Avesto" va boshqa tarixiy manbalardan ma'lum. Ammo qadim davrlardan ta'limni qa'tiy chegaralangan vaqtda bir xil yoshdagi bolalar bilan olib borish, ta'lim mazmunini bosqichma-bosqich berish masalalariga aniqlik kiritilmagan edi.

Ta'limning tashkiliy masalalari Al-farobiyning "Fan va aql zakovati" asarida o'quv fanlarini guruhlarga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy moxiyatini ochish masalalariga e'tibor bergan.

Sinf-dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning xio'matlari katta, uni sinf-dars tizimining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan.

A.Ya.Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida tashkil etish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar berilishi, guruxdagi bolalarning yoshi va soni bir xil bo'lishiga alohida e'tibor berdi. Dars

[25] О. Рози=ов ва бош=алар. Дидактека. Т. , "Фан", 1997 йил 197-198 бетлар.

davomida o’quvchilar diqqatini to’plash materialni batafsil tushuntirish, o’quvchiga savollar berish , o’zlashtirish jarayonini nazorat qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Sinf - deganda, yoshi va bilmi darajasi bir xil bo’lgan o’quvchilar guruhi tushiniladi.

Dars - aniq maqsadni ko’zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o’quvchi, yoshlar bilan o’qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg’ulotlardir. Dars-o’z oldiga qo’yilgan aniq maqsad va tugal mazmundan iborat.

Darsning maqsadi, mazmuni, xajmi ta’lim standartlari asosida belgilanadi. Dars o’quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan , bu jarayonda quyidagilarga amal qilish lozim.

Dars qa’tiy jadval bo’yicha belgilangan muddatda olib borilishi kerak.

Dars o’qituvchi rahbarligida butun sinf bilan va alohida o’quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.

Dars, o’quv fanining xarakteri, o’qitilayotgan materiallarning mazmuniga qarab turli usullari va vositalarida olib boriladi hamda ta’lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim berish navbatdagi bilimlarni o’zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

Shuni unutmaslik kerakki, ta’lim ishlari darsdan tashqari ham to’garak, ekskursiyalar shaklida olib boriladi.

Har bir dars oldiga talablar qo’yiladi: a)tarbiyaviy talab; b)didaktik talab; v)tashkiliy talab.

Darsga qo’yilgan didaktik talablar sirasiga quyidagilar kiradi:

Har bir dars aniq maqsadni ko’zlagan holda puxta rejalashtirilmog’i lozim. Bu jarayonda o’qituvchi darsning ta’limiy va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya’ni qanday tamomlash ko’rgazmali materiallardan foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi.

Har bir dars aniq g’oyaviy mafkuraviy izlanishga ega bo’lishi lozim. O’qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda foydalanmog’i lozim.

Har bir dars xarakteriga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalangan holda tashkil etilishi lozim

Dars uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.

Dars jarayonida o’quvchi talaba passiv tinglovchiga aylanmasligi lozim.

Mashg’ulotlar butun sinf bilan va har bir o’quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlarini e’tiborga olgan holda olib borish kerak.

O’qitilayotgan mavzuni mazmuniga bog’liq holda mustaqil yurtimizdagi o’zgarishlardan talabalarni habardor qilish.

Darsda prezidentimiz I.A.Karimovning ta’lim sohasidagi fikrlari, yurtimiz kelajagi bo’lgan yoshlarimizga, farzandlarimizga qarata murojatlaridan o’z o’rnida foydalanish.

Darsgga qo’yilgan tarbiyaviy talablar:

Darsda o’rganiladigan o’quv materiallari tarbiyaviy bo’yicha xulosa lar chiqarish;

Nazariy bilimlar asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;

Bolalarda o’qishga oid ijobiy motivlarni uyg’otish, bilish, o’qish-o’rganishga havas, ishtiyoq, qiziqishni shakllantirish;

Dars jarayonda pedagogik taktik qoidalarga rioya qilish.

Sinf-dars shaklidagi dars turlari va ularning tuzilishi

Dars turlari deb bir soatlik darsga mo’ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg’ulot turiga aytiladi. Darsning maqsadi va mazmuni, o’quvchining yosh xususiyatiga qarab, darsning tuzilishi har xil bo’ladi.

Dars quyidagilarga ko’ra turlarga ajratiladi:

Darslarning asosiy maqsad va mazmuniga qarab turlarga bo’lish.

Darslarni o’qitish prossesining analizga qarab turlarga bo’lish.

Darslarni tuzilishga qarab turlarga bo’lish.

Darslarni turlarga ajratishda birinchi qoida eng obyektiv va ma’quldir. Darsning mazmuni dasturda ko’rsatilgan bo’ladi.

Darslarni saralash dars tuzilishini bilishimizga o’rganishimizga yordam beradi.

Ta’lim tizimida tajribadan o’tgan dars turlari quyidagilardan iborat.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.

O’quv materiallarini mustaxkamlash darsi.

Takrorlash va bilimlarni umumlashtirish darsi.

O’quvchilarning o’zlashtirishini nazorat qilish va baholash darslari.

Dars turlari uyg’unlashgan (aralash) darslar.

Yangi mavzuni o’tish darsida yangi mavzuni o’tish kerak ekan deb mashq qildirish yoki o’tgan mavzularni qaytarish mumkin emas deganlari noto’g’ri. O’quvchilarga biroa nazariy mavzuni amaliyotga tatbiqini o’rganganimizda, shu ishni qanday bajarilgan ishini o’quvchilarning o’zlariga taklif etamiz. Bu ishlarni bir necha bor o’zlari sekin-asta bajarishga ko’nikma hosil qiladilar. Shunday qilib oxirgi tegishli natijaga erishamiz.

O’tilgan mavzuni qaytarish mashg’ qildirish darsi o’qitilgan bilimlarnigina emas o’rgatilgan ishni qaytarish, mehnat malakalarini beradigan malakalarni o’tkazishdan iborat bo’lmog’i lozim.

O’quvchining bilimi, malaka va ko’nikmalarini tekshirish va ularga baho berish darsida o’quvchilarning olgan bilimi tekshirib, ular qanchalik o’zlashtirganligiga qarab baho qo’yiladi.

Yuqoridagi asosiy turlardan boshqa yana qo’shimcha darslar turi ham mavjud. Bu dars turida yuqoridagi saralash nuqtai nazaridan olinganda, o’quvchilarni o’zlashtirishini tekshirish, yangi mavzuni o’tish va uni pishiqtirish uchun qaytarish kabi turli ishlar qo’shilsa ham lekin qo’shimcha darslarning asosini bu ishlarning bittasi, qo’shimcha darslarning maqsadga to’laroq javob bera oladigan, qo’shma darsdagi boshqa ishlar esa shu asosiy ishga yordamchilik vazifasini bajaradi.

Ta’lim jarayonida eng ko’p qo’llaniladigan yangi bilimlarni bayon qilish darsi va aralash darsning tuzilishini ko’rib chiqamiz
(9-chizma)

Aralash dars namunasi	**Yangi bilmilarni bayon qilish darsi namunasi**
1. O’tilganlarni takrorlash: a) oldin o’tilgan mavzu yuzasidan berilgan faktlarni tahlil etish; b) savol-javob; v) qoida-ta’riflarni esga tushirish. 2. Yangi o’quv materialini o’rganishga tayyorgarlik: a) darsning mavzusi va maqsadini bolalarga yetkazish; b) mavzuga oid faktlarni tahlil etish; v) bilishga rag’batlantiruvchi savollarni o’rtaga tashlash. 3. yangi o’quv materialini bayon qilish (tasvir, suhbat, mustaqil ishlash kabi metodlardan foydalanib yangi o’quv materialini tushuntirish). 4. Yangi o’quv materialini mustaxkamlash (mashq qilish, mustaqil ishlash). 5.Uy vazifasini belgilash. Bolalar bilimini baholash. Darsni yakunlash.	1. Bolalarni yangi o’quv materialini o’rganishga tayyorlash: a) darsning mavzusi, maqsadi bilan tanishtirish; yangi mavzuga oid faktlarni tahlil etish. 2. Yangi o’quv materialini bayon qilish (tasvir, tushuntirish, suhbat metodlaridan foydalanib, kuzatilgan faktlarga asoslanib yangi mavzuni tushuntirish). 3. Yangi mavzuni mustaxkamlash: a) darslikning ma’lum betlarini o’qish; b) mashq, misol, masalalarni bajarish. 4. Oldin o’rganilgan mavzularni bugungi o’quv materialiga oid bilmilarni parallel takrorlash. 5. Uy vazifasini topshirish. 6. Bolalar bilimini baholash. 7. Dars yuzasidan yakuniy xulosalar chiqarish.[26]

9-chizma

[26] О.Рози=ов ва бош=алар. Дидактика. Т., “Фан”, 1997 йил. 233 б.

Ta’lim tizimida takrorlash va bilimlarni mustaxkamlash darslari ko’p qo’llaniladi. O’qituvchi darsning ma’lum bir qismi, yirik mavzular o’tib bo’lganidan so’ng bunday darslar uyushtiriladi. Bu darslar oraliq nazorat baholashda ham xizmat qiladi. Har bir darsning muvaffaqiyatini ko’p jixatdan mashg’ulotni to’g’ri tashkil qilishga bog’liqdir. Bu davrda sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish, bolalarni darsni tinglashga

O’quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakllari

O’quv mashg’ulotlarining sinfdagi shakli darsdan tashqari yana qo’shimcha qator ta’lim shakllari mavjud bo’lib, bular amaliy tajriba mashg’ulotlari, qo’shimcha darslar, fakultativlar, ekskursiyalar kabilar.

Bular darsda berilgan bilimlarni to’ldirish, mustaxkamlash, amaliy bilan bog’lash uchun uyushtirilgan qo’shimcha mashg’ulotlardir.

Bulardan tashqari o’quv yurtlari tajribasida fan to’garaklari ishlab chiqarish amaliyoti, o’yin shaklidagi mashg’ulotlardan ham foydalanmoqda.

Laborotoriya mashg’ulotlarida bolalar turli o’quv pedmetlari bo’yicha tajribalar, turli qurilmalar yordamida sinov ishlar o’tqazishadi. Laborotoriya mashg’ulotlari amaliy dars deb ham yuritiladi. Amaliy darslardan o’quvchilar guruhlarga bo’linishib, turli eksperimental topshiriqlarni bajarishadi.

Seminar mashg’ulotlari o’quvchilarning nazariy muammolarni faol o’rganish yuzasidan mustaqil ishlashini, keyinchalik ularni jamoa bo’lib muxokama qilishini tashkil etish shaklidir.

O’rta umumta’lim maktablarida seminarlar quyidagicha o’tkaziladi: seminar uchun mavzu tanlanadi; mavzu bo’yicha turli ko’rsatmalar beriladi; tayyorgarlik uchun yetarli vaqt ajratiladi; asosiy manbalar, ularning betlari aytiladi; maslaxatlar beriladi. Seminarga barcha o’quvchilar tayyorgarlik ko’rishadi. Seminar oxirida o’qituvchi yakunlovchi suxbat o’tkazib, kelgusi seminarda qilinadigan ishlarni belgilaydi.

Mavzu o’rganilganga qadar o’qituvchi o’quvchilar uchun savol va topshiriqlar tuzib chiqadi. Kirish mashg’ulotida u o’quvchilarga materialning mazmuni, qilinadigan ishning xarakteri bilan qisqacha tanishtiradi, ularga har qaysi seminar uchun adabiyot ko’rsatadi. Bir xil vazifalar hamma uchun umumiy bo’ladi, boshqa vazifalar ayrim o’quvchilarga yoki 3-4 kishidan tuzilgan guruhga beriladi. Bunda hamma o’quvchilar seminar uchun dasturga majburiy materiallar minimumini ishlab chiqishlari kerak.

Seminarlarga 2-3 hafta tayyorgarlik ko’riladi. O’quvchilar adabiyotni o’rganadilar, material yig’adilar, har xil kuzatishlar o’tkazadilar, o’z axborotlari yuzasidan tezislar tuzadilar.

Seminarlar o’qish vaqtida, o’qituvchi o’quv rahbarligida o’tkaziladi. Bunday mashg’ulotlar miqdori mavzuning mazmuniga va uni o’rganish uchun ajratilgan vaqtga bog’liq.

Amaliy tajriba mashg’ulotlari sinf-dars tizimi shaklida olib borilmaydigan mashg’ulot turi bo’lib, u maxsus jixozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba uchastkasida, shuningdek, bevosita ta’lim ishiga aloqador ma’lum obyektni kuzatish, o’rganish yo’li bilan olib boriladigan mashg’ulotdir. Ta’limning bunday mashg’ulotlarini tashkil qilish ikki xil yo’l bilan olib boriladi:

1. Amaliy tajriba mashg’ulotlari.
2. Ekskursiyalar.

Amaliy tajriba mashg’ulotlari ham o’z xarakteriga ko’ra ikki turga ega:

- Maktab ustaxonasida olib boriladigan mashg’ulotlar.
- Maktab tajriba yer uchastkasida olib boriladigan tajriba mashg’ulotlari.

Amaliy tajriba mashg’ulotlarining sinf-dars shaklidagi mashg’ulotdan farqi shundaki, bu mashg’ulot turida har qaysi o’quvchini o’ziga xos ishlatish, ko’nikma va malakalar bilan takomillashtirish nazarda tutiladi.

Ekskursiya usuli sinf sharoitida – dars jarayonida qo’llaniladigan o’qitish usulidan tubdan farq qiladi.

Ekskursiya ta’lim va tarbiya ishlarining shunday turidirki, bu usul bilan o’rganilayotgan narsa va xodisalarni tabiiy sharoitda (zavod va fabrika, kolxoz-sovxozlar, tabiatni kuzatishga) yoki maxsus muassasalarga (muzey, ko’rgazma va xokazolarga) tashkiliy ravishda boriladi.

Ekskursiya usuli asosan o’qituvchi yoki ekskursiya o’tkazishga ma’sul bo’lgan shaxsning kuzatilayotgan obyektni bayon qilishi, tushuntirish orqali olib boriladi. O’quvchilar ekskursiya davomida obyekt ustidagi ma’lumotlarni eshitish yoki kuzatish bilangina chegaralanib qolmay, zarur materiallarni yozib oladilar, rasmini chizadilar, o’lchash, xisoblash ishlarini olib boradilar. Ekskursiya oxirida, albatta, yakunlovchi dars o’tkaziladi va unda o’quvchilar tomonida tayyorlangan materialdan foydalaniladi. O’quvchilar ekskursiya davomida olgan ta’surotlari haqida o’zaro fikrlashadilar. O’qituvchi muloxaza va fikrlarni umumlashtirib, xulosa chiqaradi va mashg’ulotlarni yakunlaydi.

Uzluksiz ta’limning hamma bosqichlarida ta’limning o’ziga xos tashkiliy shakllari mavjud. Jumladan: ikki bosqichli oliy ta’lim tizimida o’ziga xos ta’lim shakllari mavjud. Bularga: ma’ruzalar, seminar va amaliy mashg’ulotlar, kafedra o’qituvchilarining ma’ruzalarida qatnashish, ma’ruza matnini tayyorlash va muxokama qilish, o’quv kurslari bo’yicha dasturlar tayyorlash ishlari kabilar kiradi.

Oliy ta’lim tizimida ma’ruza o’quv jarayonining ham usuli, ham shakli hisoblanadi, u talabalarga fan asoslarini og’zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma’ruza tufayli talaba shu faning moxiyatini tushunib boradi hamda ularni erkin fikrlashga, fan ustida o’ylashga majbur etadi. Ma’ruzani shunday o’qish lozimki, uning ta’sirida talabalarda shu fanga, uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e’tiqod, g’oya va ilmiy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o’qituvchi har bir ma’ruzaning mazmunini fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim.

Ma’ruza ijobiy hamkorlikka tayanib tashkil qilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma’ruza jarayonida ham ta’limiy, ham tarbiyaviy vazifalarini samarali amalga oshirish yo’llaridan biri – o’qituvchilar bilan talabalar o’rtasidagi do’stona faol munosabatlarni tiklab olishdan iborat.

Bundan tashqari dars va ma’ruzaning samarali natijasi o’quvchi talabalarning o’quv jarayonidagi ruxiy holatlarini qay darajada hisobga olinishiga ham bog’liq. Shunday ekan ta’limni samarali tashkil etish, uning dars, ma’ruza va boshqa shakllaridan o’qitish jarayonida foydalanishlari uchun shubxasiz, o’qituvchining pedagogik maxorati, pedagogik madaniyati, o’z fanini puxta bilishligi va o’quvchi-talabalar bilan umumiy til topa olishlari g’oyat katta axamiyatga egadir.

Ta’limni tashkil etishning zamonaviy (noan’anaviy) shakllari

Mustaqil O’zbekistonimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda ta’lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bilan bog’liq ishlar qilinmoqda. Ta’limni KVN, munozara, disput, konferinsiya, mushoira, sud o’yinlari va boshqa shakllarda tashkil etishga harakat qilinmoqda. O’quvchilar faolligini oshiriuvchi turli interfaol usullardan keng qo’llanilmoqda. Ularga misol tariqasida Sinkveyin, klaster, Aqliy xujum, T-chizma, Insert jadvali, B-B-B jadvali, Venn diagrammasi, Semantik xususiyatlar tahlili va boshqalarni keltirish mumkin.

Ko’p yillar davomida an’anaviy dars o’tish ta’limning asosiy shakllaridan biri bo’lib keldi. An’anaviy dars – muayyan muddatga mo’ljallangan, ta’lim jarayoni ko’proq o’qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta’lim modelidir. Ma’lumki, an’anaviy darsda ta’lim jarayonining markazida o’qituvchi turadi.

An’anaviy dars o’tish modelida ko’proq ma’ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an’anaviy dars samaradorligi ancha past bo’lib, o’quvchilar ta’lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Ma’naviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman o’quvchilar faolligini oshiradigan metodlar bilan boyitib borilsa, o’quvchilar o’zlashtirsh darajasini ko’tarilishiga olib keladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o’qituvchi tomonidan o’quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligini muttasil rag’batlantirib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunida bilishda bahs, munozara, aqliy xujum kichik guruhlarda ishlash, tatqiqod rolli o’yinlar metodlarini qo’llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarni keltirilishi, o’quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash uullaridan foydalanish, ta’lim vositalaridan o’rinli foydalanish talab etiladi.

Ta’limning an’anaviy va noan’anaviy shakllarni quyidagi yuritma asosida solishtib ko’rish mumkin (10-11 chizmalarga qarang):

Ta’limning an’anaviy shakllari	
Afzalliklari:	Kamchiliklari
- Ma’lum ko’nikmalarga ega bo’lgan va aniq ma’lum tushunchalarni, fanni o’rganishda foydali. - O’qituvchi tomonidan o’qitish jarayonini va o’qitish muxitini yuqori darajada nazorat qilinishi. - Vaqtdan unumli foydalanish. - Aniq, ilmiy bilimlarga tayanish.	- O’quvchilar passiv ishtirokchi bo’lib qoladilar. - O’qituvchining to’la nazorati barcha o’quvchilar uchun motivasiyani vujudga keltirmaydi. - O’quvchilar o’qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi. - Eslab qolish darajasi hamma o’quvchilarga bir xil bo’lmaganligi sababli, sinf bo’yicha o’zlashtirish darajasi past bo’lib qolishi mumkin. - Mustaqil o’rganish va yechimlar qabul qilishi uchun sharoitlar yaratilmaydi

10-chizma.

Ta’limning noan’anaviy shakllari	
Afzalliklari	Kamchiliklari
- o’qitish mazmunini yaxshi o’zlashtirishga olib kelishi. - O’z vaqtida aloqalarning ta’minlashi. - Tushunchalarni amaliyotda qo’llash uchun sharoitlar yaratilishi. - O’qitish usullarining turli xil ko’rinishlari taklif etilishi. - Motivasiyani yuqori darajada bo’lishi . - O’tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi. - Muloqatga kirishish ko’nikmasining takomillashishi. - O’z-o’zini baholashning o’sishi. - O’qituvchilarning predmetning mazmuniga, o’qitish jarayoniga bo’lgan ijobiy munosabati. - Mustaqil fikrlay oladigan o’quvchining shakllanishiga yordam berish. - Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlanishi. - Muammolar yechish ko’nikmalarining shakllanishi.	- Ko’p vaqt talab etilishi. - O’quvchilarni xar doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi. - Juda murakkab mazmundagi material o’rganilayotganda ham o’qituvchi rolining past bo’lishi. - “Kuchsiz” o’quvchilar bo’lganligi sababli “Kuchli” o’quvchilarning ham past baho olishi. - O’qituvchining o’zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammoalr yechish ko’nikmalariga ega bo’lishining talab etilishi.

11- chizma.

O’quvchi-talabalarni ma’naviy-intellektual rag’batlantirish

Bugungi kunda yoshlarni ma’naviy – intellektual rag’batlantirish, ularning bilimini aqliy kamolotlarini nazorat qilish davlat miqyosida muhim axamiyatga egadir.

Bilimlarni nazorat qilishda qo’yilgan ball va baholar o’quvchi va talabada qanday taassurot qoldirganini, ular o’rtoqlarining o’qishdagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo’lishlarini doim kuzatib borish lozim. **Bilimlarni nazorat qilish va baholash quyidagi** funksiyalarni bajaradi (12-chizmaga qarang):



12 – chizma

1.Nazaoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasida bilim, iqtidor va ko’nikmalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2.Nazoratning talabalarda bilim olishga ishtiyoqni o’stirish funksiyasi. Nazorat natijasida talabalarda o’z bilim, iqtidor va ko’nikmalarini yanada takomillashtirish ishtiyoqi uyg’onadi.

3.Nazorat jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va eng asosiysi rivojlantiriladi. Rivojlanish faqat o’quv orqali, shu jumladan nutq faoliyati orqali amalga oshiriladi.

4.Tahsil funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalar o’z bilimlarini mustahkamlaydilar. O’quv materiali yanada chuqur o’zlashtiriladi.

5.Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalarning psixologik ijobiy shakllanib boradi.

Nazoratni xususan baholash funksiyasi. Nazorat natijasida sifat o’zgarishlarning me’yori aniqlanadi.

Nazorat jarayonida uning yozma, og’zaki va amaliy usullaridan keng foydalanilmoqda. Bu jarayonda og’zaki so’rash orqali o’zlashtirish nazorat qilish keng tarqalgan. Bu asosan savol-javoblar orqali olib boriladi. Bunda yakka so’rash, frontal so’rash kabi turlari qo’llaniladi.

Ma’naviy – intellektual shakllanish sifatlarini zamonaviy usullarida aniqlash tarbiya jarayoniga samarali o’zgartirishlar kiritadi. O’quvchi yoshlarning, talabalarning ma’naviy-intellektual shakllanish sifatlardagi yutuq va kamchiliklarni rag’batlantirish tuzatish tarbiya mazmuni usullari va tashkiliy shakllari yaxshilashga mos tuzatishlar kiritish lozim bo’ladi.

O’qituvchi va talabalar bilimini nazorat qilish va bao’olash o’quv yili davomida har doim muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, ba’zan-ba’zan tasodifan tekshirishlarini oldi va tartibli doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib berdi.

Umumiy o’rta ta’lim Reyting tizimi to’g’risidagi Nizomi “O’quvchilar bilim darajasi sifatini nazorat qilishning reyting tizimini joriy etishning asosiy maqsadi nazoratining har xil turlaridan, shakllaridan foydalanish yo’li bilan umumiy o’rta ta’lim davlat ta’lim standartlari talablari bajarilishini ta’minlash, ta’lim samaradorligini oshirishda hamda o’quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat”[27]

Reyting deganda – baholash, tartibga keltirish, klassifikasiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo’yicha baholash tushiniladi. Reyting yordamida psixologik obyektlarni, ular uchun umumiy bo’lgan xususiyatlarning yorqin darajasiga qarab (ekspert baholash) dastlabki klassifikasiyalash amalga oshiriladi.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar sistemasi yordamida modelllashtiradi. Ularning turli uslublari, tafsiflari qay bir miqdoriy o’zgaruvchilarga turlicha aylantirish uslublaridan iborat.

[27] УЎТ муассасаларида ў=увчилар билим даражасини назорат =илиш рейтинг тизими тў\рисида мува==ат Низом // “Хал= таълими”, 2000 й.

UO’T maktablarida haftalik o’quv soatlariga ko’ra barcha o’quv fanlaridan choraklar bo’yicha o’quvchilar bilimini baholash (13-chizma) [28]

O’quv fani uchun ajra-tilgan soat	1		2		3-4		5-6	
Nazorat turi	JN	ON	JN	ON	JN	ON	JN	ON
Nazoratlar soni	3	1	6	2	9	3	10	5
O’quv faniga ajratilgan	**25**		**50**		**75**		**100**	
Chorak bo’yicha to’plangan ballga mos o’zlashtirish darajasi								
Daraja	Ballar							
O	1-13		0-27		0-41		0-55	
I	14-17		28-35		42-53		56-70	
II	18-21		36-42		54-64		71-85	
III	22-25		43-50		65-75		86-100	

(13- chizma)

Hozirgi kunda uzluksiz ta’limning umumiy o’rta ta’lim, o’rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim bosqichlarida o’quvchi talabalar bilimi reyting tizimida baholanadi. Baholashning bunday shakli o’quvchi talabalarni butun o’qish davomida o’z bilimlarini bildirish uchun muntazam ishlashni hamda o’z ijodiy faoliyatini takomillashtirish rag’batlantirish g’oyasiga asoslanadi..

Reyting nazoratida test ham samarali qo’llaniladi. **Test** deganda aniq vazifani takomillashganligi darajasini aniqlashda, sifat va miqdoriy o’lchamlarda bnlgilash imkonini beradigan, faollikning biror shaklini qiziqtiruvchi biron aniq topshiriq shaklidagi sinov quroli tushiniladi.

Testning afzalligini quyidagicha baholash mumkin:

nazorat uchun kam vaqt sarflanadi;

nazariy va amaliy bilimlar darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;

ko’p sonli talabalar bilan bir vaqtning o’zida nazorat olib borish mumkin;

bilim natijalari o’qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi;

barcha talabalarga bir xil qiyinchilikdagi savollar berilib bir xil sharoitlar yaratiladi;

Testning quyidagi shakllari mavjud (14- chizmaga qarang):

14 – chizma

Oliy ta’limda ham bilimlarni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi qo’llanilmoqda. Unda quyidagi nazorat turlari amalga oshiriladi (15- chizma qarang):

[28] УЎТ муассасаларида ў=увчилар билим даражасини назорат =илиш рейтинг тизими тў\рисида мува==ат Низом // “Хал= таълими”, 2000 й.4-сон , 20-б.



15 – chizma

Joriy nazorat – bu o'rganilayotgan mavzularni o'quvchi talabalar tomonidan qanday o'zlashtirayotganini muntazam ravishda dars jarayonida nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'tkazilib, talabaning bilim darajasini, shu darsning har bir mavzusi bo'yicha aniqlab borish ko'zda tutiladi. Bu o'quvchining uzluksiz bilim olishini va natijasini muttasil nazorat qilib borishni nazarda tutadi.

Oraliq nazorat – bu mazkur fan bo'yicha o'tilgan bir necha mavzularni o'z ichiga olgan bo'lim yoki qism bo'yicha talabaning bilimini aniqlash oraliq nazorat darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi va talabalarga o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.

Yakuniy nazorat – bu nazorat semestrlari uchun belgilangan mavzular to'liq o'qitilib bo'lingan, o'tilgan mavzular bo'yicha yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi.

Talabaning fan bo'yicha semestrdagi reyting bahosi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda to'plagan ballari bo'yicha aniqlanadi.

Har bir fan maksimal reyting bali shu fan uchun o'quv rejasida ajratilgan umumiy dars soatlari miqdoriga teng deb hisoblanadi.

Maksimal balning 70% miqdori joriy oraliq nazorat jarayonida, 30% miqdori yakuniy nazoratda to'planishi tavsiya qilinadi.

Semestr davomida mazkur fan bo'yicha to'plagan ballarga nisbatan talaba bilimi quyidagicha baholanadi:

86-100% a'lo;

71-85% yaxshi;

56-70% qoniqarli;

55 va undan kam foiz qoniqarsiz.

O'quv faoliyati motivasiyasi. O'qishga qiziqishni oshirish

Motiv va motivasiya muammosi xozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qoldi. Chunki motivlarga didaktik jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralayapti.

Motiv lotincha "movere" – so'zidan olingan bo'lib, harakatga keltiruvchi, turtki ma'nolarini bildiradi. "**Motivasiya –** o'quvchilarning ta'lim mazmunini faol o'zlashtirishi va ularda samarali bilish faoliyatini tashkil etishga undovchi (turtki beruvchi) jarayon, metod va vositalarning umumiy nomlanishidir**"**[29]

Psixologik jixatdan motivgv quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Motiv – individ tomonidan o'z extiyojlari, maqsadlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan ma'lum faoliyat, faollikning yuzaga keltiruvchi ichki turtki hisoblanadi"[30]

Pedagogik-psixologik adabiyotlarda "motiv" tushunchasi qanday izohlanishini M.Ochilov quyidagicha ko'rsatib beradi: "... agar ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv ishi (vazifasi) talaba uchun, biror shaxsiy qimmatga ega bo'lsagina, kishida unga qiziqish uyg'onishi av ta'lim maqsadi shaxsning o'z extiyojiga aylanishi mumkin. "Motiv" tushunchasi extiyoj, intilish, mayil,

[29] И.П.Подласий. Педагогика. Новий курс. Книга И.М, "Владос", 2003 й , 360 б.

[30] У.Жумаев. Мотив ва мотивасия муаммосини ўрганиш хусусида\\ "Педагогик махорат", 2002 й. 33 б.

qiziqish kabi ma’nolarni ham anglatadi. Motiv – kishini biron ish xarakatni bajarishga undovchi da’vat, turtki xisoblanar ekan, muallimlar bolada o’qishga motiv xosil qilishga intilishlari, o’quv jarayonida uni hisobga olib, o’stirish va boshqarishlari zarur.”[31]

O’rganilayotgan mavzuning hayot va faoliyat uchun axamiyatini anglash, o’z o’quv maqsadini aniq tasavvur qilish, mavzuni o’rganishga oid vosita, usullarni oldindan belgilash o’quv-bilim faoliyati uchun turli motiv funksiyalarini bajaradi.

Biror ish-faoliyatga motiv xosil qilish - bu murakkab ruxiy jarayondir, motivlarni shakllantirish masalasi individual - shaxsiy xususiyatga ega bo’lib, ta’limning maqsadi, vaziyati bilan o’qishni tashkil etish shakllari, usullari mutanosibligini taqozo qiladi.

O’quvchida bilim olishga intilish (motiv) uyg’otish-ijodkor o’qituvchilarga xos xususiyatdir. Bolada o’qishga motiv xosil bo’lganligini ko’rsatuvchi muxim belgilardan biri – o’quv topshiriqlarini bajarishga tezda, astoydil kirishib ketishi, o’qishga bo’lgan qiziqishining barqarorligidir.

O’quv motivlari ba’zan **ichki va tashqi** motivlarga bo’linadi. Birinchisi, pedagoglar, ota-onalar, guruh, jamiyat belgilaydi va yo’l ko’rsatish, lsqma tashlash, talablar, ko’rsatmalar, qistashlar va xatto majburlash shaklida ham bo’ladi. Ikkinchisi, kishining o’zida bo’ladi va u motivlashtirishning xaqiqiy manbai bo’lib hisoblanadi. O’quvchining o’zi biror narsani hoxlashi va bunga erishishi muhimdir. O’quvchining bilim olish motivlari kuchli yoki kuchsiz bo’lishi mumkin. Motivlar o’z-o’zidan paydo bo’lavermaydi. Motiv hosil qilishning turli yo’llari usullari mavjud.

Motiv hosil qilishning oddiy usularidan biri sinfdagi mashg’ulot yoki darslikdagi matinning qiziqarliligi (“qiziqarli fizika”, “qiziqarli kimyo”, “mo’jizasiz mo’jizalar” kabilar bunga misol bo’ladi). **qiziqish** inson faoliyatiga kuchli tasir etuvchi motiv bo’lib hisoblanadi. Bilishga oid qiziqish o’quvchining bilish obyektiga bo’lgan xisiy munosabatlarida nomoyon bo’ladi.

Bunday birinchi qoida - qiziqishlarning bilim darajasi va sifatiga, aqliy faoliyat usullarining shakllariga bog’liq bo’lishidir. Ikkinchi qoida o’quvchilar qiziqishini ularning o’qituvchiga bo’lgan munosabatiga bog’liqligidir. O’quvchilarni sevadigan va hurmat qiladigan o’qituvchilarda ular qiziqib o’qiydilar.

Mashg’ulotlar jarayonida **muammoli vaziyatni vujudga keltirish,** yoki shu mavzuni o’rganishda kishi hayoti uchun axamiyatli bo’lgan o’quv-bilish vazifalarini qo’ya bilish-motiv xosil qilish usullaridan biridir. Fizika, ximiya, matematika, adabiyotni o’rganishga hayotiy muammolarni hal etishga doir o’tkir vaziyatlar ko’proq uchraydi.

Bola kelgusida kasb-hunar egallashi, jamiyatda obruli bo’lishi uchun bu **predmetni yaxshi egallashi zarurligini anglash** – motiv hosil qilishning muhim usullaridan hisoblanadi.

O’quvchida quyidagilar orqali stimul hosil qilish mumkin (16-chizmaga qarang)

[31] М.Очилов. янги педагогик технологиялар. +арши, “Насаф”.



16-chizma

Ta’lim olishning maqsadi mavhum, noaniq, bo’lsa, o’quvchi bilim olishga qiziqmay qo’yadi, muallimlar, ota-onalar bolalarning o’qigisi kelmaydi, deb nolib yuradilar. Bu o’quv jarayonining motiv xosil qilish bosqichi bo’shligidan dalolatdir. Bunda bola muallimning talablarini tushunmay, hafsalasiz xolatda o’quv topshiriqlarini nomigagina bajaradi.

Demak, ta’limning maqsadi har bir o’quvchining aniq bir kasbni (mutaxasislikni) egallashiga yo’naltirilgan bo’lsa, o’quvchida shu kasb egallash uchun kerak bo’ladigan fanlarni, bilimlarni egallashga mayl, intilish, qiziqish – motiv hosil bo’lishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Ta’lim-tarbiya tizimiga o’quv rahbarlik qilishning prinsiplari

Ta’lim oldiga qo’yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish va unda ta’lim tizimini boshqarish va unga o’quv rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog’liq.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’lim tizimini boshqarish haqida shunday deyladi: “Uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining tarkibiy jixatdan o’zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo’li bilan boshqarib boriladi”[32]

Ta’lim tizimiga ilmiy o’quv rahbarlik asoslarini ishlab chiqish pedagogika uchun asosiy yo’nalishdir. Barkamol avlodni o’qitish va tarbiyalash tajribalarni o’rganish umumlashtirish bu jarayonning qonuniyatlarni ochib berish pedagogika nazariyasining asosiy masalalarni ta’lim amaliyotiga va fan yutuqlarini nazarda tutgan holda I.A.Karimov asarlari asosida ijodiy hal qilish pedagogikaning burchidir.

I.A.Karimov o’z asarlarida kelajagi buyuk O’zbekiston Respublikasining organlarini tashkil etish, boshqarish va ularga rahbarlik faoliyatiga doir muhim prinsiplarini har taraflama mufassal ishlab chiqish.

Ilmiylik va pedagogikani amaliyot bilan bog’lanish prinsiplari. Bu prinsip xalq ta’limi organlari va maktabning hamma ishlari O’zbekiston Respublikasi davlatining ko’rsatmasi fan va texnika yutuqlari hamda ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonuiyatlari asosida amalga oshirishni talab etadi. Chunki idora qilish uchun ishni bilish kerak. Hamma narsadan xabardor

[32] Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Баркамол авлод-Ўзбекистон келажагининг пойдевори. Т. , “Шар=”, 1998 й. 55-56 б.

bo’lmasdan ishni to’la-to’kis bilimga ega bo’lmasdan turib, idora qilish ilmini bilmasdan turib boshqarish mumkin emas. Xalq ta’limi ishlari maktab ishini, kasb-hunar kollejlari ishini va unga o’quv rahbarlik qilishda ko’zlangan maqsadlarga erishish uchun milliy mafkura, milliy g’oya, pedagogika, pedagogika tarixi, psixologiya, xususiy metodika, mantiq va etika kabi fanlar erishgan yutuqlarni muntazam o’rganib borish, tahlil qilish hamda bu muvaffaqiyatlarni keng qo’llanishi zarur.

Demokratik markazlashgan prinsip. Ta’lim tizimini boshqarishda markazlashgan o’quv rahbarlikni keng demokratiya bilan mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirishg bilan birga qo’shib olib borish o’ziga xos xususiyatlarni va shart-sharoitlarni hisobga olish imkonini beradi.

Yuqoridan turib bir xil andoo’a bichib berish demokratiya va markazlashgan o’quv rahbarlikka butunlay yot narsadir.

Boshqarishning jamoatchilik prinsipi va ma’suliyat-to’g’ri boshqarish va rahbarlik qilishning oliy bosqichidir. Jamoa va uning maslaxati to’g’ri rahbarlik garovidir. Jamoa yo’li bilan korxonani boshqarish va unga raxbarlik qilish, muhim qarorlarni birgalikda, maslaxatlashib ishlab chiqish to’g’ri boshqaruvni tashkil qilishning muhim shartidir.

Boshqarishda ijroni tekshirish prinsipi. Ijroni tekshirishdan ko’zlangan asosiy maqsad belgilangan ish rejasi va tadbirlarni amalga oshirishning barbod qilish extimolining oldini olishdan, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishdan, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta’minlashdan, ishni amaliy tashkil qilishdan iborat.

Ishlab chiqarish va ta’lim tizimi. Kadrlar tayyorlash va birgalikda ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxonalarning ishlab chiqarish saloxiyatidan samarali foydalaniladi. Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo’llab quvvatlanadi.

Ta’lim tizimining hayot bilan va mustaqil O’zbekiston davlatining siyosati bilan bog’liqlik prinsipi. Ta’lim tizimini hayot bilan, davlatimiz siyosati bilan bog’lash prinsipi O’zbekiston maktablari, kasb-hunar kollejlari, umuman barcha ta’lim muassasalari safida turgan asosiy nazariy va amaliy prinsipdir.

“Ta’lim to’g’risida” gi qonunimizning IV bo’limida “Ta’lim tizimini boshqarish” masalasi ko’rib chiqilib, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining, ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlarining va mahalliy davlat xokimiyati organlarining ta’lim sohasidagi vakolatlari keng yoritib berilgan.

IV-BO'LIM. PEDAGOGIKA TARIXI

Prezident I.A.Karimov ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosidan samarali foydalanishning ahamiyati haqida

Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim–tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning avlodlarini insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, do'stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan. Xalqimiz yaratgan ma'rifiy fikr sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi. Lekin mustaqillikka erishgunimizga qadar biz bu meroslarning baridan bebahra edik. Istiqlolimiz sharofati bilan milliy-madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni o'rganish va uni yanada yuksaltirish uchun imkoniyatlar yuzaga keldi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan-nutida ta'kidlaganidek: «Mamlakatimizni istiqlol yo'lidagi birinchi-qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy-ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda».

Bu esa qadimiy boy ma'rifiy merosimizning qimmatli manbalarini, bebaho xazinamizni yuzaga olib chiqish, uni hozirgi ilmiy-pedagogik tafakkur iste'moliga kiritishni taqozo etadi.

O'tmish ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarimizning ahamiyatini Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida alohida ta'kidlab deydi: «Xalqimiz tayanchi-ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz lozim»[33].

Prezidentimiz jamiyatimiz milliy mafkurasini yaratishda ham o'tmish mutafakkirlarimiz merosini muhim deb biladi. U bu mafkurani yaratishda «milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo'shgan olimu fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o'rganish darkor. Men bu o'rinda Abu Nosir Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi ulug' ajdodlarimizning shu mavzuga daxldor asarlarini nazarda tutayapman. Masalan, Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarini esga olaylik. Buning ming yilcha ilgari yaratilganiga qaramasdan, bugungi o'quvchi ham bu asardan hozirgi hayotning murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo'l-yo'riqlarni topa oladi»[34]-deb yozadi.

I.A.Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» risolasida ham o'tmish tariximiz va merosimiz ahamiyatini yorituvchi muhim asardir. Prezidentimizning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» degan fikrlari faqat ijtimoiy-siyosiy sohaga emas, balki ta'lim tarbiyamiz va pedagogikamz sohasiga ham talluqlidir. Pedagogikamiz tarixi, o'tmishda ta'lim-tarbiya amaliyoti va nazariyasi qanday bo'lganligini bilmasdan turib hozirgi ta'lim tarbiyamizda yuksak darajaga erishib bo'lmaydi.

Maorif va pedagogika tarixi fan va o'quv predmeti sifatida

[33]И.А.Каримов. Буюк ма=сад ё`лидан о\ишмайлик. Т., «Ызбекитон», 1993 й, 8 б.

[34]И.А.Каримов. Жамиятимиз мафкураси хал=ни-хал=, миллатни-миллат =илишга хизмат этсин. Баркамол авлод орзуси. Т. «Сщар=», 1999 й. 36-37 б.

Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib keladi.

Pedagogika tarixi ijtimoiy fan bo'lib, uning metodologik asos yosh avlodni tarbiyalash an'analarini, jamiyatning taraqqiyot bosqichlaridagi o'qitish va kamol toptirish tizimlarini, ularning qonun-qoidalarini, qomusiy mutafakkirlar, ma'rifatparvarlar adiblar va pedagoglarning ta'lim-tarbiya, ma'rifatga doir g'oyalarini va ularning rivojlanishini mukammal o'rganadigan fandir.

Pedagogika tarixini o'quv kurs sifatida Oliy pedagogika o'quv yurtlarida o'rganish bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Pedagogika tarixi fanini o'rganish –kishilik jamiyati taraqqiyoti yo'lidagi tarbiya pillapoyalarining tajribalariga suyangan holda har bir o'qituvchida pedagogik madaniyat va ularga munosabat bildirish kabi malakalarni shakllantiradi.

Pedagogika tarixi kursi talabaning umumpedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosimizga to'g'ri munosabatda bo'lishga imkon beradi, ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta'lim, uning rivojlanish jarayoni, jamiyatning sotsial iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog'liqligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bo'lajak o'qituvchi pedagogika tarixi kursini o'rgana borib, boshqa psixologiya –pedagogika turkumidagi o'quv fanlari kabi pedagogik tushunchalar yuzasidan fikr yuritishga hamda ularning mohiyatini tushunishga ham o'rgana boradi.

Pedagogika tarixi bo'lajak o'quvchilarga bilim beribgina qolmay, milliy ixtiyor va g'urur hissini ham tarbiyalaydi.

Umuman pedagogikamiz tarixini o'rganish millatmiz tarixini o'rganish bilan uzviy bog'liqdir. Yosh avlodni tarbiyalash va ularni o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib ketganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal etib bo'lmaydi.

Eng qadimgi ma'naviy boyliklarni o'rganishda pedagogika tarixi uch asosiy manbaga tayanadi, bular quyidagilar:

Pedagogika tarixi uchun hukumatimizning ta'lim-tarbiyaga ega. Qonun va qarorlari, Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, ilg'or olimlarimizning pedagogik ijodlari, ta'lim-tarbiyaga oid kundalik matbuot materiallari ham muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Atoqli mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiya sohasida qoldirgan muhim fikrlaini o'rganish, pedagogik tafakkurning o'sishiga, pedagogik madaniyatning ortishiga imkon beradi. Pedagogika tarixi – taraqqiyoti qonunlariga suyangan holda turli pedagogik qadriyatlarni, ta'lim-tarbiya mazmuni va metodlarini o'rgatadi. O'tmishning pedagogik tizimlarida bo'lgan ilg'or fikrlardan ijodiy xisoblanadi.

«AVESTO» - eng qadimgi yozma ma'rifiy yodgorlik sifatida

«Avesto»da O'rta osiyo, Ozarbayjon, Eron hamda Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining eng qadimgi (yer.av. 2-ming yillikning oxirlaridan 1-ming yillikning keyingi asrlarigacha bo'lgan) davrdagi tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, maishiy turmushi, axloqi, urf-odat, diniy

qo’shiqlari, chorvachilik-dehqonchiligi, savdo-sotig’i, qo’shni xalqlar bilan iqtisodiy-madaniy munosabatlari yoritilgan. Bir qarashda «Avesto» sof diniy mazmundagi kitobdek tuyuladi, biroq u falsafa, tarix, axloq, xalq og’zaki ijodiyoti, geografiya, biologiya, ruhshunoslik, tarbiyashunoslik, falakkiyot, tabobat va boshqa masalalarga doir qimmatli ma’lumotlarni o’z ichiga olgan.

«Avesto» uzoq asrlar maboynida bolalarga ilm –ma’rifat o’rgatishda va axloq odob fazilatlarini shakllantirishda dasturul amal bo’lib kelgan. Zardusht ta’lim-tarbiya masalalariga alohida ahamiyat berib deydi: «tarbiya-hayotning eng muhim tayanchi bo’lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o’qishni va so’ngra esa yozishni o’rganish bilan eng yuksak pog’onaga ko’tarilsin».

Kitobda bolalarni o’qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagicha tavsiya etiladi: a) diniy va axloqiy tarbiya, b) jismoniy tarbiya, s) o’qish va yozishga o’rgatish.

Zardushtiylar bolalar ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor berganlar.

Eramizdan oldingi minginchi yillarning o’rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mazmunidagi juda ko’p afsonalar, rivoyatlar aytilgan bo’lib, ular zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ga kiritilgan.

Ma’lumotlarga ko’ra «Avesto» eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan bo’lib, to’liq kitob holida eramizdan avvalgi I asrda shakllangan. Unda O’rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron hamda Yaqin Sharq xalqlarining eng qadimgi (yer.av. 2-ming yillikning oxirlaridan 1-ming yillikning keyingi asrlarigacha bo’lgan) davrdagi tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, maishiy turmushi, axloqi, urf-odat, diniy qo’shiqlari, chorvachilik-dehqonchiligi, savdo-sotig’i, qo’shni xalqlar bilan iqtisodiy-madaniy munosabatlari yoritilgan. «Avesto»ni qadimgi davrlarda ajdodlarimizning tabiiy, ilmiy, ma’rifiy fikrlari to’plangan dastlabki pedagogik asar deb hisoblash mumkin. Shuningdek, tadqiqotchilar uning diniy xarakterdaligini ta’kidlash bilan birga falsafa, siyosat, ta’lim-tarbiya adabiyot masalalarini ham qamrab olgan asar sifatida ta’riflaydilar.

Bu kitobning tarixiy manba sifatidagi roliga katta baho bergan yurtboshimiz I.A.Karimov shunday deydi: «Avesto» ayni zamonda bu qadim o’lkada buyuk davlat, buyuk madaniyat bo’lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hyech kim inkor etolmaydi»[1].

Olimlarning mulohazalariga ko’ra «Avesto»ning asoschisi Zardusht bo’lib, u eramizdan oldingi VI asrda Xorazmda yashagan. U Spitamin urug’idan bo’lib, chorvachilik bilan shug’ullangan, uning onasini Dugdana, otasini Paurushaspa deb atashgan.

Zardusht ko’pxudolikka qarshi chiqib, 20 yoshida nor tuyasiga minib (Zardusht-sariq to’n egasi demakdir) qishloq va shaharlarda yakkaxudolik g’oyasini ilgari surgan.

Xorazm hukumdorlari ta’qiblari natijasida Zardusht bir guruh tarafdorlari bilan Eronga qochib o’tadi va o’z ta’limotini uzul-kesil shakllantiradi. «Yeron shohi Vishtaspga o’z diniy ta’limotini asoslab beradi va uning e’tiborini qozonadi.. Natijada Eronu-turonda otashparastlik dini to’la joriy etiladi «… Zaradushta 77 yoshida falx shahrida ibodatxonada ibodat paytida ko’pxudolik tarafdori fratarvaxsh tomonidan chavaqlab o’ldiriladi. Ammo, uning ta’limoti, asos solgan dini Ajam o’lkalarida islom majburan qabul qildirilganga qadar muqaddas e’tiqod bo’lgan»[2].

Manbalarda «Avesto»ning kitob holidagi matni eramizdan oldin, 12 ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgani keltiriladi.

Zardushtiylik ta’limoti aks etgan Zardushtning «Avesto» ungacha 2-nusxada yetib kelgan.

Birinchisi – duolar to’plamidan iborat bo’lib, «Vendidat - sede», ya’ni «Pok Vendidat» deb ataladi. Bu kitobga «Yasna»lar, «Vispered» ham kiritilib, yaxlit tarzda shakllangan.

Ikkinchisiga birinchisiga kabi «Vendidat», «Yasna», «pered»lar qatori ularning izohli natijasi «Zand» (sharx ma’nosida) kiritilgan. Shuning uchun ham sharxli nushasi «Avesta Zend»

[1] И.Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йы=. Т.
[2] Щ.Щамидов. «Шохнома»нинг сущрати. Т., «Ызбекистон», 1991 й, 88-89 б.

yoki «Zend Avesta» deb yuritiladi. Ikkinchi variantiga asosan «Avesto»quyidagi qismlardan iborat:

1. Vendidad, 22 bobdan iborat,
2. Vispered, 24 bobdan iborat.
3. Yasnalar, 72 bobdan iborat.
4. Yashtalar –u zardushtiylik xudolari va ma’budalarini madh etuvchi 22 qo’shiq (gimn)ni o’z ichiga oladi.
5. Kichik Avesto (Xurda Avesto, Xvartak apastak).

Zardushtiylikda yaxshilik va yomonlik tushunchalari orqali butun yaxshilik va yomonlik dunyosi tushuniladi.

Taqvodor chorvador odil, oqil va hurmatga sazovor bo’lsa, katta podago ega bo’ladi. Chorvadorlar nazdida ko’chmanchilar dushman sanaladi. Chunki ular odamlarni talaydi, molini haydab ketadi. Bular axloqsiz mahluqlarga o’xshatiladi, ular azob-uqubatga loyiq, chunki ser hosil yaylovlarni yakson etadilar, yaxshilik homiylariga hujum qiladilar. Demak, bulardan ko’rinib turibdika, shaxsning axloqiy hislatlari birinchi o’ringa qo’yiladi. Zardushtning asosiy yo’riqlaridan biri ham Axuramazdaning ko’makchisi sifatida inson saxovati bo’lishi kerak, degan aqidadir. Garchi zardushtiylikda diniy rasm-rusmlarga rioya etish, Zardushtning barcha axloqiy yo’l-yo’riqlarini bajarish har bir kishining muqaddas burchi deb qaralsa ham, ayni paytda dunyoviy ishlar ham targ’ib etiladi.

«Avesto»ning katta qismi bo’lgan «Yasna»larda inson kamolini ko’rsatuvchi axloq-odob mezoni quyidagi uchlikda ifodalanadi:



Zardusht ta’limotiga ko’ra har bir kishi butun hayoti davomida ana shu uchlikni qalbiga jo qilmog’i lozim. «Men yaxshi so’z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman».

«Avesto» uzoq asrlar mobaynida bolalarga ilm-ma’rifat o’rgatishda va axloq odob fazilatlarini shakllantirishda dasturil amal bo’lib kelgan. Zardusht ta’lim-tarbiya masalalariga alohida ahamiyat berib deydi.: «tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo’lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o’qishni va so’ngra esa yozishni o’rganishi bilan eng yuksak pog’onaga ko’tarilsin».

«Avesto»da bolalarni o’qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagi tartibda tavsiya etilgan:

a) diniy va axloqiy tarbiya;

b) jismoniy tarbiya;

v) o’qish va yozishga o’rgatish.[35]

Bolalarga diniy tarbiya berish, asosan 7 yoshdan boshlangan. Zardusht ta’limotida 15 yosh balog’at yoshi sanalgan. O’smir balog’at yoshiga yetganda Zardusht qonunlari, axloqiy yo’riqlari o’rgatilgan. O’smirlarni xudojo’y, mehnatkash, adolatli, yuniyatlari, so’zlari, ishlarida halollikka alohida e’tibor berilgan. Zardushtiylikda ma’rifat va bilimning kuchiga qattiq e’tiqod qilinadi va jamiyat hayotida ham oqibat natijada ma’rifat yutib chiqadi, deb hisoblanadi.

Zardushtilikning axloqiy yo’riqlariga binoan insonning o’z burchini his etishining eng birinchi belgisi ma’naviy poklik hisoblangan.

Bunda ayniqsa, ayollarga, jumladan xomilador ayollarga g’amxo’rlik qilish asosiy insoniy burch zisoblangan. Tozalikka rioya qilish-insonning o’z tozaligiga rioya qilishi, kanallar, ko’llar, suv havzalarining tozaligiga alohida e’tibor berilgan. Bolalarning jismoniy tarbiyasi, gigena va ekologiya masalalariga ham alohida e’tibor berilgan.

Sharq uyg’onish davri va unda ta’lim-tarbiya masalalari

Yirik arab xalifaligi davlati tashkil topganidan so’ng IX asrlarga kelib xalifalikning Bog’dod, Damashq shaharlariga madaniy-ma’rifiy hayotida yuksalish boshlandi. Bu yuksalish boshqa sharq mamlakatlariga ham tarqaldi va Sharq uyg’onish davri deb atala boshlandi. Uyg’onish davri IX asrdan boshlanib, ayrim uzilishlar bilan XV-XVI asrlargacha davom etdi.

Xalifa Xorun ar-Rashid (IX asr) va uning o’g’li Ma’mun davrida Bog’dodda «Baytul hikma» (Donishmandlik uyi) tashkil topdi. Mashhur ilm sohiblari bu yerga to’plandi. Bu ilm maskani Sharq va /arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga katta ta’sir ko’rsatdi.

X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar – Toxiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, /aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlari paydo bo’lgach, ularda ham madaniyat rivojlandi.

Bu davrda pul muomalasi rivojlandi, jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o’zgarishlar albatta madaniy hayotga ham o’z ta’sirini o’tkazmasdan qolmadi.

Somoniylar davlatida Mavr, Buxoro, Samarqand va Urganch o’sha davrning madaniy markazlaridan sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilardi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilar edi. X asr o’rtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshlandi, ammo yoziladigan hujjatlar, ishlar fors-tojik tilida bo’lsa ham, arab imlosida yozilar edi.

O’sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo’lgan, kitob do’konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy baxs, munozaralar o’tkazganlar.

Somoniylar davrida Rudakiy, Firdavsiy, al-Xorazmiy, al-Farg’oniy, al-Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar yashab ijod etganlar.

X asrning 2-yarmida tashkil topgan Qoraxoniylar davlatida ilm-fan rivojlanib, turkiy til shakllanib bordi. Yusuf Xos Xojib, Maxmud Qoshg’ariylar mashhur asarlar yaratdilar.

[35] Ж.Йылдошев, С.Щасанов. авецода ахло=ий-таълимий =арашлар. Т., «Ы=итувчи», 1992 й. 21 б.

XI asrda Xorazmshoxlar davlati tashkil topib, ilm-fan rivojlandi. Xorazm shohi Ma’mun o’z saroyida yirik olimlarni yig’di. U tashkil etgan «Baytul hikma»da qomusiy olimlar Beruniy, ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyoziyotchi Iroq kabi ilm-fan bilan shug’ullanganlar.

Saljuqiylardan Ali Arslon Muhammad hokimiyatni boshqargan davrda uning vaziri Nizom ul Mulk mashhur ma’rifatparvar sifatida dovrug’ qozondi. U davlat boshqaruviga oid «Siyosatnoma» asarini (1091-1092 yillar) yozadi. 1067 yili Bog’dodda «Nizomiya» madrasasini qurdiradi. 1074 yili O’rta Sharq mamlakatlari uchun kalendar-taqvim yaratadi.

Sharq uyg’onish davrida ilm-fan asosiy uch yo’nalishda rivojlanadi:

Sharq uyg’onish davrining mashhur allomalaridan biri Ahmad al-Farg’oniy (IX asr) bo’lib, u Bog’doddagi Baytul hikmada mudarrislik qiladi, riyoziyot, falakkiyot, geografiyaga oid asarlar yaratadi. Uning mashhur «Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob»i arab tilida yozilgan dastlabki kitob, «Oy yer ustida yoki uning ostida bo’lgan paytlardagi faktlarni o’rganish haqida», «Yetti iqlim hisoboti» kitoblari ham mashhurdir.

Buyuk olim aljabr fanining otasi Abu Abdulloh Muhammad al-Xorazmiy (783-850) «Al-jabr va al muqobala» (Tenglamalar va qarshilantirish), «Hisob al hind» (Hind hisob), «Kitob surat al-arz» (Yer surati haqida kitob), «Kitob at-tarix» (Tarix kitobi), «Usturolob yulduzlarining haraktini kuzatish» nomli mashhur asarlarni yaratdi. «Al-jabr va al muqobala» asari bilan matematika faniga asos soldi. Olim «Falakkiyot jadvallari», «Quyosh soatlari to’g’risida» risolalar yozdi. Xorazmiy hind hisoblari, ularning ishlatilishi, sonlarni ko’paytirish, bo’lish, qo’shish va ayirishning son yo’llarini ko’rsatdi. Uning arifmetikasi matematika va sanoq tartibi tarixida yangi bir davrni ochdi.

Sharq uyg’onish davrining vakillaridan yana biri, yirik faylasuf va olim Abu Nosir Forobiy (879-950)dir. U Sirdaryo bo’yidagi Forob qishlog’ida tug’ilgan. Forobiy ko’plab fan sohalari bilan shug’ullandi. Falsafa, psixologiya, musiqa, matematikaga oid ko’plab asarlar yaratgan. Uning ta’lim-tarbiyaga oid asarlari: «Yoshlarning aqli haqida kitob», «Ta’limning kelib chiqishi va tasnifi», «Baxt-saodatga erishuv haqida risola», «Fazilatli xulqlar» va boshqalar.

Forobiy o’z qarashlarida insonlarga doimiy ta’lim va tarbiya berish lozimligini ta’kidlagan. U o’z falsafiy qarashlarida insonparvarlik g’oyalarini ilgari suradi. O’zi madrasalarda dars beradi. O’z asarlarida fanlarning tasnifini beradi.

Forobiy asarlarida axloq tarbiyasiga alohida ahamiyat beradi. «Fozil odamlar shahri» asarida insonni barkamol bo’lishi uchun avvalo yuksak axloqli bo’lishi lozimligini o’qtiradi.

Insonga, ayniqsa, o’quv rahbarlariga xos bo’lgan asosiy sifatlarni ta’riflab beradi. Axloqni ezgu va yomon sifatlarga ajratadi. Inson doimo baxtga intilishi kerak. Allomaning inson kamolotiga oid g’oyalari hozirda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan.

Hadis ilmi rivojida al-Buxoriy va at-Termiziylarning o’rni

Hadis (arabcha –«rivoyat», «naql», «axborot yetkazish» ma’nolarini bildiradi) –islom dinida Qurg’ondan keyingi muqaddas manba bo’lib, Muhammad payg’ambar biror gapni aytgan yoki biror ishni qilishni ko’rsatgan bo’lsa, yoxud boshqalarning o’zlariga qilayotgan biror ishni ko’rib uni man etmagan bo’lsa, shu uch holatning har biri sunna hisoblanadi. Shular haqida rivoyatlar hadis deb ataladi.

Hadis ilmi bilan shug’ullanish asosan VIII asrning 2-yarmidan boshlangan. Dastlab hadislar yozilmay yod olingan, lekin uni yod bilganlar kamayib borgach, ularni yozishga zarurat tug’ilgan. Bu ishlarni boshida xalifa Umar turgan.

Hadislarda ta’lim-tarbiya, odob-axloq haqidagi fikrlar juda ko’plab uchraydi. Arablar bosqinidan so’ng Movarounnahrda machitlar barpo etildi, machitlar huzurida esa maktablar ochildi. Bu maktablarda o’g’il bolalarga Qur’oni Karimdan saboq berishga farmoyish berildi. Machit imomlari bolalarni o’qitishda maktablarda arab tili muhim fan sifatida o’qitilgan.

VIII-IX asrlar hadis ilmi uchun «oltin davr» hisoblanadi. Hadislar o’rganilib, tahlil etilib, ishonchlilari yig’ila boshlanadi. Eng nufuzli 6 ta ishonchli to’plamni yaratgan muhaddislar bizning vatandoshlarimizdir. Bular al-Buxoriy, al-Xalloj, at-Termiziy, Sulaymon Sijistoniy, an-Nasoiy, ibn Mojjalardir. Bular yaratgan 6 ta kitob «Sunnan» va «As Sahih» nomli to’plamlar bo’lib, ular ishonchli to’plamlar sifatida tan olingan.

Hadis ta’rif etishda asosan uch yo’nalish paydo bo’lgan:

1. Musnad yo’nalish, turli mavzudagi hadislar alifbo tarzida joylashtirilgan (Abdulloh ibn Muso, Imom Ahmad ibn Hanbal).
2. Sahih (ishonchli)-yo’nalish to’g’ri, ishonchli hadislar kiritilgan. Bunga Imom al-Buxoriy asos solgan.
3. Sunnan yo’nalishi to’g’ri hadislar bilan birga «zaf» hadislar ham kiritilgan (Abu Dovud, at-Termiziy, an-Nasoiy, ibn Mojjalar shu yo’nalishda hadis to’plaganlar).

Hadis ilmiy rivojida al-Buxoriy va at-Termiziylarning o’rni nihoyatda kattadir.

Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Buxoriy (810-870) hadis ilmida «Amir il-mo’minin», «Imom al-muhaddisiyn» degan sharafli nomga sazovor bo’lgan.

Balx, Basra, Bog’dod, Damashq, Misr, Makka va madina shaharlaridagi hadischilardan ta’lim oladi. 6 yil Hijozda qolib hadis ilmidan ta’lim oladi, mashhur olimlardan fiqh ilmini o’rganadi, o’zi ham talabalarga dars beradi.

Al-Buxoriyning zehni juda o’tkir bo’lgan. Uning yozishicha 100 ming sahih va 200 ming g’ayri sahih hadisni yod bilgan. U 1080 ta muhaddisdan hadis eshitgan, undan esa 90 ming kishi ishonarli hadislarni eshitgan.

Buxoriydan boy ilmiy ijodiy meros qolgan. Uning «Al-Jome’ as-sahih», «Al-adab al-mufrad», «At-Tarix al-kibor», «At-Tarix as-sarg’iyr», «Al-Qiroatu xalfal Imom», «O’rta tarix», «Katta to’plam», «Xadya kitobi» nomli asarlar qolgan. Bulardan «Al-Jome’ as-sahih» eng mashhur bo’lib, unga 600 ming hadisdan 7275 ta eng sahih hadislar kiritilgan.

Al-Buxoriy hadislaridan namunalar:

«Inson o’z ota-onasiga itoatkor va mehribon bo’lsin, deb vasiyat qilgan».

«Odam qiladirgan gunohi azimlardan biri –ota-onasini haqorat qilmoqdir».

«Birovning ota-onasini so’kkan odam o’z ota-onasini haqorat qilgan bo’lur».

«Qarindoshlariga oqibatsiz odam jannatga kirmag’aydir».

«Shirin so’z-sadaqadir».

«Badgumon bo’lmanglar, badgumonlik-yeng yolg’on so’zdir. Gap poylamanglar, tirnoq ostidan kir qidirmanglar, bir-birovlaringiz bilan baxslashmanglar. Bir-biringizma hasad qilmanglar. Aka-uka tutinib, Ollohning bandalari bo’linglar».

«Munofiqni quyidagi uch belgisiga ko’ra bilib olmoq mukin: yolg’on gapirg’ay, vadaga vafo qilmag’ay va omonatga xiyonat qilg’ay»[1].

«Bir soatgina ilm o’rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy utgan ro’zadan afzaldir».

«Yoshlikda olingan bilim toshga o’yilgan naqsh kabidir».

«Ilm ibodatdan afzaldir, taqvo dinni tutib turuvchi (ustun)dir».

Mashhur mahaddislardan yana biri Abu Iso at-Termiziy (824-892) yoshligidan hadis ilmiga qiziqadi. U 850 yildan sayohatga chiqib, Makka, Madina, Iroq, Xurosonda bo’ladi, ilmiy hadis, fiqh, qiroat, tarixni o’rganadi. Uning mashhur asarlaridan: «Al-Jome’ as-sahih» (Sunnan), «Ash-Shamoil an-Nabaviya» (Payg’ambarlarning alohida fazilatlari), «Vlilal fi-l-hadis» (hadislardagi illatlar va og’ishlar haqida).

At-Termiziyning «Sunnan» kitobida keltirilgan hadislardan namunalar:

«Alloh nazdida eng yaxshi do’st deb odamlarga doimo xayrli ishlarni qilib yuruvchi kishiga aytiladi».

«Alloh nazdida eng yaxshi qo’shni o’z qo’shnilariga yaxshilik qilguvchisidir».

«Ikki narsa borkim, ko’pchilik ularni qadriga yetmaydi: biri sog’liq, ikkinchisi –bo’sh vaqt».

«Chinakam sabr-toqatli deb musulmon kishining musibat yuz bergandagi chidamliligiga aytiladi».

«Haqiqiy mo’min deb xushxulq va ayoliga nisbatan hush muomala kishiga aytiladi».

«Qarindosh-urug’lar bilan aloqani uzgan kishi jannatga dohi bo’lmas».

«Marhum otasining do’stlari bilan doimo muloqatda bo’lib turish eng oliyjanob ishlardandir »[2].

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig» asari, uning ahamiyati

Yusuf Xos Hojib XI asrda yashab ijod etgan buyuk allomadir. Uning 73 bobdan iborat «Qutadg’u bilig» (1089-1070 yil) nomli asarida so’zlash odobi, ilm o’rganishning foydasi, olimlarning jamiyatdagi o’rni, mehmondorchilikda o’zini tutish, halollik, poklik, mehr-oqibat, adolat, do’stlik, rahm-shavqat, iymon, e’tiqod va qanoat shunindek, bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi to’g’risida qimmatli fikr-mulohazalar berilgan. Doston turkiy xalqlar adabiyotidagi ilk didaktik asardir. Undagi axloq odob, ta’lim tarbiya, ilm-hunar o’rganish, yoshlarni el yurt xizmatiga safarbar etish xususidagi pandlar hamon o’z qimmatini saqlab kelmoqda.

Adib o’z asarida tibbiyot, falakkiyot, tarix, geografiya, riyoziyot, handasa, falsafa, adabiyot, ta’lim-tarbiya, fiqhga oid fikrlarni bayon etib, faylasuf va qomusiy olim sifatida o’zini

[1]Ал-Бухорий. Щадис. Ал-Жомеъ ас-сащищ. Т., «+омуслар» бош тащририяти. 4 жилд, 1992 й, 77-141 бб.

[2]Ызбек педагогикаси антологияси. Тузувчилар: К.Щошимов, С.Очилов. Т., «Ы=итувчи». 1995 й. 91-92 бб.

namoyon etdi. U turli kasb egalarining kasb-koriga oid talablar va jamiyatning axloqiy tamoyillarini tarannum etish bilan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos uslubni yaratdi. «Qutadg'u bilig»ning mazmuniga e'tibor bersak, unda quyidagi g'oyalarni uchratamiz:

Kuntug'di nomli Elig adolat bilan hukumronlik qiladi, u o'z davlatini aql-zakovat, bilimga tayanib idora etadi. Aqlli Oyto'ldi unga vazirlik qiladi. U xastalanib, o'limi oldidan o'g'li O'g'dulmishga pand-nasihatlar qiladi. O'g'dulmish otasi o'rniga Eligning xizmatiga kiradi, o'zining aql-zakovati, bilimi, xulq-atvori bilan Eligning, xalqning e'tiborini qozonadi. Asarda Kuntug'di bilan O'g'dulmishning monologi beriladi. Eleg: otang o'lganda sen yosh bola eding, ammo o'zingdagi buncha san'at-hunarlarga qanday erishding, deganda u:

- Ey Elig, otaning olqishi o'g'ilga yetib turadi, otam menga ko'p ezgu duolar aytgan edi. Shulardan madad oldim va ular o'z kuchini ko'rsatdi, deb javob bergan edi.

Kuntug'di davlat ishlariga yordam bera oladigan kishi topishni buyurganda O'g'dulmish O'zg'urmish degan zukko, aqlli qarindoshi borligini aytadi. Elig O'zg'urmish bilan uchrashadi. Ana shu to'rt qahramonning suhbatlari, munozaralari asosida adibning g'oya va fikrlari bayon etiladi.

«Qutadg'u bilig»-«baxt saodatga eltuvchi bilim», «ta'lim» degan ma'noni bildiradi. Asarning boshidan oxirigacha komil inson tarbiyasi haqida fikrlar yuritiladi. Unda ta'kidlanishicha dastavval tarbiyaning boshi oiladan boshlanadi. Bunda ota-ona bilan bolaning munosabatlari muhim o'rin egallaydi.

Ota-onaning bola tarbiyasiga e'borsizligini adib quyidagi misralarda bayon etgan edi:

Kimning o'g'il-qizi erka bo'lsa,
Unga shu kishining o'zi mungli bo'lib yig'laydi.

Ota bolani kichikligidan bebosh qilib qo'ysa,
Bolada gunoh yo'q, barcha jafo otaning o'zidan.
O'g'il-qizning xulqi-atvori yaramas bo'lsa,
Bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi undan boshqa emas.

Ota onaga ko'rsatilgan to'g'ri yo'llardan biri bilimdonlikdir. Bilimdonlik kishini har qanday noloyiq ishlardan saqlaydi. Bilimdon inson ko'p fanlardan xabardor bo'ladi. U yer-osmon sirlarini o'rganishga qodirdir.

Donolik yo'li bilim olish, turli sohadagi ma'lumotlarni o'rganishdir. Bilimga erishib dono bo'lganlarning elga ham nafi ko'p tegadi. Tug'ilgan payti o'quvi bo'lmasa, uning tilaklari ham amalga oshmaydi.

Agar bola kichikligidan bilim o'rgansa, uning idroki ham yaxshi bo'ladi, zakovati ortadi. Lekin bilim bilan o'quv idrok bir xil narsa emas.

O'quv-idrok kishi uchun kishanday gap. U yomon va yaramas ishlarni yaqin yo'latmaydi.

Yusuf Xos Hojib inson o'z bilimi bilan ulug'ligini qayta-qayta ta'kidlaydi: «Odamzod naslining ulug'ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir. Uquv-idrok va bilim egasi bo'lgan har qanday odam sharaflidir.

Bilimni buyuk qil, uquvni ulug',
Shu ikki ulug'lar kishini to'liq.
Uquv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik olar»[1]

U yana shunday yozadi: «Uquv-idrok qorong'i tunday mash'alga o'xshaydi. Bilim esa o'sha mash'aldan taratayotgan nurga qiyos. U kishini yoritadi, unga ro'shnolik beradi.

Uquv qut beradi, bilim sharaf-shon.
Shu ikkov tufayli ulug'dir inson»[2]

[1] Юсуф Хос Щожиб. +утад\у билиг. Т., «Юлдузча», 1990 й, 11 б.

Yusuf Xos Hojib tilni bilishni muomala mansabi deb hisoblaydi. Uning nazarida faqat ikki toifa odam undan foydalana olmaydi, birinchisi tug'ma soqovlar, keyingisi esa bilimsiz kishilar. Bilimdonning so'zi oqib turgan suv kabidir.

Yusuf Xos Hojib insoni ko'p so'zlashini odobsizlik va tarbiyasizlik alomati, deb hisoblaydi.

Ortiq so'zda aslo bo'larmi foyda.
Ziyondan bo'lak yo'q so'z ortiq joyda[3]

Yusuf Xos Hojib axloq-odobga doir ta'limotni nasihatnomalari orqali bayon etgan: Mehribon kishi nima deydi, eshitgin, insonliging bosh belgisi mehribonlikdir. Kishilarning eng samimiysi mehribon kishilardir.

U insonlarni doimo mehr ko'rsatishga chaqiradi:
Yelga naf keltirgin, mungliya yara,
Qardoshga ko'ngil ber, ko'ngliga qara.
Yetim, tul, beva, ko'r, cho'loq yoki shol-
Holidan hamisha borib xabar ol[36].

Adib shunday nasihatlar beradi: zolimlik va zo'ravonlik o'rniga yaxshilik qil, qo'lingla in'om qilib, tilingla shirin so'zlab, xalqingni hunsand qil. Ey saxovatli ulus, baxil bo'lma, bu odatdan, saxovatli degan nom hyech o'lmaydi mangu qoladi. Adolat qil, qatiy bo'l, zolmga yo'l berma. Tangrining toatini qil. Sabr qilgan odam niyatiga yetadi, sabr bilan turgan kishi oqqush tutadi. Mega senga so'zlaganlarim ota vasiyatidir, sen bu so'zlarni unutma, dilingga joylab ol.

Shunday qilib Yusuf Xos Hojib atoqli olim-pedagog sifatida tarbiyadan ko'zlagan maqsadni aniq ifodalagan. Tarbiya kishini ezgulikka o'rgatmog'i kerak. Ezguning har ishi chiroyli, har bir qadami go'zal. Ezgulik aslo qarimaydi. Yomon yuzga kirsa ham ezgulik qila olmaydi. Ezgu har kuni yangidan tilak-istaklarga ergashaveradi.

Beruniyning pedagogik qarashlari

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi bo'lgan Abu Rayxon Beruniy (973-1048) ham tabiy, ham ijtimoiy fanlar rivojlanishiga yoko'p hissa qo'shgan.

Beruniyning mashhur asarlaridan: «Qadimgi xalqlardadan qolgan yodgorliklar» («Al-osorul boqiya an il qurun il holiya»); «Turar joylar orasidagi oraliqni belgilash uchun joylarning chegaralarini aniqlash» («Seodeziya»); «Hindiston»; «Qimmatbaho toshlarni aniqlash haqida to'plam» («Mineralogiya»); «Kitob as-Saydona» («Tibbiyotda borishunoslik»); «Yulduzshunoslikda boshlang'ich ta'limotlarni aniqlash»; «Qonuniy Mas'udiy» kabilardir.

Uning turli hajmdagi 150 ta asarlari hozirgi kunda aniqlangan, lekin shulardan 30 taginasi yetib kelgan. Ulug' olimning turli fanlarga doir asarlari orasida ijtimoiy ta'limotlari, dunyoqarashi ifodalangan asarlari alohida o'rin tutadi. Masalan, «Kitob –axborotil mubayyizot vilqaromita» («Oq kiyimliklar va karamatiylar xabarlari haqia kitob»), «Kitobul maqolot val-arz vad-diyonot» («Maqolalar, e'tiqodlar va dinlar haqida kitob») «Geodeziya», «Mineralogiya» nomlari bilan tarjima qilingan asarlari ham anashular jumlasidandir.

Olim «Mineralogiya» nomli asarida inson yer yuzidagi barcha mavjudotlarga qaraganda mas'uliyatliroq vazifalarni bajarishi kerakligini quyidagicha ifodalaydi: «Inson tabiatning eng oliy zoti kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi… Insonga katta sharaf ko'rsatilgan –unga aql-zakovat va kuch armug'on etilgan. Shu sababdan, insonning ma'naviy qiyofasi uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi uchun u yuksak axloqi, bilimli, ma'rifatli bo'lmog'i darkor»[1].

---

[2] Ыша жойдан. 17 б.
[3]Юсуф Хос Щожиб. +утад\у билиг. Т., «Юлдузча», 1990 й, 11 б.
[36] Ыша жойдан. 69б.

[1] О.Щасанбойев, Ж.Щомидов. Педагогика тарихи. «Ы=итувчи» 197 й. 47 б.

Beruniy o’z asarlarida ta’limning ko’rsatmali, izchil, maqsadga muvofiq bo’lishi kerakligini, shaxsning barkamolligi, kishilar o’rtasidagi ijobiy axloqiy munosabatlar va oliyjanoblik kabi yuksak fazilatlarning mohiyatini asoslab bergan;

Beruniy ilm-fanning muxlisi va buyuk xomiysi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashiga bog’liq, odamlarning baxti esa uning ma’rifatida deb bilgan. Ma’rifat dushmanlariga, yomon urf-odatlarga, adolatsizlikka qarshi bo’lgan. Inson kamoloti o’tmishdagi faylasuf-mutafakkirlar tomonidan ifodalangan bo’lsada, Beruniy uni yanada rivojlantirgan va to’g’ri asoslagan.

Beruniy tavsifi bo’yicha bolalarni quyidagi tarbiya usullari orqali komillikka erishtirish mumkin:

Olimning fikricha axloqiylik komillikning eng muhim mezonidir. Lekin bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o’zaro muloqoti, ijtimoiy muhit-jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi.

U «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida shunday yozadi: «Yaxshilik hislatlari: taqvodorlik, to’g’rilik, odillik, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, sahiylik, shirinsuhanlik, siyosat va boshqarish ishlarida bilimdonlik, tadbirkorlik. To’g’ri taxmin qila bilish va bulardan boshqa aqlga sig’maydigan, kishi bayon etib tugata olmaydigan (yaxshi) sifatlardan iboratdir»[1].

Yomon illatlarga esa hasadgo’ylik, baxillik, o’z manfaatini so’zlash, mansabparastlik kabilarni kiritadi. U insonning ma’naviy qiyofasidagi barcha axloqiy hislatlarni yaxshi va yomonga bo’ladi.

Beruniyning pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta’lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo’lgan.

Beruniyning didaktik qarashlari. Beruniy ilmni va ilm ahlini ulug’laydi, insonlarni ham shunga chaqiradi. Barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb baladi. U o’zining «Hindiston» asarida jamiyat taraqqiyotining ilmga bog’liqligini shunday tushuntiradi: «Ilmlar ko’pdir. Ular zamoni iqbolli bo’lib, turli fikr va xotiralar ularga qo’shilib borsa, ko’payadi. Odamlarni ilmga da’vat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o’sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko’payishiga sabab bo’ladi… Hukmronning ilm ahlini ko’proq maqtab, ulardan xursand bo’lish ham ilmlarning ko’payishiga sabab bo’ladi»[1].

Beruniy ilmlar insonning ehtiyojidan paydo bo’lgan deb hisoblaydi. «Ularni kishining turmushi uchun bo’lgan ehtiyojlari dunyoga keltirdi. Shunga muvofiq tarzda fan tarmoq otdi. Fanning foydasi –ular yordamida oltin va kumush to’plash emas, balki kerakli narsalar hosil

1 Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд. Т., 1968 й. 40 б.

[1] Ыша асар. 2-жилд, Т., 1965 й. 125 б**.**

qilishdir»[2] -deb yozadi u «Geodeziya» asarida va fanlarni quyidagicha ta'riflaydi: «**Musiqa** – insonga ichki ta'sir etib, yoqimli kayfiyat bag'ishlaydi: **til** –nutqning tarozisi va muomala qurolidir: **geodeziya** –harakatsiz yulduz va quyosh orqali shaharlarning joylashishini mukammal o'rgatadi; **geologiya, geografiya** va **gidrologiya** –yer haqidagi fanlardir; geometriya – jismlarning shakllarini falakiyot –koinot sirlarini, mineralogiya –javohir va la'llapni o'rgatadi; dorishunoslik –tibbiyot ilmlaridan xabardor qiladi». Beruniy fanlarni ta'riflash bilan birga ularni o'qitish usullarini ham bayon etan. O'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillikka rioya qilish; mavzularni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish.

Beruniy ilmni quyidagi uch yo'l bilan hosil bo'lishini alohida uqtirgan:

1. Har bir ilm va san'atning borib taqaladigan boshlanish joyi bor. Shuni to'g'ri boshlash zarur.
2. Ilm boshlanish joyiga yaqinlashgan sari to o'ziga borib yetguncha soddalashtirib borish.
3. Ilm o'rganish vaqt va sabrni talab etadi. Shoshilish kerak emas.

Beruniy ilm ahlini hurmat qilsagina, ilmlar yanada rivojlanib ketishini qayta-qayta uqtirgan edi. O'zi esa juda ko'p olim va podsholarga saboq ham bergan. Beruniyning tolmas zakovatidan Sulton Mas'ud ham bahra olgan, ya'ni undan falakkiyotshunoslik ilmini o'rgangan, Beruniy tahlilidagi darsliklar g'oyat tushunarli, sodda bo'lib, ilmga cheksiz muhabbat uyg'otgan.

Beruniyning pedagogik qarashlari faqat o'z zamonasida emas, hozirgi ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlari

Sharqda «Shayx ar-Rais» nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri, o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino (980-1037)dir. U qomusiy olim sifatida matematika, astronomiya, fizika, kimyo, filologiya, mantiq, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etib, dunyoga mashhur yirik asarlarni meros qilib qoldirdi.

Abu Ali ibn Sino Buxoro yaqinadagi Afshona qishlog'ida tug'ildi. Keyinroq uning otasi Buxoroga ko'chib o'tdi. Abu Ali ibn Sino o'zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug'ullana boshladi. U ayniqsa til ilmini chuqur egallab oldi, bu sohada unga Buxoroda Abu Mansur Qamariy ta'lim berdi. Ibn Sino so'ngra falsafani o'rganishga kirishdi.

X asr boshlariga kelib, ibn Sino Xorazmga –Urganchga ko'chib o'tdi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Ma'mun akademiyasi»da ilmiy ish bilan shug'ullana boshlaydi. Xorazmda o'zining yirik asarlari «Tib qonunlari», «Ash-Shifo» kitoblari ustida ish olib bordi.

Ibn Sino 450 dan ortiq ilmiy asarlar yaratgan. Jumladan: «Al-Qonun», «Xayy ibn Yaqzon», «Risolat at-tayr», «Risolat fi-ishq» («Ishq haqida risola»), «Kitob fi ma'no ziyorat» («Ziyorat qilishning ma'nosi haqida»), «Risolat fi mohiyat as-salot» («Nomozning mohiyati haqida risola»), «Risolat fi-daf al-gam min al mivt» («O'limdan keladigan gamni daf qilish haqida risola»), «Risolat al-kadr», «An-Najot», «Ash Shifo», «Donishnoma», «Kitob ash-ishorat» va at tanbixot» va boshqalar.

Ibn Sino o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etib, fanlarni tasniflaydi. Yirik falsafiy asari «Kitob-ush-shifo»da quyidagicha tasnifni uchratishimiz mumkin:

[2] Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд. Т., 1968 й. 40 б.



Kitobning tabiiy fanlar qismi 8 bobdan iborat bo'lib, bunda falsafaning asosiy qismi bo'lgan tabiatdagi hodisalarni, ya'ni osmon va olam, borliq va buzilish, ta'sir va ta'sirlanish, jon haqida, o'simliklar, hayvonlar to'g'risidagi ilmiy fikrlar asoslab berilgan.

Tavsiya qilgan ta'lim va tarbiya tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:



Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak.

Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi.

Bin Sino bilim olishga, bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalashga katta ahamiyat berib, «Tadbir ul manozil» asarining maxsus bo'limini shu masalaga bag'ishlaydi. U ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini inobatga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish. Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir.

Talabaga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir. Shunga ko'ra ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
2. Berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
3. Ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
4. Talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
5. Fanga qiziqtira olish;
6. Berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajrata bera olish;
7. Bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
8. Har bir so'zni bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga yetkazish zarur[1],deydi olim.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida to'sqinlik qiluvchi nuqsolar sifatida johillik, nodanlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi. Johillikni –ilmga, nodonlikni –zehni o'tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni-sevgi-muhammatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi.

Ibn Sino yuksak axloqiy hislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do'st bo'lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do'stona yashashga intiladi.

Ibn Sinoning yoshlarni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalash haqidagi fikrlaridan hozirgi ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish albatta ijodiy natija beradi.

Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar

Temuriylar hukmronligi davrida ta'lim-tarbiya, madaniyatimiz va ma'naviyatimiz rivojiga katta hissa qo'shildi va ular hozirda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

XIV asrning 50-yillarida Amir Temur siyosat maydoniga chiqdi. Markazlashgan yirik feodal davlat barpo etildi. Madaniyat, maorifqaytadan yuksala boshladi. Shuning uchun XIV asrning 2-yarmi va XV asr tarixida Sharq uyg'onish davrining 2-bosqichi deb ataladi.

[1] С.Ращимов. Абу али ибн Сино таълим ва тарбия ща=ида. Т., «Ы=итувчи», 1991й, 75б.

Temur Movorounnahrga boshqa o'lkalardan hunarmandlarni olib keltirdi. Samarqand va Xirotda madrasalar, kutubxonalar, rasadxonalar qurildi. Tibbiyot, riyoziyot, falakkiyot, geografiya, tarix, adabiyot, falsafa, tabiatshunoslikka oid ajoyib asarlar yaratildi.

Temurdan so'ng temuriylar davrida mamlakat Movorounnahr va Xuroson davlatiga ajralgan holda boshqarildi. Samarqand va Xirot madaniyati, ilm-fan markaziga aylandi. Shohizinda, Go'riamir, Bibixonim masjidi, Registon maydoni, qator bog'lar va boshqalar barpo etildi.

Ulug'bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya fanlari rivojlandi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va diniy bilimlarga e'tibor berildi. Buxoro, Samarqand, /ijdivonda madrasalar qurildi.

Bu davlatda adabiyot sohasida Atoiy, Sakkokiy, Haydar Horazmiy, Durbek, Lutfiylarning qimmatli asarlari yaratildi.

Samarqandda Qozizoda Rumiy, Mansur Koshiy, Xirotda Navoiy, Jomiy, Behzod, tarixchi Xondamir, xattot Sulton Ali mashhadiy va boshqalar ijodi gulladi.

Ali Qushchi astronomiyaga oid «Risola dar falakkiyot» asarini yozib, unda geometrik bilim asoslari, tibbiyot fanlari va boshqa sohalarga oid boshlang'ich bilimlarni bayon etdi.

XV asrda tarix fani rivoj topdi, Xofizu Abru «Zabdan tovara» (Tarixning qaymog'i) kitobini yozib, unda 1427 yilgacha bo'lgan voqyealarni bayon etdi. Abdurazzoq Samarqandiy buni davom ettirib «Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki dengizning qo'shilish joyi» asarida 1471 yilgacha voqyealarni bayon etdi. «Ravzatus safo» asarini yozgan Mirxond, «Habibus siyar» asarini yozgan Xondamir asarining bir qismi Sulton Husayn hukmronlik qilgan davrga bag'ishlandi.

Shu asarlarda qator ilm maskanlari: Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim Sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi kalon va boshqalar qurildi.

Xususiy maktablar yuzaga keldi, uyda muallim yo'llab o'qitish odat tusiga kirdi. Shahar qishloq, ovullarda ochilgan maktablarda o'qitish 6 yoshdan boshlandi. Bolalar maktabda alifbe o'rganib, ayrim harflarni chizishni mashq qilar edilar. O'quvchilar maktablarda savod chiqargach madrasaga kirib diniy va dunyoviy ta'limlardan bilim olardilar.

Amir Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay (1336-1405). Temur shaxsiy masalasi uziq yillar davomida man qilinganligi natijasida nafaqat Temur tarixi, bilki Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi tarixi, madaniyati deyarli o'rganilmay qolgan edi. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadi:

«Amir Temur nomi tariximiz saxifalarida qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning (ongidan) yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi»[1].Mustaqilligimizdan so'ng esa o'z milliy qadriyatlarimizni, tariximizni haqqoniy o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Yurtboshimiz Amur Temur hayoti, faoliyati, qoldirgan buyuk merosiga katta e'tibor berdi. «Istiqlol va ma'naviyat» asarida Temurning qoldirgan katta meros haqida yozadi:

«Amir Temur kim edi? U birinchi navbatda ulug' bunyodkor shaxs edi. Samarqanddagi obidalar, Shaxrisabzdagi yodgorliklarni kim qurdi? Turkistondagi Yassaviy maqbarasini kim tikladi? Kim "Kuch -adolatdadir" degan olamshumul, teran xikmatni o'z faoliyatiga asosiy tamoyil qilib oldi?»[1]. Yurtboshimiz Temur va Temuriylarning biz uchun qoldirgan meroslarini yuksak qadrladi va baholadi.

[1] И.А.Каримов. Ици=лол ва маънавият. Т., «ЫзбекистонЮ. 1994 й.

[1] И.А.Каримов. Тарихий хотирасиз келажак ё`=. Т., «Шар=». 1998 й. 16 б

Temurning qanchalik buyuk zot bo'lganligini uning nomiga qo'shilgan unvonlardan ham ko'rish mumkin. Uning ismiga Ko'ragon (xon kuyovi yoki ko'rkam, toza urug'dan), «Sohibqiron» (yulduz burjlarining baxtli kelishi (kiron)da tug'ilgan farzan) (Iskandar, Muhammad payg'ambar , Temur), «Qutbiddin» (zamona peshvosi), «Abulmansur» (zafarmand, g'alaba qozonuvchi) kabi unvonlar qo'shilib ulug'langan.

Temur din arboblari, olimlarni, ilmni va ilm ahlini xurmatlovchi shaxs bo'lgan. Temur tuzuklarida shunday yoziladi:

«Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqalar qurishni buyurdim.

Musulmonlarga diniy masalalarda ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tavsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va madarrislar tayin qildim»[2].

Amir Temur odob, axloq iymon-ye'tiqod, tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan insonlardan bo'lgan. bunga ishonch hosil qilish uchun sohibqiron haqidagi asarlar, uning o'zi yaratgan tuzuklar va o'gitlarni ko'rish kifoya.

Temur o'gutlarini mohiyat va mazmuniga qarab uyiga guruhlarga ajratish mumkin: a) din va shariat, b) davlat va uni idora etish, v) kengash o'tkazish, g) podsho va vazirlar. Uning odob-axloqqa oid o'gitlarini quyidagicha guruhlashtirish mumkin.

- adolat va adolatsizlik;
- do'st va dushmanlik;
- muomala va shirinsuhanlik;
- so'z va ishning birligi;
- botirlik va qo'rqoqlik.

Amir Temurning o'gitlari odob-axloq borasida dastur to'la oladi. Buning katta tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan pedagogika deyish mumkin.

Mirzo Ulug'bek va Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik g'oyalari

Mirzo Ulug'bek (1394-1449) O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan, millat pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan buyuk siymolardan biridir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov Ulug'bek zimmasiga tushgan vazifa haqida yozgan edi: «Taqdir bu zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalarni yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo'lishdek mislsiz sinov aynan unga nasib etdi»[3].

1411 yili 17 yoshli Ulug'bek Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib belgilanadi. Uning tashabbusi bilan o'lkada ilm-fan, ayniqsa falakkiyot ilmi yuksala bordi. U riyoziyot fanini mukammal egallagan va ungacha hyech kim unchalik tez va aniq hisoblay olmagan.

U davlatning madaniy markazlaridan Buxoro (1417), Samarqand (1420) keyinchalik /ijdivonda (1433) madrasalar qurdirdi. Bu madrasalarda mashhur olimlar, ilohiyot ilmlaridan tashqari riyoziyot, xandasa, astronomiya, tibbiyot, tarix, geografiya, ilmi aruzdan dars berishgan.

Madrasalarda mashhur, bilimli kishilar mudarrislik qildi. Yirik olimlardan Qozizoda Rumiy, /iyosiddin Jamshid ibn Mas'ud, Mansur Koshiy, Muhammad Birjoniy, Ali Qushchi kabilar faoliyat ko'rsatdi. Madrasada Ulug'bekning o'zi ham astronomiyadan ma'ruzalar o'qigan.

[2] Темур тузуклари. Б.Ащмедов тащрири. Т. 1991 й., 58 б.
[3] И.А.Каримов. Исти=лол ва маънавият. Т., «Ызбекистон». 1994 й.

Madrasa qurdirganidan 4 yil o’tgach, Obiraxmat soyining bo’yida rasadxona qurdiradi. Uning qurilishiga 5 yil ketadi. Kutubxona ochib, mashhur asarlarni yig’adi.

Madrasa bilan rasadxona o’rtasida mustahkam aloqa bor edi. Rasadxonada ishlaganlarning bir qismi madrasada mudarrislik ham qilishgan. Bu esa riyoziyot va yulduz ilmini yuksaklikka ko’tardi.

Ulug’bekning «Ziji Ulug’bek» asari juda mashhurdir. Yana riyoziyotga oid «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», yulduzlarga bag’ishlangan «Risolai Ulug’bek» va tarixga oid «Tarixi arba’ ulus» asarlari bor.

Ulug’bek yoshlar ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor beradi. madrasalarda o’qitish tizimini jonlantiradi. O’qish muddati 15-20 yildan 8 yilga tushuriladi. O’quvchilar bilan rasadxonada amaliy mashg’ulotlar o’tkazishni joriy etadi.

Ulug’bek o’qituvchi – mudarrisga katta talablar qo’yadi. Mudarrislar avvalambor, o’zini tarbiyalamog’i, bilim va malakalarni egallamog’i, o’z ustida tinmay ishlashi, darslarni yuqori saviyada o’tishga ahamiyat berish kerak. U ta’limda darsliklarning o’rnini muhim deb biladi. Shuning uchun darslik mazmuniga katta e’tibor beradi va mualliflar oldiga jiddiy talablar qo’yadi. Darslik hayot haqiqatidan uzoq bo’lmasligi, sodda, tushunarli tilda yozilishi lozim.

Ulug’bek ta’limga matematika, falakkiyot, adabiyot, tarix fanlariga katta ahamiyat beradi.

U o’z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog’lom, xarbiy hunar egallagan, jasur, mard bo’lib yetishishlariga alohida e’tibor beradi. U do’stlik va birodarlikni ulug’laydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) –o’zbek xalqining ilm va madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo’shgan mutafakkir olim, tarixchi, qonunshunos va lirik shoirdir.

Bobur ilm-fan, san’at, madaniyat va ularning sohalari bilan yaqindan tanishgan, uning ijodini asosan lirik she’rlar va adabiy-tarixiy asarlar tashkil qiladi.

«Boburnoma» qomusiy xarakterdagi asar bo’lib, unga tarix, geografiya, botanika va boshqa fan sohalariga oid ma’lumotlar berilgan.

Bobur musulmonchilik qoidalari va qonunshunoslikka bag’ishlangan «Mubayyin», arab alfavitining islohiga oid «Xatti Boburiy», aruz vazni va qofiyaga oid «Mufassal», musiqa va harbiy san’t haqidagi asarlar yaratgan.



Adib fan va ma’rifatni yuqori darajdada qadrlaydi. Ilm, adabiyot san’at ahillari bilan yaqin aloqada bo’ladi, ularga homiylik qiladi.

Ilm va bilimdonlikni ulug’laydi. U kamtarlik, o’zini tuta bilish, ezgulik, vafodorlik, boshqalarga yaxshilik qilish sifatlarini ulug’lash, yovuzlik, zulm, qabixlikni qoralaydi. Boburning pedagogik qarashlaridagi bosh masala Vatanga cheksiz muhammatdir.

«Boburnoma»da o’zbek, tojik, afg’on, hind va boshqa xalqlarning kasb-kori, urf-odati, madaniyati, dini, adabiyoti, turmush tarzi haqida keng ma’lumotlar beriladi.

Alisher Navoiyning ta’lim-tarbiya to’g’risidagi qarashlari va ularning ahamiyati

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) fan va san’atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, hattotlik, tasviriy san’at, me’morchilik rivojlanish bilan birga ta’lim-tarbiya takomillashishiga katta e’tibor beradi. U o’zining «Hamsa», «Mahbub ul qulub» kabi ta’limiy axloqiy asarlarida, shuningdek «Munojat», «Vaqfiya», «Majolisun nafois», «Muhokamatul ul-lug’atayn», «Qirq hadis» asarlarida tarbiyaga oid qarashlarini ifoda etadi.

Uning pedagogik qarashlari insonparvarlik g’oyasi bilan sug’orilgandir. U xalq baxtini orzu qiladi, xalq manfaatini o’z manfaatidan ustun qo’yadi:

Yuz jafo qilsa menga bir qatla faryod aylamam,

Yelga qilsa bir jafo yuz qatla faryod aylaram.

yoki

Odami ersang demagil odami

Onikim yo’q xalq g’amidin g’ami.

Alisher Navoiy inson kamolotida ilmning o’rnini muhim deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlik, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta’riflaydi. Ilm olishni insoniy burch deb biladi. U ilmda barcha fanlarni o’rganishni targ’ib etadi.

Navoiy ilm-fanni yuksaltirish uchun Ixlosiya madrasasini tashkil etdi, uning yonidan maktab ochib, o’z vakfidan mablag’ ajratdi. Madrasada qattiq intizomga amal qilinishini nazorat qildi.

Adib ustoz-murabbiylarga ham katta talablar qo’yadi, ularni avvalo o’zlari bilimli va tarbiyali bo’lishlari lozim deydi. Shu bilan birga ustozlarning mehnatini juda qadrlaydi:

Haq yo’linda kim senga bir harf o’qitmish ranj ila,

Aylamak bo’lmas ado oning haqin yuz ganj ila[1].

Shoirning «Hamsa»siga kirgan «Xayratul abror» dostoni va «Mahbubul qulub» asarlari axloqiy didaktik asarlaridan hisoblanadi.

«Hayratul abror» muqaddima qismiga oid bir necha boblardan tashqari 20 maqolat, har bir maqolatga oid 20 she’riy hikoyadan tashkil topgan bo’lib, maqolatning har birida Navoiy o’z davri uchun zarur bo’lgan biror ijtimoiy siyosiy yoki ixloqiy masalani qo’yadi, uni o’z davridagi hayotdan, ijtimoiy tabaqalarning ahvolidan kelib chiqish va atroflicha tahlil qiladi va unga insoniy munosabat bildiradi. «Hayratul abror»dagi masalalarni 3 turkumga ajratish mumkin:

[1] Алишер Навоий. Мащбуб ул =улуб. Т., /./улом номидаги «Адабиёт ва санъат» нашриёти. 1983 й. 98 б.

1. Falsafiy masalalar.
2. Ijtimoiy-siyosiy masalar.
3. Axloqiy-ta’limiy masalalar.

Asarning 5-maqolati insoniy fazilatlardan biri –saxiylikka bag’ishlanadi, saxiylik qoidalarini ko’rsatib beradi. U saxiy insonni shunday ta’riflaydi: «Yey xushyor odam, sen shunday odamni saxiy deb bilki, baxt-davlat uning boshini yuqori ko’tarib, ahvoli yaxshi bo’lsa ham, yomon bo’lsa ham birovdan molu amal tama’ qilmasa…u qo’lida bor narsa bilan qo’li qisqa odamni xursand qiladi…birovning yarasini ko’rsa malhamini ayamaydi»[2].

6-maqolat tarbiyaga bag’ishlanadi. Bolaga dastlab yaxshi ism qo’yish, so’ngra yaxshi muallimga berish, yashi tarbiya berishni maslahat beradi. bolalarni esa ota-onani hurmat etishga chaqiradi:[3]

Boshni fido ayla ato qoshiga,

Jismni qil sadqa ano boshiga.

Ikki jahoningga tilarsen fazo,

Hosil et ushbu ikkisidan rizo.

Tun-kuningga aylagali nur fosh,

Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Navoiyning «Mahbub ul qulub» asari asosida insonparvarlik, xalqparvarlik g’oyasi yotadi. U inson haqida qayg’uradi, uning dardini chekadi. Insoniylikka yarashiqli fazilatlarni madh etadi, unga zid bo’lgan illatlarni nafratlaydi. Asar uch qismdan iborat:



1-qismda feodal jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatda tutgan o’rni va vazifasi haqida so’z yuritiladi. Dehqonlar va ularning mehnati ulug’lanadi.

2-qismda odob va axloqqa oid masalalar yoritiladi. Odabli insonlar ulug’lanishi, hurmatli bo’lishi ko’rsatiladi.

3-qismda saxiylik, oliyjanoblik, muruvvat, karam, vafo, muloyimlik kabi insoniy xislatlar tahlil etiladi. Qator maqollar keltiriladi: «Tilga ixtiyotsiz –yelga e’tiborsiz», «Bilmaganni so’rab o’rgangan olim, orlanib so’ramagan o’ziga zolim», «Oz-oz o’rganib dono bo’lur, qatra-qatra yig’ilib daryo bo’lur».

[2] Алишер Навоий. Щайратул аброр. Т., /./улом номидаги «Адабиёт ва санъат» нашриёти. 1989 й. 256 б.
[3] O`sha asardan. 76.

Navoiy ilmni va ilm ahllarini ulug'laydi. Mamlakat obodonligini ta'minlashda xalq ahvolini yengillashtirishdi ilm ahliga katta umid bog'laydi.

Navoiyning ta'lim-tarbiya haqidagi o'gitlari, uning ma'rifatparvarlik g'oyalarining uzviy qismini tashkil iladi. U butun umri davomida ilm-ma'rifatni targ'ib qiladi. Navoiy merosini chuqur o'rganish undan ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish hozirgi kunimizning muhim talablaridan biridir.

Jadidchilik harakati namoyondalarining Turkiston maorifi rivojiga qo'shgan hissalari

XIX asrning oxiriga kelib O'rta osiyo xalqlari chor hukumatining zulmidan og'ir ahvolda qolgan edi. Chor hukumati O'rta osiyoda feodal-patriarxal tuzimini saqlab qolib, xalqni qashshoqlikda, o'ziga bo'ysungan holda saqlab qolishga harakat qiladi. U mahalliy xalqning maorifi, adabiyoti, ozodlik va erkinlik g'oyalarini ilgari surish vositalarini rivojlantirishiga to'siqlik qiladigan choralarni ko'rdi.

Xalqning ma'rifiy qashshoqligi, mavjud maktablarning inqirozi, madaniy ortga ketish – bularning hammasi endi chidab bo'lmaydigan hayot tarzi bo'lib qolgan edi. Shuning uchun mamlakatdagi ilg'or, taraqqiyotparvar kuchlar birlashib, islohat, o'zgarishlar qilishga kirishdilar. Ular avvalo maktab, maorifni, keyin esa ijtimoiy turmushni isloh qilish g'oyalarini ilgari surdilar. Ularni jadidlar deb atay boshladilar, chunki jadid «yangi», yangilik tarafdori ma'nosini anglatuvchi so'zdir. Jadidchilik oqimi XIX asrning 90-yillarida maydonga keldi.

Jadidlar o'rta asr o'qitish usuliga asoslangan ta'limga qarshi qilib, yangi usulda o'qitishni, qator dunyoviy fanlarni o'quv jarayoniga kiritishni talab qildilar.

Jadidchilikning asoschisi ma'rifatparvar Ismoilbek Gaspirali hisoblanadi. U o'qitishning yangi usuliga asos soldi. 1884 yili 12 bolani «usuli jadid»da o'qita boshladi. Bolalar 40 kun ichida savodini chiqarishadi. Ular uchun «Xo'jai sibyon» («Bolalar muallimi») darsligini yaratdi. 1883 yildan «Tarjimon» gazetasini chiqara boshladi.

Gaspiralining g'oyalari ta'sirida O'rta Osiyoda ko'plab jadid ma'rifatparvarlari yetishib chiqdi.

Jadidlar xalqqa ma'rifat va madaniyat tarqatishga harakat qildilar. Buning uchun maktab va madrasalarni isloh qilish g'oyalarini targ'ib etdilar. Yangi usuldagi maktablar ochib, gazeta, jurnallar chiqardilar, teatr, kutubxonalar tashkil etidilar.

Jadidlar «Taraqqiy», «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Oyna», «Buxoroi Sharif» kabi gazeta jurnallar, o'z hisoblaridan darslik, o'quv qo'llanmalari nashr qildirdilar. Ko'plab teatr truppalari tashkil topdi. Dramaturgiya maydonga keldi. Publisistika rivojlandi.

Jadilar maktab va madrasalarda diniy va dunyoviy ilmlarni birga qo'shib olib borishga harakat qilishdi.

Jadidlarning yirik vakillaridan biri Maxmudxo'ja Behbudiydir. U Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Adabiyot, tarix, seografiya, islom tarixi sohalari bilan shug'ullandi va yangi usul maktablarining tashkilotchisi sifatida tan olindi. Abduqodir Shakuriy ochgan maktabga homiylik qildi. O'zbek fa tojik tillarida «Bolalar kitobi», «Islomning qisqacha tarixi», «Aholi geografiyasiga kirish», «Rossiyaning qisqacha geografiyasi» kabi kitoblar yaratdi. «Behbudiy» nashriyotiri tashkil etib, unda darsliklar, xaritalar bosib chiqdi. Kutubxonalar ochdi.

Dramaturgiya sohasi bilan shug'ullanib «Padarkush» dramasini yozdi. Bunda ilmsizlik, nodonlikni tanqid qildi. «Samarqand» gazetasi, «Oyna» jurnalini chiqardi. Jadid

ma’rifatparvarlaridan Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy, Ishoqxon Ibrat, Saidrasul Aziziy, Siddiqiy Ajziy, Abdurauf Fitrat va boshqalar ham Turkiston maorifi yuksalishi yo’lida faoliyat olib bordilar. Maktablar ochdilar, darsliklar yaratdilar, gazeta-jurnallar tashkil etib, ularda ilm-ma’rifatni targ’ib qildilar.

Muhammad Qori Abdurashidxonov (1872-1931) Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug’ilgan. Onasi otin oyi edi. Oiladagi ilmga chanqoqlik muhiti o’z ta’sirini ko’rsatdi.

Abdurashidxonov 1901 yili birinchi jadid maktabini ochishga muvaffat bo’ldi. Yangi maktablar uchun tovush usulida «Adibi avval»(1907), «Adibi soniy» darsliklarini yozdi. 1906 yili Ismoil Obid muharrirligida «Taraqqiy» gazetasini tashkil qildi. Darsliklari qayta-qayta nashr yuzini ko’rdi.

Abdurauf Abdurahim o’g’li Fitrat (1886-1938) Buxoroda tug’ilgan. Dastlab maktabda, so’ngra Mirarab madrasasida o’qidi. U adabiyot, tarix, falsafani chuqur o’rgandi. 1909 yili «Jamiyat xayriya» ko’magida Turkiyaga o’qitishga borib, 4 yil davomida ilm-fan cho’qqilarini egallashga erishdi. U yerda «Munozara» va «Hind sayyohi qissasi» asarlarini yozdi. Bunda Buxorodagi o’quv-o’qituv ishlari, ularni tubdan o’zgartirish masalalariga e’tibor berilgan. «Rahbari najot» (1913), «Oila» (1916) asarlari. «O’quv» (1917) darsligini yozdi. 1922-23 yillarda Buxoro xalq maorifi noziri bo’lib, chet ellarga o’qishga talaba va o’quvchilar yuborishga rahbarlik qildi. 1923-24 yillarda Moskva va Leningrad (Peterburg)da yashab ijod qildi, professor unvonini oldi. Keyin qator oliy o’quv yurtlari, tadqiqot institutlari pedagogik va ilmiy faoliyat bilan shug’ullandi.

Abdulla Avloniyning ma’rifiy-axloqiy qarashlari

Abdulla Avloniy (1878-1934) Toshkentda hunarmand oilasida dunyoga keldi. Maktabda, so’ngra Abdumalikboy madrasasida o’qidi. Yoshligidan she’rlar yozdi. 1904 yili Mirobodda yangi usuldagi maktab ochdi. 1907 yili uning muharrirligida «Shahrat» gazetasi chiqa boshladi. 1909 yili «Jamiyati xayriya» tashkil qilib, bolalar o’qishi uchun sarmoyadorlik orqali maktablarga tarqatdi. Mavloniy maktabining dovrug’i keng tarqaldi, chor hukumati talabi bilan o’lka mamuriyati maktabni 1908 yil yopdi.

Shundan so’ng, 1909 yili Avloniy Degrez mahallasida maktab ochdi. Darsliklar yozishga kirishdi. 1909-1917 yillarda uning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guluston yohud axloq», «Maktab gulustoni», «Adabiyot yohud milliy she’rlar» to’plamlari nashr etildi. 1917 yildan so’ng ham turli o’rta maxsus va oliy o’quv yurtlarida pedagogik faoliyat bilan shug’ullandi. «Mehnat qahramoni» unvoni, «O’zbekiston xalq maorifi zarbdori» nomiga sazovor bo’ldi.

Uning «Birinchi muallim»ini alifbe, «Ikkinchi muallim»ini –astomatiya deb shartli ravishda atash mumkin. Kitoblarda tarbiyaga alohida e’tibor qaratilgan. «Birinchi muallim»ga «Maktab», «Baxtli va baxtsiz bola», «Yaxshilik yerda qolmas», «Qanoat», «Ittifoq» kabi hikoya va she’rlar kirgan, ularni oxirida tarbiyaviy ahamiyatga molik mushohada yuritilgan. Darsliklarga xalq og’zaki ijodi namunalari, zamon ruhi bilan sug’rilgan va o’quvchilarga moslashtirilgan hikoya, rivoyatlar kiritilgan.

«Ikkinchi mualim»ga «Saxiylik», «Baxtlilik», «Aqlli bola», «Kampir ila cho’l yalpizi», «Tama’ bolasi» kabi hikoyalar kiritilib, ularda xushfe’llik, aql va donishmandik sharaflanadi, qo’pollik, badnafslik baxillik havga olingan.

1913 yilda yozilgan «Turkiy guluston yoxud axloq» axloqiy va ta’lim-tariyaviy asar bo’lib, unda «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm axloq» haqida fikr yuritiladi.

Avloniy bola kamolotida tarbiyaning roli juda kattaligini tushunadi va tarbiya «yo hayot, yo mamot, masalasi» deb biladi. Bu fikrga yurtboshimiz ham alohida munosabat bildirganlar:

«Men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat –yo falokat masalasida degan fikrini ko'p mushohada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir»[1].

Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guluston yoxud axloq» asarida barakamol insonning axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor beridi.

Axloq «Insonni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xullarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladigan kitobni axloq deydilar. Axloq ilmini o'qib, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganini bilur. Kishi o'zidan xabardor bo'lmasa ilmni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas»[2].

Abdulla Avloniy axloqiy fazilatlarni ikki turga bo'lgan edi, yaxshi xulqlar: mehr-shavqat, muhabbat, sadoqat, oliyjanoblik, iffat, hayo, do'tlik, mehribonlik, sabr-qanoat, saxiylik. Yomon xulqlar: g'azab, buzuqlik, safoxat, yalqovlik, xasislik, ta'magirlik kabilardir.

Abdulla Avloniy axloqiy tarbiyaning bosh masalasi insonning Vatanga muhabbatidir deb hisobladi va har bir yosh qalbida Vatanida yashashga, uning baxtidan quvonishga, shodligiga sherik bo'lishga o'rgatmoq va uni e'tiqodiga aylantirmoq lozimligini ta'kidladi. Vatanni sevgan xaqini ardoqlaydi, chunki «Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan hayot ko'zgusi-til va adabiyotdir», deb milliy til va adabiyotni o'rganishga alohida e'tibor berdi.

Abdulla Avloniy bolalarning aqliy talimiga ham alohida e'tibor beradi: fikrlash iqtidorini egallash oliyjanob g'oyalar tomon intilishdir, degan edi. Abdulla Avloniy bolalar fikrining «quvvati, ziynat kengligi» jihatdan muallimlarni «diqqatlarga suyangan, vijdonlariga yuklangan» vazifalardir deydi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guluston yoxud axloq» asari har bir xonadonga qut-baraka keltiruvchi, insonlarni yaxshi yo'lga boshlovchi asardir.

Hozirgi bosqichda jahon rivojlangan mamlakatlarida ta'lim-tarbiya

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ta'lim sohasini isloh qilish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda «rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash»[1]ga alohida e'tibor qaratilmoqda.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida» ta'limimiz tizimi va mazmuni xalqaro standartlar talablariga javob beradigan holda tashkil tilishi talab etiladi. Bu qonun hujjatlarida ta'lim-tarbiya sohasida xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish choralari belgilab berildi. Yurtboshimiz o'z nutqlari va chiqishlarida ham bunga oid qator ko'rsatmalar berdi. Masalan, Oliy Majlis IX sessiyasida: «Oliy o'quv yurtini isloh qilayotganda ularning boshqa davlatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan aloqasini mustahkamlash zarur. O'z

[1] И.А.Каримов. Жамиятимиз мафкураси хал=ни-хал=, миллатни-миллат =илишга хизмат етсин. Баркамол авлод орзуси. Т., «Шар=» 1999 й. 39-40 б.

[2] Абдулла Авлоний. Туркий гулуцон ёхуд ахло=. Т. 1994 й.

[1] Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Баркамол авлод –Ызбекистон тара==иётининг пойдевори. Т., «Шар=» 1998 й., 39 б.

domlalarimiz bilan cheklanib qolmay, chetdan ham domlalar chaqirishni yo'lga qo'yishimiz kerak»[2],-deb ta'kidladi.

Shunday ta'lim sohasidagi xalqaro aloqalar kuchayib borayotgan bir paytda bo'lg'usi o'qituvchilar va umuman barcha ta'lim xodimlari ham jahon pedagogikasini, ayniqsa rivojlangan davlatlar ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlarini bilishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamalakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Ularda o'quv dasturlarini takomillashtirish va qayta qurishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi paytda o'quv dasturlariga integrasiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshiriladi. Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor ortib bormoqda. Ular uchun o'quv dasturlari o'ziga xos uslubda tuzilgan.

Amirika Qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimining quyidagicha:

- 3-5yoshgacha bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalari;
- 1-8 sinflar uchun boshlang'ich maktablar (6-13 yoshda o'qiydilar);
- 9-12 sinflar uchun o'rta maktablar (14-17 yoshlilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat;
- oliy ta'lim, bu 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlar hamda universitetlarda amalga oshiriladi;
- universitet va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktarantura[1].

AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. O'quv yurtlari davlat, jamoa, xususiy va va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lish mumkin. O'quv yili 180 kun, dars 45-50 minut. O'quvchilar ta'tilda ishlaydilar.

AQShda ta'lim tizimiga eng ko'p mablag' ajratiladi. Bolalarning 95-99 %i boshlang'ich o'rta ta'limga jalb qilingan.

Bu yerda 3 yoshgacha bolali ayollarga moddiy imtiyozlar berilmaydi. 3-5 yoshda xususiy yoki davlat bog'chalariga boriladi.

Oliy ta'lim 4 bosqichda amalga oshiriladi: kichik mutaxassis, bakalavr, magistr, doktor. Birinchi bosqichni mamlakatimizdagi o'rta maxsus o'quv yurtlariga tenglashtirish mumkin. Bu 2 yillik kollej, keyin II bosqich 4 yillik kollej va universitetlardir. Buni bitirganlar 1-darajali bakalavr bo'ladi. III-bosqich-magistr maktabi, o'qish 1-2 yil, IVbosqich-doktorantura, o'qish 3-4 yil.

AQShda ko'plab chet ellik talabalar ham o'qiydi. (350 mingdan ortiq).

Rivojlangan mamalakatlardan biri Yaponiyadagi ta'lim sohasiga qisqacha shart beradigan bo'lsak, quyidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin. 1947 yil «Ta'lim haqida qonun» qabul qilingan. Yaponiya ta'lim tizimi tuzilishi: -bolalar bog'chalari, -boshlang'ich maktab, -kichik o'rta maktab, -yuqori o'rta maktab, -oliy ta'lim tizimiga kiruvchi o'quv yurtlari.

Bolalar bog'chalariga 3-5 yoshlilar qabul qilinadi. Ularning 59,9 % xususiy, 49,8 %i tuman kengashlari, 0,3 %i davlat tasarrufidadir[2]. Majburiy ta'limga 6-15 yoshlilar jalb etiladi. 6 yillik boshlang'ich va 3 yillik kichik o'rta maktabda o'qiydilar, 9 yillik bu ta'lim majburiydir. O'qish va darsliklar tekin. Xohlovchilar xususiy maktablarda tahsil olishlari mumkin.

---

[2] Баркамол авлод –Ызбекистон тара==иётининг пойдевори. Т., «Шар=» 1998 й., 12 б.Туркий гулустон ёхуд ахло=. Т. 1994 й.

[1] Ж./.Ё`лдошев. Хорижда таълим. Т., «Шар=» 1995 й, 15 б.

[2] Ыша жойдан. 29 б.

Yuqori bosqich o’rta maktabning kunduzgi, kichki, sirtqi bo’limlari bor. 95 % bola kunduzi ta’lim oladi. O’qish ixtiyoriy 3 yillik. Oliy ta’lim tizimiga kollejlar universitetlar kiradi. Bulardan tashqari turli «ixtisos maktablari» ham bor.

Yaponiya maktablarida o’qish 1 apreldan boshlanib, keyingi yil 31 martda nihoyasiga yetadi. O’quv yili 240 kun, darslar 7 soat. O’qituvchilar 4 yillik dorulfunun va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bolalarning axloqiy tarbiyasi doimo e’tiborda bo’ladi.

Yaponiyada 460 ta universitet bo’lib, ularda 1 mln 43 ming talaba tahsil oladi.

Oliy ma’lumotli mutaxassislar soni jihatidan Yaponiya 2-o’rinda turadi. Ming ishchiga 190 ta oliy ma’lumotli mutaxassis to’g’ri keladi. Bu AQShda ming kishiga 294, Buyuk Britaniyada 138, Fransiyada 115 nafardir.

Taraqqiy etgan mamalakatlardan biri bo’lgan Fransiya ta’lim tizimi boy va qadimiy tarixga ega. Hozirda amal qilayotgan qonun 1989 yil qabul qilingan. Davlat, xususiy va oraliq, maktablar bor. Xaftalik soat 26 soat, dars 60 minut, sinfda 35-40 o’quvchi bo’ladi□.

Maktabgacha tarbiya- 6-11 yoshli bolalar jalb etiladi. Bu maktab majburiy va bepuldir. O’qish 5 yil va 3 bosqichga bo’linadi. Dasturlarda o’quv predmetlarining barchasiga 3 bosqich bo’yicha aniq, alohida-alohida talablar qo’yilgan.

O’rta ta’lim 11 yoshdan boshlanib, kollej va litseylarda davom etadi. Ikki bosqichda beriladi.

1-bosqich (11-15 yosh) 4 yil bo’lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5-4 o’rta, 3-sinf katta sinf xisoblanishi 6-5 sinflarda umumiy o’rta ta’lim beriladi: 4-3 sinflarda o’quvchilar qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi.

2-bosqich 15-18 yosh, o’qish 3 yil davom etadi. 3-sinf kichik, 4-sinf o’rta va yakkalanuvchi sinflarga bo’linadi.

Oliy ta’lim Frantsiyada universitetlar va turli oliy maktablarga beriladi. Universitetlar 3 siklda bilim beradi.

IV-Bo’lim yuzasidan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi qonuni. T., 1997 y.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997 y.
3. Karimov I.A. «Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori». T., 1997 y
4. Karimov I.A. «Ma’naviy yuksalish yo’lida» T., «O’zbekiston» 1998 y.
5. Karimov I.A. «O’zbekiston XXI asrga intilmoqda» T., «O’zbekiston» 1999 y.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» 1998 yil. 2-son.
7. Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy siyosatining ustivor yo’nalishlari. -T., «O’zbekiston» 1993 y.
8. Karimov I.A. O’zbekiston bozor munosabatlariga o’tishining o’ziga xos usuli. T., «O’zbekiston», 1993 y.
9. Abdulla Avloniy. Turkiy guluston yoxud axloq. T., 1994 y.
10. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., 2000 y.
11. Mahkamov U. Axloq odob saboqlari. -T., 1994 y.
12. Pedagogika. Munavvarov A. tahriri ostida. T., 1996 y
13. Roziqov O.R. va boshqalar. Didaktika. T. «Fan» 1997 y.
14. O’zbek pedagogikasi antologiyasi № 2. T. «O’zbekiston» 1995 y.
15. O’zbek pedagogikasi antologiyasi № 2. T. «O’zbekiston» 1999 y.
16. Pedagogika nazariyasi va tarixidan ma’ruzalar kitobi. Navoiy 2001-2002 y. 1-2 kitob.
17. /aybullayev N. Va boshqalar. Pedagogika ma’ruzalari matni. T. 2000 y.
18. Tursunov I. Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. T. «O’qituvchi», T. 2000 y.
19. /oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. T.1990 y.
20. Yusupov E.Ma’naviyat asoslari. T. 1998 y.
21. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. «O’zbekiston» 1997 y.
22. Umumiy o’rta ta’lim davlat standartlari. Turli sohalar bo’yicha. T. 1999 y.
23. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. №. 1. T. «Qomusnoma» bosh tahririyati. 2000 y.

V – BO’LIM. PEDAGOGIK MAHORAT

Hozirgi kunda o’qituvchi – murabbiy shaxsiga qo’yilgan talablar

«Ta’lim to’g’risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan maqsad va vazifalarning amalga oshirish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh qilish va har tomonlama komil insonni tarbiyalab yetishtirish avvalambor, o’qituvchi zimmasiga yuklatilgandir. Xalqimizning kelajashi, mustaqil O’zbekistonnning istiqboli ko’p jihatdan o’qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni o’qitish va tarbiyalash ishiga bo’lgan munosabatiga bog’liq.

O’qituvchilik sharafli, lekin juda mas’uliyatli va murakkab kasbdir. Yaxshi o’qituvchi bo’lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o’zigina etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o’qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan usuliy g’oyalar bayon etiladi. O’quvchilarning yosh individual xususiyatlarini e’tiborga olish ta’kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o’qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorganlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Hozirga kunda yuqoridagilarni hisobga olib o’qituvchiga qator talablar qo’yiladi, umumiy ta’lim maktabida ishlaydigan o’qituvchi:

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarini mukammal egalagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma’naviy barkamol;
- O’zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvar e’tiqodli fuqaro;
- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek, nazariy bilimlarni mukammal egallagan;
- o’qituvchilik kasbini va bolarani yaxshi ko’radigan, har bir o’quvchisi ulg’ayib yaxshi odam bo’lishiga chin ko’ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida kamol topishiga ko’maklashadigan;
- erkin va ijodik fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo’lmog’i lozim.

O’qituvchilik ixtisosiga xos bu xususiyatlar professogrammada o’z ifodasini topadi.

O’qituvchi shaxsining xususiyatlari g’oyaviy sohada quyidagilardan iborat:

- ilmiy dunyoqarash va e’tiqod;
- ijtimoiy extiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish;
- ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash;
- ijtimoiy-siyosiy faollik.

Pedagogik kasbi sohasida: bolalarni va kasbni sevish, kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasuvvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, maqsadga intilish, vazminlik, o’zini tuta bilish, kasbiy layoqatlilik.

Bilish sohasida esa o’qituvchidan keng ilmiy saviya, ma’naviy extiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikka intilish talab etiladi.

I.P.Podlasiy pedagog kasbiy imkoniyatining tuzilishi quyidagilardan iborat deb hisoblaydi (1-chizma)[1]

[1] И.П.Подласий. Педагогика. Новый курс. Книга 1. М., «Владос», стр.255.

1-chizma

Pedagogik qobiliyat va uning turlari

Qobiliyatlar – odamning shunday psixolik xususiyatlaridirki, bilim, malaka, ko'nikma orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi, lekin bu xususityalarning o'zi bu bilim, malaka va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Qobiliyatlar bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashda namoyon bo'lsa ham ular bilim, ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydilar. Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namayog bo'ladi.

Demak, «qobiliyatlar shaxsning faoliyatini muvoffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallash dinimikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatidir»[2].

Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichiga iste'dod deb ataladi.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi pedagogik mahoratga erishish uchun o'qituvchida quyidagi qobiliyatlar turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab etishtirmoqi lozim:

[2] Умумий психология. А.В.Птровский тахрири остида. Т., «Ы=итувчи», 1994 й, 451 б.

Педагогик =обилият ва унинг турлари

Билиш =обилияти

Тушунтира олиш =обилияти

Кузатувчанлик =обилияти

Нут= =обилияти

Ташкилотчилик =обилияти

Обрў орттира олиш =обилияти

Тў\ри муомала =илиш =обилияти

Келажакни кўра билиш =обилияти

Ди==атни та=симлай олиш =обилияти

Bu pedagogik qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsinal-irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bir-biriga ta'sir etadi va bir butunlikni hosil qiladi.

1. Bilish qobiliyati – fanning tegishli sohalarida oid qobiliyatdir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi. Unga nihoyatda qiziqadi, tadqiqot ishlarni ham bajaradi. Ba'zan o'quvchilar orasida: "uni professor deyaver" ko'pincha biz u o'z sohasida bilmaydigan biror narsa bormikin deb o'ylab qolamiz kabi iboralar uchrab turadi.

2. Tushuntira olish qobiliyati – o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, material yoki muammolarga aniq va tushunarli qilib aytib berish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol qiziqish uyg'otish qobiliyatidir.

qobiliyatli o'qituvchi materialni bayon etish jarayonida turli o'quvchilarning tushuntirilayotgan materialni qanday o'zlashtirayotganlarini qator belgilar asosida to'g'ri aniqlab oladi va zarurat tug'ilgan hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati o'quvchining tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruxiy holatlarni juda yaxshi tushina bilish bilan bog'liq, bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. qobiliyatli o'qituvchi uncha katta bo'lmagan tashqi ko'rinishlar asosida o'quvchining ichki holatidagi juda arzimagan o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutq qobiliyati – nutq yordamida shuningdek imo – ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qaralayotgan bo'ladi ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, u gapirayotgan narsaga qiqayotganligi bilan ajralib turadi.

Fikrlar ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi. O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi. O'qituvchi uzundan-uzoq jumlalar, murakkab so'z birikmalari, qiyin, tumtoq iboralar qo'llashdan qochadi. O'rinli yumor, hazil, yengilgina istedod nutqi o'quvchilar yaxshi qabul qiladilar.

O'qituvchining nutqi aniq, jonli obrazli, talaffuzi jihatidan erkin ifodali, his-hayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

5. Tashkilotchilik qobiliyati – birinchidan o’quvchilar jamoasini uyushtirish muhim vazifalarini hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan o’z ishini to’g’ri uyushganligini nazarda tutadi.

O’z ishini tashkil etish deganda ishni to’g’ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o’qituvchilarda vaqtni o’ziga xos his etish vaqtga qarab to’g’ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo’ladi.

6. Obro’ orttira olish qobiliyati – o’quvchilarga bevosita imosional irodaviy ta’sir ko’rsatish va shu asosda obro’ orttira olishdir. Obro’ faqat shu asosdagina emas, balki o’qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hakozolar asosida ham qozoniladi. O’quvchilar qo’pollik qilmaydigan, qo’rqitmaydigan, to’g’ri talab qo’ya oladigan o’qituvchini hurmat qiladilar.

7. Kommunikativ – to’g’ri muomala qila bilish qobiliyati. Bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan unda samarali o’zaro munosabat o’rnata bilish pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Kelajakni ko’ra bilish qobiliyati-o’z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko’rishda, o’quvchining kelgusida qanday odam bo’lishi haqidagi tasavvur bilan bog’liq bo’lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarini aqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qadriyatiga, odamga ishonish bilan bog’liq bo’ladi.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati – o’qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari hajmi, ham uning kuchi, ham ko’chuvchanligi, ham qilina olishi, ham taraqqiy etgan bo’lishi muhimdir.

Pedagogik texnika haqida tushuncha

Pedagogik texnika o’qituvchiga o’quv faoliyatida ham o’qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo’lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topgan.

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida o’qituvchining nutq malakalarini, ya’ni savodli gapirish, o’z nutqini chiroyli va tushunarli, ta’sirchan qilib bayon etishi, o’z fikr va xis tuyg’ularini so’zdan aniq ifodalash malakasini aytib o’tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi pedagogning mimik va pantomimik ifodaligidir. Aniq, imo-ishora, ma’noli qarash, rag’batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta’sir ko’rsatishda ko’p so’zli tushuntirish yoki e’tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomila vositalari bo’ladi.

Pedagogik texnika tushunchasi 2 guruh komponentlarini o’z ichiga oladi:



Birinchi guruh komponentlari o’z xulqini, yurish, turish, boshqarish malakalari bilan bog’liq. O’z organizmini boshqarish (mimika, pontomimika); xisssiyoti, kayfiyatini boshqarish; ijtimoiy perseptiv qobiliyatlar (diqqat, kuzatuvchanlik, hayol); og’iz texnikasi (nafas, ovozni qo’yilishi, diksiya nutq tempi).

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari shaxs va jamoada ta’sir ko’rsatish malakalari bilan bog’liq bo’lib, ta’lim tarbiya jarayonining texnologik tomonini yoritadi: didaktik taotchilik, konstruktiv, kommunikativ, qobiliyatlar; talab qonun jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish, pedagogik muloqatni qarish va boshqalar.

O’qituvchi nutqi deyilganda o’qituvchining og’zaki nutqi ko’zda tutiladi.

Pedagog vazifani muvaffaqiyatli bajarishi uchun o’qituvchining nutqi ma’lum talablarga javob berishi, ya’ni kerakli kommunikativ sifatlarga mos bo’lishi kerak. Nutq, bir normalarga mos bo’lishi kerak: zamonaviy normalarga, ifodali, adabiy til normalariga.

O’qituvchi tovushning o’ziga xosligi nimada?

Avvalo bu tovushning kuchliligi. Uning kuchli nutq aparati organlarining aktivligiga bog’liq.

Diapazon – tovushning hajmi. Uning chegarasi juda yuqori va past ton bilan aniqlanadi.

Tembr – tovush bo’yog’i, yorqinligi, shu bilan birga uning yumshoqligi, iliqligi, o’ziga xosligi.

O’qituvchida kasbiy klassik kelib chiqmasligi uchun tovush gigenasiga amal qilish kerak. O’qituvchi ish vaqtining 50% davomida gapirib turadi. Pedagog ish vaqti tugagach 2-3 soat davomida uzoq vaqt so’zlashishdan qochishi kerak. Zarur bo’lib qolsa qisqa va sekin gapirishi kerak.

Dars jadvali qo’yilishida shunga e’tibor berish kerak. 3-4 soat darsdan so’ng 1 soat tovush dam olishi kerak. Ko’p stajli o’qituvchi 2-3 soatda charchaydi va 2 soat dam olishi kerak.

Diksiya – so’z, bo’g’in, tovushning aytilishidagi to’g’ri va aniqlik.

Ritmika – ayrim bo’g’inlarni aytishdagi to’liq davomiylik, shu bilan birga nutqni tashkil qilish yetarli. Bu nutqning muhim elementi bo’lib, ba’zan intonasiya va pauza o’ziga so’zdan ko’ra kuchli emosional ta’sir qiladi.

Pedagogik muloqat va uni boshqarish uslublari

Muloqat pedagogik faoliyatdagi eng muhim kasbiy qurol pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir.

Pedagogik muloqat bu o’qituvchining o’quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari vaqtda eng qulay psixologik muhit yaratishda qaratilgan kasbiy munosabatdir. Noto’g’ri pedagogik muloqatdan o’quvchilar qo’rquv, ishonchsizlik paydo bo’ladi, e’tibor, diqqat, ishchanlik pasayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil fikrlash pasayadi.

Pedagogik muloqat fuknsiyasi. Pedagogik muloqat sotsiz psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalari bilan xarakterlanadi: shaxsni bilish; axborot almashinish; faoliyatni tashkil etish, rollar bilan almashish; boshqalar uchun qayg’urish; o’zini tasdiqlash[37].

Muloqatning axborot almashish funksiyasi materiallar va qadriyatlar bilan almashish jarayonini ta’minlab, hamkorlikdagi izlanish muhitni, o’quv tarbiya jarayoni uchun qulay sharoit yaratadi.

O’qituvchi ta’lim – tarbiya jarayoniga shaxsiy rolli shakl kiritadi: o’quvchilarni darsning turi elementlarini bajarishga jalb etadi, o’quvchilarga tashkilotchi va ijroji rollarda qatnashishga imkoniyat beradi.

Muloqot shaxsni o’zini tasdiqlash funksiyasini ham bajaradi. Pedagogning vazifasini o’quvchiga o’zining “Menligi”ni anglashga o’zining shaxsiy axamiyatini bilishga, o’ziga baho berishga o’rgatishi kerak.

[37] Ю.В.Зязюна. Основи педагогического мастерства. М., 1988, 145 б.

O’qituvchi darsni rejalashtira turib, faqat axborot berishni emas, balki bolalarni o’z fikrlarini bildirish, o’zini tasdiqlash uchun imoniyat ham yaratish kerak.

Pedagogik muloqat bu o’qituvchi professional faolligining bir ko’rinishi bo’lib, bunda ta’lim va tarbiya vazifalari o’qituvchi hamda o’quv tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o’rtasidagi o’zaro ta’sir vositasi bilan hal qilinadi.

Muomala kategoriyasi umumiy psixologiya fanining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o’z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi.

Muomala – hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiquvchi, shaxslararo muloqat rivojlanishning ko’p qirrali jarayonidir. Muomala quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil torgan:

1. Kommunikativ (bir tomonlama) axborot uzatish. Muomala o’z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o’zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo’lib, kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqatda kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri tilga va nutq; faoliyatiga bevosita murojat qiladilar.

2. Interaktiv (ikki tamonlama ta’sir) – muloqatga kirishuvchilarni o’zaro ta’siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so’z orqali fikr almashinuvi, balki xatti – harakat va xulq atvori bilan o’zaro ta’sir o’tkazishi tushuniladi.

Perseptiv (o’zaro bir-birini idrok qilishi, anglashi) bunda muloqatga kirishuvchilar o’zaro bir-birlarini idrok qilish jarayoni namoyon bo’ladi, ya’ni ulardan biri ikkinchisining ishonchiga loyiq, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega inson sifatida idrok qilinadi.

Pedagogik muomala deganda o’qituvchi va talabalar (o’quvchi) jamoasining o’zaro ta’sir malakasi, usul va tizimi anglashinib uning mohiyati, o’zaro axborot almashishi, ta’limiy va tarbiyaviy ta’sir o’tkazish o’zaro tushunishga erishish va uni tashkil etish tushuniladi.

O’quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqat boshqarish uslublari

Psixologiyada o’quv rahbarlarning o’z jamoasi a’zolari bilan munosabat texnikasi tahlil etilib, turli tipdagi ijtimoiy – psixologik portretlari ishlab chiqilgan. O’quv rahbarlarning muloqatni boshqarish uslublari: avtoritar, demokratik, liberal uslub tarzida berilgan. Mana shu uslublarni pedagogik muloqatda o’qituvchi o’quv rahbarligi uslubi tarzida qurish mumkin.

Avtoritar uslub. O’qituvchi guruhning faoliyat yo’nalishini shaxsan o’zi belgilaydi, kim-kim bilan o’tiradi, kim bilan ishlaydi o’qituvchi o’zi hal qiladi. Bunday uslubda ish yurituvchi o’qituvchi o’quvchilar tashabusiga yo’l bermaydi. Hamkorlikning asosiy shakli – buyruq, ko’rsatma, instruksiya, ogohlantirish. Hatto kamdan kam bildirilgan minnatdorchilik ham kamsitish shaklida bo’ladi. «Sen bugun yaxshi javob berding. Sendan buni kutmovdim» kabi.

O’quvchi xatosini ko’rsa, uni tuzatish o’rniga ustidan kuladi. U yo’g’ida ish sekinlashadi yoki butunlay to’xtab qoladi.

Demokratik uslub. O’qituvchi faoliyat maqsadini har bir o’quvchi ongiga yetkazishda, ish borishini hal etishga hammani faol ishtirok etishga undaydi. O’zining vazifasini faqat nazorat va muvofiqlashtirishda emas balki tarbiyalashda deb biladi, har bir o’quvchi rag’batlantiriladi, unda o’ziga ishonch paydo bo’ladi, o’z-o’zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik uslubda boshqaruvchi o’qituvchi bolalarni individual qobiliyat va qiziqishlarni hisobga oib vazifalarni optimal tarzda taqsimlashga undaydi. Faollikka rag’batlantiradi, tashabbusni quvvatlaydi. Muloqatning asosiy shaklda iltimos, maslahat, axborot tarzida bo’ladi.

Liberal uslub. O’qituvchi jamoa faoliyatiga aralashmaslikka harakat qiladi, faollik ko’rsatmaydi, maslahatlarga formal qaraydi, turli ta’sirlarga tez beriladi. Javobgarlikdan o’zini olib qochadi.

Eng yaxshi uslub-demokratik uslub. Miqdoriy ko’rsatkichlar avtoritar uslubdan kam bo’lishi mumkin, lekin ishlash ishtiyoji o’quv rahbar yo’g’ida ham davom etadi. Ijodkorlik yuqori bo’lsa javobgarlik hissi, o’z jamoasi uchun faxrlanish rivojlanadi. Bu yomon uslub – liberal bo’lib, bunda ham ish kam bajariladi, ham sifat yomon bo’ladi.

Avtoritarizm o’qituvchi yetukmasligini, uning axloqiy va siyosiy tarbiyasizligini ko’rsatadi, pedagogik madaniyati pasligi bilan xarakterlanadi.

Pedagogik nazorat va pedagogik odob axloq

Yosh avlodni buyuk an’nalarimizga yuksak ma’naviy qadriyatlarimizga sodiq va porloq kelajak egalari ekanligiga qat’iy ishonch ruxida tarbiyalash bevosita o’qituvchining zimmasiga yuklanadi. Bu esa avvalo, o’qituvchining o’zi ma’naviy barkamol, bilimli, odobli bo’lishini talab etadi.

O’qituvchilik kasbini pedagogik odobning zarur talablaridan biri hisoblanadi. O’z kasbini sevgan kishini butun kuch g’ayratini qalb qori va dil haroratini bu ishga bag’ishlaydi va o’z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi. Shuningdek bolalarni sevish, ularga mehr – muhabbatli bo’lish, o’qituvchilik kasbi o’qituvchi axloqiy qiyofasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. O’qituvchining bolalarga bo’lgan mehribonligi talabchanligi va qattiqqo’llikni ham taqozo etadi.

O’qituvchi halollik, rostgo’ylik, odamiylik, kamtarlik kabi fazilatlarga ega bo’lishi pedagogik odobning muhim talab qoidasidir. Muallim deyarli har kuni o’quvchilar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularni yaxshi xulq, ezgu ishlarini ma’qullaydi, bilimni baholaydi, nojo’ya hatti-harakati uchun tanbeh beradi.

Xullas, yaxshi o’qituvchi bo’lish uchun bo’lajak muallim yuksak pedagogik odob madaniyatini egallashi zarur. Buning uchun bo’lajak o’qituvchi pedagogik odobning talab va qoidalarini bilib, o’zlashtirib olishi tajribada pedagogik faoliyatda qo’llashi, o’zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan boyitishi lozim, fikrlash va his etish turmushda sinab ko’rish natijasida pedagogik odobning talab va qoidalari o’qituvchining shaxsiy e’tiqodiga, axloqiy fazilatlariga aylanadi.

Haqiqatdan, o’qituvchi yoshlarga ta’lim – tarbiya beruvchi kishi. O’zbekiston Respublikasi «Ta’lim to’g’risida» gi qonunning 5-moddasida «Tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo’lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug’ullanish huquqiga ega», deb ta’kidlangan. Chunki, hukumat ta’lim sohasiga qo’yayotgan vazifalarni bajarish ko’p jihatdan o’qituvchiga bog’liq.

Har qanday mutaxassis odob, axloq, namunalariga ega bo’lishi tabiiy, lekin pedagogik odoblilik jism va ashyolarga o’z-o’ziga munosabatda haqiqiy mezon rolini bajaruvchi qobiliyatga ega bo’lishlik, aynan o’qituvchi shaxsida mujassamlashadi. Pedagogik etnopsixologik his-tuyg’ulari, milliy xarakter xususiyati, xulq, faoliyat, muomala qoidalari, qonuniyatlari, hodisalari, mexanizmlari, vositalari va ko’nikmalaridan me’yoriy ravishda maqsadga muvofiq tarzda foydalanishda o’z aksini topadi:

- emosional his-tuyg’ular, kechinmalar stress va effektiv holatlarda o’z-o’zini to’g’ri tuta olishda;
- xulq atvor malakalarini amaliyotda oqilona qo’llashda;
- bachkana qiliqlar, ortiqcha harakatlar qilishdan o’zini tiyishda;
- nutq madaniyatidan tashqari chiqmaslikda, shaxsiyatiga tegadigan iboralar ishlatmaslikda, qo’pol va dag’al so’zlar qo’llamaslikda;
- hissiy, aqliy bilish jarayonida muayyan me’yorlarga asoslanishda, manmanlikni namoyish etmaslikda;
- o’quvchilar va o’qituvchilar jamoalari bilan, ota-onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatga kirishishda rasmiy, qat’iy ishbilarmonlik uslublariga asoslanishda va hokazo.

Pedagogik nazokat o’qituvchiga muloqotni ijodiy hissiyotlar asosida qurishga, bolalar bilan psixologik muloqatga kirishishda yordam beradi. O’qituvchi pedagogik nazokat talablariga amal qilib o’zida muloqatning demokratik uslubni shakllantiradi, o’qituvchilar bilan haqiqiy muloqat madaniyatiga erishadi.

Pedagogik nazokat o’qituvchiga bolalar bilan muloqatda nizolardan qochishga, o’zaro munosabatni hamkorlik asosida qurishga yordam beradi.

Nazokat (takt) so’zi ta’sir etish ma’nosini ham bildiradi. Bu kishilar o’zaro munosabatini boshqarishga yordam beruvchi axloqiy kategoriyadir. Taktik xulq insonparvarlik tamoyiliga asoslanib murakkab qarama-qarshilik holatlarida ham kishiga hurmat saqlab qolishini talab qiladi.

Nazokatli bo’lish barcha kishilarga qo’yilgan axloqiy talab, ayniqsa pedagoglarga juda muhim. Pedagogik takt o’qituvchining kasbiy sifati va mahoratini bir qismidir.

Pedagogik nazokat-o’qituvchining maqsadga muvofiq yo’naltirilgan pedagogik ta’sir o’lchovi bo’lib hisoblanadi. Muloqatning mahsuldor uslubini o’rnatish ko’nikmasi bo’lib, hurmat erkalash, talabchanlikni ham talab etadi. Pedagogik nazorat o’qituvchi xulqining moslashuvchanligi – taktikani talab etadi. Chunki o’qituvchi bolalar oldida turlicha nazokatni talab qiluvchi turli rollarda chiqadi.

Pedagogik nazoratni egallash sharoitlari. Pedagogik nazorat pedagogik mahorat bilan birga tarbiyalanadi va egallanadi. O’qituvchi ma’naviy yetuklik darajasiga maxsus bilimlarni egallashida, o’z ustida katta mehnat natijasida erishadi. Avvalo bu bilimlar yosh psixologiyasini va bolalarning individual xususiyatlarini bilish bilan bog’liq.

Axloq asoslarini bilish, hatti-harakatlardagi axloqiy ma’noni ko’rish, o’quvchiga ta’sir etish yo’llarini to’g’ri belgilash o’qituvchi qobiliyatiga aylanish lozim:

- bolalarni sevish, o’z muhabbatini ko’rsatish;
- bolalar xulqidagi ichki tushunchalarini ko’rish va kuzatish;
- sharoitga moslashish;
- hamkorlikni maqsadga muvofiq yo’lini tanlash;

Ideal pedagog tushunchasi keng qamrovli bo’lib, o’rnak uchun namuna va solishtirish uchun etalon sifatida qabul qilinadi. Ideal pedagogning mutaxassislik, ishbilarmonlik va insoniy xususiyatlarini quyidagicha belgilash mumkin:

Adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida» gi qonuni. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1998 y.

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997 y.

3. Karimov I.A. «Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori» T., 1997 y.

4. Karimov I.A. «Ma’naviy yuksalish yo’lida». T., «O’zbekiston», 1998 y.

5. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etish // «Tafakkur», 1998 yil, 2-son.

6. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivniye texnologii obucheniya. M., «Pedagogika», 1995.

7. Bespalko V.P. Slagayemiye pedagogicheskogo texnologii, M., 1989 g.

8. Yuldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari // «Xalq ta'limi», 199 yil, 4-son, 4-betlar.

9. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. M., 1989 g.

10. Maxmudov M. O'quv materialini didaktik loyihalash tizimi // «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 3-son, 3-11 betlar.

11. Podlasiy I.P. Pedagogika. Novo'y kurs. Kniga 1. M., «Vlados», 2000 g.

12. Saidahmedov N. Ta'limda harakatlanuvchi kuch «Ma'rifat», 1998 yil, 16 yanvar.

13. SOROS xalqaro ochiq jamiyatning «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» fanlaroro dasturi.-.T., 2002 yil.

14. Farberman V.L., Musina R.G., Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. T., 2002 yil.

15. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida. T., «O'qituvchi», 1994.

16. Zyazyuna Yu.V. Osnovi pedagogicheskogo masterstva. M., 1988.

VI-BO'LIM. YaNGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYaLAR

Pedagogik texnologiya tushunchasining vujudga kelishi, unga berilgan ta'riflar

Pedagogik texnologiya (PT) – shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3- ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, bilimga chanqoqlik Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi qayta - qayta ta'kidlanadi. Chunki mamlakatimiz tez sur'atlar bilan taraqqiy etib, jahon hamjamiyatida iqtisodiy-siyosiy mavqyei kundan-kun ortib bormoqda. Quyidagi holatlar ilg'or texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadqib etishning dolzarbligini ko'rsatib beradi:

- «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadi va vazifalarini ruyobga chiqarish, jamiyatimiz taraqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, alohida ta'limni jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi;
- an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tamanib ig ko'rishi tufayli «axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatidagina emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi yoki ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchi rolini o'zgartirish zarurligi;
- fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib boroyotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;
- kishilik jamiyati taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va enpirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunda asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;
- barkamol avlodni tarbiyalash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi[38].

Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan «texnos» - san'at, hunar va «logos» - fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonnito'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operasiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon – bu mehnat qurollari bilan mehnat obyektlari (xomashyo) ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir. Ana shu tarifni tadqiqot mavzusiga ko'chirish mumkin, ya'ni PT – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'quvchi (talaba) larga muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldinda belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Pedagogika fanida pedagogik texnologiya tushunchasini ta'riflashda hali yagona bir fikrga kelingani yo'q.

Ayrim amaliyotchi pedagoglar «pedagogik texnologiya» deganda texnologik yondashuvga asoslanmagan (ba'zi foydali, samarali usullarni yoki o'qitish jarayonida texnik vositalarni qo'llashni) tushunadilar. Vaholangki, pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga yangicha, o'ziga xos belgilar, xususiyatlarga ega bo'lgan tizimli, texnologik yondashuvga asoslanadi.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga tadbiq qilish zarurligini bir qator olimlar ilmiy asoslab berishgan. Chunonchi, V.P.Bespalko «pedagogik texnologiya – amaliyotda joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizimning loyihasidir», - deb ta'kidlaydi va o'z fikrining davomida quyidagicha ta'rif beradi: «Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan

[38] Осиё тара==иёт банки ырта махсус, касб-щунар таълимини ривожлантириш лойищаси. Таълим самарадорлигини ошириш йыллари. Семинар-тренинг материаллари. – Т., 2002 й, 29-30 б.

holda pedagogik muvaffaqiyatnikafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir»[1].

Bu ta'rif mazmunidan quyidagi muhim tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- PT o'quvchi (talaba)larda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalanadi;

- loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi;

- yakuniy natija albatta kafolatlanadi.

YuNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif: «Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimni metodidir»[2].

Amerikalik olimlar Binjamin, Blum, Levi Stross, Jon Morenolar fikricha, «Pedagogik texnologiya ta'lim maqsadlarini ko'zlagan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan o'lchanadigan harakatlari shaklida oydinlashtirishdir»[3]

Boshqa mualliflarning ta'riflari:

- pedagogik texnologiya – amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir (V.P.Bespalko);

- pedagogik texnologiya – ta'lim-tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuidir (T.S.Nazarova);

- pedagogik texnologiya –oldindan belgilangan, loyihalashtirilgan o'quv-tarbiya jarayonini izchil amalga oshirishdir (K.Klarin).

Professor N.Saidaxmedov PT ga bergan ta'rifi: PT bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan holda va ma'lum ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatishi va aks ta'sir sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir[1].

Professor M.Ochilov ta'rifi: PT tizimli texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish natijasini inson salohiyati va holisona baholash uchun texnik vositalarni o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir[2].

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiya – ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va obyektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi.

Pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifalarni o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash, ularni obyektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya XX asrning oxirlarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqalib, nufuzli YuNESKO tashkiloti tomonidan ham tan olindi va qo'llab-quvvatlandi.Hozirgi ko'pgina mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda.

Ko'pgina mamlakatlar pedagogik texnologiyadan foydalanib, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda, o'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishdilar.

---

[1] Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивние технологии обучения. М., «Педагогика», 1995.

[2] Фарберман Б.Л. Прогрессивние педагогические технологии. – Т., 1999, 3 б.

[3] Леви Стросс, Батхорю З. The Toxonomy of Educational obyekiv in Continental. Evrop, Univ. of Chikago. 1994, P. 146-163.

[1] Сайидахмедов Н. Янги педагогик технология мощияти. «Хал= таълими», 1999й, 1-сон, 98-б.

[2] Очилов М. Янги педагогик технологиялар. Ы=ув =ылланма. +арши, «Насаф», 2000 й, 13-бет.

Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi

Insoniyat tarixida yashash uchun kurash, ilmiy texnikaviy taraqqiyot, hayotning kelgusi qirralarini belgilab olishga urinishlar doimo bo'lib turgani kabi, pedagogik texnologiyaning ham o'z o'tmishi va kelajagi bo'lishi tabiiy holdir.

Individual ta'lim o'quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo'lib, u dastavval antik Yunonistonda paydo bo'lgan edi. O'qituvchi o'quvchi bilan ishlab, ta'limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O'qituvchi matnlarni o'qib bergan yoki ularga o'qitib so'zlatgan. Qoida va ta'riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish, musiqa asboblarida u yoki bu kuyni ijro etish yo'llari bilan bolalar hayoti, san'at, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni o'zlashtirish.

Keyinchalik individual ta'lim o'rnini guruhlar asosida o'qitish egallagan. O'rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, og'zaki savol-javob, yuqori pog'onalarda esa ma'ruza, munozara ta'limining yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf-dars tizimini (Ya.A.Komenskiy ta'limoti) keyinchalik esa ilg'or pedagogik texnologiyalarni shakllanishiga olib keldi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xorijiy mamlakatlarda ko'plab pedagogik nazariyalar vujudga keldi. Ularning ayrimlari ta'lim-tarbiya tizimini yaxshilashga, o'quvchilar faoliyatini oshirishga qaratilgan edi.

Shu davrlarda «Yangi maktablar» degan pedagogik oqim paydo bo'lib, uning asoschisi sifatida fransuz pedagogi E.Demolen maydonga chiqdi. Bunday maktablar Angliya, AQSh, Fransiya, Belgiya, Shvisariya kabi ko'plab davlatlarda ochildi. Jenevada «Yangi maktablarning xalqaro birlashmasi» tuzildi va unda yangi maktablarga qo'yilgan talablar belgilab berildi. Bu maktablar xususiya bo'lib, unda haq to'lashga qodir kishilarning bolalari o'qitilgan. Yangi maktablarda ish yaxshi yo'lga qo'yilgan, to'liq jihozlangan kabinet va laboratoriyalar tashkil etilgan, «erkin va faol» metodlar qo'llanilgan. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari bo'lgan.

Maktablarning amaliy pedagogik laboratoriyasi bo'lib, «bolalarning miyasini yodlab olgan bilimlar bilan to'ldirish orqali ta'lim berish o'rniga ularning fikrlash qobiliyatini umumiy o'stirish yo'li bilan ta'lim berishga» harakat qilingan. O'quvchilarga qanday qilib kuzatish, farazlar topishni, o'z tahminlarini tekshirib ko'rishni o'rgatganlar. Bunday maktablarda o'qitish dalillarga va tajribaga tayanishga, bolalarning tashabbuskorligi va mustaqilligini tarbiyalashga asoslangan edi.

XIX asr oxirlarida Germaniyada pedagog Vilgelm Avgust Lay (1862-1926) «ish harakat pedagogikasi»ga asos soldi. Uning g'oyalarida ham o'ziga xos ijobiy tomonlari, yangiliklari bor edi. Lay pedagogik jarayonda ifodalash, tasvirlashga katta ahamiyat berdi, chunki uning fikricha, mana shunday ifodalash yoki tasvirlash jarayonida o'quvchilar o'z faolliklarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar, harakat qiladilar.

Uning fikricha, tasvirlashning har qanday turlari: rasm solish, loy va plastilindan buyumlar yasash, har xil narsalarning modelini yasash, chizmachilik, dramatizasiya, ashula, raqslar, shuningdek, o'simlik hamda hayvonlarni parvarish qilish tajribalarni o'tkazish, og'zaki va yozma ishlar va shu kabilar ta'lim jarayonidagi «ifodalash» vositalaridir. Lay fikricha, hamma darslar ana shu qoidalar asosiga qurilishi lozim.

XIX asrning oxirida Germaniya, Angliya, AQSh da eksperimental pedagogik keng yoyilgan. Eksperimental pedagogika bolalarni aqli iste'dodini tadqiq qilish uchun «testlar metodi» dan keng foydalandi.

Eksperimental pedagogikaning yirik namoyondalaridan nemis pedagogi Ernst Meyman (1865-1915) va AQSh pedagogi Eduard Torndayk (1874-1949) edilar. Bolaning aqliy iste'dodini belgilaydigan testlar bilan bir qatorda, yana uning ulgurishini aniylaydigan testlar ham belgilandi. Test usuli XX asarning 40-50 yillarida faqat AQSh dagina emas, balki Angliya, Fransiyada ham keng yoyildi.

Lekin bu pedagogika sobiq ittifoqda qabul qilinmadi, chunki u bixeviorizm ta'limotiga asoslangan edi. Bu yo'nalishning psixologiyadagi eng muhim qoidasi organizmning ko'rsatgich

bilan uning kuzatgich javobi o'rtalaridagi aloqa bir ma'noligini so'zsiz tan olinishidir. bu ta'lim jarayonini tajriba-sinov tarzida o'rgatishga ham, bu jarayonni boshqarishga ham bir xilda dahldordir.

Yaqin kunlargacha bixeviorizm mag'kuraviy siyosatiga ko'ra burjua fani hisoblanib, inkor etib kelindi. Hozirgi kunda esa bixeviorizmning mohiyati to'g'ri talqin etilib, uning ahamiyati keng yoritila boshlandi, tizimda katta yuz berdi. Bu o'zgarishlar hukumatning 30-yillarda qabul qilgan qator qarorlari (1932 yil 25 avgustdagi «Boshlang'ich va o'rta maktablarning o'quv programmalari va rejimi haqida» gi, 1933 yil fevraldagi «Boshlang'ich va o'rta maktab darsliklari haqida» gi, 1934 yil 15 maydagi «Maktablarda tarix va geografiya o'qitish to'g'risida»gi va boshqalar) bilan bog'liqdir. Bu qarorlarga o'quv jarayonidagi kamchiliklar: o'quv materiallarni haddan tashqari ko'pligi, buning natijasida ayrim o'quv fanlari yuzaki o'tilayotganligi, ba'zi fanlar, ayniqsa, matematika, fizika va kimyo dasturlari orasida bog'laning yo'qligi, soddalashib ketganligi kabilar ko'rsatildi. O'qitishda ko'rgazmali qurollardan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi.

Asrimizning 40-50 yillarida o'quv jarayoniga texnik vositalar (radio, kino) ning joriy etilishi pedagogik texnologiyaga tenglashtirildi. Faqat 60 yillarning o'trasida, 70 yillarda bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarida (AQSh, Yaponiya,Angliya, Italiya, Vengriya) va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etila boshladi va professor M.Saidaxmedov ta'kidlashicha uning ikki yo'nalishi ko'rsatilgan. Birinchi yo'nalish pedagogik texnologiyani «o'qitishning texnik vositalari» ni qo'llash sifatida belgilasa (M.Klarki, Xokridj – Buyuk Britaniya; K.Cheduik, D. Fini – AQSh; S.G.Shapolenko – Rossiya) ikkinchi- «o'quv jarayon texnologiyasi» sifatida qaraldi (T.Samakato – Yaponiya; T.A. Ilina - Rossiya)[1].

T.S.Nazarovaning qayd etishicha, pedagogik texnologiya 70-yillarning boshlarida AQShda yuzaga kelgan bo'lib, uning asoschisi taniqli olimlar B.Blum, D.Karatvol, N.Gronlund, J.Kerrol, J.Blok, L.Andersin va boshqalardir[2].

AQShda 1971 yil Kommunikasiya va texnologiya Assosiasiyasi tashkil topdi.

1961 yilda «Pedagogik texnologiya» jurnali, 1971 yildan audio vizual ta'lim, audiovizuallik kommunikasiya bayoni nomli jurnallar chop etila boshlandi.

Angliyada – 1967 yil Pedagogik Texnologiya Milliy Kengashi tashkil topdi. 1964 yildan «Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim», 1970 yildan «Pedagogik texnologiya» nomli jurnal chop etila boshlandi.

Yaponiyada 1965 yilda Umumyaponiya Pedagogik texnologiya markaziy kengashi tashkil etildi. 1965 yildan pedagogik texnologiya tadqiqotlari bo'yicha jurnallar chop etila boshlandi.

Sobiq ittifoq - 1965 yil maktab jihozlari va o'qitishning texnik vositalari ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi.

Italiyada 1971 yil pedagogik texnologiya milliy markazi tashkil etildi va shu yildan «Pedagogik texnologiya» nomli jurnal chop etila boshlandi.

Vengriyada 1973 yil o'qitish texnologiyasi davlat markazi tashkil etildi.

Mustaqil O'zbekistonimizda pedagogik texnologiya muammolarini yechish, uning istiqbollarini belgilash bo'yicha Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufidagi Oliy ta'lim muammolari instituti 1997 yildan buyon faoliyat ko'rsatmoqda.

Didaktik masalalar va pedagogik texnologiyaning o'zaro munosabati

Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizim loyizasidir.

Pedagogik tizim ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko'zlab va oldindan o'ylab pedagogik ta'sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar, jarayonlar yig'indisidir. Har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos pedagogik tizim tashkil qiligadi. «kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o'z mustaqil fikrga ega bo'lgan, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashning asosiy

[1] Н.Саидахмедов. Янги педагогик технология мощияти. «Хал= таълими», 1999й, 1-сон, 99-б.
[2] Т.С.Назарова. Педагогическая технология новый этап эволюции. Т., 1999, 5-б.

maqsad qilib qo'ydi. N. Saidaxmedov ta'kidlaganidek: «Milliy dastur bizda ta'lim va tarbiya sohasida davlat buyurtmasi sifatida qabul qilinayapti»[1]. Davlat buyurtmasi esa ta'lim va tarbiyaning umumiy maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi invariativ elementlardan tashkil topadi:

1. O'quvchilar (talabalar).
2. Ta'lim – tarbiya maqsadlari.
3. Ta'lim – tarbiya mazmuni.
4. Didaktik jarayon.
5. Tashkiliy shakllar.
6. Pedagog yoki O'TV.

Bu pedagogik tizim har qanday nazariyaga xos bo'lgani kabi ikki tushunchani qamrab oladi: didaktik masalalar va ularni amalga oshirishning pedagogik texnalogiyasi.

Didaktik masalalar pedagogik tizim doirasida inson faoliyatining muhim sohasi sifatida aniq maqsad va unga erishish uchug shart-sharoitlar hamda bu faoliyat uchun axborotlar bo'lishi kerak.

Didaktik masalarni hal etish maqsadi shaxsning ma'lum sifatlarini shakllantirish zaruriyati bo'lsa, shart-shariotlar o'quvchi (talaba) larning boshlang'ich sifat ko'rsatgichlar, axborot esa o'quv predmetining mazmuni yoki tarbiyaviy ta'siridir.

Har bir didaktik masala pedagogik tizimda o'ziga mos keladigan PT elementlari bilan hal qilinadi, ular: didaktik jarayon, o'qitishning tashkiliy shakklari hamda pedagog yoki o'qitishning texnik vositalari (O'TV).

Rasmda ijtimoiy buyurtma yo'nalishi didaktik masalalarga qaratilgan va bu bejiz emas: ta'lim har doim jamiyat talablarini qondirishga xizmat qiladi va u ongli ravishda yoki intuitiv tarzda tez yoki sekinlik bilan bu talablarga mos holda tuzatila boriladi.

Darhaqiqat, XXI asr bo'sag'asida ta'lim taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi, haqqoniy dvigatelli – bu o'zida didaktik masalalar va PTni mujassamlashtirgan pedagogik tizim hisoblanadi. PT ning muvaffaqiyatli loyihalashtirish va yakuniy natijaning kafolatlanishi o'qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasiga va darsda ularni to'g'ri belgilab olishiga bog'liqdir.

Agar pedagog (6) qo'lida bilimga chanqoq, iqtidorli o'quvchilar (1), fan maqsadiga (2) mos mazmun – dastur, o'quv qo'llanma, darsliklar (3) mavjud bo'lsa, u didaktik jarayonni (4) muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllaridan (5) samarali foydalanib yangi pedagogik texnologiyani amalga izchil va ketma-ket joriy etish mumkin.

Didaktik jarayon pedagogik texnologiya asosi sifatida

Didaktik jarayon pedagogik texnologiyaning asosini tashkil qiladi, yohud u belgilagan vaqt ichida (tarbiya) maqsadiga erishish uchun O'E mazmunini o'quvchilarga uzatish yo'llarini aniqlab beradi.

V.P.Bespalkov o'qitish jarayoni, didaktik jarayon haqida: «O'qitish jarayoni «klassik qoida»ga bo'ysunadi. Ya'ni o'qituvchi sinfga kirib dars mavzusini e'lon qiladi va darhol uning mazmunini bayon qilishga kirishib ketadi. Didaktik jarayon esa har bir dars (ma'ruza)ni boshlashdan oldin o'quvchilar diqqatini jalb qila oladigan faoliyat bosqichi – motivasiyani vujudga keltirishdan boshlanadi. Ana shu motivasiya bosqichi o'quv-bilish faoliyatining kaliti hisoblanadi», deb fikr bildiradi.

O'qitish jarayoni tuzilishi:

O'JqO'FQO'qF;

O'F – o'quvchi bajaradigan o'quv faoliyati; O'qF – o'qituvchi bajaradigan o'rgatuvchilik faoliyati. Bundan shunday xulosa chiqadi: o'quvchining xususiy o'quv faoliyati va unga

[1] Н.Саидахмедов. Янги педагогик технология мощияти. // «Хал= таълими», 1999 й, 1-сон 100 б.

hamohang bo'lgan o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyatidan tashqari hyech qanday o'qitish jarayoni mavjud bo'lmaydi.

Didaktik jarayon o'zaro bog'liq quyidagi komponentlardan iboart: Motivasiya – (M), o'quvchining o'quv-bilish faoliyati – (O'F) va uni pedagog tomonidan boshqarish – (B).

DJqMQO'FQB

Pedagogik tizimda ta'lim maqsadi va didaktik jarayon o'rtasida aloqadorlik mavjud: Ya'ni har bir maqsadga ma'lum bir jarayon orqali erishiladi va har bir jarayondan maqsadga erishish ko'zda tutiladi. Didaktik jarayonda ikkita tamoyilga amal qilinadi:

1. Didaktik jarayonda tabiiy muvofiqlik tamoyili. Bunda o'quvchilarning intillektual rivojlanishi va o'zlashtirish tajribalarining tabiiy mexanizmi o'zlashtirishiga mos kelishi tushuniladi. O'quv mehnatiga qiziqishi, o'qish xohishi darajasini ta'lim-tarbiyada shu tamoyil ifodalaydi.

2. Didaktik jarayonda intensivlik tamoyili. Didaktik jarayon tez va yuqori darajada, qisqa vaqt ichida didaktik masalani yechishni taqozo etadi. Didaktik jarayonni intensivlashtirish tamoyilining indikatori tezlik hisoblanadi.

Motivasion bosqich. Motiv tushunchasi ehtiyoj, intilish, mayl, qiziqish tushunchalarini qamrab oladi. Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da'vat, turtki hisoblanar ekan, o'qituvchi bolaga qiziqish hosil qilishga intilishi zarur. Motivasiya – bu shaxs xatti-harakatini yuzaga keltiruvchi ichki harakatlantiruvchi kuch, hissiyot bo'lib, pedagog uni boshqarishga harakat qiladi va o'quv jarayonini tashkil etish uchun hisobga oladi. Uni amalda vujudga keltirish o'qituvchi o'rganilayotgan faoliyat tajribalaridan taassurotli dalillarni maxsus yig'ishi va o'quvchilarga o'qitilayotgan predmetning asosiy holatlari bo'yicha bilimlar asosida noqulay vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini namoyish qilishi kerak. O'quvchilarda hosil bo'ladigan motivlar kuchli yoki kuchsiz bo'lishi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Demak, o'qituvchi har bir dars maqsadi va mazmuniga mos keladigan motivasiya me'yorini aniqlashi lozim bo'ladi. Kuchli motiv pirovard maqsadni amalga oshirishga kuchli ta'sir etadi. O'qish motivasiyasi murakkab jarayon bo'lib, u o'quvchining xulqi, intilishlari, qiziqishi va mayllariga bog'liqdir.

O'quv faoliyati. O'quvchilardagi motivasiya xarakteri ko'p jihatdan ularning o'quv faoliyatiga bog'liq. O'quv faoliyati faoliyatning umumiy loyihasi bo'yicha ko'riladi va o'zida mo'ljalli (yo'naltiruvchi), bajaruvchi, nazorat qiluvchi va tuzatuvchi harakatlarini mujassamlashtiradi.

Uning shartli formulasi:

O'fqMhQBhQNhQTh

Bu harakatlarni o'quvchilar bevosita o'qituvchi yoki darslik yordamida turlicha to'liqlikda va turlicha ta'lim nazariyasiga tayangan holda bajarishlari mumkin.

Boshqarish. Didaktik jarayonning so'nggi tarkibiy qismi – o'quv-bilish faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Har qanday o'quv faoliyatini boshqarish imkoniyati mavjud. Boshqarish tizimi ikki – boshqaruvchi va boshqariluvchi obe'ktdan iborat bo'ladi. Agar didaktik jarayonda o'qituvchi boshqarish subyekti hisoblansa, o'quvchilar boshqaruv obyektidir. Subyekt uzluksiz tarzda maqsadga muvofiq obyektga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi. Obyekt ham o'z navbatida subyekt tomonidan o'rgatilgan maqsad va vazifalarni to'g'ri anglab yetishi va unga erishish choralarini ko'rgandagina o'quv faoliyatining samarasi to'g'risida fikr yuritish mumkin bo'ladi.

Ta'lim-tarbiyaga an'anavaiy va noan'anaviy yondashuvlar

Hozirda ta'lim-tarbiyaga asosan an'anaviy va noan'anaviy (zamonaviy-tizimli, texnologik, tadqiqiy-ijodiy) yondashuvlar mavjud.

Xo'sh ta'limga an'anaviy va noan'anaviy yondashish nimasi bilan frq qiladi?

An'anaviy yondashuvning asosiy xususiyati – o'qituvchi ma'lum axborotni gapirib, tushuntirib beradi, o'quvchi (talaba) esa bu bilimni xotirasida saqlaydi. Bunda «bilim»

tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma’nosida tushuniladi. O’quvchining bilim darajasi imtihonda shu axborotga doir savolga bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bu bilim yuzaki bo’lishi ham mumkin va u xotirada uzoq saqlanmaydi. O’quvchining o’zlashtirish darajasi, sifati haqida aniq tasavvur hosil qilish qiyin.

Tizimli yondashuv haqida gapirishdan oldin «tizim» tushunchasiga to’xtalib o’tsak. Tizim so’zi – tuzilma, qismlardan tuzilgan, birikkan narsa yoki hodisa ma’nosini anglatadi. Kibernetik tizim, axborotlar tizimi, ijtimoiy munosabatlar tizimi, harakatlar tizimi, pedagogik tizim kabi tushunchalar ham ishlatiladi.

«Tizimli yondashuv ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo’nalishi sifatida universal tavsifga ega pedagogikada keng qo’llaniladi, ta’lim-tarbiyaga ham pedagogik tizim sifatida qarash lozim»[1].

Tizimli yondashuv tuzilish vazifasiga ko’ra bajariladigan tahlilga yaqin turadi. Tizimli tahlilning obyekti yaxlit narsa yoki hodisa (tizim) hisoblanadi, u obyektning turli qismlarini, qismlarning o’zaro bog’liqligini, tizimning chegaralarini va tizimning atrof-muhit bilan bog’liqligini, aloqadorligini nazarda tutadi.

Tizimli yondashuvda qator prinsiplar majmuidan foydalaniladiki, ular tadqiqotchilik va amaliy faoliyatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. M.Ochilov bunday qoidalar qatoriga quyidagilarni kiritadi: mavhumlikdan yaqqollikka qarab borish; analiz bilan sintezning, mantiqiylik bilan tarixiylikning birligi; obyektga bog’lanishlar va o’zaro ta’sirlarning turlichaligi; obyektning tuzilishi – vazifalari va kelib chiqishi haqidagi tasavvurlarning birligi va boshqalar[1].

Ta’lim ishiga texnologik yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi:

- o’qish-o’qitish jarayonini o’zaro uzviy bog’liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo’lishni;
- ta’limdan kutilgan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-osqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni.

Bunday yondashuv asosan reproduktiv ta’limga xos bo’lib, reproduktiv ta’lim tipik vaziyatlarda biror ish-harakatni oldindan bashorat qilingan qoidalar asosida bajarishdir. Reproduktiv daraja uchun pedagogik texnologiya usulida ta’lim takror ishlab chiqiladigan konfeyrli jarayon sifatida tashkil etiladi, undan kutiladigan natija ham aniq belgilab qo’yiladi. O’quv materiali aniq ifodalangan o’quv maqsadiga mos qayta tuzib, ishlab chiqiladi, ayrim bo’lak (qism, modul)larga ajratiladi, o’quv materialini o’rgatishning alternativ yo’llari nazarda tutiladi, har bir bo’lakni o’rganish test yoki boshqa yo’llar bilan nazorat qilinib, xato-kamchiliklar tuzatilib boriladi. O’quv ishi etalonda ko’rsatilgan natijaga erishishni nazarda tutadi. Bu usul bilim, ko’nikma va malakalarning zarur minimumini egallashda ko’proq samara buradi. Texnologik yondashuvni qo’llash qo’yilgan o’quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv ta’limning maqsadi talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o’stirish, yangi bilimni mustaqil o’zlashtirish, harakatning yangi usullarini topish, shaxsan tashabbus ko’rsatishni, ijodkorlik, faollikni nazarda tutadi. Tadqiqiy rag’batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi, bolaning shaxsiy tashabbusini qo’llab-quvvatlaydi, bola bilan hamkorlik qiladi, uning fikr va qiziqishlarini oldingi o’ringa qo’yadi.

Ta’limni didaktik loyihalash

Loyiha keng ma’noda ma’lum obyekt, xatti-harakat, holatning tarxi demakdir. Didaktik loyihalarda ta’lim subyektlari o’zaro ta’siridan shakllanadigan, istiqbolga yo’nalgan shirkat faoliyat moddiylashtiriladi. Didaktik loyihalarning eng oddiysi (dars konspekti)dan tortib, ularning eng murakkab ko’rinishlari (dastur, darslik, ta’lim etaloni) gacha turlari inson faoliyati antisipirik – oldindan payqash, ko’ra bilish layoqati mahsulidir. Pedagogik hodisalarning borishi,

[1] М.Очилов. Янги педагогик технологиялар. (Маърузалар матни), +арши., 2000й, 6-б.
[1] М.Очилов. Янги педагогик технологиялар. (Маърузалар матни), +арши., 2000й, 6-7 б.

rivojlanishidagi o’zgarishlarni loyihada aks ettirish, loyihada ko’zlangan maqsad, vosita, natijalarni o’quvchi faoliyatiga nisbatan tasavvur qilish, ma’lum bir didaktik nazariyaga asoslanib, loyihani tayyorlash loyiha muallifi pedagogik bilimlarining takomillashuviga, pedagogik amaliyotdagi yangi bog’lanishlarni sezish va ajratishga olib keladi.

Didaktik loyihalash ta’limning amal qilish namunasini tayyorlash jarayonidir. U jarayon sifatida loyihalash faoliyati, vositasi predmetidan iborat. Bu jarayonda ma’lumot mazmuni yoki uning bir qismi – o’quv materiali loyihalash predmeti funksiyasida qatnashadi. O’quv materialiga pedagogik ishlov berib, darslikdagi shakldan yangi shaklga olib kiriladi. o’quv topshiriqlari, muammolari, testlar tizimi va shu kabilar o’quv materialini o’qitish va o’qish ehtiyojlariga ko’ra o’zgartirilgan – loyihalashtirilgan shakllaridir. Loyiha muallifining didaktik bilimlari unda shakllangan pedagogik mahorat, orttirgan hayotiy tajribasi loyihalash vositalari bo’lib, ular loyiha sifatini belgilovchi omillardir. Didaktik bilimlar ko’lami, hajmi, aniqligi, pedagogik tajribaning yetukligi, uning puxta egallanganligiga ko’ra didaktik loyihalar bir-biridan farq qiladi. Binobarin, didaktik loyihalarning samaradorligi va sifati pirovard natijada loyiha muallifining bilimi, tajribasi, mahoratiga borib taqaladi. Didaktik loyihalash – bu ta’lim subyektlari o’zaro ta’sirining ta’lim mazmuniga yo’nalgan akt, zveno, bosqich, davr shaklidagi harakatlarini kelgusida amalga oshirish namunasi timsolini tayyorlash demakdir.

O’zbek maktablarida ta’limni loyihalashning ikki jihatdan ahamiyati bor: ta’ilm jarayonining yangi, pedagogik amaliyotda hali uchramagan loyihalash vositalarini izlab topish; original loyihalar asosida o’quv-tarbiya jarayonining zamonaviy sifatlarini qayd etish. Darsliklarni loyihalashda ma’lumot mazmuni va ta’lim mazmuni tushunchalarini farqlash kerak. Ma’lumot mazmuni: yoshlarning ma’lumoti, rivojlanishi, tarbiyasini mo’ljallkb hozirgi zamon fani, texnikasi, ishlab chiqarishi, fikrlashining umumiy asoslariga didaktik ishlov berish yo’li bilan tanlangan bilimlar, ko’nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va munosabatlar majmuidir. Ta’lim mazmuni, buni o’quv materialiga teng hodisa deb qaraymiz. Ma’lumot mazmanini ijtimoiy tajribani o’rganish, ta’lim mazmuni esa ta’lim jarayoni kontekstida qaraladi. ta’lim mazmuni yoshlarni ma’lumotli qilish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadida ta’lim jarayoniga olib kerilgan bilim, ko’nikma – malaka, faoliyat usulllari hamda tabiat, jamiyait va tafakkur hodisalarini emosional baholashga doir munosabatlardir. Ta’lim mazmunini ta’lim jarayoniga o’quv materiali shaklida olib kiriladi.

O’quv materiali ma’lumot mazmunini shakllantirishning eng lxirgi darajasi sanaladi. U ta’lim boshlangunicha turli normativ loyihalar o’quv dasturi, o’quv darsligi tarkibida tayyor holda bo’ladi. ta’lim jarayonida esa o’quv – tarbiya ishlari o’quv materialini o’rganishdan boshlanadi. O’quv matirali ma’lumot mazmuni bilan ta’lim mazmuni o’rtasidagi oraliq zveno hisoblanadi. O’quv materiali asosida ikkilamchi loyihalar: dars konspekti, topshiriqlar tizimi, testlar, ta’lim etalonlari tuziladi.

O’quv materialini ikki xil tarkibi tuzilishi – strukturasini farqlaymiz: o’quv materialini mantiqiy qurilishi; o’quv materialining didaktik qurilishi. O’quv materialini didaktik quriligi ikki xil tushuniladi: o’quv materialining didaktik keng (global) qurilishi; o’quv materialining tor (lokal) qurilishi. O’quv materialining keng qurilishini olimlar M.Skatkin, V. Krakevskiy, I.Lernerlar boshlab berishgan. Ularning yozishicha, o’quv materiali bilimlar tizimi, ko’nikma va malakalar, munosabatlar tizimidan iborat. O’quv materialini lokal tushunishda 3 xil element ajratiladi: bilim, malaka, ko’nikma. O’quv materialini keng hodisa sifatida qarab unnig tarkibida quyidagi elementlarini ajratamiz: bilimlar tizimi, tushuncha, termin, faktlar, qonuniyatlar, nazariyalar, ko’nikma – malakalar tizimi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar tizimi.

O’quv materialining shakllari ko’p. Ulardan biri o’quv topshirig’idir. U qator xususiyatlarga ega: ularda o’rganilgan o’quv materiali mazmuni ham aks etgan, didaktik loyihada bolalarning o’quv – biluv faoliyati ham moddiylashtiriladi; didaktik loyihalarda o’quv - biluv faoliyati usullari ham beriladi.

O’quv maqsadlari va vazifalarni loyihalashtirish

Sanoatda zamonaviy texnologiya mehnatni teng maqsimlashni ko’zda tutadi. Mahsulotni loyihalash va uni tayyorlash texnologiyasini yuqori malakali mutaxassislar amalga oshiradi. Bunda avvalo, barcha ikir-chikirlarini aniq, uzil-kesil ifodalaydigan, nima va qanday tayyorlanishi ko’rsatilgan loyiha ishlab chiqiladi, shundan ukyingina mahsulotni tayyorlash va ishlab chiqarishni tashkil etish boshlanadi.

Muayyan vazifani bajaruvchi ishchilar texnik hujjatlarning talablariga qat’iy rioya qiladilar. Natijada o’rta miyona mahorat bilan ancha murakkab vazifani bajarishga imkon yaratilib, tayyor mahsulotning yuqori sifati ta’minlanadi.

PT da ham o’qitish jarayonini loyihalash bosqichiga va avvalo, ta’limnnig kutilajak natijalariga alohida e’tibor qaratiladi. Texnologik yondoshuvning dastlabki bosqichlarida didaktik vositalarni ishlab chiqarishning bir guruh tajribali uslubchi o’qituvchilarga topshirish maqsadga muvofiq bo’ladi.

PT ning o’ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o’quv maqsadlari erishishining kafolatlaydigan o’quv jarayonni loyihalashtirsh va amalga oshiriladi. Tenologik yondoguv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirtlgan natijalarini amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko’rsatmali tuzilmada o’z ifodasini topadi.

Pedagog o’z oldiga o’quvchilar materialning mazmunini tushunib, o’zlashtirib olishsin, ma’lum bilimlarni egallab amaliyotda qo’llashga o’rgansin degan maqsadni qo’yadi.

Pedagog jamiyatdan buyurtmani umumiy ko’rinishda oladi. Maqsadlarni aniqlashtirishning o’ziga xos pillapoyasini tuzish mumkin: jamiyatning umumiy talablaridan ta’lim tizimi vazifalariga, ulardan ma’lum o’quv yurti, o’quv predmeti, uning tematik bo’limlari va alohida o’quv masalalariga. Bu quyidagi chizmada o’z aksini topadi.



Maqsadlarni belgilashning an’anaviy usullari:

- O’quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash. Masalan, «Navoiyning g’azallarini o’rganish», yoki «Birinchi bobning mazmunini o’rganish». Bunda maqsadga erishilganlikni qanday aniqlash ko’rsatilmagan.

- Maqsadni pedagog faoliyati orqali ifodalash. Masalan, «O’quvchilarni Buxoro amirligining davlat tuzilishi bilan tanishtirish» yoki «Linzalarda tasvir yasash usullarini ko’rsatish». Bunda ham ta’lim jarayonining aniq maqsadga erishganligini qanday bilish mumkinligi ko’rsatilmagan.

- O’quvchining intellektual, emosional, shaxsiy rivojlanishning ichki jarayonlari va qonuniyatlari orqali o’quv maqsadini qo’yish. Masalan, «Matematik tenglama yechish

ko’nikmasini rivojlantirish», «Mavzuni o’tish jarayonida o’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatish». Bunda ham o’quv maqsadiga erishganlik haqida ko’rsatgichlarni topib bo’lmaydi.

- O’quv maqsadlarni o’quvchilar faoliyati orqali qo’yish. Masalan, «Aralash kasrlarni qo’shishga oid misollar yechish». Bu yerda o’qitishdan kutiladigan natija va uning oqibati e’tibordan chetda qolgan.

O’qitishning maqsadlarini ta’lim mazmuni, pedagogning yoki o’quvchining faoliyati orqali belgilash ta’limda kutilayotgan natijalar haqida aniq tasavvurga ega bo’lishga imkon bermaydi.

PT da nazarda tutiladigan maqsadlarni qo’yish uslubi o’zining ashyoviy xususiyatiga ega. Bu shundan iboratki, o’qitish maqsadlari o’quvchilar harakatida ifodalanadigan, aniq ko’rinadigan va o’lchanadigan natijalar orqali belgilanadi.

APQSh, Angliya va boshqa mamlakatlarda o’quvchi va o’qituvchi uchun maqsadlarni alohida-alohida belgilash odatga kirgan. Bunda maqsadlar o’quvchining faoliyatidan kelib chiqqan holda qo’yiladi (o’rgatish, tushuntirish, ko’rsatish, aytib berish va hokazo). O’quvchining harakatlarida ifodalanadigan natijalar esa ta’limning vazifalari deyiladi. Vazifa talabaning tugallangan xatti-harakatini ifodalovchi atama bilan ifodalanishi shart.

Shunday qilib an’anaviy o’quv jarayoni asosiy omil pedagog (va uning faoliyati) hisoblansa, PT da birinchi o’rinda o’qish jarayonidagi o’quvchilarning faoliyati qo’yiladi.

Ta’lim maqsadi shunday qo’yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo’lsin. Pedagogik adabiyotlarda vazifalar ba’zan identifikasiyalashgan (taqqoslanadigan) pedagogik maqsadlar deb ataladi (M.Klarin, 1989).

Vazifalarni yanada aniqlash maqsadida quyidagi qadamlarni qo’llash mumkin:

- har bir vazifalar guruhini «Dars yakunida talabalar quyidagilarni bajara olishlari lozim», deb boshlash;
- har bir vazifani raqamlash;
- har bir vazifani uyidagi fe’llardan boshlash: sanab o’ting, eslang, so’zlab bering, ko’rsatib bering, tanlang, hisoblang va boshqalar;
- har bir vazifani talaba so’zi bilan qo’yish;
- har bir vazifa faqat bitta natijani ko’zlasin;
- har bir vazifa «talabaning keyinchalik o’zini qanday tutishi kerakligiga ishora qilsin»;
- vazifani shunday yozingki, uning ishlatilishini mezonlash va qanday qilib maqsadga erishganligini aniqlash mumkin bo’lsin.

Vazifalar o’quv savollarini, mavzularni, bo’limlarni, butun fanni, nimalarni baholash kerakligini (og’zaki, yozma, test usulida) aniqlab beradi.

Ta’lim mazmuni odatga ko’ra, asosan mavzuiy yo’nalishga ega va unda o’qitishning aniq maqsadlarini ko’rish qiyin. O’qitish vazifalarini yengillashtirishni ishlab chiqish uchun ularning ta’rifida o’zlashtirgano’quvchilar malakasini ifodalovchi fe’llardan foydalanish mumkin, masalan:

- muayyan dalilni biladi;
- qoidani biladi;
- og’zaki bilimni matematik ifodaga ko’chiradi;
- chizmani tushuntiradi;
- berilgan natijalarni keltirib chiqaradi;
- tushunchani yangi vaziyatda ishlatadi;
- qoidani ishlatadi;
- ma’lum qoidani yangi holatda to’g’ri qo’llashni namoyon qiladi;
- mavhum farazlarni ajratadi;
- fikrlash mantiqida xato va kamchiliklarni topadi va hokazo.

1. O’quvchi qoidani o’zlashtirmoqda.
2. O’quvchi tanish yoki notanish vaziyatda qoidani qo’llamoqda. Bulardan ikkinchisi aniqroqdir.

Demak, maqsadlarni aniqroq qo'yishning asosiy yo'li – ma'lum natija bilan yakunlanadigan harakatlarni ifodalaydigan fe'llardan foydalanishdir.

Taqqoslanadigan ta'lim maqsadlarini (vazifalarini) shakllantirish quyidagi andoza bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak: muayyan o'quv mashg'ulotining umumiy maqsadi – o'qitishning xususiy maqsadi – taqqoslanadigan o'qitishning maqsadi (vazifa).

Xorijiy ta'lim amaliyotida quyidagi o'quv natijalarini darajalash qabul qilingan:

1. Tanishtiruv: mazkur fan sohasidagi asosiy tushuncha va tartiblar bilan tanishuv.

2. Asoslarni o'zlashtirish fan sohasining asosiy tushunchalarini qayta izhor (tasvir) etishni tazarda tutuvchi bosqich.

3. Egallash: fan sohasidagi asosiy tushuncha va tartiblarni muvaffaqiyatli tadbiq etish.

4. To'liq egallash – mohirlik: mazkur fan sohasidagi asosiy tushuncha va tartiblarni samarali qo'llash va qolgan o'quvchilarga bilimlarni va ko'nikmalarni o'zlashtirish va mustahkamalsh o'byicha yordam berish.

B.Blum taksanomiyasini («Taksanomiya» tushunchani narsalarning tabiiy bog'liqligi va xususiyatlariga ko'ra ko'p bosqichli (iyerarxik) tuzilishi asosida tasvirlash va tizimlashtirishni anglatadi) qo'llab, umumiy o'quv maqsadlarini shakllantirish mumkin. Ushbu taksanomiya bo'yicha o'quv maqsadlari kategoriyasiga mos keladigan fe'llar ro'yxati keltirilgan.

Bilish	Esga tushirish	Tasvirlash
	Eslab qolish	Farqlash
	Axborot berish	Tanlab olish
	Aytish	Aytib berish
	Yozish	Takrorlash
Tushunish	Dalillash	Ko'chirish
	Almashtirish	Qayta ishlash
	Muayyanlashtirish	Namoyish etish
	Belgilash	Izohlash
	Tushuntirish	Ochib berish
Foydalanish	Tadbiq qilish	Aniqlash
	Hisoblab chiqish	Amalga oshirish
	Namoyish etish	Hisoblash
	Foydalanish	Amalga oshirish
	O'qitish	Yechish
Tahlil qilish	Keltirib chiqarish	Oldindan ko'rish
	Ajratib chiqish	Saralash
	Umumlashtirish	Bo'lib chiqish
	Turlash	Tekshirib ko'rish
	Faraz qilish	Guruhlash
Sintez	Kashf qilish	Tizimlash
	Umumlashtirish	Birlashtirish
	Birlashtirish	Barpo etish
	Rejalashtirish	Tuzish
	Ishlab chiqish	Loyihalash
Baholash	Tashxislash	Baholash
	Isbotlash	Tekshirish
	O'lchash	Nazorat qilish
	Asoslash	Taqqoslash
	Qo'llab-quvvatlash	Solishtirish

Pedagogik texnologiya asosidagi muayyan darsning loyihasini tuzish ketma-ketligi quyidagicha tavsiya qilinadi:

- o'quv predmetining ishchi dasturiga asosan o'qituvchining o'quv va tarbiya maqsadlarini shakllantirish;
- tayanch o'quv savollarini bloklarga ajratish (2 soatlik darsga 2-5 ta);
- har bir o'quv savoli bo'yicha o'quvchilarning vazifalarini shakllantirish, unda quyidagilar ifodalanadi: 1) o'quvchi maqsadga erishgandan so'ng qiladigan xatti-harakati bilan tasvirlanuvchi fe'li orqali o'xshash o'quv maqsadi shaklida yoki 2) B.Blum taksanomiyasi o'quv maqsadlarining asosiy tushunchalari (bilish, tushunish, tahlil qilish, majmualash, baholash) shaklida;
- har bir vazifa bo'yicha shug'ullanish va mashqlash uchun o'quv materiallarini mustahkamlashni ta'minlovchi vazifalar (savollar, masalalar, test topshiriqlari) tuzish (odatda baholanmaydi);
- har bir tayanch o'quv mavzusi bo'yicha tarkibida og'zaki, yozma test savollari bo'lgan yakuniy nazorat topshiriqlari majmuini tuzish, ushbu majmua mavzularini mahsuldor va namoyish darajasida o'zlashtirilganligini baholay olish zarur;
- ko'zlangan maqsadga kafolatli erishuvni ta'minlovchi ishchi dasturini, o'qituvchi va o'quvchi maqsadi hamda nazorat savollariga mos ravishda dars mazmunini ishlab chiqish;
- o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining uzviyligini ta'minlagan holda darsning borishini loyihalash (asosiy joylarini).

O'qitishning noan'anaviy modellari

O'qitishning noan'anaviy modellarini 3 ga ajratish mumkin:

- hamkorlikda o'qitish modeli;
- modellashtirish;
- o'rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar asosan o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, ularni markazda o'quvchi turgan ta'lim modellari deb ataladi.

Modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini) dars xonada yaratish va ularda o'quvchilarni shaxsan qatnashishi va faoliyati evaziga ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metod.

Hamkorlikda o'rganish modeli – o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishni ko'zda tutadigan metod.

O'rganishning tadqiqot modeli – o'quvchilarni muayyan muammoni yechishi uchun mo'ljallangan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metod.

Ta'lim usullarining samaradorligi

Verbal (og'zaki) o'quv usullaridan foydalanilganda (ma'ruza, hikoya tushuntirish) o'quvchilar ma'lumotning 5% ini eslab qolishadi.

Kitob o'qish ma'lumotning 10% ini eslab qolishga imkon beradi, videofilm, rasm, ko'rgazmali qurollarni ko'rish, ko'rgan ma'lumotlarni 20 % ini o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Loyihalash usuli va ishbilarmonlik o'yini eng samarali hisoblanadi, buning natijasida o'quvchilar ongida ma'lumotning 75 % i saqlanib qoladi. O'quv amaliy mashg'ulotlarning o'quvchilar tomonidan olib borilishi undan ham samaraliroq hisoblanadi, bugda 90% i ma'lumot o'zlashtiriladi.

O'qitish piramidasi

1. Ma'ruza, doklad	Eshitganimizning 5%
2. O'qish	O'qiganimizning 10%
3. Video, rasm, ko'rgazmalarni ko'rish	Ko'rganimizning 20%
4. Tajribani namoyon qilish	Ko'rgan va eshitganimizning 30%
5. Munozara	Birga muhokama qilganimizning 40%
6. Mashq	O'qigan, yozgan, gapirganlarimizning 50%

7. Ishbilarmonlik o’yini, loyiha	Mustaqil o’qiganlarimizning tahlil qilganlarimizni muhokama, hikoya, yozganlarimizni va namoyish qilganlarimizning 75%
8. Boshqalarni o’qitish	Boshqalarini o’qitgan narsalarini 90% ini.

Buni quyidagicha chizmada tasvirlash mumkin:



1 (5 %)
2 (10 %)
3 (20 %)
4 (30 %)
5 (40 %)
6 (50 %)
7 (75 %)
8 (90 %)

Axborotni eslab qolish.

Aqliy hujum (Breynshtorming)

Aqliy hujum - g’oyalarni generasiya qilish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g’oyalarni ilgari suradilar (generasiya qiladi). U ishtirokchilarni o’z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga rag’batlantiradi. «Aqliy hujum» ning vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi – yangi g’oyalarni yaratishdir. Bu usul muammoni hal qilayotgan kishilarning ko’proq aql bovar qilmaydigan va hatto fantastik g’oyalarni yaratishga undaydi. /oyalar qancha ko’p bo’lsa, ularning hyech bo’lmaganda bittasi ayni muddao bo’lishi mumkin.

Aqliy hujumning qoidalari:

1. Fikr va g’oyalar hyech qanday cheklanmagan holda iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim;
2. Bildirilgan fikr va g’oyalar takliflar berish to’xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, baholanmaydi;
3. Bildirilgan har qanday g’oya va fikrlar hisobga olinadi;
4. Qancha ko’p g’oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi;
5. Bildirilgan fikr va g’oyalarni to’ldirish va yanada kengaytirish mumkin;
6. Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi;
7. Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

Bu usul barcha funksiyalarni bajaradi: lekin unnig asosiy vazifasi – muammoni mustaqil tushunish va yechishga ta’lim oluvchilarni motivasiyasini uyg’otishdan iboratdir.

Aqliy hujum usulining texnologik xaritasi.

Ish bosqichlari va mazmuni	Faoliyat	
	O’qituvchi	O’quvchi
1 – bosqich Tayyorlov	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni, natijalarni, baholash mezonini shakllantiradi	
2- bosqich Kirish	Mavzunnig maqsad, natija va baholash mezonini e’lon qiladi. Aqliy hujum usuli maqsadni amalga oshirish usuli ekanligini tushuntiradi. Berilgan	

	muammoni bayon qilib, baholash to'g'risida buyruq beradi.	
3-bosqich /oyalarni kiritish	/oyalarni magnitafon yoki videolentaga, qog'oz varag'iga yoki doskaga yozib olishni taklif qiladi.	Muammoni yechish bo'yicha g'oya va takliflar haqida mulohaza yuritadilar.
4-bosqich Tahlil	Taklif qilingan baholash mezonlaridan kelib chiqqan holda ilgari surilgan g'oyalarni tahlil qilishni tashkil etadi.	Bildirilgan g'oyalarni, takliflarni guruh bo'lib tahlil qiladilar. Eng qulay va maqsadga muvofiqlarini aniqlaydilar.
5-bosqich Yakun yasash, tahlil va baholash.	O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	O'z–o'ziga baho berishlari mumkin.

Pinbord usuli
(Inglizchadan: «pin» - mustahkamlash, «board» - doska)

Bu o'qitish usulinnig mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbati amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari – rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: o'quvchilarda muloqat yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

Munozara (muhokama) uslubi

Ko'p hollarda seminar mashg'ulotlari orada o'qituvchi monologlari bilan bo'linadigan talabalar monologlari shaklida o'tadi, qolgan o'quvchitlar esa shu paytda zerikib o'tiradilar. Shuning uchun darsda munozara usulini qo'llash barcha o'quvchilarnnig faolligini oshirib, zerikishlarga yo'l qo'ymaydi.

«Munozara» ni o'tkazish usuli:

1. Yetakchi munozara mavzusini tanlaydi va qatnashuvchilarni taklif qiladi;
2. Yetakchi qatnashuvchilarga muammoni «Aqliy hujum» masalasini beradi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi;
3. «Aqliy hujum» vaqtida berdirilgan g'oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinladi. Bu bosqichda guruh qatnashchilarining har biri o'z fikrini bildirishiga sharoit yaratiladi;
4. Yetakchi 2- bosqichga o'tishdan avval qisqa tanaffus e'lon qiladi. 2- bosqichda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlashtirib, ularni tahlil qilishga o'tiladi;
5. Tahlil orqali qo'yilgan vazifani eng maqbul yechimini topishga harakat qilinadi.

O'qituvchi munozara paytida quyidagi savollarni berishi mumkin:

- Siz misol keltira olasizmi?
- Nahotki! Nima uchun?
- Demak. siz Lolannig fikriga qo'shilasiz?
- Siz meni emas, Akbarni ishontirishingiz lozim?
- Sizning xayolingizga ___ ekanligi to'g'risidagi fikr kelmadimi?

O'quvchilar fikrlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, unga munosabat bildirishga shoshilmaslik munozara yuritishning qat'iy qoidasi bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga o'qituvchi fikrlarning mantiqsizligiga, yaqqol qarama-qarshi, asossiz fikrlarning bildirilishiga ham yo'l qo'ymasligi lozim. Odobli luqma bilan fikrlarning asosliligini, aytilgan yoki qo'llab quvvatlangan fikrning to'g'riligini oydinlashtirib, ularga aytilgan g'oyaning mantiqiy oqibati to'g'risida fikrlashga qiziqish uyg'otish zarur.

Muzyorar

Ko’pchilik odamlar notanish vaziyatda (yangi sinf yoki yangi maktabda, kursning boshlanishida) bo’lganlarida o’zlarini jur’atsiz sezishadi. Ko’pincha bir-birlarini bilishmaydi. Agar hyech bo’lmaganda bir kishi bilan tanish bo’lsalar, ular birga bo’lishadi. Shuning uchun o’qituvchi (yoki boshlovchi) o’quvchilarga o’zlariga ishonch hissiyotini beradigan do’stona muhitni va ular o’zlari o’rganishlari kerak bo’lgan narsaga diqqatlarini qarata oladigan vaziyatni yaratishi kerak. Bunda muzyorar usulidan foydalanish mumkin. Bu ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o’rtasidagi «to’siq»ni yo’qotishga qaratilgan usul.

Muzyorarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

1. Taqdim etish.

O’quvchi yoki ishtirokchilardan ular o’zlarini tanishtirishlari va o’zlari to’g’risida muayyan axborot berishlari so’raladi. Ular taqdim etgan axborot saylanmasi sinf yoki kurs xususiyatiga bog’liq. Bu quyidagilar bo’lishi mumkin:

- ism-sharifi;
- yashash joyi;
- qiziqishi;
- fanlarga munosabati.

Bu axborot jadval shaklida katta qog’oz varag’iga yozib jamlansa yaxshi bo’ladi.

Bu usul kam vaqtni oladi (har o’quvchiga 1-2 minut), biroq undan 30 kishidan ko’proq guruhlarda foydalanib bo’lmaydi.

2. Intervyu.

Bir-birlarini yaxshi tanimaydigan juftliklar tuzilib, ularga tanishib olishlari uchun 5-7 minut vaqt beriladi. So’ng juftliklarni har bir a’zoyai butun guruhga o’z sherigi to’g’risidagi ma’lumotlarni, biroq qiziqarli faktni qo’shgan holda taqdim etadi.

Bunda guruhdagi har bir kishi bitta odam bilan tanishishi kafolatlanadi. Bu usul ishtirokchilarga dadillik hissini beradi, biroq uni 25 kishidan ko’p guruhda qo’llash mumkin emas.

3. Jadvallar.

Har bir ishtirokchiga flamaster va katta qog’oz varag’i beriladi. Qog’oz to’rt qismga bo’linib, har biriga quyidagi axborotni yozish topshiriladi:

- yuqoridagi chap burchakda: o’zingizni bir so’z bilan tasvirlang;
- yuqoridagi o’ng burchakda: nima bilan faxrlanishingizni yozing;
- pastdagi chap burchakda: o’zingiz haqingizda qandaydir bir sirni oshkor qiling (bu jiddiy sir bo’lishi majbur emas, biroq shunday axborot bo’lsinki, u haqida ishtirokchilardan hyech kim bilmasin);
- pastdagi o’ng burchakda: o’z xobbeingizni chizib bering.

(Jadvalning katakchalarini guruh xususiyatiga qarab o’zgartirish mumkin).

Hamma ishtirokchilar ishni tugatganlaridan keyin ular jadvalni oldlarida ushlab zalning o’rtasiga chiqishadi. U yoq - bu yoqqa o’tib ishtirokchilar bir-birlari bilan tanishadilar. Ishtirokchilar o’z ismlarini jadvallarga yozib, ularni deuorga ilib qo’yishadi.

Senkveyn usuli[1]

J.Still, K.Meredis, Ch.Templning «O’qish va yozish tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun» dasturida o’quvchi va talabalar faolligini oshiruvchi, ularni tanqidiy fikrlashini o’stiruvchi qator usullar ko’rsatib o’tiladi. Shulardan ayrimlariga qisqacha to’xtalib o’tamiz.

Senkveyn – fransuz tilida «besh qator» ma’nosini bildiradi. Senkveyn ma’lumotlarini sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she’r bo’lib, unda o’rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqyea, mavzu) to’g’risidagi axborot yig’ilgan holda, o’quvchi so’zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Senkveyn tzish – murakkab g’oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so’zlar bilan ifodalash uchun muhim bo’lgan malakadir. Senkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

[1] Хал=аро очи= жамият институтининг «Тан=идий фикрлашни ривожлантириш асослари» фанлараро дастури. Т., 13-бет

Senkveyn tuzish qoidalari:

1-qator: Mavzu bir so’z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).

2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3-qator: Mavzu doirasidagi xatti-harakatni 3 ta so’z bilan ifodalanadi (3 ta fe’l yoki ravishdosh yoziladi).

4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to’rtta so’zdan iborat bo’lgan fikr yoziladi (4 ta so’zdan iborat jumla yoziladi).

5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma’nosi unga yaqin bo’lgan bitta so’z yoziladi (mavzuga sinonim so’z yoziladi).

Senkveynlar quyidagi hollarda juda foydali bo’ladi:

- Murakkab axborotni sintezlash uchun vosita sifatida;
- O’quvchilar tushunchalarining yig’indisini baholash vositasi sifatida;
- Ijodni taqdim etilishining vositasi sifatida.

Senkveynga quyidiga misollarni keltirish mumkin:

Ta’lim

Uzluksiz, ixtiyoriy (majburiy).
O’rgatadi, yo’l ko’rsatadi, ruhlantiradi.
Hayotdagi eng yorug’ chirog’!
Bilim.

Odob

Go’zal, yaxshi
Insonni bezaydi, ulug’likka ko’taradi, yashnatadi.
Inson odobi bilan go’zal.
Axloq.

Klaster usuli[39]

Klasterlarga ajratish – o’quvchilarga biror – bir mavzu to’g’risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko’p variantli fikrlashni o’rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqyea)lar o’rtasida aloqa o’rnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» so’zi g’ujm, bog’lam ma’nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da’vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag’batlantirish uchun qo’llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg’otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo’lib, muayyan mavzu bo’yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

Biror mavzu bo’yicha klasterlar tuzishdan bu mavzuni mukammal o’rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Klaster tuzish ketma-ketligi:

1. Katta varog’ qog’ozning o’rtasiga yoki sinf doskasiga yohud yozish uchun foydalanish mumkin bo’lgan sathga «kalit» so’z yoki gap yoziladi;

2. Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so’z va gaplar yoziladi;

3.Fikrlar paydo bo’lganda va ularni yozganda fikrlar o’rtasida mumkin bo’lgan bog’lanishlarni belgilash;

4. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo’lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;

5. Keltirilgan so’z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Klaster tuzishda guruhdagi barcha o’quvchilarning eshtirok etishi, shu guruh uchun g’oyalar o’zagi bo’lib xizmat qiladi.

Insert usuli

[39] Хал=аро очи= жамият институтининг «Тан=идий фикрлашни ривожлантириш асослари» фанлараро дастури. Т., 2002 й., 12 б.

Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Insert – bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o'qiyotganligini tushunmay, o'quv jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert - bu matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab - quvvatlash uchun kuchli vositadir.

O'quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belshilarni qo'yib boradi, ular esa quyigi ma'nolarni bildiradi:

V – bilganlarimni tasdiqlayman;
Q - yangi axborot;
- - bilganlarimga zid keladi;
? – meni aylantirib qo'ydi.

Matnni insert usulida o'rganganda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin

«V»	«-»	«Q»	«?»
«Ha» - o'qiganlar ingizdan aniq bilgan yoki bilaman deb o'ylagan ma'lumot	«manfiy» - o'qigan laringiz, bilganlaringizga qarama - qarshi ma'lumot	«musbat»- o'qigan laringiz orasida siz uchun yangi bo'lgan ma'lumot	«savol» - o'qigan laringizdan siz uchun tushunarli yoki shu haqda ko'proq narsa bilishni istagan ma'lumot

Kubiklar usuli[1]

Kubiklar - o'zgartirilayotgan kelajakka asoslanib mavzuni ko'rib chiqishga yordam beradigan o'qitish usulidir. Har tomonlama fikrlashga (yozishga) yordam beradigan har xil yo'l-yo'riqlar yozilgan kubiklar ishlatiladi.

Tomonlarining hajmi o'rtacha 15-20 sm bo'lgan qutichaga qog'oz yopishtirib, kubik yasash mumkin. Kubikning har bir tomoniga quyidagi oltita yo'l-yo'riq yoziladi: buni tasvirlang, buni taqqoslang, buni o'zaro bog'lanishini ko'rsating, buni tahlil qiling, buni qo'llang, yaxshi va yomon tomonlarini ko'rsating (dalillar yordamida).

1	2	3	4	5	6
Buni tasvirlang. Narsaga diqqat bilan qarang balki faqat xayolingizda va uni qanday o'rgangangizni tasvirlang. Ranglari, shakllari, xususiyatlari va x.k	Buni taqqoslang Nimaga o'xshaydi?	U nimalar haqida o'ylashga majbur qiladi? Xayolingigizga nimalar keladi? bir –biriga o'xshgan yoki farqlanadigan narsalar bo'lishi mumkin (narsalar, odamlar joylar) Xayolingizga erk bering. Bu narsani siz nima bilan	Buni tahlil qiling. Uni qanday qilganlari haqida gapiring. (Siz buni bilishingiz shart emas, o'ylab chiqing)	Buni ishlating. U bilan nima qilishingiz mumkinligi haqida ayting. Uni qanday ishlatig mumkin.	Yaxshi va yomon tomonlarini ko'rsating (dalillar) yordamida ishonchli dalillarni topishga harakat qiling. Siz xohlagan barcha

[1] Хал=аро очи= жамият институтининг «Тан=идий фикрлашни ривожлантириш асослари» фанлараро дастури. – Т., 2002 й., 11 б.

		birlashtirishingiz mumkin.			dalillarni ishlating, mantiqiy bema’ni yoki o’rtacha

«T - chizmalari» usuli

T – chizma munozara vaqtida qo’shaloq javoblar (ha/yo’q, tarafdor/qarshi) yoki taqqoslash, zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. masalan, ta’limning an’anaviy va noan’anaviy shakli haqidagi matn o’qilganidan so’ng, birinchi guruh T – chizmani chizib, uning chap tomoniga an’anaviy ta’limning afzaliklarini berilgan vaqt davomida ko’rsatib berishadi. So’ngra shuncha vaqt ichida bu fikrga qarshi bo’lgan fikrlarni, ya’ni an’anaviy ta’limning kamchiliklarini ko’rsatib o’tishadi.

Ikkinchi guruh xuddi shunday chizmada noan’anaviy ta’limning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilishadi. Guruhlarning chizmalari taqqoslanib, so’ngra butun sinf bilan T – chizma tuziladi va muhokama etiladi.

Buni quyidagi shaklda berish mumkin.

Ta’limning an’anaviy shakli		**Ta’limning noan’anaviy shakli**	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Q	-	Q	-

Yoki dars turlarini o’tganda har bir dars turidagi o’qituvchi va o’quvchi faoliyatini quyidagi

T – chizma asosida tahlil etish mumkin:

Yangi bilim berish darsi		**O’quv materialini mustahkamlash darsi**		**Takrorlash va umumlashtirish darsi**		**Aralash dars**	
O’qituvchi faoliyati	O’quvchi faoliyati	O’qituvchi faoliyati	O’quvchi faoliyati	O’qituvchi faoliyati	O’quvchi faoliyati	O’qituvchi faoliyati	O’quvchi faoliyati

O’quv keyslari haqida tushuncha

O’quv muammoli vaziyat (o’quv keysi) tashkil etishning maqsadi auditoriyada aniq muammoli vaziyatni mavjud imkoniyatlar va tavakkallikni hisobga olgan holda muqobil yechimlarini muhokama qilish orqali qarorlar qabul qilish muhitini yaratishda iboratdir.

Keys usulini samarali qo’llash o’quv guruhiga muammoli vaziyatni muhokama qilish imkoniyatini berish orqali talabalarning anglash faoliyatini faollashtirish, muhokama jarayoni va mazmunini kuzatish uchun sharoit yaratadi.

Ma’lumki, o’qitishning dastlabki bosqichlarida tabalalar juda ham faol bo’lmasdan o’z fikrlarini ochiq bayon etishga qodir bo’lmaydi. Bunday to’siq talab uchun qarashlar va fikrlarni guruh yoki o’qituvchi tomonidan tanqidga uchrashi mumkinligidan xavfsiragan holda ma’lum qiyinchiliklar tug’diradi.

Ko’pincha shunda hollar bo’ladiki, o’qituvchi vaqtning tig’izligi tufayli talabalar bilan suhbat – muloqat yoki to’liq savol – javob o’tkaza olmaydi. Ana shunday hollarda zamonaviy pedagogik texnoogiya usullaridan bir bo’lgan keys usuli aynan qo’l keladi.

O’qitish turlari

- Ma’ruza
- Amaliy mashqlar
- Masofadan o’qitish
- Ilmiy tadqiqotlar natijalari muhokamasi

- Yozma nazorat ishi
- Test o’tkazish
- Loyihalash (turli sohalarda)
- Ishbilarmonlik o’yini
- Keys usuli

KEYS – bu…

- yechilishi zarur bo’lgan muammoni qamrab olgan haqiqiy vaziyat ifodasi;
- tinglovchilar tomonidan muhokama qilinishi mumkin bo’lgan va ldatda qaror qabul qiluvchi menejer nuqtai nazaridan bayon etilgan vaziyat;
- auditoriyada mavjud imkoniyatlar av tavakkalni hisobga olgan vaziyat bo’yicha qaror qabul qilish muhitini tashkil qilish;
- kelgusida aniq tadqiqotlar o’tkazish uchun manba.

Keys usulining ijobiy jihatlari:

1. Muammoni shakllantirishga yordam beradi.
2. Aniq vaziyatni tahlil qilishga yordam beradi.
3. Aniq muammoni hal etishning turli usullariga oid munozara o’tkazish imkonini beradi.
4. Nazariy bilimlarni amaliyotga qo’llash imkoniyatini yaratadi.
5. Olingan natijalarni boshqa hollarga ham qo’llash uchun zamin bo’ladi.

Tashkilot faoliyatining muhim bo’lgan o’zgarishlarini boshqarish imkoniyatini beradi.

Keys usulidan foydalanish yo’nalishlari:

- ta’lim;
- huquq;
- soliqqa tortish;
- menejment;
- tibbiyot;
- izquvarlik;
- boshqa soha va yo’nalishlar.

Keys turlari:

1. Taktika keyslari,
2. Strategiya keyslari.

O’quv keyslarining turlari:

- mikro (mitti) o’quv keyslari.
- kichik o’quv keyslari.
- Umumiy o’quv keyslari.

Mumtoz keyslar turlari

- Mumtoz (Garvord universtiteti) keyslari.
- Haqiqiy ma’lumotlarida biroz xatolik bo’lgan mumtoz keyslar.
- Haqiqiy ma’lumotlarda anchagina xatolik bo’lgan keyslar.

Keyslardan foydalanish usullari:

1. Yakka holda namoyish qilish.
2. Jamoa tomonidan namoyish etish.
3. Guruhlarda muhokama qilish va so’ngra auditoriyada muzokara o’tkazish.
4. Ishbilarmonlik o’yini.

Keyslar bilan ishlash tartibi

- asosiy muammoni aniqlash;
- turli omillarning asosiy muammosiga ta’sir darajasini aniqlash;
- asosiy va ikkinchi darajali omillarni ajratish;
- muammoni hal etishning muqobil yo’llarini ko’rib chiqish;
- maqbul yesimni tanlash.

Keys muhokamasi tartibi

Keys muhokama qilishni quyidagi ketma – ketlikda o’tkazish lozim:

1. Keys mazmuni bilan shaxsan tanishish.

2. Kichik guruhlarda muhokama qilish («Sindikat» usuli).

Auditoriyada umumiy muhokama o'tkazish.

Keys muhokamasida e'tiborni quyidagi jihatlarga qaratish tavsiya etiladi:

- qaralayotgan keysning asosiy maqsadini aniqlash;
- keysdagi vaziyatni haqiqiy holatlar bilan taqqoslash imkoniyatini ko'rib chiqish;
- mumkin bo'lgan «tuzoqlar» ni aniqlash, ya'ni ikkinsi darajali masalalarni muhokama qilish, noto'g'ri qarorlar qabul qilish va h.k.
- auditoriya uchun tushunarsiz yoki noto'g'ri tushuniladigan ma'lumotalrni aniqlash;
- keysda bayon etilgan muammoni yechishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash;
- keysdagi muammoni kchish uchun oraliq qadamlarini ilg'ab olish;
- muammoni hal etishning muqobil yo'llarini belgilash;
- keys muhokamasi vaqtini aniqlashtirish;
- munozarani tugatish tartibini belgilash;
- yakuniy izohlash va munozara natijasini xulosalash.

Keysni yozishda zarur bo'ladigan ma'lumotlar manbai:

1. Ommaviy matbuot vositalari.
2. Internet.
3. Ayrim korxona va tashkilotlar faoliyati to'g'risidagi axborot – tahliliy materiallar (hisobotlar, axborot nashrlari va boshqalar).
4. Aniq korxonalar yoki tashkilotlar, ularning tarkibiy bo'linmalari faoliyat sohasini tadqiq qilish materiallari.

Muammoli vaziyatlarini strategik boshqarish bosqichlari.

Keyslarini tuzishda strategik boshqarishning quyidagi asosiy bosqichlariga roiya etish lozim:

- tashkilot vakolatini aniqlash;
- maqsadlarni belgilash (strategik, oraliq va vazifaviy);
- makor muhit tahlili;
- mikro muhit tahlil
- ichki imkoniyatlar tahlili, mavjud nizoli vaziyatlarni aniqlashtirish;
- asosiy muammoni ilg'ob olish;
- asosiy muammoni hal etishning muqobil yo'llarini topish;
- mavjud yechimlarning ijobiy va salbiy jihatlarini baholash;
- muammoni hal etishning maqbul variantini tanlash;
- asosiy muammoni hal etish harakati va qabul qilingan variantni amalga oshirish rejasini tuzish.

Yaponiyada Kayzen usulidan foydalanish imkoniyatlari

- muammoni bartaraf etish imkoniyatilarini ko'rib chiqish;
- muammoni bartaraf etish imkoniyati bo'lmaganida, muammoning salbiy ta'sirini qisman qisqartirish yo'llarini qarab chiqish;
- vaziyatni shunday o'zgartirish lozimki, natijada muammonining salbiy ta'siri imkoni boricha kamaysin.

Vaziyatlar o'zgarishi jarayonini boshqarish (5 S tizimi):

(1S) – barcha keraksizlarni yo'qotib, faqat zaruriy vositalar bilan ishlashni maqbul shaklda tashkil etish;

(2S) – barchasini ma'lum tartibda joy- joyiga qo'yish va barcha kerakligini tezda topish («30 sekund» qoidasi);

(3S) – doimiy kuzatuv va nazorat o'rnatish, natijada esa barchasini «musaffo» holda saqlash;

(4S) – barcha ishlab chiqarish kundalik amallarini samarali foydalanish maqsadida standartlashtirish;

(5S)- xodimlar o'rtasida o'zaro intizomni rivojlantirish.

VI – BO’LIM YuZASIDAN ADABIYoTLAR

1. O’zbekiston Respublikasining «ta’lim to’g’risida» gi qonuni. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998 yil

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998 yil.

3. Karimov I.A. «Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «Sharq», 1997 yil.

4. Karimov I.A. «Ma’naviy yuksalish yo’lida». T.: «O’zbekiston», 1998 yil.

5. Karimov I.A. «O’zbekiston XXI – asrga intilmoqda». T.: «O’zbekiston», 1999 yil.

6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin // «Tafakkur», 1998 yil, - 2-son.

7. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. T.: «O’zbekiston», 1994 yil.

8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q.T.: «Sharq», 1998 yil.

9. Bespalko V.P. Pedagogika progressivniye texnologii obucheniya. M.: «Pedagogika», 1995 yil.

10. Bespalko V.P. Slagayemiye pedagogicheskoy texnologii. M.: 1989 yil.

11. Yo’ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya: yo’nalishlari, muammolari, yechimlari // «Xalq ta’limi», 1999 yil, 4-son, 4-11 betlar.

12.Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosess. M.: 1989 yid.

13.Lewy Itross, Bathory Z. The Toxonomy of Educational obyektiv in Continental. Evrop? Univ. of Chikago. 1994.P. 146- 163.

14. Mahmudov M. O’quv materialini didaktik loyihalash // «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 3 – son, 3-11 betlar.

15. Mahmudov M. Ma’lim natijasini loyihalash // «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 1-son, 8-10 betlar.

16. Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: novoye etap yevodyutsii. T.: 1999.

17. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma’ruzalar matni. Qarshi, «Nasaf», 2000 yil.

18. Podlasiy I.P. Pedagogika. Novoy kurs. Kniga 1. M.: «Vlados» 2000 yil.

19. Saidahmedov, Yanig pedagogik texnologiyalarning mohiyati // «Xalq ta’limi», 1999 yil, 1-son, 97-102 betlar.

20. Saidahmedov N. Ta’limda harakatlantuvchi kuch // «Ma’rifat», 1998 yil, 16 yanvar.

21. Xalqaro ochiq jamiyat institutining «tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» fanlararo dasturi. – T.: 2002 yil.

22. Farberman B.L, Musina R.G, Jumaboyeva F.A. Oliy o’quv yurtlarida o’qitishning zamonaviy usullari. T.: 2002 yil.

1-BO’LIM. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI
Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati. 6
«Ta’lim to’g’risida»gi qonunning tuzilishi.
Unga kura O’zbekiston ta’lim tizimi va turlari 10
O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o’qituvchi burchi
masuliyat va uning barkamol shaxsi shakllantirishda o’rni haqida 12
Pedagogika fan, uning vazifalari va jamiyat tarakiyotida
tutgan o’rni 12
Pedagogika fanining tushunchalari (kategoriyasi) 14
Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi va
pedagogika fanlari tizimi 17
Pedagogika fanining ilmiy tatkikot metodlari 19
Shaxs rivojlanish va unga ta’sir etuvchi omillar 22

II-BO’LIM. TARBIYA NAZARIYASI VA AMALIYOTI 22

Tarbiya jarayoni, uning mohiyati, vazifalari
Prezident I.A.Karimov asarlarida ma’naviy-axloqiy
tarbiyaning talqin etilishi 24
Mustaqil O’zbeksitonni rivojlantirishning
ma’naviy-axloqiy negizlari 25
Milliy istiqlol mafkurasida komil inson tarbiyasi 27
Prezidet I.A.Karimov milliy mafkura va unga
qo’yilgan talablar haqida 28
Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda ta’lim-tarbiya muassasalari va oilaning roli 30

2.1.2. Ishchi o’quv dasturi

O’zbekiston Respublikasi

Xalq ta’limi vazirligi

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat

pedagogika instituti

«TASDIQLAYMAN»
o’quv ishlari bo’yicha prorektor
_____prof Alimov N.O.
«_____» _____ 2010 yil

PEDAGOGIKA kafedrasi

PEDAGOGIKA TARIXI FANIDAN
ishchi dastur

Bakalavriyat yo’nalishi
Mutaxassisligi 5141600
Ta’lim sohasi 140000

Jizzax – 2010 yil

Annotasiya!

Ushbu ishchi dastur bakalavrlarga mo'ljallangan bo'lib, unda ta'lim-tarbiyaga oid qarashlar, maktab va maorifning ta'rixi ochib berilgan.

Tuzuvchi: katta o'qituvchi Sheranova M.B.
o'qituvchi Farsaxonova D.R.

A.Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika inistitutining Ilmiy Kengashida ko'rib chiqilgan.

KIRISh

Ushbu ishchi dastur 2008 yildagi yangi DTS lari va 2006 yilda TDPU da tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tayyorlandi.

O’zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab o’tgan qisqa vaqt ichida o’zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda katta yutuqlarga erishdi; o’z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, ulug’ ajdodlar qoldirgan boy madaniy, ma’naviy merosni o’rganish sharafiga muyassar bo’ldi, milliy g’ururi qayta tiklandi; respublikada ilm-fan, jumladan pedagogika fani yangi taraqqiyot bosqichiga ko’tarilmoqda; o’tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g’oyalarini xalq hayotigatadbiq etishdek ulug’ ishlar amalga oshirilmoqda.

Eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda O’rta Osiyoni Uzoq Sharq, ya’ni Xitoy va Yaponiya singari uzoq mamlakatlar bilan bog’lagan «Ipak yo’li» nafaqat savdo, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqa yo’l ham bo’lib, u ayniqsa, turkiy xalqlar madaniyati va ma’naviyati rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. O’sha davrdayoq O’rta Osiyo xalqlari o’rtasida o’rnatilgan madaniy hamda ta’lim-tarbiya sohasidagi do’stona aloqalar keyinchalik yanada mustahkamlana bordi. Buni hayot o’zi taqozo etdi.

«Ipak yo’li» bo’ylab ahli elat – o’zbek, qozoq, turkman, tojik, qoraqalpoq, qirg’izlar bahamjihat ahillikda bir oiladek yashaganlar. Bunga bu xalqlarning turmush tarzi, og’zaki ijodlari va turmushdagi o’xshash tomonlar yorqin dalildir. Buni biz IX-XI asrlarda yashab ijod etgan ulug’ mutafakkirlar, pedagoglar, shoir va yozuvchilarning asarlarida ham ko’rishimiz mumkin.

Qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodni hayoli, imon-e’tiqodli komil inson qilib tarbiyalashga alohida e’tibor berganlar, bu ishda islomiy tarbiyaning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati katta bo’lgan. Buyuk ajdodlarimiz bola tarbiyasi, madrasa, maktab, mudarris, o’qituvchi-pedagog, umuman maorif sohasida juda qimmatli fikrlar bildirganlar, bu sohada biz avlodlarga juda katta boy ma’naviy meros qoldirganlar. Ushbu ma’naviy boyliklarni chuqur o’rganib, tahlil qilib, amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Ma’ruzalar mavzusi va ularga ajratilgan soatlar

№	Ma’ruza mavzusi	Ajratilgan soatlar	Mustakil ish	Adabiyotlar	Talaba bilim baho	Inter faol metodlar	Axborot va telekommunikasiya vositalari
1	Pedagogika tarixi ilmining baxsi maqsad va vazifalari	2	2	1-4		Aqliy xujum	Kompyuterli o’qitish uslubi
2	O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta’lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosidan samarali foydalanishning ahamiyati haqidagi fikrlari	2	4	2-7		(ChAF usulidan foydalangan holda)	Telekommunikasiya vositalaridan foydalanish
3	Eng qadimgi yozma manbalarda ta’lim-tarbiya masalalari	2	4	3-5		Aqliy xujum	(Qadriyat nomli ishchi dasturdan foydalangan holda
4	Islom dini va hadislarning inson ma’naviy kamolotida tutgan o’rni	2	2	7-9		Vena diogramma usuli	Bunyodkor g’oyalar
5	Sharq uyg’onish davrida ta’lim-tarbiya to’g’risidagi fikrlar (IX-XIasrlar)	2	4	3-7		Kompyuterli dastur	Bunyodkor g’oyalar. Axloq nomli K.T
6	Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniyning ma’rifatparvarlik qarashlari	2	4	4-5		Klaster	Axloq nomli K.T
7	Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik va didaktik g’oyalari	2	2	6-7		Akliy xujum	Kompyuterli o’qitish uslubi
8	Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya masalasi	2	4	4-10		BBB metodi	Kompyuterli o’qitish uslubi (axloq)
9	Alisher Navoiyning ta’limiy-axloqiy merosi	2	2	11-12		Aqliy xujum	Bunyodkor g’oyalar
10	Turkistonda jadidchilik harakati, uning maorif sohasida	2	4	15-18		Vena diogramma usuli	Axloq nomli K.T

	tutgan o’rni						
11	Abdulla Avloniy va Mahmudxo’ja Behbudiylarning maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari	2	2	6-8		Kompyuterli o’qitish uslubi	Kompyuterli o’qitish uslubi
12	Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushenskiy va A.S.Makarenkolarning pedagogika fani taraqqiyotidagi o’rni	2	2	6-8		Insert metodi	Kompyuterli o’qitish uslubi
13	O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizmidagi islohotlar. Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlarida xalq ta’limi va pedagogika fani	2	2	1-5		Qarorlar shajarasi metodi	Kompyuterli o’qitish uslubi
	Jami:						

Seminar mavzulari va ularga ajratilgan soatlar

№	Mavzu nomi	Ajratilgan soat	Mustaqil ish	Adabiyotlar	TBB	Interfaol metodlar	Axborot va telekommunikasiya vositalari
1	O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma’naviy tarbiya va ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo’nalishlari	2	2	1-2-5		Munozara	Bunyodkor g’oyalar
2	Eng qadimgi ma’rifiy yodgorliklarda ta’lim – tarbiya	2	2	6-8		Aqliy xujum	Bunyodkor g’oyalar. Axloq nomli K.T
3	Hadis ilmining paydo bo’lishi, Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» hamda «As-saxix» asarlari	2	2	12-15		Veno Diogramma	Kompyuterli o’qitish uslubi
4	Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sinoning ta’lim – tarbiya to’g’risidagi qarashlari	2	2	16-18		Munozara	Kompyuterli o’qitish uslubi (axloq)
5	Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti, Amir Temur, Ulug’bek, Zahiriddin Muhammad Boburlarning	2	2	12-14			Bunyodkor g’oyalar Axloq nomli K.T

	ta’limiy-axloqiy qarashlari						
6	Alisher Navoiyning ta’lim-tarbiya to’g’risidagi qarashlari	2	2	1-2-5		Munozara	Bunyodkor g’oyalar
7	Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati va ta’lim- tarbiya haqidagi qarashlari	2	2	6-8		Aqliy xujum	Bunyodkor g’oyalar. Axloq nomli K.T
8	Abdulqodir Shakuriy va Maxmudxo’ja Bexbudiylarning pedagogik faoliyati	2	2	12-15		Veno Diogramma	Kompyuterli o’qitish uslubi
9	Yan Amos Komenskiyning pedagogik tizimi	2	2	16-18		Munozara	Kompyuterli o’qitish uslubi (axloq)
10	K.D.Ushinskiyning pedagogik tizimi	2	2	12-14			Bunyodkor g’oyalar Axloq nomli K.T
	Jami:						

Laboratoriya mashg’ulotlari mavzulari va ularga ajratilgan soatlar

№	Mavzu nomi	Ajratilgan soat	Mustaqil ish	Adabiyotlar	TBB	Interfaol metodlar	Axborot va telekommunikasiya vositalari
1	Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodiy faoliyati. Uning «Qudug’u bilig» asarida ta’lim va axloq muammolari	2	2	1-2-5		Munozara	Bunyodkor g’oyalar
2	Kaykovusning «Qobusnoma» asarida ta’limiy-axloqiy muammolari	2	2	6-8		Aqliy xujum	Bunyodkor g’oyalar. Axloq nomli K.T
3	Abdurahmon Jomiy va Jaloliddin Davoniyning ta’limiy – axloqiy qarashlari	2	2	10-13		Klaster	Axloq nomli K.T
4	Jahon Otin Uvaysiyning qizlar maktabi. Muhammad Sodiq Qoshg’ariy va uning «Odob as-salohin» asarida odob-axloq haqida	2	2	12-15		Veno Diogramma	Kompyuterli o’qitish uslubi
5	Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarining tahlili	2	2	16-18		Munozara	Kompyuterli o’qitish uslubi (axloq)

6	Abdurauf Fitratning barkamol inson tarbiyasi to'g'risidagi fikrlari	2	2	2-7		Munozara	Bunyodkor g'oyalar. Axloq nomli K.T
7	Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi	2	2	6-8			Axloq nomli K.T
	Jami:						

Ma'ruzalar mazmuni

1-MA'RUZA

Mavzu: Pedagogika tarixi ilmining baxsi maqsad va vazifalari

REJA:

1. Kirish. Pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalari.
2. Pedagogika tarixi fanining ilmiy-nazariy va milliy asoslari.
3. Pedagogika tarixi fanining manbalari, mazmuni, asosiy bo'limlari.
4. Pedagogika tarixi fanining bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashdagi o'rni.
5. Xulosa.

ADABIYoTLAR

1.Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1998.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Muloqat» jurnali, 1998 yil, 5-son.
3. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Ijild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.
4. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996, 146 bet
5. Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O'qituvchi», 1993, 204 bet

2-MA'RUZA

Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosidan samarali foydalanishning ahamiyati haqida

REJA:

1. I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida inson ma'naviyati va ta'lim-tarbiya masalasining yoritilishi.
2. Prezident I.A.Karimovning tarixiy merosimizdan foydalanish to'g'risidagi fikrlari.
3. Prezident asarlarida ta'lim-tarbiya to'g'risida ilgari surilgan g'oyalar va ta'lim tizimini isloh qilish masalalari.
4. I.A.Karimovning ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish haqidagi fikrlari.

ADABIYoTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 174 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1999. – 184 b
3.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 1993.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: «O'zbekiston», 1992.
5. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: «O'zbekiston», 1993.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», 1997.
7. Ahmedjonova A. va boshq. Komil inson davr talabi. T. «Yangi asr avlodi», 2004, 150 bet.

3-MA’RUZA

Mavzu: Eng qadimgi yozma manbalarda ta’lim-tarbiya masalalari

REJA:

1. «Avesto» - eng qadimgi ma’rifiy yodgorlik namunasi.
2. Qadimgi Xorazm, So’g’d, uyg’ur, turkiy-run yozuvlarining ta’lim-tarbiyani rivojlantirishdagi o’rni.
3. Urxun-Enasoy obidalari, Kultegin, Bilga hoqon, Tunyuquq, Irk bitiklarida va «Ta’birnoma»da ta’lim-tarbiyaning o’ziga xos xususiyatlari.
4. Xalq og`zaki ijodiyoti asarlarida axloqiy, aqliy, jismoniy, ma'rifiy tarbiya haqidagi fikrlar.
5. «Go`ro`g`li», «Alpomish» dostonlari, «Shiroq» va «To`maris» eposlarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati.

ADABIYoTLAR:

1. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O’qituvchi», 1995, 140 bet.
2. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O’qituvchi», 1996, 146 bet
3. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: «Movarounnahr», 2002, 720 bet.
4. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo’lida. – T.: «O’zbekiston», 1998.
5. Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O’qituvchi», 1997, 272 bet.

4-MA’RUZA

Mavzu: Islom dini va hadislarning inson ma’naviy kamolotining tarkib topishidagi o’rni

REJA:

1. Islom dinida ma’naviy-axloqiy tarbiya.
2. Qur’oni Karimda inson kamoloti masalalari.
3. Hadis va hadis turlari. Hadisi Sharifda odob-axloq namunalari.
4. Muhaddis (hadis to’plovchi)lar faoliyati haqida.
5. Tasavvuf va tasavvuf ta’limotida inson kamoloti masalalari.

ADABIYoTLAR:

1.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O’qituvchi», 1996, 146 bet
2.Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O’qituvchi», 1993, 204 bet.
3.Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. T.: «Sharq», 2004, 206 bet.
4.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Din nasihatdir. T.: «Sharq», 2006, 144 bet.
5.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. (Muqaddima), 1-juz. T.:. «Sharq», 2004, 192 bet.
6.Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: «Movarounnahr», 2002, 720 bet.

5-MA’RUZA

Mavzu: Sharq uyg’onish davrida ta’lim-tarbiya to’g’risidagi fikrlar (IX-XIasrlar)

REJA:

1. Sharq uyg’onish davrining o’ziga xos xususiyatlari.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o’zgarishlar, ilm-fan, madaniyatning rivojlanishi.
3. IX-XI asrlarda yashab ijod etgan adiblar ijodida ta’lim-tarbi va ma’rifatparvar g’oyalar.
4. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg’ariy, Ahmad Yassaviy asarlarining hozirgi kundagi ahamiyati.
5. Kaykovusning «Qobusnoma» asarida ta’lim-tarbiya masalalari

ADABIYoTLAR:

1.O’zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O’qituvchi», 1995, 140 bet.
2. Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O’qituvchi», 1997, 272 bet.

3. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996, 146 bet
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Muloqat» jurnali, 1998 yil, 5-son.
5. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar 1-tom. – T.: «Fan», 1998.

6-MA'RUZA

Mavzu: Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniyning ma'rifatparvarlik qarashlari

REJA:

1. Buyuk olim Al-Xorazmiyning fan olamiga qo'shgan hissasi.
2. Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
3. Abu Rayhon Beruniyning ijodiy faoliyati.
4. Abu Rayhon Beruniyning O'rta Osiyo Fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.
5. Mutafakkirlar asarlarida inson kamoloti va uni tarbiyalash masalalari.

ADABIYoTLAR:

1.Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar 1-tom. – T.: «Fan», 1998.
2. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.
3. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O'qituvchi», 1997, 272 bet.
4. Zunnunov A. va boshq. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.
5. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.

7-MA'RUZA

Mavzu: Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik va didaktik g'oyalari

REJA:

1. Abu Nasr Farobiy o'rta asr ma'rifatparvari, yirik olim.
2. Abu Nasr Farobiyning axloq-odobga oid qarashlarida pedagogik g'oyalarining qo'yilishi.
3. Abu Nasr Farobiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati.
4. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy faoliyati.
5. Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida.
6. Abu Ali ibn Sinoning ma'rifatparvarlik qarashlari.

ADABIYoTLAR:

1.Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993.
2. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.
3. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O'qituvchi», 1997, 272 bet.
4. Zunnunov A. va boshq. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.
5. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.

8-MA'RUZA

Mavzu: Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya masalasi.

REJA:

1. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.
2. Amir Temur amal qilgan axloqiy sifatlar.
3. Amir Temurning odob-axloqqa oid nasihatlari.
4. Mirzo Ulug'bekning ilm-ma'rifat sohasidagi xizmatlari.
5. Zahiriddin Muhammad Boburning ta'lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari.

ADABIYoTLAR:

1.Temurnoma. (Poyon Ravshanov tahriri), T.: «Cho'lpon», 1990, 350 bet.
2.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996, 146 bet

3.Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O'qituvchi», 1993, 204 bet.
4. Zunnunov A. va boshq. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.
5.Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. – T.: «O'qituvchi», 1998.

9-MA'RUZA

Mavzu: Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy merosi

REJA:

1. Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati.
2. Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlar.
3. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror», «Mahbub ul-qulub» asarlarining shaxs kamolotidagi ahamiyati.
4. Alisher Navoiyning maktab va madrasalarni rivojlantirishdagi faoliyati.
5. Alisher Navoiyning axloqiy qarashlari.

ADABIYoTLAR:

1.Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. 13-tom. – T.: «Adabiyot va san'at», 1996.
2.Abdurasulov M. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida. – T.: «O'qituvchi», 1981.
3.Abdullaeva Sh. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.
4.Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O'qituvchi», 1997, 272 bet.
5.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.

10-MA'RUZA

Mavzu: Turkistonda jadidchilik harakati, uning maorif sohasida tutgan o'rni

REJA:

1. Turkistonda jadidchilik harakati, uning maqsad va vazifalari.
2. Yangi usul maktablarining paydo bo'lishi.
3. Jadidchilarlarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati.
4. Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» darsligi.
5. I.Gaspirali, Munavvar Qori va A.Fitrat faoliyatlari.

ADABIYoTLAR:

1.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. II jild, T.: «O'qituvchi», 1999, 147 bet.
2.Abdurasulov M. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida. – T.: «O'qituvchi», 1981.
3.Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O'qituvchi», 1993, 204 bet.
4.Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. T.: «Aloqachi», 2006, 164 bet.
5.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Muloqat» jurnali, 1998 yil, 5-son.

11-MA'RUZA

Mavzu: Abdulla Avloniy va Mahmudxo'ja Behbudiylarning maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari

REJA:

1. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari.
2. Abdulla Avloniyning darslik kitoblari va ularning mazmuni.
3. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida ta'lim-tarbiya tizimi.
4. Mahmudxo`ja Behbudiy pedagogik merosining tarbiyaviy ahamiyati.
5. Mahmudxo`ja Behbudiy maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari

ADABIYoTLAR:

1.O’zbek pedagogikasi antologiyasi. II jild, T.: «O’qituvchi», 1999, 147 bet.
2.Abdurasulov M. O’zbek ma’rifatparvar shoirlari ilm-ma’rifat haqida. – T.: «O’qituvchi», 1981.
3.Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O’qituvchi», 1993, 204 bet.
4.Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. T.: «Aloqachi», 2006, 164 bet.

12-MA’RUZA

Mavzu: Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushenskiy va A.S.Makarenkolarning pedagogika fani taraqqiyotidagi o’rni

REJA:

1. Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati, sinf-dars tizimining yaratilishi.
2. Yan Amos Komenskiyning tarbiyani tabiat bilan uyg`un holda olib borish va onalar maktabi haqidagi qarashlari.
3. K.D.Ushenskiy pedagogika fani va tarbiya san'ati haqida.
4. K.D.Ushenskiyning dars hamda ta'lim metodikasi to`g`risidagi fikrlari.
5. A.S.Makarenkoning pedagogika fani va maktab taraqqiyotidagi o`rni.
6. A.S.Makarenkoning bolalarda jamoa orqali iroda, xarakter va intizomni tarbiyalash haqidagi g`oyalari.

12-MA’RUZA

Mavzu: O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizmidagi islohotlar. Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlarida xalq ta’limi va pedagogika fani

REJA:

1. O`zbekiston Respublikasi «Ta'lim to`g`risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» haqida.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar va barkamol avlod tarbiyasi haqida.
3. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi va maktablarda ta'lim-tarbiya amaliyoti.
4. Jahon rivojlangan mamlakatlaridagi zamonaviy-ijtimoiy bilimlar tizimida pedagogika fani va uning asosiy omillari.

SEMINAR MAShG’ULOTLARI MAZMUNI

1-MAShG’ULOT

Mavzu: O’zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma’naviy tarbiya va ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo’nalishlari.

REJA:

1. I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch” asarida inson ma’naviyati va ta’lim-tarbiya masalasining yoritilishi.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tarixiy merosimizdan foydalanish to’g’risida.

3. Prezident I.A.Karimov asarlarida ta’lim-tarbiya to’g’risidagi ilgari surilgan g’oyalar va ta’lim tizimini isloh qilish masalalari.

4. I.A.Karimov ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltirish haqida.

5. I.A.Karimov barkamol inson tarbiyasi haqida.

ADABIYoTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi. – T.: O’zbekiston 1993 yil
2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 174 b.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1999. – 184 b
4. Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyoti yo’li. – T.: O’zbekiston 1992 yil.

5. Karimov I.A. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang. – T.: O'zbekiston 1993 yil.
6. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O'zbekiston 1993 yil.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston 1997 yil
8. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». – T.: Sharq 1997 yil.
9. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali, 1998 y. 2-son.
10. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Muloqat» jurnali, 1998 y. 5-son.
11. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: O'qituvchi 1998 yil.
12. Karimov I.A. Adolatli jamiyati sari. – T.: «O'qituvchi» 1998 y.

2-MAShG'ULOT

Mavzu: Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarda ta'lim – tarbiya.

REJA:

1.Eng qadimgi davrda tarbiyaning kelib chiqishi. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Qadimgi davlatlar Sug'diyona, Baqtriya, Xorazm davlatlarida ta'lim – tarbiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
3. Xalq og'zaki ijodida ta'lim-tarbiya mazmuni va usullarining ifodalanishi.
4. «Avesto»da ta'limiy-axloqiy masalalarni ifodalanishi.
5. Urxun-Enasoy obidalarining ta'limiy-tarbiyaviy mohiyati.

ADABIYoTLAR:

1. Yusuf Xos Hojib «Qutudg'u bilig» Toshkent. 1989 yil.
2. Ahmad Yugnakiy Xibatul-haqoyiq. Toshkent. 1971 yil.
3. Xalq og'zaki ijodi Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. «Fan» nashriyot. 1964 yil.
4. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. T. 1972 yil.
5. Mahmud Qoshg'ariy «Devonu lug'atit turk» Adabiyot bo'stoni kitobida T. 1970 yil.

3-MAShG'ULOT

Mavzu: Hadis ilmining paydo bo'lishi, Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» hamda «As-saxix» asarlari.

REJA:

1. Hadis ilmining paydo bo'lishi va mashhur muxaddislarning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari.
2. Al-Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» va «As-saxix» asarlari hamda ularning mazmuni.
3. Hadislarda ta'lim va tarbiya uslublari.
4. Imom at-Termiziyning hadis ilmini rivojlantirishdagi xizmatlari.

ADABIYoTLAR:

1. 1001 hadis. Toshkent. 1990 yil
2. Axloq-odobga doir hadislar namunalari. Toshkent «Fan» 1990 yil.
3. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Imon. T. «Kamalak» 1991 yil.
4. Hadis. I-jild. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent 1991 yil.

4-MAShG’ULOT

Mavzu: Abu Nasr Farobiy ta’lim – tarbiya to’g’risida.

REJA:

1. Farobiy aqliy tarbiya haqida.
2. Farobiy ta’lim – tarbiya uslubi, shakl va usullari haqida.
3. Farobiyning fozil insonni shakllantirishga oid qarashlarining hozirgi davrdagi ahamiyati.
4. Abu Ali ibn Sino fanlar tasnifi to’g’risida. Ibn Sino aqliy va jismoniy tarbiya haqida.
5. Abu Ali ibn Sino ta’limotida ta’lim va tarbiya usullari, shakl va metodlari.
6. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi haqida.

ADABIYoTLAR:

1.Zunnunov A. Hayrullaev M. To’xtaliev B. Pedagogika tarixi T. «Sharq» 2000 yil.

2. O’rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T. «Fan» nashriyoti. 1996 yil.

3. Abu Nasr Farobiy. Risolalar. M.M.Xayrullaev. Toshkent. «Fan» 1975 yil.

4. K. Hoshimov, S Nishonova, M Inomova, R Hasanov. Pedagogika tarixi. darslik T. «O’qituvchi» 1996 yil.

5. Pedagogika tarxidan xrestomatiya T. 1996 yil.

6. A.Irisov. Abu Ali ibn Sino. Toshkent. 1992 yil.

7. S.Rahimov. Abu Ali ibn Sino «Ta’lim va tarbiya haqida» T. 1967 yil.

5-MAShG’ULOT

Mavzu: Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti, Amir Temur, Ulug’bek, Zahiriddin Muhammad Boburlarning ta’limiy-axloqiy qarashlari

REJA:

1. XIV-XVI asrlarda fan, madaniyat, maorif taraqqiyoti.
2. Amir Temur va uning etuk inson tarbiyasiga oid qarashlari.
3. Ulug’bekning ta’lim-tarbiya tizimi, metod va usullariga oid qarashlari.
4. Ulug’bek ilmiy-merosining jahon fani taraqqiyotida tutgan o’rni.
5. Zahiriddin Muhammad Boburning ma’rifiy-axloqiy qarashlari.
6. Temuriylar sulolasining ilm-ma’rifat taraqqiyotidagi o’rni.

ADABIYoTLAR:

1. Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. «Adabiyot va san’at» T. 1990.
2. X.Xasanxon Zaxriddin Bobur - Sayyoh va olim. Toshkent 1989.
3. Muhammad Solih. «Shayboniynoma». T. 1989.
4. Amir Temur o’gitlari, Toshkent. «Meros» 1992.
5. Temur tuzuklari. Toshkent1991.

6-MAShG’ULOT

Mavzu: Alisher Navoiyning ta’lim-tarbiya to’g’risidagi qarashlari.

REJA:

1. Alisher Navoiyning ilmiy-ma’rifiy faoliyati.
2. «Hayrat ul-abror» dostonining tuzilishi va mazmuni.
3. Dostonda Alisher Navoiy ilgari surgan ilmiy ta’limiy-axloqiy qarashlari.
4. «Maxbub ul - Qulub» asarining yaratilishi.
5. «Maxbub ul - Qulub» da inson kamolotiga xos xislatlarning yoritilishi.

ADABIYoTLAR:

1. Alisher Navoiy «Maxbub ul - Qulub». T. 1960 yil.
2. Alisher Navoiy «Xayratul abror» 2 tom, XII bob, 217,222, 230 hamda 264-258 betlar.
3. I.Xasanxo’jaev. Alisher Navoiy maktab va madrasa to’g’risida. T. 1963 yil.

7-MAShG’ULOT

Mavzu: Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati va ta’lim- tarbiya haqidagi qarashlari.

REJA:

1. Avloniyning hayoti va ijodiy yo’li.
2. Avloniy tashkil etgan maktablar va darsliklar.
3. «Birinchi muallim» («Muallimi avval»).
4. «Ikkinchi muallim» («Muallimi soniy»).
5. «Turkiy guliston yohud axloq» asarida komil inson tarbiyasiga oid ilgari surilgan g’oyalar.

a) axloqiy-tarbiya

b) vijdonni ulug’lash.

ADABIYoTLAR:

1. Bolalardan bolalarga. Toshkent.1989y.
2. Abdulla Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq» . T. 1992
3. Begali Qosimov. «Toshkent tongi». 1988 yil.
4. Begali Qosimov «Izlab-izlab topganim». Toshkent. 1990 y

8-MAShG’ULOT

Mavzu: Abdulqodir Shakuriy va Maxmudxo’ja Bexbudiylarning pedagogik faoliyati.

REJA:

1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida maktab va pedagogik fikr rivojlanishining umumiy tavsifi.
2. Yangi usul maktablarining tashkil etilishida Shakuriy va Behbudiylarning faoliyati.
3. Shakuriy va Behbudiylarning maktab, o’qitish mazmuni haqidagi fikrlar.
4. Shakuriy va Behbudiy tomonidan yaratilgan maktab darsliklari va ularning tavsifi.
5. Shakuriy va Behbudiylarning maktab va maorif, pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan o’rni.

ADABIYoTLAR:

1. Shakuriy XIX asr oxiri XX asr boshlarida o’zbek mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. T.: 1971
2. B.Qosimov, U.Dolimov, Ma’rifat dargalari. T. 1990 yil.
3. O’zbek xalq pedagogikasi. T. «O’qituvchi» 1967

9-MAShG’ULOT

Mavzu: Yan Amos Komenskiyning pedagogik tizimi.

REJA:

1. Komenskiy ijodida tarbiyaning tabiatga uyg’un bo’lishi to’g’risidagi tamoyillari.
2. Komenskiy bola yoshini davrlashtirish, maktab ta’limi, o’qitish mazmuni haqida.
3. Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida ilgari surgan didaktik tamoyillar.
4. Komenskiy ta’limni tashkil etishning asosiy shakli sinf -dars tizimi haqida.
5. Komenskiyning axloqiy qarashlarining mohiyati.
6. Komenskiy pedagogik nazariyasining hozirgi davr ta’lim-tarbiya tizimidan tutgan o’rni.

ADABIYoTLAR:

1.Yan Amos Komensiy. Buyuk didaktika. «O’qituvchi» nashriyoti T.: 1975
2.Yan Amos Komensiy. Tarbiya va o’qitish haqida klassik ta’limot. «Fan». Toshkent 1971

10-MAShG'ULOT

Mavzu: K.D.Ushinskiyning pedagogik tizimi.

REJA:

1. K.D.Ushinskiyning hayoti va pedagogik faoliyati.
2. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiya san'ati haqida.
3. Axloqiy tarbiya, uning maqsad va vazifalari.
4. Mehnat va uning tarbiyaviy ahamiyati.
5. K.D.Ushinskiy didaktikasi.
6. K.D.Ushinskiyning darslik kitoblari.
7. K.D.Ushinskiyning pedagogika va maktab taraqqiyotida tutgan o'rni.

ADABIYoTLAR:

1. K.D.Ushinskiy. Tanlangan pedagogik asarlari. T. 1959 y
2. K.D.Ushinskiy. Maktabda o'quv-tarbiya ishlari. T. 1952 y
3. M.F. Dumenko, R.Yodgorov. K.D.Ushinskiy – progessiv rus pedagogikasining asoschisidir. T. 1974 yil.

LABORATORIYa MAShG'ULOTLARI MAZMUNI

1-MAShG'ULOT

Mavzu: Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodiy faoliyati. Uning «Qudug'u bilig» asarida ta'lim va axloq muammolari.

REJA:

1.Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati. «Qutudg'u bilig» asarining yaratiliish.
2. Asrda ilgari surilgan aqliy, axloqiy tarbiya masalalari.
3. «Qutudg'u bilig» asrining ilmiy, ta'limiy-axloqiy ahamiyati.
4. Yusuf Xos Hojib etuk inson tarbiyasi usullari haqida.

ADABIYoTLAR:

1. Yusuf Xos Hojib «Qutudug'i bilig». «Yulduzcha» 1990 y.
2. B. To'xliev. Yusuf Xos Hojibning «Qutudug'i bilig» asari. T. «O'zbekiston». 1991
3. R. Xasanov. Pedagogika tarixidan lektsiyalar. T. 1991y
4. Ya.Shermuhammedov. O'rta Osiy mutafakkirlarining yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlar. T. 1999 y.

2-MAShG'ULOT

Mavzu: Kaykovusning «Qobusnoma» asarida ta'limiy-axloqiy muammolari.

REJA:

1. Kaykovusning «Qobusnoma» asarining yaratilishi.
2. Asarda ilgari surilgan ta'lim - tarbiya va axloq masalalari.
3. «Qobusnoma» asarida barkamol inson tarbiyasida qo'llaniladigan metod va usullarning ifodalanishi.
4. Javonmardlik tarbiyasi.
5. «Qobusnoma» asari ilk padnoma sifatida yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati.

ADABIYoTLAR:

1. Kaykovus «Qobusnoma» 2-nashr «Istiqlol».1994 y.
2. Rajabov S. R. Tarbiya va o'qitish haqida klassik ta'limot. T. «Fan» 1971 yil.
3. Z.F. Mirtursunov. Xalq pedagogikasi. T. «Fan» 1975
4. Ibrohim Xaqqul. Adabiyot farzandlari. T. «Yosh gvardiya» 1990
5. M.Xayrullaev. Epoxa vozrojdeniya imislitelya vostoka. T. 1971

3-MAShG'ULOT

Mavzu: Abdurahmon Jomiy va Jaloliddin Davoniyning ta'limiy – axloqiy qarashlari.

REJA:

1.Jomiyning hayoti va faoliyati.
2. Jomiynnig komil insonni tarbiyalashga oid qarashlari.
3.Jomiy ta'lim va tarbiya usullari haqida.
4.Davoniyning ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni.
5.Davoniy axloqiy kamolotni tarbiyalash haqida.
6.Davoniyning shaxsni axloqiy shakllantirishga oid qarashlari.
7. Davoniy ta'lim va tarbiya uslubi haqida.

ADABIYoTLAR:

1.K. Hoshimov, S Nishonova, M Inomova, R Hasanov. Pedagogika tarixi. darslik T. «O'qituvchi» 1996 yil.
2. Pedagogika tarxidan xrestomatiya T. 1996 yil.
3. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T. «Fan» nashriyoti. 1996 yil.
4. A. Jomiy «Bahoriston» T.1979 yil.

4-MAShG'ULOT

Mavzu: Jahon Otin Uvaysiyning qizlar maktabi. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy va uning «Odob as-salohin» asarida odob-axloq haqida.

REJA:

1. Jahon Otin Uvaysiyning hayoti va muallimlik faoliyati.
2. Qizlar maktabida ta'lim tizimi va mazmuni.
3. Jahon Otin ta'limotida ta'lim uslubining yoritilishi.
4. Jahon Otinning axloqiy tarbiya borasidagi qarashlari.
5. Jahon Otinning pedagogik fikr taraqqiyotida ayollar savodxonligini oshirishda tutgan o'rni.
6. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob as-salixin» asarini pedagogik fikr tarqqiyoti va amaliyotda tutgan o'rni.

ADABIYoTLAR:

1.K. Hoshimov, S Nishonova, M Inomova, R Hasanov. Pedagogika tarixi. darslik T. «O'qituvchi» 1996 yil.
2. Pedagogika tarxidan xrestomatiya T. 1996 yil.
3. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T. «Fan» nashriyoti. 1996 yil.
4. A.Jomiy «Bahoriston» T.1979 yil.

5-MAShG'ULOT

Mavzu: Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarining tahlili.

REJA:

1. Ahmad Yassaviy shariat peshvosi.
2. Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarining yaratilishi va tuzilishi.
3. Asarda ilgari surilgan ta'lim-tarbiya va axloq masalalari.
4. Asarda inson kamoloti to'g'risidagi fikrlar.
5. Asarda nafs tarbiyasi.
6. Asardagi pand-nasihatlar mazmuni.

ADABIYoTLAR:

1. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi I-II tom. – T. (Tuzuvchilar Hoshimov, S. Ochil. O'qituvchi 1995-2000).
2. Hoshimov K, Nishonova S. va boshq. Pedagogika tarixi. – T. O'qituvchi 1996 yil

6-MAShG’ULOT

Mavzu: Abdurauf Fitratning barkamol inson tarbiyasi to’g’risidagi fikrlari.

REJA:

1. Abdurauf Fitratning hayoti va pedagogik faoliyati.
2. Abdurauf Fitratning inson kamoloti va jamiyat taraqqiyoti, madaniyati rivojiga bagishlangan asarlari.
3. Abdurauf Fitratning «Hind sayyoxining qissasi», «Munozara» asarlarida ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, maktab-maorifni yuksaltirish to’g’risidagi g’oyalari.
4. Abdurauf Fitrat barkamol insonning ma’naviy, oilaviy va insoniy majburiyatlari haqida.
5. Xulosa.

ADABIYoTLAR:

1. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. II jild, T.: «O’qituvchi», 1999, 147 bet.
2. Abdurasulov M. O’zbek ma’rifatparvar shoirlari ilm-ma’rifat haqida. – T.: «O’qituvchi», 1981.
3. Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O’qituvchi», 1993, 204 bet.
4. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. T.: «Aloqachi», 2006, 164 bet.

7-MAShG’ULOT

Mavzu: Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi

REJA:

1. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi va ularga qo’yilgan talablar.
2. Aqsh va Germaniya ta’lim tizimi
3. Malayziya ta’lim tizimi.
4. Angliya va Italiya ta’lim tizimi.
5. Yaponiyada o’rta va oliy ta’lim tizimi.

ADABIYoTLAR:

1. Malayziya ta’lim tizimi. “Ustoz” Respublika jamg’armasi T.-2003y.

Pedagogika tarixi fani bo'yicha

Ma'ruza 26-soat
Amaliy-seminar 20-soat
Laborotoriya 14 - soat
Mustaqil ta'lim 60 –soat

№	Nazorat tartibi	Umumiy ball	86-100	71-85	56-70
1	J.n 3-marta	38 ball	33 – 38	27 – 32	21 – 26
	1 j.n	19 ball	16 – 19	13 – 15	10– 12
	Darsda faolligi uchun – 10 ball Dars moxiyatini yoritishda ijodiy yondashuvi uchun – 9				
	2 j.n	19 ball	16 – 19	13 – 15	10– 12
	Darsda faolligi uchun – 10 ball Topshiriklarni bajargani uchun – 9 ball				
	3 j.n	19 ball	16 – 19	13 – 15	10– 12
	Darsda faolligi uchun – 10 ball Topshiriklarni bajargani uchun – 9 ball				
2	O.n 2 marta	32 ball	28 – 32	23 – 27	18 – 22
	1.o.n.	16 ball	14 – 16	11– 13	9 – 10
	Savollarga yozma javob berganligi uchun – 8 ball Savollarga ogzaki javob berganligi uchun – 8 ball				
	2 o.n.	16 ball	14 – 16	11– 13	9 – 10
	Savollarga yozma javob berganligi uchun – 8 ball Savollarga ogzaki javob berganligi uchun – 8 ball				
3	Yakuniy	30	26 – 30	21 – 25	17– 20
	Savollarga yozma javob berganligi uchun – 8 ball Savollarga ogzaki javob berganligi uchun – 7 ball				
	Jami:	100	85 – 100	70 – 85	55 – 70

Talabalar bilimi quydagi namunaviy mezonlar asosida baholanadi:

Talabaning bilim darajasi	Ball	O'zlashtirish ko'rsatkichi
Talaba tomonidan berilayotgan javoblarda mavzu mohiyatini to'liq anglab etsa, uni aytib berolsa, ijoviy yonbashaolsa va o'z fikrini misollar bilan tasdiqlasa.	86-100	a'lo
Talaba tomonidan beilayotgan javoblarda mavzu mohiyatini anglasa uni aytib berish jarayonida ijodiy yondashuv amalga oshmasa, lekin o'z fikrini bildira olsa va misollar bilan tasdiqlasa.	71-85	Yaxshi
Talaba tomonidan berilayotgan javoblar mavzu mohiyatini qisman anglasa, uni aytib berishda faktlarga tayanmasa o'z fikrini asoslamasa.	55-70	qoniqarli
Talaba tomonidan berilayotgan javoblarda mavzu mohiyati ochib berilmasa, misollar keltirilmasa.	0-54	qoniqarsiz

Xulosa: talabalarning intellektual salohiyatini oshirib borish nuqtai nazardan reyting tizimiga qatiyan rioya qilish belgilab qo'yilgan. Har bir talabani baholashda yuqorida qayd etilgan mezonlarga amal qilish o'qituvchining burchidir.

JB, OB nazoratlarni baholashda mavzularga oid tushunchalarning keng yoritilishi, qo'yilgan talablarning bajarilishi mavzularga oid aniq misollarni keltirilishi shart.

2.1.3. Kalendar tematik reja

«TASDIQLAYMAN»
Kafedra mudiri _____
«____» «_____» 2010 yil

DASTUR BAJARILISHINING KALENDARLI REJASI
(ma'ruza, laboratoriya, amaliyot mashg'ulotlari, kurs ishlari)

Fakultet: _____ Akademik guruh: _____.
Fanning nomi: **Pedagogika tarixi**.
Ma'ruza o'qiydi: **o'qituvchi _____.**
Seminar mashg'ulotni olib boruvchi: **o'qituvchi _____.**
Laboratoriya mashg'ulotini olib boruvchi: **o'qituvchi _____.**

№	Mashg'ulot turi	Mavzu nomi	Sanasi	rejalashti-rilgan	bajarilgan	O'quvchi imzosi
1	Ma'ruza	Pedagogika tarixi ilmining baxsi maqsad va vazifalari				
2	Ma'ruza	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosidan samarali foydalanishning ahamiyati haqidagi fikrlari				
3	Ma'ruza	Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari				
4	Ma'ruza	Islom dini va hadislarning inson ma'naviy kamolotida tutgan o'rni				
5	Ma'ruza	Sharq uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlar (IX-XIasrlar)				
6	Ma'ruza	Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniyning ma'rifatparvarlik qarashlari				
7	Ma'ruza	Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik va didaktik g'oyalari				
8	Ma'ruza	Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya masalasi				
9	Ma'ruza	Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy merosi				
10	Ma'ruza	Turkistonda jadidchilik harakati, uning maorif sohasida tutgan o'rni				
11	Ma'ruza	Abdulla Avloniy va Mahmudxo'ja Behbudiylarning maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari				
12	Ma'ruza	Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushenskiy va A.S.Makarenkolarning pedagogika fani taraqqiyotidagi o'rni				
13	Ma'ruza	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizmidagi islohotlar. Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlarida xalq ta'limi va pedagogika fani				
		Jami maruza:				

O'qituvchi: _____

«TASDIQLAYMAN»
Kafedra mudiri _____
«____» «_____» 2010 yil

DASTUR BAJARILISHINING KALENDARLI REJASI
(ma'ruza, laboratoriya, amaliyot mashg'ulotlari, kurs ishlari)

Fakultet: **_____** Akademik guruh: _____.
Fanning nomi: **Pedagogika tarixi**.
Ma'ruza o'qiydi: **o'qituvchi _____.**
Seminar mashg'ulotni olib boruvchi: **o'qituvchi _____.**
Laboratoriya mashg'ulotini olib boruvchi: **o'qituvchi _____.**

1	Seminar	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma'naviy tarbiya va ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari				
2	Seminar	Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarda ta'lim – tarbiya				
3	Seminar	Hadis ilmining paydo bo'lishi, Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» hamda «As-saxix» asarlari				
4	Seminar	Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sinoning ta'lim – tarbiya to'g'risidagi qarashlari				
5	Seminar	Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti, Amir Temur, Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Boburlarning ta'limiy-axloqiy qarashlari				
6	Seminar	Alisher Navoiyning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qarashlari				
7	Seminar	Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati va ta'lim- tarbiya haqidagi qarashlari				
8	Seminar	Abdulqodir Shakuriy va Maxmudxo'ja Bexbudiylarning pedagogik faoliyati				
9	Seminar	Yan Amos Komenskiyning pedagogik tizimi				
10	Seminar	K.D.Ushinskiyning pedagogik tizimi				
		Jami seminar:				

O'qituvchi: _____

«TASDIQLAYMAN»
Kafedra mudiri _____
«____» «_____» 2010 yil

DASTUR BAJARILISHINING KALENDARLI REJASI
(ma'ruza, laboratoriya, amaliyot mashg'ulotlari, kurs ishlari)

Fakultet: **_____** Akademik guruh: _____.
Fanning nomi: **Pedagogika tarixi**.
Ma'ruza o'qiydi: **o'qituvchi _____.**
Seminar mashg'ulotni olib boruvchi: **o'qituvchi _____.**
Laboratoriya mashg'ulotini olib boruvchi: **o'qituvchi _____.**

1	Laboratoriya	Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodiy faoliyati. Uning «Qudug'u bilig» asarida ta'lim va axloq muammolari				
2	Laboratoriya	Kaykovusning «Qobusnoma» asarida ta'limiy-axloqiy muammolari				
3	Laboratoriya	Abdurahmon Jomiy va Jaloliddin Davoniyning ta'limiy – axloqiy qarashlari				
4	Laboratoriya	Jahon Otin Uvaysiyning qizlar maktabi. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy va uning «Odob as-salohin» asarida odob-axloq haqida				
5	Laboratoriya	Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarining tahlili				
6	Laboratoriya	Abdurauf Fitratning barkamol inson tarbiyasi to'g'risidagi fikrlari				
7	Laboratoriya	Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi				
		Jami laboratoriya				

O'qituvchi: _____

2.2. JORIY O’QUV – METODIK TA’MINOTI

2.2.1. Leksiyalar matni

O’zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirligi

A. Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti

«Pedagogika» kafedrasi

Pedagogika tarixi fanidan ma’ruza matnlarining mavzulari, rejalari va dars ishlanmalari

Jizzax - 2010

Annotasiya

Ushbu ma’ruzalar matnida Pedagogika tarixi fani bo’yicha ajdodlarimizning tarixiy merosidan foydalanish yo’llariga to’xtaladi.

Kirish ma’ruzasida pedagogika tarixi fanining predmeti va vazifalariga atroflicha to’xtatilgan.

Shuningdek, ma’ruza matnida tarbiyaning tarkibiy qismlari bo’yicha ajdodlarimizning qarashlari ochib berilgan.

Tuzuvchilar: “Pedagogika” kafedrasi
katta o’qituvchisi Sheranova M.B.
o’qituvchi Farsaxonova D.R.

T A Q R I Z Ch I : Dos. Payzimurodov X.K
Prof. Inatov I
P.f.n. Kushvaktov N

UMUMIY SOAT - 68
MA’RUZA - 34
AMALIY VA LABORATORIYa MAShG’ULOTI - 34

Ma’ruzalar matni «Pedagogika» kafedrasining 25 iyun 2007 yil yig’ilishida muhokama qilinib ma’qullangan.

1-*MA'RUZA*
MAVZU: PEDAGOGIKA TARIXI ILMINING BAXSI MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA:

1. Kirish. Pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalari.
2. Pedagogika tarixi fanining ilmiy-nazariy va milliy asoslari.
3. Pedagogika tarixi fanining manbalari, mazmuni, asosiy bo'limlari.
4. Pedagogika tarixi fanining bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashdagi o'rni.

Tayanch iboralar va so'zlar:

Pedagogika, tarix, ilm, maqsad, vazifa, manba, asos, milliy asos, ilmiy asos, nazariy asos, ta'lim, tarbiya, Sharq, G'arb, maktab, madrasa, mutafakkir, o'qituvchi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1998.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Muloqat» jurnali, 1998 yil, 5-son.
3. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.
4. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996, 146 bet
5. Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O'qituvchi», 1993, 204 bet.

Bu fanni o'rganishdan oldin, Siz Pedagogika nazariyasi bilan tanishdingiz. Pedagogika nazarisida ta'lim-tarbiya jarayoni haqidagi bilimga ega bo'ldingiz. Sizningcha:

- Pedagogika tarixi fani nimani o'rgatadi?
- Pedagogika fanini o'rganishdan maqsad nima?
- Pedagogika tarixi fanining vazifasi nimalardan iborat?

1. Kirish.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab o'tgan qisqa vaqt ichida o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda katta yutuqlarga erishdi; o'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, ulug' ajdodlar qoldirgan boy madaniy, ma'naviy merosni o'rganish sharafiga muyassar bo'ldi, milliy g'ururi qayta tiklandi; respublikada ilm-fan, jumladan pedagogika fani yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda; o'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini xalq hayotigatadbiq etishdek ulug' ishlar amalga oshirilmoqda.

Eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda O'rta Osiyoni Uzoq Sharq, ya'ni Xitoy va Yaponiya singari uzoq mamlakatlar bilan bog'lagan «Ipak yo'li» nafaqat

savdo, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqa yo'l ham bo'lib, u ayniqsa, turkiy xalqlar madaniyati va ma'naviyati rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. O'sha davrdayoq O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida o'rnatilgan madaniy hamda ta'lim-tarbiya sohasidagi do'stona aloqalar keyinchalik yanada mustahkamlana bordi. Buni hayot o'zi taqozo etdi.

«Ipak yo'li» bo'ylab ahli elat – o'zbek, qozoq, turkman, tojik, qoraqalpoq, qirg'izlar bahamjihat ahillikda bir oiladek yashaganlar. Bunga bu xalqlarning turmush tarzi, og'zaki ijodlari va turmushdagi o'xshash tomonlar yorqin dalildir. Buni biz IX-XI asrlarda yashab ijod etgan ulug' mutafakkirlar, pedagoglar, shoir va yozuvchilarning asarlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodni hayoli, imon-e'tiqodli komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar, bu ishda islomiy tarbiyaning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati katta bo'lgan. Buyuk ajdodlarimiz bola tarbiyasi, madrasa, maktab, mudarris, o'qituvchi-pedagog, umuman maorif sohasida juda qimmatli fikrlar bildirganlar, bu sohada biz avlodlarga juda katta boy ma'naviy meros qoldirganlar. Ushbu ma'naviy boyliklarni chuqur o'rganib, tahlil qilib, amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalari.

Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini o'z ichiga oladi va davrlar talabi asosida o'rganadi.

Pedagogika tarixi fani orqali ibtidoiy jamiyat davridan boshlab to hozirgi kunga qadar tarbiyaning kelib chiqishini, ijtimoiy taraqqiyotning o'zgarishi natijasida ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'zgargan mohiyatini turli davrlarda maorif, ta'lim-tarbiya, maktab taraqqiyotiga qo'shilgan hissalarni, bu sohalarda yaratilgan yangiliklarni, bobokalonlarimizning maktab, ta'lim-tarbiya sohasida yaratgan kashfiyotlarining ma'naviy hayotimizga qo'shgan hissalari, yaratgan asarlari, hayot va faoliyatlari bilan tanishib o'tamiz.

Pedagogika tarixi fani orqali biz ibtidoiy jamiyat davridan boshlab, hozirgi kunga qadar dastlabki tarbiya paydo bo'lishi, dastlabki ta'limning, maktab ta'lim-tarbiya tizimining, dastlabki madrasa, oliy o'quv yurtlari, universitetlarning, ulardagi ta'lim jarayonining paydo bo'lish bosqichlari bilan tanishamiz. Bu fan orqali biz dastlabki tuzilgan o'quv dasturlari, o'quv rejalari, o'qituvchi mutaxassislar tayyorlash yo'llari bilan tanishamiz. Shuningdek, xalq orzu-istaklarini amalga oshiruvchi komil inson to'g'risidagi xalq og'zaki ijodi namunalari, turli bitiktoshlardagi yozuvlar, mutafakkirlarimizning faoliyati, ta'lim-tarbiyaga oid yetuk asarlari namunalaridan mahramand bo'lamiz.

Yosh avlodni o'tmishda tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotining qanday taraqqiy qilib kelganligini bilmay turib hozirgi jamiyatda yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi. Tarbiya va ta'lim nazariyasi hamda amaliyotini tarixiy davrlardagi rivojlanishi pedagogika tarixida o'rganiladi.

Tarbiyaning ilk shakllari ibtidoiy jamiyat davridayoq paydo bo'lgan: Keksa avlod mehnat jarayonida orttirgan tajribalarini yosh avlodga o'rgatishga harakat

qilgan. Quldorlik tuzumi davrida Sharqda tarbiyaga oid turli pedagogik qarashlar vujudga keldi.

Demokrit, Platon, Aristotel va boshqalar qadimgi yunon faylasuflari asarlarida tarbiyaning maqsadi, vazifasi mazmuni va vositalari haqida fikrlar bildirilgan.

Qadimgi yunon faylasuflarining tarbiyada etika va psixologik birligi prinsiplariga tayanish aqliy, axloqiy va jismoniy birligi to'grisidagi g'oyalari pedagogik tafakkurning rivojlanishida muhim axamiyatga ega bulgan.

Feodalizm jamiyati davrida ta'lim-tarbiya ishlari hukmron feodal tuzumi va diniy mafkura maqsadiga qaratildi. Xususan O'rta Osiyoda tasavvuf maslagining reaksion shakllari maktab va madrasalarda katta ta'sir ko'rsatdi. Ta'lim-tarbiya sohasida ikki oqim vujudga keldi. Birinchi oqim G'azoliy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy kabilar madrasalarda aniq fanlardan ta'lim berilishiga qarshi turdilar.

Ikkinchi oqim dunyoviy ta'limni ilgari surdi. Bu oqimning mohiyati Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Ulugbek, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xusrav, Sa'diy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy kabi mutafakirlar faoliyatidan namoyon bo'ldi.

Bular tibbiyot mantiiq, musiqa, adabiyot, geografiya, matematika kabi ilmlar bilan yosh avlodni tarbiyalash fikrini olg'a surdilar.

Xususan, Farobiy insonning ma'naviy yetuk va mukammal bo'lishi uchun jismoniy aqliy, estetik va axloqiy tarbiyani birgalikda olib borish zarurligini qayd etdi. Sharq mutafakkirlari inson aql orqali har qanday bilimni egallashga qodir ekanligini ta'kidladilar va inson qobiliyatiga qattiq ishondilar.

"Kalila va Dimna" da, shuningdek Kaykavusning "Kobusnoma", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Rushnoinoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadig'u Bilig", Mahmud Qoshg'ariyning "Devoniy Lugotit-Turk", Ahmad Yugnakiyning "Xibbat ul xaqoyiq", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" asarlarida ilg'or pedagogik qarashlar ham ifodalangan.

Insonni tarbiyalashning yaxlit nazariyasi bo'lgan pedagogika tarixi chex mutafakkiri Ya. K. Komenskiy nomi bilan bog'liq. Komenskiy Yevropa tarbiyasini umumlashtirib ta'lim va tarbiyaning asosiy masalalarini ishlab chiqdi. Sinf dars ta'limi tizimini yaratdi. Keyinchalik ingliz faylasufi D. Lokk, fransuz materialistlari A. Gervesi, D. Didro, J. J. Russo va boshqalar pedagogika fanini ilg'or g'oyalar bilan boyitdilar. O'zbekistonda pedagogikaning tashkil topishi va rivojlanishi Abdulla Avlodniy, Xusaynxon, A. Ibodiyev, I. Raxmatullayev, Abduqodir Shakuriy, Qori Niyoziy, O. Sharafiddinov, R. O'rinboyev, F. Erg'oziyev kabi pedagog va olimlar nomi bilan bog'liqdir.

2. Pedagogika tarixi ilmining ilmiy-nazariy va milliy asoslari

Pedagogika tarixi fani ijtimoiy fan bo'lib, uning metodologik asosi yosh avlodni tarbiyalash an'analarini, jamiyatning taraqqiyot bosichlaridagi o'qitish, kamol toptirish tizimlarini, ularning qonun qoidalarini, qomusiy mutafakkirlar,

ma’rifatparvar adiblar va pedagoglarning ta’lim-tarbiya va ma’rifatga doir g’oyalarini va bu g’oyalarning rivojlanishini mukammal o’rganishdir.

O’tmishda progressiv pedagoglar va atoqli mutafakkirlar pedagogikaga doir muhim fikrlarni aytib qoldirganlar, bularni o’rganish bo’lajak pedagogning tafakkurini o’sishiga, pedagogik madaniyatini yuksalishiga imkon beradi.

Quyida ba’zi pedagoglarni nazariyalarini qarab chiqamiz. Buyuk Slavyan pedagogi Yan Amos Komenekiyning fikricha tarbiya nazariyasining uch vazifasi bor: O’zini, tevarak atrofidagi olamni bilish (aqliy tarbiya), o’z o’zini boshqarish (axloqiy tarbiya) va xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya).

Komenskiyning o’rta asr pedagoglaridan bu masaladagi farqi shuki, u birinchi vazifani hal qilinishini juda muhim deb hisobladi.

Komenskiy tarbiyaning roliga juda yuksak baho berdi. Inson, deydi u – faqat tarbiya tufayligina insonga aylanadi, insonga u tarbiyalanishiga eng qulay yoshda bo’lganida, ya’ni bolalik chog’ida tarbiya berilishi lozim.

Tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon pedagogika tarixi rivojlanishiga katta hissa qo’shdilar. Bu borada yunon olimlari Arastu, Platon, Demokrit kabi olimlar o’z fikrlarini bayon etdilar. Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari, tarbiyaning roliga bergan katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini yaratishda asosiy zamin bo’lib xizmat qiladi.

Shveysariyalik buyuk pedagog I. G. Pestalossi elementar nazariyasini yaratdi. Unga ko’ra tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib, asta sekin tobora murakkabroq darajaga ko’tarilib borishi lozim.

Pestalossining elementar ta’lim nazariyasi jismoniy tarbiyani, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va o’qitishni uz ichiga oladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so’ng o’zimizning milliy urf-odatlarimiz qadriyatlarimizdan foydalanishga keng yo’l ochildi. Shuningdek, pedagogikada ham yoshlarni komil inson bo’lib yetishishlarida mustaqil O’zbekistonning mustaqilligini mustaxhkamlash uchun barcha ishlarni sidqidildan bajarishga kirishildi. Ya’ni pedagogikada o’zimizning milliy asarlar qur’oni Karim, Hadis Prezidentimiz I.A.Karimov asarlaridan foydalanishga imkoniyat yaratildi. Chunki ularda ta’lim-tarbiyaning yuqori cho’qqillarini ko’rish mumkin.

Masalan: qur’onning Oli-Imron surasida "Kishilardagi baxillik, ochko’zlik sifatlari qoralanib, ularni saxiy adolatli olijanob bo’lishga chaqiradi.

Chunonchi, hadislarda ham ta’lim-tarbiyaning barcha qirralarini ko’rishimiz mumkin. "Ilmni Xitoydan borib bo’lsa, ham o’rgan" "beshikdan qabrgacha ilm izla" kabi hadislardan ilmni qanchalar qudratga ega ekani, u tufayli inson buyuk darajaga yetishib jamiyatda o’z o’rnini topishini anglasak, "Salomlashishni odat qilinglar, zero u bir-birlaringa muhabbatlaringni ziyoda qilur" hadisda insonning yuksak odob axloq egasi ekanligini oliy belgisi salomlashish haqida fikr yuritilib, u orqali insonlarning bir-biriga bo’lgan mehr-muhabbati ortishi yaqqol ifodalanadi.

Biz ta’lim-tarbiya berishda o’zimizni o’zligimizni anglashda avvalo milliy ma’naviy durdonalarimizdan foydalanish zarurdir. Bular bizga milliy asos bo’lib xizmat qiladi.

Qadimiy Turkiston jahonga Qozizoda Rumiy, Ulug’bek, Lutfiy, Xaydar Xorazmiy, A. Navoiy, Bobur singari allomalarni yetkazdi.

Qolaversa, ularning axloq odobga oid qarashlari, pedagogika fanlari bo'yicha ta'limoti butun jahonga o'rnak bo'larli ma'no va mazmun kasb etgan.

Pedagogika tarixning ilmiy, nazariy va milliy asoslarini puxta o'rganish o'qituvchilarning faqat pedagogik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki shu bilan birga, unga pedagogik mahoratni egallashga yordam beradi.

3. Pedagogika tarixi fanining manbalari, mazmuni, asosiy bo'limlari

Pedagogikamiz tarixini o'rganish millatimiz tarixini o'rganish bilan uzviy bog'liqdir. Yosh avlodni tarbiyalash va ularni o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal etib bo'lmaydi.

Pedagogika tarixi fani quyidagi manbalar asosida o'rganiladi:

- xalq og'zaki ijodi;
- buyuk adib va allomalarimiz ijodiy merosi;
- qadimgi yozma yodgorliklar;
-hukumatimizning ta'lim-tarbiyaga oid qonun va qarorlari;
- Prezident I.A.Karimov asarlari;
- dasturlar, ilmiy va pedagogik adabiyotlar;
- ta'lim-tarbiyaga oid kundalik matbuot materiallari.

Atoqli mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiya sohasida bildirgan muhim fikrlarini o'rganish, pedagogik tafakkurning o'sishiga, pedagogik madaniyatning ortishiga imkon beradi. Pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyoti qonunlariga suyangan holda turli pedagogik nazariyalarni, ta'lim-tarbiya mazmuni va metodlarini o'rgatadi. O'tmishning pedagogik tizimlarida bo'lgan ilg'or fikrlardan ijodiy foydalanadi.

Pedagogika tarixi fani ikki qismga bo'lib o'rganiladi:

1) O'rta Osiyo va Sharq xalqlari pedagogika tarixi.
2) Chet el pedagogika tarixi.

Birinchi qismda biz, qadimdan boshlab to hozirgi kunga qadar yashab ijod etgan allomalar Al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Jomiy, Abulqosim Firdavsiy, Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Bedil kabi O'rta Osiyo xalqlari olimlarining hayoti, ijodiy, pedagogik faoliyati, maktab, maorif, ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'shgan hissasi bilan tanishib chiqamiz.

Ikkinchi bo'limda esa chet El pedagoglaridan Yan Amos Komenskiy, J.Lokk, Jan Jak Russo, I.G. Pestalossi, A.S.Makarenko, K.D.Ushenskiy, L.N.Tolstoy va boshqalarning faoliyati va pedagogika sohasidagi qarashlari va faoliyatlari bilan tanishib o'tamiz.

4.Pedagogika tarixi fanining bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashdagi o'rni

Pedagogika tarixini o’quv kursi sifatida pedagogika oliy o’quv yurtlarida o’rganish bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Pedagogika tarixi fanini o’rganish – kishilik jamiyati taraqqiyoti yo’lidagi tarbiya pillapoyalarining tajribalariga suyangan holda har bir o’qituvchida pedagogik madaniyat va ularga munosabat bildirish kabi malakalarni shakllantiradi. Pedagogika va pedagogika tarixi fani orqali bo’lajak o’qituvchilarda yoshlar bilan ishlash, muomala madaniyati, tarbiyaviy ishlarni uyushtirish yo’nalishlari, bolalarning o’ziga xos xususiyatlariga qarab ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, kiyinish madaniyati, turli xil tarbiyaviy jarayonlarni uyushtirish san’ati o’rganiladi.

Pedagogika tarixi kursi yana talabaning umumpedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosimizga to’g’ri munosabatda bo’lishga imkon beradi, ta’lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta’lim, uning rivojlanish jarayoni, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog’liqligi to’g’risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bo’lajak o’qituvchi pedagogika tarixi fanini o’rgana borib, boshqa psixologiya-pedagogika turkumidagi o’quv fanlari kabi pedagogik tushunchalar yuzasida fikr yuritishga hamda ularning mohiyatini tushunishga ham o’rgana boradi.

Pedagogika tarixini o’rganish bo’lajak o’qituvchilarning faqat pedagoglik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki, shu bilan birgalikda, unga pedagogik mahoratni egallashga yordam beradi. Shuningdek, o’tmishning ta’lim-tarbiya sohasidagi eng yaxshi tajribalarni o’rganadi, bu esa uning kelajakdagi kundalik pedagoglik faoliyatida yordam beradi, uni bevosita amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

2-MA’RUZA

Mavzu: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosidan samarali foydalanishning ahamiyati haqida

REJA:

5. I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida inson ma’naviyati va ta’lim-tarbiya masalasining yoritilishi.
6. Prezident I.A.Karimovning tarixiy merosimizdan foydalanish to’g’risidagi fikrlari.
7. Prezident asarlarida ta’lim-tarbiya to’g’risida ilgari surilgan g’oyalar va ta’lim tizimini isloh qilish masalalari.
8. I.A.Karimovning ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltirish haqidagi fikrlari.

Tayanch so’z va iboralar:

Ma’naviyat, ma’rifat, tarix, madaniy meros, qadriyat, o’zlikni anglash, ma’naviy ildiz, ta’lim, tarbiya, ta’lim tizimi, ajdodlar merosi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 174 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1999. – 184 b.
3. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: «O’zbekiston», 1993.
4. Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. – T.: «O’zbekiston», 1992.
5. Karimov I.A. O’zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: «O’zbekiston», 1993.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», 1997.
7. Ahmedjonova A. va boshq. Komil inson davr talabi. T. «Yangi asr avlodi», 2004, 150 bet.

1. I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida inson ma’naviyati va ta’lim-tarbiya masalasining yoritilishi

Prezident I.A.Karimov o’zining **“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”** asarida ma’naviyatga shunday ta’rif beradi: “**ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”.**

“Ma’naviyat” tushunchasi jamiyat hayotidagi g’oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o’zida to’la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma’noda “ma’naviyat” tushunchasi orqali ifoda etish mumkin.

Ma’naviyatning negizi va ma’no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlaridan biri insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg’ayishi hisoblanadi. Bu esa insonlarni doimo halol va pok yashashni o’ziga hayotiy e’tiqod, oliy maqsad deb bilishiga asos bo’ladi.

Prezident inson ma’naviyati xususida fikr yuritar ekan, bugungi kunda insonlardagi bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan, bir-birini inkor qiladigan ikki xil xayotiy qarash mavjudligini ta’kidlaydi.

Birinchisi – o’z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo’lishi haqida o’ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar.

Ikkinchisi – bunga mutlaqo qarama-qarshi bo’lgan yondashuv, ya’ni, hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o’zini qiynamasdan, faqat nafs qayg’usi va o’tkinchi hoyu-havasga, huzur-halovatga berilib, yengil-yelpi umr kechiradigan, o’zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo’lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari.

Mana shunday ikki xil dunyoqarash asosida paydo bo’ladigan og’ir savollar odamzot ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o’ylantirib, qiynab keladi. Hayot mohiyatini anglab yetishga o’z umri, bilim va salohiyatini bag’ishlagan ne-ne buyuk zotlar, mutafakkir faylasuflar, alloma va aziz-avliyolar millati, tili va dinidan qat’i nazar shu kabi murakkab muammolarga javob topish uchun izlangan, bu mavzuda qancha-qancha asarlar yaratgan. Lekin bu savol bugungi kunda ham hanuz o’tkir va dolzarb bo’lib qolayotganini inkor etib bo’lmaydi.

Ana shunday bir–birini inkor etadigan dunyoqarashlarni inobatga oladigan bo’lsak, bularning o’zi tegishli xulosalarga olib kelishi muqarrar. Ya’ni, o’z peshona teri bilan halol turmush kechiradigan inson hayotidan mamnun va rozi bo’lib, elning hurmatini qozonib yashaydi. Ikkinchi tomondan, bu dunyoda yengil-yelpi, har xil nopok yo’llarga berilib, insoniy burchini unitib, mol-dunyoga intilib yashagan odam, eng achinarlisi shuki, hayotining so’ngida armon va nadomatlarga botib o’z umrini tugatadi.

Inson ma’naviy olamining yuksalishi bilan bog’liq turli holatlar haqida ko’p gapirish mumkin. Lekin, muxtasar qilib aytganda, Ollohning o’zi bizga buyurgan

komil inson bo’lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarning ma’no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo’lish, ularga amal qilib yashash – odamzotning ma’naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon. Bunday xulosani insoniyat o’z ongli hayoti davomida doim orzu qilib, intilib kelgan yuksak ma’naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o’rinlidir.

Ma’naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o’giti, Vatan tuyg’usi, bu hayotning ba’zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo’lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o’ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne’mat va go’zalliklaridan bahramand bo’lish ma’naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o’tgan murakkab rivojlanish yo’llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qayerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o’z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo’yib yashashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo’lsa, o’sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma’naviy yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug’iladi.

Umuman olganda, insoniyat tarixi ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch – qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma’naviyatsiz hyech qachon odamiylik va mehr – oqibat, baxt va saodat bo’lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

O’ylaymanki, yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bo’lsa, har birining o’z ma’naviy olami bor. **Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak.** Shuning uchun ham o’zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu haqda o’ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin.

Ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar

Biz milliy ma’naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o’z oldimizga asosiy vazifa qilib qo’yar ekanmiz, bugungi kunda ma’naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta’sir o’tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o’rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo’ladi.

Ma’naviyatni shakllantiradigan omil va mezonlar quyidagilar:

1. Ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko’hna tarixiy yodgorliklar.
2. Muqaddas dinimiz.
3. Oila muhiti.
4. Mahallaning ta’siri.
5. Ta’lim-tarbiya tizimi.

Albatta, har qaysi xalq va millatning ma’naviyatini uning tarixi, o’ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo’lmaydi. Bu borada, tabiiyki, **ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko’hna tarixiy yodgorliklar** eng muhim omillardan biri bo’lib xizmat qiladi.

Bizning qadimiy diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo’lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda. Bu tabarruk

zamindan ne-ne zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizasiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos.

Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi.

Misol uchun "Avesto"dagi insonlarni ezgulikka chorlovchi qarashlar, xalq og'zaki ijodi namunalaridagi inson ma'naviy kamolotidagi muhim o'rin tutuvchi fikrlar, Navro'z falsafasidagi odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlarni ifoda etuvchi g'oyalar ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g'oyalardan bahramand bo'lib, ma'naviy kamol topganining yana bir tasdig'idir.

Shu o'rinda ma'naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir mezon – **muqaddas dinimiz** haqida alohida to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman. Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, ohiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Ma'lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib keladi. Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tizilmasi – AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani ham ana shunday yuksak e'tirofning yana bir tasdig'idir.

Hadis ilmi va islom xuquqshunosligining ravnaq topishida o'zlarining ulkan hissalari qo'shgan vatandoshlarimiz Imom Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniylar yurtimizni butun dunyoga tanitganlar.

Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, **bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari** bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim.

Masalan, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiylarning olib borgan faoliyatlari, ilmiy izlanishlari natijalari butun dunyoda mashhur bo'lgan.

Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz esa, bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart.

Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hyech shubhasiz, **oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir.** Chunki insonnning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolalaning harakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi.

Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informasiyaning 70 foyizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan. Bolalaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Xalqimizning "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan dono maqoli, o'ylaymanki, mana sha azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi.

O'z-o'zidan ravshanki, yuqorida zikr etilganidek, bola tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham muhim rol o'ynashini inkor etib bo'lmaydi. Aqli raso har qaysi

inson yaxshi anglaydiki, **bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho nemat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.**

Muxtasar aytganda, **oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir.**

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda **mahallaning roli va ta'siri** katta. Ma'lumki, azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillilik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan habar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to'y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analari avvalombor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o'zini-o'zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz "Mahalla – ham ota, ham ona" degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz.

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu **ta'lim-tarbiya tizimi** bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, talim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradagn va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongini o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qanday ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy ta'labdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizning mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hyech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish,

yoshlarimiz, butu3n xalqimizning ma’naviy yuksalishi yo’lida mustahkam zamin yaratdi, desak, hyech qanday hato bo’lmaydi.

2. Prezident I.A.Karimovning tarixiy merosimizdan foydalanish to’g’risidagi fikrlari

Uzoq va boy tarixga ega bo’lgan Markaziy Osiyo xalqlari o’zining ta’lim–tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning avlodlarini insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, do’stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan. Xalqimiz yaratgan ma’rifiy fikr sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi. Lekin mustaqillikka erishgunimizga qadar biz bu meroslarning baridan bebahra edik. Istiqlolimiz sharofati bilan milliy-madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz, ma’naviyatimizni o’rganish va uni yanada yuksaltirish uchun imkoniyatlar yuzaga keldi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so’zlagan-nutqida ta’kidlaganidek: «Mamlakatimizni istiqlol yo’lidagi birinchi-qadamlaridanoq, buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg’unlashtirish asosida jahon andozalari va ko’nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda».

Bu esa qadimiy boy ma’rifiy merosimizning qimmatli manbalarini, bebaho xazinamizni yuzaga olib chiqish, uni hozirgi ilmiy-pedagogik tafakkur iste’moliga kiritishni taqozo etadi.

O’tmish ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarimizning ahamiyatini Prezidentimiz I.A.Karimov o’z asarlarida alohida ta’kidlab deydi: «Xalqimiz tayanchi-ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosning o’zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz lozim»[40].

Prezidentimiz jamiyatimiz milliy mafkurasini yaratishda ham o’tmish mutafakkirlarimiz merosini muhim deb biladi. U bu mafkurani yaratishda «milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo’shgan olimu fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o’rganish darkor. Men bu o’rinda Abu Nosir Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi ulug’ ajdodlarimizning shu mavzuga daxldor asarlarini nazarda tutayapman. Masalan, Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarini esga olaylik. Buning ming yilcha ilgari yaratilganiga qaramasdan, bugungi o’quvchi ham bu asardan hozirgi hayotning murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo’l-yo’riqlarni topa oladi»[41]-deb yozadi.

I.A.Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q» risolasida ham o’tmish tariximiz va merosimiz ahamiyatini yorituvchi muhim asardir. Prezidentimizning

[40]И.А.Каримов. Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик. Т., «Ўзбекитон», 1993 й, 8 б.

[41]И.А.Каримов. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. Баркамол авлод орзуси. Т. «Шарқ», 1999 й. 36-37 б.

«Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q» degan fikrlari faqat ijtimoiy-siyosiy sohaga emas, balki ta’lim tarbiyamiz va pedagogikamz sohasiga ham talluqlidir. Pedagogikamiz tarixi, o’tmishda ta’lim-tarbiya amaliyoti va nazariyasi qanday bo’lganligini bilmasdan turib hozirgi ta’lim tarbiyamizda yuksak darajaga erishib bo’lmaydi.

Milliy va umumbashariy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, Markaziy Osiyo va Sharq mutafakkirlarining ilmiy va ma’naviy merosi, O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta’lim-tarbiyaga oid asarlari milliy istiqlol g’oyasi haqidagi nazariyalar hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, «Tarix xotirasi, xalqning jonajon o’lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o’zlikni anglashni, ta’bir joiz bo’lsa, milliy iftixorni tiklash va o’stirish jarayonida g’oyat muhim o’rin tutadi».

Darhaqiqat, yurtboshimiz o’z nutqlarida tariximizning beqiyos o’rnini alohida iftixor bilan tilga oladi. I.A.Karimovning «Tarixiy xotirosiz kelajak yo’q» asari yoshlarni ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashdagi ahamiyati beqiyos. O’zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Tarix millatni, xalqni porloq kelajak sari birlashtiradi. Uning kuch-qudrati ham shundadir. Millat tarixi-muayyan millatning o’tmishmni, uning asrlar davomidagi istaklar orzu-umidlarni namoyon etadi. Shu millatning kelajak taraqqiyot yo’lini belgilab beradi. Tarixdan ma’lumki, o’zbek xalqining asriy orzusi ozodlik, erkinlik va hurlikka intilish bo’lgan. Istiqlol sharofati orqali bu tarixiy ezgu maqsadlar ro’yobga chiqdi.

Vatan tarixida millatimizning o’tmishigina emas, balki uning zarxal varaklarida xalq xotirasi, ajdodlar tafakkurida va dunyokarashi, buyuk tarixiy-ma’naviy meros mujassam. Bu millatimiz borligi, uzligi va tirikligidir. Shuning uchun kaysi xalq va millat borki uz ta’rixini tiklashga, kuz korachigidek asrashga, uni bekamukust kelajak avlodga yetkazishga alohida e’tibor bilan karaydi. Yurtboshimiz doimo tarixning kuch-kudratini xis etib, bizga ajdodlarimiz boy tarixiy meros koldirganligini, biz ham kelajak avlodga ana shunday ibratli tarix koldirishimiz kerakligini uktiradi. Yurtboshimiz «millatni asrash kerak, millatni asrash uchun esa uning xakikiy tarixini urganish, avaylab ximoyalash kerak»ligini ta’kidlaydi. Chunki millat uzligini va borligini uz tarixi bilan namoyon etadi. Xakikiy tarix urganilsagina va yaratilsagina millatning ma’naviy dunyosi yanada boyib boradi. Millat jipslashadi, u uzi tanlagan yo’ldan dadil boradi. Tanlagan yo’ldan ogishmaydi.

3. Prezident I.A.Karimov asarlarida ta’lim-tarbiya to’g’risidagi ilgari surilgan g’oyalar va ta’lim tizimini isloh qilish masalalari

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 64%ni 30 yoshgacha bo’lgan yoshlar tashkil etadi. Buni inobatga olgan holda respublikamizda olib borilayotgan islohotlarda yoshlarga katta e’tibor berilmoqda. Xususan, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “... har qaysi davlat, har qaysi millat avvalo o’z farzandlari qiyofasida, unib-o’sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarni namoyon etadigan, uning azaliy orzu-intilishlarini ro’yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko’radi.

Farzandlarimiz, yoshlarimiz bizning nafaqat ishonchimiz va kelajagimiz, yoshlarimiz bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir" [1]. Bu o'rinda Prezident I.A.Karimov yoshlarga juda katta umid va ishonch bildirib, 2008 yilni "Yoshlar yili", 2010 yilni "Barkamol avlod yili" deb e'lon qildi. Yillarning bu tarzda nomlanishi, unga mos ravishda davlat dasturlarining qabul qilinishi, shu asosda amalga oshirilgan bir qancha ijobiy ishlarning amalga oshirilishi natijasida ta'lim-tarbiya sohasiga ham jiddiy e'tibor qaratilishiga sabab bo'ldi.

I.A.Karimov: "Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq" [4], deb ta'kidlab, bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasiga juda katta e'tibor qaratib, yoshlarga ulkan imkoniyatlar eshigini ochib bermoqdalar.

Prezident I.A Karimov o'z nutqlarida yoshlarga katta ishonch bildirib O'zbekston kelajagi yoshlar kuliga ekanligi takidlar ekan avvalo yoshlarni shunday ishonchga javob bera oladigan insonlar qilib yetishtirish o'qituvchi va tarbiyachilarning fidokor mehnati bilan bog'liqligini nazarda tutadi.

Yurtboshimiz uzining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9 – sessiyasida so'zlagan nutqida ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo bolalarimizga zamonaviy bilim berish deb talab kilamiz, ammo zamonaviy bilim berishi uchun avvalo o'qituvchilarning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi. Bundan ko'rinib turubdiki, o'qituvchining o'zi avvalambor zamonaviy bilim bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Ma'lumki, boshlangich sinflarda bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadi. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayoniga eng yetuk, tajribali murabbiylarni jalb etish lozim.

Bugungi kunda o'qituvchiga qo'yayotgan muhim talablardan biri ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan tanishish, amalga qo'llash va shular orqali bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iboratdir.

Bizning davlatimiz mutaxasislar tayyorlashning ilg'or jahon tajrbasini keng jalb etadi. Va eng avvalo, bevosita O'zbekstonning uzida yukori ta'lim uchun sharoitlar yaratadi. X-XII va XIV-XVI asrlarda movarounnaxr madaniyati gullab yashnagan davrda bu yerdagi kuplab shaxarlarda oliy ukuv yurtlari bulib, ilmiy markazlar hisoblanar edi. Xozirgi vaktda bu kutlug an'ana tiklanmoqda. Xalqimizning doimiy fazilati bo'lgan haqiqatni bilish yo'lidagi sabotni fan, texnika, texnologiya, boshkaruv va informatikada erishilgan jahon yutuklarini o'zlashtirishga yunalitrish kerak buladi. Fakat ana ushandagina, O'zbekiston uzining barcha boyliklarining chinakam egasi va xakikiy madaniy davlat buladi. Milliy madaniyatning uziga xosligini tiklashga aloxida e'tibor berilishi kerak. Shu bilan birga milliy uz-uzini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari ideallaridan, bizning kup millatli jamiyatimiz an'analaridan ajralib qolishimiz mumkin emas. Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faolligini baxsh etadi. Usib kelayotgan avlodning

barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon buladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga utadi. Yoshlar, ularning iktidorligi va bilim olishga chakokligidan ta’lim va ma’naviyatni tushunib yetish boshlanadi.

Insoning uzi va uz oilasining baxt-saodati yo’lida mexnat kilish shaxsan tayyor ekanligi, uning ichkiimkoniyatlarini tashkil etadi. Bizning kulamli ijtimoiy-iktisodiy niyattlariimiz xalqimizning mexnatsevarligimizdan kelib chikadi. Xar bir fularoning mustakil davlat bilan magrurlanishi uning uz davlatining mustaxkamlanishi va gullab-yashnashi uchun shaxsiy xissa kushishga tayyorligidandir. Fakat mana shundagina fukaro davlatning ishonchli tayanchiga aylanadi.

4. I.A.Karimovning ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltirish haqidagi fikrlari

«Marifatparvarlik, deydi yurtboshimiz - biz uchun bugun ham o’z ahamyatini yo’qotgani yo’q, yo’qotmaydi ham. Akl-zakavotli, yuksak ma’niviyatli kishilar tarviyalay olsakkina, oldimizdagi maqsadimizga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot karor topadi. Agar shu muammoni yechaolmasak, barcha toat ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham, kelajak ham, farovon xayot ham bo’lmaydi!(7- bet)».

Shu fikrlardan kelib chiqadigan bo’lsak, ajdodlarimiz ma’rifatli bo’lganlar va ilm-fan beshigini tebratganlar. Turon zaminida dunyoga mashxur allomalar yetishib chikkan. Ular bizning faxrimiz. Urta asr uygonish davri ravnaki ham ana shu ma’rifatning kuch-kudrati xosilasidir. Biz ana shundan ibrat olishimiz kerak. Usha paytdagi ma’rifatparvarlik xalq ma’naviyatini tiklash karatilgan edi. Ma’naviyatni tiklashda tarix muxim rol uynaydi. Shuning uchun «Tariy xotirasiz kelajak yo’q» asarida «Tarix-xalq ma’viyatining asosidir» deyiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ma’naviyat tarixdan ozuka oladi va boyib boradi. Ajdodlarimiz ma’naviyatining durdonalaridan biri bo’lgan «Avesto»da tarbiya masalalariga keng urin berilgan. Bu kitob Vatanimiz xududida yashab kelayotgan xalqlar dunyoning eng kadimgi madaniyat va ma’viyatga ega xalqlar ekanligini isbotlaydi. «Avesto»da shaxsning axloqiy xislatlari,xakguylik va adolatlilik uluglanadi. *«Avesto»da zardushtiylik uchta tayanga asoslanadi:*fikrlar sofligi, suzning sobitligi, amallarning insoniyligidir. Bu g’oyalar insoning ma’naviyati yuksakligi va tarbiyalangiligi uzida ifoda etadi. Bu g’oyalar uzining ahamiyatini yo’qogan emas. Demak, «Avesto» amalda bo’lgan tarixiy davrlarda bolalarda diniy va axloqiy tarbiya berilgan, shu tarzda ma’naviyat masalasi ustuvor mavkega va makomga ega bo’lgan.

Tarixning ibrat va tarbiya manbai ekanligini kuydagicha tarzda tavsivlash mumkin. Tarixiy milliy o’zlikni anglashda, imlliy birlikni shakllantirishda, shajaramiz ulugligi va pokligini bilishda, xalqimizning olijanob, xurriyatparvar va erkparvar an’alarini izchil urganishg hamda barkamol xakikiy insoni tarbiyalashda Vatan tarixining urni beqiyosdir . Shuning uchun «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q» asarida «uz tarixini bilgan, undan ruhiy kuvvat oladigan xalqni yengib bo’lmas

ekan, biz xakkoniy tariximizni tiklashmiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan kurollantirishimiz zarur» (24-25 bet)ligi ta’kidlanadi. Chunki tarix-mustakil davlatimiz xayotida faol katnasha oladigan ,idrokli va kobiliyatli,uzining tarixiy ildizlarini anglashga kodir, Ona-Vataniga va xalqiga cheksiz muxabbat tuygulari bilan tulib-toshgan avlodni kamol toptirish, ularning ongida milliy istiqlol tafakkuri va xarbiy vatanparvarltk g’oyalarini shakllantirish kuroli, ibratli xayotmaktabi va tarbiya manbaidir. Tarix Vatanga muxabbat uygotadi. Vatanni sevgan, uning dardi bilan yashagan insonnigina uz millatini sevadi va uning uchun kuyinadi. Ana shunday fazilatlarni yoshlarda kamol toptirshning tarbiyaviy manbai-bu ajdodlar koldirgan buyuk tarixdir. Bu tarix bilan xalqimizni va millatimizni kurorlantirish zarurligining Prezidentimiz tomonidan kayta-kayta takrorlashining boyisi ham ana shundadir.

Mustakil davlatda, tinchlik va osoyishtalikda, g’oyaviy chalkashliklar va " temir parda"dan xalos bulib, biz umumbashariy qadriyatining eng birinchi asosi bo’lgan xalq insonparvarligi chashmalaridan kadam-bakadam baxramand bulmokdamiz. Ayni shu xol taraqqiyot yo’lidan dalil borishimiz va butun Insoniyat bilan birligimizinng eng mustaxkam kafolatidir.

Xalqimizning ma’naviy ruhini mustaxkamlash va rivojlantirish-O’zbekistonda davlat va jamiyatning eng muxim vazifasidir. Ma’naviyat shunday kimmatbaxo mevasi, u bizning kadimiy va navkiron xalqimiz kalbida butun insoniyatning ulkan oilasida uz mustakilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuygusi bilan birgalikda yetilgan. Ma’viyatinsonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar ugiti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma’naviyat belgisi sifatida kishilarni yakin kilib jipslashtradi. Tabiatga yakinlik, jonajon ulkaning benixoyat guzalligidan baxramand bo’lish ma’naviyatiga ozik beradi, kuchaytiradi. Ma’naviyat uz xalqining tarixini, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirisiz barkamol kishi bo’lmaganidek, uz tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo’lmaydi.

Ma’naviyat turli xalqlar va mamlmkatlar kishilarini korindosh kiladi. Ularning tagdirini uzaro xurmat asosidayakinlashtiradi. Bizning ma’naviyatimiz arlar davomida million-million kishilar takdini bilan shakllgan. Uni ulchab ham, payoniga yetib ham bo’lmaydi. U-inson uchun butun bir olam. Ma’naviyat insonga xavodek, suvdek zarur. Saxrodagi sayyox xar doim bulokdan chankogini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va kiyinchiliklar bilan ma’naviyat chasmasini izlaydi. Yer, oila, ota-ona, bolalar, karindosh-uruglar, kuni-kushnilar, xalq, mustakil davlatimizga sadokat, insonlarga xurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik-ma’viyatining ma’nosini ana shunday juda keng. Inson uni Inson darajasiga kutaradigan asoslarining assosini uz akli bilan tom ma’noda kamrmy olmaydi. Inson uzini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u xakda uylab, mexnat kilib yashagandagina, ma’naviyat bilan tutashadi. Bizning odamlarimiz Vatandan uzakloshganda juda iztirob chekadilar, chunki ularning ma’naviyat chashmasi guyo uzoklashib ketgandek buladi. Shuning ham xalq Vatandan yiroklikni ogir kabul kiladi, chunki unda xar bir kadirdon kishi uchun kayguradigan umamiy kalb bor.

Ma’naviyat-takdirining exsoni emas. Ma’naviyat inson kalbida kamol topishi uchun u kalban va vijdonan, akl va kul bilan mexnat kilish kerak. Bu xazina insonga xayotda barkarorlik bagishlaydi, uning karashlari shunchaki boylik orttirish yo’lida kun kurinishga yo’l kuymaydi, fojialar vaktida omon saklab koladi va moddiy kiyinchilik kunlarida irodani mustaxkamlaydi. Xalqimizning xotirasi boy. Bugun jahonga mashxur bo’lgan Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Imo Buxoriy, At-Termiiziy, Axmad Yassaviy, Ulugbek, Navoiy va boshka kupgina allomalar ma’naviyati keng va ayni vakda kismati ogir bo’lgan siymolardir. Ular uzlarini haqiqatga tashna va uziga haqiqat bo’lgan xalqka bagishladilar. Buyuk ajdodlarimizning ulug nomlari xalq xotirasi va uning takdirida munosib davom etishga loyikdir.

Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so’ngra ma’naviyat to’g’risida o’ylash kerak, deydiganlar haq bo’lmasalar kerak. Ma’naviyat- insoning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-kudratidir. U yo’q joyda hyech qachon baxt-saodat bo’lmaydi. Nafaqat ko’xna tarix, balki yangi tarix ham buning kup misollarrni beradi.

Ma’naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag’ni ayash o’z kelajagiga bolta urish demakdir, Vatan va jahon madaniyatining, adabiyot va sa’natning yutuqlari bir oilaga yetib borish uchun oilaning moddiy ta’minlanganligidan qat’iy nazar qulay sharoitlar yaratishtalab etiladi. Ijodiy xodimlarning ma’naviy kuchiga erkinlik berish, ularga har tomonlama yordam ko’rsatish ham katta ahamiyaga egadir.

3-MA’RUZA
MAVZU: ENG QADIMGI YOZMA MANBALARDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

REJA:

1. «Avesto» - eng qadimgi ma’rifiy yodgorlik namunasi.
2. Qadimgi Xorazm, So’g’d, uyg’ur, turkiy-run yozuvlarining ta’lim-tarbiyani rivojlantirishdagi o’rni.
3. Urxun-Enasoy obidalari, ularning ma’rifiy ahamiyati.
4. Turkiy xalqlarning dastlabki savod maktablari.

Tayanch iboralar:

Yozma manbalar, yozuvlar, yodgorliklar, «Avesto», so’g’d, Turkiy-run, uyg’ur, xorazm, Urxun-Enasoy, obida, Kultegin, Blga hoqon, Tunyuquq, Irq, Ta’birnoma, bitik, turkiy xalq, ezgulik, yovuzlik, ezgu so’z, zgu fikr, ezgu amal.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O’qituvchi», 1995, 140 bet.
2. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O’qituvchi», 1996, 146 bet
3. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: «Movarounnahr», 2002, 720 bet.
4. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo’lida. – T.: «O’zbekiston», 1998.
5. Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O’qituvchi», 1997, 272 bet.
6. Valixo’jayev B. Oliy ta’lim tarixi: oliy madrasadan universitetgacha. G’G’ «Imom al-Buxoriy saboqlari» jurnal, 2001, №3-son, 242-243-betlar.

1. «Avesto» - eng qadimgi ma’rifiy yodgorlik namunasi.

> «Ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal» va «Ezgulik uchun yovuzlikka qarshi kurash» tamoyili, komillikka intilib kelgan ajdodlarimizning ma’naviyati va yashash tarzi bo’lib kelganligidan faxrlanamiz.
>
> A.Abdurahmonov

«Avesto» (asli «Ovasto») so’zi «Ogohnoma», «Donishnoma» degan ma’nolarni ifodalaydi. «Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, o’z davrida o’sha paytlarda bu dinga e’tiqod qiluvchilar uchun muqaddas kitob sanalgan va unga bir necha ming yillar davomida ixlos bilan amal qilib kelganlar.[1]

Hozir esa bu kitob ajdodlarimiz madaniyati va ma’naviy qadriyatlaridan darak beruvchi, jahon tamadduniga (sivilizasiyasiga) muhim hissa qo’shgan, olamshumul ahamiyatga ega bo’lgan ona yurtimizning eng qadimgi, eng mo’tabar, eng nodir, madaniy tarixiy, ma’rifiy yodgorligi sifatida o’rganiladi.

«Avesto» uzoq davrlar mobaynida – miloddan oldingi 3 ming yillikning oxirlaridan boshlab og’zaki tarzda shakllanib avloddan-avlodga o’tib kelgan. Muqaddas «Avesto» ning yozuvlari turli davrlarda yozilgan va bu yozuvlar har xil ijtimoiy muhitning mahsuli blgan. Ularni miloddan avvalgi XII-VIII asrlar orasida Xorazmda tug’ilib o’sgan Zardushtra (Zardusht) bir tizimga solib, o’zi ham «Avesto»ning «Gohlar» («Gotlar») qismin yozib kitobat qilgan va «Zardushtiyya» diniga asos solgan. Ya’ni Zardusht o’sha davrdagi ko’pxudolik g’oyalari va u g’oya bilan bog’liq bo’lgan urf-odat va diniy marosimlarga qarshi chiqib yakkaxudolik g’oyalarini targ’ib etadi.

Abu Rayhon Beruniy ham Zardushtrani insoniyatni ko’pxudolik (poleteizm)dan yakka xudolik (monotiyezm)ga targ’ib etgan ilk payg’ambarlardan biri bo’lgan, deb ta’riflagan.

Ko’pxudolik bilan bog’liq bo’lgan dahshatli odatlardan biri insonlarni qurbonlikka so’yish bo’lgan. Tarixning ana shunday Chirkin, dahshatli davrlarida insoniyat xaloskori sifatida vatanimiz va millatimiz iftixori bo’lmish Zardusht mardlarcha maydonga chiqdi. Zardusht insoniyat hayoti uchun g’oyat zararli

[1] Абдуращмонов А. Саодатга элтувчи билим. Т.: «Моваруннащр», 2002, 720 бет.

bo’lgan ko’pxudolik e’tiqodlarining g’ayriinsoniy mohiyatini chuqur anglab yetdi va o’z bilimlarini yakayu yagona Oliy Tangri – Ahura Mazda (Xurmuzd) vahiylari bilan boyitib, insoniyat ongi va mafkurasida inqilob yasab, o’tmishning bunday dahshatli chirkin sarqitlariga bolta urub chil-parchin qilib tashladi va kishilik jamiyatining ma’naviy taraqqiyotini yangi yo’nalishga soldi.

Uning ta’limoti, siymosi, uning nomi bilan ataladigan «Zardushtiylik» dini insonlarga asrlar bo’yi ma’naviy madad, ruhiy oziq bo’lib xizmat qildi. «Avesto» dagi alqov qo’shiqlari, sanolar bashariyat tomonidan uzoq-uzoq yillar mobaynida qiroat bilan kuylab kelindi va insonlarda kelajakka umid, yaxshilik, ezgulik, mardlik, qahramonlik, pokizalik, rostgo’ylik tuyg’ularini tarbiyalaydi, yovuzlikka nisbatan esa nafrat hissini uyg’otishga xizmat qildi va mamlakatlar bo’ylab keng tarqaldi. Jumladan, qadimgi Parfiya, Baqrtiya, So’g’diyona, Parkana, Ozarbayjon, Eron, Xuroson, Iroq, Mug’ilistondan tortib to Suriya, Xitoy, Shimoliy Hindiston, Rum, Habashiston va boshqa mamlakatlarga tarqalgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ning «Gohlar» («Gotlar») qismini o’zi yozadi, kitobning qolgan qismini esa xalq og’zaki ijodini bir tizimga soladi.

Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Iskandar Zulqarnayn mil. avv. 330-yilda ahamoniylar imperiyasini mag’lub etgach, insonlarni xaniflikka, yakkaxudolikka targ’ib qilib, otashxonalarni vayron etgan. Olimlarga «Avesto»dagi tibbiyot, falsafa va ilmi nujumga doir o’rinlarini tarjima qilib qoldirib, qolgan ko’pxudolik qismini yoqib yuborishni buyurgan.

O’tmishda «Avesto» va Zardushtning vatani qayerda bo’lganligi to’g’risida olimlar o’rtasida bahs-munozaralar bo’lib o’tgan. Pirovardida o’ttizdan oshiq chet ellik mashhur avestoshunos olimlar va o’zimizning qadimshunos, tarixchi, avestoshunos tadqiqotchi olimlarimiz «Avesto» va Zardushtiylik dinining asoschisi Zardushtning vatani **O’zbekiston, Xorazm** deb qat’iy bir to’xtamga kelganlar. Olimlarning bunday yakdillik bilan chiqargan xulosalarini BMTning maorif va madaniyat bo’limi – YuNESKO ham tasdiqlagan.[1]

Ushbu fikrni o’z o’rnida yurtboshimiz ham ta’kidlab o’tganlar: «Avesto eng mo’tabar, qadimiy qo’lyozmamiz… Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig’ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma’naviy, tarixiy merosidir».[2]

«Avesto» zardushtiylikning muqaddas kitobi bo’lishi bilan birga, ilm-fan, hayotning barcha sohalari bo’yicha mukammal ma’lumot beradigan ulkan, eng ko’hna manba hisoblanadi. Unda eramizdan oldingi ikki minginchi yillardan tortib to oltinchi asrgacha bo’lgan davrdagi Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixiga doir, Sirdaryo va Amudaryo sohillarida yashaydigan xalqlarning ijtimoiy turmushiga oid ma’lumotlar bor. Bundan tashqari ushbu obidada iqtisodiy hayot, jo’g’rofiya, falakiyot, ilmi nujum, ijtimoiyot, biologiya, falsafa va tibbiyotga doir ko’p qimmatli ma’lumotlar mavjud.

[1] Абдуращмонов А. Саодатга элтувчи билим. Т.: «Мовароуннащр», 2002, 219-бет.
[2] Каримов И.А. Адолатли жамият сари. – Т.: 1998, 39-40-бет.

«Avesto»da olov, tuproq, suv va havomuqaddas hisoblangan. Unga ko’ra yer, suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni ozoda tutish va saqlashga alohida e’tibor berilgan. Yerni iflos qilgan va uni asrlash qoidalarini buzgan shaxslar 400 qamchi urish bilan jazolangan. «Avesto»dagi muhit tozaligini saqlash va kasalliklarning oldini olish vositalarini quyidagi guruhlarga bo’lish mumkin:

1. Axlatlarni bekitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan ko’mib tashlash. Shu yo’l bilan mikroblar o’ldirilgan yoki kamaygan.

2. Otash, issiqlik va sovuqlik yo’li bilan yo’qotish. «Avesto»da otash poklovchi va ofat ketkazuvchi vosita. U bilan hatto kiyim-kechaklarni zararsizlantirilgan.

3. Kimyoviy yo’l: kul, sirka, sharob, turli giyohlar tutatish yo’li bilan.

«Avesto»da doimiy badantarbiya bilan shug’ullanish, kunda yuz-qo’lni bir necha marta yuvish, sochni toza tutib, tirnoqlarni tez-tez olib turish tavsiya etiladi.

«AVESTO»DAN NAMUNALAR

Har bir inson o’zi o’sib-ulg’aygan zaminini eng yaxshi va go’zal mamlakat deb tushunmog’i kerak.

Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) bo’lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o’qishni va so’ngra esa yozishni o’rganish bilan eng yuksak pog’onaga ko’tarilsin.

Bolalar yosh paytidanoq daraxt ko’chati o’tkazish, uy-ro’zg’or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug’ullanishga o’rgatilishi shart.

Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o’z qo’llari bilan moddiy noz-ne’matlar yaratishi lozim.

Inson butun umri davomida suv, toproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga haqlidir.

Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 kishi qamchi urish jazosiga mahkumdir.

Yaxshilik ta’limini va sadoqatini amalga oshirib yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta’limni amalga oshirsinlar.

Ezgu o’y, ezgu so’z va savob ishlarni alqayman. O’zimni barcha ezgu o’ylarga, ezgu so’zlar aytishga, yaxshilik ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon yo’lardan yomon so’zu yomon ishlardan yuz o’giraman.

2. Qadimgi Xorazm, So’g’d, uyg’ur, turkiy-run yozuvlarining ta’lim-tarbiyani rivojlantirishdagi o’rni.

Hozirgi o’zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo’lib, ular yuksak va o’ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo’lni bosib o’tishgan. Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanishda ancha takomillashgan mehnat qurollari yasashgacha, undan urug’chilik, qabilachilik davrlariga kelib xo’jalik va madaniy taraqqiyotda

erishilgan yutuqlargacha bo'lgan tariximiz ota-bobolarmizning boy qadimiy madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqrtiya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya, Zarafshon vohalari, Parkana kabi o'lkalarda turli qabila va elatlar yashagan. Bular hozirgi o'zbek xalqining «ildizi» hisoblangan sak-massagetlar, so'g'diyonlar, xorazmiylar, baxtarlar, chochliklar va parkanaliklar kabi qabila va elatlar edi. Keyinchalik ular o'zaro va boshqa ko'plab qabila va urug'lar bilan birlashib ketgan va hozirgi Markaziy Osiyo hududtdagi xalqlarning ajdodlaridir.

Bu elatlar yashagan hududlarda o'ziga xos madaniy an'analar tarkib topa borgan. Masalan, eramizdan oldingi birinchi asrlarning birinchi yarmida qadimiy davlatlar – Baqtriya va So'g'diyona, Xorazm, Marg'iyona, Parkana, Parfiya kabi o'lkalarda xalq xo'jaligining turli sohalaridagi rivojlanish bilan birga madaniyat ham o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Bu taraqqiyot eramizdan oldingi IX-VI asrlarda paydo bo'lgan Ahamoniylar hukmronligi, keyinroq eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida tashkil topgan Grek – Baqtriya davlati, eramizning I asrida esa Kushonlar davlati, V asrda Eftalitlar hukmronligi, so'ngra sosoniylar emperiyasi va nihoyat, turk hoqonligi davrlarini o'z ichiga oladi.

Ajdodlarimizning bu qadimiy madaniyatiga ta'lim-tarbiyaga oid boy meros ham kiradi. Zero, hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha yetib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilik, adabiyot va san'at namoyandalarining ijodiy merosi, san'at va adabiyot namunalari buning dalilidir.

Tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan ma'lumotlarga qaraganda, eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lish namunasi ifodalangan ma'naviy madaniyat yodgorliklari, qadimgi grek tarixchisi Gerodotning «Tarix», Strabonning «Geografiya» asarlari, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Urxun-Enasoy bitiklari va boshqa shu kabi adabiy-tarixiy manbalar saqlangan va shular orqali bizgacha yetib kelgan. Bu yodgorliklar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta'sir etgan bo'lsa, insonning shakllana borishi ham, o'z navbatida, insoniyat jamiyatining tarkib topa borishiga yordam bergan. Xullas, insonning o'z-o'zini anglashi va jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan. Bu tarixiy jarayonni bilish inson tafakkurining qadimgi davrlardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanishi va shu bilan birga insonning ham tobora shakllana borganligi haqida to'la tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan birga bolalarga dalalarni o'lchash, suv toshqinlarining oldini olish, odamlarni davolash usullariga oid bilimlar berish ishlari avj oldi. Natijada maktablarga va yozuvga ehtiyoj sezila boshlaydi. Dastlab suratkashlik rivojlanib, piktografik xat (juda qadimgi tasviriy yozuv) paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik qo'shni mamlakatlardan kirib kelgan harf bilan yozish usuli paydo bo'ladi va tez tarqala boshlaydi.

Tadqiqotchilar eramizdan oldingi birinchi ming yillik o’rtalarida oromiy yozuvi, Aleksandr Makedonskiy istilosidan so’ng esa Yunon yozuvi va shu bilan birga forsiy mixxat ham ma’lum vaqtlarda qo’llanib kelinganini ta’kidlaydilar. O’sha davrda Xorazm, So’g’d, Kushan, Run (Urxun-Yenisey), uyg’ur va boshqa yozuvlar paydo bo’lgan va bu yuksalish ta’lim-tarbiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki inson ibtidoiy jamoa bo’lib yashash tarzini asta-sekin rivojlantirib borib, jahon madaniyatida katta kashfiyotlar yaratdi. Chunonchi, Xitoyda qog’ozning ixtiro etilishi, Hindistonda hisoblash o’nlik sistemasining paydo bo’lishi, Mesopotamiyada Yer kurrasini graduslarga, sutkani soat, daqiqa va soniyalarga bo’lishning joriy etilishi, Markaziy Osiyoda O’rta dengiz bilan Hindistonni bog’lovchi karvon yo’liningvujudga kelishi, keyin Markaziy Osiyo orqali Xitoydan O’rta dengizga «Buyuk ipak yo’li»ning ochilishi kabi muhim voqyealar madaniyatning taraqqiy etishi va yozuvning tarqalishiga sabab bo’ldi.

Demak, eramizning boshlarida hozirgi Markaziy Osiyo hududida biz yuqorida sanab o’tgan, Yunon va oromiy alifbosi asosida Xorazm, So’g’d, Baqtriya yozuvlari shakllangan.

Eramizdan oldin taxminan 484 (480) – 431 (425) yillarda yashagan Yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix» kitobida qadimgi forslar, saklar va massagetlarning ta’lim-tarbiyaviy qarashlariga oid muhim ma’lumotlar berilgan:

Forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlikdir, - deydi olim, - shunga ko’ra ular ko’proq o’g’illarga ega bo’lishdan faxrlanishgan. Podshoh ham kimning o’g’li ko’p bo’lsa, unga har yili sovg’a-salomlar yuborgan. Bundan tashqari, bolalarning yoshiga ham e’tibor berishgan. o’g’il bolalarni besh yoshdan yigirma yoshgacha faqat uch narsaga: otda yurishga, kamondan otish, to’g’rilikka o’tgatishgan. Bolani besh yoshgacha otasiga ko’rsatmaganlar, u ayollar tarbiyasida bo’lgan. Mabodo o’g’il bola vafot etsa, otasining qayg’urmasligi uchun shunday qilganlar.

O’g’il hyech qachon ota-onasini behurmat qilmagan. Ular ota-onaga hurmatsizlikni faqat nikohsiz tug’ilgan yoki tashlandiq bolalardan kutish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bundan tashqari Gerodot forslar uchun yolg’onchilik va qarzdor bo’lish sharmandalik hisoblangan, deydi… Yana ular daryo suviga tupurmaganlar, hatto qo’l yuvmaganlar. Ular daryolarni muqaddas sanaganlar.

Gerodotning bu ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, bizning ajdodlarimiz farzandlarinini jasoratli, o’z vatanining haqiqiy himoyachisi, kuchli va botir etib tarbiyalashga katta e’tibor berganlar. Erkaklargina emas, hatto ayollar ham jasorat ko’rsatgani Yunon faylasuflari tomonidan yozib qoldirilgan.

Plutarxning yozishicha, Aleksandr yerli xalqlarga yaqinlashish maqsadida makedoniyaliklar bilan mahalliy aholi urf-odatlarini aralashtirishga harakat qilgan. Shu maqsadda u o’ttiz ming bolani ajratib olib, yunon tili va harbiy san’atini o’rgatishga murabbiylar tayinlashga buyruq bergan.

Keyinchalik yunon alifbosining bu yurtda qabul qilinishi, o’sha davrda ko’plab maktablar ochilgani hamda unda yerli aholi farzandlari ham o’qitilganidan alolat beradi. Yoki So’g’d yozma yodgorliklari orasida «Eski xatlar» nomi bilan

yuritiladigan va V.B.Xenning tomonidan aniqlangan qimmatli manbalar bor. Bu xatlar eramizningboshlaridagi so'g'd yozuvi haqida ma'lumot beradi. «Eski xatlar» Dunxuan shahri (Sharqiy Turkiston) yaqinidagi savdo qishlog'ida yashagan so'g'dlik tijorat, savdo ahlining Samarqandga – o'z ona yurtiga yozgan shaxsiy xatlaridir.

Imperator Yan Di (615-617)ning elchisi Vey Szi hisobotlarida ham Samarqandda ta'lim-tarbiya haqida ma'lumotlar mavjud. «Aholisi (Samarqandning demoqchi) – mohir savdogrlardir. O'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savod o'rgata boshlaydilar; o'qishni o'rganishi bilan savdo ishlariga o'rgata boshlaydilar». Boshqa bir xitoy tarixchisi Syuan-Szin esa Samarqand aholisining axloqiy va xulq-odob qoidalariga rioya etishda boshqalarga o'rnak bo'lganliklarini aytib o'tgan. Bu ma'lumotlar qadimda bolalar o'qitiladigan savod maktablari bo'lganligi va maktablardan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy-ismoniy mashqlarga va hunarga o'rgatilganligi, ta'limdan maqsad – bolalarni hayotga tayyorlash ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Turk hoqonligi tarkibiga kirgan turklarning bevosita davomchisi, vorisi bo'lgan uyg'urlar juda katta meros – o'sha davr tilini aks ettiruvchi yozma yodgorliklar qoldirganlar. Bu yodgorliklar birin-ketin yozilganligi – xronologik jihatdan ikki davrga bo'linadi. Birinchi davrga xos obidalar eng qadimgi yodgorliklar bo'lib, ular urxun yozuvi obidalari bilan umumiylikka ega bo'lgan bitiktoshlardan iborat. Ikkinchi davrga tegishli yodgorliklarga esa so'g'd yozuvi asosida shaklangan uyg'ur yozuvida bitlgan matnlar kiradi.

3. <u>Urxun-Enasoy obidalari, ularning ma'rifiy ahamiyati</u>.

Ajdodlarimizning qadimiy madaniyatiga, ta'lim-tarbiyaga oid yozma yodgorliklar sarasiga Urxun-Enasoy yodgorliklari kiradi. Turk hoqonligi tarkibiga kirgan turkiy Urug'lar va ularning madaniyati Urxun-Enasoy yodgorliklari orqali aniqlangan. Urxun-Enasoy yodgorliklarining ko'pchiligi rus olimlari tomonidan topilgan. Bular asosan Urxun daryosi bo'ylaridan, Enasoy daryosining yuqori qismidan, Qirg'izistondagi Talas vodiysidan, shuningdek, Baykal ko'li atroflari, Lena daryosi sohillaridan ham topilgan.

Urxun-Enasoy yodgorliklari asosan toshlarga o'yib bitilgan yozuvlardan, idish, tanga kabi buyumlarda va qog'ozlarda yozilgan bitiklardan iborat bo'lib, bir qancha vaqtlar olimlar uchun o'qilishi jumboq bo'lib qoladi. Shunga ko'ra u qadimgi skandinav-germat tillariga oid run, runiy yozuvi nomibilan ham yuritiladi. Faqat XIX asrning 90-yillarida bu yozuvni dastlab daniyalik olim V.Tomsen va rus turkshunosi V.V.Radlov o'qiyilar. Ular bu yodgorliklarni turkiy xalqlarga tegishli ekanligini aniqlab beradilar.

Urxun-Enasoy yozuvi bilan bitilgan eng yirik obidalarga quyidagilar kiradi:

1. O'ngin (ongin) bitiktoshi – eng qadimiy va yirik yodnoma bo'lib, 689 yoki 692 yillarga tegishli.

2. Tunyuquq bitiktoshi – 712-716 yillarda toshga o'yib bitilgan.

3. Kul tegin bitiktoshi – 732 yilga tegishli bo'lib, juda yaxshi saqlangan. Urxun daryosining Ko'kshin irmog'idan topilgan.

4. Bilga hoqon bitiktoshi – Kul tegin bitiktoshi bilan birga topilgan.

5. Quli chur bitiktoshi – VIII asrga tegishli.
6. Moyun chur bitiktoshi – VIII asrga (taxminan 759 yillar) tegishli.
7. Irq itigi (folnoma).

Bu bitiktoshlar VII-VIII asrlarga tegishli bo'lib, turk hoqonligi davrida runiy yozuvida bitilgan. Ular grafik jihatdan bir-biriga ancha yaqin turai. So'g'diy yozuvi asosidapaydo bo'lgan
qadimgi turkiy run yozuvi G'arbiy va Sharqiy turk hoqonligida keng tarqalgan edi.

4. Turkiy xalqlarning dastlabki savod maktablari.

Uzoq o'tmishimizdagi ta'lim-tarbiya tizimi, uning bosqichlari, muassasalarri yaxlit holda o'rganilgan deb bo'lmaydi. Ayniqsa, saqlanib qolgan oliy madrasalarga faqat me'moriy yodgorlik sifatida qaralib, ularning o'tmish oliy ta'limi tizimidagi o'rni deyarli o'rganilmagan.

Bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarning ko'pchiligi mamlakatimizda Islom tamadduni davrlariga tegishli bo'lganligi sababli ularga ta'lim-tarbiya tizimi va muassasalari – maktab, madrasa, madrasai oliya kabi arabcha atamalar bilan atalgan.

Ma'lum bo'lishicha, o'tmish ta'lim-tarbiya tizimi uch bosqich va uning uch muassasasi – boshlang'ich maktab, o'rta maxsus (madrasa) va oliy, ya'ni madrasai oliyadan iborat bo'lgan.

Ta'limning birinchi bosqichi boshlang'ich maktab – «madrasat-ul-ibtidoiya», ikkinchi bosqichi – o'rta maxsus bilim yurti – «madrasat-us-sonaviya» va uchinchi – oliy o'quv yurti – «madrasat-ul-oliya» tarzida nomlanishi qayd qilingan. Shu bilan bir qatorda davr taqozosi bilan ta'limning ikkinchi bosqichi – ixtisoslashtirilgan bilim yurtlari – «madrasat-ul-harbiya» (harbiy bilim yurti), «madrasat-us-sano'iya» (san'at bilim yurti), «madrasat-ul-muallimin» (pedagogika instituti) tarzida atalishi ham uqtirilgan.

O'tmish ta'lim tizimidagi uchinchi bosqich – oliy ta'lim muassasasi «madrasai oliya» deb atalgan va u universitet maqomida bo'lgan.

Manbalarda qayd qilinishicha, IX-X asrlarda Samarqandda 17 ta madrasa bo'lgan (hozirda ular saqlanmagan, nomlari ham ma'um emas). Bu madrasalar orasida madrasai oliyalari ham bo'lganki, ularda faqat Movarounnahrdan emas, balki arab mamlakatlaridan ham tolibi ilmlar tahsil olganlar.

Bunday an'ana sohibqiron Amir Temur va temuriyzoda Mirzo Ulug'bek davrida yanada yangicha va o'ziga xos xususiyat bilan boyigan. Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi madrasai oliya majmuasi keyinchalik qurdirilgan rasadxona bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarning o'zaro aloqadorligining yorqin namunasidir.

Madrasai oliyaga talabalarni qabul qilish, mudarrislarni tayinlash, ularni sinovdan o'tkazish uchun Qozizoda Rumiy boshchiligidagi olimlar hay'ati va ilmiy kengash faoliyat ko'rsatgan. Yig'ilishlarda Mirzo Ulug'bekning o'zi ham qatnashgan. Talaba, mudarris va madrasa xodimlari moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib turilgan. Madrasai oliyani bitirganlarga dars berish uchun ijozatnoma – diplomlar berilgan. Qozizoda Rumiy qo'l qo'ygan ana shunday

ijozatnomalardan biri O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar xazinasida saqlanadi.

Mirzo Ulug’bekning madrasai oliyasi keyinchalik zamon va davrlar taqozosi bilan bir maromda bo’lmasa-da, XX asr boshlarigacha o’z faoliyatini davom ettirgan. XX asrda Samarqandda tashkil etilgan va keyinchalik universitetga aylantirilgan pedakademiya Ulug’bek asos solgan «madrasai oliya»ning o’zgargan ko’rinishi edi, desa bo’ladi. Buni tabiiy hol deb atash mumkin, chunki G’arb mamlakatlaridagi universitetlar ham o’sha o’lkalardagi qadimiy seminariyalar asosida shakllangan.

Shunday ekan, Samarqand davlat universiteti Mirzo Ulug’bek asos solgan «madrasai oliya»ning bevosita vorisi desa bo’ladi.

4-MA’RUZA

Mavzu: VII-VIII asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogikaning yaratilishi

REJA:

1. Xalq og’zaki ijodi haqida tushuncha.
2. Xalq og’zaki ijodiyoti asarlarida axloqiy, aqliy, jismoniy, ma’rifiy tarbiya haqidagi fikrlar.
3. «Go’ro’g’li», «Alpomish» dostonlarida qadimiy urf-odatlar, ma’rifat, ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlar.
4. «Shiroq» va «To’maris» eposlarining ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati.
5. VII-VIII asrlarda Movarounnahrga islom dinining kirib kelishi va uning ta’lim-tarbiyadagi ahamiyati.

Tayanch iboralar:

Movarounnahr, madaniyat, ta’lim, tarbiya, xalq og’zaki ijodi, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, ma’rifiy tarbiya, doston, urf-odat, ma’rifat, epos, islom, din, madrasa.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O’qituvchi», 1996, 146 bet
2. Mahkamov U. Odob-axloq saboqlari. – T., 1994.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Din nasihatdir. T.: «Sharq», 2006, 144 bet.
4. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: «Movarounnahr», 2002, 720 bet.
5. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O’qituvchi», 1995, 140 bet.

1. Xalq og’zaki ijodi haqida tushuncha.

Xalq og’zaki ijodi insoniyat nutqi paydo bo’lishi bilan yuzaga kela boshladi. Uni tashkil topishida o’sha davr shart-sharoiti odamlarning mehnat turmush tajribalari, dunyoqarash va tushunchalari hal qiluvchi rol o’ynagan. Eng avval og’zaki nasriy turining dastlabki namunalari vujudga kelgan. Ular nihoyatda sodda

bo’lib, turli xildagi undov, xitoblar va voqyealar bayonidan iborat bo’lgan mehnat jarayoni hamda ongning rivojlanishi voqyea va hodisalar talqinida oddiy bayondan obrazli tasvirga olib keldi. Sodda va takroriy jumlalar badiiy til vositalari bilan boyiy boshlagan. Shunday qilib dunyoni badiiy va estetik did bilan faxmlay olish badiiy so’z tajribalarining taraqqiyoti dastlabki janrlarni yuzaga keltirdi. Avval kichik-kichik naql va miflar, mehnatni anglashtiruvchi, ruhan pishiq qiluvchi, xayol og’ushiga olib kiruvchi ertak hamda afsonalar yaratildi. Mehnat jarayonini ifodalab beruvchi qo’shiqlarning namunalari paydo bo’ldi. Demak eng qadimgi xalq og’zaki ijodi yuzaga kelmasdan ancha oldin paydo bo’lgan yozma adabiyotning tashkil topishiga muhim xissa qo’shgan, og’izdan-og’izga, avloddan-avlodga o’tib ijodiy ishlagan.

O’rta Osiyo xalqlari og’zaki ijodining eng qadimgi namunalari ba’zi tarixiy yodgorliklar, ilmiy asar va yodnomalardagina saqlanib qolgan. Eng qadimgi xalq og’zaki ijodi asarlari miflar, jangnoma tipidagi afsonalar qahramonlik va pahlavonlik eposlari, qo’shiq va maqolalardan tashkil topgan.

------- Ibtidoiy odam tabiat haqidagi tasavvurlarida o’zini tabiat kuchlari va xodisalari bilan aynan bir narsa deb hisoblaydi, jonsiz narsalarga jonli deb qaraydi. Bu xildagi ibtidoiy tushunchalar to’plami animizm nomini olgan. Uning yorqin namunasi ertaklarning qadimiy matnlarida o’z ifodasini topgan. «Yolmog’iz kampir» ertagidagi odamlarning toshga aylanib yotishi, «Qilichbotir»da esa qahramonlarning joni qilichda ekani kabilar ana shu animistik tushunchalar natijasidir. Yaqin kunlardagi to’y va marosimlarda olov yoqish, uning atrofida aylanish, quyosh va oy tutilganda qozon, chelak, jom kabilarni cholish mavjud ediki, bu o’sha yo’qolib borayotgan qadimgi tasavvurlarning izlaridir. Totelizm odamlarning ko’pincha bir hayvon va o’simlik ba’zan jonsiz narsalar haqidagi ishonch etiqodidan kelib chiqqan. Turkiy xalqlar, jumladan o’zbek urug’larining ota-bobolari quyosh, suv, olovga topinganlar keyinchalik esa ot, xo’kiz, ilon, bo’ri, it va boshqa xayvonlarga e’tiqod qo’yganlar. Buning balo, ofatlardan saqlovchi, himoya qiluvchi kuch, urug’ qabilalarning ajdodlari deb bilganlar. Shu tariqa totemlar yuzaga kelganlar. Totem u yoki bu urug’ning e’tiqod qo’ygan himoyasidir. Ular bilan bog’liq bo’lgan bir qancha afsonalar ham mavjudki, ularda ko’proq ot va bo’ri kulti hikoya qilingan. Bo’ri bilan bog’liq bo’lgan e’tiqod yangi tug’ilgan bolani salomat saqlash, yaxshi hayot kechirish, uy hayvonlarini ehtiyotlashdan iborat bo’lganlar. Demak, tabiat va hayot haqida yuzaga kelgan ibtidoiy tushuncha totemistik qarashlarni vujudga keltiradi. Bu qarashlar o’z navbatida ilk bor to’qilgan ertak va afsonalarning motiv va syujetlarini tashkil etadi. Qadimgi miflar porloq kelajakni orzu qilib, unga umid ko’zi bilan uzoq o’tmishdagi avlod-ajdodlarimiz kishilarning qudratli rivojini oldindan sezib, ularning qobiliyatini ideallashtirishga mifologik obrazlarni yaratgan. Ana shu mifologik obrazlarning ilk bor namunalari ko’xna mif afsonalarida naql etildi. Qadimgi davr xalq og’zaki ijodi namunalari idchida mifologik tasavvurlar asosida yaratilgan afsonalar va miflar alohida o’rin tutadi. «Mif« grekcha so’z bo’lib, xudolar va pahlavonlar haqidagi to’qima afsonadir. Mifologik obrazlari ibtidoiy insonning tabiatni bilishga intilishning natijasi hisoblanadi. Darhaqiqat insonning

tabiatga qarshi kurashning ojizligi, uni nomalum ko'ringan hodisalarga javob topishga qandaydir tushuncha va tasavvurlar yaratishga majbur etgan.

Nihoyat yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar paydo bo'lgan. Mazkur miflar kishilarga ruhiy kuch, osoyishtalik baxsh etgan. Nihoyat insoniyatni g'alabaga chorlagan. Qadimgi ertaklar, afsonalar miflarning g'oyasi davrlardagi mehnat kishilarning yukini yengillashtirishga, ishining unumini oshirishga 4 oyoqli va 2 oyoqli dushmanlarga qarshi qurollantirishga hamda so'z kuchi avrash, afsona yo'li bilan xaybatli bo'lgan xodisalarga tasir etishga qaratilgan. Go'yo tabiatni ulug' va foydali kuchlar – quyosh va suv abadiy bo'lgan o'lka hamda ofat keltiruvchi kuchlar – zulmat va kulfat abadiy bo'lgan o'lka bor emish. Ko'pchilik mifalogik obrazlar mann ashu ikki o'lka va ular o'rtasidagi kurashdan kelib chiqqan. Demak, mana shu tabiat kuchlari ustidan haqiqatda hukumronlik qilish boshlanishi bilan mifaologik taassavur ham tomom bo'ladi. Qadimgi qahramonlik eposi, xalq og'zida vujudga kelib avloddan avlodga ko'chib yurgan mifaologik obrazlar qahramonlik tipidagi ertak va dostonni shakillanishida asosiy zamin vazifasini o'tadi. Bunday qahramonlar mifaologik obraz singari tabiat yovuzliklariga emas, balki ijtimoiy tuzum yaramasliklari zulm va zo'rlikka nisbatan qarshi chiqadi. Uning mazmuni ijtimoiy g'oyalar ta'sirida chuqurlashdi va o'tkirlashdi. Xullas, dastlabki vaqtda tabiatni sirli kuchlarini ifodalab, keyinchalik ijtimoiy xususiyat kasb etgan va tarixiy kuchlarning namoyondasiga aylangan fantastik (xayoli) obralar rivojlanib vatanparvarlik va qahramonlik madh etuvchi obrazlar darajasiga yetdi. Ana shunday obrazlar To'maris, Shiroq, Zarina, Rustam va Siyovush kabi epik qahramonlar misolida shakllanadi. Jangnoma tipidagi epik asarlar, asosan tarixiy voqyea hamda hodisalar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. «To'maris», «Shiroq» singari afsonalar jangnoma tipidagi qadimgi epos namunalaridandir.

2. Xalq og'zaki ijodiyoti asarlarida axloqiy, aqliy, jismoniy, ma'rifiy tarbiya haqidagi fikrlar.

Eng qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz xalq og'zaki ijodi namunalari – afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralarda ham ko'ramiz. Chunki xalq donishmandligining ko'zgusi bo'lgan xalq og'zaki ijodida xalq pedagogikasiga xos bo'lgan tarbiya tajribalari umumlashgandir.

Ayniqsa, ibtidoiy kishilarning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, odatlari, munosabatlari xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan sanalgan afsonalarda ifodalangan. Afsonalar qahramonlari yaxshilik uchun yomonlik bilan, nur uchun zulmat bilan kurash olimb boradilar, yaxshilik va baxt-saodat o'lkalarini yaratadilar. Ular eng qadimgi yodgorliklar «Avesto», Firdavsiyning «Shoxnoma» asari orqali bizgacha yetib kelgan namunalardir.

Miflar asosida yaratilgan afsonalar qahramonlik eposlari uchun zamin tayyorladi. Bu qahramonlik eposlarida vatan va erkinlikka bo'lgan muhabbat, o'z yurt iva jonajon qabilasi uchun jonini fido etish, shon-sharaf, or-nomus uchun kurash tuyg'ulari ifodalanadi.

Bizgacha yetib kelgan epik rivoyatlarda ajdodlarimizning vatanparvarlik kurashi o’z ifodasini topgan. Vatanini, xalqini sevish, or-nomus va do’stlarga, safdoshlariga sadoqat kabi insoniy tuyg’ular, burch hissi, vatani va xalqi uchun o’z jonini qurbon etish, har qanday mashaqqatlarga bardosh berish – ularning asosiy xislatlaridir.

Jasurlik, kuchlilik, mardlik - qadimiy kishilarda tarkib topishi zarur bo’lgan fazilat sanalgan.

Ayniqsa, tarixiy shaxslar bilan bog’liq rivoyatlar buning dalilidir. Chunki ularda muayyan shaxs faoliyati, donishmandligi, qahramonliklari, tarixiy shaxs ega bo’lgan axloqiy fazilatlar: nazokat, aql-idrok, vafo va muhabbat, sadoqat, adolat, odamiylik kabilar ulug’langan.

3. «Go’ro’g’li», «Alpomish» dostonlarida qadimiy urf-odatlar, ma’rifat, ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlar.

VI-VII asrlarda O’rta Osiyoning shimoliy tomonida Turk hoqonligi vujudga kelib, Erondagi somoniylar bilan uzoq vaqt kurash olib bordi. Uning ta’siri O’rta Osiyo xalqlariga nisbatan kuchaya bordi. O’lkada qadimgi turk tili keng yoyildi.

Qadimgi davr kishilar ma’naviyati, jumladan, axloqi, qadimiy urf-odatlari, an’analari, ma’rifati, ta’lim-tarbiyasi haqidagi fikrlar xalq og’zaki ijodida, masalan, Go’ro’g’li, Alpomish haqidagi yaratilgan dostonlarda o’z ifodasini topdi. Bu an’analar qadimgi so’g’d, manixey, Xorazm, turk yozuvlari namunalarida ham ifodalandi.

«Alpomish» dostonida xalqimizning qahramonona o’tmishi – urug’chilikning yemirilishi, chorvadorlar hayotida davlatchilikning paydo bo’lishi davridagi munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy hayoti, udumlari, axloq-odobi, qardoshlik tuyg’ulari, kurashi, o’y-fikrlari, orzu-havaslari yorqin ifodalangan.

«Alpomish» dostoni turkiy xalqlar o’rtasida keng tarqalgan va sevib o’qiladigan asarlardan biri bo’lib qoldi. Bu doston qahramonlik, do’stlik va birodarlik, vafodorlik hamda sadoqat haqidagi xalqning bir umrlik orzu umidlarini ifodalaganasar sifatida qimmatlidir.

Alpomishning qahramonligi zakot talab qilib kelgan akasi Boybo’ridan arazlab, Kashal eliga ko’chibyu ketgan Boysari oilasi ustiga bostirib kelgan qalmoq shohi Toychaxon lashkariga qarshi kurashda va ularni tor-mor qilishida yaqqol namoyon bo’ladi. Masalan:

Qaramay baland pastida,
Ot qo’ydi qalmoq ustiga…
Yolg’iz bo’p unda yuradi,
Ko’p qalmoqni o’ldiradi,
Qilich-nayza sop ko’radi.
Bu alpga ta’sir qilmadi,
Qalmoq aytgani bo’lmadi,
Qalmoqlar fikr o’yladi…
«Tig’i olmos bunga botmas,
Urush qilgan omon ketmas,

Bu o’zbek qanday jodugar,
Yo bu kashmirmi, hiylagar?
Hyech kim bo’lmadi barobar,
Ursang botmaydi yaroqlar»…
Endi qolgan qalmoqlar
Qochmoqni ixtiyor qildi…[1]

Alpomishning adolatparvarligi Qalmoqshoh lashkariga qarshi kurashda, oddiy odamlarga xayrixohligi da ko’rinadi. Alpomish qalmoq yurtiga bosqinchilik maqsadida emas, balki Qalmoqshoh tomonidan mol-mulki talangan, xizmatkor qilingan Boysarini Boysunga olib kelishi uchun boradi.

4. «Shiroq» va «To’maris» eposlarining ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati.

Eposlarda Xotin-qizlarning fidoiyligi, jasorati, aql-idroki, erkaklar bilan teng sharoitda faoliyat ko’rsatganliklari ayniqsa yorqin ifodalangan.

Tarixdan ma’lumki, dastlab Amudaryo asosiy tarmog’i Uzbey orqali Kasbiy dengiziga quyilgan. Uning o’ng qirg’og’idagi yerlar Turon, chap qirg’og’idagi yerlar esa Eron deb yuritilgan. Eramizdan oldingi ahamoniylar saklar vamassagetlar qabilalariga ketma-ket hujum qilib turgan. Ana shu tarixiy voqyealar sak va massagetlarning eposlarida o’z ifodasini topgan.

Eron shohi Kir ko’chmanchi sak, massaget qabilalariga qarshi urishib mag’lubiyatga uchraydi va 529 yilda halok bo’ladi. Tarixchilar sak va massagetlar Kir va uning qo’shinlarini avval o’z hududlarining ancha ichkarisiga bostirib kirishiga imkon berib, keyin uning qo’shinining katta qismini qirib tashlaganliklari haqida ma’lumot beradi.

Polienning «Harbiy hiylalar» asarida shunday rivoyat keltiriladi:

Saklarga qarshi Doro bosqinchilik yurishini boshlaydi. qabila boshliqlari Saksfar, Omart, To’marislar dushmanga qarshi chora ko’rish yuzasidan maslahatlashib o’tirganda yilqichi Shiroq kirib keladi va Eron qo’shinini yo’q qilish rejasini bayon qiladi. U o’z jonidan kechib, o’z rejasini amalga oshirishi mumkin edi. Shuning uchun saklar boshliqlaridan u halok bo’lgandan so’ng, uning bolalariga g’amxo’rlik qilishni so’raydi. Ular rozi bo’lgach, yonidagi tig’ini olib, o’zining quloq, burnini kesadi, badanini yaralaydi. So’ng Doro qoshiga borib, o’zini saklardan jabr ko’rgan qilib ko’rsatadi va saklardan o’ch olish uchun ularga yordam berishga, Doro qo’shinini faqat o’zi biladigan so’qmoq yo’l bilan saklar qarorgohiga boshlab borishga eng muqaddas suv va o’t nomi bilan qasamyod qiladi. Doro uning qasamyodiga ishonadi. Shiroq ularga faqatgina yetti kunlik oziq-ovqat olishni uqtiradi, yetti kun ichida bemalol manzilga yetib borishlarini aytadi. Shiroq qo’shinni boshlab ketadi. Yetti kun o’tgandan keyin Doro qo’shini oziq-ovqatsiz, suvsiz qolib, cho’lning qoq o’rtasida halokat yoqasida turardi. Ularning na orqaga qaytishga, na oldinga yurishga majoli qolmagan edi. Shoh yo’l boshlovchini ushlashga buyuradi. Shiroq esa qah-qah otib kuladi va, - Men sizlarni

[1] Алпомиш, Рустамхон. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санат нашриёти, 1985, 158-159-бетлар.

ochlik va tashnalikda qoldirib, g’alabaga erishdim, o’z hamyurtlarimni boshidan kulfatni daf etishga muvaffaq bo’ldim, - deydi. Shiroq xalok bo’ladi. Lekin o’z qabilasini bosqinchilar hujumidan saqlab qoladi. Tasodifan yoqqan yomg’ir tufayligina shoh lashkarining bir qismi jon saqlab qoladi va orqaga chekinadi.

Bu rivoyatdagi Shiroq vatanparvarlik va qahramonlik, o’z yurtini benihoya sevuvchi timsoli sifatida ko’z oldimizda gavdalanadi.

Gerodotning «Tarix» kitobida keltirilgan massagetlar hukmdori To’maris va Eron shohi Kir haqidagi rivoyatlar ham o’ziga xosdir.

Demak, xalqimizning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, xulq-atvoriga oid xislatlari bu kabi rivoyat va dostonlarda, eng qadimgi epik yodgorliklarda, mif va afsonalarda saqlanib bizgacha yetib kelgan.

5. VII-VIII asrlarda Movarounnahrqa islom dinining kirib kelishi va uning ta’lim-tarbiyadagi ahamiyati.

VII asr boshlarida islom g’oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o’z mavqyeni mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni ham zabt etishni boshladi. Butun Arabiston yarim oroli shuningdek, Eron, Kavkaz orti, Suriya, Shimoliy Afrika, Janubiy Ispaniya xalifalik tarkibiga kiritildi.

VII asr o’rtalaridan boshlab arablar Movarounnahrga ham hujum qilish rejasini tuza boshladilar.

Arab istilochilarining birinchi yurishi 651 yilda Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida amalga oshirildi. 676 yilda esa Said ibn Usmon rahbarligida Buxoro, So’g’diyona, Kesh, Nasaf shaharlariga hujum qilindi.

Arab istilochilarining ikkinchi yurishi 705 yilda Xuroson hokimi Qutayba ibn Muslim tomonidan boshlandi. U 706 yilda Zarafshon vodiysiga yurish boshlab, Poykend, Buxoro, SamarqAnd, So’g’d, Farg’ona va boshqa shaharlarni qo’lga kiritdi, so’ng Xorazmni zabt etdi. Qutaybaning istilochilik yurishi u 715 yilda arab qo’zg’olonchi jangchilar tomonidan Farg’onada o’ldirilgandan so’ng to’xtadi.

VIII asrning o’rtalariga kelibgina arablar Movarounnahrni zabt etishga to’la erishdilar.

Arab istilochilari bosib olingan yerlarda xalqni islom diniga kirita boshladilar. Tarixchi at-Tabariyning «At-Tabariy tarixi», Narshaxiyning «Buxoro tarixi», V.V.Bartoldning tarixiy asarlarida keltirilishicha, arab istilochilarining Movarounnahr xalqini islom diniga kiritish jarayoni qiyin kechgan va bir necha yillarga cho’zilgan. Chunki Movarounnahr arab istilosigacha ham ma’naviy, ham iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakat bo’lib, uning aholisi arab bosqinchilariga tezda bo’ysuna qolmagan. Shuning uchun ham arab istilochilari xalqni bo’ysundirish uchun harbiylar bilan bir qatorda, islom dini targ’ibotchilaridan ham foydalandilar va asta-sekin ma’lum natijalarga erisha boshladilar. Chunki Movarounnahrda odamlar islomga qadar har xil xudolarga, Quyoshga, Ko’k dinga (shaman), muqaddas narsalarga topinar, ma’lum bir g’oyaviy e’tiqod butun bir o’lkada tarkib topmagan edi. Shuning uchun ham islom dinining yoyilishi va u bilan birga shariat qonun-qoidalari, aqidalariga rioya qilish, yagona Allohga sig’inish va Allohning rasuli Muhammad alayhissalom ko’rsatmalariga amal qilish xalqning ongiga ta’sir

etib, ularni bu dinni qabul qila boshlashiga olib keldi va islomiy qadriyatlar tarkib topishiga yo'l ochdi.

Arab tili ham, o'z navbatida, yangi madaniyat tili bo'lib maydonga chiqdi. Bu madaniyat ham qadimgi arab madaniyati, shuningdek, arab davlati hududida yashagan boshqa xalqlar madaniyatining majmuasi edi. Arablar yunon fanining yutuqlaridan amaliy foydalandilar, ularning faylasuf olim, yozuvchilarining asarlarini tarjima qildilar. Astronomiya, tibbiyot, kimyoga oid barcha yirik asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Hatto arab olimlari sun'iy oltin tayyorlash vositasi «falsafa toshi»ni izlaganlar (Kimyo fani alkimyodan boshlanib, oltin izlovchilar «alkimyogarlar» deb atalgan).

Arablar ulkan davlat barpo etib, geografiya rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdilar. Maalan, arab mulklarining dastlabki xaritalari IX asrda tuzilgan bo'lib, ularda daryolar oqimi to'g'risida mufassal ma'lumotlar bo'lgan. Ispaniyadan Markaziy siyo va Hind daryosigacha cho'zilgan musulmon dunyosi bu xaritada batafsil ko'rsatilgan. Ko'p hududlarga arabcha nomlar beriladi. Xususan, Movarounnahr ham arabcha bo'lib, «daryo orti» ma'nosini bildiradi.

Islom Arabiston yarim orolida uning ko'p asrlik tarixidan o'sib chiqqan yaxlit diniy-siyosiy oqim sifatida vujudga kelgan bo'lsa, ayni paytda u qadimgi dunyoni idrok etishning tushkunligi va o'rta asr jamiyatining tiklanish davrida butun Yaqin Sharq ma'naviy ehtiyojiga aks sado ham bo'ldi. Siyosiy g'alaba hamda o'ziga yangi o'zga qarashlarni singdira bilishi tufayli u o'rta asr davri borliqni mafkuraviy idrok etishning asosiy shakllaridan bo'lib qoldi. Islomning g'alaba qilishida uning asoschisi, Allohning vakili bo'lgan payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning shaxsi katta rol o'ynadi.

Movarounnahrda boshqa istilo etilgan davlatlar qatorida islom dini bilan birga uning muaddas kitobi «Qur'on»ning tili, arab tilini o'rganish joriy etildi. Bu kitobni boshqa tillarga tarjima qilish ta'qiqlandi.

Musulmon maktablarida arab tili muhim fan sifatida o'qitilardi, bilim shu tilda o'rganilar edi. Arabistondagi kaaba Movarounnahrda ham barcha masjidlar huzurida maktablar ochiladi va o'g'il bolalarga shu maktablarda Qurg'on o'qishni o'rgatishga farmon beriladi. Bolalarni shu masjid imomi o'qitar edi.

Islom aqidalarining, uning axloqiy-huquqiy tamoyillarining asosiy manbai «Qur'on»dir.

5-MA'RUZA

Mavzu: Islom dini va hadislarning inson ma'naviy kamolotining tarkib topishidagi o'rni

REJA:

1. Islom dinida ma'naviy-axloqiy tarbiya.
2. Qur'oni Karimda inson kamoloti masalalari.
3. Hadis va hadis turlari. Hadisi Sharifda odob-axloq namunalari.
4. Muhaddis (hadis to'plovchi)lar faoliyati haqida.
5. Tasavvuf va tasavvuf ta'limotida inson kamoloti masalalari.

Tayanch so'z va iboralar:

Din, islom, Qur’oni karim, Hadisi sharif, payg’ambar (sav), muhaddis, sahih, sunna, odob, axloq, tarbiya, kamolot, tasavvuf, tariqat, so’fiy, shariat, poklik, halollik, sahiylik, haqiqat, adolat.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O’qituvchi», 1996, 146 bet
2. Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O’qituvchi», 1993, 204 bet.
3. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. T.: «Sharq», 2004, 206 bet.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Din nasihatdir. T.: «Sharq», 2006, 144 bet.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. (Muqaddima), 1-juz. T.:. «Sharq», 2004, 192 bet.
7. Qur’oni Karim. – T.: «Cho’lpon», 1993.
8. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: «Movarounnahr», 2002, 720 bet.

1. Islom dinida ma’naviy-axloqiy tarbiya

Din nima?

Din tushunchasiga juda ko’p va turlicha ta’rif berilgan. Jumladan, «Islom» ensiklopediyasida: Din (arab.) – mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo’ysunish, itoat qilish, ibodat, parhyez, yo’l tutish, odat qilish, e’tiqod qili shva b. Dinda bandaning ollohga bo’ysunishi, itoat qilishi, ibodati, parhyezkorligi, olloh ko’rsatgan yo’lni tutishi, ma’lum ishlarni odat va e’tiqod qilish kabi ma’nolar bor. Musulmon ulamolar dinni «Sog’lom aql egalarini ularni o’z ixtiyorlariga binoan bu dunyoda salohiyatga, u dunyoda najotga eltuvchi ilohiy ko’rsatmalar», deb ta’riflaganlar.

A.Abdurahmonovning «Saodatga eltuvchi bilim» kitobida din haqida quyidagi ta’riflar keltirilgan: Din –arabcha so’z bo’lib, o’zbekcha «ishonmoq, tanimoq» degan ma’noni bildiradi. Din insonning muqaddas ilohiy kuch – Xudo mavjudligiga asoslangan ongli dunyoqarashi, hissiyoti, e’tiqod qilishi va xatti-harakatlari majmuidir. Din komil insonni tarbiyalashda ulkan qudratga ega bo’lgan ma’naviy, axloqiy kuchdir.

Islom (arab.- bo’ysunish, itoat etish, o’zini Olloh irodasiga topshirish) – jahonda keng tarqalgan uch dindan biridir. Islom dini odamlarni to’g’ri yo’lga solish uchun Olloh tomonidan yuborilgan ta’limotdir. Islom dinining asosi bo’lmish Qur’oni karimda ham va payg’ambarimiz Muhammad mustafo s.a.v. ning sunnatlari bo’lmish Hadisi sharifda ham insonlarni doimo go’zal xulqli bo’lishga targ’ib qilingan. Go’zal xulqlarning natijasi, ya’ni chin mo’min, komil insonning savobli ishlari mukofoti jannat va aksincha yomon xulqlarning, ya’ni munofiqlarning gunohlari natijasi do’zax ekanligi islom dinining asosiy g’oyasidir. Axloqning shakllanishida va uning ijtimoiy o’rnida dinning ahamiyati katta. Dining asosiy maqsadlaridan biri, insondagi yomonlikning zararlarini bayon qilish hamda yomon yo’lga kirib ketganlarni to’g’ri yo’lga da’vat etishdir.

Islomda, uning muqaddas kitobi Qur’oni Karimda axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Islomda olijanob axloqning eng muhim tushunchalari ta’riflanib, insoniyatni ularga amal qilish sari undaladi. Bular – ehson, kechirimli bo’lish, sabr-toqat, rostgo’ylik, shirinso’zlik, ota-onani, o’zidan katta yoshdagilarni hurmat qilish, or-nomus, sadoqat va boshqalardir. Shu tarzda insoniyatning butun Amaliy faoliyati yaxshilik va yomonlikka ajraladi. Musulmonlar bir-birlarini yaxshilik va olijanob axloqqa chaqirishlari, nojo’ya ishlardan qaytarishlari Olloh tarafidan farz qilingan. Islom axloqining asosida halollik va taqvo yotadi. Kimki, jismoniy va ma’naviy pok bo’lsa, unday kimsa axloqsizlik yo’liga kirmaydi.

Islom dinining asosi quyidagilar: 1) kalima keltirish; 2) namoz o’qish; 3) ro’za tutish; 4) zakot berish; 5) imkoniyat topilsa haj qilish. Shulardan birinchisi imon va qolganlari ibodat deb e’tirof etilgan. Imon 7 aqidani – Ollohga, uning farishtalariga, muqaddas kitoblariga, payg’ambarlariga, oxirat kuniga, taqdir (yaxshilik va yomonlik Olloh irodasi bilan bo’lishi)ga va o’lgandan keyin tirilishga ishonishni o’z ichiga oladi.

Islom dinining asoschisi va targ’ibotchili payg’ambarimiz Muhammad ibn Abdulloh s.a.v. dirlar. U kishi milodiy 571 yil 21 aprelda Maka shahrida tug’ilganlar va 632 yil 8 iyunda 63 yoshda Madina shahrida vafot etdilar.25 yoshlarida beva Hadichaga uylanganlar, 40 yoshlarida payg’ambarlik kelgan, 23 yil payg’ambarlik, 19 marta jihod, 4 marta umra va 1 marta haj qilganlar. Otalari – Abdulloh, Onalari – Omina.

2. Qur’oni Karimda inson kamoloti masalalari

Islom aqidalarining, uning axloqiy-huququiy tamoyillarining asosiy manbai «Qur’on»dir.

Qur’on – dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo’lib, arab tilida «qiroat» ma’nosini anglatadi. Qur’on 114 suradan iborat. Qur’on kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shunga ko’ra u katta axloqiy qimmatga ega. Qur’onning axloqiy qimmati haqida fikr yuritilar ekan, uning insonning ma’naviy kamolga yetishida qay darajada muhim o’ringa ega ekanligiga amin bo’lamiz. Shuning uchun u mana necha asrlardan beri insoniyatning eng ulug’ qadriyati sifatida ezozlanib kelnmoqda. Islom odamlarni yaxshilikka da’vat etadi, yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ’ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma’naviy poklik va yetuklikka, mahnat qilishga hamda yer yuzini obod va go’zal etishga undaydi. U adolat, tinchlik, tenglik, erkni tarannum etadi. Buni biz Qur’onning inson kamolotga erishishiga qay darajada o’rin egallashini, uning insonga, butun borliqqa munosabatini, turmush tarzi va zulq-odob me’yorlarini tarkib toptirishda ulkan ahamiyatidan ham bilsak bo’ladi.

Islom musulmonlarni taraqqiyot sari undab, insonlarni ilm olishga yo’llaydi. Chunki, ilm bilan inson shaxsi kamolga yetadi, jamiyat taraqqiy etadi. Olloh taolo oyati karimasida «Bu so’zlarni faqat olimlar tushungaydirlar», deyilgan bo’lsa, yana bir oyatda «Bilgan zotlar bilan bilmagan kimsalar tengmi?!» deyilgan. Ko’rinib turibdiki, Qur’onda ilm olishga, ilm o’rganishga va ilmli kishilarni hurmat qilishga da’vat etiladi. Zero, ilm tufayligina inson shaxsi kamolotga erishib

boradi. Islomda insonning aqliy kamoloti va tafakkurini rivojlantirishga katta e’tibor beriladi. Bular ilm va haqiqatni dalillar bilan isbotlashda namoyon bo’ladi. Qur’onda ilmni ishonchli dalillar bilan asoslash, taqlid qilishga yo’l qo’ymaslik masalalari talqin etiladi, har bir fikrni ko’r-ko’rona, mohiyatiga yetmasdan asoslash qoralanadi.

Islomda bilim, aql inson kamoloti mezoni hisoblanib, inson ko’rish, eshitish, aqlni ishlatish vositasida bilish qobiliyatiga ega bo’ladi, deyiladi.

Ma’lumki, ilm-fan taraqqiyoti insonning axloqiy kamolga yetishida katta ahamiyatga ega. Shunga ko’ra xulq-odob qoidalarini tarkib toptirishga Qur’onda asosiy e’tibor beriladi. Har bir shaxsning, jamiyatning ravnaq topishida axloqning asosiy roli tasvirlanadi. Zero, jamiyat a’zosi bo’lgan har bir kishining axloqsizligi jamiyatga qay darajada zarar yetkazsa, yaxshi axloqli kishilar uning ravnaqiga shuncha hissa qo’shadilar.

Qur’onda har bir mo’min-musulmon bajarishi zarur bo’lgan yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlardir, deb tushuntiriladi. Chunki, islom dinining asosiy maqsadi ham yomonlikning oldini olish, kishilarga yomonlikning hunuk oqibatlarini tushuntirish hamda ularni doimo to’g’ri yo’ldan yurishga chaqirishdan iboratdir.

Qur’onda insonda imonning o’ziga xos mezoni sanalgan sahovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, to’g’rilik, vafodorlik va sodiqlik, sadoqat, sahiylikka katta e’tibor berilgan.

Qur’onda ota-ona hurmati yuqori o’rinda turadi, yana oilaning boshqa a’zolariga, qarindoshlar, yetimlar, kambag’allar, qo’ni-qo’shnilarga ham yaxshilik qilish ta’kidlanadi.

3. Hadis va hadis turlari. Hadisi Sharifda odob-axloq namunalari

Hadis (arab. «xabar», «yangilik») – Muhammad (sav) ning aytgan so’zlari, qilgan ishlari, ko’rsatmalari to’g’risidagi rivoyatlar. Ikki qismdan iborat bo’ladi: matn va isnod. **Matn** – hadis istilohida sanadning nihoyasi, ya’ni ma’nolardan tashkil topgan hadisning lafzlari. **Isnod** (arab. – tirgak, dalil, asos) – har bir hadisning tarkibiy qismi. Isnod aytilgan so’zni aytuvchisiga bog’lashlik. Muhaddis olimlar sanad bilan isnodni bir ma’noda qo’llaydilar. Hadisning boshlanishida uni birinchi bo’lib aytgan va eshitgan kishidan boshlab hadislarni to’plovchiga qadar barcha shaxslarning ismlari Birma-bir ko’rsatib chiqiladi va bu hadisning asosi, dalili hasoblanadi. Hadisning haqiqiy yoki soxta ekanini ulamolar shu ilmlarni taqqoslash yo’li bilan tekshirgan. Hadisni naql qiluvchi kishilarning yashagan yillari va ijobiy sifatlari shartga to’g’ri kelsa, isnod to’g’ri, demak hadis ham to’g’ri deb hisoblangan.

Hadis ikki turga bo’linadi:

1. Hadisi Qudsiy.
2. Hadisi Nabaviy.

Hadisi Qudsiy – ma’nosi olloh taoloniki bo’lib, aytilishi Rusululloh (sav)dan bo’lgan hadislar. Uni Olloh taolo o’z nabiysiga ilhom berish, tushida ko’rsatib bildirish orqali xabar beradi, Payg’ambar (as) esa, buning ma’nosini Olloh nomidan, Olloh taolo aytdi, deb sahobalariga yetkazganlar.

Hadislar e’tiborga olinishi jihatidan esa yana uch qismga bo’linadi: 1. Sahih. 2. Hasan. 3. Zaif.

Qur’oni karimda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etiladi. Ularga aniqlik kiritish va izohlab uqtirish uchun Muhammad (sav) o’z hadislarini aytganlar. Bu hadislarni payg’ambarning safdoshlari yodda saqlashga harakat qilardi. Rasulullоh (sav) hayotlik chog’larida sahobalarning Qur’oni karimga hadislarni aralashtirib yuborishlaridan qo’rqib, hadislarni yozishdan qaytarar edilar. Rasulullоh (sav) vafotlaridan keyin hadislarni naql qilish odat tusiga kirdi. Shu munosabat bilan Payg’ambarimiz (sav) hadislariga begona so’zlar aralashib qolishidan va hadis naql qiluvchi sahobalar vafot etishlari bilan hadis zoye bo’lishidan qo’rqib, uni yozma shaklda to’play boshladilar.

Hadislarda insonning kamolga yetishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo’lib, bular mehr-oqibat ko’rsatish, sahiylik, ochiq ko’ngillilik, ota-ona va kattalarga, qarindoshlarga g’amxo’rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug’lash, halollik, poklik, o’zaro do’st, tinch-totuv bo’lish va boshqalardan iboratdir.

Bundan tashqari, insonning o’zini yomon illatlardan tiyish, yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o’z ifodasini topganki, bularning barcha Qur’oni karim ko’rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sanaladi.

Payg’ambarimiz Muhammad s.a.v. do’st-birodarlariga quyidagi o’gitlarni aytganlar, ushbu o’gitlarda ham odob-axloqning yaqqol namunasini sezishimiz mumkin:

1. Siz yolg’iz tangri – yagona Allohga sig’ining.
2. Ota-onangizga hamisha mehribon bo’ling.
3. Qarindosh-urug’larga yordamlashing, beva-bechoralar va musofirlarga madadkor bo’ling.
4. Xasis bo’lmang, lekin isrofgarlikka ham yo’l qo’ymang.
5. Bolalaringizni faqirlik tufayli o’ldirmang (mehnat qilib, ularni boqing).
6. Xayosiz, axloqsiz bo’lmang.
7. Bekor-behudaga qon to’kmang.
8. Yetim-yesirlarning moli va puliga ko’z tikmang.
9. Toat-ibotadni kanda qilmang.
10. Savdogar bo’lsangiz to’g’ri o’lchab to’g’ri torting.
11. Eshitgan har gapga ko’r-ko’rona ishonavermang.
12. Takabbur, shuhratparast va maqtanchoq bo’lmang.[1]

Hadislarda insonning ma’naviy kamoloti mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani, o’z bilimi bilan atrofdagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo’lib yetishishida muhim omil – **bilim** deb ko’rsatiladi.

Hadisdan namunalar

[1] Ўзбек педагогикаси антологияси. Т., 1995, 50-бет

Mo’min kishida quyidagi ikki xislat bo’lmasligi kerak: baxillik va axloqsizlik.

Savobli ish qilganingizda xursand bo’lsangiz, gunoh ish qilganingizda xafa bo’lsangi, demak, siz haqiqiy mo’mindirsiz.

Uchrashganda qaysi birlaringiz birinchi bo’lib salom bersangiz, o’sha odam Tangriga ham itoatliroqdir.

Imonning afzali – sabr va keng qalbli bo’lishdir.

Tangri saxiydir, saxiylarni do’st tutadi. Axloqi oliy kishilarni yoqtirib, axloqsizlarni yoqtirmaydi.

Mo’minlarning bir-birlarida oltita haqlari bor: salom berish, chaqirsa borish, aksirsa javob aytish, maslahat so’rasa berish, kasal bo’lsa borib ko’rish, o’lsa borib dafniga qatnashish.

Kishidagi eng yomon xislat o’ta baxillik va o’ta qo’rqoqlikdir.

Garchi Xitoyda bo’lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo’minga farzdir.

Sadaqaning afzali mo’min kishi ilm o’rganib, so’ng boshqa mo’min birodarlariga ham o’rgatishidir. [1]

Kimki ilm olgan bo’lsa, payg’ambar alayhissalomdan to’liq meros olibdir.

Kimki ilm istab qadam qo’ysa, Olloh taolo unga jannat yo’lini oson qilg’ay.

Ulamolar ilm o’rgatishga, ilm tarqatishga kirishsinlar, bilmaganlarga o’rgatsinlar, zero ilm sir tutilmas ekan, halokatga uchramaydi![2]

4. Muhaddis (hadis to’plovchi)lar faoliyati haqida

Hadis ilmi bilan shug’ullanuvchi olimni **muhaddis** deymiz. Muhaddislar, asosan, ahdisni Payg’ambari (sav)dan qaysi yo’llar bilan, kimlar orqali rivoyat qilinib o’zlarigacha yetib kelganini aniqlaydigan olimlardir. Ular bu ulkan mas’ulitli ishni amalga oshirishdajuda ham aniq va ishonchli yo’llarni tanlashgan.

«Hadis» va «sunnat» so’zlari muhaddislar o’rtasida bir ma’noda qo’llanilib, janob Payg’ambarimizning aytgan so’zlari, fe’l-atorlari, axloqlari, taqdirlari va payg’ambarlikka qadar bo’lgn hamda payg’ambarlik yillaridagi siyratlarini, ya’ni hayot yo’llarini anglatadi. Rasulullоh (sav)ning turli sharotlarda shariat ahkomlariga oid aytgan so’zlari ham hadis bo’lib, fe’l-atforlari esa ul zot qilgan va sohobalar tarafidan naql etilgan amallardir. Sahobalarning Payg’ambarimiz ma’qullagan so’zlari va xatti-harakatlari **taqrir** deyilib, ular shar’iylik huquqiga egadir. Zero, janob Rasulullоh shariatga xilof narsalarni hyech qachon ma’qullagan emaslar!

Hadislar janob Rasulullohning hayotliklarida jamlangan emas edi. Chunki, janob Payg’ambarimiz sahobalariga «Mendan Qur’oni Kariymdan bo’lak hyech narsani yozib olmanglar, agar kimki biror narsa yozib olgan bo’lsa, uni yo’q qilsin!» - der edilar. Bundan albatta Payg’ambarimiz hayotliklarida hadislar mutlaqo yozib borilmagan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki, ba’zi hollarda Payg’ambarimizning o’zlari sahobalarga mol-hollardan olinadigan zakot miqdori

[1] Ўзбек педагогикаси антологияси. Т., 1995, 55-бет.

[2] Абу Абдуллощ Мущаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-жомиъ ас-сащищ. Щадис. 1. Т.: 1991, 32-41 бетлар.

haqida joylardagi hokimlarga yozib yuborishni amr qilganlar. Shuningdek, ayrim sahobalarga o’z shaxsiy maqsadlari uchun hadislarni qayd qilib borishga ijozat ham berilgan edi. Abdulloh ibn Amir ibn Anas, Ali bin Abu Tolib va boshqalar to’plagan hadislar bunga dalildir. Dastlabki hadis to’plamlari to’g’ri (sahih) bo’lgan. Ammo, keyinchalik, milliy-siyosiy ixtiloflar, dinga foyda keltirish maqsadida Payg’ambarimiz nomlaridan yolg’on hadislar to’qish, fiqh va ilmi kalom sohasidagi ziddiyatlar, amir va hokimlarga hushomadgo’ylik oqibatida ko’plab ishonarsiz hadislar ham yuzaga kelgan. Ana shunday bir sharoitda o’zlaririning butun bilim va hayotlarini to’g’ri hadislarni aniqlab, jamlashdek ezgu ishga sarflashni o’zlariga maqsad qilib qo’ygan muhaddislar paydo bo’ldi. Bu borada ilk qAdam qo’ygan shaxs – xalifa Umar ibn Abdulaziz bo’ldi. U joylardagi o’z noiblariga Muhammad alayhissalomning hadislarini jamlashni amr qildi. Birinchi hadis kitobini Ibn Shihob az-Zuhriy yozdilar. Undan keyin birin-ketin ko’plab hadis to’plamlari tasnif etila boshladi. Biroq, Ibn Shihob az-Zuhriy va u kishidan keyingi muhaddislarning hadis to’plamlari muayyan tartibga solinmagan, boblarga ajratilmagan bo’lib, ularda Payg’ambarimiz hadislari sahobalar va tobeinlarning fatvolari bilan chalkashtirib yuborilgan edi.

Xijriy 3-asr, darhaqiqat, ilmi hadis uchun oltin davr bo’ldi. Bu davrda hadis ta’lif etish sohasida «musnad», «sahih» va «sunnan» deb atalmish turli yo’nalishlar vujudga kelldi.

1) «Musnad» yo’nalishida tasnif etilgan to’plamlarda turli mavzudagi hadislar bir joyda keltirilib, ular hadis rivoyat qiluvchi sahobalarning islom dinini qabul qilgan vaqtiga ko’ra yoki alifbo tartibida joylashtirilgan. Abdulloh ibn Muso, Imom Ahmad ibn Hanbalning hadis kitoblari ana shu yo’nalishga mansubdir.

2) «Sahih» yo’nalishiga buyuk muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy asos solganlar. Bu yo’nalishda ta’lif etilgan to’plamlarga faqat to’g’ri, ishonarli hadislar kiritilgan.

3) «Sunnan» yo’nalishidagi to’plamlarda esa, to’g’ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda «zaif» hadislar ham keltirilgan. Abu Dovud, Iso at-Termiziy, an-Nasoiy, Ibn Mojaning muallafotlari ana shu yo’nalishga mansubdir.

Muvarounnahrda birinchi bo’lib hadis to’plami ta’lif etgan muhaddis – Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziydirlar. Bundan tashqari vatandoshlarimizdan Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Is’hoq ibn Rahovayh al-Marvaziy, Imom al-Haysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Barakotiy, Ibrohim ibn Ma’qil an-Nasafiy, Na’ima ibn Hammod al-Marvaziy, Xofiz al-Xorazmiy, Jamoluddin an-Nasafiy, Imom Abulhasan Ahmad ibn Muhammad as-Samarqandiy va boshqalar ham hadis to’plamlari tasnif etishgan.

Ikkinchi – «sahih» yo’nalishining asoschisi, islom olamida eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hijriy 194-yilda Buxoroda tavallud topganlar. O’n yoshga to’lmaslaridan ilmi hadis o’rganmoqqa kirishganlar. O’n olti yoshlarida onalari va akalari bilan birga hajga borib, to’rt yil Makkada yashaganlar. So’ng, Payg’ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadisi shariflarini to’plab tartibga solmoq niyatida bir qancha

islom mamlakatlarini kezib, shayxu ulamolardan ko'plab hadislar yozib olganlar. Jami – 600 ming hadis to'plab, shundan 100 sing «sahih» va 200 ming «g'ayri sahih» hadislarni yod olganlar. Hadis ilmi bobida quvvatu iqtidorlari benihoyat ortib, islom olamida katta hurmat qozonganlar. Minglab shogirdlar yetishtirganlar. Muslim ibn Hajjoj, Iso at-Termiziy, an-Nasoiy, Abu Zur'a, Yusuf al-Farobiy, Abu Bakr ibn Huzayma kabi mashhur muhaddislar shular jumlasidandir.

Imom Buxoriy, ona yurtlari Buxoroga qaytib kelgach, hadis ilmini targ'ib etishga kirishadilar. Ammo, ul zotning boshlagan bu sa'yu harakatlari hukmdorga xush kelmaydi, shul boisdan Buxoroni tark etib, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'iga ravona bo'ladilar va o'sha yerda istiqomat qilib qoladilar. Hijriy 256-yili Ramazon hayiti kuni 62 yoshda vafot etadilar vash u yerning o'ziga dafn qilinadilar.

Imom Buxoriyning «Al-Jomi' as-sahih» («Ishonarli to'plam») deb nomlangan 4 jilddan iborat hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. To'plamda Payg'ambar (sav) hadislaridan tashqari, fiqh (islom huquqshunosligi), islom marosimchiligi, axloq-odob, ta'lim-tarbiya hamda o'sha davr tarixi va etnografiyasiga doir ma'lumotlar ham mavjud. Unga 600 ming hadisdan faqat 7275 ta eng «sahih» hadislar kiritilgan. Mazkur to'plam Misr va boshqa bir qancha mamlakatlarda juda ko'p marta Chop etilgan, unga yirik ulamolar tomonidan sharhlar bitilgan.

5. Tasavvuf va tasavvuf ta'limotida inson kamoloti masalalari

Tasavvuf, sufiylik – islomda insonning ruhiy dunyosi to'g'risidagi qarash. Tasavvuf uzoq asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan. Insonning ruhiy-axloqiy poklanishi, ilohiy muhabbat bilan yuksalib borish bu ta'limotning asosiy g'oyalaridir. Shu bois tasavvuf chuqur insonparvarlik g'oyalari bilan omuxta bo'lib, haqiqat talabida yurgan odamlar qalbiga yo'l topdi, odamlarning poklik, abadiy hayot, ko'ngil hurriyati haqidagi orzularini ifodalab keldi. Xalqimiz sufiy darveshlarga hurmat-ehtirom orqali Alloh taologa, uning insonni ulug'lagan qudrati va fayzu futuhiga e'tiqodlarini izhor etganlar. Shayxlarning karomatlari, so'zlari va siyratu surati yuksak axloq va ilohiy muqaddaslik namunasi sifatida qabul qilingan. Tasavvuf shayxlari xalqning ma'naviy rahbarlari, ruhoniy murabbiy sifatida maydonga chiqib, payg'ambar faoliyati, holatlarini davom ettirisha jazm etganlar.

Ulug' sufiy va shoir Farididdin Attor o'zining «Tazkiratul avliyo» asari muqaddimasida qayd etadiki, avliyolarning so'zi kishi qalbining malhami va ruhining quvvatidir. Kimki avliyo so'zini diliga jo etsa, u Qur'on va Hadislar mag'ziga eshik ochadi, o'zining holati, axloqini, qilayotgan ishlarining yaxshi-yomonligini o'ylaydigan bo'lib qoladi va hayot, oxirat, insoniylik to'g'risida mulohaza yuritib, ichki olamini tartibga soladi.

Sufiylik butun Sharq ma'naviy hayotida komil inson haqidagi g'oyalarning shakllanishida muhim rol o'ynadi. Sufiylik musulmon Sharqi xalqlarining ko'p asrlik ma'naviya hayotining g'oyaviy asosini belgilab bergan ta'limot bo'lib maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy go'zallikni idrok etish yo'li, haq va haqiqatni himoya etish vositasi bo'lib xizmat qildi.

Sufiylar inson ma’naviy-ruhiy komillikka erishish yo’lida to’rt bosqichni o’tishi kerak, deb hisoblaydilar:

Birinchisi – shariat. Shariat qonun-qoidalariga qat’iy amal qilish, chunki shariat qonun bo’lib, bu qonun – vujudni va qalbni tarbiyalaydi.

Ikkkinchisi – tariqat – nafsni tiyish, ma’naviy muhabbatni chuqurlashtirib, Xudo to’g’risida o’ylash, ya’ni tariqat ko’ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi faoliyat.

Uchinchisi – ma’rifat – hamma narsaning, butun borliqning asosi – Xudo ekanligini anglash. Bunda odam uning barcha kibru havo, manmanlik, shon-shuhrat bema’ni bo’lib ko’rinadi. Shunda u orif, ya’ni bilimli, xudoni tanigan bo’ladi.

To’rtinchisi – haqiqat – bunda sufiy xudoning dargohiga erishadi, Allohning vasliga yetadi, Alloh roziligiga erishadi. Sufiylarning eng oliy maqsadi ham shudir.

Sufiylik ko’p qirrali oqim bo’lib, «sof», «yagona» sufiylik hyech qachon bo’lmagan. U turli ko’rinishlarda, oqimlar tarzida namoyon bo’lmagan. Ammo har biri ham inson kamoloti muammosiga turlicha yondashib, uni o’z yo’li, qarashlari orqali talqin etgan. Shunga ko’ra tadqiqotchilar sufiylikni uch oqimga mansub deb biladilar.

1-oqim Mansur Halloj, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiylarga mansub bo’lgan oqim.

2-oqimga mansub sufiylar birinchi oqim namoyondalari qarashlarini qabul qilgan, ammo ularni islom dini tartib-qoidalariga moslashtirgan. Bu oqimning eng mashhur nazariyotchisi Zayniddin binni Muhammad Imom G’azzoliy (1058-1111), Ahmad Yassaviy (1041-1166)lardir.

3-oqim Naqshbandiya ta’limoti bilan bog’liq. Bu oqim XIII asrning oxirlarida shakllana borib, XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda keng rivojlangan.

Naqshbandiya tariqati tasavvuf oqimlari ichida eng oxirgi, takomillashgan tariqatdirkim uning asoschisi Xoja Baxouddin Naqshbanddir. Naqshbandiya tariqatining asosiy g’oyalaridan biri, ma’lumki, «Dil ba yoru dast ba kor», ya’ni har doim inson qanday dunyoviy ish bilan band bo’lmasin, dilida Allohni yod etib, zinhor uni utunmasligi kerak.

Naqshbandiya o’zidan oldingi tariqatlardan bevosita hayotga yaqinligi bilan ajralib turadi. U tasavvufdagi ilgari o’ta qattiq oqimni yumshatib, mo’tadillashtirdi. Bu tariqat kasbu kor kishilariga juda mos keladi. Chunki bunday kishilar tirikchiligidan voz kechib, faqat tariqat bilan mashg’ul bo’lsalar, hyech kim ularga o’z-o’zidan bir burda non bermaydi.

Naqshbandiya tariqatining tarkidunchilik qilmay, dunyoviy ishlardan yuz ugirmay turib ham Allohga yetishish mumkinligini ko’rsatib berganligi Islom olamida uning mavqyeini oshirib jahon uzra keng tarqalishiga sabab bo’ldi. Bahouddin Naqshband davrlaridan boshlab mavqyei orta borgan bu tariqatning shuhrati jahonni tutdi. XV asrda yashab o’tgan mashhur shayxlardan biri – Xoja Ubaydulloh Axror Valiy, tasavvuf adabiyotining yirik namoyandalari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ham bevosita Naqshbandiya tariqatining vakillari edilar.

6-MA’RUZA

Mavzu: Sharq Uyg’onish davrida ta’lim-tarbiya to’g’risidagi fikrlar (IX-XII asrlar)

REJA:

1. Sharq Uyg’onish davrining o’ziga xos xususiyatlari.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o’zgarishlar, ilm-fan, madaniyatning rivojlanishi.
3. IX-XI asrlarda yashab ijod etgan adiblar ijodida ta’lim-tarbiya va ma’rifatparvar g’oyalar.
4. Mahmud Qoshg’ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy asarlarining hozirgi kundagi ahamiyati.
5. Kaykovusning «Qobusnoma» asarida ta’lim-tarbiya masalalari

Tayanch so’z va iboralar:

Uyg’onish davri, ilm-fan, madaniyat, yuksalish, ijtimoiy hayot, iqtisodiy hayot, feodal, ta’lim, tarbiya, ma’rifatparvar, ijod, adib, mutafakkir, Markaziy Osiyo, O’rta Osiyo, Yaqin Sharq, O’rta Sharq, G’arb, Renessans, Movarounnahr, Xuroson

Adabiyotlar ro’yxati:

1.O’zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O’qituvchi», 1995, 140 bet.
2. Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O’qituvchi», 1997, 272 bet.
3. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O’qituvchi», 1996, 146 bet
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. «Muloqat» jurnali, 1998 yil, 5-son.
5. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar 1-tom. – T.: «Fan», 1998.
6. Xayrullayev M. Uyg’onish davri va Sharq mutafakkiri. T.: «O’zbekiston», 1971, 43-bet.

1. Sharq Uyg’onish davrining o’ziga xos xususiyatlari

IX-XII asrlar davomida Movarounnahr butun musulmon olamida ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o’lka sifatida mashhur bo’lib, bu yerda qadimiy an’analar bilan arab, fors, qisman hind hamda qadimgi Yunon ilmiy-madaniy an’analari qorishuvi asosida islomiy falsafiy va tabiiy ilmlar – asronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, dorishunoslik, jo’g’rofiya kabilar rivoj topdi. Bu yerda maxsus hadisshunoslik va islom fiqhshunoslik maktablari shakllanib, tarixshunoslikda ham muhim asarlar vujudga keldi.

Bu davr ma’naviyatining muhim tomonlaridan biri shundaki, olim, donishmand, shoirlarning ko’pchiligi qomusiy bilimlarga ega bo’lib, ilmlar bir-biridan ajralmas, uzviy bog’liq holda mavjudligi xarakterli edi. Shuning uchun ham Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, az-Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniylar juda ko’p sohzalarda ijod qilib, o’chmas iz qoldirdilar. Shu bilan birga matematika, asronomiya, tibbiyot, mantiiq, tilshunoslik, tarix kabi ilmlar, madaniyat, ma’naviyatning rivojida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etganiki, islom dinining nazariy masalalari bilan birga axloqiy tomonlari ham keng rivoj topganini ko’ramiz.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda tarqalgan va rivojlangan tasavvuf ta’limotlari, oqimlari ham jamiyat ma’naviy hayotining rivoji uchun xizmat etib, uning o’ziga xosligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma’lumki, G’arb adabiyotlarida Yevropa mamlakatlarida keskin madaniy yuksalishga olib kelgan XV-XVI asrlarni Renessans – Uyg’onish davri nomi bilan yuritadilar. Biroq ko’pchilik mualliflar Sharqda shunday jarayon bo’lganligidan ko’z yumadilar. Holbuki, IX-XII asrlarda Markaziy siyoda Yevropadan bir necha asrlar ilgari madaniy yuksalish yuz berganini hyech kim inkor eta olmaydi. U Yevropadagidek yangi siyosiy-iqtisodiy jarayon, ya’ni burjua munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog’liq bo’lmasa-da madaniyat tarixida o’lmas iz qoldirdi va Yevropa Renessansining vujudga kelishiga katta ta’sir ko’rsatdi.

Shuning uchun biz IX-XII asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy yuksalishini Uyg’onish davri, aniqrog’i ilk Uyg’onish davri deb atashga ham to’la asosimiz bor. Bu ilk Uyg’onish davri madaniyati siyosiy-iqtisodiy jihatdan Yevropa mamlakatlaridan farqli o’laroq mustaqilikka erishish va bu mintaqada mustaqil davlatlarning vujudga kelish jarayoni bilan uzviy bog’liqdir.

Yaqin va O’rta Sharqda, jumladan Eron, Kavkaz ort iva O’rta Osiyoda savdo aloqalarining rivojlanganligi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, iqtisodiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga ta’sir etdi. M.Xayrullayev ta’kidlaganidek, «Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlaridagi madaniy yuksalishga olib kelgan sabab feodal munosabatlar yangi bosqichi bo’ldi. Bu davr madaniy taraqqiyotida arab halifaligiga bo’yso’ngan mamlakatlarning xo’jalik iqtisodiy aloqalarning kuchayishi va buning oqibatida turli madaniyatlar – Hind, O’rta Osiyo, Eron, Arab, Yunon, Rim madaniyatlarining yaqindan o’zaro aloqAsi va bir-biriga ta’sir jtib borishi katta rol o’ynadi»[1].

Bu davrda qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yer maydonlari kengaytirildi, ko’plab sug’orish inshootlari tiklandi va yangilari qurildi, paxta, zig’ir, kanop ekilib, ular tolasidan mato to’qilgan. Movarounnahrda, xususan, O’rganch, Farg’na, Samarqand va Buxoro to’qimachilik mahsulotlari, ayniqsa Samarqand va Buxoro shoyisi dunyoga mashhur bo’lgan. Qishloq xo’jaligi va hunarmandchilik sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi savdoning rivojlanishiga yo’l ochdi. Natijada Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlarining chet davlatlar: Ispaniya, Xindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari ko’lami ortib bordi.

Markaziy Osiyoda ilk Uyg’onish davri haqida so’z borganda, quyidagi omillarni alohida ko’rsatmoq zarur:

a) IX-XII asrlarda arab xalifaligidan qutilib, yerli mustaqil davlatlarning vujudga kelganligi.

b) yagona din – Islom tufayli katta hudud – Yaqin va O’rta Sharqdagi turli xalqlar, mamlakatlar o’rtasidagi aloqalarning rivoj topishi, madaniyat, ma’naviyatda ma’lum umumiylik vujudga kela borganligi;

v) oldingi «Ipak yo’li» ahamiyatining oshuvi, mamlakatlararo savdo-sotiqning, hunarmandchilikning ko’paygani, shaharlarning rivoji;

[1] Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. Т.: «Ўзбекистон», 1971, 43-бет.

g) jahon madaniyati avval erishgan yutuqlar, xususan, qadimgi yunon, hind, eron madaniyati, ilm-fani yutuqlari inkor etilmay, aksincha, vorislik davom qilgani, undan keng foydalangani.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar, ilm-fan, madaniyatning rivojlanishi

X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar – Toxiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshoxlar davlatlarining paydo bo'lishi ham madaniy hayotning yanada ravnaq topishiga olib keldi. Bu davrda pul muomalasi rivojlandi. Jamiyat siyosiy, ijtioiy, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, albatta madaniy hayotga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Somniylar davlati Marv, Buxoro, SamarqAnd va O'rganch o'sha davrning madaniy markazlaridan sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilar edi. X asr o'rtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshlandi, ammo yoziladigan hujjatlar, ishlar fors-tojik tilida bo'lsa ham, arab imlosida yozilar edi.

O'sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo'lgan kitob do'konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy bahs-munozaralar o'tkazganlar.

Abu Ali ibn Sino kitob do'konlarining birida Farobiyning Arestotel «Metafizika»siga yozgan sharhlarini sotib olganligini tarjimai holida hikoya qiladi. Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo'lgan, bu kutubxonani o'sha davrdagi Sheroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar.

Samoniylar davrida Ro'dakiy, Firdavsiy, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar yashab ijod etganlar.

X asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan Qoraxoniylar davlatida ham ba'zi xonlar o'z saroylarida kutubxonalar tashkil etdilar. Bu kutubxonalarda arab va hatto G'arbiy Yevropa olimlarining asarlari ham mavjud edi. Bu davrda turkiy til shakllanib bordi. Yusuf Xos Hojib, Mahmud QOshg'ariy kabi olimlar o'zlarining jahon ahamiyatiga ega bo'lgan asarlarini yaratdilar.

XI asr boshida G'aznaviylar davlati, keyinroq saljo'qiylar, Xorazmshoxlar davlati tashkil topdi. G'aznaviylar davrida ham ilmiy, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojlandi. Mahmud G'aznaviy o'z saroyiga juda katta madaniy boyliklarni to'playdi, olimlarni ilmiy ishga jalb etadi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy ham Mahmud saroyida yashab, mashhur «Hindiston» asarini shu yerda yaratgan.

XI asrda Xorazmda ilm-fan ayniqsa taraqqIy etadi. Xorazm shohi Ma'mun o'z saroyiga eng zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Baytul hikma» - «Donishmandlik uyi»da qomusiy olimlar – Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Salh al-Masihiy, tabib Abdulhayr Hammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shug'ullanganlar, lekin toj taxt uchun kurash natijasida bui lm dargohi o'z faoliyatini to'xtatadi.

Saljo'qiylardan Alp Arslon Muhammad hokimiyatni boshqargan davrda uning vaziri Nizom ul-Mulk o'z davrining mashhur siyosiy arbobi va ma'rifatparvar inson sifatida dovruq qozondi. U G'aznaviylar ish uslubiga bir oz o'zgartirishlar

kiritib, hokimiyatni boshqarishning o’z uslubini ishlab chiqadi va uni o’zining «Siyosatnoma» asarida (1091-1092) bayon etadi.

Nizom ul-Mulkning maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari beqiyos. U 1067 yilda Bag’dodda o’zining shaxsiy jamg’armasiga o’sha davrning eng mashhur o’quv yurti – «Nizomiyya» madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so’fiylarga katta e’tibor berib, ularga homiylik qiladi.

Bu davr madaniy yuksalishi haqida gap borar ekan, ma’naviyatga, Uyg’onish davri madaniyatiga xos quyidagi xarakterli tomonlarni qayd etib o’tish mumkin:

- koinotning vujudga kelishi, bosqichlari, olamning tuzilishi, moda va ruhning xususiyatlari kabi umumiy ilmiy-falsafiy masalalarga qiziqish, ilm-fan ma’rifat, ma’naviyatga intilish ijtimoiy rivojlanishning muhim mezoniga aylanishi;

- insonni koinotni Yaratuvchining eng oliy mahsuli deb baholash. Avvalo ilm, inson ahli tafakkurini ulug’lash, unga ishonch bildirish, targ’ib-tashviq etish, ularni yaratuvchining eng ulug’ va yuksak ijodi deb baholash, ma’rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi deb ilish;

- axloq, odob, muomalani inson tarbiyasining asosiy maqsadlaridan deb bilish. Insonning adolat, yuksalish, ma’naviyatga intilishiga yo’l ochish, imkoniya yaratish. Aqlda, axloqda, ma’naviyatda yetuk bo’lish, komil insonni yaratish, insonparvarlik, vatanga, odamlarga xizmat qilish, insonlar orasidagi do’stlik, o’zaro yordam, ko’aklashuvga chaqirish bu davr madaniyatining yetakchi jihatlaridandir;

- komil inson rivojlangan davlatchilikda shakllanadi. Bunday davlatchilik esa aql va ilmga, zaro kelishuv, birlikka ega bo’lish natijasida amalga oshiriladi. Mustahkam davlatchilik turli ilm-fan tarmoqlarining rivojini ta’minlaydi;

- mustahkam davlatchilik fozil jamoani vujudga keltira oladi, bu davlat, jamoaga rahbarlik, hokimlik qilayotgan shaxsning ma’naviyatli, ilmli, axloqli bo’lishi, jamoani yaratish, davlatchilikni mustahkamlash bu davr ijtimoiy ta’minotining muhim xislatlaridir.

3. IX-XI asrlarda yashab ijod etgan adiblar ijodida ta’lim-tarbiya va ma’rifatparvar g’oyalar

Sharq Uyg’onish davrida ilm-fan rivojlanishi uch yo’nalishda bo’ldi.

Birinchi yo’nalish – matematika-tibbiyot yo’nalishi bo’lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, farmakologiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg’oniylar matematikaga oid, Zakariyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid, ibn Sino, Jurjoniy tibbiyot va falsafa, Abu Rayhon Beruniy tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Ikkinchi yo’nalish – ijtimoiy-falsafiy yo’nalish bo’lib, bunda falsafa, tarix, mantiiq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik va boshqa fanlar bo’lib, bu sohada Farobiy, al-Kindiy, ibn Sino, Zahiriddin Bayhaqiy, Muhammad Narshahiy va boshqalar faoliyat ko’rsatganlar.

Biz yuqorida zikr etgan olimlar qomusiy olimlar bo’lib, ular o’z sohalarida ish olib borish bilan bir qatorda boshqa bir qancha fanlarga doir ham tadqiqotlar olib borganlar.

Uchinchi yo’nalish – ta’limiy-axloqiy yo’nalish bo’lib, bu sohada qomusiy olimlar o’z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlari tarkibida yoki axloqiy asarlarida bayon etsalar, adib va tarbiyashunos olimlar ta’limiy-didaktik asarlarida ifodalaganlar. Ma’lumki, Sharq Uyg’onish davrida inson muammosi ma’naviyat sohasidagi asosiy masala bo’lgan. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor berilgan, yaratilgan asarlarda Sharqqa xos bo’lgan insoning axloqiy-ruhiy kamolotini ulug’lash yetakchi o’rin tutgan.

Ushbu yo’nalishlar bo’yicha bir qator mutafakkir va allomalar ijod qilganligini quyidagi chizmada ko’rishimiz mumkin:



Insonparvarlik g’oyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va xislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta’lim-tarbini amalga oshirish muhim masala qilib qo’yilgan. Zero, insoniylik g’oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalanganligi uchun ham Sharq Uyg’onish davri falsafasi va pedaogikasida ta’limiy-axloqiy yo’nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Axloq masalasi faylasuflarning, buyuk mutafakkirlarning, ham tarixchi-yu shoir va adiblarning ham birdek diqqat markazida bo’ldi. Ta’limiy-axloqiy risolalar paydo bo’lib, axloqning ham nazariy-ham amaliy masalalari tahlil etildi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Axloq haqida risola», «Ishq risolasi», «Qutadg’u bilig», «Axloqi Nosiriy», «Axloqi Jaloliy», «Axloqi Muhsiniy», «Hibatul-haqoyiq», «Qobusnoma», «Guliton», «Bo’ston», «Mahbub ul-qulub» kabi Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Davoniy, Koshifiy, aykovus, Sa’diy, Jomiy, Alisher Navoiylarning ta’limiy-axloqiy asarlari inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etishda sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur ta’limiy-axloqiy asarlarda insonning ma’naviy kamolga yetishi yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g’oya ilgari surildi. Ilmiy

bilimga asoslanuvchi metod shakllandi, natijada aqliy tarbiya olimlar diqqat markazida bo'ldi: Xorazmiy, Farobiylar bu metodni asoslab berishgan buyuk mutafakkirlar edi. Bular bilan bir qatorda o'sha davrda yaratilgan barcha ta'limiy-axloqiy risolalarda ham aqLiy tarbiyada zehnni tarbiyalash, aqliy kamolot yo'llari, bilimlarni asl mohiyatini yoritishga harakat qildilar.

Lekin, biz shu paytgacha tayangan materialistik ta'limotga asosan olimlar yuksak axloq haqidagi g'oyalarni islomning axloqiy dogmatikasiga qarshi ishlab chiqilgan, o'z fikrini mantiiqiy, izchil asosli ifodalashga asoslangan rasionalistik ta'limot ham islom falsafasi – kalomning hissiy bilishni va aqliy bilishdan iborat ta'limotini – sehrli bilish haqidagi ta'limotiga qarshi shakllangan, deb ta'lim berdilar. Aslini olganda esa, Sharq Uyg'onish davrining ta'limiy-axloqiy qarashlarining asosi Islomning umuminsoniy va o'ziga xos haq-huquqlariga, talab va tamoyillariga borib taqaladi.

Zero, barcha mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarining asosi ham Qur'on va Hadis ta'limotiga asoslanadi. Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o'rgatish Qur'on va Hadislarni o'rgatish va ulardagi ko'rsatmalarni o'zlashtirish bilan birga olib borilgan. Shunga ko'ra Qur'on va Hadislardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga ta'sir etgan. Hadislardagi umuminsoniy fazilatlarga alohida urg'u berilgan. Ularda ilgari surilgan musulmonlarning muhim xislatlari: halollik, poklik, saxovat, himmat, mehr-oqibat, ehson, sharm-hayo, ilm izlash, muomala qoidalari, axloq mezonlari va boshqalar o'z ifodasini topgan va Sharq adabiyotiga, jumladan ta'limiy-axloqiy asarlarga ta'sir etdi. Hadislar ta'siri Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan boshlanib, Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq», Sa'diyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» va boshqa asarlar negizida ko'rinadi. Ham g'oya, ham mazmun, ham shakl buning dalilidir.

Masalan, Qur'onda ham, Hadislarda ham, ta'limiy-axloqiy dostonlarda ham ilm ta'rifi bilan birga xulq-odob qoidalari, turmush odobi yoritiladi.

Mazkur ta'limot mutafakkirlarimiz ijodida ilmiy talqin etiladi. Xususan, al-Farobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy fikrlari ham avvalo Qur'on oyatlarining ilmiy talqinidir. Chunki Farobiy ilm yo'li bilan Allohni tanigan. Zero, Qur'onda ham, Hadisda ham haqiqiy ilm tolibi musulson hisoblanishi ta'kidlanadi.

Mutafakkirlarning o'z ishlarida o'qitish va ta'lim-tarbiyaga e'tibori natijasida, pedagogika va didaktika masalalariga orta bordi. Aniq fanlarni o'qitishning uslubi masalalariga AyniqSA e'tibor kuchaydi. Pedagogika sohasida inson va uni kamolga yetish bilan bog'liq muammo asosiy o'rinni egalladi.

Mutafakkirlar ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarida inson kamoloti muammosini baxt-saodatga erishish uchun shiroit yaratish, degan g'oyani ilgari surish bilan bog'lab talqin etdilar. «Farobiy, Nizomiy, Jomiy, Navoiy asarlarida oliy axloq, ma'rifatga, ma'naviy erkinlikka erishuv baxt-saodat, deb talqin etildi va bu baxt-saodat adolatli, zulmdan holi, ideal yetuk jamoa va ideal rahbar hokim bilan bog'liq holda tasavvur etildi. Yetuk jamoa haqidagi insonlarning barchasini baxt-saodatga erishtiruvchi ideal tuzum haqidagi utopiya Sharq Uyg'onish davri

ijtimoiy-etnik fikrni taraqqiyotining eng katta yutuqlaridan biri bo'ldi», - deydi farobiyshunos olim M.Xayrullayev.

Sharq Uyg'onish davri ta'limiy-didaktik asarlarida inson shaxsining kamol topish yo'llari, usullari bayon etildi. Haqiqiy yuksak axloqli inson xislatlari haqida fikr yuritilganda birinchi o'rinda adolatparvarlik g'oyasi yotadi. Masalan, adolatli hukmdor haqida so'z yuritilar ekan, agar hukmdor adolatli bo'lsa, uning qo'l ostidagi fuqarolar ham baxt-saodatli hayot kechiradi, deyiladi.

Uyg'onish davri pedagogikasida kasb-hunar o'rganish ilm o'rganish bilan bab-baravar talab etiladi. Har bir yosh yigit, u qaysi tabaqa farzandi bo'lmasin, kasb-hunar o'rganishi zarurligi alohida ta'kidlandi. Har bir hunarmand mehnat madaniyatini, o'z kasbiga e'tiqod va hurmatni tarkib toptirish, tejamkorlikka rioya etish, o'z ishini sifatli bajarishga yo'llangan.

Bundan tashqari, insonni kamolotga yetkazuvchi axloqiy xislatlar sifatida do'stlik, sadoqat va vafo, sevgi va muhabbat, vatanparvarlik, samimiylik, saxovat, muruvvat, erkinlik, irodalilik, jasurlik kabilar ilgari suriladi. Salbiy xislatlar sifatida rashk, riyokorlik, xudbinlik, ochko'zlik, hirs, sotqinlik kabilar qoralanadi.

Xulosa qilib aytganda, islom dinining yoyilishi, markazlashgan Arab xalifaligida ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilishi – «Sharq Renesansi» - Uyg'onish davrini boshlab berdi.

Butun Sharqda bo'lgani kabi Muvarounnahrda ham ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar yetishib chiqdi.

Ular o'z ilmiy ishlarida axloq-odob masalalariga ham katta e'tibor berdilar. Bularda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishida pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shuningdek, Sharq Uyg'onish davrida sof pedagogik asarlar yaratib, ta'lim va tarbiyada inson yetukligining xususiy va umumiy yo'llari haqida o'lmas ta'limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga keldi.

Demak, biz Sharq Uyg'onish ta'lim-tarbiya muammolarini tahlil etar ekanmiz, uni ikki yo'nalishda - qomusiy olimlar ijodiy merosida ta'lim-tarbiya muammosi va sof t'limiy-axloqiy asarlarda komil insonni tarbiyalash muammolarining hal etilishi orqali ifodalanganini ko'ramiz.

4. Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy asarlarining hozirgi kundagi ahamiyati

Xalqimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari, xulq-atvorga oid xislatlari XI asrda yashab ijod etgan ulug' olim, mutafakkir **Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk»** asarlarida keng bayon etilgan. Ushbu asarlarda qadimgi turkiy xalqlar tili tarkibiga kirgan so'zlarning arabcha izohli tarjimasi berilgan. Bu kitobni qadimiy turkiy tilning izohli lug'ati deyish mumkin.

«Devon»dagi qo'shiqlarda tabiat manzaralari, ov va jang tasvirlari, sevgi-muhabbat tuyg'ulari, o'git-nasihatlar o'z ifodasini topgan. She'rlarda ilm olishning

qadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'stiga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarini qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi. Bunday she'rlar turkiy xalqlar qadim-qadimlardan boshlab inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, pand-nasihatlarda asosiy o'rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat qilish to'g'risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarni ilmli kishilarga yaqinlashish, ulardan o'gitlar olishni maslahat beraladi.

«Devonu lug'atit turk» asarida xalqning ta'lim-tarbiyaga oid tajribalari ifodalangan maqollar ham mavjud. Maqollarda ham qo'shiqlardagi kabi do'stlik va hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olishga va kasb-hunar egallashga undash, vatanparvarlik va qon-qarindoshlik tuyg'usi tejamkorlikning ahamiyati, isrofgarlikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlari, xulq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o'gitlar talqin etiladi.

Demak, kishilarni mukammallashtirishga xizmat qiladigan «Devonu lug'atit turk» asaridagi she'riy parchalar, maqollar ezgulikni targ'ib qilgan, insonning kamolga yetishiga katta ta'sir etgan. Ushbu jihatlari bilan Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asari bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yusuf Xos Hojib O'rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri Bolasog'unda tug'ilgan. Uning hayoti haqida batafsil ma'lumot bizgacha yetib kelmagan. Lekin u o'zining 1069-1070 yillarda yozgan **«Qutadg'u bilig»** («Saodatga yo'llovchi bilim») asari bilan butun dunyoga ma'lum bo'lgan mutafakkirdir.

«Qutadg'u bilig» ta'lim va tarbiya, ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini o'zida mujassamlashtirgan, axloq va odobga oid darslikdir. Ushbu asarda mutafakkir o'zining axloqiy-siyosiy va pedagogik fikrlarini bayon qilgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o'rni, burch va vazifalari haidagi muammolar o'ziga xos bir tarzda bayon etiladi. Mutafakkir kitobning an'anaviy boshlanmasidan keyinroq insonning haqiqiy baxti bilimda ekanini bayon etadi. Yana ilm-zakovatning ahamiyati haqida qator boblarda ham fikr yuritish bilan birga unga alohida boblar ham bag'ishlangan. Lekin olim faqat ilm-ma'rifatning ahamiyatini ko'rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaliyotdagi o'rnini ham yoritadi.

Yusuf Xos Hojib bilimni buyuk, o'quvni ulug' deb ta'riflaydi. Chunki zakovatli inson ulug' bo'ladi, bilimli kishi buyuk bo'ladi, deb ilmli kishilarni asl toifadagi kishilarga qo'shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishi mumkinligini aytadi. O'sha davrdayoq olim «Bilim hatto osmon sari yo'l ochur», deb bashorat qiladi.

Yusuf Xos Hojib olimlarni hurmat etish kerakligini ta'kidlab, ilm ahlini qadrlasa, ilmsizlarni johil kishilar deb biladi. U bilimlilik va bilimsizlikning oqibatlari haqida ham fikr yuritadi. Inson bilimsiz, nodon, johil bo'lsa, yaramas

ishlar qilishi, aksincha, bilimli, dono, zukko bo'lsa, ezgu ishlarni ro'yobga chiqarishini ta'riflash bilan kishilarni tinmay ilm olishga undaydi.

Yusuf Xos Hojib insonni kamolga yetkazishning yana bir va eng muhim tomoni uni axloqiy kamol toptirish, deb qaraydi. Mutafakkir o'zining axloqiy qarashlarini, ya'ni ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning barcha tabaqalari o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni amaliyotga tayangan holda yoritadi. Olim insonning haqiqiy kamolga yetishida aqliy va axloqiy tomondangina emas, balki jismoniy tomondan ham sog'lom bo'lishi kerakligiga katta e'tibor beradi.

Yusuf Xos Hojib insonning kamolga yetishining yo'l-yo'riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib beradi. Shuning uchun ham bu asar o'zining ilmiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini shu paytgacha saqlab kelmoqda.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida ta'limiy-axloqiy jihatdan eng yuksak sanalgan asarlardan biri **Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq»** («Haqiqatlar sovg'asi») asaridir. Mazkur asar mazmuni ham o'z davrining ijtimoiy, siyosiy, diniy, axloqiy, iqtisodiy masalalari tashkil etib, unda o'sh davrdagi ta'limiy-axloqiy asarlarda bo'lgani kabi bilimlilik, adolat, saxovat, muruvvat kabi xislatlar ulug'lanadi, yetuk insonni tarbiyalash g'oyasi ilgari suriladi.

Asar o'n to'rt bobdan iborat. Dostonning dastlabki 4 bobi an'anaga ko'ra muqaddima bo'lib, beshinchi bobdan asosiy qism boshlanadi. Bu boblarda, asosan bilimning ahamiyati, jaholatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, saxovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqiylikning eng muhim xususiyatlari tarannum etiladi.

Ahmad Yugnakiy o'zining insonni kamolga yetkazish haqidagi qarashlari bilan pedagogik fikr taraqqiyotida o'z o'rniga ega. U inson kamoloti uchun muhim bo'lgan aqliy va axloqiy qoida va talablarni o'zida mujassamlashtirgan «Hibatul-haqoyiq» asarida komil insonni shakllantirishning o'ziga xos tizimini yaratdi. Bunda u insonni kamolga yetkazishning eng muhim va asosiy mezonlaridan biri – insonning bilimga ega bo'lishi, ya'ni unga aqliy tarbiya berish deb bildi. So'ng ma'naviy-axloqiy kamolga yetkazuvchi so'z odobi, insondagi halollik, rostgo'ylik, saxiylik, kamtarlik, samimiylik, qanoat, chinakam do'st bo'lishni eng muhim insoniy xislatlar sifatida ta'riflaydi va bularga qarama-qarshi bo'lgan jaholat, baxillik, ochko'zlik, yolg'onchilik, takabburlik, zolimlik, shoshqaloqlik kabi millatlarni qoralab, ularning yomon oqibatlarini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq» asari xalqni, Ayniqsa, yoshlarni ma'naviy kamolotga yo'llaydi, ijtimoiy hayotdagi kishilar o'rtasidagi ziddiyatlarni ahillik, saxovat, yaxshilik bilan hal etib, ochko'zlik, baxillik, jaholatni ilm-ma'rifat bilan bartaraf etishni da'vat etadi.

«Hibatul-haqoyiq» asaridagi ma'rifiy-tarbiyaviy masalalar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanganligi uchun ham bu asar necha asrlardan buyon ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda.

Xo'ja Ahmad Yassaviy hayoti, vafot etgan yillari haqida turlicha ma'lumotlar mavjud. jumladan, mavlono Xusomidin Sig'noqiy «Xo'ja Ahmad Yassaviy 130 yil umr ko'rgan», deb yozadi ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u zoti Sharif payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga e'tiqod yuzasidan 63 yoshga

kirganda yer tubida, g’orda yashab hayot kechirganlar. Lekin u yerda necha yil yashaganlari Aniq ma’lum emas. Ammo o’zlarining hikmatlarida yozilishicha, 125 yoshga kirganligi haqida ma’lumot berilgan. Shu yoshda ham tetik bo’lib, hikmat misralarini bitgan.

Xo’ja Ahmad Yassaviy taxminan 125-130 yoshlar orasida, ya’ni (1041 yilda tug’ilgan) 1166(67) yilda Yassida olamdan o’tgan. Ulug’ bobomiz Jahongir Amir Temur 1395-1397 yillarda uning kichik qabri ustiga ulug’vor bino qurdirgan bo’lib, u hamon o’zining salobati, ko’rkamligi bilan ziyoratchilarni o’ziga maftun qilib kelmoqda.

Shoirning Yassaviy taxallusi bilan qoldirgan adabiy merosi asosan to’rtliklardan iborat. Shuningdek, uning adabiy merosida ayrim g’azal va masnaviylar ham mavjud. shoir ijodining g’oyaviy yo’nalishi tasavvufona bo’lib, kishilarni bu dunyoda pok, halol, beozor, yetim-g’ariblarga mehr-shafqatli bo’lib yashashga da’vat qilishdan iborat. Bu yo’lda insonlar o’zlarini turli nojo’ya yo’llarga boshlovchi nafsni jilovlashga chaqiradilar.

Ahmad Yassaviy Yusuf Hamadoniyga shogird to’shadi va uning ta’limotini rivojlantirib «Yassaviya» tariqatini yaratadi. «Yassaviya» tariqatining barcha aqidalari Ahmad Yassaviyning asosiy asari bo’lmish «Hikmat»da mufassal bayon etilgan. «Hikmat»da o’z ql kuchi, peshona ter iva halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yo’lida insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg’or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan. Mol-dunyoga, boylikka va davlat orttirishga mukkasidan ketgan, xasis va ochofat kishilarni Yassaviy beayov tanqid qiladi.

5. Kaykovusning «Qobusnoma» asarida ta’lim-tarbiya masalalari

XI asrning 82–83-yillarida arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o’z o’g’li Gilonshohga bag’ishlab «Nasihatnoma»sini yaratadi va o’sha davr an’anasiga ko’ra uni bobosi podshoh Shamsul-maoliy Qobus sharafiga «Qobusnoma» deb ataydi.

«Qobusnoma» 1860 yilda o’sha davrda hali 16 yoshli shahzoda bo’lgan Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910) topshirig’i bilan buyuk shoir va mutafakkir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan birinchi bo’lib o’zbek tiliga tarjima qilingan.

«Qobusnoma» pand-nasihat tarzida yozilgan bo’lib, mana bir necha asrlardan beri xalqlarni, jumladan yoshlarni ma’naviy hayotga tayyorlashda, ularni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda muhim qo’llanma bo’lib kelmoqda.

Kaykovus odamlarning xislatlarini uch xilga bo’ladi: biri aql, biri rostlik, yana biri juvonmardlikdir. U bilim va aqlning ahamiyatini ulug’lar ekan, uni mol-dunyodan ham yuqori qo’yadi.

Asarda yoshlar tarbiyasida – juvonmardlik talablaridan eng muhimi – axloq tarbiyasi, deb ko’rsatiladi. U yoshlarda insonga nisbatan insoniy munosabatda bo’lish, adolatlilik, samimiylik, saxiylik kabi xislatlarni tarkib toptirishni istaydi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadini amalga oshirishga harakat qiladi. Ko’rinib turibdiki, Kaykovus qarashlarida inson tarbiyasi omili muhim o’rin

tutadi. U axloqlilikning birinchi belgichi suxandonlik deb biladi. U notiqlikda rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi.

Kaykovusning axloqiy ugitlari kitobda ota-ona haqqini bilish bilan boshlanadi. Unda Kaykovus Qur'on va Hadislardagi talablardan kelib chiqqan holda o'zining nuqtai nazarlarini bayon qiladi: «O'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lg'il, nedinkim sen ta-onang haqida ne ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-ona daraxtga o'xshaydir»[1].

Kaykovus oilada ota vazifasi va burchiga alohida e'tibor beradi. Farzand tug'ilganda avvalo unga yaxshi ot qo'yish, undan so'ng aqlli va mehribon murabbiyga topshirish, o'qitish, ulg'aya boshlaganda kasb-hunar o'rgatish, harbiy ish bilan tanishtirish, so'ng suvda suzishni o'rgatish kerak, deydi.

Kaykovus otaning burchi yana o'z farzandiga adab ham o'rgatishda, deb ta'kidlaydi. U ilm, hunar va adabni farzandga meros qoldirish har bir otaning farzandi haqqini bajargani, deb hisoblaydi.

Kaykovus otalarning o'z farzandlariga nisbatan qattiqqo'l bo'lishini talab etadi. Lekin bolalarni jazolashni otaning o'zi emas, murabbiy tomonidan bajarilishini istaydi. Chunki otaning o'z qo'li bilan farzandini jazolashi unda adovat hissini paydo qaladi. Lekin otadan farzand hayiqib tursin, agar u hayiqmasa, ota-onani xor qiladi, deb ta'lim beradi.

Kaykovusning hayotda xulq-odob qoidalariga qanday amal qilish haqidagi, yoshlarni adolatparvar, insonparvar, saxovatli, qanoatli, muruvvatli bo'lishi haqidagi qarashlari ayniqsa diqqatga sazovor. Ular yaxshilik va yomonlik rtasidagi qarama-qarshilik asosida bayon etiladi.

Kaykovus yuksak axloqiylikning yana bir tarkibiy qismi do'stlik deb biladi va do'st tutmoq odobi haqida fikr bayon etar ekan, uning asosiy talablarini talqin etadi.

Asarda jismoniy tarbiyaga ham katta e'tibor berilga, zero Kaykovus asarini juvonmardlar tarbiyasiga bag'ishlar ekan, ularning eng avvalo jismonan sog'lom bo'lib kamolga yetishini alohida ta'kidlaydi.

Demak, Kaykovusning «Qobusnoma» asari XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Bunda o'sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo'lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog'liq faoliyat turlari: otda yurish, merganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar san'ati, ifodali o'qish, xattotlik san'ati, she'r yoza olish, musiqiy bilimga ega bo'lish, shatranj va nard o'yinini bilish kabilar ham o'z ifodasini topgan.

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tadbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o'z qimmatini yuqotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.

[1] Кайковус. +обуснома. Нашрга тайёрловчи С.Долимов. Т.: «Ўқитувчи», 1986. 30-бет.

7-MA’RUZA

Mavzu: Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniyning ma’rifatparvarlik qarashlari

REJA:

1. Buyuk olim Al-Xorazmiyning fan olamiga qo’shgan hissasi.
2. Al-Xorazmiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
3. Abu Rayhon Beruniyning ijodiy faoliyati.
4. Abu Rayhon Beruniyning O’rta Osiyo fani va madaniyati taraqqiyotiga qo’shgan hissasi.
5. Mutafakkirlar asarlarida inson kamoloti va uni tarbiyalash masalalari.

Tayanch so’z va iboralar:

Ilm-fan, olim, madaniyat, mutafakkir, inson kamoloti, tarbiya, ta’lim, algebra, matematika, fikrlar, ijtimoiy qarashlar, falsafiy qarashlar, ijod, ta’limiy-axloqiy asarlar, xulq, odob, bilim, aql.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar 1-tom. – T.: «Fan», 1998.

2. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O’qituvchi», 1995, 140 bet.

3. Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O’qituvchi», 1997, 272 bet.

4. Zunnunov A. va boshq. O’rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.

5. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O’qituvchi», 1995, 140 bet.

6. Ma’naviyat yulduzlari (Tuzuvchi M.Xayrullayev). – T.: 2001. – 408 bet.

1. Buyuk olim Al-Xorazmiyning fan olamiga qo’shgan hissasi

Muhammad ibn Al-Xorazmiy (783-850). Jahon ilm-ma’rifatining buyuk nomoyondasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy taxminan 783 yilda Xorazmiyda dunyoga kelib, 847-850 yillar oraligida Bog’dodda vafot etgan.

Xorazmiy tug’ilib voyaga yetayotgan davrda Movarounnahr yirik madaniy va savdo markazlaridan biri edi.

Olimning to’liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Al-Majusiydir, "Abu-Abdulloh Muhammad " Islomga o’tganlarga beriladigan an’anaviy ism bo’lgan. Xorazmiyning avlodlari majusiy koxinlaridan, ya’ni "Mug’ullar" dan bo’lib, islomni otasi qabul qilgan bo’lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarida yozilishiga ko’ra Xorazmiy boshlang’ich ma’lumotni o’z uyida olgan, chunki uning otasi qadimiy diniy hamda dunyoviy bilimlardan xabardor bo’lgan. Shu tufayli al-Xorazmiy bolaligidanoq bu ilmiy manbalardan o’rganish imkoniyatiga ega bo’lgan. Muhammad Xorazmiy matematika bilan juda berilib shug’ullangan, bu sohaga oid barcha asarlarni qunt bilan o’rgangan, Arab, fors, xind, yunon tillarini ham o’rganib, bu tilda yaratilgana asarlarni ham o’qiy oladigan bo’ladi. Lekin Xorazmiyning vatanidan chetda yashaganligini turlicha sharxlashadi. Chunonchi otasi majusiy koxinlardan bo’lganligi uchun ham arab

mutassabbilari uni ta’qib qilganligi sababli u Xorazmni tashlab ketishga majbur bo’lgan, degan fikrlar ham mavjud.

Xorazmiyshunos olim A.Axmedov xalifa Xorun ar-Rashidning o’g’li Ma’mun-ar Rashid Marvda xalifa noibi turganda saroyida juda ko’p olimlarni to’plagan, so’ng xalifa bo’lib ko’tarilgach ularni ham Bog’dodda olib ketganini ta’kidlaydi.

Biz A.Axmedovning fikriga qo’shilgan holda yana quyidagilarni ham bayon etmokchimiz.

Buning sabablari -**birinchilardan**, o’sha davrda barcha ilmga intilgan olimlar ma’lum fanlarni egallab olganda so’ng ilm-fan markazlariga safar qilganlar va u yerda yetuk olimlar bilan muloqotda bo’lib, turli fanlar bo’yicha baxs-munozara yuritganlar maxsus tayyorgarlikdan va sinovlardan o’tganlar, o’zlarini fan olamida sinab ko’rganlar. **Ikkinchidan**, xalifalikda ilm markazi sanalgan Damashq va Bog’dodda ilm-fanning taraqqiy etganligi va shaxsan xalifalarning ilm-fan taraqqiyotiga xomiylik qilganligi ham olimlarni jalb etgan.

"Baytul Xikma" da matematika, geodeziya, geografiya falakkiyot va boshqa sohalar bo’yicha tadqiqotlar olib borildi va al-Xorazmiy makzabi yaratiladi. Olimning ayniqsa, matematikaga oid ilmiy merosi jahon ahamiyatiga ega bo’ldi.

Xalifa al-Ma’mun xatto Muhammad al-Xorazmiy boshchiligida Xindiston va Rum (Vizantiya) Xazariya (Volganing quyi oqimidagi) gi o’lkaga bir necha marta ilmiy safarlar uyushtiradi.

Olim insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarda ilm-fanning muhimligi g’oyasini ilgari so’rgan holda pedagogik fikr tarakkiyotida ham munosib urin egallaydi. Xorazmiy matematika, geografiya, geodeziya, falakkiyot sohalarida yirik tadqiqotlar olib borgan. Lekin u matematika sohasidagi yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyatchi olim sifatida tarixda qolgan.

"Al-Jabr va muqobala" asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib o’zidan avvalgi bilimlarni o’rgandi va ularni sintezlashtirish hamda amalda qo’llash usullarini bayen etdi.

Shu asar tufayli "Al-Xorazmiy" nomli lotincha transkripsiyada "Algoritm" shaklini oldi, keyinchalik hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushunchasi algoritm algorifmga aylandi. U matematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo’llarini ham berdi, meros taqsim qilishda vasiyatnomalarni tuzishda, mol taqsim etishda odamlarga kerak bo’ladigan amaliy ishlarga zarur bo’lgan hisoblarni taqdim etdi.

Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi "Xind arifmetikasi haqida kitob" ("Hisob al xind")dir. Asar o’nlik tizimi raqamlari (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9) ga bag’ishlangan.

Xorazmiy xindlarning falakkiyot va matematikaga oid "Sindixind" nomli qo’llanmasini ukib, uning yangilish va kiyin tomonlarini kayta ishlab yangi boblar qo’shdi va uni "Kiskargan sindixind" ("Algoritm xind hisobi haqida") deb atadi. Asar faqat Sharqdagina emas. Yevropada ham qo’llanma sifatida shuxrat taratli. O’nlik tizimining kashf etilishi sanoq tizimida inklobiy uzgarish yasadi va ta’rif beradilar. Yevropaga o’nlik tizim raqamlaridan foydalanib eng katta sonlarni yozish va joylarni anik kursatish X-XI asrlarda arablardan kirib kelgan.

Xorazmiy arifmetikaning algoritmlari bo’lgan kushish, ayrish, ko’paytirish, bo’lish koidalarini yaratgan. Turli "jins" dagi sonlarni ko’paytirish algoritmi ham bergan. Masalan, minut sekundlarni bir-biriga ko’paytirish uchun avvalo, bir xil shaklga keltirish ya’ni sekunl yoki minutga aylantirishni ko’rsatgan. Maxsus bobda kasr va mlmizdan chikarish amallarini yozgan.

Xorazmiy o’zining falakkiyotga doir ishlarida xindlarning falakkiyot jadvallarni tahlil etib, "Xorazmiy ziji" nomli bilan mashhur bo’lgan astronomiy jadvallar tuzdi.

Ma’lumotlarga ko’ra VIII-XV asrlarda hammasi bo’lib trigonometriya, falakkiyotga oid 100 ga yakin zij - jadval mavjud bo’lgan. Ularning qatoriga boshqa olimlar bilan birga Xorazmiy tuzgan zijlar ham bor.

Xorazmiyning "Sinus ziji"ri asari XII asrda lotin tillari tarjima etilib, bir necha asr mobaynida undan foydalanib kelindi.

Bundan tashkari, "Kitob suratil ard" ("Yerning surati kitobi") geografiyaga oid dastlabki kitob sanaladi. Bu asar A.Axmedovning taxminiga ko’ra xaritani tavsiflagan asardir. U Xorazimiyning ko’p yillar olib borgan tekshirish-kuzatishlar ishlari natijasi bo’ldi. Unda olim Sharq mamlkatlari ustida kuzatishlar olib borib mamlakat va shaxarlarning harakatlarini tuzadi, nomlar ruparasida uzo’nlik va kenglik darajalarini kursatadi. U geografiyaga oid yasashida Yerni ketti iklimiga bo’ladi, yer xaritasini tuzadi. Tashkilotchilarning ma’lumotlariga ko’ra olamning turt xaritasini tuzadi. Tadqiqotchilarning ma’lumotlariga kura- olamning turt xaritasi - Azov dengizi, Nil daresi Yakin va Urta Sharq mamlakatlari xaritasi saklanib kolgan. Uning yukoridagi asari ham Sharq va G’arbda katta ahamiyatga egadir.

2. Al-Xorazmiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari

Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga uzining ulkan hissasini qo’shdi. "Al kitob al muxtasarfi hisob aljabr va muqobala " asarida ("Aljabr va al muqobala hisobi haqida qisqacha kitob") sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar ularni yechish yo’llarni bayen etadi.

Risola uch qismdan iborat bo’lib, **birinchisi**-algebraik qism uning oxirida savdo muomlasiga oid kichik bir bo’lim keltiriladi. **Ikkinchi** - geometrik qism algebraik usul qo’llab ulchashlar haqida, **uchinchi** qism vasiyatlar haqida bo’lib, muallif uni "Vasiyatlar kitobi" deb ataydi.

Al-Xorazmiy matematika fanida abstraksiya (mavxumiylik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo’li bilan umumiy yechish usullarini hal etdi, deduksiya yo’li bilan umumiy usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi.

Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to’plash ularni ifodalash va kuzatilganlarni yushtira olish malaka va ko’nikmalarni xosil kilishga katta baxo beradi. "Ul-kitob al muxtasar fi hisob aljabr va al-muqobala" asarida olmishlarni uch guruxga bo’ladi. ulardan uzidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshkalaridan uzib ketadi va uni uzidan keyin keluvchilarga meros kilib kolidiradi.

Boshkasi uzidan avvalshilarining asarlarini sharxlaydi va bu bilan kiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopikni ochadi yo'lni yogitali va uni tushunarlirok kiladi yoki bu ayrim kitoblaridan nuksonlar topadigan sechilib yotganini tuplaydigan odam bo'lib u uzidan avvalgilar hamida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik kilmayli va uzi qilgan ishidan magrurlanmaydi.

Xorazmiyning bu fikri bir tomondan, olimlarning ma'naviy yuksakligini yoritsa, ikkinchi tomondan, o'sha davrda ilmiy-tadqiqot ishlari va ukitilishning usul va vositalaridan kay darajada foydalanganligini kursatadi.

Ko'pchilik mutaffakqiyatlar katori Xorazmiy ham bilim berishning ko'rgazmali tajriba usullari, savol-javob malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, bilimlarni sinash usullarimdan foydalangan.

Masalan, Xorazmiyning arifmetikaga oid risollari uning tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berganligini kursatadi.

Xorazmiy bilishni sezgidan mantikiy tasavvur orkali fark kilish haqida fikr bayon etgan: "Sezgi" orkali bilish bu qisman bilish bulsa, "mantikiy" bayon bilish esa xakikiy, bilishning muhim tomonini namoyon etadi.

Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi. U birinchildan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov usullariga asos soldi samoviy qismlarning harakatini aks ettiruvchi jadval asosida matematik masalalarni algoritm usulida yechishni isbotlab berdi. U matematik masalalarni g'oyallarni asosida odamlarning amaliy talablari natijasida yuzaga kelishini asoslaydi. Masalan, yer ishlari, binolar kurish, kanallar yechish. U birinchi marta insonnlar urtasidagi munosabatlarni matematik shakllarla ifodaladi.

Xorazmiy ilmiy faoliyatining metodologik jixatlariga katta ahamiyat berdi.

Xulosa kilib aytganda, al-Xorazmiy Yevropa va Sharqda falakkiyot va matematika sohasidagi yangi davr ochdi. Xindlarning o'nlik tizim raqamlari Xorazmiy tufayli "Arab raqamlari" nomi bilan butun dunega yoyildi.

Xorazmiy tarixra kelib algebra fanining asoschisi sifatida kirdi.

Xorazmiyning hayotiy va amaliy muammolarni hal etishga oid tavsiya etgan usullari fikriga oid masalalarni yechishda muhim qo'llanma bo'ldi.

Xorazmiyning falakkiyot va geodeziyaga oid kuzatishlari, geografiyaga oid asarlari, u chizgan Yer xaritasi ham Sharq va G'arb olimlari uchun chizgan tekshirish- kuzatish ishlarini olib borishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat kildi.

Olim "Yer satxini ulchash" ("Alstralyabiya") "Kuyosh soati to'g'risida", "Yaxudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash" va boshka asarlari bilan ham fan rivojiga katta hissa kushdi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, al-Xorazmiy ilmiy bilim ta'lim usullari, ilm fanga qo'shgan ulkan hissasi bilan insonni aqliy kamolga yetkazishda, ta'lim-tarbiyada o'z o'rniga egadir.

Olimning ijodi haqidagi ma'lumotlar ham uning hayoti to'g'risidagi ma'lumotlar kabi juda kam. Saklangan ma'lumotlarga kura, uning kalamiga mansub asarlarning soni undan ortikdir:

1. Arifmetik asar ("Algoritmi xind hisobi haqida") nomi bilan ma'lum. Asarning arabcha nusxalari saqlanmagan.

2. Al-kitob al-muxtassar fi hisob al-jabr val-muqobala (al-jabr almuqobala hisobi haqida qisqacha kitob)

3. "Ziji al-Xorazmiy " (Xorazmiy Ziji) arabcha nusxada saqlanmagan. Asarning 1007 yili ispaniyalik arab astronomi Maslama al-Majritiy (X-XI) kayta ishlagan nusxadan XII asarda Adelard Bat bajargan lotincha tajrimaning nusxalari mavjud.

4. Muhammad ibn al-Xorazmiyning ajoyib ishlaridan, Asturlab yordamida azimutni aniqlash ("Zaraif min amal Muhammad ibn Musa al-Xorazmiy ta rif as-samt bi-l-asturlob"), yagona arabcha qo'lyozmasi Istanbulda Ayo Sufiyo kutubxonasidan 4830G'13-raqamli inventar (198-200 varaqlar, xijriy 620 yili ko'chirilgan) raqam bilan saqanadi. Ruscha tajrimasi nashr etilgan.

5. Mramar soat haqida kitob (Kitob ar-ruhama)

6. Tarix kitobi (Kitob at-ta rix)

7. Abu Maslama al-Majritiy o'zining "g'oyat al-xakim" nomli asar da Xorazmiyning astromatik ma'noga ega saridan sitata keltidi. Bu asar saqlanmagan.

8. Yaxudiylarning eralari va bayramlari haqida risola. (Risola fi istixroj ta rix al-yaxud va a yoxidim) kadendarga taluqli. Bu kitob tarjima qilingan.

9. Surati-l-arz kitobi (Kitob surati - l - arl) - Xorazmiy "Geografiya"si bu asar ham muallif tomonlaridan tarjima qilingan.

10. Asturloblar bilan amal tutish haqida kitob (Kitob al-amal bi-l - asturlobot.

3. Abu Rayhon Beruniyning ijodiy faoliyati

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi bo'lgan Abu Rayxon Beruniy (973-1048) ham tabiy, ham ijtimoiy fanlar rivojlanishiga ko'p hissa qo'shgan.

Beruniyning mashhur asarlaridan: «Qadimgi xalqlardadan qolgan yodgorliklar» («Al-osorul boqiya an il qurun il holiya»); «Turar joylar orasidagi oraliqni belgilash uchun joylarning chegaralarini aniqlash» («Seodeziya»); «Hindiston»; «Qimmatbaho toshlarni aniqlash haqida to'plam» («Mineralogiya»); «Kitob as-Saydona» («Tibbiyotda borishunoslik»); «Yulduzshunoslikda boshlang'ich ta'limotlarni aniqlash»; «Qonuniy Mas'udiy» kabilardir.

Uning turli hajmdagi 150 ta asarlari hozirgi kunda aniqlangan, lekin shulardan 30 taginasi yetib kelgan. Ulug' olimning turli fanlarga doir asarlari orasida ijtimoiy ta'limotlari, dunyoqarashi ifodalangan asarlari alohida o'rin tutadi. Masalan, «Kitob –axborotil mubayyizot vilqaromita» («Oq kiyimliklar va karamatiylar xabarlari haqia kitob»), «Kitobul maqolot val-arz vad-diyonot» («Maqolalar, e'tiqodlar va dinlar haqida kitob») «Geodeziya», «Mineralogiya» nomlari bilan tarjima qilingan asarlari ham anashular jumlasidandir.

Olim «Mineralogiya» nomli asarida inson yer yuzidagi barcha mavjudotlarga qaraganda mas'uliyatliroq vazifalarni bajarishi kerakligini quyidagicha ifodalaydi: «Inson tabiatning eng oliy zoti kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi… Insonga katta sharaf ko'rsatilgan –unga aql-zakovat va kuch armug'on etilgan. Shu sababdan, insonning ma'naviy qiyofasi

uning oldiga qo’yilgan vazifalarga mos bo’lishi uchun u yuksak axloqi, bilimli, ma’rifatli bo’lmog’i darkor»[1].

4. Abu Rayhon Beruniyning O’rta Osiyo fani va madaniyati taraqqiyotiga qo’shgan hissasi

Beruniy ilmni va ilm ahlini ulug’laydi, insonlarni ham shunga chaqiradi. Barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb baladi. U o’zining «Hindiston» asarida jamiyat taraqqiyotining ilmga bog’liqligini shunday tushuntiradi: «Ilmlar ko’pdir. Ular zamoni iqbolli bo’lib, turli fikr va xotiralar ularga qo’shilib borsa, ko’payadi. Odamlarni ilmga da’vat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o’sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko’payishiga sabab bo’ladi… Hukmronning ilm ahlini ko’proq maqtab, ulardan xursand bo’lish ham ilmlarning ko’payishiga sabab bo’ladi»[1].

Beruniy ilmlar insonning ehtiyojidan paydo bo’lgan deb hisoblaydi. «Ularni kishining turmushi uchun bo’lgan ehtiyojlari dunyoga keltirdi. Shunga muvofiq tarzda fan tarmoq otdi. Fanning foydasi –ular yordamida oltin va kumush to’plash emas, balki kerakli narsalar hosil qilishdir»[2] -deb yozadi u «Geodeziya» asarida va fanlarni quyidagicha ta’riflaydi: «**Musiqa** –insonga ichki ta’sir etib, yoqimli kayfiyat bag’ishlaydi: **til** –nutqning tarozisi va muomala qurolidir: **geodeziya** –harakatsiz yulduz va quyosh orqali shaharlarning joylashishini mukammal o’rgatadi; **geologiya, geografiya** va **gidrologiya** –yer haqidagi fanlardir; geometriya –jismlarning shakllarini falakiyot –koinot sirlarini, mineralogiya –javohir va la’llapni o’rgatadi; dorishunoslik –tibbiyot ilmlaridan xabardor qiladi». Beruniy fanlarni ta’riflash bilan birga ularni o’qitish usullarini ham bayon etan. O’quvchiga bilim berishda:

- o’quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o’rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillikka rioya qilish; mavzularni qiziqarli, asosan ko’rgazmali bayon etish.

Beruniy ilmni quyidagi uch yo’l bilan hosil bo’lishini alohida uqtirgan:

4. Har bir ilm va san’atning borib taqaladigan boshlanish joyi bor. Shuni to’g’ri boshlash zarur.
5. Ilm boshlanish joyiga yaqinlashgan sari to o’ziga borib yetguncha soddalashtirib borish.
6. Ilm o’rganish vaqt va sabrni talab etadi. Shoshilish kerak emas.

Beruniy ilm ahlini hurmat qilsagina, ilmlar yanada rivojlanib ketishini qayta-qayta uqtirgan edi. O’zi esa juda ko’p olim va podsholarga saboq ham bergan. Beruniyning tolmas zakovatidan Sulton Mas’ud ham bahra olgan, ya’ni undan falakkiyotshunoslik ilmini o’rgangan, Beruniy tahlilidagi darsliklar g’oyat tushunarli, sodda bo’lib, ilmga cheksiz muhabbat uyg’otgan.

---

[1] О.Щасанбойев, Ж.Щомидов. Педагогика тарихи. «Ўқитувчи» 197 й. 47 б.

[1] Ўша асар. 2-жилд, Т., 1965 й. 125 б.

[2] Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд. Т., 1968 й. 40 б.

Beruniyning pedagogik qarashlari faqat o’z zamonasida emas, hozirgi ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Mutafakkirlar asarlarida inson kamoloti va uni tarbiyalash masalalari

Beruniy o’z asarlarida ta’limning ko’rsatmali, izchil, maqsadga muvofiq bo’lishi kerakligini, shaxsning barkamolligi, kishilar o’rtasidagi ijobiy axloqiy munosabatlar va oliyjanoblik kabi yuksak fazilatlarning mohiyatini asoslab bergan;

Beruniy ilm-fanning muxlisi va buyuk xomiysi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashiga bog’liq, odamlarning baxti esa uning ma’rifatida deb bilgan. Ma’rifat dushmanlariga, yomon urf-odatlarga, adolatsizlikka qarshi bo’lgan. Inson kamoloti o’tmishdagi faylasuf-mutafakkirlar tomonidan ifodalangan bo’lsada, Beruniy uni yanada rivojlantirgan va to’g’ri asoslagan.

Beruniy tavsifi bo’yicha bolalarni quyidagi tarbiya usullari orqali komillikka erishtirish mumkin:



Olimning fikricha axloqiylik komillikning eng muhim mezonidir. Lekin bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o’zaro muloqoti, ijtimoiy muhit-jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi.

U «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida shunday yozadi: «Yaxshilik xislatlari: taqvodorlik, to’g’rilik, odillik, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, sahiylik, shirinsuhanlik, siyosat va boshqarish ishlarida bilimdonlik, tadbirkorlik. To’g’ri taxmin qila bilish va bulardan boshqa aqlga sig’maydigan, kishi bayon etib tugata olmaydigan (yaxshi) sifatlardan iboratdir»[1].

Yomon illatlarga esa hasadgo’ylik, baxillik, o’z manfaatini so’zlash, mansabparastlik kabilarni kiritadi. U insonning ma’naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshi va yomonga bo’ladi.

Beruniyning pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta’lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo’lgan.

1 Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд. Т., 1968 й. 40 б.

8-MA’RUZA

Mavzu: Abu Nasr Farobiyning ilm-ma’rifat sohasidagi xizmatlari

REJA:

1. Abu Nasr Farobiy o’rta asr ma’rifatparvari, yirik olim.
2. Abu Nasr Farobiyning sermahsul ijodiy faoliyati.
3. Abu Nasr Farobiyning axloq-odobga oid qarashlarida pedagogik g’oyalarining qo’yilishi.
4. Abu Nasr Farobiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati.
5. Pedagogika fani taraqqiyotida Abu Nasr Farobiyning tutgan o’rni.

Tayanch so’z va iboralar:

Mutafakkir, odob, axloq, ta’limiy-axloqiy yo’nalish, pedagogik qarash, ta’lim, tarbiya, bilim, ilm, ma’rifat, to’g’rilik, poklik, halollik, rostlik

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993.
2. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O’qituvchi», 1995, 140 bet.
3. Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O’qituvchi», 1997, 272 bet.
4. Zunnunov A. va boshq. O’rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.
5. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O’qituvchi», 1995, 140 bet.

1. Abu Nasr Farobiy o’rta asr ma’rifatparvari, yirik olim

Farobiy manbalarda "Al-faylasuf at-turkiy" deb yuritiladi. Farobiyning millati darhaqiqat turk bo’lib, Movarounnahrda Farb viloyatining Vasij qishlog’idagi xijriy 257 (melodiy 873) yilda tug’ilgani, otasi armiya qo’mondoni bo’lgani aytiladi. Farobiy dastlab Marvda tahsil ko’rgan. Keyin Bog’dodga ketdi. Falsafaga teran bir qiziqishi bor edi. Abu Mashr Mottabin Yunusdan mantiq darsi oldi. Oraliqda bir bora Xarronga ketdi. Safarda Yuxonna bir Xaylon bilan tanishdi. Undan mantiq va falsafa ilmini o’rgandi. Ilm tahsilini qattiq sevganidan falsafiy madaniyatni ortirish uchun yana Bog’dodga qytdi; Yunon faylasufini va ayniqsa Arastu (Aristotel)ning asarlarini sinchiklab o’rgandi. Islom ilmilarini ham yaxshi bilar edi. Yaxshilik qilishni sevar edi. Xalifa Mutadir zamonida atrofiga ziyo tarata boshladi.

Talay falsafiy asarlar yoza boshladi. Ba’zi asarlarni ham qulay anglashilsin deya sharh etdi. Bir asno Shom (Suriyaga) va Misrga ketdi. Shomga qaytdi. Xalaf (Aleppo) va Shom hududlarining sultoni Sayf ad-Davlat Farobiyga ko’p hurmat ko’rsatadi. Nihoyat Farobiy xijriy 339 (milodiy 950) yilda hayotdan ko’z yumdi. Undan juda ko’p asarlar meros qolgan. Turli ilm sohalarida zamonning eng mashhur olimi edi. Ayniqsa, falsafa, mantiq, psixologiya, musiqa, matematika va tib bilimlariga doir tadqiqotlari bilan keng shuhrat qozongan.

Abu Nasr Al Farobiy qalamiga mansur asarlari 160 dan ortiqdir. Ular "Talxisu Navomisu Aflotun" (Aflotun qonuniyalarini mohiyati) "Nufuzli shahar aholisining maslavi", "Baxt saodatga erishuvchi risola" va hakozolardir. Al Farobiy o’zining

ko’p qirrali ijodi bilan kelajak avlodni bilim va madaniyatga erishishida inson kamoldotiga alohida e’tibor berdi.

Farobiy insonning kadr-qimmatiga, uning aql zakovanining ijodiy va bunyodkorlik kuchiga yuksak baho beradi: inson Farobiy uchun shunchaki biologik bir mavjudod emas, u o’uz mohiyatiga ko’ra aql idroki tufayli hayvonot dunyosi chegaralaridan tashqariga chiqadi. Uning aql idroki mehnati bilan bir qatorda uni ijtimoiy jihatdan faol qilib qo’yyadi. Insonning hayoti stixiyali tarzda ketishi mumkin emas. Bu hayot ongli va aniq maqsadni ko’zlagan bo’lishi, faqat shaxsiy emas balki, ijtimoiy ahamiyatga ham molik bo’lishi lozim.

Farobiy pedagogik qarashlarida insonning barcha axloqiy imkoniyatlari yaxshilik va yomonlik, foyda va zarar haqidagi mulohazalarni) baxtga erishishdan iborat birdan bir maqsad mevasi deb biladi. Uning fikricha bir kishining baxti boshqalarning shaxsiy rohat farog’atiga erishishning zarur shartidir. Ijtimoyi va shaxsiy jihatlarning birligi orqaligina yalpi baxtga erishiladi.

Farobiyning fikricha barcha axloqiy normalar va qoidalar, yaxshi yoki yaramas, ijobiy yoki salbiy, axloqiy xatti harakatlar, xullas insonning barcha harakatlari uning o’z baxtiga erishishiga qanday munosabatda bo’lishi bilan baholanadi.

2. Abu Nasr Farobiyning sermahsul ijodiy faoliyati

Abu Nasr Farobiy o’z davrining qator ilmlarini chuqur o’rganib, turli sohalarga oid ilmiy asarlar yozib qoldirgan. U o’z davrining birinchi faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi bo’lib nom qozondi. U «Aql haqidagi risola», «Falsafadan oldin nimani o’rganish kerak», «Substansiya haqida», «Falsafa manbalari», «Logikaga kirish», «Masalalar manbai» kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi.

Abu Nasr Farobiy birinchilardan bo’lib, o’z davri ilmlar klassifakasiyasini yaratgan va unga bag’ishlab qator risolalar yozdi. U o’z davrida musiqa masalalariga atab katta asar yozib, musiqa nazariyasining tafsilini berdi va Sharqda keng tarqalgan nay, nog’ora, chang, rubob kabi qator Musiqa asboblari ta’rifini yozib qoldirdi. Uning bu asari Sharq Musiqashunosligi tarixida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. U o’z davrining qomusiy olimi bo’lib, riyoziyot, tibbiyot, arab grammatikasi, alximiya, falakkiyot, mantiqqa oid asarlar muallifidir.

Lekin Farobiy avvalambor mashhur faylasuf – falsafaning eng muhim masalalari bo’yicha qator asarlarning muallifi sifatida shuhrat qozondi. U Sharqda qadim Yunon falsafasi ayniqsa, qadimgi dunyoning qomusiy olimi Aristotelning asarlarini o’rganish, ularga sharhlar yozish, g’oyalarini targ’ib eti shva yanada rivojlantirishga ulkan hissa qo’shdi. Aristotel «Birinchi muallim» deb nom olgan bo’lsa, butun Sharqda Farobiy «Ikkinchi muallim» unvoniga sazovor bo’ldi.

U Aristotelning barcha falsafiy asarlariga yana qadimgi Yunon olimlari Platon, Galen, Yevklid, Parfariy, Sokrat kabilarning risolalariga sharhlar yaratdi.

Abu Ali ibn Sinoning yozishicha, u buyuk Yunon faylasufi Aristotelning «Metofizika» kitobini 11 marotaba o’qib tushuna olmagan ekan va bundan mayus tortib, hafsalasi pir bo’lib, bu kitobni tokchaga tashlab qo’ygan ekan. Kunlardan bir kuni u bozordan o’tib ketayotganida kambag’al, bechora, aftodahol bir kishi

qo’lidagi kitobni odamlarga sotib olishlarini yolvorib so’rab turganini, yeyarga bir burda noni ham yo’qligini aytib odamlarga zorlanib turganini ko’rib qolibdi.

Ibn Sino unga rahmi kelib, kitobni ko’rib ham o’tirmay sotib olibdi-da uyiga kelib uni varaqlab ko’ribdi. Ko’ribdi-yu, hayhot!…. Kitob o’zi izlab yurgan, Farobiyning Aristotelni «Metafizika» kitobiga yozgan sharhi ekan. Kitobni bir marta o’qib chiqishidayoq Aristotelni tushunib, uni to’la o’zlashtirib olgan ekan. Shundan keyin u bundan azbaroyi xursand bo’lganidanyurtga ziyofat bergan ekan. (A.Abdurahmonov. Saodatga eltuvchi bilim. 14-bet).

Farobiy o’z davrida ijtimoiy-siyosiy masalalar bo’yicha birinchi bo’lib yirik asarlar yaratgan mutafakkirdir. U ijtimoiy hayotning turli masalalari, ayniqsa, davlat tuzilishi va uni boshqarish, turli ijtimioiy nizolarning oldini olish kabi hamda kamolotga erishgan ijtimoiy jamoani yaratish kabi ijtimoiy masalalarni olg’a surdi. Yetuk jamoani vujudga keltirish komil insonni yaratish muammosini hal etish bilan bog’liq ekanligini birinchi bor O’rta asr sharoitida Farobiy olg’a surdi. «Uning ideal shahar aholilarining raylari», «Ideal jamoa haqida», «Baxt-saodatga erishuv to’g’risida» kabi mashhur asarlari shu masalalarga bag’ishlandir.

U olamning turli-tumanligi, tabiatning nihoyatda boyligini e’tirof etib, ular asosida 4 element: yer, suv, olov, havo mavjudligini ta’kidlaydi, shu bilan birga olamning ibtidosi, boshlanishi boshlang’ich yaratguvchi kuchdan nurlanish yordamida pog’onama-pog’ona vujudga kelganligini ta’kidlaydi.

Ba’zi manbalarda Farobiy yetmishdan ortiq tilni bilganligi ta’kindalanadi.

3. Abu Nasr Farobiyning axloq-odobga oid qarashlarida pedagogik g’oyalarining qo’yilishi

Shu o’rinda Abu Nasr Farobiyning **axloqli kishi** to’g’risidagi fikrini keltirishni joiz topdik. U «o’n ikki tug’ma xislatni» birlashtirgan kishigina axloqli bo’la oladi, deb ta’kidlaydi. Ular:

- **birinchidan**, bunday odamning barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo’lishi kerakki, bu organlari bilan bajarmoqchi bo’lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;
- **ikkinchidan**, barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to’g’ri tushuna oladigan, uning ma’nosini anglay oladigan, so’zlovchining maqsadi va aytilgan fikrining chinligini (haqqoniyligini) tezda payqay olsin;
- **uchinchidan**, xotirasi juda baquvvat bo’lsin, ko’rgan-eshitgan, sezgan narsalarining birortasini xotiradan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo’lsin;
- **to’rtinchidan**, zehni shu darajada tez va o’tkir bo’lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin;
- **beshinchidan**, so’zlari aniq bo’lsin, fikrini va aytmoqchi bo’lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin;
- **oltinchidan**, bilish va o’qishga muhabbati bo’lsin, o’rganmoqchi bo’lgan bilimini charchashni sezmasdan osonlik bilan o’zlashtira olsin;
- **yettinchidan**, ovqatlanishda, ichimlik iste’mol qilishda ochko’z bo’lmasin, tabiati qimor o’yinlarini o’ynashdan uzoq bo’lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo’lsin;

- **sakkizinchidan**, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin;

- **to'qqizinchidan**, ruhi g'ururli va o'z vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va olijanob ishlarga intiladigan bo'lsin;

- **o'ninchidan**, dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin;

- **o'n birinchidan**, o'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga hurmat bilan, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, go'zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda, odamlarni adolatga targ'ib etadigan holda adolatsizlik natijalarini yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin;

- **o'n ikkinchidan**, adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida, adolatsizlik, pastkashlik oldida qat'iy so'zlik bo'lsin, o'zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin.

Farobiy inson uchun xos bo'lgan bu o'n ikki xislatni o'z asarida ilmiy-falsafiy jihatdan asoslab beradi. Bu asar yoshlarimizning axloqiy tarbiyasida, ayniqsa o'zligini anglashda bebaho manba bo'lib hisoblanadi.

4. Abu Nasr Farobiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati

Abu Nasr Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimagqlarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Ixso al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlar o'z ifodasini topgan.

Farobiy o'z ishlarida ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o'z o'rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Farobiy «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangan, tabiiy ilmlarni tabiiy jismlar tuzilishini shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat – o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi.

Farobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi, u boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi, deb hisoblaydi.

Bunga Farobiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya qiladi.

Farobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Insonning axloqiy xislatlarini shakllantirish asosan tarbiya va tarbiyachining, bilimdon muallimning vazifasidir.

5. Pedagogika fani taraqqiyotida Abu Nasr Farobiyning tutgan o'rni

Abu Nasr Farobiy ilg'or pedagogik qarashlari ilk o'rta asr madaniyatining yuksalgan davridagi bu sohadagi yuqori g'oyalarni o'zida mujassam qila oladi. Farobiy falsafasi, jumladan, uning pedagogik g'oyalari, xususan ijtimoiy pedagogikasi Sharq va G'arbning so'nggi mutafakkir olimlariga – Ibn Sino, Beruniy, Miskaviyx, ibn Rushd, ibn Xoldun, Rodjer Bekon, David, Didakta, Spinoza kabilarga katta ta'sir ko'rsatdi.

Farobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. **Ta'lim** – degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim. Abu Nasr Farobiy yana aytadiki, «Ta'lim – degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy faziltni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazalatlarini birlashtirish degan so'zdir.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir», - deydi.

Farobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l – ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarni birshaltirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkialasi birlashsa, yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Farobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta'lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi. Farobiy ta'lim-tarbiya ishlarini ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bulardan **birinchisi** - qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo'l (yoki usul) – majbur etish yo'li. Bu usul gapga kirmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo'llaniladi. Chunki ular o'z istaklaricha, so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy nazariy bilimlarni o'rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb-hunarlarni va juz'iy san'tlarni egallashga intilish bo'lmasa, bunday odamlarni

majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilish va san’at ahllariga aylantirishdir.

Demak, Farobiy ta’lim-tarbiyada rag’batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko’zlaydi.

9-MA’RUZA

Mavzu: Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik va didaktik g’oyalari

REJA:

1. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy faoliyati.
2. Abu Ali ibn Sinoning axloq-odobga oid qarashlari.
3. Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida.
4. Abu Ali ibn Sino asarlarida do’stlik va sadoqat g’oyalarining targ’ib etilishi.
5. Abu Ali ibn Sinoning ma’rifatparvarlik qarashlari.

Tayanch so’z va iboralar:

Odob, axloq, mutafakkir, ta’limiy-axloqiy yo’nalish, pedagogik qarash, ta’lim, tarbiya, bilim, ilm, ma’rifat, bola tarbiyasi, sog’lomlik, halollik, rostlik, to’g’rilik, poklik, ma’rifatparvarlik, do’stlik, sadoqat, didaktik g’oyalar, komillik

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: «Movarounnahr», 2002, 720 bet.
2. Abdullayeva Sh. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.
3. Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O’qituvchi», 1997, 272 bet.
4. Zunnunov A. va boshq. O’rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.
5. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O’qituvchi», 1995, 140 bet.

1. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy faoliyati

Sharqda «Shayx ar-Rais» nomi bilan mashhur bo’lgan allomalardan biri, o’rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino (980-1037)dir. U qomusiy olim sifatida matematika, astronomiya, fizika, kimyo, filologiya, mantiq, ta’lim-tarbiya sohalarida ijod etib, dunyoga mashhur yirik asarlarni meros qilib qoldirdi.

Abu Ali ibn Sino Buxoro yaqinadagi Afshona qishlog’ida tug’ildi. Keyinroq uning otasi Buxoroga ko’chib o’tdi. Abu Ali ibn Sino o’zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug’ullana boshladi. U ayniqsa til ilmini chuqur egallab oldi, bu sohada unga Buxoroda Abu Mansur Qamariy ta’lim berdi. Ibn Sino so’ngra falsafani o’rganishga kirishdi.

X asr boshlariga kelib, ibn Sino Xorazmga –Urganchga ko’chib o’tdi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Ma’mun akademiyasi»da ilmiy ish bilan shug’ullana

boshlaydi. Xorazmda o’zining yirik asarlari «Tib qonunlari», «Ash-Shifo» kitoblari ustida ish olib bordi.

Ibn Sino 450 dan ortiq ilmiy asarlar yaratgan. Jumladan: «Al-Qonun», «Xayy ibn Yaqzon», «Risolat at-tayr», «Risolat fi-ishq» («Ishq haqida risola»), «Kitob fi ma’no ziyorat» («Ziyorat qilishning ma’nosi haqida»), «Risolat fi mohiyat as-salot» («Nomozning mohiyati haqida risola»), «Risolat fi-daf al-gam min al mivt» («O’limdan keladigan gamni daf qilish haqida risola»), «Risolat al-kadr», «An-Najot», «Ash Shifo», «Donishnoma», «Kitob ash-ishorat» va at tanbixot» va boshqalar.

Ibn Sino o’zining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog’liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etib, fanlarni tasniflaydi. Yirik falsafiy asari «Kitob-ush-shifo»da quyidagicha tasnifni uchratishimiz mumkin:



Kitobning tabiiy fanlar qismi 8 bobdan iborat bo’lib, bunda falsafaning asosiy qismi bo’lgan tabiatdagi hodisalarni, ya’ni osmon va olam, borliq va buzilish, ta’sir va ta’sirlanish, jon haqida, o’simliklar, hayvonlar to’g’risidagi ilmiy fikrlar asoslab berilgan.

2. Abu Ali ibn Sinoning axloq-odobga oid qarashlari

Abu Ali ibn Sino insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. U axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi. Dunyoda mavjud bo'lgan jami narsalar tabiatiga ko'ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o'zi esa mohiyat e'tibori bilan yaxshilikdir.

Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi.

Ichki quvvatlarning ta'sirlari va ta'sirlanishlari takrorlanaversa, ular uchun kuchli bir malaka hosil bo'ladi. Axloq ham shunday vujudga keladi.

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta'rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, donolik, jasurlik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, initilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Qanoat va mo'tadillikni insonning hissiy quvvatiga kiritadi, chidamlilik, aqllilikni g'azab quvvatiga, donolik, ehtiyotkorlikni ziyraklikka, sadoqat, uyatchanlik, ijrochilik, achinish, sofdillikni tafovut quvvatiga kiritadi.

Olim qanoatni hissiy fazilatlardan sanaydi va inson o'zini ta'magirlikdan tiysa, mo'tadillikka rioya etsa, o'zida hirsning namoyon bo'lishini yengadi, inson yomon illatlarni yengishda o'z imkoniyatlarini ongli sarf etishi lozim, deydi.

Ibn Sino har bir axloqiy xislatlarning ta'rifini beradi:

mo'tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

saxiylik – yordamga muhtoj kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat;

G'azab – biror ishni bajarishda jasurlik;

chidamlilik – inson o'z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;

aqllilik – biror ishni bajarishda shoma-shosharlikdan saqlovchi quvvat;

ziyraklik – narsalar va hatto harakatlarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat;

achinish – kishilar baxtsizlik, azob-uqubatga duchor bo'lganda, ular bilan xushmuomalada bo'luvchi insoniy quvvat;

kamtarlik – xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida to'sqinlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, naftarni ko'rsatib o'tadi. Johillikni – ilmga, nodonlikni – zehni o'tkirlikka, shafqtsizlik, takabburlikni adolatga, naftarni – sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi.

3. Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak.

Bilimsiz kishilar johil bo’ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo’lmagan kishilar qatoriga qo’shadi.

Tavsiya qilgan ta’lim va tarbiya tizimi quyidagilarni o’z ichiga oladi:



Ibn Sino bilim olishga, bolalarni maktabda o’qitish va tarbiyalashga katta ahamiyat berib, «Tadbir ul manozil» asarining maxsus bo’limini shu masalaga bag’ishlaydi. U ta’limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo’ymaslik;
- ta’limda yengildan og’irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo’lishi;
- o’qitishda jamoa bo’lib maktabda o’qitishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini inobatga olish;
- o’qitishni jismoniy mashqlar bilan qo’shib olib borish. Bu talablar hozirgi davr ta’lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir.

Talabaga bilim berish o’qituvchining mas’uliyatli burchidir. Shunga ko’ra ibn Sino o’qituvchining qanday bo’lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan shunday yo’l-yo’riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

9. Bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo’lish;
10. Berilayotgan bilimning talabalar qanday o’zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
11. Ta’limda turli metod va shakllardan foydalanish;
12. Talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
13. Fanga qiziqtira olish;
14. Berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajrata bera olish;
15. Bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

16. Har bir so’zni bolalar hissiyotini uyg’otish darajasida bo’lishiga yetkazish zarur[1],deydi olim.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida to’sqinlik qiluvchi nuqsolar sifatida johillik, nodanlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko’rsatib o’tadi. Johillikni –ilmga, nodonlikni –zehni o’tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni-sevgi-muhammatga qarama-qarshi illat sifatida ta’riflaydi.

Ibn Sino yuksak axloqiy hislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do’st bo’lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do’stona yashashga intiladi.

Ibn Sinoning yoshlarni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalash haqidagi fikrlaridan hozirgi ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish albatta ijodiy natija beradi.

4. Abu Ali ibn Sino asarlarida do’stlik va sadoqat g’oyalarining targ’ib etilishi

Abu Ali ibn Sino yuksak axloqiy xislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do’st bo’lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do’stona shashga intiladi.

Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qo’shnichilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o’zining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o’zgalar bilan birlashadi. Mana shu tariqa kishilarda birlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqila boshlaydi. U insonda yaxshi xulqning shakllanishida xushxulq, ilmli do’st muhim rol o’ynaydi, deydi. Olim do’stlikni shunday ta’riflaydi:

- har qanday qiyinchiliklarga qaramay o’z do’stini xavf-xatarda yolg’iz qoldirmaydigan do’stlik;
- manfaatlari o’xshash va g’oyaviy yaqin do’stlik;
- o’z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do’stlik. Ibn Sino birinchi va ikkinchi xil do’stlikni haqiqiy do’stlik, deb e’tirof etadi.

Olim haqiqiy do’stlik natijasida sevgi-muhabbat paydo bo’lishi mumkinligini aytadi. U «Risolai ishq» asarida sevgi-muhabbatning asl mohiyatini ham ijtimoiy, ham fiziologik jihatdan yoritib beradi. Insonlarga ularning tashqi ko’rinishiga qarab emas, u tabiiy zarurat sifatida namoyon bo’ladi, lekin inson o’z tuyg’ularini boshqara olishi, aql va farosat bilan haqiqiy sevgini hirs tuyg’usidan, ehtiros kuchidan ajrata bilishi zarur deydi. shundagina inson haqiqiy kamolotga erisha oladi. Chunki haqiqiy sevgi, olimning fikricha, inson zimmasiga axloqiy, huquqiy burch yuklaydi. Bu esa olimning sevgiga ijtimoiy omil sifatida ham qaraganligini ko’rsatadi.

[1] С.Ращимов. Абу али ибн Сино таълим ва тарбия щақида. Т., «Ўқитувчи», 1991й, 75б.

5. Abu Ali ibn Sinoning ma’rifatparvarlik qarashlari

Abu Ali ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyaning o’zaro aloqada amalga oshirishning ilmiy ta’limotini, usullarini yaratib, ta’lim-tarbiya sohasida o’z o’rniga ega bo’ldi.

Uning fikricha, kishi aqliy va jismoniy jihatdan qanchalik yetuk bo’lmasin, agar undagi bilim va kuch axloq me’yorlariga mos tushmasa, bunday kishi jamiyatning haqiqiy a’zosi hisoblana olmaydi. O’zi uchungina yashamasdan xalq uchun, umum manfaati uchunyashashga intiluchi kishilarni ibn Sino yaxshi axloqli insonlar deb hisoblaydi

Ibn Sino aqliy tarbiya trli bilimlirni o’rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko’proq yaxshi axloqiy xislatlarni mashq qildirish, odtlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta’lim beradi.

Inson hissiy va ma’naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe’l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o’rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida muhim rol o’ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof dunyoni bilishigagina emas, balki uning xulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham ta’sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo’lish kerakligini, bola yomon odatlarga o’rganmasligi uchun, uni yomon odatlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi.

Ibn Sinoning tarbiviy qarashlarida oila, oilaviy tarbiya masalalariga keng o’rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga yeadi.

Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e’tibor beradi. Oila munosabatlariga to’xtalar ekan, ayniqsa, ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o’rgatish borasida muhimm fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta’sirini ta’kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug’laydi va qimorboz, sudxo’r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy ham ruhiy tomondan salbiy ta’sir etishini to’g’ri talqin etadi.

Ibn Sinoning ta’lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham oxloqiy-estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi.

Ibn Sino insonni ulug’lovchi olim sifatida uning har tomonlama rivojlanishiga ishongan holda avvalo bilimlarga ega bo’lishi va bu bilimlarni egallash vositasida aqliy tarbiyani amalga oshirishga oid qarashlari diqqatga sazovordir. Ibn Sinoning axloq bobidagi qarashlarida esa sof insoniy xislatlar, munosabatlar, odob-axloq qoidalari me’yorlari o’z ifodasini topgan.

Olimning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulug’laydi, undagi qudratga ishondi, inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini tinmay targ’ib qildi.

Ibn Sinoning inson kamolotida ta’lim-tarbiyaning ahamiyatiga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarkibidagina emas, balki mustaqil risolalarida axloqiy masalalarni chuqur ilmiy-amaliy jihatdan ifodalangan, ilm-fan sohasida

tarbiyashunos olim sifatida ham tadqiq etish, o’rganish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

10-MA’RUZA

Mavzu: Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya masalasi

REJA:

1. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.
2. Amir Temur amal qilgan axloqiy sifatlar.
3. Amir Temurning odob-axloqqa oid nasihatlari.
4. Mirzo Ulug’bekning ilm-ma’rifat sohasidagi xizmatlari.
5. Zahiriddin Muhammad Boburning ta’lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari.

Tayanch so’z va iboralar:

Movarounnahr, ta’lim, tarbiya, bilim, ilm, ma’rifat, odob, axloq, axloqiy sifat, madaniyat, ma’naviyat, Uyg’onish davri, rasadxona, astronomiya, tarix, xattotlik, maktab, madrasa, masjid

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Temurnoma. (Poyon Ravshanov tahriri), T.: «Cho’lpon», 1990, 350 bet.
2.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O’qituvchi», 1996, 146 bet
3.Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O’qituvchi», 1993, 204 bet.
4. Zunnunov A. va boshq. O’rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.
5.Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. – T.: «O’qituvchi», 1998.

1. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar

Temuriylar hukmronligi davrida ta’lim-tarbiya, madaniyatimiz va ma’naviyatimiz rivojiga katta hissa qo’shildi va ular hozirda ham o’z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

XIV asrning 50-yillarida Amir Temur siyosat maydoniga chiqdi. Markazlashgan yirik feodal davlat barpo etildi. Madaniyat, maorifqaytadan yuksala boshladi. Shuning uchun XIV asrning 2-yarmi va XV asr tarixida Sharq uyg’onish davrining 2-bosqichi deb ataladi.

Temur Movorounnahrga boshqa o’lkalardan hunarmandlarni olib keltirdi. Samarqand va Xirotda madrasalar, kutubxonalar, rasadxonalar qurildi. Tibbiyot, riyoziyot, falakkiyot, geografiya, tarix, adabiyot, falsafa, tabiatshunoslikka oid ajoyib asarlar yaratildi.

Temurdan so’ng temuriylar davrida mamlakat Movorounnahr va Xuroson davlatiga ajralgan holda boshqarildi. Samarqand va Xirot madaniyati, ilm-fan markaziga aylandi. Shohizinda, Go’riamir, Bibixonim masjidi, Registon maydoni, qator bog’lar va boshqalar barpo etildi.

Ulug’bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya fanlari rivojlandi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va diniy bilimlarga e’tibor berildi. Buxoro, Samarqand, G’ijdivonda madrasalar qurildi. Bu davlatda adabiyot sohasida Atoiy, Sakkokiy, Haydar Horazmiy, Durbek, Lutfiylarning qimmatli asarlari yaratildi.

Samarqandda Qozizoda Rumiy, Mansur Koshiy, Xirotda Navoiy, Jomiy, Behzod, tarixchi Xondamir, xattot Sulton Ali mashhadiy va boshqalar ijodi gulladi. Ali Qushchi astronomiyaga oid «Risola dar falakkiyot» asarini yozib, unda geometrik bilim asoslari, tibbiyot fanlari va boshqa sohalarga oid boshlang’ich bilimlarni bayon etdi.

XV asrda tarix fani rivoj topdi, Xofizu Abru «Zabdan tovara» (Tarixning qaymog’i) kitobini yozib, unda 1427 yilgacha bo’lgan voqyealarni bayon etdi. Abdurazzoq Samarqandiy buni davom ettirib «Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki dengizning qo’shilish joyi» asarida 1471 yilgacha voqyealarni bayon etdi. «Ravzatus safo» asarini yozgan Mirxond, «Habibus siyar» asarini yozgan Xondamir asarining bir qismi Sulton Husayn hukmronlik qilgan davrga bag’ishlandi. Shu asarlarda qator ilm maskanlari: Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim Sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi kalon va boshqalar qurildi.

Xususiy maktablar yuzaga keldi, uyda muallim yo’llab o’qitish odat tusiga kirdi. Shahar qishloq, ovullarda ochilgan maktablarda o’qitish 6 yoshdan boshlandi. Bolalar maktabda alifbe o’rganib, ayrim harflarni chizishni mashq qilar edilar. O’quvchilar maktablarda savod chiqargach madrasaga kirib diniy va dunyoviy ta’limlardan bilim olardilar.

2. Amir Temur amal qilgan axloqiy sifatlar

«Temur tuzuklari»da o’zi amal qilgan o’n bir sifatni yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirsak, shuning o’zi ta’lim-tarbiya sohasidagi g’oyalarni yoshlarimizni tarbiyalashda tadbirkor bo’lishdan odamlar bilan maslahatlashib, nozik va tarbiya ko’rgan aqlli kishilar bilan birga kelishib, e’tiqodli, iymonli qilib tarbiyalashda e’tiborni kuchaytirsak foydadan xoli bo’lmaydi.

Amir Temur o’zining **o’n bir** sifatiga umr bo’yi rioya qilgan. Shu tufayli el hurmatiga, xalq e’zoziga va yuksak baxtga sazovor bo’lgan. Insonlarga hurmatni, mehr-oqibat, sabr-qanoat va burchga sadoqat kabi sifat fazilatlarnini o’zida paydo qilishda ibrat-namuna bo’la olgan. O’n bir sifat esa quyidagilardan iboratdir:

Birinchi sifat: «Men sifatlarning eng avvalgisi deb beg’arazlikni tushunaman. Hamma ham bir xil: jiddiy va odil, hyech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim, boyni kambag’aldan ustunqo’ymasdim».

Ikkinchi sifat: «Men kambag’allarga ko’p xayr-ehson qildim. Har mojaroni va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to’g’ri hal qilishga butun shahdimni jalb qildim».

To’rtinchi sifat: «Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga naf yetkurdim. Bunda birovga ozor yetkazmadim va mendan yordam so’rab kelganlarni ko’kragidan itarmadim. Qur’ondagi Parvardigorning, Allohning amriga bo’ysunish va xalqiga

shafqat qilish darkor, degan oyatni o'rinli farz qili bo'qib oldim va umr bo'yi barcha yumushlarda unga amal qildim».

Beshinchi sifat: «Islomga taalluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qo'yib keldim. Avval Tangri ibodatini ado etib bo'lgandan keyingina kundalik ishlarga qo'l urdim».

Yettinchi sifat: «Men har kimga vada bersam, unga vafo qildim. Xargiz vadaga xilo fish qilmadim. Men doimo vadalarimni aniq bajarsam, shundagina odi bo'lishlikni va kimsaga jabr yetkazmaslikni angladim».

Sakkizinchi sifat: «Doimo o'zimni Ollohning yerdagi mulkiga posboni deb bildim va Parvardigorning uning noiblarining iznisizularni saralar etmadim. Tangrining irodasisiz uning bandalarining hyech biriga zarar yetkazmadim. Oliy martabadagilarga ham, fuqarolarga ham birdek xayriya qilishga intildim, hyech qachon birovga hasad bilan qaramadim. Bu borada Amir Husayn bilan bo'lgan voqyea menga ibrat bo'ldi. O'z fuqarolarining mol-mulkiga nisbatan ochko'zligi uni halokatga olib keldi».

To'qqizinchi sifat: «Men har doim Tangrining amrin va uning payg'ambarlirini, hadislarini to'la ado etishga intildim. Barcha qilmishlarimda shariat yo'sinlariga butkul amal qildim va nopok inqshlardan butun vujudim bilan o'zimni tiydim. Payg'ambar va uning sahobalarini o'zimning yagona va eng yaxshi do'stlarim deb bildim».

O'ninchi sifat: «Men har doim insof bayrog'ini baland ko'tardim va iymon tarqatishni o'z buyukligimning qudratli zamini deb bildim. Men insonlar bir onadan tug'ilgan deb ishonaman. Shuning uchun mustahkam qudratga tayangan davlat buyuk bo'ladi».

O'n birinchi sifat: «Men doimo saidlarga ehtirom bilan qaradim, ulamo va shayxlarni e'zozladim. Bu kishilarni doim majlislarga chaqirdim. Ularni turli masala yuzasidan aytganlarini diqqat bilan tinglab olardim va unga amal qilardim. Shuning uchun menga nisbatan xalqning mehri baland edi va hamisha mendan minnatdor edi».

3. Amir Temurning odob-axloqqa oid nasihatlari

Amir Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay (1336-1405). Temur shaxsiy masalasi uziq yillar davomida man qilinganligi natijasida nafaqat Temur tarixi, bilki Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi tarixi, madaniyati deyarli o'rganilmay qolgan edi. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadi:

«Amir Temur nomi tariximiz saxifalarida qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning (ongidan) yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi»[1].Mustaqilligimizdan so'ng esa o'z milliy qadriyatlarimizni, tariximizni haqqoniy o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik.

[1] И.А.Каримов. Ициқлол ва маънавият. Т., «Ўзбекистон». 1994 й.

Yurtboshimiz Amur Temur hayoti, faoliyati, qoldirgan buyuk merosiga katta e'tibor berdi. «Istiqlol va ma'naviyat» asarida Temurning qoldirgan katta meros haqida yozadi:

«Amir Temur kim edi? U birinchi navbatda ulug' bunyodkor shaxs edi. Samarqanddagi obidalar, Shaxrisabzdagi yodgorliklarni kim qurdi? Turkistondagi Yassaviy maqbarasini kim tikladi? Kim "Kuch -adolatdadir" degan olamshumul, teran xikmatni o'z faoliyatiga asosiy tamoyil qilib oldi?»[1]. Yurtboshimiz Temur va Temuriylarning biz uchun qoldirgan meroslarini yuksak qadrladi va baholadi.

Temurning qanchalik buyuk zot bo'lganligini uning nomiga qo'shilgan unvonlardan ham ko'rish mumkin. Uning ismiga Ko'ragon (xon kuyovi yoki ko'rkam, toza urug'dan), «Sohibqiron» (yulduz burjlarining baxtli kelishi (kiron)da tug'ilgan farzan) (Iskandar, Muhammad payg'ambar , Temur), «Qutbiddin» (zamona peshvosi), «Abo'lmansur» (zafarmand, g'alaba qozonuvchi) kabi unvonlar qo'shilib ulug'langan.

Temur din arboblari, olimlarni, ilmni va ilm ahlini xurmatlovchi shaxs bo'lgan. Temur tuzuklarida shunday yoziladi: «Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqalar qurishni buyurdim. Musulmonlarga diniy masalalarda ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tavsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va madarrislar tayin qildim»[2].

Amir Temur odob, axloq iymon-ye'tiqod, tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan insonlardan bo'lgan. bunga ishonch hosil qilish uchun sohibqiron haqidagi asarlar, uning o'zi yaratgan tuzuklar va o'gitlarni ko'rish kifoya.

Temur o'gutlarini mohiyat va mazmuniga qarab uyiga guruhlarga ajratish mumkin: a) din va shariat, b) davlat va uni idora etish, v) kengash o'tkazish, g) podsho va vazirlar. Uning odob-axloqqa oid o'gitlarini quyidagicha guruhlashtirish mumkin.

- adolat va adolatsizlik;
- do'st va dushmanlik;
- muomala va shirinsuhanlik;
- so'z va ishning birligi;
- botirlik va qo'rqoqlik.

Amir Temurning o'gitlari odob-axloq borasida dastur to'la oladi. Buning katta tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan pedagogika deyish mumkin.

4. Mirzo Ulug'bekning ilm-ma'rifat sohasidagi xizmatlari

Mirzo Ulug'bek (1394-1449) O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan, millat pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan buyuk siymolardan biridir.

[1] И.А.Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., «Шарқ». 1998 й. 16 б

[2] Темур тузуклари. Б.Ащмедов тащрири. Т. 1991 й., 58 б.

Yurtboshimiz I.A.Karimov Ulug'bek zimmasiga tushgan vazifa haqida yozgan edi: «Taqdir bu zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalarni yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo'lishdek mislsiz sinov aynan unga nasib etdi»[3].

1411 yili 17 yoshli Ulug'bek Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib belgilanadi. Uning tashabbusi bilan o'lkada ilm-fan, ayniqsa falakkiyot ilmi yuksala bordi. U riyoziyot fanini mukammal egallagan va ungacha hyech kim unchalik tez va aniq hisoblay olmagan.

U davlatning madaniy markazlaridan Buxoro (1417), Samarqand (1420) keyinchalik G'ijdivonda (1433) madrasalar qurdirdi. Bu madrasalarda mashhur olimlar, ilohiyot ilmlaridan tashqari riyoziyot, xandasa, astronomiya, tibbiyot, tarix, geografiya, ilmi aruzdan dars berishgan.

Madrasalarda mashhur, bilimli kishilar mudarrislik qildi. Yirik olimlardan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid ibn Mas'ud, Mansur Koshiy, Muhammad Birjoniy, Ali Qushchi kabilar faoliyat ko'rsatdi. Madrasada Ulug'bekning o'zi ham astronomiyadan ma'ruzalar o'qigan.

Madrasa qurdirganidan 4 yil o'tgach, Obiraxmat soyining bo'yida rasadxona qurdiradi. Uning qurilishiga 5 yil ketadi. Kutubxona ochib, mashhur asarlarni yig'adi.

Madrasa bilan rasadxona o'rtasida mustahkam aloqa bor edi. Rasadxonada ishlaganlarning bir qismi madrasada mudarrislik ham qilishgan. Bu esa riyoziyot va yulduz ilmini yuksaklikka ko'tardi.

Ulug'bekning «Ziji Ulug'bek» asari juda mashhurdir. Yana riyoziyotga oid «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», yulduzlarga bag'ishlangan «Risolai Ulug'bek» va tarixga oid «Tarixi arba' ulus» asarlari bor.

Ulug'bek yoshlar ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor beradi. madrasalarda o'qitish tizimini jonlantiradi. O'qish muddati 15-20 yildan 8 yilga tushuriladi. O'quvchilar bilan rasadxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni joriy etadi.

Ulug'bek o'qituvchi – mudarrisga katta talablar qo'yadi. Mudarrislar avvalambor, o'zini tarbiyalamog'i, bilim va malakalarni egallamog'i, o'z ustida tinmay ishlashi, darslarni yuqori saviyada o'tishga ahamiyat berish kerak. U ta'limda darsliklarning o'rnini muhim deb biladi. Shuning uchun darslik mazmuniga katta e'tibor beradi va mualliflar oldiga jiddiy talablar qo'yadi. Darslik hayot haqiqatidan uzoq bo'lmasligi, sodda, tushunarli tilda yozilishi lozim.

Ulug'bek ta'limga matematika, falakkiyot, adabiyot, tarix fanlariga katta ahamiyat beradi.

[3] И.А.Каримов. Истиқлол ва маънавият. Т., «Ўзбекистон». 1994 й.

U o’z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog’lom, xarbiy hunar egallagan, jasur, mard bo’lib yetishishlariga alohida e’tibor beradi. U do’stlik va birodarlikni ulug’laydi.

5. Zahiriddin Muhammad Boburning ta’lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) – o’zbek xalqining ilm va madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo’shgan mutafakkir olim, tarixchi, qonunshunos va lirik shoirdir.

Bobur ilm-fan, san’at, madaniyat va ularning sohalari bilan yaqindan tanishgan, uning ijodini asosan lirik she’rlar va adabiy-tarixiy asarlar tashkil qiladi.

«Boburnoma» qomusiy xarakterdagi asar bo’lib, unga tarix, geografiya, botanika va boshqa fan sohalariga oid ma’lumotlar berilgan.

Bobur musulmonchilik qoidalari va qonunshunoslikka bag’ishlangan «Mubayyin», arab alfavitining islohiga oid «Xatti Boburiy», aruz vazni va qofiyaga oid «Mufassal», musiqa va harbiy san’at haqidagi asarlar yaratgan.



Adib fan va ma’rifatni yuqori darajdada qadrlaydi. Ilm, adabiyot san’at ahillari bilan yaqin aloqada bo’ladi, ularga homiylik qiladi.

Ilm va bilimdonlikni ulug’laydi. U kamtarlik, o’zini tuta bilish, ezgulik, vafodorlik, boshqalarga yaxshilik qilish sifatlarini ulug’lash, yovuzlik, zulm, qabixlikni qoralaydi. Boburning pedagogik qarashlaridagi bosh masala Vatanga cheksiz muhammatdir.

«Boburnoma»da o’zbek, tojik, afg’on, hind va boshqa xalqlarning kasb-kori, urf-odati, madaniyati, dini, adabiyoti, turmush tarzi haqida keng ma’lumotlar beriladi.

11-MA’RUZA

Mavzu: Alisher Navoiyning ta’limiy-axloqiy merosi

REJA:

1. Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati.
2. Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlar.
3. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror», «Mahbub ul-qulub» asarlarining shaxs kamolotidagi ahamiyati.
4. Alisher Navoiyning maktab va madrasalarni rivojlantirishdagi faoliyati.
5. Alisher Navoiyning axloqiy qarashlari.

Tayanch so’z va iboralar:

Komil inson, mutafakkir, ta’lim, tarbiya, axloq, odob, xulq, mudarris, maktab, madrasa, axloqiy qarash, adabiyot, san’at, hattotlik, tarix, musiqa, insonparvarlik, pedagogik qarash, falsafiy masala, ijtimoiy-siyosiy masalalar, axloqiy-ta’limiy masalalar

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. 13-tom. – T.: «Adabiyot va san’at», 1996.
2. Abdurasulov M. O’zbek ma’rifatparvar shoirlari ilm-ma’rifat haqida. – T.: «O’qituvchi», 1981.
3. Abdullayeva Sh. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.
4. Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O’qituvchi», 1997, 272 bet.
5. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O’qituvchi», 1995, 140 bet.

1. Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) fan va san’atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, hattotlik, tasviriy san’at, me’morchilik rivojlanish bilan birga ta’lim-tarbiya takomillashishiga katta e’tibor beradi. U o’zining «Hamsa», «Mahbub ul qulub» kabi ta’limiy axloqiy asarlarida, shuningdek «Munojat», «Vaqfiya», «Majolisun nafois», «Muhokamatul ul-lug’atayn», «Qirq hadis» asarlarida tarbiyaga oid qarashlarini ifoda etadi.

Uning pedagogik qarashlari insonparvarlik g’oyasi bilan sug’orilgandir. U xalq baxtini orzu qiladi, xalq manfaatini o’z manfaatidan ustun qo’yadi:

Yuz jafo qilsa menga bir qatla faryod aylamam,

Yelga qilsa bir jafo yuz qatla faryod aylaram.

Yoki

Odami ersang demagil odami

Onikim yo’q xalq g’amidin g’ami.

Alisher Navoiy inson kamolotida ilmning o’rnini muhim deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlik, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta’riflaydi. Ilm olishni insoniy burch deb biladi. U ilmda barcha fanlarni o’rganishni targ’ib etadi.

Navoiy ilm-fanni yuksaltirish uchun Ixlosiya madrasasini tashkil etdi, uning yonidan maktab ochib, o’z vakfidan mablag’ ajratdi. Madrasada qattiq intizomga amal qilinishini nazorat qildi.

Adib ustoz-murabbiylarga ham katta talablar qo’yadi, ularni avvalo o’zlari bilimli va tarbiyali bo’lishlari lozim deydi. Shu bilan birga ustozlarning mehnatini juda qadrlaydi:

Haq yo’linda kim senga bir harf o’qitmish ranj ila,

Aylamak bo’lmas ado oning haqin yuz ganj ila[1].

2. Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlar

Alisher Navoiy o’zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbiya to’g’risidagi fikrlarini ifodalagan bo’lsa, ta’limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo’llari, usullarini bayon etdi.

Alisher Navoiy o’z davrining ilg’or, ma’rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta’lim-tarbiya aqidalari, o’zidan ilgari o’tgan mutafakkirlarning qarashlarini an’anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o’rni, aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib berdi.

Navoiy tasavvurlaridagi komil insonga xos bo’lgan eng yuksak fazilatlarga: ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat kiradi. Chunki, baxtli hayotga intilgan Navoiy fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o’zining kuch-quvvatiga, aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong’ilikni yoritadigan chiroq, hayot yo’lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko’rsatadigan omil sifatida ta’riflaydi. Bu fikrni «Nazmul javohir» asarida:

Kim olim esa nuqtada barhaq de oni,
Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki, yo’q ilmga anga ahmaq de oni,
Majlisdaki ilm bo’lsa uchmaq de oni[1].

ya’ni ilmli, oqil odam o’z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikni yengib o’tadi, Kim ilmni o’ziga tayanch qilib olsa, u hyech qachon qoqilmaydi, xor bo’lmaydi va ilmning vazifasin inson baxt-saodatiga xizmat qilishdir, deb ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlardan deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta’riflaydi. Shunga ko’ra u o’z asarlarida kishilarni ilm-ma’rufatli bo’lishga

[1] Алишер Навоий. Мащбуб ул қулуб. Т., Ғ.Ғулом номидаги «Адабиёт ва санъат» нашриёти. 1983 й. 98 б.
[1] Алишер Навоий. Назмул-жавощир. Асарлар, ын беш томлик, Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти, 15-том, 1968, 45-бет

undaydi. Ilm olish har bir kishining insoniy burchi, deb hisoblaydi. Chunki ilm egallashdan maqsad ham xalqining, o'z mamlakatining baxt-saodatli, farovon hayot kechirishi uchun xizmat etishdan iboratdir, deb ta'kidlaydi. Masalan, Mirzo Ulug'bekni shunday insonlardan, deb ta'riflab, uning nomi ilmu xikmatda, tarixda abadiy qoldi, deydi.

Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmli bo'lish bilan qanoatlanib qolmasligi, balki u yana sabr-toqat, saxiylik, himmatli, tg'rilik, rostgo'ylik, tavoze', adab, ishq va vafo hamda shu singari fazilatlarga ham ega bo'lishi lozimligini bir necha bor ta'kidlagan edi.

3. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror», «Mahbub ul-qulub» asarlarining shaxs kamolotidagi ahamiyati

Shoirning «Hamsa»siga kirgan «Xayratul abror» dostoni va «Mahbubul qulub» asarlari axloqiy didaktik asarlaridan hisoblanadi.

«Hayratul abror» muqaddima qismiga oid bir necha boblardan tashqari 20 maqolat, har bir maqolatga oid 20 she'riy hikoyadan tashkil topgan bo'lib, maqolatning har birida Navoiy o'z davri uchun zarur bo'lgan biror ijtimoiy siyosiy yoki ixloqiy masalani qo'yadi, uni o'z davridagi hayotdan, ijtimoiy tabaqalarning ahvolidan kelib chiqish va atroflicha tahlil qiladi va unga insoniy munosabat bildiradi. «Hayratul abror»dagi masalalarni 3 turkumga ajratish mumkin:

4. Falsafiy masalalar.
5. Ijtimoiy-siyosiy masalar.
6. Axloqiy-ta'limiy masalalar.

Asarning 5-maqolati insoniy fazilatlardan biri –saxiylikka bag'ishlanadi, saxiylik qoidalarini ko'rsatib beradi. U saxiy insonni shunday ta'riflaydi: «Yey xushyor odam, sen shunday odamni saxiy deb bilki, baxt-davlat uning boshini yuqori ko'tarib, ahvoli yaxshi bo'lsa ham, yomon bo'lsa ham birovdan molu amal tama' qilmasa…u qo'lida bor narsa bilan qo'li qisqa odamni xursand qiladi…birovning yarasini ko'rsa malhamini ayamaydi»[2].

6-maqolat tarbiyaga bag'ishlanadi. Bolaga dastlab yaxshi ism qo'yish, so'ngra yaxshi muallimga berish, yashi tarbiya berishni maslahat beradi. bolalarni esa ota-onani hurmat etishga chaqiradi:[3]

Boshni fido ayla ato qoshiga,

Jismni qil sadqa ano boshiga.

Ikki jahoningga tilarsen fazo,

Hosil et ushbu ikkisidan rizo.

Tun-kuningga aylagali nur fosh,

Birisin oy ayla, birisin quyosh.

[2] Алишер Навоий. Щайратул аброр. Т., Ғ.Ғулом номидаги «Адабиёт ва санъат» нашриёти. 1989 й. 256 б.
[3] Ўша асардан. 76 б.

Navoiyning «Mahbub ul qulub» asari asosida insonparvarlik, xalqparvarlik g’oyasi yotadi. U inson haqida qayg’uradi, uning dardini chekadi. Insoniylikka yarashiqli fazilatlarni madh etadi, unga zid bo’lgan illatlarni nafratlaydi. Asar uch qismdan iborat:



1-qismda feodal jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatda tutgan o’rni va vazifasi haqida so’z yuritiladi. Dehqonlar va ularning mehnati ulug’lanadi.

2-qismda odob va axloqqa oid masalalar yoritiladi. Odabli insonlar ulug’lanishi, hurmatli bo’lishi ko’rsatiladi.

3-qismda saxiylik, oliyjanoblik, muruvvat, karam, vafo, muloyimlik kabi insoniy xislatlar tahlil etiladi. Qator maqollar keltiriladi: «Tilga ixtiyotsiz –yelga e’tiborsiz», «Bilmaganni so’rab o’rgangan olim, orlanib so’ramagan o’ziga zolim», «Oz-oz o’rganib dono bo’lur, qatra-qatra yig’ilib daryo bo’lur».

Navoiy ilmni va ilm ahllarini ulug’laydi. Mamlakat obodonligini ta’minlashda xalq ahvolini yengillashtirishdi ilm ahliga katta umid bog’laydi. Navoiyning ta’lim-tarbiya haqidagi o’gitlari, uning ma’rifatparvarlik g’oyalarining uzviy qismini tashkil iladi. U butun umri davomida ilm-ma’rifatni targ’ib qiladi. Navoiy merosini chuqur o’rganish undan ta’lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish hozirgi kunimizning muhim talablaridan biridir.

4. Alisher Navoiyning maktab va madrasalarni rivojlantirishdagi faoliyati

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o’rganishni targ’ib etadi. Bunda u olimu fozillarni yig’ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e’tibor beradi.

Masalan, Navoiy o’zining «Ixlosiya» madrasasi yonida maktab oib, o’z vaqfidan mablag’ ajratgan. Madrasada ta’lim olayotgan har bir talabadan ilmda qattiq intizomga rioya qilish talab etilgan. Shuningdek, u ilm-fanni mustaqil holda o’rganish, yetuk ilm sohiblaridan dars olishga ham undaydi.

U bilimlarni tinmay uzluksiz o’rganish zarur, deydi. bunda har qanday qiinchilikni yengib o’tish muhimligi, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan ish ko’rish, uni oxrigacha yetkazish, chidam va sabot bilan

o’rganishni ta’kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o’z davrida to’g’ri ifodalab, hattoki ta’lim tizimini ham belgilab beradi, ya’ni Alisher Navoiy ta’lim tizimini o’z davrida maktab, madrasalarda o’qish, olim, hunarmand, san’atkorlarga shogird tushi byoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda muallimlar, mudarrislar hamda ustoz-murabbiylarning o’zlari ham bilimli va tarbiyali bo’lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaassib, johil domlalarni tanqid etadi va o’qituvchi ma’lumotli, o’qitish yo’llarini biladigan muallim bo’lishi zarur, deydi. Masalan, u «Mahbub ul qulub» asarida shunday fikr bildiradi: «Uning ishi odam qo’lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to’da bolaga ilm va adab o’rgatadi, ko’rkim bunga nima yetsin.

Shunisi ham borki, u to’dada fahm-farosati ozlar bo’ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo’ladi. Har qanday bo’lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko’pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo’lida Kim senga bir harf o’qitmish ranj ila,
Aylamak bo’lmas ado oning haqin yuz ganj ila»[1]

Alisher Navoiy o’qituvchining hurmatini qanchalik joyiga qo’ysa, unga bo’lgan talabni ham shunchalik oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarining bilimli, fozil va dono, kamtar, ma’naviy pok bo’lishlarini talab etadi: «mudarris kerakki, g’arazi mansab bo’lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchung dars berishga havas krgazmasa va olg’irlik uchun gap-so’z va g’avg’o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo’lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o’rin bo’lmasa… Yaramasliklardan qo’rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o’zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa; qilmas ishlarni qilmoq undan sodir bo’lsa va qilar ishlarni qilmaslikunga qoida va odat bo’lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir»[2]

Navoiy o’zi barpo etgan «Ixlosiya» madrasasida o’z zamonasining yetuk mudarrislarini yig’di va ilm izlagan talabalar ana shu madrasalarda ilm peshvolaridan tahsil oldilar.

Demak, Navoiy har bir yoshning aqliy kamolotga yetishida ilmu fanning hamiyatini ko’rsatib o’tish bilan birga jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm ahli, ilmni tarqatuvchi olimu fozillarni hurmat qilishga va ularning turmush darajasini yaxshilash masalalarig ham e’tiborni qartdi.

5. Alisher Navoiyning axloqiy qarashlari

Alisher Navoiy insonning axloqiy xislatlari, yaxshi fe’l-atvorlar xususida to’xtab o’tar ekan, avvalo har bir insoniy faziltning ta’rifini beradi.

[1] Алишер Навоий. Мащбуб ул-кулуб. Асарлар, ын беш томлик, Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти, 13-том, 1966, 192-193-бетлар.

[2] Ўша китоб. 189-190-бетлар.

U yaxshi fe’llarga - qanoat, sabr, tavoze’ va adab, ishq va vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko’ngillilik (hilm) kabi xislatlarni kiritib, har birining ta’rifidan so’ng tanbeh va hikoyatlar vositasida o’z fikrini to’ldiradi. Navoiy yuqorida zikr qilib o’tilgan xaslatlarga ta’rif berish bilan birga ularga qarama-qarshi bo’lgan yomon ilatlar to’g’risida so’z yuritadi va ulardan qutilish yo’llarini ham bayon qiladi.

Axloqlilikning eng muhim belgisi sanalgan odob haqida fikr yuritar ekan: «Adab kichik yoshdagilarni ulug’lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod baxramand bo’ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug’lar ko’ngliga soladi va u muhabbat ko’ngilda abadiy qoladi.

Adabdan muhabbatga bezak va pardoz yetadi, adab tarkidan do’stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavoze’ do’stlik ko’zgusini yarqiratadi, ikki tomondan yorug’lik yetkazadi.

Tavoze’li va adablilarga ta’zim va hurmat yetadi va u urug’ni ekkan bu qimmatbaho hosilni to’plab oladi. Xalq muomalasida yaxshi axloqning boshlang’ichi shu xislatlar va bu xislat qattiq o’rnashsa muhabbatga xalal yetishi maholdir. Agar har ikki tomonda yaxshi xulq bo’lsa, adabi va tavoze’ evaziga va ta’zim paydo bo’ladi»[1].

Demak, yaxshi xulq asosi – odob, u Navoiy nazdida barcha insoniy xislatlarning boshlanishi sanaladi. Komil insonga xos xislatlar ana shunga bog’liq ravishda ta’rif beriladi. Zero, haiqiy insonga xos xislatlar - qanoat, sabr, tavoze’, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko’ngillilik) xudu shu odobli kishida tarkib topadi.

Masalan, «qanoat – buloqdir, suvi olingani bilan qurimaydir. Xazinadir – naqdinasi sochgan bilan kamaymaydir. Ekinzordir – urug’i izzat va shavkat mevasi beradidir. Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkazadi», deb ifodalaydi.

Demak, qanoat insoniylik belgisi. U insonni yomon kunlardan asraydi. Chunki, qanoat qanchalik og’ir va mashaqqatli bo’lmasin insonni nafs balosidan, do’st-dushmandan, ta’magirlikdan xolos etadi. Shuning uchun alloma hyech qachon ta’maga berilmaslik, halol mehnat bilan hayot kechirish qay darajada ulug’ligini ta’kidlab, ta’ma va ochko’zlik xasislik insoniylik zavoli, deb ta’riflaydi.

Sabr achchiqdir – ammo foyda beruvchi, qattiqdir – ammo zararni daf etuvchi, sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

Saxiylik va insoniylikning haqiqiy mezoni sifatida ta’rif beriladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta’limiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning qarashlari o’zidan oldin o’tgan salaflarining bu boradagi ilg’or ta’limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an’anaviy Sharq xalqlari ta’lim-tarbiya yo’riqlariga asoslanadi.

[1] [1] Алишер Навоий. Мащбуб ул-кулуб. Асарлар, ын беш томлик, Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти, 13-том, 1966, 206-207-бетлар.

12-MA’RUZA

Mavzu: Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi davrida maktab va pedagogik fikrlar

REJA:

1. Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi davrida ta’lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.
2. Turkiston o’lkasida o’qitish tartibi.
3. Turkiston o’lkasida ma’rifatparvar shoirlarning ilm, savodsizlikni tugatish, til o’rganish xususidagi fikrlari.
4. Musulmon maktablarida o’qitish tartibi.

Tayanch so’z va iboralar:

Ta’lim, tarbiya, maktab, ma’rifat, ma’rifatparvar, pedagogik fikr, ilm, bilim, savodsizlik, Markaziy Osiyo, Turkiston, Buxoro amirligi, Xiva, Qo’qon xonligi, Sho’ro, institut, konservatoriya, bilim yurti.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.O’zbek pedagogikasi antologiyasi. II jild, T.: «O’qituvchi», 1999, 147 bet.
2.Abdurasulov M. O’zbek ma’rifatparvar shoirlari ilm-ma’rifat haqida. – T.: «O’qituvchi», 1981.
3.Abdullayeva Sh. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.
4.Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O’qituvchi», 1997, 272 bet.
5.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. «Muloqat» jurnali, 1998 yil, 5-son.

1. Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi davrida ta’lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyoti

1917 yil to’ntarishidan so’ng Markaziy Osiyoda 3 ta davlat (Buxoro amirligi, Xiva, Qo’qon xonligi) o’rnida yangi yo’nalishdagi mafkuraga asoslangan respublikalar (Turkiston Muxtor Jumxuriyati, Buxoro xalq Respublikasi, Xiva xalq Respublikasi) tashkil topdi. Yangi Sho’ro Hukumati avvalgi ta’lim tizimi, o’quv-tarbiyaviy ishlarni isloh qilish, xalq maorifi tizimining yangi shaklini joriy etish yuzasidan bir qator vazifalarni belgilab berdi. Bunday tadbirlarni amalga oshirish Turkistonda Xalq Komissarlari Sovetining 1918 yil 14 maydagi dekreti asosida boshlandi. Yagona Sho’ro "Mehnat maktabi" xalq maorifi uchun aosiy negiz qilib olindi. 1918 yil 20 yanvarda "Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to’g’risida"gi dekretga asoslanib, mullalar va ziyoli din ahllarining maktablarda dars berishiga yo’l qo’ymaslik to’g’risida dekret qabul qilindi. Mazkur dekretga muvofiq aholining barcha tabaqalari bolalari millati, dini va jinsidan qat’iy nazar maktabi tekin o’qitilishi to’g’risida buyruq chiqarildi. Turkistonda 1918 yil may oyining boshida maktab tubdan qayta qurildi va e’lon qilindi.

1918 yil iyunda Toshkentda maorif xodimlarining birinchi syezda ochildi, unda xalq maorifi sohasidagi ahvol muhokama qilindi, qayta ko’rish tadbirlari belgilandi.

1918 yil dekabrda Turkiston Respublikasi xalq maorifi komissarligi buyruq chiqarib, hamma maktablarda ona tili o'qitish to'g'risida qaror qabul qilindi.

1918 yil avgustda Turkiston Respublikasining Markaziy Ijroya Komiteti «Maktablarda o'quvchilarni o'z ona tilida o'qitishga o'tish to'g'risida» dekret chiqardi, bu o'lka xalqlari milliy madaniyatlari istiqboli uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Oradan uch oy o'tgach "Turkiston maktablarining strukturasi to'g'risida Nizom" chiqarildi.

1918 yil bahoriga kelib respublikada ishlab turgan maktablar soni 330 taga yetdi.

1919-20 yilining boshida maktablar soni Farg'onada (viloyatida) 350 ta, Sirdare viloyatida 839 ta, Samarqand viloyatida 216 ta edi.

2. Turkiston o'lkasida o'qitish tartibi

Maktablarni tashkil etishda mahalliy aholi orasidan birinchi muallim sifatida yetishib chiqqan Hamza, Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullayev, Abdurauf Fitrat, Is'hoqxon Ibrat, T. N. Qori Niyeziy, To'xtanazar Shermuhamedov, Ergash Komilov, Oqilxon Sharofiddinov va shu singari ziyelilar faol qatnashdilar.

Qizlarni o'qitish uchun alohida maktablar ochildi, bunday maktablar 1920 yil boshida Toshkentda 12 ta, Andijonda 2 tasi ochilgan. Qo'qonda shunday maktablarda o'zbek qizlaridan 270 tasi, qirg'iz qizlaridan 13 tasi o'qir edi. Shunday qilib, o'lkamizda yangi maktablar ochildi va mahalliy aholidan milliy o'qituvchilar tayerlash, milliy darsliklar nashr etish, Sho'ro mafkurasi asosida ta'lim-tarbiyaviy jarayenni amalga oshirish yuzasidan tadbirlar belgilandi.

1918 yil iyun oyida Toshkentda dorilmuallimin ochildi (millat yeshlaridan mualimlar instituti).

1918-21 yillarda mahaliy millatdan 3 mingga yaqin muallim tayerlandi.

1918 yillarda Turkiston sharqshunoslik ishstituti, Timiryazev nomli bilim yurti, Milliy xotin-qizlar uchun bilim yurtlari ochildi.

1921 yilda ximiya-farmakologiya instituti, konservatoriya 6 ta qishloq xo'jalik texnikumi ishga tushdi. Bo'lar orasida 1918 yil 21 aprelda ishga tutgash Toshkentda ochilgan Turkiston xalq universiteti alohida ahamiyat etadi. Universitetning Toshkentda eki shaharda, Andijon, Qo'qon, Samarqand va Jizzaxda bo'limlari bor edi.

RSFSR Xalq Komisarlari Sovetining 1920 yil 7 sentyabrdagi dekretiga binoan Toshkent xalq universitei negizida Turkiston davlat universiteti (Tosh DU) tashkil etildi.

1920 yillarda Turkiston bolalarining 25% maktabda o'qitilar edi.

O'qituvchi kadr tayerlashga katta e'bor berildi. 1925 yilda O'zbekiston qishloqlarida ishlab turgan muallimlar soni 2748 kishiga yetdi. 1924-25 o'quv yilida xalq maorifi ehtiyojlariga 11, 4 million so'm yeki respublika byudjetning 24% sarflandi.

3. Turkiston o’lkasida ma’rifatparvar shoirlarning ilm, savodsizlikni tugatish, til o’rganish xususidagi fikrlari

Asrimiz boshlariga kelb, mahalliy fuqaro bolalaridan ilmli kishilar tayyorlash maqsadida Xeva xoni Said Muhammad Rahimxon Bahodirxoni soniy – Feruz (1844-1910yy). Katta ishlarni amalga oshirdi. Bevosita uning tashabbusi bilan 1884 yili o’z saroyida maktab ochilib, bu maktabda rus o’qituvchisi va Mirzo, Rahmonquli qori kabi mahoratli ta’lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim beri shishi bilan shug’ullandilar.

Feruz farmongia muvofiq 1904 yilning 10 noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayn Qo’shayev degan Turkiyadan kelgan o’qituvchi yoshlarga ta’lim-tarbiya bera boshladi.

Husayn Qo’shayev 1906-1907 o’quv yilida xonlikdagi ilg’or ma’rifatparvar kishilarning istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabi tashkil etdi. Feruz unga homiylik qilib, Xazina hisobidan maktab uchun alohida mablag’ ajratib berdi.

Feruz homiyligidagi bu maktabda Husayn Qo’shayevning turmush o’rtog’i Komila Qo’shayeva qizlarga bilim bera boshladi.

1909 yilga kelib Feruz qo’li ostidagi madrasalar soni 130 taga yetib, undagi mullavachchalar 2300 kishidan ortib ketdi.

Feruz Xeva ziyolilari orasida nufuzli o’rinni egallagan ma’rifatparvar Komil Xrazmiyni Toshkent shahrida gimnaziya va maktablardagi o’qitish usulini o’rganib kelish maqsadida safarga jo’natadi. Safardan qaytgach, Komil Xorazmiy bu sohadagi ishlarni anchagina jonlantirib yubordi.

Mazkur maktab o’quv dasturi hamda rejasiga – riyoziyot, tarix, jo’g’rofiya, tabiat, rus tili, mahalliy savod (ona tili) va islomshunoslik fanlarini o’qitish belgilanadi. Mashg’ulot jarayonida Sharq mutafakkirlari – Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Sa’diy Sheroziy, Mashrab, So’fi Ollayor kabilar bilan bir qatorda rus shoir, yozuvchilarining asarlari o’rganildi. Shuningdek, u vohada san’at, maorif va madaniyat rivojiga rahnamolik qilib, saroydi «Podshohi zamon tipolitografiyasi»ni tashkil qildi.

«Litografiya» - yunoncha so’z bo’lib, «litos» - tosh va «grafos» yozaman degan ma’noni bildiradi. Bu atama o’zbek tilida toshbosma tarzida qo’llanib kelingan.

Feruz saroyidagi bu toshbosmaxonada ilk bor Abu Nasr Farobiyning «Nisobus - sibyon» (Bolalar nasibasi), Alisher Navoiyning «Hamsa» asaridan parcha, «Hayrat ul-abror» dostoni, Shermuhammad Munisning «Munis ul-ushshoq» devoni, Yoqubxo’ja ibn Ibrohimxo’janing «Devoni Xolis» to’plami, Feruzning «Devoni Feruz» va boshqa o’nlab asarlar nashr etilgan.

4. Musulmon maktablarida o’qitish tartibi

XIX asrning o’rtalarida Turkistonda boshlang’ich ma’lumot beradigan maktablar hamda o’rta va oliy diniy ta’lim beradigan madrasalar mavjud edi.

Maktablarning aksariyati diniy ta’lim beruvchi maktablar edi. Bu maktablar arab tilida Qur’oni o’qishni o’rgatish va har bir musulmon uchun zarur bo’lgan vazifalarni o’rgatar edi.

Shahar maktablarida diniy ta’limdan tashqari umumiy ta’lim elementlari - yezish va hisoblash o’rgatilar edi, mashhur shoirlarning she’r va g’azallari ham o’qitilar edi. Bunday maktab o’quvchilar badavlat oilalar farzandlari bo’lar edi. Ular o’qishni tamomlab savdo-sotiq, hunarmandchilik bilan shug’ullanar edilar, ba’zilari qo’shimcha ta’lim olib xattotlik bilan shug’ullanar, ba’zilari madrasaga kirib o’qishni davom ettirardilar. Oliy diniy maktab bo’lgan madrasalarda o’rta asrga oid diniy falsafa, musulmon huquqlari, arab tili grammatikasi va mantiq ilmlaridan dars o’tilgan. Madrasani tomonlaganlar imomlik qilish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo’lganlar. Maktab va madrasalarda asosan o’g’il bolalar o’qitilar edi. Maktab va madrasalarda dars o’zbek, arab va fors tojik tillarida olib borilar edi.

Markaziy Osiye Russiya tomonidan bosib olingandan keyin maktab va madrasalarda ba’zi o’zgarishlar yuz berdi. Musulmon maktablarida bosmaxonada chop etilgan darsliklar paydo bo’ldi.

Mustamlaka ma’muriyati mashg’ulotlar o’rta asr tartibida olib borilayetgan musulmon maktablari ishiga aralashmas edilar.

13-MA’RUZA

Mavzu: Turkistonda jadidchilik harakati, uning maorif sohasida tutgan o’rni

REJA:

1. Turkistonda jadidchilik harakati, uning maqsad va vazifalari.
2. Yangi usul maktablarining paydo bo’lishi.
3. Jadidchilarlarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati.
4. Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» darsligi.
5. I.Gaspirali, Munavvar Qori va A.Fitrat faoliyatlari.

Tayanch so’z va iboralar:

Jadid, yangi usul maktablari, ta’lim, tarbiya, maktab, madrasa, maorif, ma’rifatparvar, fan, darslik, o’qitish, gazeta, jurnal, teatr, kutubxona, ma’rifat, adabiyot, tarix, geografiya, islom tarixi

Adabiyotlar ro’yxati:

1.O’zbek pedagogikasi antologiyasi. II jild, T.: «O’qituvchi», 1999, 147 bet.
2.Abdurasulov M. O’zbek ma’rifatparvar shoirlari ilm-ma’rifat haqida. – T.: «O’qituvchi», 1981.
3.Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O’qituvchi», 1993, 204 bet.
4.Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. T.: «Aloqachi», 2006, 164 bet.
5.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. «Muloqat» jurnali, 1998 yil, 5-son.

1. Turkistonda jadidchilik harakati, uning maqsad va vazifalari

XIX asrning oxiriga kelib O’rta osiyo xalqlari chor hukumatining zulmidan og’ir ahvolda qolgan edi. Chor hukumati O’rta osiyoda feodal-patriarxal tuzimini saqlab qolib, xalqni qashshoqlikda, o’ziga bo’ysungan holda saqlab qolishga

harakat qiladi. U mahalliy xalqning maorifi, adabiyoti, ozodlik va erkinlik g'oyalarini ilgari surish vositalarini rivojlantirishiga to'siqlik qiladigan choralarni ko'rdi.

Xalqning ma'rifiy qashshoqligi, mavjud maktablarning inqirozi, madaniy ortga ketish –bularning hammasi endi chidab bo'lmaydigan hayot tarzi bo'lib qolgan edi. Shuning uchun mamlakatdagi ilg'or, taraqqiyotparvar kuchlar birlashib, islohat, o'zgarishlar qilishga kirishdilar. Ular avvalo maktab, maorifni, keyin esa ijtimoiy turmushni isloh qilish g'oyalarini ilgari surdilar. Ularni jadidlar deb atay boshladilar, chunki jadid «yangi», yangilik tarafdori ma'nosini anglatuvchi so'zdir. Jadidchilik oqimi XIX asrning 90-yillarida maydonga keldi.

Jadidlar o'rta asr o'qitish usuliga asoslangan ta'limga qarshi qilib, yangi usulda o'qitishni, qator dunyoviy fanlarni o'quv jarayoniga kiritishni talab qildilar.

Jadidlar xalqqa ma'rifat va madaniyat tarqatishga harakat qildilar. Buning uchun maktab va madrasalarni isloh qilish g'oyalarini targ'ib etdilar. Yangi usuldagi maktablar ochib, gazeta, jurnallar chiqardilar, teatr, kutubxonalar tashkil etidilar.

Jadidlar «Taraqqiy», «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Oyna», «Buxoroi Sharif» kabi gazeta jurnallar, o'z hisoblaridan darslik, o'quv qo'llanmalari nashr qildirdilar. Ko'plab teatr truppalari tashkil topdi. Dramaturgiya maydonga keldi. Publisistika rivojlandi.

Jadilar maktab va madrasalarda diniy va dunyoviy ilmlarni birga qo'shib olib borishga harakat qilishdi.

Jadidlarning yirik vakillaridan biri Maxmudxo'ja Behbudiydir. U Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Adabiyot, tarix, geografiya, islom tarixi sohalari bilan shug'ullandi va yangi usul maktablarining tashkilotchisi sifatida tan olindi. Abduqodir Shakuriy ochgan maktabga homiylik qildi. O'zbek va tojik tillarida «Bolalar kitobi», «Islomning qisqacha tarixi», «Aholi geografiyasiga kirish», «Rossiyaning qisqacha geografiyasi» kabi kitoblar yaratdi. «Behbudiy» nashriyotiri tashkil etib, unda darsliklar, xaritalar bosib chiqdi. Kutubxonalar ochdi.

Dramaturgiya sohasi bilan shug'ullanib «Padarkush» dramasini yozdi. Bunda ilmsizlik, nodonlikni tanqid qildi. «Samarqand» gazetasi, «Oyna» jurnalini chiqardi. Jadid ma'rifatparvarlaridan Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy, Ishoqxon Ibrat, Saidrasul Aziziy, Siddiqiy Ajziy, Abdurauf Fitrat va boshqalar ham Turkiston maorifi yuksalishi yo'lida faoliyat olib bordilar. Maktablar ochdilar, darsliklar yaratdilar, gazeta-jurnallar tashkil etib, ularda ilm-ma'rifatni targ'ib qildilar.

2. Yangi usul maktablarining paydo bo'lishi

XIX asrning o'rtalarida Turkistonda boshlang'ich ma'lumot beradigan maktablar hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar mavjud edi.

Maktablarning aksariyati diniy ta’lim beruvchi maktablar edi. Bu maktablar arab tilida Qur’oni o’qishni o’rgatish va har bir musulmon uchun zarur bo’lgan vazifalarni o’rgatar edi.

Shahar maktablarida diniy ta’limdan tashqari umumiy ta’lim elementlari - yezish va hisoblash o’rgatilar edi, mashhur shoirlarning she’r va g’azallari ham o’qitilar edi. Bunday maktab o’quvchilar badavlat oilalar farzandlari bo’lar edi. Ular o’qishni tamomlab savdo-sotiq, hunarmandchilik bilan shug’ullanar edilar, ba’zilari qo’shimcha ta’lim olib xattotlik bilan shug’ullanar, ba’zilari madrasaga kirib o’qishni davom ettirardilar. Oliy diniy maktab bo’lgan madrasalarda o’rta asrga oid diniy falsafa, musulmon huquqlari, arab tili grammatikasi va mantiq ilmlaridan dars o’tilgan. Madrasani tomonlaganlar imomlik qilish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo’lganlar. Maktab va madrasalarda asosan o’g’il bolalar o’qitilar edi. Maktab va madrasalarda dars o’zbek, arab va fors tojik tillarida olib borilar edi.

Markaziy Osiye Russiya tomonidan bosib olingandan keyin maktab va madrasalarda ba’zi o’zgarishlar yuz berdi. Musulmon maktablarida bosmaxonada chop etilgan darsliklar paydo bo’ldi.

Mustamlaka ma’muriyati mashg’ulotlar o’rta asr tartibida olib borilayetgan musulmon maktablari ishiga aralashmas edilar. Ammo rus tilini o’qitishni rag’batlantirish choralarini ko’rar edilar. XX asr boshlarida madrasalarda rus tilini o’qitilishi joriy qilinsin, degan ko’rsatma berilgan.

XX asr boshlarida Turkistonda madrasalar: Buxoroda- 80, Qo’qonda-40, Samarqandda-22, Marg’ilonda - 28, Toshkentda - 17, Xiva xonligida -130 ta mavjud bo’lib, ularda 400 dan 500 tagacha talabalar tahsil olar edi.

Turkiston o’lkasida 1905-1906 yillarda 5290 ta maktab bo’lib ularda 70955 talaba ta’lim olgan. 1860 yilda Markaziy Osiyening ko’pgina qismi Russiya tomonidan bosib olindi. 1965 yildan Toshkent Turkiston general-gubernatorligiga qarashli yerlarning markazi bo’lib qoldi.

O’rta asr musulmon maktablarining isloh qilishdan bosh tortgan chorizm, ruslar o’rnashgan yerlarda ochilgan rus maktablarini Turkistonda maorif sohasida o’z siyesatining quroli qilib olishga harakat qildi. (Dastlabki rus maktabi Toshkentda 1866 yilda ochilgan). Rus maktabiga ruslar bilan birga o’qish uchun mahaliy aholi bolalari ham qabul qilinar edi. O’quvchilarning 1-4 qismini mahaliy aholi bolalari tashkil etar edi (jami 200ta) Bularning ko’pchiligi ozod bolalari bo’lib, o’zbek va tojik bolalari nihoyatda kam edi. Rus maktablarida boylar va oq suyaklarning bolalarigina o’qir edi. 1884 yilda 19 dekabrdan sinab ko’rish uchun birinchi rus tuzem maktabi mahaliy bolalarni o’qitish uchun ochildi. 10 yildan so’ng butunlay maktablar soni 4 taga ko’paydi. 1904 yilga kelib ularning soni 57 taga yetdi. Ularni 1830 ta o’g’il 104 ta qiz bolalar o’qirdilar.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan Toshkent, Qo’qon shaharlarda hunar-texnika bilim yurtlari ochildib yangi tipdagi bilim yurtlari paydo bo’ldi.

Yangi usul maktabi quyidagilarga asoslangan:

- sinfda bolalar soni 30 dan oshmasligi;
- bolalar yez va qishda 2 marta maktabga qabul qilishi (bir yilda ikki dafa);

- har bir qabul 1-sinfdan oshmasligi;
- har bir muallimda ko’pi bilan 3-4 sinf bo’lish;
- darslar ketma-ket tartibda bo’lishi;
- 7-9 yeshdagi bolalar 7-8 soat o’qisholmaydi, ularning o’qishi uchun 5 soat kifoya.
- juma va bayram kunlari dam olish.
- o’qishdan so’ng yezgi issik kunlarida ta’til bo’lishi;
- dars zeriktirmasligi;
- shogirdni urish va so’kish bevoyda ekanligi;
- o’qish qoidalarini rioya etish.

Buxoro, Samarqand, Farg’ona, Namangan, Qo’qon, Toshkent kabi o’nlab shaharlardagi ziyelilar guruhi jadidchilik harakatiga bosh-qosh bo’ldilar. Jumlandan:

Fayzulla Xo’jayev (1896-1938)
Is’hoqxon Ibrat (1862-1937)
Sidiqiy Aziziy (1864-1924)
Saidrasul Aziziy (1864-1933)
Muhammad Sharif So’fizoda (1869-1937)
Mahmudxo’ja Bexbudiy (1874-1919)
Abdulqodir Shakuriy (1875-1943)
Abdulla Avloniy (1878-1934)
Sadriddin Ayniy (1878-1954)
Munavvar Qori Abdurashidov (1878-1931)
Ismatilla Raxmatullayev (1883-1962)
Abdurauf Fitrat (1884-1939)

H.H. Niyeziy (1889-1929) va boshqa o’nlab ziyolilarni fahr bilan tilga olishimiz mumkin.

3. Jadidchilarlarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati

XIX asrning boshlarida Buxoroda marifatparvar musulmon ruhoniylari o’rtasida maktab va madrasalarni isloh qilish kerak degan fikr paydo bo’ldi. (Islom diniga kirib kelgan isloh qilish). Shunday isloh tarafdorlarining jadidlar, yani yangilik tarafdorlari deb atay boshladilar. Ularga qarshi turgan oqim, ya’ni feodal o’rta asr diniy fanatizimi ruhida bo’lgan kishilarni esa qadimislar deb atay boshladilar.

XIX asr boshlaridagi birinchi jadidchi Al Kursaviy edi. Jadidchilar Buxorodagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g’oyasi bilan chikdilar. qadimislar esa ularni kofirlar deb xudosizlikda ayibladilar. Buxoro amiri Xaydar esa ularni zindonga tashlar va o’lim jazosiga hukm etdi. XIX asrning 50-60 yillarida diniy islohatchilar yana ko’paydi. Yandi bu harakat boshida buxorolik mudarris va tarix-chi olim Marjoniy (1818-1889) turar edi.

Marjoniy o’zining dasturida quyidagi oltita masalani qo’yadi:

1. Qur’ondagi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o’zlari erkin fikr yuritsinlar.

2. Birovning birovga ko’r-ko’rona ergashishi qat’iy man etilsin.

3. Madrasalarda o’qitiladigan hoshiya va shrq kabi quruq mazmunga ega bo’lgan va o’quvchilar uchun foydasiz bo’lgan, ularning 8-10 daqiqa vaqtini bekorga oladigan darslar dars jadvalidan olib tashlansin.

4. Madrasalarda Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o’tilsin.

5. Arifmetika, tarix, jo’g’rofiya, tabobat, xandasa, mantiq, falsafa va boshqa duneviy fanlarni o’qishga qarshilik ko’rsatilmasin.

6. Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad allayhissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko’zda tutilsin.

Biroq reaksion kuchlar tazyiqiga uchragan Marjoniy Buxoroni tark etishga majbur bo’ladi. XIX asr oxiri XX asr boshlari Turkistonda chor mustamlakasi kuchaydi. Bu davrda jadichilik harakati kuchaydi.

Jadidchilik jamiyati to’ntarish yo’li bilan emas, islohatlar yo’li bilan rivojlantirish tarafdori edi. Bu davrda Eronda (1907), Turkiyada (1908) burchida davlat to’ntarish ro’y bergan edi. Bo’lar O’rta Osiyda jadidchilik harakatini rasmiy tusda rivojlanishiga ta’sir ko’rsatdi. Jadidchilar barcha ijtimoiy-siyesiy kuchlar bilan ittifoq tuzib xalq va kelajak manfaati yo’lida islohot tarafdorlari edilar. Bexbudiy mana shunday ittifoq tuzish g’oyasi bilan chiqdi. U "Ulomo yeki ziyeliy va taraqqiyparvarlarimiz, boy va avomimiz birlashib, din va millat va vatanning rivoji uchun xizmat etishadi" deb yezgan. 1906 yilda "Taraqqiy"deb nomlangan jadidi gazetasi chiqa boshladi. Oradan ko’p utmay "Xurshid", "Shuxrat" singari gazeta chiqaruvchilar.

Jadidchilik harakati dasturi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan:

1. Diniy taassuf va fanatizmga qarshi kurash.
2. Feodal davri maorifini isloh qilish
3. Jadidchilik g’oyalarini targ’ib qilish, yangi o’zbek adabiy tilini ishlab chiqish, o’zbek xalqiga tushinarli adabiyet va teatr yaratish.
4. Xotin-qizlarni paranjidan chiqish va maktabda o’qitilishi. Ular taqdirini o’zgartirish, oilada islohat o’tkazish.
5. Mahalliy boylar va sovdogarlari siyesiy, iqtisodiy jihatdan rus burjuaziya bilan teng huquqli bo’lish, mustamlakachilik siyesatini isloh qilish.

Birinchi marta jadidchilik Qirimda paydo bo’ldi. Uning ijodkori XX asr boshida Islombek Gasperali edi. Sharq xalqlari manaviy hayetida, maktab maorifida inqilob yasagan "usuli jadid" nomini olgan "Usuli savtiya"ni u boshlab bergan. U barcha turkiy xalqlari yaxlit, yagona millat deb bildi. Ularning ham ilm-marifatda, haq-huquqda dunening taraqqiy etgan millatlari bilan teng ko’rmoqni orzu qildi.

4. Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» darsligi

Toshkentlik Saidrasulxo’ja domla mufti Saidazizxo’ja maxtum mufti o’g’li arab, rus va fors tillarini yaxshi bilgan o’zbek ziyolilaridan biridir. U 1866 yilda Shayxontoxur dahasining Degrez mahallasida ziyoli oilasida dunyoga kelgan,

maktab yoshiga yetgach, 6-7 yoshida mahallasidagi domlaning maktabxonasida o'qigan, uni bitirgach, shu dahadagi madrasai Mahdum dasturxonchida tahsil olgan, ayni choqda 1-rus tuzem maktabida ham o'qigan. 1900 yilda madrasani hatm qilgan, rus-tuzem maktabini bitirganligi to'g'risida ham guvohnoma olgan. Shu yil o'zi bitirgan rus-tuzem maktabiga musulmoncha sinf o'qituvchisi etib ishga qabul qilingan. Tez orada rus-tuzem maktablari va o'zbek o'qituvchilari o'rtasida ilmi va odobi bilan og'izga tushgan, maktab mudiri, tajribali pedagog S.M.Sichev yosh o'qituvchiga har tomonlama yordam beradi.

Peterburg dorilfununining fizika-matematika kulliyotini bitirgach, Turkistonga kelib avval gimnaziyalarda matematikadan dars bergan, so'ngra Sirdaryo viloyati xalq maktablari direktorii lavozimida uzoq yillar ishlab, bir qator darslik va qo'llanmalarning muallifi Sergey Mixaylovich Grameniskiy (1859-1919) 1901 yilda Toshkent 1-rus-tuzem maktabi domlasi S.Saidazizovga Turkiston o'lkasi rus-tuzem maktablarining «Musulmoncha sinf»lari uchun o'zbekcha alifbe kitobini yozishni rasmiy ravishda topshiradi.

S.Saidazizov o'ziga topshirilgan ishni, ya'ni o'zbekcha alifbe kitobini yozishni 1902 yilning fevral oyida tugallagan. Uni «Ustodi avval» deb nomladi. Bu kitob 1902 yilning sentyabr oyida 3000 nusxada bosilib chiqdiv a rus-tuzem maktablariga tarqatildi. S.Saidazizov 1904 yildan boshlab Turkiston o'qituvchilar seminariyasiga o'zbek va fors tilidan amaliy mashg'ulotlar o'qituvchisi qilib ishga qabul qilindi. Turkiston Sharqshunoslik jamiyatining ishlarida qatnashgan, shu jamiyatning tashabbusi bilan ochilgan o'zbek tilini o'rgatish kursida ishlagan mashhur olimlar A.N.Samoylovich, V.V.Bartold bilan tanishib do'stlashadi. 1910 yilning iyul oyida Moskva va Peterburgda sayohatda bo'lgan, tarixiy va madaniyyodgorliklarni ko'rgan, muzeylarda bo'lgan, kutubxonalarda shug'ullangan. S.Saidazizovning sayohat xotiralari Turkiston viloyati gazetasining 1910 yil 72, 78, 79, 83, 86-sonlarida va 1911 yilgi 5- va 10-sonlarida bosilib chiqqan.

S.Saidazizov Aziziy taxullusi bilan g'azallar yozgan. Maktab va ta'lim-tarbiya sohasiga taalluqli ko'plab maqolalari gazetalarda bosilib turgan. U dastlabki o'zbek tarjimonlaridan biri bo'lib, K.D.Ushenskiy, L.N.Tolstoy, S.M.Grameniskiy kabi pedagoglarning maktablar uchun nashr etilgan o'qish kitoblaridagi bolalarbop asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Qilingan tarjimalardan esa «Ustodi avval»da bergan.

«Ustodi avval» 1918 yilga qadar e'lon qilingan 10 dan ortiq o'zbekcha alifbe kitoblari ichida metodik tuzilishi, berilgan materiallarining salmog'i va bolalarga yaqinligi jihatdan ajralib turadi.

«Ustodi avval» darsligi ikki qismdan iborat:

1. O'zbekcha xat-savodni chiqarish.

2. arabcha, ya'ni «Qur'on xati»ni, suralarini o'qishga o'rgatishdan iborat.

Birinchi qismining o'zi ham uchga bo'linadi:

1) Xat-savodni o'rgatishga tayyorgarlik davri;

2) Alifbe davri. 32 harfning yozilishi, so'zda kelishi.

3) Qiroat davri – «zer-zabar» yuzasidan malaka hosil qilish, so'ngra o'qish uchun so'z birikmalari hamda matnlar berilgan.

«Ustodi avval»ning arabcha o’qishga o’rgatish qismi o’ziga xos ilmiy asoslangan qoidalar asosida tuzilgan. Bunda ta’limning ongli bo’lishiga muallif alohida e’tibor bergan. Turkistondagi hamma maktab turlarida diniy ta’lim maktablarning o’quv rejasiga kiritilgan o’quv fanlaridan biri bo’lgan.

Turkistonda birinchi bo’lib o’z ona tilida o’qitishni S.Saidazizov boshlagan. Uning o’zi bu to’g’rida shunday degan edi: «Ustodi avval»ning foydasi daf’atan o’qimoq, yozmoq uchun ko’proqdir. Alifboni o’qib va bitib bo’lgandan keyin hikoyatlarga yaqin kitob oxiridagi alifboni qur’oniy boshlatub, oldin ham oz-oz saboq beriladur to oxirigacha»

«Ustodi avval»ni birinchi bo’lib muallifning o’zi amalda sinab ko’rddi va boshqa muallimlarni ham sinab ko’rishga chaqirdi.

5. I.Gaspirali, Munavvar Qori va A.Fitrat faoliyatlari

Jadidchilikning asoschisi ma’rifatparvar Ismoilbek Gaspirali hisoblanadi. U o’qitishning yangi usuliga asos soldi. 1884 yili 12 bolani «usuli jadid»da o’qita boshladi. Bolalar 40 kun ichida savodini chiqarishadi. Ular uchun «Xo’jai sibyon» («Bolalar muallimi») darsligini yaratdi. 1883 yildan «Tarjimon» gazetasini chiqara boshladi.

Gaspiralining g’oyalari ta’sirida O’rta Osiyoda ko’plab jadid ma’rifatparvarlari yetishib chiqdi.

Muhammad Qori Abdurashidxonov (1872-1931) Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug’ilgan. Onasi otin oyi edi. Oiladagi ilmga chanqoqlik muhiti o’z ta’sirini ko’rsatdi.

Abdurashidxonov 1901 yili birinchi jadid maktabini ochishga muvaffat bo’ldi. Yangi maktablar uchun tovush usulida «Adibi avval»(1907), «Adibi soniy» darsliklarini yozdi. 1906 yili Ismoil Obid muharrirligida «Taraqqiy» gazetasini tashkil qildi. Darsliklari qayta-qayta nashr yuzini ko’rdi.

Abdurauf Abdurahim o’g’li Fitrat (1886-1938) Buxoroda tug’ilgan. Dastlab maktabda, so’ngra Mirarab madrasasida o’qidi. U adabiyot, tarix, falsafani chuqur o’rgandi. 1909 yili «Jamiyat xayriya» ko’magida Turkiyaga o’qitishga borib, 4 yil davomida ilm-fan cho’qqilarini egallashga erishdi. U yerda «Munozara» va «Hind sayyohi qissasi» asarlarini yozdi. Bunda Buxorodagi o’quv-o’qituv ishlari, ularni tubdan o’zgartirish masalalariga e’tibor berilgan. «Rahbari najot» (1913), «Oila» (1916) asarlari. «O’quv» (1917) darsligini yozdi. 1922-23 yillarda Buxoro xalq maorifi noziri bo’lib, chet ellarga o’qishga talaba va o’quvchilar yuborishga rahbarlik qildi. 1923-24 yillarda Moskva va Leningrad (Peterburg)da yashab ijod qildi, professor unvonini oldi. Keyin qator oliy o’quv yurtlari, tadqiqot institutlari pedagogik va ilmiy faoliyat bilan shug’ullandi.

14-MA’RUZA

Mavzu: Abdulla Avloniy va Mahmudxo’ja Behbudiylarning maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari

REJA:

6. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari.
7. Abdulla Avloniyning darslik kitoblari va ularning mazmuni.
8. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida ta’lim-tarbiya tizimi.
9. Mahmudxo’ja Behbudiy pedagogik merosining tarbiyaviy ahamiyati.
10. Mahmudxo’ja Behbudiy maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari.

Tayanch so’z va iboralar:

Maktab, maorif, pedagogik qarash, darslik, alifbe, ta’lim, tarbiya, gazeta, jurnal, hikoya, she’r, ma’rifatparvar, odob, axloq, xulq, yaxshi xulq, yomon xulq, sadoqat, oliyjanoblik, iffat, hayo, do’tlik, mehribonlik, sabr-qanoat

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Abdulla Avloniy. Turkiy gulison yoxud axloq. – T.: «O’qituvchi», 1993.
2.Abdurasulov M. O’zbek ma’rifatparvar shoirlari ilm-ma’rifat haqida. – T.: «O’qituvchi», 1981.
3. Zunnunov A. va boshq. O’rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.
4.Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. T.: «Aloqachi», 2006, 164 bet.
5.Abdullayeva Sh. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.

1. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari

Abdulla Avloniy (1878-1934) Toshkentda hunarmand oilasida dunyoga keldi. Maktabda, so’ngra Abdumalikboy madrasasida o’qidi. Yoshligidan she’rlar yozdi. 1904 yili Mirobodda yangi usuldagi maktab ochdi. 1907 yili uning muharrirligida «Shahrat» gazetasi chiqa boshladi. 1909 yili «Jamiyati xayriya» tashkil qilib, bolalar o’qishi uchun sarmoyadorlik orqali maktablarga tarqatdi. Mavloniy maktabining dovrug’i keng tarqaldi, chor hukumati talabi bilan o’lka mamuriyati maktabni 1908 yil yopdi.

Shundan so’ng, 1909 yili Avloniy Degrez mahallasida maktab ochdi. Darsliklar yozishga kirishdi. 1909-1917 yillarda uning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guluston yohud axloq», «Maktab gulustoni», «Adabiyot yohud milliy she’rlar» to’plamlari nashr etildi. 1917 yildan so’ng ham turli o’rta maxsus va oliy o’quv yurtlarida pedagogik faoliyat bilan shug’ullandi. «Mehnat qahramoni» unvoni, «O’zbekiston xalq maorifi zarbdori» nomiga sazovor bo’ldi.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to’rt bo’limga ajratadi:

1. «Tarbiyaning zamoni».

2. «Badan tarbiyasi».

3. «Fikr tarbiyasi».

4. «Axloq tarbiyasi» va bu haqida hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritadi.

«Tarbiyaning zamoni» bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi.

«Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur» deb uqtiradi Avloniy.

Tarbiya xususiy ish emas, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi, adib.

Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umirining oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan – uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi, u birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilish lozimligini uqtiradi.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdur».

Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ekanini ham ta'kidlaydi: «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur» - deydi.

2. Abdulla Avloniyning darslik kitoblari va ularning mazmuni

Abdulla Avloniy «Usuli jadid» maktablari uchun to'rt qismdan iborat «Adabiyot yohud milliy she'rlar» hamda «Birinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yohud axloq» (1913), «Ikkinchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi. Bu asarlari hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug'lab, o'z xalqini ilmli, madaniyatli bo'lishga chaqiradi.

Asrimiz boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning «Birinchi muallim»i ham o'ziga xos o'ringa ega. «Birinchi muallim» 1917 yil to'ntarishgi qadar bir 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval»iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi).

Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinchi muallim» kitobining uzviy davomidir. Uning «Birinchi muallim»ini alifbe, «Ikkinchi muallim»ini – xrestomatiya deb shartli ravishda atash mumkin. Kitoblarda tarbiyaga alohida

e’tibor qaratilgan. «Birinchi muallim»ga «Maktab», «Baxtli va baxtsiz bola», «Yaxshilik yerda qolmas», «Qanoat», «Ittifoq» kabi hikoya va she’rlar kirgan, ularni oxirida tarbiyaviy ahamiyatga molik mushohada yuritilgan. Darsliklarga xalq og’zaki ijodi namunalari, zamon ruhi bilan sug’rilgan va o’quvchilarga moslashtirilgan hikoya, rivoyatlar kiritilgan.

«Ikkinchi mualim»ga «Saxiylik», «Baxtlilik», «Aqlli bola», «Kampir ila cho’l yalpizi», «Tama’ bolasi» kabi hikoyalar kiritilib, ularda xushfe’llik, aql va donishmandik sharaflanadi, qo’pollik, badnafslik baxillik hajvga olingan.

3. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida ta’lim-tarbiya tizimi

1913 yilda yozilgan «Turkiy guluston yoxud axloq» axloqiy va ta’lim-tariyaviy asar bo’lib, unda «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm axloq» haqida fikr yuritiladi.

Avloniy bola kamolotida tarbiyaning roli juda kattaligini tushunadi va tarbiya «yo hayot, yo mamot, masalasi» deb biladi. Bu fikrga yurtboshimiz ham alohida munosabat bildirganlar:

«Men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat –yo falokat masalasida degan fikrini ko’p mushohada qilaman.

Buyuk ma’rifatparvarning bu so’zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo’lgan bo’lsa, hozirgi kunda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko’ra muhim va dolzarbdir»[1].

Abdulla Avloniy o’zining «Turkiy guluston yoxud axloq» asarida barakamol insonning axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor beridi.

Axloq «Insonni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xullarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladigan kitobni axloq deydilar. Axloq ilmini o’qib, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganini bilur. Kishi o’zidan xabardor bo’lmasa ilmni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas»[2].

Abdulla Avloniy axloqiy fazilatlarni ikki turga bo’lgan edi, yaxshi xulqlar: mehr-shafqat, muhabbat, sadoqat, oliyjanoblik, iffat, hayo, do’tlik, mehribonlik, sabr-qanoat, saxiylik. Yomon xulqlar: g’azab, buzuqlik, safoxat, yalqovlik, xasislik, ta’magirlik kabilardir.

Abdulla Avloniy axloqiy tarbiyaning bosh masalasi insonning Vatanga muhabbatidir deb hisobladi va har bir yosh qalbida Vatanida yashashga, uning baxtidan quvonishga, shodligiga sherik bo’lishga o’rgatmoq va uni e’tiqodiga

[1] И.А.Каримов. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат етсин. Баркамол авлод орзуси. Т., «Шарқ» 1999 й. 39-40 б.

[2] Абдулла Авлоний. Туркий гулуцон ёхуд ахлоқ. Т. 1994 й.

aylantirmoq lozimligini ta’kidladi. Vatanni sevgan xaqini ardoqlaydi, chunki «Har bir millatning dunyoda borligini ko’rsatadigan hayot ko’zgusi-til va adabiyotdir», deb milliy til va adabiyotni o’rganishga alohida e’tibor berdi.

Abdulla Avloniy bolalarning aqliy talimiga ham alohida e’tibor beradi: fikrlash iqtidorini egallash oliyjanob g’oyalar tomon intilishdir, degan edi. Abdulla Avloniy bolalar fikrining «quvvati, ziynat kengligi» jihatdan muallimlarni «diqqatlarga suyangan, vijdonlariga yuklangan» vazifalardir deydi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guluston yoxud axloq» asari har bir xonadonga qut-baraka keltiruvchi, insonlarni yaxshi yo’lga boshlovchi asardir.

4. Mahmudxo’ja Behbudiy pedagogik merosining tarbiyaviy ahamiyati

Turkistonda jadidlar harakati asoschilaridan biri, jahonga mashhur bo’lgan o’zbekning yagona jo’g’rofiyashunosi, atoqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug’ pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalist Mahmudxo’ja Behbudiy 1874 yil 10 martda Samarqandning Bahshitepa qishlog’ida ruhoniy oilasida tavallud topgan.

Mahmudxo’ja Behbudiy «usuli jadid» maktalari uchun bir qator darsliklar yozadi. «Muntaxbai jo’g’rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy jo’g’rofiya»), «Kitobatulqatfol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madxali jo’g’rofi umroniy» («Aholi jo’g’rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo’g’rofiya rusiy» («Rossiyaning qisqacha jo’g’rofiyasi»), «Amaliyoti islom» kabi kitoblari darslik sifatida o’qitilgan.

Behbudiy ta’lim va tarbiya hamda uning muammolari to’g’risida boy publisistik meros qoldirdi. Jumladan, «Imon va islom», «Ixtiyoji millat», «Buxoroda usuli jadida», «Hurriyat – ozodlik – erkinlik», «Tahsil oyi», «Ikki emas to’rt til lozim», «Turkiston», «Millatni Kim isloh etar», «Yoshlarga murojaat», «Vatanparvarlik kerak», «Bizni kemiruvchi odatlar», «Buxoro xonligiga sayohat», «Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yohud taraqqiyning yo’li», «Bizga isloh kerak», «Haq olinur, berilmas», «Samarqandda milliy ishlar haqinda» va boshqalar.

Mahmudxo’ja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozilgan asarlari maktalarning islohida katta hodisa bo’ldi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo’llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo’qolganicha yo’q.

Behbudiy Turkistonning kelajagini uning yangi kadrlarida, mutaxassislarida va o’qimishli yoshlarida, deb bilardi. Shuning uchun ham u har bir yozgan maqolasida yangi taraqqiyotga javob beradigan kadr tarbiyalab yetishtirish masalasini qo’yardi.

5. Mahmudxo’ja Behbudiy maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari

Sharq xalqlarining ma’naviy hayotida, maktab va maorifida chinakam to’ntarish yasagan, turkiy qavmlarining chinakam iftixori bo’lgan Ismoilbek G’aspirali tomonidan ishlab chiqilgan «usuli jadid»ida nomi tarixda katta o’rin tutgani singari, Behbudiyning nomi ham Turkiston maktab-maorifida keng o’rin

egallaydi. U birinchi bo'lib o'lkada bu yangicha usuldagi maktablarni tashkil etishni targ'ibotchilaridan hamda amaliyotchilaridan hisoblanadi. Bu sohada Behbudiy Ismoilbek G'aspiralidan ko'p yangi tomonlarni o'rgandi. «Tarjimon» gazetasi Behbudiy uchun vaziyatni anglashda zaruriy vosita bo'ldi. Gazetaning dastlabki sonlarida: «Bir bechora faqirni ko'rsak, achinamiz. O'layotgan bechorani ko'rsak, yuragimiz iztirobda og'riydi. Hatto biror hayvonning qiynalishi rahmimizni keltiradi. Lekin bir emas minglab kishilarning, butun bir xalqning jaholatdan mislsiz qiynalayotganini ko'rmaysiz…», deb yozilgan satrlar bor. Keyin «Tarjimon» sahifalarida yangi maktablar tashkil etish, ilg'or va yangi fikrlarni berish keng o'rin egalladi. Bu esa Ilmoilbek G'aspiralining birinchi tomondan millatlar qardoshligini himoya etsa, ikkinchi tomondan umumdemokratik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Behbudiy o'ziga G'aspiralining tutgan yo'lini tanlaydi va undan maslahatlar oladi hamda maslakdosh bo'ladilar.

Behbudiy «usuli jadid» maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalari, maktabda o'tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilish, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta'minot masalalari va boshqa ko'p jihatlarini G'aspiralidan va uning asarlari hamda maqolalaridan o'rgandi. Shular asosida Turkistonda «usuli jadid» maktalarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. Nafaqat tashkil etish, u shu maktablarni kitoblar bilan ta'minlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o'z hovlisida maktab ochdi. Mashhur pedagog Abduqodir Shakuriyning yangi usuldagi maktabini o'z hovlisiga ko'chirib keldi.

Behbudiy butun vujudi bilan muallim edi. Uning o'zi ham yuqori sinf talabalariga jo'g'rofiya va tarixdan saboq berar edi. Misr, Turkiya, Qozon va boshqa joylardan olib kelgan turli yangi-yangi kitoblarini yuqori sinf o'quvchilariga hamda eng yaxshi o'qiganlarga va muallimlarga tortiq qilardi. U ne qilsa ulug' Turkiston uchun va uning kelajagi bo'lgan yoshlar uchun qilardi.

Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi –maktab, barcha ilmning boshi va ibtidosi maktab, saodatning, fozil insonning ma'naviy chashmasi maktab, degan aqidaga amal qilardi.

15-MA'RUZA

Mavzu: Yan Amos Komenskiyning pedagogika fani taraqqiyotidagi o'rni

REJA:

1. Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati, sinf-dars tizimining yaratilishi.
2. Yan Amos Komenskiy o'qitishning mazmuni, o'qitish qoidalari to'g'risida.
3. Yan Amos Komenskiyning tarbiyani tabiat bilan uyg'un holda olib borish haqidagi qarashlari.
4. Yan Amos Komenskiy ijodida odob-axloq, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalar.

Tayanch so’z va iboralar:

Sinf-dars tizimi, o’qish, o’qitish, o’qitish mazmuni, o’qitish qoidalari, ta’lim, tarbiya, odob, axloq, pedagogik fikrlar, maktab, tabiat, onalar maktabi, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, diniy tarbiya, o’qituvchi, o’quvchi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O’qituvchi», 1996, 146 bet
2.Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O’qituvchi», 1993, 204 bet.
3.Abdullayeva Sh. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.

1. Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati, sinf-dars tizimining yaratilishi

Maktab ta’limini tashkil etish, sinf dars tizimi. Komenskiy maktabda o’quv yili va uni o’quv choraklariga bo’lish to’g’risidagi tushunchani, kanikulni kiritdi, o’quv kunini qanday tashkil etish belgilab berdi. (ona tili maaktabida 4 o’quv soati lotincha maktabda 6 o’quv soati), o’quv mashg’ulotlarining sinf-dars tizimini nazariy jihatdan ishlab chiqdi va bu temani amalda qo’lladi.

O’sha vaqtlardagi maktablarda o’quvchilar maktabga butun yil davomida turli vaqtlarda qabul qilina berar edi. O’quvchilar garchi sinfda birga o’tirsalar ham, lekin ko’pincha sinfning hamma o’quvchilari bilan kollektiv mashg’ulotlar olib borilmas edi, har bir o’quvchi o’ziga berilgan darsni o’qir, maktabda har bir o’quvchi sinfdan-sinfga o’zining vaqtiga yarasha alohida-alohida ko’chirila berar edi. O’qituvchi har bir o’quvchini huzuriga chaqirib, u bilan yakka tartibda shug’ullanar edi. Komenskiy maktabga o’quvchilarni yilda bir martda qabul qilish, o’qituvchi butun sinf bilan kollektiv ish olib borishni talab etdi. U o’quv mashg’ulotlarini o’tkazishning sinf-dars tizimiga asos soldi, darsni qanday rejalashtirish va olib borish to’g’risida ko’rsatmalar berdi, darsning bir qismini o’quvchilardan so’rash yo’li bilan ularning bilimlarini hisobga olishga ajratishni, bir qismini esa yangi materialni berish va mashqlar o’tkazishga ajratishni taklif qildi.

U har bir darsning o’z temasi va o’z vazifasi bo’lish lozimligini aytdi. O’qituvchi hamma o’quvchilarning mashg’ulotlarda faol qatnashishlarini diqqat bilan kuzatib borishni va dars vaqtida sinfda intizom saqlashlari lozimligini Komenskiy alohida uqtirib o’tdi.

2. Yan Amos Komenskiy o’qitishning mazmuni, o’qitish qoidalari to’g’risida

Komenskiy hamma maktablar uchun umumiy bo’lgan bir tizim bo’lishi, bolalarning qaysi toifaga mansubligidan ota-onalarining kimligidan qat’iy nazar ona tilidagi maktablar hamma bolalar uchun umumiy va majburiydir, deb ta’kidlaydi.

Komenskiy boshlang’ich umumiy ta’lim g’oyasini ilgari surdi. U kambag’allarning bolalaridagi iste’dod bilim olmasligi tufayli halok bo’ladi deb g’azablanardi.

Komenskiy fikricha, tarbiyaning uch bosqichi va uch vazifasi mavjud:

1. O’zini va tevarak atrofidagi olamni bilish (aqliy tarbiya).

2. O’z-o’zini boshqarish (axloqiy tarbiya).

3. Xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya).

Komenskiyning O’rta asr pedagoglaridan farqi shuki, u birinchi vazifaning bajarilishiga katta e’tibor berdi. Tarbiyaga yuksak baho berdi. Inson tarbiya tufayligina insonga aylanadi, u har qanday bolani ham odam qilishi mumkin, deydi.

Komenskiy birinchi bo’lib **ko’rsatmalilik tamoyilini** asoslab berdi. U mumkin bo’lgan narsalarning o’zini, mumkin bo’lmaganlarda esa rasmlardan foydalanish kerak, deb ko’rsatadi. O’sha davrgacha to’plangan ko’rsatmalik tamoyili asosidagi bilimlarni umumlashtirdi, guruhlashtirdi va kengaytirdi, amalda keng qo’lladi.

Komenskiy o’qitishdagi dogmatik usulga qarshi chiqdiv a **onglilik** tamoyilini ilgari surdi. U ta’limning **tizimli** bo’lishini talab qildi. Uning fikricha, ta’limda **izchillik** tamoyili katta ahamiyatga ega. O’quvchilarning kuchi yetadigan narsani o’qitish kerak deb **didaktik** tamoyilni ilgari surdi. Komenskiy o’qitilayotgan materialni o’quvchilarning mustahkam, asosli ravishda o’zlashtirishlariga katta e’tibor berdi. Shuningdek, ovoz chiqarib takrorlashning ahamiyati kattaligini, o’quvchilarning qobiliyatini o’stirishi, nutqining rivojlanishi va rovon bo’lishi, o’quvchilarning bilish qobiliyatini imkon boricha kuchliroq o’stirishga harakat qildi.

3. Yan Amos Komenskiyning tarbiyani tabiat bilan uyg’un holda olib borish haqidagi qarashlari

Komenskiy barcha askarlarida, jumladan «Buyuk didaktika» asarida tarbiya tabiat bilan uyg’un bo’lishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. U tarbiyaning tabiatga uyg’un bo’lish tamoyilini birinchi bo’lib yaratdi. Bu tamoyil XVIII-XIX asr pedagoglari tomonidan ham qayta-qayta takrorlandi.

Komenskiy inson tabiatning bir qismidir, shuning uchun ham u tabiatga bo’ysunadi deb hisobladi. U «Buyuk didaktika» asarida bayon qilgan fikrlarning barchasi pedagogik tajribalari, orttirgan bilimlari bilan qimmatlidir. Bu asar din bilan sug’orilgan bo’lsa-da, unda tarbiyaning umumiy qonuniyatlarini isbotlab berishdagi fikrlari va ko’rsatmalari diqqatga sazovordir.

U o’z asarlarida bolaga tarbiya berishda inson tabiatiga (tug’ma belgilariga) e’tibor berishligini ko’rsatadi. U inson tabiatiga asoslanib, bolaning yosh davrlarini oralig’i 6 yildan bo’lgan 4 davrga ajratadi:

1) Go’daklik davri (tug’ilgandan 6 yoshgacha bo’lgan davr).

2) Bolalik davri (6 yoshdan 12 yoshgacha bo’lgan davr).

3) O’smirlik davri (12 yoshdan 18 yoshgacha bo’lgan davr).

4) Yetuklik (balog’at) davri (18 yoshdan 24 yoshgacha bo’lgan davr).

Komenskiy birinchi davrda bola jismoniy jihatdan o’sadi, ikkinchi davrda eslash qobiliyati, xayol ularning ijrochilari bo’lgan til va qo’l rivojlanadi, uchchinchi davrda bulardan tashqari tafakkur yuksak darajada o’sadi, to’rtinchi davrda esa iroda va uyg’unlikni saqlash qobiliyati o’sadi, deb ko’rsatadi. Bularning har qaysisi uchun alohida o’qitish bosqichlarini belgilab beradi.

1) 6 yoshgacha bo’lgan bolalar onalar maktabida tarbiyalanishi kerak. U bolaning maktab davrigacha oilada tarbiyalanishini **onalar maktabi** deb ataydi.

2) 6 yoshdan 12 yoshgacha bo’lgan bolalar uchun joylarda 6 yillik ona tilida maktablar bo’lishi kerak.

3) 12-18 yoshgacha bo’lgan bolalar uchun har bir shaharda latincha maktab yoki gimnaziya bo’lishi kerak.

4) 18-24 yoshgacha bo’lgan yoshlar uchun har bir davlatda yoki viloyatda akademiyalar bo’lishi kerak deb ko’rsatadi.

Komenskiy bu bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog’langan, biri-birining davomidir. U umumiy maktab bo’lishi kerak, deb demokratik tamoyilni ilgari suradi. 6 yoshgacha bo’lgan bolalar ijtimoiy hayot, tabiat, uy-ro’zg’or buyumlari to’g’risidagi dastlabki tushunchalarga ega bo’lishi kerak. Bu yoshdagi bolalarda insonparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo’ylik, kattalarga hurmat, ozodalik kabi xislatlar tarkib toptirilishi kerak.

Komenskiy dunyoda birinchi marta tarbiyaga doir «**Onalar maktabi**» qo’llanmasini ishlab chiqdi. U maktablarda dunyoviy fanlar o’qitilishini, ashula va qo’l mehnati o’rgatilishini uqtirib, boshlang’ich maktablarning ahamiyatini ko’tardi. Shubhasiz din darslariga ham katta e’tibor berdi.

4. Yan Amos Komenskiy ijodida odob-axloq, ta’lim-tarbiya haqidagi g’oyalar

Insonning o’zini-o’zi boshqarishi, Komenskiy fikricha, tarbiyaning 3 maqsadidan biridir. Bunga axloqiy tarbi vositasi bilan erishiladi.

Komenskiy Platon va Aristotel yo’lidan borib, donishmandlik, mo’tadillik, mardlik va odillikni eng asosiy fazilatlar, deb hisoblaydi. Narsalar to’g’risida to’g’ri, rost fikr yuritish fazilatlarning asosidir. Shu sababli donishmandlik fazilatli turmushning rahbaridir. Odamning har ishida o’ziga xos maarom bo’lishi, hyech narsadan tuyish va nafratlanish darajasiga borib yetmasligi uchun mo’tadil bo’lishi kerak.

Mardlik – o’zini tuta bilish, chidamlilik, burchni ado etish singari xislatlarni o’z ichiga olishdir.

U shulardan tashqari bolalarda kamtarlik, mo’min-qobillik, shafqatlilik, pokizalik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik xislatlarini tarbiyalashni axloqiy tarbiyaning asosi deb biladi. Komenskiy intizomning ahamiyati juda kattaligini ko’rsatdi. Buning isboti uchun u chexlarning «**Intizomsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmondir**», deb maqomini keltiradi. Uning eng katta xizmati shundaki, u o’rta asrdagi kaltak vositasi bilan o’rnatiladigan intizomga qarshi chiqdi, bolalarga insoniy muomala qilishni talab qildi.

«**Yaxshi yo’lga qo’yilgan maktab qonunlari**» nomli asarida o’quvchilar xatti-harakatlariga taalluqli qimmatli qoidalar bayon etilgan.

Komenskiyning pedagogika sohasidagi merosi ta’lim-tarbiyada ahamiyati juda kattadir. Uning ko’p tillarga tarjima qilingan darsliklari ko’pgina mamlakatlarda, shuningdek, XVII-XVIII asrlarda Rossiyada ham keng tarqaldi va 150 yildan ko’proq davr davomida eng yaxshi darslik sifatida xizmat qilib keldi. Uning asrlari, qimmatli fikrlari hozir ham o’z qimmatini yo’qotgani yo’q.

16-MA’RUZA

Mavzu: K.D.Ushinskiy va A.S.Makarenkolarning pedagogik g’oyalari

REJA:

1. K.D.Ushinskiyning pedagogik faoliyati.
2. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiya san’ati haqida.
3. K.D.Ushinskiyning dars hamda ta’lim metodikasi to’g’risidagi fikrlari.
4. A.S.Makarenkoning pedagogika fani va maktab taraqqiyotidagi o’rni.
5. A.S.Makarenkoning bolalarda jamoa orqali iroda, xarakter va intizomni tarbiyalash haqidagi g’oyalari.

Tayanch so’z va iboralar:

Ta’lim, tarbiya, maktab, pedagogika, pedagogik fikr, tarbiya san’ati, ta’lim metodikasi, bola tarbiyasi, pedagogika nazariyasi, jamoa, iroda, xarakter, intizom, anatomiya, fizmiologiya, psixologiya, falsafa, tarix, fanlar qonunlari, Ushinskiy, Makarenko.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O’qituvchi», 1996, 146 bet
2.Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O’qituvchi», 1993, 204 bet.
3.Abdullayeva Sh. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.

1. K.D.Ushinskiyning pedagogik faoliyati

Tarbiya predmeti bo’lgan odam to’g’risida chuqur ilmiy bilimlar bilan qurollangan keng ma’lumoti bor Ushinskiy pedagogika nazariyasini ishlab chiqishga kirishdi.

Ushinskiy pedagogika nazariyasi anatomiya, fizmiologiya, psixologiya, falsafa, tarix va boshqa fanlar qonunlarida foylanishga asoslangan bo’lish deb lozim deb ko’rsatdi. Bu nazariya pedagogik reseptlar bilangina chegaralanib qolmasdan, balki tarbiya qonunlarini ochib berish kerak edi. Uning zamonidagi pedagogika bilan Ushinskiy yaxshi tanishdir.

Ushinskiy pedagogika nazariyasining mavhum, kabinetdan tashqariga chiqmay tuzilishiga qarshi bo’ldi, shuning singari, pedagogikada empirizmga qarshi bo’lish kerakligini ogohlantirdi, muvaffaqiyatli bo’lsa ham faqat shaxsiy tajribagagina asoslanish yetarli bo’lmaydi deb ko’rsatdi. U nazariya bilan amaliyotning birligini talab qildi. Ushinskiy "Hyech qanday xulosa chiqarib bo’lmaydigan biron bir ideyadan kelib chiqmaydigan va o’zi ham hyech qanday ideya yaratmaydigan tajriba hyech nimaga arzimaydigan bir narsa bo’lib qolishi singari, hyech nimaga asoslanmagan quriq nazariya ham puch bir narsa bo’lib qoladi. Nazariya vokelikdan ajralmasligi, faktlar mulohazani rad qilmasligi kerak" deb yozgan edi. U nazaryasiz pedagogik amaliyotning medisinadagi qiyinchilikka o’xshatadi.

Ushinskiy "Pedagogik tarbiyaning ma’lum prinseplarini va tarbiya ishlarining aniq qoidalarini uzlashtirib olishgina kifoya qilmaydi" deydi. U yana "Kishi

tabiatning asosiy qonuniyatlarini bilishi va ularni har bir aniq hollarda ishlata bilish kerak, "-deb juda to’g’ri aytgan edi.

Ushinskiy "Agar pedagogika kishini bir jihatdan tarbiya qilmoqchi ekan, u eng avval kishi har jihatdan bilishi kerak"-degan edi.

Ushinskiy bu talabni amalga oshirib "Inson tarbiya predmeti sifatida" nomli 2 tomli kapital asarini yozdi va 3 chi tomini yozmoqchi bo’lib, materiallar to’pladi va tayyorladi. Ammo bevaqt o’lim 3 chi tomni yozishga imkoniyat bermadi.

2. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiya san’ati haqida

Tarbiya predmeti bo’lgan odam to’g’risida keng bilimga ega bo’lgan Ushinskiy pedagogika nazariyasini ishlab chiqishga kirishdi. Ushinskiy pedagogika nazariyasi anatomiya, fiziologiya, psixologiya, falsafa, tarix va boshqa fanlar qonunlaridan foydalanishga asoslangan bo’lishi kerak deb ko’rsatadi. Bu nazariya pedagogik reseptlar bilan cheklanib qolmasdan, balki tarbiya qonunlarini ochib berishi kerak. Ushinskiy pedagogik nazariyaning kabinetdan chiqmasdan tuzilishiga qarshi bo’ladi.. nazariya bilan amaliyot birligini talab qiladi. Nazariya voqyelikdan ajralmasligi, faktlar mulohazasini rad qilmasligi kerak deb uqtiradi.

K.D.Ushinskiy pedagogika kishini tarbiya qilmoqchi ekan, u avval kishini har tomonlama o’rganishi kerak deb ta’kidlaydi. O’sha paytda ikki oqim mavjud bo’lib, ular bir-biriga qarshi edi:

1. Metafizik psixologiya oqimi.
2. Yangi empirik psixologiya oqimi.

Ushinskiyning pedagogika tizimi xalqchillik g’oyasi asosida qurilgandir. U xilqchillik deb har bir xalqning o’ziga xosligini tushunardi ediki, bu o’ziga xoslik o’sha xalq yashashi va mehnat qilishi lozim bo’lgan tarixiy taraqqiyot, geografik va tabiiy sharoitlar bilan ifodalanadi.

U o’zining «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi haqida» maqolasida tarbiya xalqchillik ruhida bo’lishini, turli xalqlar tarbiyasida tarkib topgan alomatlarni xarakterlab beradi.

Ushinskiy bolalarga shunday tarbiya berish kerakki, ular o’z manfaatlaridan umum manfaatlarini ustun qo’ya olsinlar, deydi.

Ushinskiy bolaning faoliyati va faolligi uning tarbiyasi va ta’limida eng muhim shartlardan biridir deb to’g’ri hisoblaydi. U shu munosabat bilan bolalarni uyushqoqlika, ularning faoliyatida intilishni o’stirishga o’rgatish lozim bo’lgan bola hayotining rejimiga katta ahamiyat beradi. U har qanday tarbiyada mashq ahamiyatini muhim deb biladi.

Ushinskiy kishining kamolotga yetishi uchun jismoniy, aqliy hamda axloqiy tarbiyalari bir-biriga mos bo’lishi kerak deb hisoblaydi. Shuning uchun u tarbiyani garmonik o’sgan shaxsning tarkib topishida bir maqsadga qaratilgan ongli jarayon deb ataydi. U axloqiy tarbiyaga jiddiy e’tibor beradi. Axoloqiy tarbiya bolada insonparvarlik, vijdonlilik, rostgo’ylik, mehnatsevarlik, intizomlilik va mas’ulitni sezish, kamtarlik kabi xususiyatlarni o’stirishi lozim.

K.D.Ushinskiy ko’r-ko’rona, Tayeq intizomiga qarshi norozilik bildiradi. qo’rquv bolalarni juda yomon odatlarga o’rgatadi. Lekin uning nazariyasi din bilan

bog’liqdir. Uning fikricha, axloqiy tarbiya vositalari quyidagilardan iborat bo’lishi kerak:

1) ta’lim;
2) o’qituvchining shaxsan namuna bo’lishi;
3) e’tiqod;
4) o’quvchilarga mohirlik bilan munosabatda bo’lish;
5) ogohlantirish choralari;
6) rag’batlantirish va jazolash.

3. K.D.Ushinskiyning dars hamda ta’lim metodikasi to’g’risidagi fikrlari

K.D.Ushinskiyning didaktika sohasidagi qarashlari juda chuqurligi va maqbulligi bilan ajralib turadi. U ta’limni bolalar xususiyatlari va yosh bosqichlarini hisobga olib tashkil etish kerakligini talab qiladi. U o’qitish vaqtida bolaning diqqatidan foydalanish to’g’risida qimmatli ko’rsatmalar beradi, u ikki turli diqqat mavjudligini ko’rsatada: faol va nofaol diqqat.

Faol diqqat ixtiyoriydir. Nofaol diqqat esa g’ayri ixtiyoriydir. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib nofaol diqqatga oziq berish kerak, shu bilan bir vaqtda muhim bo’lgan faol diqqatni ham taraqqiy ettirish kerak deb hisoblaydi.

Ushinskiyning fikricha, ta’lim bolalarning kuchi yetadigan va izchil bo’lishi kerak. Dars o’tish jarayonida bolaning charchashiga yo’l qo’ymaslik kerak. U darsda bolalarning yoshini hisobga olib ko’rsatmalilik tamoyilini qo’llashni ma’qullaydi. Bolalar shakllar, ranglash, tovushlar, umuman sezgilar bilan fikrlaydi. Bunda ko’rsatilgan narsalarning aytilgan gapga mosligi bolalar dunyoqarashining rivojlanishiga, fikrlash qobiliyatining o’sishiga yordam beradi.

Ushinskiy o’zidan oldingi pedagoglar yaratgan ko’rsatmali ta’lim metodikasini ancha boyitdi. Masalan, u bolalarga ramslarga qarab mazmunini gapirishni, dars vaqtida foydalanilgan rasmlarni sinf devorlariga osib qo’yishni taklif qiladi. U ta’limni tarbiyaning eng muhim vositasi deb hisoblaydi.

Ushinskiy darsga katta e’tibor berdi. Maktabda o’quv mashg’ulotlarining muvaffaqiyatli bo’lishida sinf-dars tizimining o’ziga xos xususiyati o’quvchilar tarkibi doimiybo’lgan, maktabning asosiy bo’g’inini tashkil etuvchi sinfdagi mashg’ulotlarni jadval asosida olib borishni o’qituvchining o’quvchilar bilan yalpi (frontal) mashg’ulot olib borilishini, bunda o’qituvchining asosiy rol o’ynashini ko’rsatadi. Har bir dars ma’lum bir maqsadga qaratilgan bo’lishi kerak, unda ta’lim bilan birga tarbiya ham berilishi zarur. Darsda mashg’ulotlarni almashtirib, dars uslublarining xilma-xil bo’lishini tavsiya etadi.

Ushinskiy 1964 yilda yozgan «Rus tilini dastlabki o’qitish» nomli maqolasida qimmatli uslubiy ko’rsatmalar beradi va o’qitishning 3 ta vazifasi bor deb ko’rsatadi:

1) Bolaning nutqini o’stirish;
2) Bolalarni rus tilining imkoniyatlaridan ongli ravishda foydalanishga o’rgatish;
3) Tilning grammatikasini o’zlashtirish.

Bu vazifalar birgalikda bajariladi. Nutqni o’stirishda og’zaki va yozma mashq turlarini tavsiya etadi.

4. A.S.Makarenkoning pedagogika fani va maktab taraqqiyotidagi o'rni

Anton Semyonovich Makarenko o'z bilimini oshirish maqsadida 1914 yilda Poltavadagi o'qituvchilik institutiga kirib, uni 1917 yilda oltin medal bilan tamomlaydi. U 1917-1918 o'quv yilida Kryukovodagi oliy boshlang'ich maktabga inspektor (mudir) qilib tayinlanadi va pedagoglik ishiga zo'r qiziqish bilan kirishadi.

Xarkov maorif bo'limining mudiri 1920 yil sentyabr oyida Makarenkoni o'z huzuriga chaqirib, unga ko'chalarda boqimsiz yurgan bolalarni tarbiyalash vazifasini topshirdi. Bu ish Makarenko uchun yangi va g'oyat mas'uliyatli ish edi. Chunki bilimsiz boldalr bilan ishlash metodini na Makarenkoning o'zi va na maorif xodimlari bilar edi. Gap odamni yangicha tarbiyalash, barkamol inson tarbiyasi ustida borayotganini to'la tushunib yetgan A.S.Makarenko tezlik bilan bu ishga kirishib, Xarkov yaqinidagi bolalar koloniyasini tashkil etdi.

Anton Semenovich qo'liga berilgan bolalar o'tmishda jinoyat qilgan intizomsiz, mehnatga ko'nikmagan o'smir va yigitchalar edi. Makarenko ana shu yoshlardan Vatanga sodiq, intizomli, mehnatni sevadigan va ish biladigan haqiqiy fuqarolarni yetishtira oldi. O'zining uzoq yillik halol mehnati orqasidan boqimsiz bolalardan yangi odamlar – ajoyib talant egalarini tarbiyalab o'stirdi. Ular bilan bir qatorda o'zi ham mashhur pedagog, yozuvchi darajasiga ko'tarildi.

U bir necha pedagogik va publisistik asarlar yozdi. Uning «Pedagogik poema», «Minoralardagi bayroqlar», «O'ttizinchi ysillar marshi», «Ota-onalar kitobi», «Bolalar tarbiyasi to'g'riida leksiyalar», «Ta'lim-tarbiya tajribasidan ba'zi xulosalar» kabi asarlari uni o'ziga xos tarbiya maktabi yaratgan pedagog va adib sifatida tanitdi.

A.S.Makarenko o'z asarlari va bolalar tarbiyasiga oid bir qator metodik tavsiyalarida oiladagi tarbiya ishlari, intizom, ota-onalar obro'si, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, o'yin, madaniy malakani oshirish kabi dolzarb mavzularda yozilgan bo'lib, unda yoshlarni chidamli, irodali, quvnoq, axloqli, hyech qanday qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, haqiqiy vatanparvarlar qilib tarbiyalash g'oyalari ilgari surilgan.

Badiiy pedagogik asar sifatida jahon adabiyotida «Pedagogik poema»ga teng keladigan asar yo'q. Bu kitob kishiga chekisz ishonch va muhabbat, insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan, muallif unda kishilarni qayta tarbiyalash, jamiyatimizning faol binokorlari qilib yetkazishda yangi pedagogik tajribani, ish usullari va metodlarini batafsil tasvirlab bergan.

5. A.S.Makarenkoning bolalarda jamoa orqali iroda, xarakter va intizomni tarbiyalash haqidagi g'oyalari

A.S.Makarenkoning «Pedagogik poema» asari – bolalar jamoasi hayotini realistik asosda har tomonlama keng tasvirlab berilgan asardir.

Kitobning mazmuni boqimsiz bolalar kaloniyasidagi hayot, tarbiyachilarning faoliyati, ayrim qahramonlarning tarjimai holi, tarbiyasi buzilgan bolalardan yangi ruh, yangi axloqqa ega bo'lgan yangi kishilar tarbiyalab chiqarish uchun kurashdan iboratdir. Kitobning qahramoni murakkab voqyealarni boshidan kechirgan bolalar jamoasidir.

Makarenko bolalarni yakka tartibda o’rganishga, bolalar jamoasini tuzishga alohida e’tibor beradi. Uning fikricha, o’qituvchi bolalar jamoasini uyushtira olsa, u jamoa pedagogning ishonchli yordamchisiga aylanadi, shu jamoa yordami bilan pedagoglarni chuqur o’rgana oladi.

Makarenko fikricha, «jamoa – ijtimoiy tirik organizm… u o’zining organiga ega, unda vakillar bor, mas’uliyat bor… Bir-birlariga nisbatan bog’lanish bor, agar bo’lar bo’lmasa jamoaning o’zi ham bo’lmas, unda yolg’iz bosh-boshdoqlikkina bo’lar edi». Makarenko o’zining tizmini Gorkiy nomli bolalar koloniyasida to’la-to’kis amalga oshira oldi. Masalan, u har qanday og’ir va «ko’ngilsiz» ishni ham bolalar va otryadlar o’rtasida navbat bilan taqsim etar edi. Ko’ngilli va ko’ngilsiz, og’ir va yengil bo’lishidan qat’i nazar, zarur, foydali bo’lgan har qanday ishni zavq bilan bajarishga bolalarni odatlantirar, ularning mehnat malakalarini oshirib borar edi. Makarenko o’zining ko’p yillik pedagogik faoliyati davomida bolalar jamoasini yaratish sohasida tinmay ishladi va uni nazariy va amaliy jihatdan asosladi.

17-MA’RUZA

Mavzu: O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizmidagi islohotlar. Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlarida xalq ta’limi va pedagogika fani.

REJA:

1. O’zbekiston Respublikasi «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» haqida.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar va barkamol avlod tarbiyasi haqida.
3. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta’lim tizimi va maktablarda ta’lim-tarbiya amaliyoti.
4. Jahon rivojlangan mamlakatlaridagi zamonaviy-ijtimoiy bilimlar tizimida pedagogika fani va uning asosiy omillari.

Tayanch so’z va iboralar:

Ta’lim tizimi, ta’lim, tarbiya, umumta’lim maktablar, oliy ta’lim, islohot, rivojlangan mamlakatlar, AQSh, Yaponiya, Germaniya, pedagogika, barkamol avlod, «Ta’lim to’g’risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»

Adabiyotlar ro’yxati:

1.O’zbekiston Respublikasi «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni G’G’ «Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori», T.: «Sharq», 1997.
2.O’zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasuri» G’G’ «Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori», T.: «Sharq», 1997.
3. O’zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi. – T.: «O’zbekiston», 1993.
4.Karimov I.A. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», 1997.
5.Barkamol avlod orzusi. – T.: «Sharq», 1999.

1. O’zbekiston Respublikasi «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» haqida

O’zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasi (1997–yil 29 – avgust) da ta’lim-tarbiya tizimi tubdan isloh qilish va uni yangi zamon talaba darajasiga kutarishni nazarda tutuvchi muhim davlat hujjatlari «Ta’lim to’g’risida»gi Qonun va Kadrlar tayyoorlash milliy dasturi qabul kiligan. Shu munosabat bilan yurboshimiz barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori mavzusi nutq so’zlab ta’lim-tarbiya tizimida islohatlar o’tgazish zarurati va omillarini asoslab berdilar.

Ta’lim to’g’risidagi ushbu Qonun besh bo’lim 34 moddadan iborat bo’lib uning maqsadi fuqarolari ta’lim-tarbiya berish kasb–hunar o’rgatishning huquqiy asoslarini kabi konstitusiyaviy huquqini taminlashdan iborat.

1 – bo’lim «Umumiy qoidalar» deb nomlanadi. Unda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari bilim olish pedagogik faoliyat bilan shug’ullanish huquqlari, ta’lim berish tili kabi masalalar o’z ifodasini topgan.



2 – bo’lim ta’lim tizimi va turlari mohiyati yoritilgan. Masalan, 9 – moddada ta’lim tizimining mohiyati ifodalangan. Qonunga ko’ra ta’lim tizimimiz quyidagilarni o’z ichiga oladi. Davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim mussasalarini ta’lim tizimi rivojlanishi taminlash uchun zarur bo’lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy pedagogik muassalarni ta’lim sohasidagi davlat boshqaruo’ organlari, shuningdek ularga qarashli korxona muassasa va tashkilotlarni.

Mazkur Qonunning 10 – maddasida esa ta’lim quyidagi turlarda amalga oshirilish ko’rsatiladi. (3 – chizma)

Qonunning 11 – 17 modddalarida har turining mohiyati kiskacha yoritilib beriladi. Unda ta’kidlanganidek maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog’lom va

yetuk maqsadini ko’zlaydi. Maktabgacha bola ta’lim olti – yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarb boalalar muassalarida oshiriladi.

Umumiy o’rta ta’lim majburiy bo’lim u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi. Umumiy o’rta ta’lim o’quvchilarning fanlar asoslari bo’yicha muntazam bilim olishlar, ularda bilim o’zlashtirish ehtiyojini, asosiy o’quv ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadiryatlarga tugallanganidan keyin ta’lim fanlari va ular bo’yicha olingan baholar ko’rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan atestat beriladi.

Qonunda o’rta maxsus, kasb hunar ta’lim olish maqsadida har kim umumiy o’rta ta’lim asosida akadkmik litsey yoki las hunar kollejida o’qishning yo’nalishini ixtiyor ravishda tanlash huquqiga ega ekanligini takiklanadi. «Akademik liseylar va kasb-hunar bo’yicha ishlash huquqini beradiga hamda bunday ish yoki ta’limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo’ladigan o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradi».

Akademik liseylar o’quvchilar uxlari tanlab olgan ta’lim yo’nalishi bo’yicha bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chukur o’rganishda karatilgan maxsus kasb hunar ko’nikmalarini uzlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Bu ko’nikmalar o’qishni muayyan oliy ta’lim muassalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro’yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb hunar kolleji tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o’rta maxsus kasb – hunar ta’limi beradi o’quvchilarning kasb hunarga moiyligi imkoniyat beradi.

Oliy ta’lim yuqori malakali mutaxassis tayyordaydi, ikki bosqichda: bakalavriyat va magistraturada amalga oshadi. (Bu xakda to’liq ma’lumot olish uchun mazkur kullanmaning «Bakalavriat va magistratura-oliy ta’lim bosqichlari» mavzusiga karang.)

Qonunning uchinchi bo’limi ta’lim jarayoni katnashchilarini ijtimoiy himoya qilishga bagishlangan bo’lib, unda ta’lim oluvchilarni va ta’lim muassasi xodimlarini ijtimoiy himoya qilish yetim hamda jismoniy va ruxiy rivojlanishida nuksoni bo’lib bolalarni o’qish masalalari Qonuniy ifodasini topgan.

Turtinchi bo’limida ta’lim tizimi boshqarishdagi vazifalar maxkamasini ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatlar davlat organlarining vakolatlari ko’rsatilgan bulsa, beshinchi bo’limda Yakuniy qoidalar ifodalab beriladi.

O’zbekistonning Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 1997-yilning 29-avgustida qabul qilingan bo’lib u besh bo’limdan tashkil topgan. Dasturning ikkinchi bo’limida dasturning maqsad va vazifalari bilan birga ro’yobga chiqarish bosqichlari ham ko’rsatib berilgan. Dasturning maqsad va vazifalarini ketma- ket uch bosqichda amalga oshirish ko’zda tutilgan.

Birinchi bosqich 1997-2001 yillarni o’z ichiga qamrab olgan bo’lib, unda mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saklab kolish asosida ushbu tizimni isloh va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy–uslubiy, moliyaviy-moddiy shart sharoitlar yaratish ko’zda tutilgan edi. Bu bosqichda Ta’lim Qonuni asosida ta’lim tizimi va mazmuni qayta qurildi, umumiy o’rta va oliy ta’lim uchun DTSlar yaratildi, ta’lim jarayoni didaktik va axborot taminotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish boshlandi, o’rta maxsus

ta’lim uchin zarur moddiy texnika, o’quv uslubiy va kadrlar bazasi tayyorlandi, ta’lim muassasalari faoliyatiga baxo berishning reting tizimi joriy etila boshladi.

Ikkinchi bosqich 2001-2005 yillarni o’z ichiga qamrab olgan bo’lib, unda Milliy dasturni to’liq ro’yobga chiqarish, mehnat bozorini rivojlantirish va real ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish nazarda tutildi. Bu bosqichda quyidagi vazifalarni ham amalga oshirish muhim deb belgilangan:

Majburiy umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb hunar ta’limiga, shuningdek o’quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta’limga o’tishni to’liq amalga oshirish:

Ta’lim muassalarining maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan tuldirish, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltirish:

Ta’lim muassasalarining moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o’quv tarbiya jarayonini yuqori sifatli o’quv adabiyotlari va ilg’or pedagogig texnologiyalar bilan taminlash, uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish.

Bu bosqichda ta’lim xizmati ko’rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlarini to’liq ishga solish lozim. Hozirgi kunda ikkinchi bosqichda belgilangan vazifalar imkoniyat darajasida bajarilib, hayotga tadbiq etib kelinmoqda.

Uchinchi bosqich 2005 va undan keyingi yillarni o’z ichiga qamrab olgan bo’lib unda tuplangan tarjimani tahlil etish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirish va yanada rivojlantirish ko’zda tutilgan.

Bunda ta’lim muassalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanishi o’quv tarbiya javrayonini yangi o’quv uslubiy majmualar ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan bilan to’liq ta’minlanishi, milliy (elita) oliy ta’lim muassalari qaror topishi ko’zda tutilgan.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar va barkamol avlod tarbiyasi haqida

Prezident I.A Karimov o’z nutqlarida yoshlar katta ishonch bildirib O’zbekston kelajagi yoshlar qo’lida ekanligi ta’kidlar ekan, avvalo yoshlarni shunday ishonchga javob bera oladigan insonlar qilib yetishtirish o’qituvchi va tarbiyachilarning fidokor mehnati bilan bog’liqligini nazarda tutadi.

Yurtboshimiz o’zining qator nutqlari va e’tibordan chetda qoldirmaydi. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9 – sessiyasida so’zlagan nutqida jamiyatimizda ta’lim berish tizimi yangilanish jarayoni talabalari bilan yaqindan bog’lanmaganligi sabablaridan biri o’qituvchiga borib takalishini aytib o’tadi.

Mening fikrimcha, ta’lim-tarbiya tizimini o’zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda o’qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim berish deb talab qilamiz ammo zamonaviy bilim berishi uchun avvalo murabbiyning o’zi ana shunday bilmga ega bo’lishi kerak.

Bundan ko’rinib turubdiki, o’qituvchining o’zi avvalambor zamonaviy bilim bilan qurollangan bo’lishi lozim.

Ma’lumki, boshlang’ich sinflarda bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadi. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayoniga eng yetuk, tajribali murabbiylarni jalb etish lozim.

Mamlakatimizni rahbari o’zining «O’zbekiston o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li» (1992 y). «Millatimiz mafkurasi xalqni xalq millatni millat qilish xizmat kilsin» (1998 y) «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q». Bu jarayonda esa o’qituvchi munosabatini o’zgartirish talab etildi.

Bugungi kunda o’qituvchiga qo’yayotgan muhim talablardan biri ilg’or pedagogik texnologiyalar bilim tanishish amalga qo’llash va shular orqali bolalarni mustaqil fikrlashga o’rgatishdan iboratdir.

3. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta’lim tizimi va maktablarda ta’lim-tarbiya amaliyoti

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’limning mamalakat ichki siyosatiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e’tirof qilingan haqiqatdir. Ularda o’quv dasturlarini takomillashtirish va qayta qurishga katta e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi paytda o’quv dasturlariga integrasiyalashtirilgan kurslarni kiritish to’la amalga oshiriladi. Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e’tibor ortib bormoqda. Ular uchun o’quv dasturlari o’ziga xos uslubda tuzilgan.

Amirika Qo’shma Shtatlarida ta’lim tizimining quyidagicha:

- 3-5yoshgacha bolalar uchun maktabgacha ta’lim muassasalari;
- 1-8 sinflar uchun boshlang’ich maktablar (6-13 yoshda o’qiydilar);
- 9-12 sinflar uchun o’rta maktablar (14-17 yoshlilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat;
- oliy ta’lim, bu 2 yoki 4 yil o’qitiladigan kollejlar hamda universitetlarda amalga oshiriladi;
- universitet va boshqa oliy o’quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktarantura[1].

AQShda majburiy ta’lim 16 yoshgacha amal qiladi. O’quv yurtlari davlat, jamoa, xususiy va va diniy muassasalar ixtiyorida bo’lish mumkin. O’quv yili 180 kun, dars 45-50 minut. O’quvchilar ta’tilda ishlaydilar.

AQShda ta’lim tizimiga eng ko’p mablag’ ajratiladi. Bolalarning 95-99 %i boshlang’ich o’rta ta’limga jalb qilingan.

Bu yerda 3 yoshgacha bolali ayollarga moddiy imtiyozlar berilmaydi. 3-5 yoshda xususiy yoki davlat bog’chalariga boriladi.

Oliy ta’lim 4 bosqichda amalga oshiriladi: kichik mutaxassis, bakalavr, magistr, doktor. Birinchi bosqichni mamlakatimizdagi o’rta maxsus o’quv yurtlariga tenglashtirish mumkin. Bu 2 yillik kollej, keyin II bosqich 4 yillik

[1] Ж.Ғ.Ё`лдошев. Хорижда таълим. Т., «Шарқ» 1995 й, 15 б.

kollej va universitetlardir. Buni bitirganlar 1-darajali bakalavr bo'ladi. III-bosqich-magistr maktabi, o'qish 1-2 yil, IVbosqich-doktorantura, o'qish 3-4 yil.

AQShda ko'plab chet ellik talabalar ham o'qiydi. (350 mingdan ortiq).

Rivojlangan mamalakatlardan biri Yaponiyadagi ta'lim sohasiga qisqacha shart beradigan bo'lsak, quyidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin. 1947 yil «Ta'lim haqida qonun» qabul qilingan. Yaponiya ta'lim tizimi tuzilishi: -bolalar bog'chalari, -boshlang'ich maktab, -kichik o'rta maktab, -yuqori o'rta maktab, -oliy ta'lim tizimiga kiruvchi o'quv yurtlari.

Bolalar bog'chalariga 3-5 yoshlilar qabul qilinadi. Ularning 59,9 % xususiy, 49,8 %i tuman kengashlari, 0,3 %i davlat tasarrufidadir[2]. Majburiy ta'limga 6-15 yoshlilar jalb etiladi. 6 yillik boshlang'ich va 3 yillik kichik o'rta maktabda o'qiydilar, 9 yillik bu ta'lim majburiydir. O'qish va darsliklar tekin. Xohlovchilar xususiy maktablarda tahsil olishlari mumkin.

Yuqori bosqich o'rta maktabning kunduzgi, kichki, sirtqi bo'limlari bor. 95 % bola kunduzi ta'lim oladi. O'qish ixtiyoriy 3 yillik. Oliy ta'lim tizimiga kollejlar universitetlar kiradi. Bulardan tashqari turli «ixtisos maktablari» ham bor.

Yaponiya maktablarida o'qish 1 apreldan boshlanib, keyingi yil 31 martda nihoyasiga yetadi. O'quv yili 240 kun, darslar 7 soat. O'qituvchilar 4 yillik dorulfunun va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bolalarning axloqiy tarbiyasi doimo e'tiborda bo'ladi.

Yaponiyada 460 ta universitet bo'lib, ularda 1 mln 43 ming talaba tahsil oladi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar soni jihatidan Yaponiya 2-o'rinda turadi. Ming ishchiga 190 ta oliy ma'lumotli mutaxassis to'g'ri keladi. Bu AQShda ming kishiga 294, Buyuk Britaniyada 138, Fransiyada 115 nafardir.

Taraqqiy etgan mamalakatlardan biri bo'lgan Fransiya ta'lim tizimi boy va qadimiy tarixga ega. Hozirda amal qilayotgan qonun 1989 yil qabul qilingan. Davlat, xususiy va oraliq, maktablar bor. Xaftalik soat 26 soat, dars 60 minut, sinfda 35-40 o'quvchi bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya- 6-11 yoshli bolalar jalb etiladi. Bu maktab majburiy va bepuldir. O'qish 5 yil va 3 bosqichga bo'linadi. Dasturlarda o'quv predmetlarining barchasiga 3 bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talablar qo'yilgan.

O'rta ta'lim 11 yoshdan boshlanib, kollej va liseylarda davom etadi. Ikki bosqichda beriladi.

1-bosqich (11-15 yosh) 4 yil bo'lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5-4 o'rta, 3-sinf katta sinf xisoblanishi 6-5 sinflarda umumiy o'rta ta'lim beriladi: 4-3 sinflarda o'quvchilar qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi.

[2] Ўша жойдан. 29 б.

2-bosqich 15-18 yosh, o’qish 3 yil davom etadi. 3-sinf kichik, 4-sinf o’rta va yakkalanuvchi sinflarga bo’linadi.

Oliy ta’lim Frantsiyada universitetlar va turli oliy maktablarga beriladi. Universitetlar 3 siklda bilim beradi.

5. Jahon rivojlangan mamlakatlaridagi zamonaviy-ijtimoiy bilimlar tizimida pedagogika fani va uning asosiy omillari

Mustaqillikka erishganimizdan so’ng ta’lim sohasini isloh qilish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda «rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash»[1]ga alohida e’tibor qaratilmoqda.

«Ta’lim to’g’risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida» ta’limimiz tizimi va mazmuni xalqaro standartlar talablariga javob beradigan holda tashkil tilishi talab etiladi. Bu qonun hujjatlarida ta’lim-tarbiya sohasida xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish choralari belgilab berildi. Yurtboshimiz o’z nutqlari va chiqishlarida ham bunga oid qator ko’rsatmalar berdi. Masalan, Oliy Majlis IX sessiyasida: «Oliy o’quv yurtini isloh qilayotganda ularning boshqa davlatlardagi oliy o’quv yurtlari bilan aloqasini mustahkamlash zarur. O’z domlalarimiz bilan cheklanib qolmay, chetdan ham domlalar chaqirishni yo’lga qo’yishimiz kerak»[2],-deb ta’kidladi.

Shunday ta’lim sohasidagi xalqaro aloqalar kuchayib borayotgan bir paytda bo’lg’usi o’qituvchilar va umuman barcha ta’lim xodimlari ham jahon pedagogikasini, ayniqsa rivojlangan davlatlar ta’lim tizimining o’ziga xos jihatlarini bilishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

[1] Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Баркамол авлод –Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., «Шарқ» 1998 й., 39 б.

[2] Баркамол авлод –Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., «Шарқ» 1998 й., 12 б.Туркий гулустон ёхуд ахлоқ. Т. 1994 й.

2.2.2. Laboratoriya, amaliyot va seminar mashg’ulotlarning ishlanmalari, tarqatma materiallar, ularni o’tkazish va qo’llash bo’yicha metodik tavsiyanomalari.

O’zbekiston Respublikasi

Xalq ta’limi vazirligi

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat

pedagogika instituti

«Pedagogika» kafedrasi

«PEDAGOGIKA TARIXI» fanidan

seminar ishlanmasi

Ushbu seminar ishlanmasi kafedraning 2010 yil 28-avgustdagi yig’ilishida ko’rib chiqilib, mashg’ulotlarda foydalanishga tavsiya etildi.

Tuzuvchilar: Katta o’qituvchi: Sheranova M.
o`qituvchi: Farsaxonova D.

1-MASHG`ULOT

MAVZU: O’zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma’naviy tarbiya va ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo’nalishlari. **2 soat.**

REJA:

1. I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch” asarida inson ma’naviyati va ta’lim-tarbiya masalasining yoritilishi.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tarixiy merosimizdan foydalanish to’g’risida.
3. Prezident I.A.Karimov asarlarida ta’lim-tarbiya to’g’risidagi ilgari surilgan g’oyalar va ta’lim tizimini isloh qilish masalalari.
4. I.A.Karimov ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltirish haqida.
5. I.A.Karimov barkamol inson tarbiyasi haqida.

Darsning maqsadi: Talabalarga Prezident I.A.Karimov asarlarida barkamol avlod tarbiyasi va ta'lim-tarbiyani isloh etilishi haqida tushuncha berish.

Tayanch tushunchalar: barkamol inson,”Ma'rifiy meros”,”Ma'naviyat”, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q”, “Sharq Evropaning muallimidir”.

Darsning umumiy metodi: og`zaki (tushuntirish va baxs).

Talabalarga qo`yiladigan talablar: Adabiyotlarni taxlil qilish,ijodiy izlanuvchanlik, faol ishtirok, baxsda ishtirok etish.

O`qituvchiga qo`yiladigan talab: a) talabalar diqqatini jalb o`ilish; b) didaktik maqsadni tushuntirish; v) faollashtiradigan bilim va kunikmalarni rag`batlantirish; g) aniq reaktsiya paydo qiluvchi o`tsuv materiallariga yo`naltirish; d) talablar reaktsiyasini rag`batlantirish; e) talabalar xarakatlarini baxolash.

Dars jarayonida xar ikki tomondan (o`qituvchi va talaba) quyidagilarga aloxida e'tibor beriladi: kerakli bilimlarni etkazish-uzlashtirish ,reproduktiv darajadagi kunikmalarini shakinlashtirish-qabul qilish, faoliyatni yaxlitligicha va qismlarga bo`lib ko`rsatish,ko`nikmalarni soddalashtirgan sharoitda berish o`zlashtirish, uzliksiz qaytuvchan aloqa va ijodiy mustahkamlashga asoslangan mustaqil ishni tashkil etish, izlanuvchan, yaratuvchanlik fazasiga o`tish, muammoli vaziyatlar yaratish. Imitatsion modellash, talabalar o`z faoliyatini o`zlari tahlil qilish.

Ta'lim standarti va dastur asosida dars jarayonida quyidagi masalalarga alohida e'tibor beriladi.

Ta'lim – tarbiya haqida Prezidentimiz I.A.Karimovning fikrlari, klassik fikrlarni ochib beriladi. Prezident asarlarida ta'lim-tarbiya to`g`risidagi ilgari surilgan g`oyalar va ta'lim tizimini isloh qilish masalalari haqida tushuncha berish.

Mavzu,mavzuning moxiyati yuzasidan talabalar diqqatini jalb qilish. Darsdan ko`zlangan didaktik tarbiyaviy talabni to`g`ri kuya bilish, mavzu yuzasidan talabalarga tegishli bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishni, shu bilan birgalikda talabalarning o`zlashtirganlik darajasini baholash.

Mashg`ulotga tegishli reja va dasturlar DTS asosiga amalga oshiriladi. Bunda maktab ishlarini boshqarish masalalari ta'lim – tarbiya ishini tashkil etishning muhim omili ekanligi va bu ish ni amalga oshirishni oliygox partasidan o`rganib borish mashg`ulotning asosini tashkil etishni o`ktiradilar.

ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi. – T.: O’zbekiston 1993 yil
2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 174 b.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1999. – 184 b
4. Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyoti yo’li. – T.: O’zbekiston 1992 yil.
5. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori». – T.: Sharq 1997 yil.
6. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali, 1998 y. 2-son.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. «Muloqat» jurnali, 1998 y. 5-son.
8. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo’lida. – T.: O’qituvchi 1998 yil.

2-MASHG`ULOT

Mavzu: Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarda ta'lim-tarbiya**. 2 soat.**

REJA:

1.Eng qadimgi davrda tarbiyaning kelib chiqishi. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o’ziga xos xususiyatlari.

2. Qadimgi davlatlar Sug’diyona, Baqtriya, Xorazm davlatlarida ta’lim – tarbiyaning paydo bo’lishi va rivojlanishi.

3. Xalq og’zaki ijodida ta’lim-tarbiya mazmuni va usullarining ifodalanishi.

4. «Avesto»da ta’limiy-axloqiy masalalarni ifodalanishi.

5. Urxun-Enasoy obidalarining ta’limiy-tarbiyaviy mohiyati.

Darsning maqsadi: qadimgi davlatlarda ta'lim-tarbiyaning pvydo bo`lishi va xalq og`zaki ijodida ta'lim-tarpbiya usullarining ifodalanishi haqida bilim berish,kunikma va malaka xosil qilish.

Tayanch tushunchalar: Tarbiya-ijtimoiy hodisa, qadimiy yodgorliklar, Qadimiy madaniya, dastlabki yozuvlar, o`gitlar, So`g`diyona, Baqtiriya, Xorazmdavlatlari, xalq og`zaki ijodi.

Darsning umumiy metodi: og`zaki (tushuntirish va baxs).

Talabalarga qo`yiladigan talablar: adabiyotlarni taxlil qilish,ijodiy izlanuvchanlik,faol ishtirok, baxsda ishtirok etish.

O`qituvchiga qo`yiladigan talablar: a) talabalar diqqatini jalb o`ilish; b) didaktik maqsadni tushuntirish; v) faollashtiradigan bilim va kunikmalarni rag`batlantirish; g) aniq reaktsiya paydo qiluvchi o`tsuv materiallariga yo`naltirish; d) talablar reaktsiyasini rag`batlantirish; e) talabalar xarakatlarini baxolash.

Dars jarayonida xar ikki tomondan (o`qituvchi va talaba) quyidagilarga aloxida e'tibor beriladi: kerakli bilimlarni etkazish-uzlashtirish ,reproduktiv darajadagi kunikmalarini shakinlashtirish-qabul qilish, faoliyatni yaxlitligicha va qismlarga bo`lib ko`rsatish,ko`nikmalarni soddalashtirgan sharoitda berish o`zlashtirish, uzliksiz qaytuvchan aloqa va ijodiy mustahkamlashga asoslangan mustaqil ishni tashkil etish, izlanuvchan, yaratuvchanlik fazasiga o`tish, muammoli

vaziyatlar yaratish. Imitatsion modellash, talabalar o`z faoliyatini o`zlari tahlil qilish.

Ta'lim standarti va dastur asosida dars jarayonida quyidagi masalalarga alohida e'tibor beriladi.

Hozirgi o`zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha yil oldin yashagan bo`lib ular yuksak va o`ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda jkda katta va mashaqqatli yo`lni bosib o`tishgan.Ibtidoiy jamiyat taraqqiyotining birinchi bosqichida odamlar tabiatning tayyor mahsulotlarini is'temol qilganliklari,dastlab tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanishda ancha takomillashgan mehnat qurollari yasashgach,undan urug`chilik,qabilachilik davrlariga kelib, xo`jalik va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlargacha bo`lgan tariximiz ota-bobolarimizning boy qadimiy madaniyatga ega bo`lganligidan dalolat berishini,turkiy va forsiyzabon xalo`larning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo`lish namknasi ifodalangan ma'naviy madaniyat yodgorliklari haqida tushunchalar beriladi.

ADABIYOTLAR:

1. N.A.Karimov “Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi” Tosh.(Uzb)1997.
2. I.A.Karimov Manaviy yuksalishi yo`lida. Tosh.O`zb. 1998
3. Mirtursunov Z.F.O`zbek xalq pedagogikasi. T. Fan.
4. Raxmonov N. qadimiy xikmatlar. T. Adabiyot va san'at nashiryoti 1987
5. Abu Rayxon Beruniy qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar.

3-MASHG`ULOT

Mavzu: Hadis ilmining paydo bo’lishi, Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» hamda «As-saxix» asarlari. **2 soat.**

REJA

1. Hadis ilmining paydo bo’lishi va mashhur muxaddislarning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari.
2. Al-Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» va «As-saxix» asarlari hamda ularning mazmuni.
3. Hadislarda ta’lim va tarbiya uslublari.
4. Imom at-Termiziyning hadis ilmini rivojlantirishdagi xizmatlari.

Darsning maqsadi: talabalarga hadis ilmining paydo bo`lishi, hadislarning tarbiyaviy ahamiyati, “Aladabalmufrad”hamdaAssahih”asarlari,hadislarda ta'lim va tarbiya uslublari,Imom at-Termiziyning hadis ilmiga qo`shgan xissalari haqida tushunchalar berish.

Darsdagi asosiy tushunchalar:Hadis,sunna,hadis ilmi,muhaddis, hadis ilmida “Oltin davr”,hadislarda ilgari surilgan insoniy xislatlar:mehr-muruvvat, sahovat, ilm, hurmat-ehtirom,vatanga muhabbat,mehnat va kasb-hunarni ulug`lash, halollik, poklik, do`stlik, tinch-totuvlik.

Darsning asosiy metodlari: interaktiv, og`zaki, ko`rgazmali(tablitsa) amaliy mashg`ulotlar.

**Talabalarga qo`yiladigan talablar:** qo`shimcha adabiyotlarni tahlil qilish, ijodiy izlanuvchanlik, faol ishtirok, bahs-munozarada ishtirok.

O`qituvchiga qo`yiladigan talablar: a) talabalar diqqatini jalb etish, b) didaktik maqsadni tushuntirish, v) faollashtiradigan bilim va ko`nikmalarni rag`batlantirish, g) aniq reaktsiya paydo qiluvchi o`quv materiallariga yo`naltirish, d) talabalar reaktsiyasini rag`batlantirish, e) talabalar harakatini baholash.

Dars jarayonida har ikkala tomondan (o`qituvchi va talaba) tomonidan quyidagilarga alohida e'tibor beriladi: kerakli bilimlarni etkazish – o`zlashtirish, reproduktiv darajadagi ko`nikmalarni shakllantirish - qabul qilish, faoliyatni yaxlitligicha va qismlarga bo`lib ko`rsatish, ko`nikmalarni soddalashtirgan sharoitda berish – o`zlashtirish, uzluksiz qaytuvchan aloqa va ijodiy mustahkamlashga asoslangan mustaqil ishni tashkil qilish, izlanuvchan yaratuvchanlik fazasiga o`tish, muammoli vaziyatlarni yaratish, imtatsion modellash, talabalarning o`z faoliyatini o`zlari tahlil qilishi.

Ta'lim standarti va dastur talablariga asosan mavzu mohiyatini ochishda quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:“Hadis ”va “sunna”so`zlari bir ma'noni anglatib,Rasulullohning hayoti va faoliyatida diniy va ahloqiy ko`rsatmalari haqidagi rivoyatlarda iborat.Hadis dastlab yozib borilmagan.Hadislarni yod olgan kishilar tobora kamaya borgani hamda ast a sekin ular unitilib ketishining oldini olib xalifalar ishonarli hadislarni to`plaganlar.Islomshunos olimlar bu ishni boshida turgan dastlabki xalifa Umar ibn Abdulaziz ekanligini ta'kidlaydi. 8-9asrlar hadis ilmi uchun “Oltin davr”hisoblanadi.Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to`plamni yaratgan muhaddislar ham vatandoshlarimiz bo`lib,hadis ilmi rivojlangan 9 asrda yashab ijod etganlar.”Sahih” yo`nalishlarining asoschisi,eng etuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriydir.Imom al- buxoriy hadis ilmida “Amir ul-mo`minin”,”Iiom al-muhaddisiyn”(“Barcha muxaddislarning peshvosi”) degansharafli nomga sazovor bo`lgan. Imom al- buxoriy 4 jilddan “Al-jome' as-sahih”asarining bir jildida odob haqidagi hadislarni jam etgan.Alloma butun islom olami odob –axloq va tarbiyasi masalasiga bag`ishlangan “Al-adab al-mufrad”maxsus xadislar to`plamini yaratadi.Bu asar 644 bobda bayon etilgan 1322 hadisdan iborat.At-Termiziy ham o`ndan ortio` asarlar yaratib,ayniqsa,”Al-jome' as-sahih”, ”Ash-Shamoil an-Nabaviya” ”Al-ilal fi-l-hadis”asarlari mashhurdir. Hadislarda insonning ma'naviy kamoloti mezoni ,uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi,ilmiy bilimlarini qay darajada egallagani,o`z bilimi bilan atrofidagilariga,jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo`lib etishishida muxim omil-bilim deb ko`rsatiladi.

ADABIYOTLAR

1. 1.I.A.Karimov.”Istiqlol va ma'naviyat”.Tt.O`zbekiston,1994
2. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T. «O`zbekiston».2001-yil.
3. I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. T. «O`zbekiston» 1997-yil.
4. Buyuk siymolar,allomalar. M.M.Xayrullaev.T.Meros,1995

5. O`zbek pedagogikasi tarixi. (prof. A.Zunnunov taxr.ostida)T.O`qituvchi 1997
6. Hasanboev J,Hasanboeva O,.X.Hamidov “Pedagogika tarixi”T. O`qituvchi.1997

4-MASHG`ULOT

Mavzu: Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sinoning ta’lim – tarbiya to’g’risidagi qarashlari. **2 soat**.

REJA:

1. Farobiy aqliy tarbiya haqida.
2. Farobiy ta’lim – tarbiya uslubi, shakl va usullari haqida.
3. Farobiyning fozil insonni shakllantirishga oid qarashlarining hozirgi davrdagi ahamiyati.
4. Abu Ali ibn Sino fanlar tasnifi to’g’risida. Ibn Sino aqliy va jismoniy tarbiya haqida.
5. Abu Ali ibn Sino ta’limotida ta’lim va tarbiya usullari, shakl va metodlari.
6. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi haqida.

Darsning maqsadi: Talabalarga Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-pedagogik qarashlari,ta'lim sohasiga qo`shgan xissasi haqida bilimlar berish. Abu Ali ibn Sinoning “Mantiq haqida”asaridagi ta'lim-tarbiyaga oid pedagogik qarashlari,ta'lim-tarbiya usullari,shakl va metodlari haqida tushuncha berish.

Darsdagi asosiy tushunchalar: ta'lim-tarbiya, ta'lim-tarbiyani amalga oshirishdagi ikki yo`l(usul),ahloqiy fazilat,ma'mun akademiyasi,ilmiy bilim egallashdagiusullar,ahloqiy tarbiya,inson kamoloti,maktab ta'limi, tarbiya metodlari, “Hay ibn Yaqzon”asarida ta'lim-tarbiya,ahloqiy xislatlar,do`stlik.

Darsning asosiy metodlari: interaktiv, og`zaki bayon qilish, ko`rgazmalilik, amaliy mashg`ulotlar.

**Talabalarga qo`yiladigan talablar**: qo`shimcha adabiyotlarni tahlil qilish, ijodiy izlanuvchanlik, faol ishtirok, bahs-munozarada ishtirok etish.

O`qituvchiga qo`yiladigan talab: a) talabalar diqqatini jalb etish, b) didaktik maqsadni tushuntirish, v) faollashtiradigan bilim va ko`nikmalarni rag`batlantirish, g) Aniq reaktsiyalar paydo qiluvchi materiallarga yo`naltirish,d) talabalar reaktsiyalarini Rag`batlantirish, e) talabalar harakatini baxolash.

Dars jarayonida har ikkala tomondan (O`qituvchi va talaba) quyidagilarga alohida e'tibor beriladi: kerakli bilimlarni etkazish-o`zlashtirish, reproduktiv darajadagi ko`nikmalarni shakllantirish-qabul qilish, faoliyatni yaxlitligicha va qismlarga bo`lib ko`rsatish, ko`nikmalarni soddalashtirgan sharoitda berish-o`zlashtirish, uzluksiz qaytuvchan aloqa va ijodiy mustaxkamlashga asoslangan mustaqil ishni tashkil etish, izlanuvchanlik yaratuvchanlik fazasiga o`tish, muammoli vaziyat yaratish, imitatsion modellash, talabalarning o`z faoliyatini o`zlari tahlil qilish.

Ta'lim standarti va dasturiga asosan mavzu mazmunini ochishda quyidagilarga etibor beriladi:Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o`z bilimi,fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Abu Nasr Forobiyni yirik

mutafakkir-“Muallimi soniy”,”Ikkinchi muallim”deb ataydilar. Abu Nasr Forobiy etmishdan ortiq tilni bilgan. Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag`ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi,unda nimalarga e'tibor berish zarurligi,ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritiladi.”Fozil odamlar shaxri”,”Baxt-saodatga erishuv to`g`risida”,”Ixso-al-ulum”,”Ilmlarning kelib chiqishi”,”Aql ma'nolari to`g`risida”kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy karashlari o`z ifodasini topgan.Farobiy o`z ishlarida,ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo`lsa ham,amma har birining insonni kamolga etkazishda o`z o`rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta'kidlaydi.Farobiy ta'limda barcha fanlarnng nazariy asoslarini o`rganilsa,tarbiyada ma'naviy-ahloqiy qoidalari,odob me'yorlari o`rganiladi,kasb-g`unarga oid malakalar hosil qilinadi,deb uqtiradi.Farobiy ta'lim-tarbiya ishlarini ikki yo`l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.”Amaliy fazilatlar va amaliy san'at(kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasi”ga kelganda, bu odat ikki yo`l bilan hosil qilinadi:birinchisi –qanotbaxsh so`zlar,chorlvchi,ilhomlantiruvchi so`zlar yordamida odat hosil qilinadi,malakalar vujudga keltiriladi,.odamdagi g`ayrat ,qasd-intilish xarakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo`l –majbur etish yo`li. Bu usul gapga ko`nmovchi qaysar shaxarliklar va boshqa saxroyi xalqlarga nisbatan qo`llaniladi.Chunki ular o`z istaklaricha, so`z bilan g`ayratga kiradiganlardan emaslar.Farobiy ta'lim-tarbiyada rag`batlantirish,odatlantirish,majbur etish metodlarini ilgari surgan.Har ikkala usul ham pirovardida tinsonni xar tomonlama kamolga etkazish maqsadini ko`zlaydi.

ADABIYOTLAR

1.I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Tosh. «O`zbekiston» 1996yil.

2.I.A.Karimov.”Istiqlol va ma'naviyat”.Tt.O`zbekiston,1994

3.Abu Nasr Farobiy.”Fozil odamlar shaxri ”.T.Xalq merosi nashr,1993

4.Pedagogikatarixi.K.Xoshimov,S.Nishonova,.M.Inomova,R.Hasanov

5.” Ko`xna sharq darg`alari”. Hamidjon Xamidiy.

5-MAShG`ULOT.

Mavzu: Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Amir Temur, Ulug`bek, Zaxriddin Muxammad Boburlarning ta'limiy-axloqiy qarashlari. **2 soat**.

REJA:

1. XIV-XVI asrlarda fan,madaniyat,ma'rifat taraqqiyoti.
2. Amir Temur va uning etuk inson tarbiyasiga oid qarqshlari.
3. Ulug`bekning fan,madaniyat,ma'rifat taraqqiyotidagi xizmati,hamda ta'lim-tarbiya tizimi ,metod vausullariga oid qarashlari.
4. Ulug`bekning ilmiy merosining jahon fani taraqqiyotidagi tutgan ырни.
5. Zaxriddin Muxammad Boburning ma'rifiy-axloqiy qarashlari.
6. Temuriylar sulolasining ilm-ma'rifati taraqqiyotidagi o`rni .

Darsning maqsadi: Talabalarga temuriylar davrida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti,Amir Temur,Ulug`bek,Zaxriddin Muxammad Boburlarning ta'limiy-axloqiy qarashlari haqida tushuncha berish.

Darsdagi asosiy tushunchalar:”Markazlashgan davlat”,madrasa va maktab, ilm-fan,madaniyat,san'at,” Amir Temur tuzuklari,”Ziji kuragoniy ”Ulug`bekning ta'lim isloxatlari”,Boburnoma”.

Darsning umumiy metodi: og`zaki bayon etish, ko`rgazmali, amaliy mashg`ulotlar, interfaol.

**Talabalarga qo`yiladigan talablar**: qo`shimcha adabiyotlarning tahlil qilish, ularni o`rganib konspektlashtirish, ijodiy izlanuvchanlik, faol ishtirok, baxsda ishtirok etish, qo`yilgan muammolarni og`zaki bayon etish

O`qituvchiga qo`yiladigan talab: a) Talabalar diqqatini jalb qilish; b) didaktik maq-sadni tushuntirish; v) faollashtiradigan bilim va kunikmalarni rag`batlantirish; g) aniq reaktsiya paydo qiluvchi o`quv materiallariga yo`naltirish; d) talabalar reaktsiyasini rag`batlantirish; e) talabalar harakatlarini baholash.

Dars jarayonida xar ikki tomondan (o`qituvchi va talaba) kuyidagilarga aloxida e'tibor beriladi: kerakli bilimlarni etkazish-uzlashtirish, reproduktiv darajadagi kunikmalarni shakillantirish-kabul kilish, faoliyatni yaxlitligicha va kisimlarga bulib kursatish, kunikmalarni soddalashtirgan sharoitda berish uzlashtirish ,uzluksiz kaytuvchan aloka va ijodiy mustaxkamlashga asoslangan mustakil ishni tashkil etish, izlanuvchan, yaratuvchanlik fazasiga utish, muammoli vaziyatlar yaratish. Imitatsion modellash, talabalar uz faoliyatini uzlari tahlil kilish.

Ta'lim standarti va dasturi talablari asosida mavzuning mazmunini ochishda quyidagilarga aloxida e'tibor beriladi:Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukumronlik qilgan davr Movarounnaxr tarihida alohida o`rin egallaydi.Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnaxrda yana fan va madaniyat,maorif qaytadan ravnaq topa boshladi.Shuning uchun xam tarixda 14 asrning ikkinchi yarmi va 15 asr O`rta Osiyoda Sharq Uyg`onish davrining ikkinchi bosqichi deyilishi bejis emas.. chunki,bu davrga kelib,Markaziy Osiyoda iqtisodiyot,fan va madaniyat gurkirab rivojlandi.Amir Temur hukumronligi davrida jahonning ko`plab shaxarlaridan Samarqantga Hunarmandlar,san'atkorlar,muhandislar,olimu-fuzalolar olib kelindi va ularning tajribalaridan ilm-ma'rifat,madaniyat va qurilish jabhalarida keng foydalanildi.Soxibqiron Temur va temuriylar davrida-she'riyat,mantiq,falsafa,tarix,huquq,astronomiya,matematika,nafosat,tilshunoslik,lug`atshunoslik,musiqashunoslik,tarbiyashunoslik,me'morshunoslik,tijorat-tadbirkorlik,tarjimonlik,hattotlik,jo`g`rofiya va elshunoslik kabi boshqa o`nlab dunyoviy bilimlarni o`rganish ,shu bilimlar asosida asarlar yaratish yo`lga qo`yildi.

Ulug`bek zamoniga kelib esa matematika,astiranomiya kabi fanlar rivoj topdi.Tibbiyot,tarix,adabiyot va shular bilan bir qatorda diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e'tibor berildi.Oliy maktab-madrasalar qurildi.Buxoro,Samarqand va g`ijduvonda qurilgan uch madrasa fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo`lib keldi.Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha yaqqol ko`zga tashlanadi:”Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir”.Ulug`bekning

falakiyot maktabi o`z davrining akadimiyasi(“Dorul-ilm”) bo`lgan va o`rta asrlar musulman Sharqi falakiyotining rivojiga katta ta'sir ko`rsatgan.Zaxriddin Muxammad Bobur hayotlik paytidayoq o`ziga xos ma'rifiy maktab yaratdi.Bobur hayotiy estaliklar yozish maktabini “Boburnoma”asari orqali boshlab berdi.Gulbadanbegim otasi Bobur vafotidan so`ng bu maktabni davom ettirib,”Humoyunnoma”asarini yozdi.Bu maktab XX-asr adabiyotida ham davom etdi.”Boburnoma”nisbatan tor ma'noda bo`lsada,yozuvchi yashagan davrni,muxitni bir muncha aks etgan.Soxibqiron Amir Temur va temuriylar hukmrorlar hamda ularning avlodlari o`qimishli,fan va madaniyatni egallagan,zukko insonlar bo`lib,ularning bizga qoldirgan ilmiy merosi bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR.

1. A.Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T., «O`zbekiston» 1996 yil.
2. O`zbek pedagogikasi tarixi. (prof. A.Zunnunov taxr.ostida)T.O`qituvchi 1997
3. Hasanboev J,Hasanboeva O,.X.Hamidov “Pedagogika tarixi”T. O`qituvchi.1997
4. T.Qurbonov. Odobnoma. T. «O`qituvchi», 1994 yil

6-MASHG’ULOT

Mavzu: Alisher Navoiy ta’lim to’g’risida. **2 soat.**

Reja:

1. Alisher Navoiyning ilmiy-ma’rifiy faoliyati.
2. “Hayrat ul-abror” dostonining tuzilishi, mazmuni va dostonda ilgari surgan ta’limiy ahloqiy qarashlar.
3. “Mahbub ul-qulub” asarining yaratilishi va asarda inson kamolotiga xos hislatlarning yotilishi.
4. Alisher Navoiyning ta’limiy-ahloqiy asarlarida ta’lim-tarbiya usullari va uslublari.
5. Alisher Navoiy maktab va madrasalar, o’qituvchi-ustoz haqida.
6. Alisher Navoiy ma’rifir qarashlarining ta’lim-tarbiya tarixida tutgan o’rni.

Darsning maqsadi: Alisher Navoiyning ilmiy-ma’rifiy faoliyati, “Hayrat ul-abror” dostoni, “Mahbub ul-qulub” asarlarining yaratilishi, asarlarda ilgari surilgan ta’limiy-ahloqiy qarashlar haqida tushuncha berish.

Darsdagi asosiy tushunchalar. Alisher Navoiyning tarbiya konsepsiyasi, yaxshilik va yomonlik, munosib va nomunosib kishilar.

Darsning umumiy metodi: Og’zaki bayon etish, ko’rgazmali, amaliy mashg’ulotlar, inter faol.

Talabalarga qo’yiladigan talablar: Qo’shimcha adabiyotning tahlil qilish, ularni o`rganib konspektlashtirish, ijodiy izlanuvchanlik, faol ishtirok, baxsda ishtirok etish, qo`yilgan muammolarni og`zaki bayon etish.

O`qituvchiga qo`yiladigan talab: a) Talabalar diqqatini jalb qilish; b) didaktik maq-sadni tushuntirish; v) faollashtiradigan bilim va kunikmalarni

rag`batlantirish; g) aniq reaktsiya paydo qiluvchi o`quv materiallariga yo`naltirish; d) talabalar reaktsiyasini rag`batlantirish; e) talabalar harakatlarini baholash

Dars jarayonida xar ikki tomondan (o`qituvchi va talaba) kuyidagilarga aloxida e'tibor beriladi: kerakli bilimlarni etkazish-uzlashtirish, reproduktiv darajadagi kunikmalarni shakillantirish-kabul kilish, faoliyatni yaxlitligicha va kisimlarga bulib kursatish, kunikmalarni soddalashtirgan sharoitda berish uzlashtirish ,uzluksiz kaytuvchan aloka va ijodiy mustaxkamlashga asoslangan mustakil ishni tashkil etish, izlanuvchan, yaratuvchanlik fazasiga utish, muammoli vaziyatlar yaratish. Imitatsion modellash, talabalar uz faoliyatini uzlari tahlil kilishlari.

Ta'lim standarti va dasturi talablari asosida mavzuning mazmunini ochishda quyidagilarga aloxida e'tibor beriladi:

Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san’atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlarini rivojlantirish bilan birga, ta’lim-tarbiyani takomillashtirishga ham alohida e’tibor berdi. U o’z “Hamsa” sida, “Mahbub ul-qulub” kabi yirik ta’limiy asarlarida tarbiyaga oid o’z qarashlarini ifoda etadi. Alisher Navoiy o’zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbiya to’g’risidagi fikrlarini ifodalagan bo’lsa, ta’limiy-ahloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo’llari, usullarini bayon etadi. Alisher Navoiyning qarashlariga ko’ra inson tabiati tabiat bilan bog’liq, shunga ko’ra xudoning mevasi sanaladi. Inson o’ziga xos hislatga, xulqqa, hatti-harakatga ega bo’lganligi uchun ham boshqa mavjudodlardan ham farq qiladi.

Shuning uchun ham Alisher Navoiy butun umr yiqqan tashribasi asosida “Mahbub ul-qulub” (“Ko’ngillarning sevgani”) asarini yozadi va ana shu asarida o’zining “Hayrat ul-abror”, “Nazmul javohir” va boshqa ta’limiy-ahloqiy asarlaridagi ahloqiy qarashlarini rivojlantiradi. Uning mazkur asarini yozishidan maqsadi ham muqaddimada bayon etilgan: “Har ko’cha kuyda yuribman va olim ahlidan har xil kishilarga o’zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe’l-atforini bilibman, yomon-yaxshi hislatlarini tajriba qilibman”.

Alisher Navoiy muqaddimada kishilarni ikki guruhga “Munosib kishilar” va “Nomunosib kishilar” ga bo’lib, hayotda inson ana shu nomunosib kishilardan o’zlarini tiyishi va yaxshi-yomonini ajrata olishida “Mahbub ul-qulub” dan foydalanish zarurligini ta’kidlaydi. Demak, Navoiy hayot tajribalari asosida yoshlarni haqiqiy, komil inson bo’lishga undaydi va hayot saboqlaridan xulosa chiqarishda ushbu asardan foydalanish mumkin deydi. “Hayrat ul-abror” dostonining o’n birinchi maqolatida ilmni shunday sharhlaydi: “Ilm sehrining baland axtarligidakim, jahl tutun yoritmoq uchun” “ayn” I, quyoshdan va “lom”I oydin va “mim” kunsuzidin nishona aytur. Va jahl shomi tiyra manzarlig’idakim, g’aflat chog’ini zalolat kechasida zohir qilib, bu kechada shahovatdin afsona aytur.

ADABIYOTLAR:

1. Hoshimov K, Nishomova S, Inomova M, Hasanov R Pedagogika tarixi T O’qituvchi 1996 yil.

2. Buyuk siymolar,allomalar. M.M.Xayrullaev.T.Meros,1995

3. O`zbek pedagogikasi tarixi. (prof. A.Zunnunov taxr.ostida)T.O`qituvchi 1997
4. Hasanboev J., Hasanboeva O, Hamidov X. “Pedagogika tarixi”. T. O`qituvchi.1997
5. A.Navoiy Tanlangan asarlar. 15 tomlik. 1992-2005y.

7-MASHG’ULOT

Mavzu: Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati va ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari. **2 soat.**

REJA:

1. Avloniyning hayoti va ijodiy yo’li.
2. Avloniy tashkil etgan maktablar va darsliklar. (“Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”).
3. “Turkiy Guliston yohud ahloq” asarida komil inson tarbiyasiga oid ilgari surulgan g’oyalar.
4. Avloniyning ta’lim tarbiya to’g’risidagi qarashlarining ahamiyati.

Darsning maqsadi: Talabalarga Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limoti, tarbiya yo’nalishlari va “Turkiy Guliston yohud ahloq” asarining yaratilishi va tafsifi haqida tushuncha berish.

Darsdagi asosiy tushunchalar: Tarbiya, ahloq, xulq, tarbiyaning zamoni, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, ahloq tarbiyasi, yaxshi xulqlar, yomon xulqlar, aqliy tarbiya, vijdonni ulug’lash, vatan muhabbati, inson odobi.

Darsning umumiy metodi: Og’zaki bayon etish, ko’rgazmali, amaliy mashg’ulotlar, inter faol.

Talabalarga qo’yiladigan talablar: Qo’shimcha adabiyotning tahlil qilish, ularni o`rganib konspektlashtirish, ijodiy izlanuvchanlik, faol ishtirok, baxsda ishtirok etish, qo`yilgan muammolarni og`zaki bayon etish.

O`qituvchiga qo`yiladigan talab: a) Talabalar diqqatini jalb qilish; b) didaktik maq-sadni tushuntirish; v) faollashtiradigan bilim va kunikmalarni rag`batlantirish; g) aniq reaktsiya paydo qiluvchi o`quv materiallariga yo`naltirish; d) talabalar reaktsiyasini rag`batlantirish; e) talabalar harakatlarini baholash

Dars jarayonida xar ikki tomondan (o`qituvchi va talaba) kuyidagilarga aloxida e'tibor beriladi: kerakli bilimlarni etkazish-uzlashtirish, reproduktiv darajadagi kunikmalarni shakillantirish-kabul kilish, faoliyatni yaxlitligicha va kisimlarga bulib kursatish, kunikmalarni soddalashtirgan sharoitda berish uzlashtirish ,uzluksiz kaytuvchan aloka va ijodiy mustaxkamlashga asoslangan mustakil ishni tashkil etish, izlanuvchan, yaratuvchanlik fazasiga utish, muammoli vaziyatlar yaratish. Imitatsion modellash, talabalar uz faoliyatini uzlari tahlil kilishlari.

Ta'lim standarti va dasturi talablari asosida mavzuning mazmunini ochishda quyidagilarga aloxida e'tibor beriladi:

Taniqli o’zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida uning 1913 yilda yozilgan “Turkiy Guliston yohus ahloq” asari XX asr boshlaridagi pedagogik taraqqiyotini o’rganish sohasida katta ahamiyatga

molekdir. Bu asar mazmun tomondan muallifning boshqa ijtimoiy va pedagogik asarlari bilan uzviy bog'liqdir. "Turkiy guliston yohur ahloq" asari ahloqiy va ta'limiy-tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chorlovchi yomonlikdan qaytaruvchi, ilm ahloq haqida fikr yuritiladi. Abdulla Avloniy pedag sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib "Agar bir kishi yoshligidan nafsi buzilib tarbiyasiz, ahloqsiz bo'lib o'sdimi, ollohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmoqdir" deydi. Avloniy tarbiyadagi asosiy g'oya bu bizlar uchn "Yo hayot, yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" deya mushohada qilishi uning tarbiya sohasida juda katta va keng bilimga ega ekanligi, komil insonni tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning har bir yo'nalishiga e'tibor berish kerakligini, ong va tafakkurni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda tarbiya katta rol o'ynashini mohirona ifodalay bilishi, tahsinga loyiqdir.

Bu go'ya o'z navbatida yosh avlodni vatanparvarlik, elu yurtga sadoqat, insonparvarlik, odamiylik, oliyjanoblik, mehnatsevarlik, iffatli, mehr-oqibatli, intizomli, adolatparvar, millat g'ururini e'zozlovchi, ulug' ajdodlarimiz an'analari va ilmiy meroslarini ko0'z qorachig'iday asrash ahloqiy pok inson bo'lib yetishish borasidagi asosiy mezon hosoblanadi.

Abdulla Avloniy tarbiya yo'nalishlarini to'rtga bo'ladi. "Tarbiyaning zamoni", "Badan tarbiyasi", "Fikr tarbiyasi", "Ahloq tarbiyasi". Avloniy "Turkiy gulston yohud ahloq" kitobida ilm haqida yana shunday deydi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy muqaddas bir fazilatdir. Zeroki ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'rkir qilur… Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir".

ADABIYOTLAR:

1. Abdurasulov M O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm ma'rifat haqida.
T. O'qituvchi 1992 yil.
2. Tursunov I Istiqlolga intilgan qalblar nidosi. T. 1993 yil.
3. A. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axlo?" T. 1998 y.

8-MASHG`ULOT.

Mavzu: Abulqodir Shakuriy va Maxmudxo`ja Behвudiylarning pedagogik faoliyati. **2 soat.**

REJA:

1. Yangi usul maktablarining tashkil etilishida Shakuriy va Behbudiylarning faoliyati.
2. Shakuriy va Behbudiylarninig maktab,o`qitish mazmuni haqidagi fikrlar.
3. Shakuriy va Behbudiy tomonidan yaratilgan maktab darsliklari va ularning tavsifi.
4. Shakuriy va Behbudiylarning maktab va maorif,pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan o`rni.

Darsning maqsadi: talabalarga Shakuriy va Behbudiylarning pedagogik faoliyati, yaratilgan maktab darsliklari, maktab va maorif taraqqiyotida tutgan o`rni haqida tushuncha berish.

Darsdagi asosiy tushunchalar: .”Padarkush”, Turkistondagi tarixiy sharoit, 19-20 asr boshlarida maktab va pedagogik fikrlar

Darsda qo`llaniladigan metodlar: “Aqliy hujum”, klaster, kichik guru?larda ishlash.

O`quv materiallini og`zaki bayon qilish: hikoya, suhbat va mavzuni tushuntirish, ko`rgazmali metodi: illyustratsiya, demokstratsiya va ekuskursiya; Amaliy Mashg`ulotlar metodi: amaliy ishlar, labaratoriya ishlari.

Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, kompyuter texnologiyalari, slaydlar, markerlar
Ta'lim berish sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya, o'quv xonasi
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob

Tarbiyaning umumiy metodlari va shakllari mavzusining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
4. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Ma’ruza mashg’uloti nomini aytadi, Proyektor orqali ma’ruza mashg’uloti rejalarini ekranga chiqaradi. Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini e’lon qiladi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
2-bosqich asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1 Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol-javob usulini qo’llaydi: Sharq Uyg’onish davrining o’ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? IX-XII asrlarda yashab ijod etgan mutafakkirlardan kimlarni bilasiz? Kaykovusning «Qobusnoma» asarida ta’lim-tarbiya masalalari qanday yoritilgan? Abu Nasr Farobiyning qanday asarlarini bilasiz? 2.2.Javoblarni to’ldiradi, umumlashtiradi va bugungi o’quv mashg’ulotida ushbu savollarga kengroq javob olishlarini aytadi. 2.3 Ekranda slaydlar namoyish qilish orqali ta’lim metodlari to’g’risida to’liq ma’lumot yuyeradi. Talabalar diqqatini tarbiya metodlari, ularning tasnifi, tarbiya shakllari to’g’risidagi ma’lumotlarga qaratadi, Yosh avlodni tarbiyalash yo’lida qo’llaniladigan metod va usullarning ahamiyatini asoslaydi. 2.5 Mavzu bo’yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi.	Savollarga javob beradilar, fikrlarini bildiradilar. Tinglaydilar, zarur ma’lumotlarni yozib oladilar
3.Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo’yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo’yicha egallangan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanini alohida qayd etadi hamda kelajakda Ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi to’g’risida ma’lumot beradi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: O’tilgan mavzu bo’yicha B/B/B jadvalini to’ldirib kelish. Ikkinchi mavzu bo’yicha keyingi o’quv mashg’ulotiga tayyorlanib kelish.	Savol beradilar. Vazifani yozib oladilar

AQLIY HUJUM METODINING ASOSIY QOIDALARI

- Ilgari surilgan fikr va g’oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi.
- Taklif qilinayotgan fikr va g’oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo’lsa ham, uni baholashdan o’zingizni tiymang.
- Tanqid qilmang-hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir.
- Fikr bildirilayotganda gapni bo’lmang.
- Maqsad- fikr va g’oyalar sonini ko’paytirish.
- Qanchalik ko’p fikr va g’oya bildirilsa, shunchalik yaxshi. Yangi va bebaho fikr va g’oyaning paydo bo’lish ehtimoli paydo bo’ladi.
- Agar fikrlar qaytarilsa, asabiylashmang va hayron bo’lmang.
- Xayollar to’zg’ishiga ijozat bering.
- Bu muammo faqatgina ma’lum usullar yordamida hal bo’lishi mumkin, deb o’ylamang.
- Fikrlar xujumini o’tkazish vaqti aniqlanadi va unga qat’iyan rioya qilinishi shart.
- Berilgan savolga qisqacha(1-2 so’zdan iborat) javob beriladi.

O’QUV-VIZUAL MATERIALLAR



Sharq Uyg’onish davrida ilm-fan rivojlanishi uch yo’nalishda bo’ldi

Matematika tibbiyot yo’nalishi → Matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, farmakologiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg’oniylar matematikaga oid, Zakariyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid, ibn Sino, Jurjoniy tibbiyot va falsafa, Abu Rayhon Beruniy tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Ijtimoiy-falsafiy yo’nalish → Falsafa, tarix, mantiiq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik va boshqa fanlar bo’lib, bu sohada Farobiy, al-Kindiy, ibn Sino, Zahiriddin Bayhaqiy, Muhammad Narshahiy va boshqalar faoliyat ko’rsatganlar.

Ta’limiy-axloqiy yo’nalishi → Qomusiy olimlar o’z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlari tarkibida yoki axloqiy asarlarida bayon etsalar, adib va tarbiyashunos olimlar ta’limiy-didaktik asarlarida ifodalaganlar. Ma’lumki, Sharq Uyg’onish davrida inson muammosi ma’naviyat sohasidagi asosiy masala bo’lgan. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor berilgan, yaratilgan asarlarda Sharqqa xos bo’lgan insoning axloqiy-ruhiy kamolotini ulug’lash etakchi o’rin tutgan.

Somniylar davlati Marv, Buxoro, SamarqAnd va O’rganch o’sha davrning madaniy markazlaridan sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilar edi. X asr o’rtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshlandi, ammo yoziladigan hujjatlar, ishlar fors-tojik tilida bo’lsa ham, arab imlosida yozilar edi.

.

Bu davr madaniy yuksalishi haqida gap borar ekan, ma’naviyatga, Uyg’onish davri madaniyatiga xos quyidagi xarakterli tomonlarni qayd etib o’tish mumkin:

- koinotning vujudga kelishi, bosqichlari, olamning tuzilishi, moda va ruhning xususiyatlari kabi umumiy ilmiy-falsafiy masalalarga qiziqish, ilm-fan ma’rifat, ma’naviyatga intilish ijtimoiy rivojlanishning muhim mezoniga aylanishi;

- insonni koinotni Yaratuvchining eng oliy mahsuli deb baholash. Avvalo ilm, inson ahli tafakkurini ulug’lash, unga ishonch bildirish, targ’ib-tashviq etish, ularni yaratuvchining eng ulug’ va yuksak ijodi deb baholash, ma’rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi deb ilish;

- axloq, odob, muomalani inson tarbiyasining asosiy maqsadlaridan deb bilish. Insonning adolat, yuksalish, ma’naviyatga intilishiga yo’l ochish, imkoniya yaratish. Aqlda, axloqda, ma’naviyatda yetuk bo’lish, komil insonni yaratish, insonparvarlik, vatanga, odamlarga xizmat qilish, insonlar orasidagi do’stlik, o’zaro yordam, ko’maklashuvga chaqirish bu davr madaniyatining yetakchi jihatlaridandir;

- komil inson rivojlangan davlatchilikda shakllanadi. Bunday davlatchilik esa aql va ilmga, zaro kelishuv, birlikka ega bo’lish natijasida amalga oshiriladi. Mustahkam davlatchilik turli ilm-fan tarmoqlarining rivojini ta’minlaydi;

- mustahkam davlatchilik fozil jamoani vujudga keltira oladi, bu davlat, jamoaga rahbarlik, hokimlik qilayotgan shaxsning ma’naviyatli, ilmli, axloqli bo’lishi, jamoani yaratish, davlatchilikni mustahkamlash bu davr ijtimoiy ta’minotining muhim xislatlaridir.

Kaykovusning axloqiy ugitlari kitobda ota-ona haqqini bilish bilan boshlanadi. Unda Kaykovus Qur’on va Hadislardagi talablardan kelib chiqqan holda o’zining nuqtai nazarlarini bayon qiladi: «O’z farzanding sening haqingda qanday bo’lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo’lg’il, nedinkim sen ta-onang haqida ne ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-ona daraxtga o’xshaydir»-deydi u..

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Sharq Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. IX-XII asrlarda yashab ijod etgan mutafakkirlardan kimlarni bilasiz?
3. Kaykovusning «Qobusnoma» asarida ta'lim-tarbiya masalalari qanday yoritilgan?
4. Sharq Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
5. Somniylar davlati davrida davlat tili va o'aro aloqa tili bo'lib qasi til hisoblangan?.
6. Mahmud Qoshg'ariyning « Devoni lug'oti turk» asarida ta'lim-tarbiya va ma'rifatparvar g'oyalarining kuylanishi.
7. Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy asarlarining hozirgi kundagi ahamiyati.
8. Kaykovusning «Qobusnoma» asarida ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.

Adabiyotlar:

1.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.
2. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O'qituvchi», 1997, 272 bet.
3. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996, 146 bet
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Muloqat» jurnali, 1998 yil, 5-son.
5. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar 1-tom. – T.: «Fan», 1998.
6. Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. T.: «O'zbekiston», 1971, 43-bet.

MA’RUZA MAShG’ULOTLARI

6-MAVZU	Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniyning ma’rifatparvarlik qarashlari

1.1 Ma’ruzada ta’lim texnologiyasi

Mashg’ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni 100-120 nafargacha
Mashg’ulot shakli	Ko’rgazmali ma’ruza
Ma’ruza rejasi	6. Buyuk olim Al-Xorazmiyning fan olamiga qo’shgan hissasi. 7. Al-Xorazmiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. 8. Abu Rayhon Beruniyning ijodiy faoliyati. 9. Abu Rayhon Beruniyning O’rta Osiyo fani va madaniyati taraqqiyotiga qo’shgan hissasi. 10. Mutafakkirlar asarlarida inson kamoloti va uni tarbiyalash masalalari.
O’quv mashg’ulotining maqsadi: Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniyning ma’rifatparvarlik qarashlari, ta’lim-tarbiyaga oid asarlari, ular faoliyatining barkamol avlodni tarbiyalashdagi axamiyatini tushuntirish.	
Pedagogik vazifalar: • Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniylar faoliyatiningning barkamol avlod tarbiyasidagi axamiyatini tushuntirish • Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniyning ta’lim-tarbiyaga oid asarlari haqida ma’lumot berish	**O’quv faoliyatining natijalari:** • Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniylar faoliyati haqida bilib oladilar. • Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniylarning ta’lim- tarbiya, ma’rifat haqidagi tassavurlarga ega bo’ladilar • Sharq mutafakkirlari asarlari mazmunidagi tarbiya to’g’risidagi qarashlar va g’oyalar haqida tushunchalarga ega bo’ladilar • Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniylarning barkamol avlod tarbyasi to’g’risidagi qarashlari mazmun-mohiyatini anglaydilar. • Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniylar faoliyatining hozirgi kunda ta’lim-tarbiya sohasidagi ahamiyatini bilib oladilar.

Ta’lim berish usullari	Ko’rgazmali ma’ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, pinbord
Ta’lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, guruhlarda ishlash
Ta’lim berish vositalari	O’quv qo’llanma, kompyuter texnologiyalari, slaydlar, markerlar
Ta’lim berish sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo’ljallangan auditoriya, o’quv xonasi
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob

Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniyning ma’rifatparvarlik qarashlari
mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	**Faoliyat mazmuni**	
	Ta’lim beruvchi	**Ta’lim oluvchilar**
5. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Uyga berilgan vazifani, ya’ni talabalar to’ldirib kelgan insert jadvalini tekshiradi. Bir nechta ishni izohlaydi. 1.1 Ma’ruza mashg’uloti nomini aytadi, ma’ruza mashg’uloti rejalarini ekranga chiqaradi. Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini e’lon qiladi. 2.Klaster asosida o’tiladigan mavzuning mazmuni va mohiyatini qisqacha yoritadi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
2-bosqich asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1 Talabalarni 4 ta kichik guruhlarga bo’ladi va guruhlarda topshiriq bajarishlarini aytadi. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida pinbord usulini qo’llaydi: Pinbord usulini qo’llash qoidasini tushuntiradi, guruhlar faoliyati natijasini talabalar ishtirokida tahlil qiladi 2.2.Talabalar javoblarining to’g’ri-noto’g’riligini mashg’ulot oxirida tahlil qilib, aniqlashlarini ta’kidlaydi. 2.3 Ekranga rejaning savolllariga doir materiallarni chiqaradi va ularning har birini alohida yoritadi. 2.4Talabalar faoliyatini kuzatadi, yo’naltiradi, maslahatlar beradi. 2.5 Mavzu bo’yicha talabalarda yuzaga	Tinglaydilar, zarur ma’lumotlarni yozib oladilar. Guruhlarga bo’linadilar va ekspert varaqlari hamda tayanch konspektlari asosida taqdimotga tayyorlanadilar. Guruhlardan bittadan a’zo

	kelgan savollarga javob beradi.	chiqib, slaydlar asosida taqdimot qiladi.
3.Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo'yicha egallangan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanini alohida qayd etadi hamda kelajakda ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi to'g'risida ma'lumot beradi. 3.2 Mashg'ulot jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni alohida qayd etadi. Boshqa talabalarni ham faolikka undaydi. Talabalarga ettunchi mavzu bo'yicha tayanch konspektlarni tarqatadi. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi.O'tilgan mavzu yuzasidan konseptual jadval to'ldirib kelish. 8-mavzu bo'yicha ma'ruza-anjumanga tayyorlanib kelish.	Savol beradilar. Vazifani yozib oladilar

O’QUV-VIZUAL MATERIALLAR

Xorazmiyshunos olim A.Axmedov xalifa Xorun ar-Rashidning o’g’li Ma’mun-ar Rashid Marvda xalifa noibi bo’lib turganda saroyida juda ko’p olimlarni to’plagan, so’ng xalifa bo’lib ko’tarilgach ularni ham Bog’dodga olib ketganini ta’kidlaydi.

Al-Xorazmiy "Baytul Xikma" da matematika, geodeziya, geografiya falakkiyot va boshqa sohalar bo’yicha tadqiqotlar olib borildi va al-Xorazmiy maktabi yaratiladi. Olimning ayniqsa, matematikaga oid ilmiy merosi jahon ahamiyatiga ega bo’ldi

"Al-Jabr va muqobala","Kisqargan sindixind","Xorazmiy ziji","Sinus ziji","Kitob suratil ard", "Yer satxini ulchash" ("Alstralyabiya") "Kuyosh soati to’g’risida", "Yaxudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash" Al-kitob al-muxtassar fi hisob al-jabr val-muqobala, . Marmar soat haqida kitob, Tarix kitobi kabi asarlar o’zgan.

Abu Rayxon Beruniyning «Qadimgi xalqlardadan qolgan yodgorliklar», «Geodeziya»; «Hindiston»; «Qimmatbaho toshlarni aniqlash haqida to’plam» («Mineralogiya»); «Kitob as-Saydona», «Yulduzshunoslikda boshlang’ich ta’limotlarni aniqlash»; «Qonuniy Mas’udiy» kabi asarlari mavjud.

Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida shunday yozadi: «Yaxshilik xislatlari: taqvodorlik, to’g’rilik, odillik, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, sahiylik, shirinsuhanlik, siyosat va boshqarish ishlarida bilimdonlik, tadbirkorlik. To’g’ri taxmin qila bilish va bulardan boshqa aqlga sig’maydigan, kishi bayon etib tugata olmaydigan (yaxshi) sifatlardan iboratdir»-deydi.

Nazorat uchun savollar:

4. Xorazmiyning "Al-Jabr va muqobala","Qisqargan sindixind asarlari qanday mavzuga bag'ishlangan?

5. Xorazmiy bilishni sezgidan qanday farq qilish kerakdeydi?

3.Beruniyning mashhur ta'lim-tarbiyaga oid asarlarini ayting.

4. Beruniy «Mineralogiya» nomli asarida insonga berilgan sharaf haqida nima degan?

Adabiyotlar:

1.Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar 1-tom. – T.: «Fan», 1998.

2. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.

3. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O'qituvchi», 1997, 272 bet.

4. Zunnunov A. va boshq. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.

5. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.

6. Ma'naviyat yulduzlari (Tuzuvchi M.Xayrullayev). – T.: 2001. – 408 bet.

7-MAVZU	Abu Nasr Farobiyning ilm-ma’rifat sohasidagi xizmatlari

1.1 Ma’ruzada ta’lim texnologiyasi

Mashg’ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni 100-120 nafargacha
Mashg’ulot shakli	Ko’rgazmali ma’ruza
Ma’ruza rejasi	6. Abu Nasr Farobiy o’rta asr ma’rifatparvari, yirik olim. 7. Abu Nasr Farobiyning sermahsul ijodiy faoliyati. 8. Abu Nasr Farobiyning axloq-odobga oid qarashlarida pedagogik g’oyalarining qo’yilishi. 9. Abu Nasr Farobiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati. 10. Pedagogika fani taraqqiyotida Abu Nasr Farobiyning tutgan o’rni.
O’quv mashg’ulotining maqsadi: Abu Nasr Farobiyning pedagogik faoliyatiha haqida tushuncha berish.	
Pedagogik vazifalar: • Abu Nasr Farobiyning sermahsul ijodiy faoliyati haqida tushuncha berish • Farobiyning axloq-odobga oid qarashlarida pedagogik g’oyalarining qo’yilishini • tushuntirish • Abu Nasr Farobiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirish	**O’quv faoliyatining natijalari:** • Abu Nasr Farobiy faoliyati haqida umumiy tassavurga ega bo’ladilar. • Abu Nasr Farobiyning axloq-odobga oid qarashlarini o’rganadilar • Pedagogika fani taraqqiyotida Abu Nasr Farobiyning tutgan o’rni haqida tushunchalarga ega bo’ladilar.
Ta’lim berish usullari	Ko’rgazmali ma’ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, klaster
Ta’lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, guruhlarda ishlash
Ta’lim berish vositalari	O’quv qo’llanma, kompyuter texnologiyalari, slaydlar, markerlar
Ta’lim berish sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo’ljallangan auditoriya, o’quv xonasi
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob

Abu Nasr Farobiyning ilm-ma’rifat sohasidagi xizmatlari

mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	**Faoliyat mazmuni**	
	Ta’lim beruvchi	**Ta’lim oluvchilar**
6. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Uyga berilgan vazifani, ya’ni talabalar to’ldirib kelgan insert jadvalini tekshiradi. Bir nechta ishni izohlaydi. 1.1 Ma’ruza mashg’uloti nomini aytadi, ma’ruza mashg’uloti rejalarini ekranga chiqaradi. Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini e’lon qiladi. 2.Klaster asosida o’tiladigan mavzuning mazmuni va mohiyatini qisqacha yoritadi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
2-bosqich asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1 Talabalarni 4 ta kichik guruhlarga bo’ladi va guruhlarda topshiriq bajarishlarini aytadi. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida pinbord usulini qo’llaydi: Pinbord usulini qo’llash qoidasini tushuntiradi, guruhlar faoliyati natijasini talabalar ishtirokida tahlil qiladi 2.2.Talabalar javoblarining to’g’ri-noto’g’riligini mashg’ulot oxirida tahlil qilib, aniqlashlarini ta’kidlaydi. 2.3 Ekranga rejaning savolllariga doir materiallarni chiqaradi va ularning har birini alohida yoritadi. 2.4Talabalar faoliyatini kuzatadi, yo’naltiradi, maslahatlar beradi. 2.5 Mavzu bo’yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi.	Tinglaydilar, zarur ma’lumotlarni yozib oladilar. Guruhlarga bo’linadilar va ekspert varaqlari hamda tayanch konspektlari asosida taqdimotga tayyorlanadilar. Guruhlardan bittadan a’zo chiqib, slaydlar asosida taqdimot qiladi.
3.Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo’yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo’yicha egallangan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanini alohida qayd etadi hamda kelajakda ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi to’g’risida ma’lumot beradi. 3.2 Mashg’ulot jarayonida faol ishtirok	Savol beradilar.

	etgan talabalarni alohida qayd etadi. Boshqa talabalarni ham faolikka undaydi. Talabalarga ettunchi mavzu bo'yicha tayanch konspektlarni tarqatadi. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi.O'tilgan mavzu yuzasidan konseptual jadval to'ldirib kelish. 9-mavzu bo'yicha ma'ruza-anjumanga tayyorlanib kelish.	Vazifani yozib oladilar

O'QUV-VIZUAL MATERIALLAR

Abu Nasr Al Farobiy qalamiga mansur asarlari 160 dan ortiq-dir. Ular "Talxisu Navomisu Aflotun","Nufuzli shahar aholisining maslavi", "Baxt saodatga erishuvchi risola" va hakozolardir. Al Farobiy o'zining ko'p qirrali ijodi bilan kelajak avlodni bilim va madaniyatga erishishida inson kamoldotiga alohida e'tibor berdi.

Farobiy insonning kadr-qimmatiga, uning aql zakovanining ijodiy va bunyodkorlik kuchiga yuksak baho beradi: inson Farobiy uchun shunchaki biologik bir mavjudod emas, u o'uz mohiyatiga ko'ra aql idroki tufayli hayvonot dunyosi chegaralaridan tashqariga chiqadi. Uning aql idroki mehnati bilan bir qatorda uni ijtimoiy jihatdan faol qilib qo'yyadi. Insonning hayoti stixiyali tarzda ketishi mumkin emas. Bu hayot ongli va aniq maqsadni ko'zlagan bo'lishi, faqat shaxsiy emas balki, ijtimoiy ahamiyatga ham molik bo'lishi lozim.

Farobiy insonning kadr-qimmatiga, uning aql zakovanining ijodiy va bunyodkorlik kuchiga yuksak baho beradi: inson Farobiy uchun shunchaki biologik bir mavjudod emas, u o'uz mohiyatiga ko'ra aql idroki tufayli hayvonot dunyosi chegaralaridan tashqariga chiqadi. Uning aql idroki mehnati bilan bir qatorda uni ijtimoiy jihatdan faol qilib qo'yyadi. Insonning hayoti stixiyali tarzda ketishi mumkin emas. Bu hayot ongli va aniq maqsadni ko'zlagan bo'lishi, faqat shaxsiy emas balki, ijtimoiy ahamiyatga ham molik bo'lishi lozim.



Nazorat savollari:

1 . Farobiyning ta'lim va tarbiyaga bergan ta'rifini ayting .

2. Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish necha yo'l bilan hosil qilinadi?

3. Pedagogika fani taraqqiyotida Abu Nasr Farobiyning tutgan o'rni

Adabiyotlar:

1.Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993.
2. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.
3. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O'qituvchi», 1997, 272 bet.
4. Zunnunov A. va boshq. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.
5. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.

8-MAVZU	Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik va didaktik g’oyalari

1.1 Ma’ruzada ta’lim texnologiyasi

Mashg’ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni 40- 60 nafargacha
Mashg’ulot shakli	Ko’rgazmali ma’ruza
Ma’ruza rejasi	6. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy faoliyati. 7. Abu Ali ibn Sinoning axloq-odobga oid qarashlari. 8. Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida. 9. Abu Ali ibn Sino asarlarida do’stlik va sadoqat g’oyalarining targ’ib etilishi. 10. Abu Ali ibn Sinoning ma’rifatparvarlik qarashlari
O’quv mashg’ulotining maqsadi: Abu Ali ibn Sinoning barkamol avlodni shakllantirish jarayonida axloq-odobga oid qarashlarining ahamiyatini yoritish	
Pedagogik vazifalar: • Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy faoliyati haqida umumiy tushuncha • ibn Sinoning axloq-odobga oid qarashlari o’rganish.	**O’quv faoliyatining natijalari:** • Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy faoliyati xaqida tushunchalarga ega bo’ladi. • Abu Ali ibn Sinoning axloq-odobga oid qarashlarining mazmun mohiyatini anglaydi. • Ibn Sino asarlarida do’stlik va sadoqat g’oyalarining targ’ib etilishini o’rganadi. • Abu Ali ibn Sinoning ma’rifatparvarlik qarashlari to’g’risida ma’lumotga ega bo’ladi.
Ta’lim berish usullari	Ko’rgazmali ma’ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, klaster
Ta’lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, guruhlarda ishlash
Ta’lim berish vositalari	O’quv qo’llanma, kompyuter texnologiyalari, slaydlar, markerlar
Ta’lim berish sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo’ljallangan auditoriya, o’quv xonasi
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob

Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik va didaktik g’oyalari
mavzusining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	**Faoliyat mazmuni**	
	Ta’lim beruvchi	**Ta’lim oluvchilar**
7. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Ma’ruza mashg’uloti nomini aytadi, Proyektor orqali ma’ruza mashg’uloti rejalarini ekranga chiqaradi. Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini e’lon qiladi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
2-bosqich asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1 Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol-javob usulini qo’llaydi: O’qituvchi qanday bo’lishi kerak?, Pedagogik qobiliyat deganda nimani tushunasiz? Pedagogik mahorat haqida tushuncha bering? Pedagogik mahoratni shakllantiruvchi omillarni sanab bering? 2.2.Javoblarni to’ldiradi, umumlashtiradi va bugungi o’quv mashg’ulotida ushbu savollarga kengroq javob olishlarini aytadi. 2.3 Ekranda slaydlar namoyish qilish orqali ta’lim metodlari to’g’risida to’liq ma’lumot yuyeradi. Talabalar diqqatini tarbiya metodlari, ularning tasnifi, tarbiya shakllari to’g’risidagi ma’lumotlarga qaratadi, Yosh avlodni tarbiyalash yo’lida qo’llaniladigan metod va usullarning ahamiyatini asoslaydi. 2.5 Mavzu bo’yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi.	Savollarga javob beradilar, fikrlarini bildiradilar. Tinglaydilar, zarur ma’lumotlarni yozib oladilar
3.Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo’yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo’yicha egallangan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanini alohida qayd etadi hamda kelajakda Ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi to’g’risida ma’lumot beradi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: O’tilgan mavzu bo’yicha B/B/B jadvalini to’ldirib kelish. o’ninchi mavzu bo’yicha keyingi o’quv mashg’ulotiga tayyorlanib kelish.	Savol beradilar. Vazifani yozib oladilar

O’QUV-VIZUAL MATERIALLAR

Abu Ali ibn Sino asarlari

Ibn Sino 450 dan ortiq ilmiy asarlar yaratgan.«Al-Qonun», «Xayy ibn Yaqzon», «Risolat at-tayr», «Risolat fi-ishq», «Kitob fi ma’no ziyorat», «Risolat fi mohiyat as-salot», «Risolat fi-daf al-gam min al mivt» («O’limdan keladigan gamni daf qilish haqida risola»), «Risolat al-kadr», «An-Najot», «Ash shifo», «Donishnoma», «Kitob ash-ishorat» va at tanbixot» va boshqalar.

«Kitob ush-shifo»ning qismlari

Kitob 8 qismdan iborat. Bular quyidagilar: 1. Mantiq; Mantiqqa muqaddima, Al-Maqulot-kategoriyalari, Al-iborat-interpretatsiya, Al-qiyos-sillogizm, Al-Burhon-isbot, dalil, Al-jadal-dialektika, As-Safsata –sofistika, Al-Xitoba – ritorika, Ash-she'r-poetika. 2. Tabiiy fanlar; 3. Matematika; 4. Geometriya ilmini o`qitish uslubi; 5. Arifmetika; 6. Muzika; 7. Ilm al falakkiyot; 8 Ilm al falakkiyot.

Ibn Sino yaxshilik haqida

ibn Sino insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. U axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta’riflaydi. Dunyoda mavjud bo’lgan jami narsalar tabiatiga ko’ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o’zi esa mohiyat e’tibori bilan yaxshilikdir. Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi-deydi u.

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlari haqida

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta’rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, donolik, jasurlik bilan adolatga ega bo’ladi, yomon illatlardan o’zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo’tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat’iyatlilik, sadoqat, initilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Ibn Sino qanoat va mo’tadillik haqida

Qanoat va mo’tadillikni insonning hissiy quvvatiga kiritadi, chidamlilik, aqllilikni g’azab quvvatiga, donolik, ehtiyotkorlikni ziyraklikka, sadoqat, uyatchanlik, ijrochilik, achinish, sofdillikni tafovut quvvatiga kiritadi.

Olim qanoatni hissiy fazilatlardan sanaydi va inson o’zini ta’magirlikdan tiysa, mo’tadillikka rioya etsa, o’zida hirsning namoyon bo’lishini yengadi, inson yomon illatlarni yengishda o’z imkoniyatlarini ongli sarf etishi lozim, deydi.

Ibn Sino har bir axloqiy xislatlarning ta’rifini beradi

Ibn Sino ta’rif bergan axloqiy xislatlar quyidagilar:

mo’tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq me’yorlariga to’g’ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik; **saxiylik** – yordamga muhtoj kishilarga ko’maklashuvchi insoniy quvvat; **G’azab** – biror ishni bajarishda jasurlik; **chidamlilik –** inson o’z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat; **aqllilik** – biror ishni bajarishda shoma-shosharlikdan saqlovchi quvvat; **ziyraklik** – narsalar va hatto harakatlarning haqiqiy ma’nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat; **kamtarlik** – xudbin ishlar bilan shug’ullanishdan to’xtatuvchi kuch.

Ibn Sino tavsiya qilgan ta’lim va tarbiya tizimi quyidagilarni o’z ichiga oladi:



U ta’limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi

Bolaga ta’lim berish yo’llari

-bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo’ymaslik;
-ta’limdan yengildan og’irga borish orqali bilim berish;
-olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo’lishi;
-o’qitishda jamoa bo’lib maktabda o’qitishga e’tibor berish;
-bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini inobatga olish;
-o’qitishni jismoniy mashqlar bilan qo’shib olib borish.
Bu talablar hozirgi davr ta’lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir

Olim do’stlik haqila

Har qanday qiyinchiliklarga qaramay o’z do’stini xavf-xatarda yolg’iz qoldirmaydigan do’stlik;
- manfaatlari o’xshash va g’oyaviy yaqin do’stlik;
- o’z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do’stlik. Ibn Sino birinchi va ikkinchi xil do’stlikni haqiqiy do’stlik, deb e’tirof etadi.
Olim haqiqiy do’stlik natijasida sevgi-muhabbat paydo bo’lishi mumkinligini aytadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Abu Ali Ibn Sino axloqqa oid asalarida bola tarbiyasi haqida qanday fikrlar bildiradi?
2. Ibn Sino qanday kishilarni chin do'st deb biladi?
3. Ibn Sino blaga ta'lim- tarbiya berish yo'llari haqida .
4. Ibn Sino tavsiya qilgan ta'lim – tarbya tizimi nimalarni o'z ichiga oladi?

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: «Movarounnahr», 2002, 720 bet.
2. Abdullayeva Sh. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.
3. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O'qituvchi», 1997, 272 bet.
4. Zunnunov A. va boshq. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.
5. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.

9-mavzu	Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya masalasi

1.1 Ma’ruzada ta’lim texnologiyasi

Mashg’ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni 40- 60 nafargacha
Mashg’ulot shakli	Muammoli-ko’rgazmali ma’ruza
Ma’ruza rejasi	1. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. 2. Amir Temur amal qilgan axloqiy sifatlar. 3. Amir Temurning odob-axloqqa oid nasihatlari. 4. Mirzo Ulug’bekning ilm-ma’rifat sohasidagi xizmatlari. 5. Zahiriddin Muhammad Boburning ta’lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari
O’quv mashg’ulotining maqsadi: Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya masalalarining mohiyatini ochib berish.	
Pedagogik vazifalar: *IV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar haqida tushuncha berish • Amir Temur amal qilgan axloqiy sifatlar mohiyatini ochib berish • Mirzo Ulug’bek va Z.M Boburning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari haqida ma’lumot berish	**O’quv faoliyatining natijalari:** +XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar haqida ma’lumotga ega bo’lish. • Amir Temurning odob-axloqqa oid nasihatlari mohiyatini anglaydilar. • Mirzo Ulug’bekning ilm-ma’rifat sohasidagi xizmatlarini tushunadilar. • Zahiriddin Muhammad Boburning ta’lim-tarbiyaga oid faoliyati haqida bilimga ega bo’ladilar
Ta’lim berish usullari	Muammoli ma’ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, sinkveyn
Ta’lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, guruhlarda ishlash
Ta’lim berish vositalari	O’quv qo’llanma, kompyuter texnologiyalari, slaydlar, markerlar
Ta’lim berish sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo’ljallangan auditoriya, o’quv xonasi
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob

Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya masalasi mavzusining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
8. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Ma’ruza mashg’uloti nomini aytadi, Proyektor orqali ma’ruza mashg’uloti rejalarini ekranga chiqaradi. Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini e’lon qiladi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
2-bosqich asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1 Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol-javob usulini qo’llaydi: XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta’lim-tarbiyaga e’tibor qanday bo’lgan ?, XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda pedagogik fikrlar taraqqiyoti haqida qanday ma’lumotlar bilasiz? Amir Temurning odob-axloqqa oid nasihatlarini ayting. Mirzo Ulug’bekning ilm-ma’rifat sohasidagi xizmatlarini tushuntiring.. 2.2.Javoblarni to’ldiradi, umumlashtiradi va bugungi o’quv mashg’ulotida ushbu savollarga kengroq javob olishlarini aytadi. 2.3 Ekranda slaydlar namoyish qilish orqali ta’lim jarayoni, uning mohiyati va xususiyatlari to’g’risida to’liq ma’lumot beradi. 2.4. Talabalar diqqatini XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta’lim-tarbiyaga bo’lgan e’tibor, pedagogik fikrlar taraqqiyoti, Amir Temurning odob-axloqqa oid nasihatlari, Amir Temur amal qilgan axloqiy sifatlar, Mirzo Ulug’bekning va Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-ma’rifat, ta’lim – tarbiya sohasidagi xizmatlarini, ularning xozirgi kuna yosh avlod tarbiyasidagi axamiyati yoritiladi. 2.5 Mavzu bo’yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi.	Savollarga javob beradilar, fikrlarini bildiradilar. Tinglaydilar, zarur ma’lumotlarni yozib oladilar
3.Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo’yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo’yicha egallangan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli	Savol beradilar.

	ekanini alohida qayd etadi hamda kelajakda Ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi to'g'risida ma'lumot beradi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: O'tilgan mavzu bo'yicha B/B/B jadvalini to'ldirib kelish.	Vazifani yozib oladilar

O'QUV-VIZUAL MATERIALLAR

Temuriylar hukmronligi davrida ta'lim-tarbiya, madaniyatimiz va ma'naviyatimiz rivojiga katta hissa qo'shildi va ular hozirda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

XIV asrning 50-yillarida Amir Temur siyosat maydoniga chiqdi. Markazlashgan yirik feodal davlat barpo etildi. Madaniyat, maorifqaytadan yuksala boshladi. Shuning uchun XIV asrning 2-yarmi va XV asr tarixida Sharq uyg'onish davrining 2-bosqichi deb ataladi.

XV asrda tarix fani rivoj topdi, Xofizu Abru «Zabdan tovara» (Tarixning qaymog'i) kitobini yozib, unda 1427 yilgacha bo'lgan voqyealarni bayon etdi. Abdurazzoq Samarqandiy buni davom ettirib «Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki dengizning qo'shilish joyi» asarida 1471 yilgacha voqyealarni bayon etdi. «Ravzatus safo» asarini yozgan Mirxond, «Habibus siyar» asarini yozgan Xondamir asarining bir qismi Sulton Husayn hukmronlik qilgan davrga bag'ishlandi. Shu asarlarda qator ilm maskanlari: Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim Sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi kalon va boshqalar qurildi.

Amir Temurning odob-axloqqa oid o'gitlarini quyidagicha guruhlashtirish mumkin.

- adolat va adolatsizlik;
- do'st va dushmanlik;
- muomala va shirinsuhanlik;
- so'z va ishning birligi;
- botirlik va qo'rqoqlik.

.

Bobur musulmonchilik qoidalari va qonunshunoslikka bag'ishlangan «Mubayyin», arab alfavitining islohiga oid «Xatti Boburiy», aruz vazni va qofiyaga oid «Mufassal», musiqa va harbiy san'at haqidagi asarlar yaratgan.



Nazorat uchun savollar:

1. Temuriylar hukmronligi davrida ta'lim-tarbiya, madaniyatimiz va ma'naviyatimiz rivojiga berilgan e'tiborni ayting.
2. **Amir Temur amal qilgan axloqiy sifatlarni sanab bering.**
3. Ulug'bek zamoniga kelib qanday fanlar rivojlandi?
1. Samarqandda qaysi olimlar tomonidan turli fanlarga oid boshlang'ich bilimlar bayon etildi?
2. «Amir Temur kim edi?
3. Ulug'bek o'qituvchi – mudarrisga qanday talablar qo'yadi?
4. Z.M.Bobur yaratgan asarlarni ayting ba ularning hozirgi kundagi axamiyati.

Adabiyotlar:

1.Temurnoma. (Poyon Ravshanov tahriri), T.: «Cho'lpon», 1990, 350 bet.
2.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996, 146 bet
3.Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O'qituvchi», 1993, 204 bet.
4. Zunnunov A. va boshq. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.
5.Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. – T.: «O'qituvchi», 1998.

10-mavzu	TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI, UNING MAORIF SOHASIDA TUTGAN O'RNI

1.1 Ma'ruzada ta'lim texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni 100- 120 nafargacha
Mashg'ulot shakli	Muammoli-ko'rgazmali ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Turkistonda jadidchilik harakati, uning maqsad va vazifalari. 2. Yangi usul maktablarining paydo bo'lishi. 3. Jadidchilarlarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. 4. Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» darsligi. 5. I.Gaspirali, Munavvar Qori va A.Fitrat faoliyatlari
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Turkistonda jadidchilik harakati, uning maqsad va vazifalari mohiyatini ochib berish.	
Pedagogik vazifalar: • Turkistonda jadidchilik harakati, uning maqsad va vazifalari haqida tushuncha berish • Yangi usul maktablarining mohiyatini ochib berish • Jadidchilarlarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati haqida ma'lumot berish	**O'quv faoliyatining natijalari:** • Turkistonda jadidchilik harakati, uning maqsad va vazifalari haqida ma'lumotga ega bo'lish. • Yangi usul maktablarining mohiyatini anglaydilar. • Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» darsligi haqida ma'lumotga ega bo'lish. • I.Gaspirali, Munavvar Qori va A.Fitrat faoliyatlari haqida bilimga ega bo'ladilar
Ta'lim berish usullari	Muammoli ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, sinkveyn
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, guruhlarda ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, kompyuter texnologiyalari, slaydlar, markerlar
Ta'lim berish sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya, o'quv xonasi
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob

Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya masalasi mavzusining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
9. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Ma’ruza mashg’uloti nomini aytadi, Proyektor orqali ma’ruza mashg’uloti rejalarini ekranga chiqaradi. Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini e’lon qiladi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
2-bosqich asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1 Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol-javob usulini qo’llaydi: Jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga qanday omillar sabab bo’ldi? Jadidlarning maqsadi nima edi? Jadidlar xalqning savodxonligini oshirish uchun qanday vositalardan foydalandilar? Jadidlardan kimlarni bilasiz? Jadidlar ochgan yangi usuldagi maktablar qanday qoidalarga asoslangan edi? 2.2.Javoblarni to’ldiradi, umumlashtiradi va bugungi o’quv mashg’ulotida ushbu savollarga kengroq javob olishlarini aytadi. 2.3 Ekranda slaydlar namoyish qilish orqali ta’lim jarayoni, uning mohiyati va xususiyatlari to’g’risida to’liq ma’lumot beradi. 2.4. Talabalar diqqatini XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta’lim-tarbiyaga bo’lgan e’tibor, pedagogik fikrlar taraqqiyoti, Amir Temurning odob-axloqqa oid nasihatlari, Amir Temur amal qilgan axloqiy sifatlar, Mirzo Ulug’bekning va Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-ma’rifat, ta’lim – tarbiya sohasidagi xizmatlarini, ularning xozirgi kuna yosh avlod tarbiyasidagi axamiyati yoritiladi. 2.5 Mavzu bo’yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi.	Savollarga javob beradilar, fikrlarini bildiradilar. Tinglaydilar, zarur ma’lumotlarni yozib oladilar
3.Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo’yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo’yicha egallangan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanini alohida qayd etadi hamda kelajakda	Savol beradilar.

	Ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi to'g'risida ma'lumot beradi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: O'tilgan mavzu bo'yicha B/B/B jadvalini to'ldirib kelish.	Vazifani yozib oladilar

O'QUV-VIZUAL MATERIALLAR

XIX asrning oxiriga kelib O'rta osiyo xalqlari chor hukumatining zulmidan og'ir ahvolda qolgan edi. Chor hukumati O'rta osiyoda feodal-patriarxal tuzimini saqlab qolib, xalqni qashshoqlikda, o'ziga bo'ysungan holda saqlab qolishga harakat qiladi. U mahalliy xalqning maorifi, adabiyoti, ozodlik va erkinlik g'oyalarini ilgari surish vositalarini rivojlantirishiga to'siqlik qiladigan choralarni ko'rdi.

Xalqning ma'rifiy qashshoqligi, mavjud maktablarning inqirozi, madaniy ortga ketish –bularning hammasi endi chidab bo'lmaydigan hayot tarzi bo'lib qolgan edi. Shuning uchun mamlakatdagi ilg'or, taraqqiyotparvar kuchlar birlashib, islohat, o'zgarishlar qilishga kirishdilar. Ular avvalo maktab, maorifni, keyin esa ijtimoiy turmushni isloh qilish g'oyalarini ilgari surdilar.

Jadidlar xalqqa ma'rifat va madaniyat tarqatishga harakat qildilar. Buning uchun maktab va madrasalarni isloh qilish g'oyalarini targ'ib etdilar. Yangi usuldagi maktablar ochib, gazeta, jurnallar chiqardilar, teatr, kutubxonalar tashkil etidilar.



Yangi usul maktabi quyidagilarga asoslangan:

- sinfda bolalar soni 30 dan oshmasligi;
- bolalar ez va qishda 2 marta maktabga qabul qilishi (bir yilda ikki dafa);
- har bir qabul 1-sinfdan oshmasligi;
- har bir muallimda ko’pi bilan 3-4 sinf bo’lish;
- darslar ketma-ket tartibda bo’lishi;
- 7-9 eshdagi bolalar 7-8 soat o’qisholmaydi, ularning o’qishi uchun 5 soat kifoya.
- juma va bayram kunlari dam olish.
- o’qishdan so’ng ezgi issik kunlarida ta’til bo’lishi;
- dars zeriktirmasligi;
- shogirdni urish va so’kish bevoyda ekanligi;
- o’qish qoidalarini rioya etish..



Nazorat uchun savollar:

1. Jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga qanday omillar sabab bo’ldi?
2. Jadidlarning maqsadi nima edi?
3. Jadidlar xalqning savodxonligini oshirish uchun qanday vositalardan foydalandilar?
4. Jadidlardan kimlarni bilasiz?
5. Jadidlar ochgan yangi usuldagi maktablar qanday qoidalarga asoslangan edi?

Adabiyotlar:

1.O’zbek pedagogikasi antologiyasi. II jild, T.: «O’qituvchi», 1999, 147 bet.
2.Abdurasulov M. O’zbek ma’rifatparvar shoirlari ilm-ma’rifat haqida. – T.: «O’qituvchi», 1981.
3.Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O’qituvchi», 1993, 204 bet.

4.Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. T.: «Aloqachi», 2006, 164 bet.
5.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Muloqat» jurnali, 1998 yil, 5-son.

11-MAVZU	**Abdulla Avloniy va Mahmudxo'ja Behbudiylarning maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari.**

1.1 Ma'ruzada ta'lim texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni 100-120 nafargacha
Mashg'ulot shakli	Muammoli-ko'rgazmali ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari. 2. Abdulla Avloniyning darslik kitoblari va ularning mazmuni. 3. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida ta'lim-tarbiya tizimi. 4. Mahmudxo'ja Behbudiy pedagogik merosining tarbiyaviy ahamiyati. 5. Mahmudxo'ja Behbudiy maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Abdulla Avloniy va Mahmudxo'ja Behbudiylarning olib organ pedagogik faoliyatini talabalarga yetkazish.	
Pedagogik vazifalar: • Abdulla Avloniyning darslik kitoblari mazmunini ochib berish. • Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bilan talabaarni tanishtirish. • Mahmudxo'ja Behbudiy pedagogik merosining tarbiyaviy ahamiyati yoritish. • Mahmudxo'ja Behbudiy maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari bilan talabaarni tanishtirish.	**O'quv faoliyatining natijalari:** • Abdulla Avloniyning darslik kitoblari mazmunini anglaydilar. • Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bilan tanishadilar. • Mahmudxo'ja Behbudiy pedagogik merosining tarbiyaviy ahamiyati tushunib yetadilar. • Mahmudxo'ja Behbudiy maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari bilan tanishadilar.
Ta'lim berish usullari	Muammoli ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, klaster
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, guruhlarda ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, kompyuter texnologiyalari, slaydlar, markerlar
Ta'lim berish sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya, o'quv xonasi

Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob

Ta’lim metodlari, shakllari va vositalari mavzusining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	**Faoliyat mazmuni**	
	Ta’lim beruvchi	**Ta’lim oluvchilar**
Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Ma’ruza mashg’uloti nomini aytadi, Proyektor orqali ma’ruza mashg’uloti rejalarini ekranga chiqaradi. Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini e’lon qiladi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
2-bosqich asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1 Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol-javob usulini qo’llaydi: Yangi usul maktablari deganda nimani tushunasiz? Abdulla Avloniyning qanday darslik kitoblarini bilasiz? Mahmudxo’ja Behbudiyning ochgan maktablari haqida nimalarni bilasiz? Mahmudxo’ja Behbudiy ta’lim jarayonoga qanday o’zgartirishlar kiritgan? 2.2.Javoblarni to’ldiradi, umumlashtiradi va bugungi o’quv mashg’ulotida ushbu savollarga kengroq javob olishlarini aytadi. 2.3 Ekranda slaydlar namoyish qilish orqali ta’lim metodlari , shakllari va vositalari to’g’risida to’liq ma’lumot yuyeradi. Talabalar diqqatini ta’lim jarayonida qo’llaniladigan metodlar, ta’lim metodlarining xususiyatlari, ta’limni tashkil etish shakllari, dars, dars tiplari, darsga qo’yiladigan talablar to’g’risidagi ma’lumotlarga qaratadi. Ta’lim metodlarini qo’llash yo’llarini ko’rsatadi. 2.5 Mavzu bo’yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi.	Savollarga javob beradilar, fikrlarini bildiradilar. Tinglaydilar, zarur ma’lumotlarni yozib oladilar
3.Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo’yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo’yicha egallangan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanini alohida qayd etadi hamda kelajakda ushbu bilimlardan foydalanish imkoniyatlarini ko’rsatadi.	Savol beradilar. Vazifani yozib

	3.2 Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: O’tilgan mavzu bo’yicha B/B/B jadvalini to’ldirib kelish.	oladilar

O’QUV-VIZUAL MATERIALLAR

Abdulla Avloniy (1878-1934) Toshkentda hunarmand oilasida dunyoga keldi. Maktabda, so’ngra Abdumalikboy madrasasida o’qidi. Yoshligidan she’rlar yozdi. 1904 yili Mirobodda yangi usuldagi maktab ochdi. 1907 yili uning muharrirligida «Shahrat» gazetasi chiqa boshladi. 1909 yili «Jamiyati xayriya» tashkil qilib, bolalar o’qishi uchun sarmoyadorlik orqali maktablarga tarqatdi. Mavloniy maktabining dovrug’i keng tarqaldi, chor hukumati talabi bilan o’lka mamuriyati maktabni 1908 yil yopdi. Shundan so’ng, 1909 yili Avloniy Degrez mahallasida maktab ochdi.

Abdulla Avloniy 1909-1917 yillarda uning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guluston yohud axloq», «Maktab gulustoni», «Adabiyot yohud milliy she’rlar» to’plamlari nashr etildi. 1917 yildan so’ng ham turli o’rta maxsus va oliy o’quv yurtlarida pedagogik faoliyat bilan shug’ullandi. «Mehnat qahramoni» unvoni, «O’zbekiston xalq maorifi zarbdori» nomiga sazovor bo’ldi.



«Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur».
Abdulla Avloniy.



Nazorat uchun savollar:

1. Yangi usul maktablari deganda nimani tushunasiz?
2. Abdulla Avloniyning qanday darslik kitoblarini bilasiz?
3. Mahmudxo'ja Behbudiyning ochgan maktablari haqida nimalarni bilasiz?
4. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'lim jarayonoga qanday o'zgartirishlar kiritgan?

Adabiyotlar:

1.Abdulla Avloniy. Turkiy gulison yoxud axloq. – T.: «O'qituvchi», 1993.
2.Abdurasulov M. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida. – T.: «O'qituvchi», 1981.
3. Zunnunov A. va boshq. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.
4.Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. T.: «Aloqachi», 2006, 164 bet.
5.Abdullaeva Sh. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.

12-MAVZU	YAN AMOS KOMENSKIY, K.D.USHENSKIY VA A.S.MAKARENKOLARNING PEDAGOGIKA FANI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI.

1.1 Ma'ruzada ta'lim texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni 100-120 nafargacha
Mashg'ulot shakli	Muammoli-ko'rgazmali ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati, sinf-dars tizimining yaratilishi. 2. Yan Amos Komenskiyning tarbiyani tabiat bilan uyg`un holda olib borish va onalar maktabi haqidagi qarashlari. 3. K.D.Ushenskiy pedagogika fani va tarbiya san'ati haqida. 4. K.D.Ushenskiyning dars hamda ta'lim metodikasi to`g`risidagi fikrlari. 5. A.S.Makarenkoning pedagogika fani va maktab taraqqiyotidagi o`rni.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushenskiy, A.S.Makarenkolarning pedagogik faoliyati mazmuni yoritiladi.	
Pedagogik vazifalar: • Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati haqida tushuncha beriladi. • K.D.Ushenskiyning ta'lim metodikasi to`g`risidagi fikrlari ochib beriladi. • Ta'limni tashkil etish shakllari haqida ma'lumotlar beriladi. • A.S.Makarenkoning bolalarda jamoa orqali tarbiyalash mazmuni tushuntiriladi.	**O'quv faoliyatining natijalari:** • Yan Amos Komenskiyning yaratgan sinf-dars tizimi haqida ma'lumot beriladi • Yan Amos Komenskiyning tarbiyani tabiat bilan uyg`un holda olib borish va onalar maktabi haqidagi qarashlari yoritiladi. • K.D.Ushenskiy pedagogika fani va tarbiya san'ati haqidagi fikrlari ochib beriladi. • A.S.Makarenkoning pedagogika fani va maktab taraqqiyotidagi o`rni yoritiladi.
Ta'lim berish usullari	Muammoli ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, klaster
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, guruhlarda ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, kompyuter texnologiyalari, slaydlar, markerlar
Ta'lim berish sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya, o'quv xonasi
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob

Ta'lim metodlari, shakllari va vositalari mavzusining

texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Ma’ruza mashg’uloti nomini aytadi, Proyektor orqali ma’ruza mashg’uloti rejalarini ekranga chiqaradi. Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini e’lon qiladi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
2-bosqich asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1 Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol-javob usulini qo’llaydi: Sinf-dars tizimi haqida nimalarni bilasiz ? Yan Amos Komenskiyning tarbiyani tabiat bilan uyg`un holda olib borish haqidagi fikrlarini izohlang. Onalar maktabi deganda nimani tushunasiz? Ushinskiyning ta’lim tizimi haqida nimalarni bilasiz? A.S.Makarenkoning bolalarda jamoa orqali tarbiyalash haqidagi fikrlarini izohlang. 2.2.Javoblarni to’ldiradi, umumlashtiradi va bugungi o’quv mashg’ulotida ushbu savollarga kengroq javob olishlarini aytadi. 2.3 Ekranda slaydlar namoyish qilish orqali ta’lim metodlari , shakllari va vositalari to’g’risida to’liq ma’lumot yuyeradi. Talabalar diqqatini ta’lim jarayonida qo’llaniladigan metodlar, ta’lim metodlarining xususiyatlari, ta’limni tashkil etish shakllari, dars, dars tiplari, darsga qo’yiladigan talablar to’g’risidagi ma’lumotlarga qaratadi. 2.5 Mavzu bo’yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi.	Savollarga javob beradilar, fikrlarini bildiradilar. Tinglaydilar, zarur ma’lumotlarni yozib oladilar
Abdurahmon Jomiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari «Bahoriston» asari hamda «Haft avrang» («Etti taxt») asarining tarkibidan o'rin olgan «Tuhfatul ahror» va «Silsilatuz zahab» («Oltin tizmalar») dostonlarida aks etadi. Allomaning "Bahoriston" asari Muslihiddin Sa'diy tomonidan yaratilgan «Guliston» asari yaratilgan uslubda yozilgan bo'lib, unda Abdurahmon Jomiy haqiqiy kamolotga erishgan inson va uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi borasida to'xtalib o'tadi.

Abdurahmon Jomiy ham boshqa allomalar kabi inson kamolotining birinchi mezoni uning bilimlilik darajasi deya ta'kidlaydi.

«Haft avrang» asarining birinchi dostoni bo'lgan «Tuhfatul-ahror»da ham Abdurahmon Jomiy ilmning inson hayotidagi ahamiyati ko'rsatib berar ekan, ilm har qanday muammolarni echishda insonga yordam berishini ko'rsatib o'tadi.

Alloma o'zining mashhur «Silsilatuz zahab» («Oltin tizmalar») dostonining «Sevimli aziz farzandga nasihat»" nomli bobida, har bir yoshning bilim olishi zaruriyat ekanligini ta'kidlaydi. Zero, inson umri juda qisqa bo'lib, u umrni behuda o'tkazmasligi, shuningdek, muayyan darajada bilimlarni egallagandan so'ng unga amal qilish lozim, amaliyotda qo'llanilmaydigan ilm ham behudadir degan fikrlarni ilgari suradi.

XV asrda faqat Eronda emas, balki Xuroson va Movarounnahrda ham ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olimlardan biri Jaloliddin Davoniydir. Davoniyning ta'limiy-axloqiy qarashlari Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiylarning ijtimoiy fikrlari bilan ko'p jihatdan tutash keladi. Ular dunyoqarashining mag'zini komil inson tarbiyalash uchun yuksak insoniy fazilatlarni tarkib toptirish tashkil etadi.

Jaloliddin Muhammad Ibn Asad as-Sddiqiy al-Davoniy Eronning Kazarun viloyatidagi Davon qishlog'ida 1427 yilda dunyoga kelgan

Davoniy insonning ma’rifatli, yuksak fazilatli bo’lishida tabiiy fanlarning roli katta, deydi. Matematika, astronomiya, tibbiy fanlar jamiyatga ulkan foyda keltiruvchi ilm sohalaridir, deb biladi. Riyoziyot fanini o’rgangan kishining tabiati qat’iy va sabotli bo’ladi, deydi. Tib ilmining esa jamiyatga foydasi haqida gapirib, tabiblarga zarur bo’lgan kasalga tashxis qo’yish masalalariga to’xtab o’tadi. Tabib bemorga to’g’ri va aniq tashxis qo’ygandan so’nggina bemorni davolash kerakligini uqtiradi.

Davoniy insoniy fazilatlardan donolikni tahlil etar ekan, inson o’zining aqliy qobilyaitini, iste’dodini tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilish:

Birinchisi, zukkolik — zehn o’tkirligi. Bu kishining har bir masalani tezda hal qila olish, unda o’zi istagan natijani ola bilishida deb ko’rsatadi. Bu malakani hosil qilish uchun kishida tajriba va harakatchanlik bo’lishi talab etiladi;

ikkinchisi — fahmlilik. Bunda kishining keraksiz va ikkinchi darajali masalalarga ortiqcha to’xtalmasdan, butun diqqatni muhim va zarur masalalarga tez qarata bilishi qobiliyati, ya’ni murakkab va chigal masalalar ichidan eng muhimini tanlay bilish malakasini hosil qilish talab qilinadi;

uchinchisi — zehn ravshanligi deb ko’rsatiladi. Bu biror masalani hech qanday qiyinchiliksiz, oson yo’l bilan hal qilish iste’dodi;

to’rtinchisi — bilimni tez egallash qobiliyati. Kishi ma’lum masalaga butun diqqat-e’tiborini qarata olishi va uni hech qanday qarama-qarshiliksiz o’zlashtira olishi;

beshinchisi — qo’yilgan muammoni tezda anglashi;

oltinchisi — yodlash qobiliyati. Insonning ilgari his etgani va tasavvur qilganlarini esda saqlash qobiliyati;

ettinchisi — xotira. Yod olingan, his qilingan narsalarni kerak bo’lganda eslash qobiliyatini tezda ishga solishi lozim, deb ko’rsatadi[1].

Demak, Davoniy kishi yoshlikdan o’z qobiliyatini o’stirishi, rivojlantirishi lozimligi, agar u haqiqiy baxt-saodatga erishmoqchi bo’lsa, yuqoridagi aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yordam beruvchi fazilatlarni egallashga harakat qilmog’i lozim, deydi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiy va Davoniyning asarlari insonni har tomonlama kamolga etkazishda yirik ta’limiy-axloqiy asardir. SHuning uchun ham bu asar o’zining ilmiy, ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini shu paytgacha saqlab kelmoqda

3. Fikrlash.

Ushbu bosqichda talabalar matnda eshitganlari bo’yicha 10 minutlik esse yozadilar. Talabalar yozgan esselarini o’qib eshittiradilar.

[1] Али=улов Х., Омонбоева Р. Жомий ва Давоний таълим-тарбия ҳа=ида. Тошкент, Ў=итувчи, 1981, 41-42 бетлар.

Esse (fransuzcha essai – urinish, sinash, ocherк) – erкin кompozisiali, uncha кatta bo'lmagan nasriy asar. Esse orqali narsa va hodisalarga yoкi shaxsga oid sub'eктiv fiкr bayon qilinadi. Esselar falsafiy, tarixiy-biografiк, publisistiк, adabiy-tanqidiy, ilmiy-ommabop yoкi sof belletristiк xaraкterda bo'ladi. Esse uslubni obrazliligi, aforistiкligi, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab yoкi masalaga oid tugal tafsilotni yoкi aniqliкni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat bo'ladi. Mustaqil janr sifatida A.Montel ijodida tarкib topdi. O'zbeк adabiyotida XX asrning 70-80 yillaridan esse yaratila boshlandi. [O'zME.]

III. Yaкuniy qism

Xulosa.

Darsning yaкuniy qismida mavzuni mustahкamlash maqsadida guruhni iккi кichiк guruhlarga bo'lib, "Zaкovat" intelleктual o'yini tashкil etiladi. Bunda islom ta'limotida ta'lim-tarbiya masalasi mavzusida guruhlar o'zlari tuzib кelgan savollar orqali o'zaro bahslashadilar.

Talabalar darsda faol qatnashishlariga qarab baholanadi.

4-MAShG`ULOT

Mavzu: Jahon Otin Uvaysiyning qizlar maktabi. Muhammad Sodiq Qoshg`ariy va uning «Odob as-salohin» asarida odob-axloq haqida.

REJA:

1. Jahon Otin Uvaysiyning hayoti va muallimlik faoliyati.
2. Qizlar maktabida ta'lim tizimi va mazmuni.
3. Jahon Otin ta'limotida ta'lim uslubining yoritilishi.
4. Jahon Otinning axloqiy tarbiya borasidagi qarashlari.
5. Jahon Otinning pedagogik fikr taraqqiyotida ayollar savodxonligini oshirishda tutgan o`rni.
6. Muhammad Sodiq Qoshg`ariyning «Odob as-salixin» asarini pedagogik fikr tarqqiyoti va amaliyotda tutgan o`rni.

ADABIYoTLAR:

1. K. Hoshimov, S Nishonova, M Inomova, R Hasanov. Pedagogika tarixi. darslik T. «O`qituvchi» 1996 yil.
2. Pedagogika tarxidan xrestomatiya T. 1996 yil.
3. O`rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T. «Fan» nashriyoti. 1996 yil.
4. A. Jomiy «Bahoriston» T.1979 yil.



5-MAShG`ULOT

Mavzu: Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarining tahlili.

REJA:

7. Ahmad Yassaviy shariat peshvosi.
8. Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarining yaratilishi va tuzilishi.
9. Asarda ilgari surilgan ta'lim-tarbiya va axloq masalalari.
10. Asarda inson kamoloti to`g`risidagi fikrlar.
11. Asarda nafs tarbiyasi.
12. Asardagi pand-nasihatlar mazmuni.

ADABIYoTLAR:

3. O`zbek pedagogikasi antalogiyasi I-II tom. – T. (Tuzuvchilar Hoshimov, S. Ochil. O`qituvchi 1995-2000).
4. Hoshimov K, Nishonova S. va boshq. Pedagogika tarixi. – T. O`qituvchi 1996 yil

MUHAMMAD SODIQ QOSHG'ARIY (1740-1834)

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy haqida bizgacha juda oz ma'lumot etib kelgan. Lekin hozirgi paytda bizga ma'lum bo'lgan "Odob as-solihin" asarining o'ziyoq bizga uni mashhur pedagog olim sifatida tanitadi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy 1740 yilda Qoshg'arda kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan va 1843 yilda u shu erda vafot etgan. Biz olimning qay darajada tarbiyashunos ekanligini u tomonidan yaratilgan asarlarning mazmunidan bilamiz. Bizgacha uning "Odob as-solihin" ("YAxshi kishilar odobi"), "Zubdat al-masoyil" ("Masalalarning qaymog'i"), "Dur al-muzoxir" ("Ko'makdoshlarning durdonasi") hamda "Tazkirai xojagon" ("Xojalar tazkirasi") nomli asarlari etib kelgan.

SHarqning buyuk allomalari - YUsuf Xos Hojib, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad YAssaviy, Sa'diy SHeroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuksak ahloqiylikni shakllantirishga oid yirik asarlar, hikmatlar yaratganlar. SHu bilan birga hulq-odob tarbiyasiga oid "Axloqi Muhsiniy", "Axloqi Jaloliy", "Axloqi Nosiriy", "Qobusnoma" kabi asarlar yaratilgan.

O'zida shaxs va uning tarbiyasini yo'lga qo'yish masalalarini aks ettiruvchi asarlarni yaratish an'anasi mavjud bo'lgan davrda Muhammad Sodiq g'oshg'ariy tomonidan turkiy tilda "Odob as-solihin" ("YAxshi kishilar odobi"), "Zubdat as-masoyil" ("Masalalarning qaymog'i") nomli asarlar yaratildi. "Odob as-solihin" asari 5 marta, 1889 hamda 1901 yillarda Toshkent shahrida va 1891, 1892 hamda 1986 yillarda Istambul shahrida qayta nashr etilgan.

Mazkur asarning nomi va mazmunidan ham anglanib turganidek, unda

ilgari surilgan g’oyalar insonning hayoti davomida zarur ahamiyat kasb etuvchi hulq-odob qoidalari xususida kishilar, shu jumladan, yoshlarga muayyan darajada ma’lumotlar berishga xizmat qiladi. “Odob as-solihin” asarida ijtimoiy hayot hamda kundalik turmushda har bir inson tomonidan qat’iy amal qilinishi zarur bo’lgan zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) odob va ahloq qoidalari, ularning ijtimoiy ahamiyati, yoshlar tarbiyasini yo’lga qo’yishdagi o’rni va roli borasida batafsil so’z yuritiladi.

Muhammad Sodiq Qoshg’ariy tomonidan yaratilgan “Odob as-solihin” asari muallifning o’zi ta’kidlab o’tganidek, muqaddima va 7 bobdan iborat bo’lib, har bir bob o’zida 4 faslni aks ettiradi.

Muqaddimada asarning maqsadi ochib beriladi. Asarning yozilishidan ko’zda tutilgan maqsad borasida so’z yuritilar ekan, insonning ijobiy hulq-atvorga ega bo’lishini taqozo etuvchi ijtimoiy zaruriyat mohiyati batafsil ochib beriladi. Asarda ilgari surilgan asosiy g’oya – insonlarning ijobiy xulq-atvorga ega bo’lishlari jamiyatda ruhiy xotirjamlik va moddiy farovonlikni qaror toptiruvchi asosiy omil ekanligini asoslashdan iboratdir. Alloma mazkur g’oya mohiyatini sharhlar ekan, inson odob-axloq qoidalarini egallay olmasa hamda ijobiy hulq-atvori bilan muaddab (odobli) va muzazzab (toza) bo’lmasa, nafaqat o’zi, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi degan qarashni ilgari suradi. Ayi o’rinda quyidagi masnaviyni keltiradi:

Beadab tanho va xudro dosht bad,
Balki otash dar xama ofoq zar.
(Adabsiz nafaqat o’zi uchun yomonlik qiladi,
Balki butun dunyoga o’t qo’yadi).

SHunday ekan, har bir inson ichki hamda tashqi odob qoidalarining mohiyatini to’laqonli ravishda anglab, ularga qat’iy amal qilishi zarur. Inson odob-axloq qoidalarining mohiyatidan qanday yo’l va usullar orqali boxabar bo’lishi mumkin degan savolga javob berar ekan, alloma ular etuk mutafakkirlar tomonidan qimmatli, mo’’tabar kitoblarda jam etganligi, mazkur kitoblarning mazmuni bilan tanishish orqali odob-axloq qoidalari va ularga amal qilish shartlari xususida muayyan ma’lumotlarga ega bo’lish imkoniyati mavjudligini alohida ta’kidlab o’tadi. Asarda komil inson bo’lib etishishda kundalik hayot hamda amaliy turmushda o’ziga xos ahamiyat kasb etuvchi botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) odob-axloq qoidalari: salomlashish, ruxsat so’rash, muloqot, uxlash, yo’l yurish, mehmon kutish, ziyofat, ovqatlanish, shuningdek, er-xotin munosabatlarini yo’lga qo’yish odobi va ularga amal qilish shartlari borasida so’z yuritiladi. Suhbat ahlining o’zini tutishi, tozalik, ozodalik hamda safarga chiqish qoidalari ham asar mazmunining markaziy qismidan o’rin olgan.

Birinchi bob salomlashish, ko’rishish, qo’l olishish hamda ruxsat so’rash qoidalari to’g’risida ma’lumotlar berishga yo’naltirilgan bo’lib, mazkur bob to’rt fasldan tashkil topgan.

Ikkinchi faslda esa salomlashish odobining o’n ikki qoidasi borasida fikr yuritiladi. Mazkur o’rinda salom berish va alik olish masalasida bugungi kunga

qadar davom etib kelayotgan munozaraga nuqta qo’yilgan. Muallifning fikriga ko’ra, salom bermak sunnat, javobi farzu ayyondir. Muhammad Sodiq Qoshg’ariyning e’tirof etishicha, salom quyidagi holatlarda quyidagi kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiqdir: ulug’ kichikka, otliq piyodaga, yuruvchi o’ltirguvchiga, ozchilik ko’pchilikka, xonaga kirib keluvchi, xona ichkarisida o’tirgan kishilarga salom bergay”, deb ta’kidlar ekan, bir kishi ko’pchilik oldiga kirib kelganda, birinchi bo’lib salom berishi, ko’pchilik esa baravar ovoz chiqarmasdan salomga alik olishi joizligiga alohida e’tiborni qaratadi. Allomaning salomlashish odobi xususidagi fikrlari bilan tanishar ekanmiz, ta’lim muassasalarida muallim sinf xonasi yoki auditoriyaga kirib kelganda, “Kim oldin salom berishi kerak?”, degan muammoning echimini topgandek bo’lamiz.

Ikkinchi bobda uxlamoq, kiyim kiyish, yo’l yurish odoblari haqida fikr yuritiladi. Masalan, uxlash oldidan eshiklarni mahkamlab yopish, idishlarning og’zini berkitish, o’rnidagi ko’rpa-to’shaklarni bir bora qoqib yozish, o’choqdagi olovni hamda chiroqni o’chirish, uxlaydigan o’rnini yumshoq qilmaslik, o’ng qo’lga bir oz suyanib yotish tavsiya etiladiki, ushbu qoidalarning ahamiyati ularga rioya qilmaslik natijasida ro’y bergan noxush voqealar misolida ochib beriladi.

Libos kiyish qoidalari ham xulq-odob me’yorlarining tarkibiy qismi sanaladi. Bizga yaxshi ma’lumki, libos kiyish borasida ham ma’lum mezonlar qabul qilingan bo’lib, ularga amal qilish kishini noqulay vaziyatga tushib qolishdan saqlaydi. Muhammad Sodiq g’oshg’ariy ushbu bobda libos kiyish qoidalari va ularga amal qilish shartlari yuzasidan mulohazalarni ilgari suradi. Bu borada muallif kishilar tomonidan amal qilinishi o’ta muhim sanalgan mezonlar quyidagilar ekanligiga alohida urg’u beradi: libos tanlashda kishining imkon darajasi, moddiy holati, mavqei, nasl-nasabi, yoshi, jinsi, shuningdek, joyi (geografik mintaqa, shahar yoki qishloq, faoliyat turi va hokazolar) inobatga olinishi lozim. Tanlangan libosning qulayligi, faslga mos bo’lishi ham maqsadga muvofiqdir. Libosni toza tutish, o’ta darajada hashamdor bo’lgan liboslarni kiymaslik, yaxshi libos kiyganda manmanlik qilmaslik, kiymaydigan ortiqcha liboslarni muhtojlarga in’om qilish xususida berilgan tavsiyalar bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan.

Yo’l yurish qoidalari ham har bir inson bilishi zarur bo’lgan qoidalardan biri bo’lib, muallif mazkur masalaga ham o’z e’tiborini qaratadi. Muhammad Sodiq Qoshg’ariyning tavsiyalariga ko’ra, yo’l yurganda atrofga alanglamaslik, jamoat joylarida esa boshqalarga xalal bermaslik, ularning hurmatini saqlash, hamrohlar ishtirokida yo’l yurilayotgan bo’lsa, ularning yoshi, mavqei, salomatlik darajasini inobatga olish, yo’lda tanish kishi uchrab qolsa, u bilan salomlashib, tez o’tib ketish, agar zarur bo’lsa, yo’l chetiga chiqib so’zlashish, yo’lda og’iz suvi yoki balg’amni tupursa yuzini berkitish, uni o’ng tomonga yoki oldiga emas, chap tomoniga yoki orqaga tashlash, muhtojlarga duch kelib qolinsa, ularga yordam berish, kishilarga aziyat etkazadigan narsalarni yo’ldan olib tashlash, mazlumlarning g’am-anduhlariga sherik bo’lib, ularga yordam

ko’rsatish, kishilarning yaxshi amallarini ma’qullab, ularni yomon ishlardan qaytarish maqsadga muvofiq ekanligi bayon etiladiki, ushbu qoidalarni bilish katta-yu kichikka birdek zarurdir.

Uchinchi bobda suhbatlashish odobi borasida so’z yuritiladi. Bizga yaxshi ma’lumki, suhbatlashish odobi va uning shartlariga amal qilish ijtimoiy munosabatlarning mo’’tadil kechishini ta’minlovchi asosiy va o’ta muhim omillardan biri bo’lib, aksariyat mualliflar tomonidan yaratilgan hamda axloq-odob muammolariga bag’ishlangan asarlar mazmunidan alohida o’rin olgan. «Odob as-solihin» asarida ham muallif suhbatlashish odobi va uning o’ziga xos jihatlari borasida batafsil so’z yuritadi.

Muhammad Sodiq Qoshg’ariy “Odob as-solihin” asarida, kasal holini so’rash, ta’ziya va musibat odoblari haqida ham fikr yuritadi. Ushbu holatlarda amal qilinadigan qoidalar mohiyatidan xabardor bo’lish ham har bir kishi uchun foydadan holi bo’lmaydi.

Bemor holini so’rash qarindosh-urug’, qo’ni-qo’shni, yoru birodar, shuningdek, do’st uchun farz ekanligi, bemorning millati va diniy e’tiqodidan qat’iy nazar, uning yoniga ochiq yuz bilan kirish, unga ko’nglini ko’taruvchi so’zlar bilan murojaat qilish, bemor oldiga bashang kiyinib yoki kir libosda bormaslik, bemor yotgan xonaga kulib kirib, uning bosh tomoniga yaqin o’tirish, ko’p so’zlanishib bemorni toliqtirib qo’ymaslik, qo’lni peshonasiga qo’yib hol so’rash, bemorni kun yoki kunora kelib toliqtirib qo’ymaslik, bemorning ko’ngli tilaydigan narsalarni so’rab-surishtirib, ularni topib kelish, ammo bemorning muolajasida uni harom narsalardan saqlash, bemor oldida ko’p o’tirmaslik, agar bemor oldida uzoq vaqt qolish zaruriyati yuzaga kelsa, uning ko’ngliga yoqadigan, xush keladigan so’zlar yoki hikoyatlardan so’zlab o’tirish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg’u beradi.

O’z navbatida bemorning kasalidan nolishi mumkin emasligi, og’ir dardga chalinganda o’ziga o’lim tilamasdan umr tilashi, dardi og’irlasha boshlaganini sezganda gunohlaridan tavba qilib, o’zgalar hamda qarindosh-urug’, qo’ni-qo’shni, yoru birodar hamda farzandlar oldidagi qarzlarini ado etib, farzandlari, qarindosh-urug’i va do’stlaridan rozi-rizolik so’rashi, vasiyat qilish, shuningdek, ularga sabr-qanoat tilashi eng muhim qoidalar ekanligi ta’kidlanadi.

Asarda musibat odoblari xususida ham bir qator fikrlar bayon etilganki, ushbu qoidalardan xabardor bo’lish, kishilar, shu jumladan, yoshlar uchun ham zarurdir.

Biron mo’minning vafoti haqidagi xabarni eshitilganda boshiga musibat tushgan kishilarga ta’ziya izhor etiladi. Ushbu tadbir dafn marosimidan oldin yoki keyin amalga oshirilishi mumkin. Ta’ziya bildirish uch kungacha joiz, undan so’ng makruh deyiladi. Tobutni olib chiqib ketayotganlar sukut saqlashlari lozimligi, ayollar tobut ko’targan erkaklarga hamroh bo’lib, eshikka chiqmasliklari, boshiga musibat tushgan kishilar yig’ilganlarida ovozni baland qilib, fig’on chekmasliklari, mayit dafn etilgach, har kim o’z ishiga ketishi, bir erda yig’ilib o’tirmasliklari kerakligi, yig’ilish uyushtirish uchun turli tadbirlarni

izlab topish va ularni o’tkazish bid’at ekanligi, biroq qo’ni-qo’shni, qarindosh-urug’, yoru do’stlarning turli taomlarni tayyorlab, boshiga musibat tushgan kishilarning xonadonlariga yuborish odamgarchilikning muhim ko’rinishlaridan biri ekanligi ta’kidlab o’tiladi.

Asarda qabr ustiga pishiq g’isht va tosh hamda boshqa narsalarni qo’yish,

Ettinchi bobda safar qoidalari va ularning mohiyati yoritib beriladi. Allomaning fikriga ko’ra, safarga chiqishdan ko’zlangan maqsad quyidagi uch ko’rinishda ifodalanadi: farz, fazilat, muboh (ruxsat etiladigan). Ayni o’rinda safar farzining o’zi quyidagi besh ko’rinishni namoyon etadi: jihod, haj, ota va onaning chaqirig’iga muvofiq, raddi mazolim (zulmni qaytarish) hamda ilm olish maqsadida uyushtirilgan safar.

YUqoridagilardan ko’rinib turibdiki, Muhammad Sodiq Qoshg’ariy tomonidan yaratilgan “Odob as-solihin” asari jamiyat a’zolari, shu jumladan, yoshlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol bo’lishlarida katta ahamiyatga ega. Mazkur asar har bir inson tomonidan o’rganilishi va kundalik turmushda qat’iy amal qilinishi zarur bo’lgan hulq-odob qoidalarining majmui sanaladi. SHu bois SHarq pedagogikasi tarixida mazkur asar ham Unsurul-Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asari kabi o’z o’rni va mavqeiga ega.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. XVII—XVIII asrlarda va XIX asrning birinchi yarmida Movarounnahrda qanday ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar yuz berdi?

2. Xonliklar davridagi ilm-fan, ta’lim-tarbiyadagi o’zgarishlar haqida gapiring.

3. Mazkur davrda ayollar maktabida ta’lim tizimi va mazmuni haqida so’zlab bering.

4. Jahon otin Uvaysiyning qizlar maktabida ta’lim mazmuni qanday bo’lgan?

5. Muhammad Sodiq Qoshg’ariyning “Odob as-solihin” asarining mazmunini so’zlab bering.

6. “Odob as-solihin” asaridan o’zingiz uchun qanday saboq oldingiz (kichik insho yozing)

MUHAMMAD SODIQ QOSHG’ARIY (1740-1834)

Muhammad Sodiq Qoshg’ariy haqida bizgacha juda oz ma’lumot etib kelgan. Lekin hozirgi paytda bizga ma’lum bo’lgan “Odob as-solihin” asarining o’ziyoq bizga uni mashhur pedagog olim sifatida tanitadi.

Muhammad Sodiq Qoshg’ariy 1740 yilda Qoshg’arda kambag’al dehqon oilasida tug’ilgan va 1843 yilda u shu erda vafot etgan. Biz olimning qay darajada tarbiyashunos ekanligini u tomonidan yaratilgan asarlarning mazmunidan bilamiz. Bizgacha uning “Odob as-solihin” (“YAxshi kishilar odobi”), “Zubdat al-masoyil” (“Masalalarning qaymog’i”), “Dur al-muzoxir” (“Ko’makdoshlarning durdonasi”) hamda “Tazkirai xojagon” (“Xojalar tazkirasi”) nomli asarlari etib kelgan.

SHarqning buyuk allomalari - YUsuf Xos Hojib, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad YAssaviy, Sa'diy SHeroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuksak ahloqiylikni shakllantirishga oid yirik asarlar, hikmatlar yaratganlar. SHu bilan birga hulq-odob tarbiyasiga oid "Axloqi Muhsiniy", "Axloqi Jaloliy", "Axloqi Nosiriy", "Qobusnoma" kabi asarlar yaratilgan.

O'zida shaxs va uning tarbiyasini yo'lga qo'yish masalalarini aks ettiruvchi asarlarni yaratish an'anasi mavjud bo'lgan davrda Muhammad Sodiq g'oshg'ariy tomonidan turkiy tilda "Odob as-solihin" ("YAxshi kishilar odobi"), "Zubdat as-masoyil" ("Masalalarning qaymog'i") nomli asarlar yaratildi. "Odob as-solihin" asari 5 marta, 1889 hamda 1901 yillarda Toshkent shahrida va 1891, 1892 hamda 1986 yillarda Istambul shahrida qayta nashr etilgan.

Mazkur asarning nomi va mazmunidan ham anglanib turganidek, unda ilgari surilgan g'oyalar insonning hayoti davomida zarur ahamiyat kasb etuvchi hulq-odob qoidalari xususida kishilar, shu jumladan, yoshlarga muayyan darajada ma'lumotlar berishga xizmat qiladi. "Odob as-solihin" asarida ijtimoiy hayot hamda kundalik turmushda har bir inson tomonidan qat'iy amal qilinishi zarur bo'lgan zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) odob va ahloq qoidalari, ularning ijtimoiy ahamiyati, yoshlar tarbiyasini yo'lga qo'yishdagi o'rni va roli borasida batafsil so'z yuritiladi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan "Odob as-solihin" asari muallifning o'zi ta'kidlab o'tganidek, muqaddima va 7 bobdan iborat bo'lib, har bir bob o'zida 4 faslni aks ettiradi.

Muqaddimada asarning maqsadi ochib beriladi. Asarning yozilishidan ko'zda tutilgan maqsad borasida so'z yuritilar ekan, insonning ijobiy hulq-atvorga ega bo'lishini taqozo etuvchi ijtimoiy zaruriyat mohiyati batafsil ochib beriladi. Asarda ilgari surilgan asosiy g'oya – insonlarning ijobiy xulq-atvorga ega bo'lishlari jamiyatda ruhiy xotirjamlik va moddiy farovonlikni qaror toptiruvchi asosiy omil ekanligini asoslashdan iboratdir. Alloma mazkur g'oya mohiyatini sharhlar ekan, inson odob-axloq qoidalarini egallay olmasa hamda ijobiy hulq-atvori bilan muaddab (odobli) va muzazzab (toza) bo'lmasa, nafaqat o'zi, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi degan qarashni ilgari suradi. Ayi o'rinda quyidagi masnaviyni keltiradi:

Beadab tanho va xudro dosht bad,
Balki otash dar xama ofoq zar.
(Adabsiz nafaqat o'zi uchun yomonlik qiladi,
Balki butun dunyoga o't qo'yadi).

SHunday ekan, har bir inson ichki hamda tashqi odob qoidalarining mohiyatini to'laqonli ravishda anglab, ularga qat'iy amal qilishi zarur. Inson odob-axloq qoidalarining mohiyatidan qanday yo'l va usullar orqali boxabar bo'lishi mumkin degan savolga javob berar ekan, alloma ular etuk mutafakkirlar tomonidan qimmatli, mo''tabar kitoblarda jam etganligi, mazkur kitoblarning mazmuni bilan tanishish orqali odob-axloq qoidalari va ularga amal qilish shartlari xususida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati mavjudligini alohida ta'kidlab o'tadi. Asarda komil inson bo'lib etishishda kundalik hayot hamda amaliy turmushda o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) odob-axloq qoidalari: salomlashish, ruxsat so'rash, muloqot, uxlash, yo'l yurish, mehmon kutish, ziyofat, ovqatlanish, shuningdek, er-xotin munosabatlarini yo'lga qo'yish odobi va ularga amal qilish shartlari borasida so'z yuritiladi. Suhbat ahlining o'zini tutishi, tozalik, ozodalik hamda safarga chiqish qoidalari ham asar mazmunining markaziy qismidan o'rin olgan.

Birinchi bob salomlashish, ko'rishish, qo'l olishish hamda ruxsat so'rash qoidalari to'g'risida ma'lumotlar berishga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur bob to'rt fasldan tashkil topgan.

Ma'lumki, SHarq xalqlari tomonidan tan olingan axloqiy qoidalarga ko'ra biror kimsa o'zgalar xonadoniga tashrif buyursa, eshikdan xonadon sohiblarining ruxsatsiz kirib

boravermay, ma’lum qoidalarga rioya qilishi shart. Ana shu qoidalarning eng muhimlari deb, Muhammad Sodiq g’oshg’ariy tashrif buyuruvchi kimsa o’zining kelganligidan xonadon sohiblarini ogoh etishi (eshikni qoqishi yoki yo’talishi), ushbu choraga nisbatan ichkaridan javob berilgach kirishga ruxsat so’rashi, so’ngra ichkariga kirishi kerakligi lozimligini bayon etadi.

Ikkinchi faslda esa salomlashish odobining o’n ikki qoidasi borasida fikr yuritiladi. Mazkur o’rinda salom berish va alik olish masalasida bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan munozaraga nuqta qo’yilgan. Muallifning fikriga ko’ra, salom bermak sunnat, javobi farzu ayyondir. Muhammad Sodiq Qoshg’ariyning e’tirof etishicha, salom quyidagi holatlarda quyidagi kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiqdir: ulug’ kichikka, otliq piyodaga, yuruvchi o’ltirguvchiga, ozchilik ko’pchilikka, xonaga kirib keluvchi, xona ichkarisida o’tirgan kishilarga salom bergay”, deb ta’kidlar ekan, bir kishi ko’pchilik oldiga kirib kelganda, birinchi bo’lib salom berishi, ko’pchilik esa baravar ovoz chiqarmasdan salomga alik olishi joizligiga alohida e’tiborni qaratadi. Allomaning salomlashish odobi xususidagi fikrlari bilan tanishar ekanmiz, ta’lim muassasalarida muallim sinf xonasi yoki auditoriyaga kirib kelganda, “Kim oldin salom berishi kerak?”, degan muammoning echimini topgandek bo’lamiz.

Strategiyani qo’ўllash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- doskaga taopshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi;
- talabalarga o’zlashtirilayotgan mavzu yuzasidan topshiriq beriladi;
- talabalar tomonidan bildirilgan fikrlar umumlashtirilib, doskada aks etgan diagramma to’ldiriladi.



Talabalarning har bir aytgan fikri doskaga yozib boriladi va barcha talabalar o’z fikrlarini bayon etib bo’lgach, o’qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

JADIDLAR:

- ma'rifatparvarlar;
- xalqqa ziyo taratuvchilar;
- xalq savodxonligini oshirish jonkuyarlari;
- yangilik tarqatuvchilar;
- zamonaviy shaxs tarbiyalovchilar;
- yangi adabiyot va darsliklar yaratuvchilari va ?.k.

1-ilova. O`tilgan darsni takrorlash.

O`tilgan darsni takrorlash uchun savollar:

- Kaykovus bir kecha-kunduzni qanday taqsim etadi?
- Inson salomatligida to’g’ri va oqilona ovqatlanish qanday ahamiyatga ega?
- Kaykovus «Qobusnoma» asarida jismoniy tarbiyaga qanday ahamiyat bergan?
- «G’aliz ta’b va yalqov kishi hech vaqt oshiq bo’lmas», — deb haqiqiy oshiqqa xos his-tuyg’ularni ifodalaydi?
- Kaykovus, avvalo, inson do’stsiz bo’lgandan ko’ra, birodarsiz bo’lgani durustdir, deydi, nima uchun?

2-ilova.Mavzuning tayanch so`zlari.

Tayanch so`zlar:

Tayanch so`zlar: Saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo’’tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat’iyatlilik, sadoqat, initilish, uyatchanlik.

3-ilova. Mavzuni o`zlashtirishda foydalaniladigan adabiyotlar.

Mavzuni o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar

1.Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: «Movarounnahr», 2002, 720 bet.
2. Abdullaeva SH. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.
3. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O'qituvchi», 1997, 272 bet.
4. Zunnunov A. va boshq. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: «Fan», 1996, 350 bet.
5. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet.
6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993.

«6x6x6» texnologiyasini olib borish tartibi:

- Guruh talabalari 6 kishidan iborat 6 guruhga ajratiladi;
- O`qituvchi tomonidan o`rtaga tashlangan 6 ta muammoni muhokama qiladilar; Bu savollar quyidagilar: 1. Abu Nasr Farobiy o'rta asr ma'rifatparvari, yirik olim. 2. Abu Nasr Al Farobiy qalamiga mansur asarlari 160 dan ortiqdir. 3. Farobiy avvalambor mashhur faylasuf. 4. SHarqda «SHayx ar-Rais» nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan. biri, o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino. 5. Ibn Sino o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari. 6. Abu Ali ibn Sinoning axloq-odobga oid qarashlari
- O`qituvchi 6 ta yangi guruhni shunday tuzadiki, unda oldingi munozara guruhida qatnashgan talabalardan birortasi albatta bo`ladi;
- Yangi guruh qatnashchilari o`z guruhlarining ish natijalarini muhokama qiladilar;
- Har bir guruhdan bir talaba o`z guruhining savolini yoritib beradi.

1-shakl. «6x6x6» texnologiyasining o`tkazilish tartibi.

Yozma mashq

Ibn Sino bilim olishga, bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalashga katta ahamiyat berib, «Tadbir ul manozil» asarining maxsus bo'limini shu masalaga bag'ishlaydi. U ta'limda nimalarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi

Masalan:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda engildan og'irga borish orqali bilim berish;

1-ilova. O`tilgan mavzuni takrorlash**.**

O`tilgan darsni takrorlash uchun savollar:

- Abu Nasr Farobiy o'rta asr ma'rifatparvari, yirik olim.
- Abu Nasr Al Farobiy qalamiga mansur asarlari 160 dan ortiqdir.
- Farobiy avvalambor mashhur faylasuf.
- SHarqda «SHayx ar-Rais» nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan. biri, o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino.
- Ibn Sino o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
- Abu Ali ibn Sinoning axloq-odobga oid qarashlari

2-ilova. Mavzuning tayanch so`zlari.

Tayanch so`zlar:

Sinf-dars tizimi, o'qish, o'qitish, o'qitish mazmuni, o'qitish qoidalari, ta'lim, tarbiya, odob, axloq, pedagogik fikrlar, maktab, tabiat, onalar maktabi, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, diniy tarbiya, o'qituvchi, o'quvchi.

3-ilova. Mavzuni o`rganishda yordam beruvchi adabiyotlar.

Mavzuni o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 174 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1999. – 184 b
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyoti yo'li. – T.: O'zbekiston 1992 yil.
4. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996, 146 bet
5. Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O'qituvchi», 1993, 204 bet.
6. Abdullaeva SH. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.

«Tushunchalar tahlili» texnologiyasini olib borish tartibi:

- talabalar guruhlarga ajratiladi;

-talabalar mashg`ulotni o`tkazishga qo`yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;

-tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi; Bu tarqatma materiallar quyidagicha bo`lishi mumkin:

- Dastlabki yangi usul maktabi Turkistonning qaysi shaxrida ochilgan edi?
- Jadid maktabi Buxorodan keyin ikkinchi bulib qaysi shaharda ochilgan edi?
- X!X asrning oxirida jadidlar qaysi shaxarlarda uz gazetalarini chiqara boshladi?
- Turkiston xalq universitetida dastlabki ma'ruzalarni kim o'qigan?.
- Toshkentning eski shahri qismida musulmon aholi uchun ochilgan "xalq dorilfununi"sanasini ko'rsating.

-talabalar yakka tartibda yangi mavzu bo`yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar; -talabalar tarqatma materialda mavzu bo`yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo`lsa, shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);

-o`qituvchi tarqatma materialda mavzu bo`yicha berilgan tushunchalarni o`qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to`g`ri izohni belgilaydi;

-har bir talaba to`g`ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo`ladilar, o`z-o`zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek, bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

1-shakl. «Tushunchalar tahlili» texnologiyasi asosida talabalarning ma'rifatparvar jadidlarning pedagogiк qarashlari haqidagi bilimini sinash va baholash.

Yozma mashq

Jadid, ma'rifatparvar, Tarbiyat so`zlar ishtirok etgan beshta gap yozing. Ularni quyida berilgan otning grammatik tahlili tartibi bo`yicha tahlil qiling.

Tahlil tartibi.

Rus muxojirlari Turkiston general-gubernatorining farmoniga binoan kanday maqsadda maorif islohotini o'tkazgan edilar?

Dastlabki yangi usul maktabi Turkistonning qaysi shaxrida ochilgan edi?

Jadid maktabi Buxorodan keyin ikkinchi bulib qaysi shaharda ochilgan edi?

Turkiston xalq universitetida dastlabki ma'ruzalarni kim o'qigan?.

1918 yilning yozida "Musulmon o'qituvchilari uchun" qaerda pedagogik kurslar ochilgan?

Toshkentning eski shahri qismida musulmon aholi uchun ochilgan "xalq dorilfununi"sanasini ko'rsating.

«6x6x6» texnologiyasini olib borish tartibi:

- Guruh talabalari 6 kishidan iborat 6 guruhga ajratiladi;
- ***O`qituvchi tomonidan o`rtaga tashlangan 6 ta muammoni muhokama qiladilar; Bu savollar quyidagilar: 1. Fe'l zamonlari; 2.Fe'l mayllari; 3.Fe'l nisbatlari; 4.Shaxs-son shakllari; 5.Fe'lning modal shakllari; 6. Fe'lning grammatik xususiyatlari.***
- O`qituvchi 6 ta yangi guruhni shunday tuzadiki, unda oldingi munozara guruhida qatnashgan talabalardan birortasi albatta bo`ladi;
- Yangi guruh qatnashchilari o`z guruhlarining ish natijalarini muhokama qiladilar;
- Har bir guruhdan bir talaba o`z guruhining savolini yoritib beradi.

1-shakl. «6x6x6» texnologiyasi asosida talabalar bilimini sinash.

Yozma mashq

Berilgan so`zlarga qavs ichidagi qo`shimchalardan mosini qo`shib, fe'lning orttirma nisbatini yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Tort (-tir, -dir) moq, o`s (-tir, -dir) moq, kes (-tir, -dir) moq, tuz (-tir, -dir) moq, tuz (-tir, -dir) moq, un (-tir, -dir) moq, ilin (-tir, -dir) moq, il (-tir, -dir) moq, tiril (-tir, -dir) moq, qut (-kaz, -qaz) moq, yur (-giz, -g`iz) moq.

2-shakl. Yozma mashq.

Fe'lning nisbat, zamon, mayl, shaxs-son shakllari haqida talabalarda ilgari qanday bilim bor edi, mavzu o`tilgangach, bu bilimlarga yana qanday bilimlar qo`shildi. Mana shuni aniqlash maqsadida «BBB jadvali» to`ldiriladi.

«Bumerang» texnologiyasini olib borish tartibi:

- talabalar kichik guruhlarga ajratiladi;
- talabalar darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- talabalarga mustaqil o`rganish uchun matnlar tarqatiladi; Tarqatma materiallar: ***1-guruhga: Otdan fe'l yasovchi qo`shimchalar; 2-guruhga:Otdan boshqa so`z turkumlardan fe'l yasovchi qo`shimchalar; 3-guruhga: Qo`shma fe'llarning yasalishi; 4-guruhga: Juft va takroriy fe'llarning yasalishi.***
- berilgan matnlar talabalar tomonidan yakka tartibda mustaqil o`rganiladi;
- har bir guruh a'zolaridan yangi guruh tashkil etiladi;
- yangi guruh a'zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o`rgangan matnlari bilan axborot almashadilar, ya'ni bir-birlariga so`zlab beradilar, matnni o`zlashtirib olishlariga erishadilar;
- berilgan ma'lumotlarni o`zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o`tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;
- yangi guruh a'zolari dastlabki holatdagi guruhlarga qaytadilar;
- darsning qolgan jarayonida talabalar bilimlarini baholash yoki to`plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruh «guruh hisobchisi» tayinlanadi;
- talabalar tomonidan barcha matnlar qay darajada o`zlashtirilganligini aniqlash uchun o`qituvchi talabalarga savollar bilan murojaat qiladi;
- savollarga berilgan javoblar asosida guruhlarning to`plagan umumiy ballari aniqlanadi;
- har bir guruh a'zosi tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi («guruh hisobchilari» berilgan javoblar bo`yicha ballarni hisoblab boradilar);
- guruh a'zolari tomonidan to`plangan umumiy ballar yig`indisi aniqlanadi;
- guruhlar to`plagan umumiy ballar guruh a'zolari o`rtasida teng taqsimlanadi.

1-shakl. «Bumerang» texnologiyasi asosida talabalar bilimini sinash va baholash.

Fe'l ishtirok etgan beshta gap yozing. Ularni quyida berilgan fe'lning grammatik tahlili tartibi bo`yicha tahlil qiling.

Fe'llarni tahlil qilish tartibi:

1. So`rog`i.
2. Bo`lishli yoki bo`lishsizligi.
3. O`timli yoki o`timsizligi.
4. Nisbati.
5. Shaxs-soni.
6. Zamon turi.
7. Mayl turi.
8. To`liq yoki to`liqsizligi.
9. Yetakchi, ko`makchi fe’llar aniqlanadi.
10. Vazifadosh (xoslangan) shakllari.
11. Tuzilish turi.
12. Tub yoki yasamaligi.
13. Gapdagi sintaktik vazifasi.

2.2.8. MALAKAVIY (PEDAGOGOK) AMALYoTINI O'TKAZISh BO'YIChA METODIK TAVSIYaNOMA.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti

Kushvaktov N.X., Shomuratov E.B., Alibekov D., Farmonov O'

PEDAGOGIK-AMALIYoTNI TAShKIL ETISh TO'G'RISIDA USLUBIY TAVSIYANOMA

A.Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti 2010 yil ___ dekabr № - sonli bayonnoma bilan ilmiy Kengash tomonidan uslubiy tavsiyanoma sifatida nashrga tavsiya etgan.

Taqrizchilar: Dos. Payzimurodov X.K.

Dos. To'rayev Q.

Pedagogika oliygohlarida talabalarni yetuk, bozor iqtisodiyotiga dosh bera oladigan, raqobatdosh, bilimli, tashkilotchi, izlanuvchan, intiluvchan, ijodkor qilib tarbiyalash hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

Shuning uchun ham ushbu tavsiyanomada pedagogik amaliyotni o'tayotgan barcha yo'nalish talabalarining amaliyot davomida bajaradigan vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Darslarni pedagogik jihatdan tahlil qilish, maktabda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, oila va jamoadagi o'zaro munosabatlarni o'rganish, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va rivojlantirish, mehnat orqali o'quvchilarni tarbiyalash hamda ularning shaxs yo'nalishi va qobiliyatlarini aniqlash, amaliyot yakunida o'quvchiga va sinfga tavsifnoma berish yo'l-yo'riqlari ko'rsatilgan.

Ushbu uslubiy tavsiyanoma «Pedagogika» kafedrasining 2010 yil 20 noyabrdagi №5 sonli yig'ilishida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Talabaning pedagogik amaliyot faoliyati jarayonida pedagogikadan topshiriqlarni olganligi to’g’risidagi ma’lumoti

Institut ishlab chiqarish
va pedagogik amaliyoti
bO’limi boshlig’i _____ **dos.E.Shomurodov**
imzo

Pedagogika kafedrasi mudiri _____ **dos.N.H.Kushvaktov**
imzo

Pedagogika kafedrasi
uslubchi o’qituvchisi _____
imzo *F.I.O.*

Talaba _____
Fakultet, kurs, guruh

_____
imzo *F.I.O.*

Amaliyot vaqti 200_ yil __-fevraldan __-maygacha

Buyruq №____ **«___»_____ «___» yil**

Amaliyot o’tash joyi _____

A.Qodiriy nomidagi JDPI «Pedagogika» fakulteti «Pedagogika» kafedrasi tomonidan ishlab chiqilgan barcha yO'nalishlarda pedagogik-amaliyotning tashkil etilishi tыg'risida

USLUBIY TAVSIYaNOMA

Har bir o'qituvchi o'ziga biriktirilgan fakul'tetlarda o'tkaziladigan uslubchi o'qituvchilar va talabalar ishtirokidagi pedagogik amaliyotga bag'ishlangan dastlabki tushuntirish, anjumanga qatnashish va bajaradigan quyidagi vazifalar haqida tushuncha berish.

I. Kundalik yuritish (fakul'tetdagi amaliyotga bag'ishlangan konfrensiyadan boshlab)
II. Dastlabki haftada maktabdagi ilg'or o'qituvchilar darslarida qatnashish, ularning darslarini kuzatish, o'rganish va kuzatilgan darslarni tahlil qilish.

Dars tahlili;

Sinf: _____

Fan:_____

Fan o'qituvchisi: _____

Mavzu:_____

_____

Sana _____

Dars shakli: _____

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad:_____

_____

_____

_____

b) tarbiyaviy maqsad:

_____

_____

_____

_____

v) rivojlantiruvchi maqsad:

_____

_____

Dars jihozi:

_____

_____

_____

Tashkiliy qism:

_____

_____

Darsning mazmuni:

_____

_____

Darsning yakuniy qismi:

_____

_____

_____

Darsning yutug’i:

_____

_____

_____

Darsning kamchiligi:

_____

_____

_____

Tavsiyalar:

_____

_____

Xulosa:

_____

Har bir talabaga o’ziga biriktirilgan sinfdagi ikki o’quvchi (yaxshi o’zlashtiruvchi va o’zlashtirishi past) ga va sinf jamoasiga pedagogik-psixologik tavsifnoma yozish.

O’quv fanlarini yaxshi o’zlashtiruvchi o’quvchiga beriladigan tavsifnoma:

O’quvchining F.I.O _____
Tug’ilgan yili_____ o’iydigan sinfi_____ umumiy jismoniy rivojlanishi _____
kasallik varaqasi _____
Oilaviy ahvoli_____
Oila a'zolarining o’zaro munosabatlari_____
_____
_____

Oilada ota-onasining farzand tarbiyasiga e'tibori _____

_____
Dam olish qanday tashkil etilgan_____

Bo’sh vaqtida nima bilan shuqullanadi _____

_____
Do’stlari bilan aloqasi
_____
_____
_____
_____
_____
O’quvchining faoliyatidan ota-onasi xabardormi?_____
_____
_____
_____
Sinf jamoasiga munosabati
_____
_____
Qaysi kasbni egallashga qiziqadi?_____
_____
_____
_____
Maktab jamoat ishlaridagi ishtiroki_____

_____
_____
_____
Sinf rahbari va o’qituvchilarga munosabati _____
_____
_____
_____
_____
O’zlashtirishi (turli fanlardan bir xilda o’zlashtiradimi?)
_____
_____
Qo’shimcha mash?ulotlarga qiziqishi_____
_____
_____
_____
_____
Maktabdagi mehnat ishlaridagi ishtiroki;_____
_____
_____
_____
_____
_____
U uyda qanday doimiy mehnat bilan shug’ullanadi ?_____
_____
_____
_____
Qaysi sohaga qiziqadi_____
_____
_____
O’quvchining kelajakdagi orzusi_____
_____
_____
Xulq-atvori_____
_____
Dars rejimiga amal qilishi_____
_____
_____
_____
_____
Jamoat ishlari va o’qituvchilar bergan topshiriqlariga ma'suliyati
_____

_____
_____
_____

Maktab rag’bariyatining o’quvchiga bo’lgan e'tibori_____
_____

O’quv fanlarini past o’zlashtiruvchi o’quvchiga beriladigan tavsifnoma:

O’quvchining F.I.O _____
tu?ilgan yili_____ o’qiydigan sinfi_____ umumiy jismoniy rivojlanishi _____
kasallik varaqasi _____ Oilaviy ahvoli_____
_____
Oila a'zolarining o’zaro munosabatlari_____
_____
_____
_____
_____
Oilada ota-onalar farzand tarbiyasiga e'tibori;
_____
_____
_____
Bo’sh vaqtida nima bilan shug’ullanadi _____
_____
_____
Bolaning dstlari bilan aloqasi_____
_____
Oilada o’zaro yordam uyushtiriladimi? Misollar_____
_____
_____
_____
O’quvchining faoliyatidan ota – onasi xabardormi?_____

Maktabga bo’lgan munosabati
_____
_____
_____
Sinf jamoasiga munosabati
_____
_____
Qaysi kasbni egallashga qiziqishi
_____
_____
_____

Maktab jamoat ishlaridagi ishtiroki

_____
_____
_____
_____

Sinf rahbari va o’qituvchilarga munosabati

_____

O’zlashtirishi (turli fanlardan bir xilda o’zlashtiradimi?)

_____
_____
_____

Qo’shimcha mashg’ulotlarga qiziqishi:

_____
_____
_____
_____

O’quv ishlaridagi tirishqoqligi

_____
_____

Maktab mehnat ishlaridagi ishtiroki

_____
_____
_____
_____

Mehnatdagi intizomi_____
_____
_____
_____
_____

Mehnatning qanday turlarini yoqtiradi?_____
_____
_____

Uyda bo’sh vaqtida qanday mehnat bilan shug’ullanadi?

_____
_____
_____

Qaysi sohaga qiziqadi

_____
_____
_____
_____

Uning hulq-atvorida biror salbiy fazilatlar kuzatilib turadimi? _____
_____
_____
_____
O’quvchining kelajakdagi orzusi _____
_____

Dars rejimiga amal qilish
_____
_____
_____
_____
Jamoat ishlari va o’qituvchilar bergan topshiriqlariga mas'uliyati
_____
_____
_____
Past o’zlashtirishning sabablari
_____

_____
_____
O’quvchidagi mujassamlashgan ijobiy va salbiy xususiyatlar
_____
_____
_____
_____
Maktab ma'muriyatining va sinf jamoasining o’quvchiga bo’lgan munosabati
_____
Sinf jamoasiga umumiy tavsifnoma

Sinf, guruh _____ o’quvchilar soni_____ nafar
Shu jumladan; o’g’il bolalar ____ nafar, qiz bolalar ___ nafar
Guruh sardori, F.I.O _____
Sinf rahbari, F.I.O. _____
Sinf faollari: _____
_____Sinf
o’quvchilarining o’zaro munosabatlari _____
_____

O’g’il bolalar bilan qiz bolalar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar _____
_____
_____
_____

_____
_____
Sinf rahbarining o’quvchilarga ta'siri (qiziqtira olishi, tashkilotchiligi, muomalasi)
_____
_____
sinf rahbarining o’quvchilar o’rtasidagi obro’si_____

_____
_____
sust o’zlashtiruvchi o’quvchilarning ustida o’rnatilgan nazorat
_____
o’quv ishlaridagi o’zaro yordam
_____
_____
Sinf o’quvchilarining qiziqishlari
_____
Sinf jamoasining maktab ishlaridagi ishtiroki
_____

Sinf jamoasida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar
_____
Sinf o’quvchilari orasida o’zaro kelishmovchiliklar kuzatilib turadimi?
_____
_____
sinf jamoasining maktab miqyosida tutgan o’rni
_____
_____
_____

VIII. Umumiy pedagogik xisobot

O’qituvchining pedagogik vazifalarini aniqlash, o’quvchilar bilan bundan keyingi tarbiyaviy ishlar olib borish yo’llari
_____
Talabalar sinov darslarini o’tkazilishini nazorat qilish va sinov darsida qatnashishi, ularni tahlil qilish va maslahatlar berish
_____
_____

Talabalarning sinf rahbarlari sifatida o’quvchilarning ota-onalari bilan o’tkazilgan muloqatlari natijalari_____
_____
Dars jarayonlarida pedagogik texnologiyalarning qo’llanilganligi

_____
_____
Ko’rgazmali qurollar tayyorlash va ulardan foydalanish yo’llarini o’rganish_____
_____
_____
Talabaning pedogagik amaliyot faoliyati jarayonida pedagogika-dan topshiriqlarni bajarganligi to’g’risidagi ma'lumoti va reyting bali _____ ball
Talaba _____
Fakultet, kurs, guruh

_____
imzo F.I.O.

Pedagogika kafedrasi
uslubchi o’qituvchi _____
imzo F.I.O.

Pedagogika kafedrasi mudiri _____ p.f.n. Kushvaktov N.X.
imzo

Institut ishlab chiqarish
va pedagogik amaliyotlari
bo’limi boshlig’i _____ dots.E.Shamurotov
imzo

Uslubiy tavsiyanoma pedagogika kafedrasida tayyorlandi.

Ro’yxat tartibi №_____

M.O’.
Fikr va mulohazalar

_____
_____
_____
_____

2.2.9. FAN BO’YIChA MA’NAVIY-MA’RIFIY IShLARI VA ULARNI TAShKIL ETISh BO’YIChA METODIK TAVSIYaNOMA.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni talabalarga singdirishga bag’ishlangan ijodiy kecha tashkil etish.

Mustaqillik pedagogikasining targ’ibotiga bag’ishlangan davra suhbatini o’tkazish.

Ta’lim sohasiga doir meyoriy huquqiy hujjatlarni o’rgatishga bag’ishlangan “Bu bizning burchimiz” mavzusida ustoz shogird kechasini tashkil qilish.

Milliy istiqlol g’oyasini targ’ibot qilishga bag’ishlangan zamonaviy pedagogika fanining yutuqlari mavzusida shu sohaning yetuk olimlari ishtirokida kechalar tashkil qilish.

Milliy tarbiya ma’naviyat o’chog’i mavzusida sahna ko’rinishlarini tashkillashtirish.

Milliy tarbiyani yanada takomillashtirishga bag’ishlangan davra suhbatida I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilma kuch” asaridan foydalanish.

Milliy istiqlol g’oyalarini targ’ib qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda saxna ko’rinishlarini tashkil qilish.